Amir Temurning xarbiy yurishlari. Eron va Kavkazorti ulkalarining zabt etilishi. Temurning Oltin Urdaga yurishi. Tuxtamishning tor-mor etilishi. Temurning Xindistonga yurishi. Amir Temurning Kichik Osiyoga yurishi. Usmoniylar sultoni Yildirim Boyazidning tor-mor kilinishi.

Amir Temur imperiyasining chegaralari. Amir Temur - buyuk davlat arbo-bi, mashxur sarkarda. Uning xarbiy va siyosiy faoliyati taxlili. "Kuch -adolatda" shiorining mazmuni-moxiyati. Amir Temurning O‘rta Osiyo va jaxon tarixida tutgan urni. Soxibkiron Amir Temur millatimiz gururi va faxri. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Amir Temurning O‘zbekiston tarixida tutgan urni to‘g‘risida.

Amir Temurning ma'naviy raxnamolari. Shamsiddin Kulol, Sayid Baraka, Zayniddin Tayobodiyning Temur faoliyatiga ta'siri. Davlat siyosatida islom dinining roli. Saltanatni boshqarish tizimi. Kushinning tuzilishi va xarbiy intizom. Solik siyosati. "Temur tuzuklari" - davlat boshqaruv ishidagi muxim manba sifatida. Mamlakatni boshqarishning suyurgol usuli.

Xujalik va madaniy hayot. Solik siyosati va majburiyatlar. Tijorat ishlari. Fan va madaniyatga xomiylik. Shaharlarning obod kilinishi. Samarkanddagi me'morchilik ishlari, bog va saylgoxlarning yaratilishi.

Amir Temur vafotidan keyin temuriy shaxzodalar o‘rtasida toju-taxt uchun ichki kurashlar. Markazlashgan davlatning parchalanishi. Shoxrux Mirzo xukmronligi davrida temuriylar saltanati.

Movarounnaxrda Mirzo Ulugbek xukmronligi. Ichki va tashki siyosat. Mirzo Ulugbek davrida madaniyat, ilm-fan va adabiyot ravnaki. Ulugbek akademiyasi. Kozizoda Rumiy, Giyosiddin Jamshid, Ali Kushchi. Miniatyura san'ati. Kamoliddin Bexzod. Tarixnavislik. Sharafiddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shomiy, Ibn Arabshox, Mirxond, Xondamir, Abdurazzok Samar-kandiy. Mustakillik yillarida Mirzo Ulugbek merosining o‘rganilishi. O‘zbek xalki ma'naviy merosida Ulugbekning tutgan urni.

Ulugbekka karshi bulgan muxolifat kuchlar. Temuriylar o‘rtasidagi ichki kurashlarning avj olishi. Mirzo Ulugbekning uldirilishi. Movarounnaxrda Abusaid va uning ugillari, Xurosonda Xusayn Boykaro xukmronligi. XVI asrning ikkinchi yarmida fan, adabiyot va madaniyat. Alisher Navoiyning siyosiy va adabiy faoliyati. Ma'naviy barkam ol shaxs tarbiyasida Navoiy ijodining ahamiyati. Adabiy muxit. Lutfiy, Sakkokiy, Jomiy. O‘zbek tilining takomillashuvi.

O‘zbekiston hududlarining xonliklarga bulinib ketishi, uning sabablari va oqibatlari

Tarixiy yozma manbalar. Muxammad Shayboniyxon yurishi. Boburning Shayboniyxon bilan tuknashuvi. Movarounnaxr va Xurosonning shayboniylar tomonidan bosib olinishi va shayboniylar sulolasi Movarounnaxrga xukmronligining urnatilishi.

Shayboniylar sulolasining boshqaruv tizimi. Mamlakatning sulton-lar va beklarga bulib berilishi. Amaldorlar va beklar mavkeining kuchayishi, markaziy davlat xokimiyatining zaiflashuvi. Dastlabki Shayboniylar davrida madaniy hayot.

Buxoro xonligining tashkil topishi. Abdullaxon II. Uning mamlakatni markazlashtirishga kursatilgan harakatlari Obodonlashtirish, madrasa, machit, yangi imoratlar, sugorish inshootlarini qurish ishlari.

Buxoro xonligida ashtarxoniylar (joniylar) sulolasi xukmronligining urnatilishi. Buxoro xonligining ijtimoiy-siyosiy va iktisodiy axvoli. Solik siyosati. Xunarmandchilik. Ichki va tashki savdo. Pul muomalasi. Tash-ki alokalarning asosiy yunalishlari. Mamlakatda ichki kurash, tarkoklikning kuchayishi va uning asosiy sabablari.

Madaniy hayot rivojlanishining uziga xos xususiyatlari. Buxoro xonligida xokimiyatning mangit amirlari kuliga utishi. Mangitlar davrida Buxoro amirligining ijtimoiy va davlat tuzumi.

O’zbekiston Respublikasi hamdo’stlik doirasida ikki tomonlama tashqi siyosiy, savdo, iqtisodiy va boshqa shartnoma hamda kelishuvlarni Rossiya, Ukraina, Belarus, Moldova, MDH ning boshqa mamlakatlari bilan shartnoma imzolab o’zaro manfaatli hamdo’stlik aloqalari uchun mustahkam asos yaratdi.

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti V.V.Putinning 1999 yil dekabr va 2000 yil may oyidagi O’zbekistonga qilgan tashriflari Rossiya va O’zbekistonning o’zaro iqtisodiy va madaniy aloqalarini mustahkamlashda ikki davlatning diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmga qarshi kurashida alohida o’rin tutadi.

1992 yil mayda MDH davlat rahbarlarining Toshkent uchrashuvida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov tashabbusi bilan kollektiv xavfsizlik to’g’risida shartnoma imzolandi.

Hamdo’stlikka a’zo bo’lgan davlatlarga milliy mudofaani kafolatlashga, ilmiy texnika taraqqiyoti yutug’lari va aloqa vositalari, yangi texnologiyaga erishish, xorijiy davlatlardan mahsulot tashish, zarur xom-ashyo va tayyor mahsulotlarni keltirish hamda o’z mahsulotini jahon bozoriga olib chiqish, ekologiya sohasida tadbirlarni birgalikda o’tkazish, tabiiy ofatlar oqibatini tugatish uchun imkoniyatlar yaratildi.

MDH davlatlari orasidagi munosabatlar tizimi va yo’nali-shining tubdan o’zgarishida bu davlatlarning ko’pchiligida savdo to’lov sohasida manfaatdorlikka ega. SHu bilan birga shuni alohida ta’kidlab aytish zarurki, sobiq Ittifoqni qayta qurishga urinish, ma’muriy buyruqbozlik boshqaruv tuzumiga qaytish O’zbekiston uchun umuman to’g’ri kelmaydigan harakatdir.

O’rta Osiyo Respublikalari rahbarlari A.Akayev, N.Nazarboyev. I.Rahmonov 2000 yil 20-21 aprel kunlari Toshkentdagi Prezidentning Do’rmon qarorgohida bo’lib o’tgan uchrashuvda I.A.Karimovning xalqaro terrorizmga qarshi kurash Xalqaro markazi tuzish haqidagi tashabbusini qo’llab-quvvatladilar. To’rt davlat rahbarlari mintaqada xalqaro terrorizm, siyosiy va diniy ekstremizm va boshqa tahdidlarga qarshi birgalikda harakat olib borish haqidagi hujjatni imzoladilar.

Uchrashuvda Qozog’iston va O’zbekiston prezidentlari chegaralar masalasida ikkala davlat orasida erkin harakatlanish to’g’risida, yo’lovchi va yuk tashish transportlarni kengaytirish to’g’risida kelishib olishdi.

O’zbekiston tashqi siyosatining muhim yo’nalishlaridan biri Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlar-Qozog’iston, Qirg’iziston, Tojikiston, Turkmaniston bilan hamkorlik, qardoshlarcha do’stlik aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan. Qardosh xalqlarning tarixi, madaniyati, urf-odatlari, an’analari, turmush tarzi va boshqa ko’pgina tomonlari bir-biri bilan chambarchas bog’liq. Bugungi kunda ham bu davlatlarning siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalari, ekologik muammolari o’zaro aloqalarni kuchaytirishni talab qiladi. SHularni hisobga olib 1994 yil 10 yanvarda O’zbekiston Respublikasi bilan Qozog’iston Respublikasi o’rtasida tovarlar, xizmatlar, sarmoyalar va ishchi kuchlarining erkin o’tib turishini nazarda tutuvchi hamda o’zaro kelishilgan kredit, hisob-kitob, byudjet, soliq, narx, boj va valyuta siyosatini ta’minlovchi yagona iqtisodiy makonni tashkil etish to’g’risida shartnoma imzolandi. Bu shartnomaga QirQiziston, keyinchalik Tojikistonning ham kirishi O’rta Osiyo mintaqasida iqtisodiy integratsiya jarayonining chuqurlashuviga katta imkoniyat yaratdi. Kelishuvda qatnashgan mamlakatlar vakillarining davlatlararo ijroiya qo’mitasi Almati shahrida joylashgan bo’lib, Toshkent shahrida hududiy Markaziy bank faoliyat ko’rsatmoqda.

gan xorijiy sarmoyalarga nisbatan «ochiq eshiklar» siyosatini o'tkazish;

4. Respublika mustaqilligini ta'minlaydigan o'ta muhim sohalarni ishlab chiqarish vositalar bilan ta'minlash hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga qaratish.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirishni huquqiy jihatdan ta'minlovchi qonunlar qabul qilindi. «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida», «CHet el investitsiyalari to'g'risida»gi va «Xorijiy investorlar va investitsiyalarga kafolat berish to'g'risida»gi, «Bankrotlik to'g'risida»gi qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar shular jumlasiga kiradi. Bu huquqiy hujjatlar tashqi iqtisodiy faoliyatni kengaytirish, xalqaro shartnomalar tuzish va ularni bajarishi uchun shart-sharoitlar yaratdi. Tashqi savdo uchun imtiyozlar berildi. Tovarlarni import va eksport qilish uchun bojxona to'lovlari ancha kamaytirildi.

O'zaro sarmoyalarni himoya qilish maqsadida jahonning ko'pgina mamlakatlari, jumladan, Germaniya, Turkiya, AQSH, Fransiya va boshqa mamlakatlar bilan shartnomalar imzolandi.

Institutsional o'zgarishlar sohasida siyosiy va moliyaviy xatarni himoya qiluvchi «O'zbekinvest», Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki «ALC, inc» Amerika moliyaviy guruhi bilan birgalikda Londonda Siyosiy xatarning shtab kvartirasi va Toshkentda moliyaviy xatarning oldini olish shtab kvartirasi bilan o'zaro suQurta kompaniyasi tuzildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida investitsiyalarga ko'maklashish muassasalari chet el investitsiyalari bo'yicha agentlik, tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirlar palatasi, Lizing kompaniyasi tashkil etildi.

O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan siyosati respublikaga xorijiy sarmoyalarning to'xtovsiz kirib kelishini ta'minlamoqda. O'zbekiston hukumati Kanada, XXR, Turkiya, Gollandiya, Germaniya, SHveysariya banklari va firmalari bilan 1,5 milliard AQSH dollari hajmida 32 ta yirik kredit bitimi tuzdi va ular amalga oshmoqda. Faqat 1994 yilda respublikaga 640 million AQSH dollar miqdorida investitsiya kreditlari berish to'g'risida xalqaro moliya muassasalari va xorijiy sarmoyadorlar bilan tuzilgan bitimlar asosida Amerikaning «Nyumont-Mayning» kompaniyasi bilan hamkorlikda oltin qazib oladigan «Zarafshon-Nyumont» qo'shma korxonasi qurilib ishga tushirildi. Toshkentda xalqaro savdo-ko'rgazma kompleksi, Xorazmda qand-shakar zavodi qurildi.

Janubiy Koreya sarmoyadorlari bilan «O'zDEU avto», «O'zDEU elektroniks» hissadorlik birlashmalari keng faoliyat ko'rsatmoqda. Germaniya va Janubiy Koreya bilan hamkorlikda telefon tarmoqlari yangilanmoqda.

1997 yil oxirlarida O'zbekistonga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmi 8 milliard AQSH dollarini tashkil etdi. Hozirgi kunda xorijiy mamlakatlar sarmoyadorlari ishtirokida 3200 dan ortiq qo'shma korxona qurilmoqda, bir qismi faoliyat ko'rsatdi.

O'zbekistonning barcha rivoj topgan xorijiy mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalari kengayib bormoqda.

O'zbekiston va Mustaqil davlatlar Hamdo'stligi:

O'zbekiston hamdo'stlik g'oyasini qo'llab, uning ta'sis etuvchilaridan biri bo'lib, ular bilan iqtisodiy integratsiya hamda savdo aloqalarini mustahkamlash borasida faol ish olib bormoqda. O'zbekiston davlatlararo bank va boshqa hamdo'stlik iqtisodiy tuzilmalarining shakllanishida faol ishtirok qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida Hamdo'stlik mamlakatlari bilan ikki tomonlama hamkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirishga alohida ahamiyat bermoqda.

Kishlok xujaligining axvoli. Tijorat ishlari. Xunarmandchilik. Ma'muriyatchilik, zuravonlik va uzboshimchalikning kuchayishi. Buxoro va Xiva o'rtasidagi urushlar va ularning ogir oqibatlari. Iktisodiyotning tushkunligi. Xalk galayonlari. Buxoro va Rossiya munosabatlari.

Buxoro amirligida madaniy hayot. Buxoro - islom va ma'rifat markazi. Maktab va madrasalar. Kozilar, masjid imomlari, mudarrislarning tayyorlanishi. Adabiy hayot va Buxoroda tarixnavislikning rivoji Mushfikiy, Nasafiy, Turdi, Xafiz, Tanish Buxoriy va boshqalar. Me'mor-chilik va shaharsozlik.

Xiva xonligining tashkil topishi. Shayboniylarning Xivadagi xukmronligi. Elbarsxon, Abulgozixon, Anushoxon. Kungirot sulolasining xokimiyat tepasiga kelishi. Muxammad Raximxon davrida xonlik chegaralarining kengaytirilishi. Ijtimoiy-iktisodiy, madaniy axvol. Tijorat ishlari. Me'morchilik. Korakalpoklarning ijtiimoiy-iktisodiy hayoti. Korakalpok xalki madaniyati.

Xivaning Rossiya bilan alokalari. A.Bekovich-Cherkasskiy va Nikiforov diplomatik missiyalari.

XVIII asrda Fargona vodiysidagi siyosiy vaziyat. O'zbeklarning ming urugidan bulgan Shoxruxbiy tomonidan Kukon xonligiga asos solinishi. Xonlikning hududi va axolisi, ijtimoiy-siyosiy, iktisodiy hayoti. Muxammad Alixon davrida xonlik chegaralarining kengaytirilishi. Buxoro amiri Nasrullo bilan Kukon xonligi o'rtasidagi urushlar va ularning oqibati. Kukon xonligidagi ichki kurash. Xalk noroziligining kuchayishi.

Kukon xonligida madaniy hayot. Mashrab, Uvaysiy, Nodirabegim, Maxmur, Gulxaniy. San'at. Me'morchilik. Xonliklardagi siyosiy-xukukiy bilim va diniy dunyokarashning jamiyat ma'naviy, moddiy hayotidagi urni.

O'zbek xonliklarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi. Mustamlakachilik zulmiga karshi milliy ozodlik harakati. Jadidchilik.

Mavzu tarixshunosligi. XIX asr o'rtalarida o'zbek xonliklarining ijtimoiy-siyosiy axvoli va uzaro munosabatlari. O'rta Osiyo masalasida Angliya bilan Rossiya o'rtasidagi rakobat.

Rossiya imperiyasi kushinlarining Kukon xonligi hududlariga xujumi. Okmachit, Suzak, Avliyoota (Jambul), Turkiston, Chimkent shaharlarining zabt etilishi. Toshkent mudofaasi, uning bosib olinishi. Jizzax, Uratepa uchun janglar. Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi. Kaufmanning Buxoroga yurishi. Samarkandning zabt etilishi. Zirabulok yonidagi jang, amir kushinlarining maglubiyati. Samarkand va Kattakurgonning Buxoro amirligidan tortib olinishi. Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi vassaliga aylantirilishi.

Kaufmanning Xiva xonligiga boskinchilik yurishi. Xazorasp, Xujayli, Kungirotning zabt etilishi. Gandimiyon shartnomasi. Xiva xonligining Rossiya imperiyasi vassaliga aylantirilishi. Amudaryo bulimining tashkil etilishi.

Kukon xonligida siyosiy tanglik. Xalk kuzgolonlari. Pulatxon, Nasriddinbek. Rossiya imperiyasi tomonidan Kukon xonligining bosib olinishi va xonlikning tugatilishi. Fargona viloyatining tashkil etilishi.

Rossiya imperiyasining ulkamizdagi mustamlakachilik siyosati. Mustamlakachilik boshqaruv tizimi, 1886 yilgi «Turkiston ulkasini boshqarish haqidagi Nizom» va ma'muriyatchilikning kuchayishi. Xarbiy boshqaruv tartibi. Ulkaning viloyatlar, uyezdlar, volostlar, uchastkalarga bulib boshqarilishi. Toshkent shahar Dumasi.

Rossiya imperiyasining ulkamizda iktisodiy xukmronlikni urnatish tadbirlari. Rossiya sanoat

va moliya kapitalining xukmronligi. Tijorat ishlari. Temir yul, zavod va fabrikalar qurilishi. Agrar siyosat.

Rossiya axolisini kuchirib keltirish siyosati. Maxalliy axolining unumdor yerlardan sikib chikarilishi.

Mustamlakachilikni kuchaytirishga karatilgan madaniy va ma'rifiy siyosat. Rus-tuzem maktablari. Xiva xonligi va Buxoro amirligi chor Rossiyasi zulmi ostida.

Rossiya imperiyasining mustamlakachilik zulmiga karshi milliy ozodlik harakatining boshlanishi, uning bosqichlari. Fargona vodiysidagi xalk harakatlari. Toshkent kuzgoloni. Andijon kuzgoloni va b.

Jadidlar harakatining yuzaga kelishi. Uning atokli vakillari: I.Gaspirali, Maxmudxuja Bexbudiy, Munavvar kori Abdurashidxonov, A.Avloniy, A.Fitrat. Ularning ijtimoiy-siyosiy karashlari. Jadid maorifi, adabiyoti, matbuoti, teatri. Madaniy-ma'rifiy va xayriya jamiyat-lari. Din va dinga munosabat masalalari.

Birinchi jaxon urushining ulka hayotiga salbiy ta'siri. Rossiya imperiyasi maxalliy axolini front orqasidagi ishlarga safarbar etish siyosati. Mexnatkash axoli noroziligining kuchayishi. 1916 yilgi xalk kuzgoloni va uning harakteri.

Turkistonda sovet xokimiyatining urnatilishi va unga karshi qurolli harakat

Rossiyada 1917 yil fevral burjua-demokratik inkilobi, podsho xokimiyatining agdarilishi, uning ulkamizga ta'siri. Ishchi va askar deputatlari soveti, musulmon mexnatkashlari shurosi, Rossiya Muvakkat xukumati Turkiston kumitasining tuzilishi. Jadidlarning faollashuvi. «Shuroi islomiya», «Shuroi ulamo» tashkilotlarining tuzilishi va ularning faoliyati. Umumturkiston musulmonlarining kurultoylari. Jadid matbuot organlari.

Toshkent xamda ulkaning boshqa shaharlarida sovetlar xokimiyatining urnatilishi. Sovetlarning III ulka kurultoyi, unda tuzilgan xukumat tarki-bi va kabul kilingan karorlarda ulug davlatchilik, maxalliy axolini kamsitish ruxining ifodalanishi.

Ulka musulmonlarining Kukonda chakirilgan favkulodda IV kurultoyi. Turkiston muxtoriyatining tashkil etilishi. Bolsheviklar xokimiyatining maxalliy xalk irodasiga karshi chikishi va katta kushin bilan Kukonga xujum kilishi. Kukon fojeasi. Turkiston muxtor xukumatining agdarilishi.

Turkiston ASSRning tuzilishi. Turkkomissiya. Xarbiy kommunizm siyosati.

Fargona vodiysida sovet xokimiyatiga karshi qurolli harakatning boshlanishi, uning moxiyati, harakatlantiruvchi kuchlari, bosqichlari. Madaminbek, Ergash va boshqa kurboshilar.

Xiva xonligida ijtimoiy-iktisodiy va siyosiy vaziyat. Xiva xonligining zaiflashuvi. Junaidxon. «Yosh xivaliklar» tashkiloti. Sovetlar xokimiyati kizil armiyasining Junaidxonga karshi yurishi. Xiva xonligining agdarilishi. «Xorazm Xalk Sovet Respublikasi»ning tuzilishi.

Buxoro amirligida ijtimoiy-siyosiy axvol. «Yosh buxoroliklar» tashkiloti. Sovetlar xokimiyatining Buxoro amirligi ichki ishlariga aralashuvi. Frunze kumondonligidagi kizil armiyaning Buxoroga xujumi va amir Said Olimxon xokimiyatining maglubiyati. Buxoro shaxrining vayron kilinishi. Xalkning jabrlanishi. Amirlik boyligining Moskvaga junatilishi. «Buxoro Xalk Sovet Respublikasi»ning tashkil etilishi. Sovetlar istibdodiga karshi qurolli harakatning uzok yillar davom etishi.

- davlatlararo aloqalarda teng huquqlik va o’zaro manfaatdorlik, davlat milliy manfaatlarining ustunligi;
- tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko’p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish, bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslik.

Tashqi siyosatdagi ochiq-oydinlik, teng huquqlik, demokratik prinsiplariga sodiqlik, umuminsoniy qadriyatlarini uluQlash, respublika ijtimoiy hayotidagi demokratik jarayonga ta’sir qilish bilan birga O’zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatida mavqeini ham oshirib bormoqda.

O’zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan hamkorligi:

Mamlakatimizning jahon xalqlari tinchligi va xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosati uning jahon miqyosida mustaqil davlat sifatida tezda tan olinishini ta’minladi. O’zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini dunyodagi 165 davlat tan oldi, ularning 120 tasi bilan diplomatik, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalar o’rnatildi. Toshkentda 35 mamlakatning elchixonasi ochildi. Bular AQSH, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Hindiston, Pokiston va boshqa rivojlangan mamkatlardir. SHuningdek O’zbekistonda 88 ta xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarning, 24 ta hukumatlararo va 13 ta nohukumat tashkilotlarning vakolatxonalari faoliyat ko’rsatmoqda. Dunyodagi 20 dan ortiq yirik davlatlarda O’zbekistonning elchixonalari ishlab turibdi.

O’zbekiston jahon iqtisodyotiga integratsiyalashish yo’lidan borib Jahon banki, Xalqaro Valyuta fondi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Iqtisodiy taraqqiyotga ko’maklashuvchi tashkilot va boshqa moliyaviy iqtisodiy tashkilotlarga a’zo bo’lib kirdi va ular bilan hamkorlik qilmoqda. SHu bilan birga O’zbekiston BMT doirasidagi ixtisoslashgan muassasalar-Jahon sog’liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro Mehnat tashkiloti, Jahon intellektual mulk tashkiloti, BMT ning bolalar fondi, Xalqaro pochta ittifoqi, Elektr aloqasi bo’yicha xalqaro ittifoq, Jahon meteorologiya tashkiloti, Xalqaro olimpiada qo’mitasi, Xalqaro avtomobilchilar ittifoqi va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilmoqda. Ularning vakolatxonalari respublikamizda ochildi va faoliyat ko’rsatmoqda.

O’zbekiston ko’pgina mintaqaviy tashkilotlar, chunonchi, yevropa Ittifoqi, NATO, EKO, Islom konferensiyasi, qo’shilmaslik harakati va boshqalar bilan ham samarali hamkorlik qilmoqda. I.A.Karimov 1999 yili aprelda SHimoliy Atlantika Ittifoqi qoshidagi «Tinchlik yo’lida hamkorlik» dasturining a’zosi sifatida NATO ning 50 yillik yubiley tantanalarida qatnashdi.

O’zbekiston O’rta Osiyo davlatlari bilan Turkiya, Pokiston, Eron tomonidan tuzilgan iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a’zo bo’lib kirdi va Trans Osiyo temir yo’lini qurilishida faol ishtirok etmoqda. Bu O’zbekiston uchun dengiz yo’llariga, xalqaro transport tarmog’iga, tovar va kapital xalqaro bozoriga chiqish imkoniyatini berdi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarda respublikamiz iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyalarni jalb etishga katta ahamiyat berilmoqda. Iqtisodiyotga xorijiy sarmoyalarni jalb etishda O’zbekiston quyidagi tamoyillarga amal qiladi.

1. Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish;
2. O’zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyadorlarni keng jalb qilishni ta’minlaydigan huquqiy ijtimoiy, iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish, tashkilotlar va muassasalar tuzish;
3. Ilg’or texnologiyaning kirib kelishiga, xo’jalik tarkibini zamonaviylashiga ko’maklashadi-

ta’minlandi. Bepul davolash yo’lga qo’yilib, respublika viloyatlarida dam olish va sog’lomlashtirish maskanlari bunyod etildi.

Umuman, O’zbekiston o’zining qisqa vaqtdagi mustaqillik yillari davomida iqtisodiy-ijtimoiy boradagi yutug’lari bilan bir qatorda, ma’naviy, madaniy ishlarga ham e’tiborni kuchaytirib, jahonning rivojlangan davlatlari orasida o’z nufuzi va obro’sini yuqori ko’tarmoqda.

XX asrning oxirgi o’n yilligi insoniyat tarixiga buyuk o’zgarishlar davri bo’lib kiradi, chunki yer yuzida vaziyat, kuchlar nisbati keskin o’zgarib, bir-biriga qarama-qarshi bo’lgan SSSR va AQSH yetakchilik qilgan ikki ijtimoiy-siyosiy tuzum, ikki harbiy-siyosiy blok barham topdi. Lekin endilikda sovuq urushlar munosabatlarini tug’diradigan kuchlarning yangi o’choqlari vujudga kelmoqda. SSSRning parchalanishi va sotsialistik sistema halokati natijasida dunyoda yangi mustaqil davlatlar vujudga keldi.

Mustaqil O’zbekiston xalqaro aloqalarni yo’lga qo’yishi va o’z taraqqiyot istiqbollari uchun qulay geografik-strategik imkoniyatlarga ega. O’rta Osiyoda geografik-siyosiy jihatdan markaziy o’rin tutgan O’zbekistonning ushbu mintaqada kuchlar nisbati va muvozanatini saqlash, barqarorlikni ta’minlash, hamkorlikni mustahkamlash imkoniyatlari bor.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq O’zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan puxta tashqi siyosiy yo’lni belgilash; jahon hamjamiyatiga qo’shilish, xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy, diplomatik, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalar o’rnatish masalalari dolzarb vazifalar deb belgilandi. CHunki ittifoq davrida O’zbekiston to’g’ridan-to’g’ri aloqa qila olmaydigan mamlakat bo’lib, tashqi siyosat yuritish tajribasiga hamda bu sohadagi kadrlarga ega emas edi.

Prezident I.Karimov o’zining «O’zbekistonning o’z istiqlol va taraqqiyot yo’li» kitobida mustaqil tashqi siyosatini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berdi. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasida mamlakatimiz tashqi siyosatining qoidalari qonunlashtirildi. Bu qoidalar «O’zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy tamoyillari to’g’risida»gi, «CHet el investitsiyalari to’g’risida»gi, «Xorijiy investorlar va investitsiyalarga kafolat berish to’g’risida»gi, «Tashqi iqtisodiy faoliyat to’g’risida»gi hujjatlarda o’z ifodasini topdi.

O’zbekiston Prezidenti I.Karimovning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasini 48 (1993) va 50-yubiley (1995) sessiyalaridagi nutqlarida mustaqil O’zbekiston tashqi siyosatining bosh yo’nalishlari belgilab berildi.

O’zbekiston hukumati respublika tashqi siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- mafkuraviy qarashlardan qat’iy nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;
- davlatlarning suveren tengligi va chegaralar daxlsizligini hurmat qilish;
- boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- nizolarni tinch yo’l bilan hal qilish;
- kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik;
- ichki milliy qonunlar va huquqiy normalardan xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan qoidalari va normalarining ustuvorligi;
- davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta’minlash maqsadida ittifoqlar tuzish, hamdo’stliklarga kirish va ulardan ajralib chiqish;
- tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirmaslik;

Sovet xokimiyatining O‘zbekistonda amalga oshirgan ijtimoiy-siyosiy, iktisodiy tadbirlarining mustamlakachilik moxiyati

Mavzu tarixshunosligi. 20-yillarda ijtimoiy-siyosiy va iktisodiy vaziyat. 1920-1921 yillardagi yer-suv isloxoti. "Kushchi" uyushmasi. Yer va suv soligi. Kooperatsiyalar va shirkatlarning tuzilishi. N.Turakulov, S.Otaboyev, I.Xidiraliyevlar faoliyati.

O‘rta Osiyoda milliy - davlat chegaralanishining utkazilishi. O‘zbekiston SSR tashkil topishi. O‘zbekiston SSRning SSSR tarkibiga kiritilishi. Axolining tarkibi. Milliy chegaralanishning salbiy oqibatlari. Xalkning ma'naviy karashlari va intilishlaridan yirok bulgan ma'muriy buyrukbozlik tizimining karor topishi.

Korakalpogistonning ijtimoiy-siyosiy axvoli. Korakalpogiston muxtor jumxuriyatining tashkil topishi.

O‘zbekistonda sanoatlashtirish siyosati va amaliyoti.

Agrar siyosat. 1925-1929 yillarda utkazilgan yer-suv isloxoti. Kishlok xujaligini jamoalashtirish siyosati, uning ogir oqibatlari. Kulok-lashtirish siyosati va uning mudxish natijalari. Suv inshootlarining qurilishi va bunda o‘zbek xalkining mexnat jasorati. Katta Fargona kanalining qurilishi.

O‘zbekistonda 20-30-yillardagi madaniy hayot. Xalk maorifi. «Xujum» harakati. "Savodsizlikni tugatish" uchun kurash. Madaniy okartuv muassasalari. Adabiyot va san'at. Ilm-fan.

SSSRda ma'muriy-buyrukbozlik, totalitar tuzumning karor topishi. Yakka xokimiyatchilikning kuchayishi. Respublika xukuklarining cheklanishi. Xalk bosib utgan yul-muvaffakiyat va zafar, yo‘qotish va kurbonlar, bu tarixiy xotira ekanligi. "18 lar guruxi", "Inogomovchilik", "Kosimovchilik" guruxlari haqida uydirma va haqikat. Siyosiy katagonlar va uning bosqichlari, ogir oqibatlari. A.Ikromov, F.Xujayev va boshqa davlat, partiya arboblarining katl etilishi. O‘zbek ziyolilarining kuvgin etilishi. Fitrat, Chulpon, Abdulla Kodiriy, Usmon Nosirlarning takdiri. Diniy tashkilotlar va ruxoniylarning ta'kib etilishi. Inson xukuklarining poymol etilishi va uning fojiali oqibatlari.

Ikkinchi jaxon urushi yillarida o‘zbek xalkining fashizm ustidan kozonilgan galabaga kushgan xissasi

Ikkinchi jaxon urushining boshlanish sabablari. O‘zbekistonning urush girdobiga tortilishi.

O‘zbekiston moddiy va ma'naviy kuchlarining fashizmga karshi kurashga safarbar etilishi. Umumiy xarbiy safarbarlik.

Respublikada xujalik va ijtimoiy hayotning xarbiy izga solinishi.

Mexnat safarbarligi. Frontga umumxalk yordami.

SSSRning garbiy viloyatlaridan sanoat korxonalari, o‘quv va ilm maskanlari, madaniyat muassasalarining kuchirib keltirilishi, joylashtirilishi va ishga tushirilishi. Front va frontga yakin hududlardan axolining kuchirilib keltirilishi, ularni kabul kilish, joylashtirish ishlari. O‘zbek oilalarining yetim bolalarni farzandlikka olish harakati. Yarador va bemor jangchilarni kabul kilish, soglomlashtirish tadbirlari. O‘zbek xalkining bagrikenglik ma'naviyati yuksakligining namoyon bulishi.

Urush yillarida O‘zbekiston sanoati. Farxod GESi qurilishi. Bekobod metallurgiya zavodining qurib, ishga tushirilishi.

Transport va aloka tarmoklarining faoliyati.

Urush yillarida fan va madaniyat. Adabiyot, tasviriy san'at. Teatr va musika san'ati.

O‘zbekiston jangchilarining frontda kursatgan jasoratlari. Urush yillarida krim-tatarlari, mesxeti turklari, chechenlar, korachoylar va boshqa xalklarning uz vatanidan badarga kilinishi, ularning sharkka, jumladan, O‘zbekistonga joylashtirilishi. O‘zbeklarning ularga kursatgan mexr-muruvvati.

Fashistlar Germaniyasi va Yaponiyaning taslim bulishi.

Fashizmni tor-mor etishda O‘zbekistonning munosib urni. Urushning yakunlari va saboklari.

O‘zbekistonda "Xotira va kadrlash" kunining milliy bayram sifatida nishonlanishi, uning moxiyati va ahamiyati.

Sovet davlatida ma'muriy buyrukbozlik tuzumining kuchayishi va inkirozi davrida O‘zbekiston (1946-1991 yy.)

Urushdan keyingi yillarda O‘zbekistonning iktisodiy hayoti. Sanoat va transport. Angren, Olmalik, Guliston, Yangiyer, Navoiy, Kuvasoy, Taxiatosh va boshqa yangi sanoat shaharlarining vujudga kelishi.

Respublikamizning agrar xujaligi. Qurik va buz yerlarning uzlashtirilishi.

O‘zbekistondagi demografik jarayonlar xususiyatining e'tiborga olinmaganligi oqibatlari. "Soxta urbanizatsiyalashtirish".

O‘zbekistonda 50-70-yillarda utkazilgan iktisodiy isloxotlar, ularning samarasizligi. Rivojlanishda ekstensiv usulning xukmronligi. Iktisodiyotning bir tomonlama, xomashyo yetishtirish tomon yunaltirilishi. Paxta yakkaxokimligining oqibatlari, ekologik xolatning buzilishi. Agrar siyosatdagi nomutanosiblik. Orol fojiasi.

50-80-yillarda respublikaning madaniy hayoti. Ilm-fan. Adabiyot va san'at. Ta'lim-tarbiya va turmush. Oliy va o‘rta ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash.

Ma'naviy hayotda mafkuraviy cheklashlar, buyrukbozlikning kuchayishi. Xalkni milliy kadriyatlar, ma'naviy merosdan begonalashtirish, o‘zbek tilini kullashda kamsitish xollari. Ijtimoiy fanlar. Adabiyot va san'at asarlarida, radio va televideniye, kino va teatr faoliyati, ularda real hayotdan chekinish xollari. Tashki iktisodiy va madaniy alokalar. Sharof Rashidov-davlat va jamoat arbobi.

80-yillarning o‘rtalarida SSSRning ijtimoiy-siyosiy, iktisodiy, ma'naviy hayotida inkirozli vaziyatning yanada keskinlashuvi.

«Kayta qurish» konsepsiyasi va uning cheklanganligi. Kayta qurish yillarida O‘zbekistonda ijtimoiy-siyosiy hayot. «Paxta ishi», «O‘zbeklar ishi" va ularning salbiy oqibatlari.

Iktisodiyotni islox kilish yulidagi urinishlar, uning barbod bulishi,sabablari. Fargona fojeasi.

80-yillarning oxirlarida Islom Karimovning O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy kumitasiga birinchi kotib etib saylanishi. Respublika ijtimoiy-siyosiy hayotida uzgarishlarning boshlanishi. Kadrlar siyosatida milliy manfaatlar ustuvorligining usib borishi. «Paxta ishi»ning kayta qurilishi va tarixiy adolatning tiklanishi. O‘zbekiston Respublikasi «Davlat tili haqida»gi konunning kabul kilinishi.

1990 yil fevralida O‘zbekiston Oliy Kengashiga utkazilgan saylovlar. O‘zbekistonda Prezidentliklavozimining ta'sis etilishi. Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti etib saylanishi. Mustakillik Deklaratsiyasining kabul kilinishi va uning ahamiyati.

mamlakatimizda 59 ta oliy, 258 ta o’rta-maxsus o’quv yurtlari, shu jumladan 75 ta kollejlarda 360 mingdan ortiq talabalar bilim olmoqda. Iqtidorli yoshlarga e’tibor kuchayib, ularning xorijiy mamlakatlardagi yetakchi o’quv yurtlarida ilm-fan cho’qqilarini egallashini tashkil qilish uchun «Ulug’bek» (1993 y.), «Kamolot» (1996 y.), «Umid» (1997 y.) jamg’armalari tashkil etildi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy tamoyillari aniq belgilab ko’rsatildi:

- uzluksizlik: ta’lim-fan-ishlab chiqarish;
- mutaxassislarga talab istiqbolini o’rganish;
- o’qituvchi va murabbiylarni qayta tayyorlash;
- o’quvchi yoshlarni Vatanga sadoqat, yuksak axloqli, ma’naviyatli va vijdonli etib tarbiyalash;
- korxonalarda maktab-institutlar bazasini mustahkamlashdan foydalanish;
- chet el sarmoyalaridan foydalanish.

Ta’lim to’g’risidagi yangi qonunga ko’ra, uzluksiz ta’lim bir necha bosqichlarda amalga oshirilishi zarur:

1. Maktabgacha - oila va bog’cha tarbiyasi.
2. Boshlang’ich ta’lim 1-4 sinflar.
3. Umumiy ta’lim majburiy bo’lib, 5-9 sinflarda umumiy bilim asoslari, dunyoqarash shakllanadi.
4. Majburiy-ixtiyoriy tusdagi o’rta-maxsus bilim va kasb-hunar o’quv yurtlari: 3 yilga mo’ljallangan akademik litseylar, maxsus kasb-hunar kollejlari.
5. Oliy ta’lim: bakalavr-4 yil, magistratura-2 yil o’qish muddati, keyinchalik ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish uchun aspirantura - 3 yil, doktorantura - 2 yil muddatga belgilangan.

Ta’lim-tarbiya, ilm-fan sohasidagi islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilishi zarur.

I. 1997-2001 yy. O’tish davri.

II. 2000-2005 yy. Islohotni keng miqyosda amalga oshirish davri.

III. 2005 yildan keyin kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish davri.

O’tgan qisqa 3 yillik davr ichida «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturini» amalga oshirishdagi natijalar ko’zga ko’rinarli darajadadir.

Davlatimizdagi ustuvor vazifa aholi sog’liqini saqlash borasidagi tadbirlardir. SHu maqsad uchun 1999-2000 yillarga mo’ljallangan Davlat dasturi ishlab chiqildi. Sog’lom avlod masalasi asosiy maqsadga aylandi. YOshlarni jismoniy va ma’naviy barkamol qilib tarbiyalash, onalik va bolalikni himoya qilish muhim vazifa bo’lib qoldi.

Mamlakatda «sog’lom avlod» dasturi ishlab chiqildi. Jismoniy sog’lomlik, barkamol insonni tarbiyalash odob-axloq masalalari bilan bog’lab olib boriladi. Respublikamizdan chiqqan ko’plab sportchilarimiz Osiyo va jahon chempionatlarida ishtirok etib kelmoqdalar va g’oliblikni qo’lga kiritmoqdalar. Ular uchun bir qancha stadionlar, sport maydonlari, futbol, voleybol, basketbol maydonchalari, sport komplekslari qurilib, qayta ta’mirlanib, foydalanish uchun topshirildi.

Respublikada birinchi bo’lib «Sog’lom avlod uchun» ordeni ta’sis etildi. 1998 yil «Oila yili», 1999yil «Ayollar yili», 2000 yili «Sog’lom avlod uchun» yili deb e’lon qilindi.

SHu maqsadda onalik va bolalikni himoya qilish borasida bir qancha tadbirlar o’tkazildi. YAngi imkoniyatlarga ega bo’lgan shifoxonalar qurilib, zamonaviy texnologiya bilan

ganligi;

- ta'lim muassasalarining siyosiy partiyalar va harakatlar ta'siridan xoliligi.

1993 yil Respublikamiz Prezidenti tomonidan «O'zbekistonda o'quvchi yoshlarni rag'batlantirish choralari to'g'risi»dagi farmoniga binoan talaba va aspirantlar uchun maxsus stipendiyalar belgilandi. Ular uchun hatto rivojlangan davlatlardagi universitetlarda ta'lim olish, ulardagi ilmiy markazlarda ishlash, malakalarini oshirish uchun sharoitlar yaratib berildi.

O'zbekiston mustaqilligiga erishgan dastlabki kunlardan boshlab eng muhim masalalardan biri eski tafakkur, e'tiqodidan qutulgan istiqlol uchun, o'z ona yurti uchun xizmat qiladigan kadrlar tayyorlash masalasi turdi. Eski tuzumni asta-sekin tag-tomiri bilan tugatib, batamom yangi, jahonning ilg'or taraqqiy etgan mamlakatlari yo'lidan boradigan haqiqiy demokratik jamiyat qurish endilikda yangicha fikrlaydigan quyidan tortib yuqori toifadagi kadrlarga bog'liq bo'lib qoldi.

Sobiq Ittifoqda katta-kichik rahbar xodimlar har xil darajadagi partiya va komsomol maktablarida, kommunistik mafkura targ'ibotchisi va tashviqotchilarini tayyorlaydigan Universitet va akademiyalarda tayyorlangan bo'lsa, endilikda bu o'quv yurtlari, tabiiyki, tarix sahnasidan tushib qoldi.

Bozor munosabatlariga asoslangan yangi jamiyatda rahbar kadrlarni tayyorlash maqsadida Prezident qoshida «Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi», «Jahon iqtisodiyoti diplomatiyasi universiteti», ayrim vazirliklar qoshida akademiyalarni tashkil etilishi katta ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz Respublika va viloyatlarning rahbar xodimlari bilan uchrashuvlarida hokimiyatlar, huquq organlarining ayrim xodimlari tomonidan tartib-intizomning, qonunchilikning buzilayotgani to'g'risida har gal kuyib-pishib gapiradi va urug'-aymoqchilik, mahalliychilik, nopoklik kabi o'tmish qoldiqlaridan toza el-yurti va xalqiga halol xizmat qiladigan yosh kadrlarni tayyorlash, ularga yo'l ochib berish zarurligini qayta-qayta takrorlab ko'rsatadi.

O'zbekiston mustaqilligining kelajagi yuqori malakali, ma'rifatli, el-yurtiga sadoqatli mutaxassislarni tayyorlashga bevosita bog'liq. I.A.Karimov muxbirlarning: «Sizning siyosatingizda ta'lim-tarbiya masalasiga katta e'tibor berilishining sabablari nimada?» deb so'ragan savoliga ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib yangi jamiyat qurib bo'lmaydi, ong, g'oya, tafakkur ta'lim-tarbiya bilan uzviy bog'liq, bir-birini to'ldiradi deb javob beradi.

Ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlarni amalga oshirish bir qancha muhim natijalarga olib keladi:

- jamiyat qiyofasini o'zgartirib, yangi muhitni vujudga keltiradi;
- yosh yigit-qizlarimiz jamiyatda o'z o'rnini topadi;
- mustaqil fikrlovchi, erkin shaxsning shakllanishiga sharoit yaratiladi;
- jamiyat yuqori darajadagi taraqqiyotga erishib o'tish davriga xos bo'lgan kuchli davlat funksiyalarini kuchli fuqarolar jamiyati zimmasiga o'tkazish uchun ijtimoiy-siyosiy vaziyatni vujudga keltiradi.

1997 yil 29 avgustda Respublika oliy Majlisining IX sessiyasida I.A.Karimovning «Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» ma'ruzasi asosida «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi.

Istiqlol yillarida maktabgacha tarbiya muassasalarda, boshlang'ich sinflarda o'quv-tarbiya ishlariga e'tibor kuchaytirilib, o'rta-maxsus va oliy o'quv yurtlari tizimida litseylar, kollejlar, biznes maktablari ochildi, 8 ta institutlar asosida universitetlar tashkil qilindi. 2000 yil boshlariga kelib,

1991 yil avgust vokealari, markaziy davlatchilik tangligi va SSSRning tanazzulga yuz tutishi.

O'zbekistonda davlat mustakilligining kulga kiritilishi. Demokratik xukukiy davlat va fukarolik jamiyati asoslarining barpoetilishi

1991 yil 31 avgust O'zbekistonning davlat mustakilligi to'g'risidagi masalaning Oliy Kengashning navbatdan tashkatri VI sessiyasida muxokama kilinishi, sessiyada kabul kilingan Bayonotda O'zbekiston davlat mustakilligining e'lon kilinishi va uning tarixiy ahamiyati.

1991 yil 29 dekabrdagi referendum va umumxalk tomonidan O'zbekiston Respublikasi mustakilligining ma'kullanishi.

Umumxalk saylovida Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylanishi.

Siyosiy isloxotlar. Isloxotlar siyosatida ma'naviy mezonlar xal kiluvchi omil sifatida. Eski davlat xokimiyati va boshqaruv organlarining barxam topishi. Davlat xokimiyatining milliy, xukukiy, demokratik asoslarining barpo etilishi. Konun chikaruvchi, ijro etuvchi va sud xokimiyati tarmoklarining shakllanishi. O'zbekiston kuppartiyaviylik ti-zimiga asos solinishi, dastlabki asosiy partiyalarning shakllanishi.

Mustakillik sharoitida O'zbekiston parlamenti. Oliy Majlisning kuppartiyaviylik asosida shakllanishi. Oliy Majlisning tuzilishi, vazifalari va faoliyati. Ikki palatali parlament tuzish to'g'risidagi O'zbekiston referendumi.

Demokratik jamiyatga xos saylov tizimining barpo etilishi. Davlat xokimiyati tizimida Prezidentlik boshqaruvining joriy etilishi. Vazirlar Maxkamasi, uning ijro etuvchi xokimiyatning muxim bugini sifatidagi urni. Davlat mustakilligini ta'minlovchi Mudofaa va Tashki ishlar vazirliklari, Milliy xavfsizlik xizmati, Davlat bojxona va Solik kumitalarining tuzilishi. Xalk xujaligi tizimi boshqaruvidagi isloxotlar, konsernlar, korporatsiyalar, xissadorlik jamiyatlari va uyush-malarining tashkil etilishi.

Sud xokimiyati isloxotlari. O'zbekistonda sud xokimiyati tizimi, uning takomillashtirilishi. Sud tizimining liberallashtirilishi (Fukarolik ishlari, jismoniy ishlar, xujalik sudlari) Boshqaruv idoralari faoliyatini erkinlashtirish masalalari.

Maxalliy davlat xokimiyati organlari - viloyat, shahar, tuman xokimiyatlarining tashkil topishi, ularning vazifalari va faoliyati.

O'zbekistonda erkin fukarolik jamiyati asoslarining yaratilishi.

Fukarolarning uzini-uzi boshqaruv organlarining tashkil etilishi. Fukarolar yigini, kishlok, ovul, maxalla oksokollari kengashlarining tuzilishi, vazifalari, faoliyati. Millatlararo tinchlik va totuvlikning ta'minlanishi.

Axborot tizimini erkinlashtirish. Jamiyatni demokratlashtirishda ommaviy axborot vositalarining urni va ahamiyati.

Mustakillik yillarida O'zbekistonning iktisodiy, ma'naviy-madaniy tarakkiyoti

Tarakkiyotning «O'zbek modeli». O'zbekistonning uziga xos va uziga mos tarakkiyot yulining jaxon xamjamiyati tomonidan e'tirof etilishi.

Iktisodiy isloxotlar, uning strategiyasi, ustuvor yunalishlari va bosqichlari. Bozor munosabatlarini xukukiy jixatdan ta'minlovchi konunlar, me'yoriy xujjatlar majmuining yaratilishi.

Davlat mulkini xususiylashtirish mexanizmining yaratilishi. Kup ukladli iktisodiyotning barpo etilishi. Mulkdorlar sinfining shakllanishi xamda kichik va o‘rta tadbirkorlikning rivojlanishi.

Bozor infratuzilmasining shakllanishi. Mustakillik sharoitida iktisodiyotda amalga oshirilgan chukur tarkibiy uzgarishlar. Tarkibiy uzgarishlarni investitsiyalashning davlat tomonidan rag-batlantirilishi. Yokilgi mustakilligining ta'minlanishi. Konchilik sanoatining rivojlanishi. Sanoatning diversifikatsiya kilinishi va ishlab chikarishning yangi tarmoklarini vujudga kelishi.

O‘zbekistonning zamonaviy avtomobil ishlab chikaruvchi mamlakatlar katoriga kushilishi. Transport va aloka tizimining ravnaki topishi. Tezkor yul, avtomobil yuli, xavo transportining rivojlanishi. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, telekommunikatsiya sohasidagi er-ishilgan yutuklar.

O‘zbekiston iktisodiyotida kishlok xujaligining urni va imkoniyatlari. Agrar isloxotlar. Mulkiy munosabatlarning uzgarishi. Shirkat, dexkon, fermer xujaliklarining vujudga kelishi. Kishlokda bozor infratuzilmasining yaratilishi. Galla mustakilligiga erishilishi.

Mustakillik yillarida iktisodiy barkarorlikning ta'minlanishi va tarakkiyot kursatkichlarining usishi.

Bozor iktisodiyotiga utish davrida O‘zbekistonning kuchli ijtimoiy siyosati. Ijtimoiy bark-arorlikning ta'minlanishi.

Mustakillik yillarida ma'naviy hayot. Ma'naviy kadriyatlarning tiklanishi.

Diniy kadriyatlar va islom ma'naviyatining tiklanishi. Xalkimizning urf-odat, an'ana va udumlarining hayotga kaytarilishi. Navruz xamda Ruza va Kurbon xayitlarining bayramona nishonlanishi. Respublikada davlat va dinning uzaro munosabati, uning asosiy tamoyillari.

Milliy goyani axoli ongiga singdirish zarurati. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlardagi barkarorlik va diniy bagrikenglik (tolerantlik).

O‘zbekiston Respublikasida "Ta'lim to‘g‘risida"gi konun va «Kadrlar tayyorlash milliy das-turi»ning kabul kilinishi, uning amalga oshirilishi, erishilgan yutuklar. Iktidorli o‘quvchilar va talabalarga e'tiborning kuchaytirilishi. Turli jamgarmalar, maxsus stipendiyalar va boshqa imti-yozli tizimning vujudga keltirilishi. "Yoshlar yili", "Barkamol avlod yili" Davlat dasturlarini amalga oshirish sohasida erishilgan natijalar.

O‘zbekistonda ilm-fanning rivojlanishi, intellektual saloxiyatning usishi.

Madaniyat va san'atning rivojlanishi. Sport ravnaki.

O‘zbekistonning jaxon xamjamiyatiga integratsiyalashuvi

O‘zbekistonning jugrofiy-siyosiy imkoniyatlari. Uning Markaziy Osiyo mamlakatlari ora-sida tutgan urni.

Tinchliksevar mustakil tashki siyosat asoslarining ishlab chikilishi, uning tamoyillari. O‘zbekiston davlat mustakilligining jaxondagi nufuzli davlatlar tomonidan tan olinishi.

O‘zbekistonning jaxon xamjamiyatiga kushilishi. O‘zbekiston Respublikasining BMT, YEXXTga a'zo bulishi va ular bilan kup tomonlama xamkorlikning yulga qo‘yilishi va ken-gayib, chukurlashib borishi. Shanxay xamkorlik tashkiloti.

Respublikamizning kuplab xalkaro ixtisoslashgan iktisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy tashkilotlar bilan alokalari.

O‘zbekiston butun ma'rifatli dunyo, xalkaro xamjamiyat bilan tinch-totuv, erkin va farovon hayot kechirish, uzaro manfaatli xamkorlik kilish tarafdori ekanligi. O‘zbekistonning xorijiy

liy mustaqillik mafkurasidir.

YAgona maqsad, yagona g’oya bo’lmasa jamiyat inqirozga uchraydi, halok bo’ladi. Buni biz yaqin va olis o’tmishdagi tariximizdan bilamiz. Milliy mafkura kelajak maqsadni ifodalaydigan, xalqimizning ming yillik tarixini buyuk kelajak bilan bog’laydigan, ana shu yuksak maqsad yo’lida yuzdan ortiq millatlar va elatlarni, barcha kishilarimizni birlashtiruvchi bayroq vazi-fasini bajaradi.

O’zbekistonning bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurish yo’lidagi iqti-sodiy, ijtimoiy siyosiy, madaniy-ma’rifiy ishlarimizdagi barqarorlik mafkuraviy tahdidlarning oldini olishni muhim vazifa qilib qo’yadi.

Milliy istiqlol mafkurasini ahamiyatini ko’rsatib, yurt-boshimiz I.A.Karimov: «... xalqimizn-ing an’analariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma’rifat tuyg’ularini ongimizga singdirish lozim», degan edi.

Milliy mustaqillik mafkurasining eng muhim vazifalaridan biri mustaqilligimizning tayanchi va kelajagi yosh avlodni insoniy, milliy g’urur, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashdan iborat. Mustaqillik g’oyalari mafkurasiga e’tiborsizlik og’ir oqibatlarga olib kelishi mumkin.

1999 yil 16 fevral «qonli seshanba» kungi voqealar milliy mustaqillik g’oyasini, mafkurasini yoshlarimiz diliga yetkazish zarurligini, buning uchun g’oyaviy, mafkuraviy ishlarimizni ku-chaytirish lozimligini ko’rsatdi.

Bu borada YUrtboshimiz I.A.Karimovning shu yili Oqsaroy qarorgohida ziyolilar bilan o’t-kazgan muloqotida, «Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga bergan javoblaridagi milliy istiqlol mafkurasining mohiyati, zarurati, ahamiyati, uning siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy asoslari to’g’risidagi ta’limoti istiqlolimizning buyuk g’oyalarini kishilarimiz tafakkuriga singdirish borasidagi ishlarimizning dasturidir.

Bu dastur qanchalik muvaffaqiyatli amalga oshirilsa, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, jami-yatimizga «... o’z muddaolariga erishish uchun ma’naviy-ruhiy kuch-quvvat beradigan poy-devor bo’lib» xizmat qiladi.

«Ta’lim to’g’risida»gi Qonunva Kadrlar tayyorlash milliy dasturi: Istiqlol yo’lida qadam tashlab borayotgan Vatanimizdagi mavjud ma’naviy, madaniy omillarga e’tibor berish bilan birga fan, maorif, ta’lim-tarbiya ishlariga ham e’tibor kuchaytirildi.

«Ta’lim-tarbiya tizimini o’zgartirmasdan turib, ongni o’zgartirib bo’lmaydi. Ongni, tafak-kurni o’zgartirmasdan turib esa, biz ko’zlagan oliy maqsad-ozod va obod jamiyatni barpo etib bo’lmaydi», - deydi I.A.Karimov.

Respublikamizda ta’limning yangi tizimini amalga oshirishda, O’zbekiston hukumati tarixi-mizdagi ta’lim jarayonlarini o’rganib chiqib, ta’limni isloh qilish dasturini tayyorladi. Barcha e’tibor ta’lim tizimlarini demokratik va insonparvarlik tamoyillari asosida takomillashtirib, un-ing moddiy texnika bazasini, zamon va davr talablari darajasiga ko’tarish va O’zbekistonning ma’rifiy salohiyatini kuchaytirishga qaratildi. SHu maqsadda 1997 yil 2 avgustda Respublikam-izda «Ta’lim to’g’risida»gi Qonun qabul qilindi.

Ta’limni isloh qilish quyidagi tamoyillar asosida olib boriladi:

- ta’lim tarbiyaning insonparvarligi va demokratiyaviyligi;
- ta’lim tizimining uzluksizligi, izchilligi, ilmiyligi va dunyoviyligi;
- ta’limda umuminsoniy va milliy-madaniy, ma’naviy qadriyatlarning ustuvorligi;
- e’tiqodi, dinidan qat’iy nazar barcha fuqarolar uchun ta’lim olish imkoniyatlari yaratil-

olim Hamidulla Karamatovning «Qur'on va o'zbek adabiyoti» nomli kitobi nashr etildi. Aytish mumkinki, bunday asarlarning xalqimiz qo'liga yetib borishi butunlay yangi, soqlom, sof milliy g'oyalarimizning, maqsad va intilishlarimizning sifat darajasini belgilaydi. Mazkur tadqiqot va unga o'xshagan boshqa asarlar milliy istiqlol mafkurasining tantanasini ko'rsatadi.

Atoqli olim B.B.Ahmedovning «Amir Temur», T.Malikning «SHaytanat» romanlari, E.Vohidov, O.Matjon, O.Hojiyeva, X.Sultonov, A.Suyun, Y.Eshbek, H.Do'stmuhammad, SH.Salimova singari shoir va adiblarning badiiy barkamol, g'oyaviy yetuk asarlari tufayli o'zbek milliy istiqlol adabiyoti shakllandi.

SHarq va G'arb me'morchiligi uyqunlashgan binolar yurtimiz poytaxti va viloyat markazlarida qad ko'tarib shaharlarimiz husniga husn qo'shmoqda Milliy bank, mehmonxona binolari, bozorlar qurilishi, ko'priklar va yo'llar, sport saroylari hamda madaniyat va istirohat boqlarining bunyod etilishi buning yorqin misolidir. Haykaltaroshlik, amaliy bezak san'ati, tasviriy san'at, raqs, kino san'atlarida ham an'anaviy va zamonaviy usullar uyqunlashib yetuk asarlar yaratildi va yaratilmoqda.

Xullas, Mustaqillik yillarida fan va madaniyat sohasida hukumatimiz rahbarligida va homiyligida qisqa 9 yil mobaynida ulkan yutug'lar qo'lga kiritildi.

Milliy istiqlol mafkurasining shakllanishi

Sotsialistik tizimning halok bo'lishi, sobiq ittifoqning parchalanib ketishi, avvalambor, o'sha tuzumning nazariy, g'oyaviy asoslarining tanglikka uchraganining oqibati bo'ldi. Sotsialistik, kommunistik mafkura ko'p yillar davomida kishilarimiz ongini chalg'itib keldi-yu, oxir-oqibatida uning inson manfaatiga batamom zid ekanligi oshkora bo'ldi va hayot uni inkor etdi.

Prezident yosh avlodni tarbiyalash, maktab, ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash masalalariga keng to'xtadi. Bu masalalar I.A.Karimovning asarlarida chuqur yoritilgan:

YUksak malakali pedagoglar tayyorlash zarur. «Har birimiz o'qituvchilik kasbini, pedagogning og'ir mehnatini o'ta muhim va olijanob ish sifatida qadrlashimiz zarur», - deydi I.A.Karimov. Ayniqsa qishloq o'qituvchilari yordamga muhtoj.

YAngi dasturlar, o'quv qo'llanmalari va darsliklar tayyorlash to'g'risida...

Maktablarning moddiy texnika bazasini mustahkamlash vazifalari. Har bir mahalla, ayrim ishbilarmonlar tashabbus bilan maktab binolarini quryapti, buni butun respublikaga tarqatish kerak.

Jamiyatimizda siyosiy, mustaqillikka erishib iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy ishlar amalga oshirilayotgan bir vaqtda kishilar ongida mustaqillik g'oyasi, milliy istiqlol mafkurasi mustahkam o'rin olishi zarur. Busiz, ya'ni fikrlash, e'tiqod o'zgarmasdan bozor munosabatlariga o'tish davrida siyosiy-iqtisodiy barqarorlik mustahkam bo'lishi qiyin vazifa. I.A.Karimov milliy mustaqillik mafkurasiga ta'rif berib, milliy mustaqillik mafkurasining «... asl ma'nosi eskicha aqidalardan xoli bo'lgan, mustaqil va yangicha fikrlovchi kishilarni tarbiyalashdan iborat», deydi. Mustaqillik g'oyasi, mafkurasining xalqimizga to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi, uni birlashtiruvchi, buyuk maqsadlar uchun butun kuchlarimizni uyg'unlashtiruvchi ahamiyatini nazarda tutib, Prezident I.A.Karimov mustaqillikning dastlabki davrida, 1993 yil 6 may O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining II chaqiriq, XII sessiyasida «Oldimizda turgan eng muhim masala, bu-milliy istiqlol mafkurasini yaratish va hayotimizga tadbiq etishdir», degan edi. Kishilarimizni qaysi toifa va guruhdan bo'lishidan qat'iy nazar ma'naviy inqirozdan chiqaradigan yagona milliy g'oya atrofida birlashtiradigan birdan-bir qudratli kuch ana shu mil-

mamlakatlar bilan xamkorligi.

O'zbekistonning MDX davlatlari bilan kup tomonlama va ikki tomonlama alokalari.

O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi kardosh mamlakatlar bilan kup tomonlama va ikki tomonlama xamkorligi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi tarix shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda rivojlangan davlatlarning hech qaysisi xorij mamlakatlarining sarmoyasisiz, investitsiyasisiz taraqqiy etmagan. O'zbekiston ham o'zining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy barqarorligi bilan chet davlatlarning investitsiyasini o'ziga tortmoqda. 1999 yil 1 yanvar holatiga ko'ra O'zbekistonda 3.592 qo'shma korxona ro'yxatga olingan. SHundan 1917 tasi faoliyat ko'rsatmoqda. Ishlab turgan qo'shma korxonalarning asosiy qismi-1400 tasi Toshkent shahrida, 107-Toshkent, 85-Samarqand, 51-Andijon, 49-Farg'ona va Namangan viloyatlarida joylashgan. SHulardan biri O'zbekiston - Germaniya «Kaolin» qo'shma korxonasi 17 aprel 1999 yil ishga tushirildi. CHet el sarmoyalari, ayniqsa neft va tabiiy gaz tarmoqlarida katta o'rin tutadi. Bu sohalarga 1994 y. atigi 10 mln. dollar xorijiy sarmoya jalb qilingan bo'lsa, bu ko'rsatgich 1995 y. - 395, 1996 y. - 546, 1997 y. - 845, 1998 yili

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIMI VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
"IJTIMOIIY FANLAR"
KAFEDRASI

ISHCHI O'QUV DASTURI
"O'ZBEKISTON TARIXI"

o'quv fanidan

inchiliklar bilan amalgan oshirildi. Agrar sohadagi byurokratik boshqaruv tizimining har xil to'siqlari qishloqda islohotlarning borishiga xalaqit berardi. Mulkning davlat tasarrufidan chiqarish jarayonining birinchi bosqichidagi eng muhim xulosa mulkdorlar sinfining shakllana boshlagani bo'ldi.

Davlat mulkini xususiylashtirishning ikkinchi bosqichi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 1994 yil 21 yanvardagi «iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirishning chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori asosida olib borildi. Bu davrda ochiq shakldagi aksiyadorlik jamiyat qurish, korxonalar aksiyasini chiqarish, auksion (kim oshdi) savdosi orqali davlat mulkini shaxslarga sotish, qim-matbaho qog'ozlarni chiqarish va xususiylashtirishni yoppasiga olib borish uchun sharoit yaratish ishlari amalga oshirildi.

Aloqa, transport, geologiya-qidiruv, yoqilQi-energentika komplekslari xususiylashtirilmadi. Ayrim sohalarda - kimyo, oltin qazish, paxta tozalash, tog'-kon sanoatida-51% aksiya davlat ixtiyorida qoladigan bo'ldi.

1994 yil oxirigacha 54.000 korxona mulk shaklini o'zgartirdi. Xususan, 34% xususiy, 48% aksiyadorlik, 16%-jamoa, 1% ijara xo'jaligiga aylandi.

Natijada Respublikada nodavlat sektorning iqtisodiyotdagi ulushi ortib bordi. Mazkur sektor 1995 yili sanoat mahsulotini 44 foizi, qishloq xo'jaligi mahsulotining 97 foizini ishlab chiqardi. Barcha kapital mablag'ning 44 foizi ana shu nodavlat sektoriga to'g'ri keldi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, mamlakatda kichik biznesni rivojlantirish davlat sektorining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib qo'yilgan. O'tgan yillar davomida shu sohaga tegishli huquqiy asos yaratildi, zarur me'yoriy hujjatlar qabul qilindi, bozor infratuzilmasi tashkilotlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Natijada 1999 yil boshida mamlakatda qariyib 190 000 ta kichik va xususiy korxonalar faoliyat yuritmoqda. Uning salkam 15.000tasi 1998 yili ishga tushgan bo'lsa, 1999 yili ularning soni 16.579 taga ko'paydi.

Mamlakatda ikki yo'l bilan mulkdorlar sinfi shakllana boshladi. Birinchidan, kichik korxonalar va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish yo'li bilan, ikkinchidan, pul mablag'larini omonat kassalari yoki banklarga qo'yish, qimmatbaho qog'ozlarga aylantirish yo'li bilan.

Iqtisodiyotda yuz bergan tarkibiy o'zgarishlar, bozor infratuzilmasining shakllanishi

Sobiq SSSRning tarqatib yuborilishi bilan respublikalar va shaharlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar uzildi, oqibatda O'zbekistonning bir qancha sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish kamaydi, iqtisodning ko'pgina muhim sohalarini qayta qurish yoki yangidan qurish kerak bo'ldi. Jahon bozorida raqobatga bardosh bera oladigan va aholining iste'mol talablarini qondiradigan mahsulot ishlab chiqarishni tashkil qilish zarur edi. «Barqarorlashtirish siyosati, - deydi. Prezident I.A. Karimov, - eng avvalo, bu makroiqtisodiyotda muvozanatni saqlash, ishlab chiqarishning keskin darajada pasayishiga va ommaviy ishsizlikka yo'l qo'ymaslikdir». Bozor munosabatlariga o'tish davrida iqtisodning ustuvor, katta istiqbolga ega bo'lgan tarmoqlarini har tomonlama rag'batlantirib, shu orqali butun iqtisodiyot tarkiban qayta tashkil qilindi.

Iqtisodiy o'sish iqtisodiyotning barcha sohalarida ishlab chiqarish hajmi oshgani bilan ifodalandi. Bu ko'rsatkich 1990 yil bilan qiyoslaganda sanoatda 106,5, qishloq xo'jaligida 105,8, qurilishda 102,6, savdoda 112,7, aholiga pullik xizmat ko'rsatish sohasi 121,3 foizini

qilingan Konstitutsiya va qonunlarga amal qilinishi shart;

- bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda aholini himoya qilishning kuchli ijtimoiy siyosatini o'tkazish;
- ijtimoiy islohotlarning rivojlanib borishi va yo'nalishini belgilab beruvchi tamoyillardan biri bozor iqtisodiyotiga o'tish evolyutsion yo'l bilan, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi zarur.

YAngi iqtisodiy munosabatlarga o'tish tamoyillari asosida g'oyat mas'uliyatli va murakkab vazifa-iqtisodiy islohotlar strategiyasi ishlab chiqildi. Iqtisodiy strategiyaning boshlang'ich nuqtasi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning pirovard maqsadini belgilab olishdan iboratdir. Bu vazifa markazlashtirilgan, ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga, bir sifat holatidan ikkinchi sifat holatiga o'tishdan iboratdir. Bozor munosabati bu jihatdan klassik kapitalistik va sotsialistik iqtisodiy tizimdan farq qiladi.

Bozor islohotlarini amalga oshirish dasturiga ko'ra ustuvor vazifalar bosqichma-bosqich hal qilinadi.

Birinchi bosqichda totalitar tizimdan hozirgi zamon bozor munosabatlariga o'tish davridagi bir-biriga bog'liq ikki vazifani bir vaqtda hal qilishga to'g'ri keldi: ma'muriy buyruqbozlik tizimning og'ir oqibatlarini tugatib, iqtisodni barqarorlashtirish va bozor munosabatlarining negizini shakllantirish. Bu bosqich jarayonida iqtisodiy islohotning g'oyat muhim yo'nalishlari O'zbekiston Prezidenti tomonidan belgilab berildi:

- o'tish jarayonining huquqiy asoslarini shakllantirish, islohotlarning qonuniy-huquqiy bazasini mustahkamlash va rivojlantirish;
- qishloq xo'jaligida mulkchilikning yangi shakllarini vujudga keltirish;
- ishlab chiqarishning pasayib borishiga barham berish.

Iqtisodiy islohotlarni huquqiy asoslovchi qonun-qoidalar yuridik tashkilotlar va yetuk olimlar tomonidan tayyorlandi va jahonning yirik mutaxassislari tomonidan quvvatlanib, tan olindi.

Dastlabki vaqtning o'zida iqtisodiy munosabatlarning huquqiy negizini barpo etadigan 100 ga yaqin asosiy qonun hujjatlari qabul qilingan. Iqtisodiy islohot, tadbirkorlik va chet el investitsiyalari bo'yicha Prezident huzurida maxsus Idoralararo kengash tuzildi.

Bozor munosabatlariga o'tishning asosiy shartlaridan biri mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish amalga oshirildi. Bu bilan davlat monopoliyasi tugatilib, ma'muriy buyruqbozlik tizimi buzildi va bozor iqtisodiyotiga asos solindi, xususiy mulkdorlarning keng qatlami shakllantirildi va xorijiy sarmoyadan foydalanib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali aholining turmush darajasi yaxshilana boshladi.

Mulkni xususiylashtirish va ko'p ukladli iqtisodni shakllantirish O'zbekistonda o'ziga xos yo'l bilan birinchi bosqichda 1992-1993 yillari amalga oshirildi.

Bu davrda asosan maishiy xizmat va savdo korxonalari, transport va qurilishning kichik korxonalari, davlat sanoat va mahsulot qayta ishlash korxonalari mulk shaklini o'zgartirdi. Bular mulkning ijara, jamoa va aksiyadorlik shakliga aylantirildi. Uy-joylar keng miqyosda xususiylashtirilib, aholining ayrim qismiga tekin, boshqa qismiga esa arzon narxda xususiy mulk etib berildi.

Dastlabki davrning o'zida qishloq xo'jaligida 770 kolxoz va davlat xo'jaliklari xususiylashtirildi, jamoa va ijara xo'jaliklariga aylantirildi. Lekin qishloqda bu jarayon sekin va qiy-

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTIUTI

RO'YXATGA OLINDI:

№_____

2016 yil «_____» _____

"TASDIQLAYMAN"
O'quv ishlari bo'yicha prorektor

F.Sh. Ruziqulov_____
"_____" _____ 2016 yil

Ijtimoiy fanlar kafedrasi
"O'zbekiston tarixi" fanidan

ISHCHI O'QUV DASTURI

Bilim soxasi: 100000-Gumanitar soxa
Ta'lim soxasi 120000-gumanitar fanlar
5111400 - xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)
5120100 - filologiya va tillarni o'qitish (ingliz, nemis, fransuz, italyan, ispan tillari)
5120200 - tarjima nazariyasi va amaliyoti (ingliz tili)

Samarqand - 2016

Fanning ishchi o‘quv dasturi o‘quv, ishchi o‘quv reja va o‘quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi

Tuzuvchilar:
T.f.n. Xandamova M.A.
Indiaminova Sh.A
Suyunov Sh.B. - SamDCHTI, «Ijtimoiy fanlar» kafedrasi o‘qituvchi

Taqrizchi:
Eshov B.J. - O‘zMU “O‘zbekiston tarixi” kafedrasi professori

Fanning ishchi o‘quv dasturi “Ijtimoiy fanlar” kafedrasinig 2016 yil 26 -avgustdagi №1-yig‘ilishida muhokamadan o‘tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: _____ f.f.n. dots. D.T. Amridinova

Kelishildi:
O‘quv uslubiy bo‘lim boshlig‘i: _____ M.B.Holiqov

sportchi Iroda To'laganova Uimbldon uchrashuvida g'olib chiqib, kumush kubokning kichraytirilgan nusxasini qo'lga kiritdi. 1998-yil may oyida mamlakatimiz alpinistlari Himolay tog'ining eng baland «Everest» cho'qqisiga ko'tarilib, O’zbekiston dovrug'ini dunioga taratdilar.

Mustaqillik sharofati bilan milliy o'zbek kurashi tiklandi. 1992-yilda Termiz va Shahrisabz shaharlarida dastlabki milliy kurash bo'yicha xalqaro musobaqa o'tkazildi. Milliy kurashimizning nazariyjihatlari va qoidalari ishlab chiqildi va xalqaro ekspertlar tomonidan e'tirof etildi, xalqaro sport turlari qatoridan o'rin oldi. 1999-yil may oyida Toshkentda dunioning 50 dan ortiq mamlakatlaridan kelgan sportchilar ishtirokida kurash bo'yicha birinchi jahon chempionati bo'lib o'tdi. Unda O’zbekistonlik kurashchilar 3 ta oltin, 3 ta kumush, 3 ta bronza medallarini qo'lga kiritdilar. Akobir polvon, Kamol polvon, Toshtemir polvonlar nomi butun jahonga taraldi. Xalqaro kurash assotsiatsiyasi tuzildi, uning faxriy Prezidenti etib Islom Karimov saylandi. Buyuk Britaniyada 2000-yildan e'tiboran har yili Islom Karimov norni bilan ataluvchi xalqaro turnir bo'lib o'tmoqda. 2002-yil oktabrda Xalqaro kurash assotsiatsiyasi Xalqaro sport federatsiyasi a'zoligiga qabul qilindi. O'zbek milliy kurashi xalqaro sport turi sifatida dunioda e'tirof topdi".

Mustaqillik yillarida O’zbekiston sportchilari Olimpiadalar, Osiyo o'yinlari, Jahon va Osiyo chempionatlari va boshqa musobaqalarda qatnashib, 3000 dan ortiq oltin, kumush va bronza medallarini qo'lga kiritdilar.

Shaxmat bo'yicha jahon chempioni Rustam Qosimjonov, boks bo'yicha jahon chempioni Muhammadqodir Abdullayev kabi sportchilar O’zbekiston xalqining iftixoridir.

Shunday qilib, mustaqillik yillarida O’zbekistonda sport rivojlandi, yangi ma'no-mazmun bilan boyidi, jahon sportiga qo'shildi va xalqaro maydonda salmoqli o'rin egalladi.

Ma’naviy-madaniy sohada erishilgan yutuqlar o'z samarasini ko'rsatmoqda. Ma'naviy hayotimizda uyg'onish yuz berdi, odamlarning tafakkuri va hayotga munosabati o'zgardi. Kishilarimiz ongida demokratik qadriyatlar mustahkamlandi, aholining faolligi oshdi, mamlakatimizning kelajagiga ishonchi mustahkamlandi.

Davlat mustaqilligining qo’lga kiritilishi O’zbekistonda bozor munosabatlariga o’tish uchun qulay sharoit va keng imkoniyatlar yaratdi. Bizning diyorimizda bozor munosabatlari yangilik emas. Ming yillar davomida ajdodlarimiz hunarmandlar ishlab chiqargan ajoyib mahsulotlarini, tabiiy boyliklarini dunyoning to’rt tomoniga chiqarib savdogarlik qilgan, mol almashgan.

O’zbekistonning boy imkoniyatlari, geopolitik sharoitidan foydalanib, o’zimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo’limizni belgilash dastlabki kunlarning eng muhim vazifasi bo’lib qoldi. O’zbekiston tanlagan islohot yo’li ijtimoiy yo’naltirilgan bozor iqtisodini shakllantirishga qaratildi.

Bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurishning asosiy yo’nalishlari Prezident I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilib, dunyodagi rivojlangan mamlakatlarning yirik mutaxassislari, davlat arboblari tomonidan tan olindi va o’zining hayotiyligini namoyish etmoqda. Bu tamoyillarning asosiy mazmuni quyidagilardan iborat:

- iqtisod siyosatdan ustun turib mafkuraviy tazyiqlarsiz, o’ziga xos ichki qonunlarga muvofiq rivojlanmog’i kerak;
- davlat bosh islohotchi o’rnida bo’lib, u islohotlarning ustuvor yo’nalishlarini belgilab berishi va ularni izchillik bilan amalga oshirishi lozim;
- bozor munosabatlariga o’tish qonun ustuvorligini talab qiladi. Butun xalq tomonidan qabul

quvvatlash masalalari to'g'risida»gi qarori mamlakatimizda muzey ishini rivojlantirish istiqbollarini belgilab berdi. Madaniyat ishlari vazirligi, «Oltin meros» jamg'armasi, Badiiy Akademiya, Moliya vazirligi, Mehnat vazirligi muzeylar rahbariyati bilan hamkorlikda muzeylarning rivojlanishi va moliyaviy ta'minoti bo'yicha dastur ishlab chiqildi. Muzeylar davlat muhofazasiga olindi, ularni ta'mirlash, muzey eksponatlarini boyitish davlat budjeti hiso-bidan moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlandi. Muzeylar faoliyatini muvofiqlashtirish, ilmiy-uslubiy yordam ko'rsatish, moddiy jihat-dan qo'llab-quvvatlash maqsadida 1998-yilda «O'zbekmuzey» Res-publika jamg'armasi tuzildi. Aholining muzeyshunoslik madaniyatini oshirishga ko'maklashuvchi «Moziydan sado» jurnali ta'sis etildi va u 1999-yildan boshlab o'zbek, rus va ingliz tillarida nashr etila boshlandi. Faqat 1999-yilda muzeylarning asosiy fondi 7544 ta tarixiy va madaniy yodgorliklar bilan boyidi.

O'zbekistonda umumiy maydoni 137150 kv.m.ni tashkil etadigan 510 ta muzey faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda 1,3 milliondan ortiq ajdodlarimiz tarixi, betakror madaniyatini aks ettiruvchi nodir buyum-eksponatlar saqlanmoqda va aholiga namoyish etilmoqda. Mamlakatimizning me'moriy yodgorliklarga boy 10 ta shahri tarixiy shaharlar ro'yxatiga kiritilgan. 2500 ta me'moriy obida, 2700 ta arxeologik yodgorlik, 1800 monumental san'at asari davlat muho-fazasiga olingan. Buxoro, Samarqand va Xiva shaharlaridagi 3 ta muzey-qo'riqxonalarida butun dunioda eng nodir tarixiy yodgorliklar, me'moriy obidalar, monumental san'at asarlari saqlanib qolgan, davlat muhofazasida yangidan chiroy ochayotgan muzeylar sifatida e'tirof etilgan.

O'zbekiston muzeylari aholi orasida o'lkamiz tarixi, xalq amaliy san'ati asarlaridan iborat etnografik ko'rgazmalarni namoyish etib, jamiyatimiz ma'naviy kamoloti yo'lida xizmat qilmoqda. Minglab xorijiy sayyohlar respublikamiz muzey-qo'riqxonalariga tashrif buyurib, ajdodlarimizdan qolgan tarixiy yodgorliklar, obidalar, monumental san'at asarlari oldida ta'zim etmoqdalar. Fransiya, Turkiya, Eron, Pokiston, KoRaya, Xitoy va boshqa mamlakatlarda O'zbekiston muzeylarining eksponatlari namoyish etildi.

Sport

Mustaqillik yillarida sport O'zbekiston milliy madaniyatining tarkibiy qismi sifatida rivojlantirildi. 1992-yil 5-fevralda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi qonuni sportni ommaviy ravishda rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. 46 mingdan ortiq sport inshootlari -sport sog'lomlashtirish klublari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, olimpiya o'rinbosarlari bilim yurtlari, oliy sport mahorati maktablari, o'yingohlar, sport zallari, may-donlari, hovuzlar barpo etildi va ta'mirlandi. Ularda 7 mln. kishi jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'ldi.

1992-yil yanvarda O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi tuzildi va 1993-yil sentabrda xalqaro olimpiya qo'mitasining 101-sessiyasida rasmiy e'tirof etildi.

Sportning boks turi jadal o'sdi. 17 marta jahon chempioni Artur Grigoryan, Sidney Olimpiadasi chempioni Muhammadqodir Abdullayev kabi bokschilarimiz nomi jahonga mashhur. 1999-yil avgust oyida Amerikaning Xyuston shahrida o'tkazilgan X jahon chempionatida O'zbekiston boks komandasi 83 mamlakat o'rtasida AQSH va Kuba komandalaridan keyin faxrii uchinchi o'rinni egalladi. Vatanimizda sportr.ing tennis turi rivojlandi. 168 ta tennis korti, eng zamonaviy Yunusobod tennis majmui barpo etildi. Yunusobod tennis saroyida 1994-2002-yillarda O'zbekiston Prezidenti kubogi uchun 9 marta xalqaro tennis musobaqalari o'tkazildi. 1999-yilning iyul oyida Londonda o'tgari tennis bo'yicha yoshlar xalqaro turnirida toshkentlik

“O‘zbekiston tarixi” fani bo‘yicha 1 kurs talabalariga
2016-2017 o‘quv yili uchun
Ishchi dastur
Kirish

O‘zbekistonning davlat mustaqilligini qo‘lga kiritishi tufayli xalqimizning asriy orzusi ushaldi, o‘z taqdiri va kelajagini o‘zi yaratadigan bo‘ldi. Tarixan qisqa davrda jamiyatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida keskin burilish yasaldi. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish, faol demokratik yangilanishlarni amalga oshirish bilan bog‘liq qator islohotlar o‘tkazildi. Jumladan, ana shu buyuk o‘zgarishlarni asrlar davomida orzu qilgan xalqimizning ko‘hna tarixiga bo‘lgan munosabati tubdan o‘zgardi. Zero, Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek: “O‘z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo‘q”.1Ayniqsa, bugungi murakkab globallashuv davrida ma'naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma'naviyatini asrash va yanada yuksaltirish, yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g‘oya va mafkuralar ta'siridan saqlash va himoya qilishda Vatan tarixini har tomonlama va chuqur tadqiq etish, birlamchi manbalarga tayanib talqin etish, kelajak avlodga haqiqiy tariximizni o‘qitish orqali ularni yuksak ma'naviyatli shaxslar etib tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz tarixida yangi davr - mustaqil taraqqiyot davri boshlandi. Xalqimiz demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurish yo‘lida dastlabki sinovlardan o‘tdi. Istiqlol yillarida yurtimizda milliy ma'naviyatimizni tiklash, uni zamon talablari asosida rivojlantirish bo‘yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. Demokratik islohotlar tobora chuqurlashib bormoqda. Yangi jamiyat qurish, avvalo, yoshlarga, ularning ma'naviy dunyosi, kasb-mahoratiga bog‘liq. Binobarin, yosh avlodda milliy g‘oyani, yuksak ma'naviy fazilatlarni shakllantirishda, milliy ong va sog‘lom fikrni uyg‘otish, ularni Vatan, xalq va istiqlol taqdiri uchun g‘oyaviy kurashchanlik ruhida tarbiyalashda, yuksak ma'naviyatli komil inson bo‘lib shakllanishida, shuningdek, xalqimizning ma'naviy yuksalishi yo‘lida “O‘zbekiston tarixi” fanining ahamiyati katta. Ushbu fanning barcha oliy va o‘rta maxsus o‘quvyurtlari hamda maktablarda o‘qitilishi ham ana shu yuksak ahamiyat bilan belgilanadi.

O‘quvfaniningmaqsadi va vazifalari

Fanni o‘qitishdan maqsad- yosh avlod ongida insoniyat uchun eng muhim bo‘lgan ma'naviyatni shakllantirish hamda yanada yuksaltirish, ular ongida yuksak ma'naviy fazilatlarni shakllantirish jarayonida milliy ong va sog‘lom fikrni uyg‘otish, tarixiy xotiraning yoshlarimizni Vatanga sadoqat hamda millatparvarlik ruhida tarbiyalashdagi mislsiz ahamiyatini ifoda etish, o‘z taqdiri va kelajagini barpo etadigan yosh avlodni yangi jamiyatni yanada rivojlantirishga yo‘naltirilgan g‘oyalar asosida tarbiyalashga qaratilgan.

Fanning vazifasi:

- Vatanimiz hududlarida eng qadimgi davrlardan boshlab bo‘lib o‘tgan tarixiy-madaniy jarayonlarni xolisona hamda manbalarga tayangan holda tahlil qilish, o‘rganish, ularning sabablari va mohiyatini ochib berish;
- tarixning turli davrlarida mamlakat iqtisodiy va madaniy ravnaqi uchun fidoyilik qilgan davlat arboblari, ulug‘ sarkardalar, ilm-fan hamda madaniyat namoyandalari, milliy qah-

ramonlar faoliyatini xolisona baholash asosida yoshlarimizni millatparvarlik ruhida tarbiyalash;

- tarixiy xotira asosida yoshlarimizni “Biz hech kimdan kam emasmiz va kam bo‘lmaymiz” g‘oyasi ruhida tarbiyalash;

- hozirgi kunda mamlakatimizda o‘tkazilayotgan islohotlar va juda ko‘plab bo‘layotgan zamonaviy o‘zgarishlar mohiyatini, huquqiy-demokratik jamiyat qurish yo‘lidagi yangiliklarni, O‘zbekistonning jahon hamjamiyatga integratsiyalashuvi jarayonlarini yoshlarga yetkazish.

O‘zbekiston tarixi fani bo‘yicha bakalavrlarning bilimi, malakasi va ko‘nikmasiga qo‘yiladigan talablar

O‘zbekiston tarixi o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr: fanning predmeti, nazariy-metodologik asoslari, manbalari va ahamiyatini, O‘zbekiston tarixi jahon tarixining ajralmas qismi ekanligini, o‘zbek davlatchiligining shakllanishi va rivojlanishijarayonlarini bilishi kerak;

O‘zbekiston tarixining asosiy davrlari va taraqqiyotining tadrijiy bosqichlari to‘g‘risida, ularning uzviy bog‘liqligi va davomiyligi, tarixiy voqyealar vorisiyligi haqida tasavvurlarga ega bo‘lishi lozim;

mustamlakachilik va qaramlik davrida O‘zbekistonning turli sohalari rivojlanishiga qarshi siyosat va ularning ayanchli oqibatlari, turli davrlarda istilochilarga va mustabid tuzumga qarshi ozodlik yo‘lidagi kurashlar hamda vatanparvalik jasoratlari haqida bilishi, Vatanimizning rivoji yo‘lida faol ishtirok etish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak; ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi to‘g‘risida chuqur bilimga ega bo‘lishi, ularning ibratli hayoti va faoliyati bilan faxrlanish his-tuyg‘usiga ega bo‘lish i zarur;

O‘zbekistonda davlat mustaqilligining qo‘lga k iritilishi, huquqiy demok ratik davla t va fuqarolik ja miyati asoslarining barpo etilishi, yangilanish va modernizatsiya jarayonlari haqida to‘la qonli bilimga ega bo‘lishi kerak;

O‘zbekiston tarixida kechgan jarayonlarga nisbatan o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lishi, xulosa chiqara olishi va o‘zining jamiyat tarraqqiyotida tutgan o‘rnini anglash ko‘nikma va malakasiga ega bo‘lishi lozim.

Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi vauslbiy jihatdan ketma-ketligi

“O‘zbekiston tarixi” fani boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar,xususan, arxeologiya, etnografiya, numizmatika, madaniyatshunoslik, dinshunoslik, falsafa, iqtisod, geografiya, demografiya kabilar bilan bevosita bog‘liq holda o‘rganiladi. Fanlar aro aloqalardan unumlifoydalanish,o‘zaro uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash “O‘zbekiston tarixi” fanining ta'lim-tarbiya beruvchi, ma'naviyatni yuksaltiruvchi va inson kamoloti hamda millat ravnaqini ta'minlovchi vazifalarinito‘laqonli amalga oshirishga xizmat qiladi.

Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

“O‘zbekiston tarixi” fanini o‘qitish jarayonida mantiqiylik, tarixiylik, ob'yektivlik tamoyillariga amal qilingani holda ta'limni zamonaviypedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, o‘quv jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etishning noan'anaviy usullaridan foydalanish, ayniqsa, “Aqliy hujum”, “FSMU”, “KEYS-stadis”, “Bumerang”, “Klaster”, “Matbuot konfren-

taraldi. Har ikki-yilda Samarqandda «Sharq taronalari» Xalqaro festivalini o'tkazish an'ana tusini oldi.

O’zbekistonda musiqa va qo'shiqchilik san'atining rivojiga har yili 31- avgust va 21-mart kunlari o'tkazilayotgan Mustaqillik va Navro'z kunlariga bag'ishlangan bayram tantanalari ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Mustaqillik yillarida O’zbekistonda yashayotgan 130 ga yaqin turli millat va elat urf-odatlari va an'analari birdek rivojlanib bormoqda. Hozirgi paytda O’zbekistonda 120 ta milliy madaniyat markazlari faoliyat yuritmoqda. Milliy-madaniy markazlar o'z millatdoshlarining tili, madaniyati, urf-odatlari, rasm-rusumlarini tiklash, tarixiy Vatani bilan aloqani jonlantirish kabi masalalar bilan shug'ullanib kelmoqda. Milliy-madaniy markazlar qoshida milliy musiqa, raqs, hunar va boshqa yo'nalishlardagi to'garaklar tashkil etilgan.

1992-yilda turli milliy madaniy markazlarga ko'maklashuvchi Respublika Baynalmilal markazi tuzildi. Uning faoliyatida respublikamizda istiqomat qiluvchi turli millat va e'latlarni jipslashtirish asosiy o'rin tutmoqda.Turli millatgamansub rassomlar, yozuvchilar, shoirlar, olimlar, madaniyat va san'at arboblariga bag'ishlangan yig'ilishlar, ko'rgazmalar tashkil etilmoqda. Milliy-madaniy markazlar o'z faoliyati bilan respublika madaniyati ravnaqiga muhim hissa qo'shmoqdalar.

Muzey

Jamiyat madaniy-ma'rifiy hayotida, aholida tarixiy Kotirani tiklash va mustahkamlashda muzeylarning ahamiyati katta. Shu boisdan ham, mustaqillik yillarida mavjud muzeylarni ta'mirlash, ularni yangi eksponatlar bilan boyitish, yangi muzeylar barpo etishga alohida e'tibor berildi.

Namanganda Ulug' o'zbek shoiri Boborahim Mashrab muzeyi, Xorazmda hofiz Hojixon Boltayev nomli maqomchilar muzeyi, Urganchda Xorazm amaliy san'ati va tarixi muzeyi, Buxoroda temirchilik muzeyi, Samarqand viloyatining Oqtosh shahrida xalq baxshisi Islom shoir Nazar o'g'lining uy-muzeyi, Toshkentda o'zbek ayollari orasidan chiqqan birinchi huquqshunos olima Hadicha Sulaymonova muzeyi, o'zbek raqqosasi Mukarrama Turg'unboyeva muzeyi singari uy-muzeylari tashkil etildi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida ko'plab muzeylar ochildi.

1996-yil 1-sentabr kuni Toshkentda Osiyoda yagona bo'lgan Olimpiya shon-shuhrat muzeyi faoliyat ko'rsata boshladi. Bu muzey O’zbekistonlik sportchilarning xalqaro musobaqalardagi muvaffaqiyat-larini namoyish etadigan, mamlakatimizda sport harakatini rivojlan-tirish markazi bo'lib qoldi.

1996-yil 18-oktabrda Toshkentda Temuriylar tarixi davlat muzeyi ochildi. Muzey temuriylar davri ruhini aks ettiruvchi o'sha davrga xos tarixiy jihozlar, qurol-aslahalar, lashkarboshilar va oddiy jangchilarning kiyimboshlari, oltindan yasalgan uy-buyum ashyolari, musiqa asboblari, Amir Temur, Bobur qo'lyozmalari, Ulug'bekning astronomik qurilmalari va boshqa 2000 dan ortiqroq tarixiy, madaniy yodgorliklar bilan jihozlangan. Temuriylar tarixi davlat muzeyi O’zbekistonda amalga oshirilayotgan madaniy, ma'naviy, ma'rifiy ishlar, ilmiy tafakkur markaziga aylandi. 2002-yilda Termizda Arxeologiya muzeyi buniod etildi.

O’zbekiston Prezidentining 1998-yil 12-yanvardagi «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida»gi farmoni va uning bajarilishini ta'minlashga qaratilgan Respublika hukumatining 1998-yil 5-dekabrda qabul qilingan «Muzeylar faoliyatini qo'llab-

O’zbekiston sirkchilarining chet ellarga gastrol safarlari uyushtirildi. Misr, lordaniya, Falastin, Pokiston, Malayziya, Hindiston, Xitoy, Suriya, Livan, Eron, Birlashgan Arab Amirligida gastrol safarlarida bo'lgan respublikamiz sirk ustalari o'zbek milliy sirk san'atini namoyish etdilar.

Olimjon Toshkenboyev rahbarligidagi «O’zbekiston dorbozlari» guruhi 1996-yildan boshlab yevropa mamlakatlarida gastrol safarida bo'lib, 2000 dan ziyod tomosha ko'rsatdilar. 15 yoshli Karima Zaripoval997-yil yanvardaParijdagi Buglion sirkidabo'lgan yosh sirk artistlarining xalqaro festivalida qatnashib, «Plastik etyud» (besuyak o'yini) janrida festivalning eng oliy mukofoti -oltin medalni qo'lga kiritdi. 1998-yilda Toshkent sirkida iste'dodli yoshlarga ko'maklashuvchi bolalar studiyasi ochildi.

O'zbek sirkchilari 1999-yilda Birlashgan Arab Amirligining Dubay shahrida, 1999-yilda Saratov shahrida bo'lib o'tgan Butunrossiya sirk festivalida, 2000-yilda Xitoyning Uxan shahrida bo'lib o'tgan xalqaro sirk festivalida, 2001-yil yanvarda Belgiyaning Lej shahrida bo'lib o'tgan Yevropa sirklarining 10-festivalida muvaffaqiyatli qatnashib, sovrinli o'rinlarni egalladilar. Sirkchilarimizning sa'y-harakatlari natijasida O'zbek sirkiga xos turli nomer va attraksionlar xalqaro sirk dasturlaridan o'rin egalladi.

Mustaqillik yillarida milliy musiqa va qo'shiqchilik san'ati rivojlandi. Respublika madaniyat ishlari vazirligi, 1992-yilda tashkil etilgan «Xalq ijodi va madaniy-ma'rifiy ishlar respublika Markazi», lining viloyatlardagi bo'limlari musiqa va qo'shiqchilik san'atini, havaskorlik va folklor jamoalari faoliyatini rivojlantirish, unutilgan xalq ohanglarini tiklash maqsadida turli xil ko'rik tanlovlar, festivallar tashkil etdilar. 1992-yilda Toshkentda «Asrlarga tengdosh navolar» va «Boqiy ovozlar», Xorazm viloyatida folklor jamoalari, askiya, qiziqchi va masxarabozlarning, Qo'qonda katta ashula, lapar va yalla ijrochilarining ko'rik-tanlovlari o'tkazildi. 1994-yil may oyida Parijda bo'lib o'tgan «Sharq musiqasi» festivalida Munojot Yo'lchiyeva va Shavkat Mirzayevlar ishtirok etib, o'zbek milliy qo'shiqchilik san'atini jahonga namoyish etdilar.

1996-yil aprel oyida Turkiston saroyi, «Bahor» majmuasi va boshqa ijodiy konsert tashkilotlari negizida tashkil etilgan «O'zbeknavo» gastrol-konsert birlashmasi orqali xalq orasidan iste'dodli qo'shiqchilarni izlab topish va ko'rik-tanlovlarga jalb etish, musiqa va qo'shiqchilik san'ati bo'yicha xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kabi tadbirlar amalga oshirildi. Respublika Prezidentining 1996-yil 27-avgustdagi “ ”O’zbekiston -Vatanim manim» qo'shiqlar bayrami to'g'risida»gi farmoni qo'shiqchilik san'atini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. 1996-yilda o'tkazilgan barcha viloyat, shahar va tumanlarida «O’zbekiston -Vatanim manim» qo'shiq tanlovida 54 mingdan ziyod qo'shiqchilar qatnashdi. Bunday ko'rik tanlov har yili avgust oyida o'tkaziladigan bo'ldi va avgust oyining uchinchi yakshanba kuni «O’zbekiston -Vatanim manim» qo'shiq bayrami kuni deb belgilandi. Bu tanlov jarayonida Vatan, mustaqillikni e'zozlovchi yuzlab yangi qo'shiqlar yaratildi. «O’zbekiston -Vatanim manim», «Men seni sevaman, O’zbekiston», «Vatan yagonadir», «Mustaqillik gullari», «Ona yurtim», «O’zbekiston askarlari» qo'shiqlari shular jumlasidandir. 1997-yil 11-martda qabul qilingan Respublika hukumatining “ ”Sharq taronalari» Xalqaro musiqa festivalini o'tkazish to»g'risida»gi qarori musiqa san'atining noyob namunalarini keng targ'ib qilish, rivojlantirishda dasturamal bo'lib xizmat qildi. 1997-yil 25-avgust -2-sentabr kunlari Samarqandda bo'lib o'tgan «Sharq taronalari» birinchi Xalqaro festivalida dunioning 40 dan ortiq marnlakatidan ijrochilar, san'atshunoslar, jamoat arboblari ishtirok etdi, festivalda yangragan o'zbek ohanglari, kuy-qo'shiqlari jahon uzra

siyasi” kabi metodlardan foydalanish maqsadga muofiq.

Fanning ishlab chiqarishdagi o‘rni

Fanning ishlab chiqarishdagi o‘rni yosh mutaxassining dunyoni bilish orqali o‘z-o‘zini anglash, kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish, mehnati samarasi bilan jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shayotganligini anglashida namoyon bo‘ladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o‘z mohiyatiga ko‘ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to‘laqonli rivojlanishlarini ko‘zda tutadi. Bu esa ta'limni loyixalashtirayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog‘liq o‘qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishini nazarda tutadi.

Tizimli yondashuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o‘zida mujassam etmog‘i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo‘g‘inlarini o‘zaro bog‘langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatini aktivlashtirish va intensivlashtirish, o‘quv jarayonida uning barcha qobilyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo‘naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Diologik yondashuv. Bu yondashuv o‘quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o‘z-o‘zini faollashtirishi va o‘z-o‘zini ko‘rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob'yektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohodani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo‘llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo‘llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llash.

O‘qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, porodoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O‘qitishni tashkil etish shakllari. Diolog, polilog, muloqot hamkorlik va o‘zaro o‘rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O‘qitish vositalari. O‘qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda kompyuter texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari. Tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o‘zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari. Kuzatish, blis-so‘rov, oraliq va joriy va yakuniy nazorat natijalarini tahlili asosida o‘qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari. O‘quv mashg‘uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik xarita ko‘rinishidagi o‘quv mashg‘ulotlarini rejlashtirish, qo‘yilgan maqsadga erishishda o‘qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg‘ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash. O‘quv mashg‘ulotlarida ham butun kurs davomida ham

o‘qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

“O‘zbekiston tarixi” fanini o‘qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan foydalaniladi. Ayrim mavzular bo‘yicha talabalar bilimini baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi."Internet" tarmog‘idagi rasmiy saytlardan tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so‘z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o‘tkaziladi.

O‘zbekiston tarixi fanidan ishchi dastur
2016-2017 o‘quv yili

№	Mavzu	soat			
		Jami	Ma'ruza	Sem.	Mustaqil ta'lim
1	O‘zbekiston tarixi fanining predmeti, uning o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari, manbalari va ahamiyati	4	2		2
2	Markaziy Osiyo jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi	6	2	2	2
3	O‘zbek davlatchiligining shakllanishi va dastlabki taraqqiyot bosqichlari	6	2	2	2
4	Buyuk ipak yo‘li va hozirgi zamon	4		2	2
5	O‘zbek xalqining etnik shakllanishi	6	2	2	2
6	Ilk o‘rta asrlar o‘zbek davlatchiligi: ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayot	6	2	2	2
7	1X-XPI asrlarda o‘zbek davlatchiligi, siyosiy ijtimoiy va iqtisodiy, madaniy hayot	6	2	2	2
8	Amir Temur va temuriylar davrida ijtimoiy-siyosiy, iktisodiy va madaniy xayot	6	2	2	2
9	O‘zbekiston hududlarining xonliklarga bo‘linib ketishi, uning sabablari va oqibatlari	6	2	2	2
10	O‘zbek xonliklarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olishi. Mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy-ozodlik harakati. Jadidchilik	6	2	2	2
11	Turkistonda sovet hokimiyatiing o‘rnatilishi va unga qarshi qurolli harakati	6	2	2	2
12	Sovet davlatida ma'muriy buyruqbozlik tuzumining kuchayishi va inqirozi davrida O‘zbekiston	8	2	2	4
13	O‘zbekistonda davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi. Demokratik huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyat asoslarining barpo etilishi	8	2	2	4
14	Mustaqillik yillarida O‘zbekistonning iqtisodiy, ma'naviy-madaniy taraqqiyoti	6	2	2	4
15	O‘zbekistonning va jaxon hamjamiyatigi ittegratsiyalashuvi	6	2	2	4
	JAMI	96	28	30	38

Teatr san’ati

Mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlar jarayonida teatr san'ati ham rivojlandi.1993-yilda foydalanishga topshirilgan «Turkiston» saroyi Vatanimiz va xorijlik teatr arboblarining, ijodiy guruhlarning sahna asarlari namoyish etiladigan dargohga aylandi. Andijonda jamoatchilik asosida faoliyat ko'rsatayotgan yoshlar teatri Abbos Bakirov nomli yoshlar va bolalar teatriga aylantirildi.

Respublika Prezidentining 1995-yil 20-oktabrdagi «O’zbekistonda teatr va musiqa san'atini yanada rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 1998 -yil 26-martdagi «O’zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida»gi farmonlari asosida teatrlar davlat budjeti hisobiga qo'llab-quvvatlandi. Farmonga binoan Madaniyat ishlari vazirligi tizimida va teatr ijodiy xodimlari uyushmasi qoshida 1998-yilda «O'zbekteatr» ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi. Birlashma teatr jamoalariga xalqimizning boy ma'naviy olamini, uning madaniy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini uyg'otuvchi spektakllar yaratishda, iste'dodli yoshlarni teatrga jalb qilishda, teatrlarning moddiy -texnikaviy bazasini mustahkamlashda, ijodiy xodimlarni ijtimoiy himoya qilishda ko'maklashdi. Alisher Navoiy nomli Davlat akademik katta opera va balet teatri Yaponiya tomonidan 1995-yilda beg'araz ajratilgan 47 mln. iyen qiymatiga teng yangi uskunalar bilan jihozlandi. Respublikamizda 41 ta professional teatr faoliyat ko'rsatmoqda. Har bir viloyatda qo'g'irchoq teatrlari bolalarga xizmat qilmoqda.

2001-yilda respublika teatr san'atida muhim tarixiy voqea sodir bo'ldi. Hamza nomidagi O'zbek akademik drama teatri binosi muhtasham koshona shaklida qayta qurildi, zamonaviy teatr uskunalari va mebellar bilan jihozlandi. Prezident farmoni bilan unga Milliy teatr maqomi berildi.

Respublika teatrlari Vatan tarixini sahna asarlari orqali yoritishga alohida e'tibor berdilar. Milliy akademik drama teatri va Qashqadaryo musiqali drama teatri jamoalari «Sohibqiron», Xorazm viloyati musiqali drama va komediya teatri «Jaloliddin Manguberdi», Abror Hidoyatov nomli o'zbekdavlat teatri «Buyukipakyo'li» kabi tarixiy dramalarni sahnaga qo'ydilar.

1997-yil oktabrda Toshkentda bo'lib o'tgan «Teatr: Sharq-G'arb» xalqaro festivalida Yaponiya, Hindiston, Gonkong, Turkiya, Rossiya, Buyuk Britaniya teatr san'atkorlarining chiqishlari bo'ldi.

Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlangan festivalda O’zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston teatrlarining 15 ta eng yaxshi tarixiy sahna asarlari namoyish etildi. O’zbekistonlik teatr ustalari Germaniya, Fransiya, Slovakiya, Hindiston, AQSH, Belgiya, Misr, Rossiya teatr festivallarida qiziqarli spektakllar bilan ishtirok etdilar.

Muxtasar aytganda, respublikamiz teatr san'ati xalqimiz, ay-niqsa, yoshlarimiz ma'naviyatini boyitish, ular ongiga Milliy istiqlol g'oyasini singdirish, vatanparvarlik tuyg'ularini kuchaytirish, axloqiy, estetik tarbiya maktabi bo'lib xizmat qilmoqda.

O’zbek sirki

1992-yilda «O'zbekdavlatsirk» respublika birlashma-sining tashkil etilishi sirk san'atining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Toshkent sirki zamonaviy talablar asosida qayta ta'mirlandi, unga O’zbekiston xalq artisti Toshkenboy Egamberdiyev nomi berildi. An'anaviy sirk san'atining unitilgan turlari tiklandi va rivojlandi. Iste'dodli yoshlarga amaliy yordam berish maqsadida 1996-yilda estrada-sirk kolleji ochildi.

«O'zekspomarkaz», Milliy bank, Markaziy bank, «Toshkentplaza» savdo markazi, Respublika birja markazi, banklararo moliyaviy xizmatlar Markazi, O’zbekiston Davlat konservatorlyasi va boshqa binolarni kiritish mumkin.

Toshkent shahri ko'rkiga ko'rk qo'shib turgan «Oloy», «Chorsu», «Otchopar», «Yunusobod», «Mirobod», «Parkent», «Qo'yliq» va boshqa bozor binolari, shuningdek, «Yunusobod» tennis markazi, «Jar» sport markazi singari zamonaviy inshootlar barpo etildi.

O’zbekistonning qadimiy shaharlaridagi tarixiy binolarni tiklash ishlari jadallik bilan olib borildi. Bunga Toshkent, Samarqand, Shahrisabz, Buxoro, Xiva shaharlarida qayta tiklangan o'nlab binolar, obidalar misol bo'laoladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini hayotga tatbiq etish jarayonida yuzlab akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun mahobatli binolar buniod etildi.

Mustaqillik yillarida haykaltaroshlik san'ati jadal o'sdi. Haykaltarosh I.Jabborov va K.Jabborovlar tomonidan Toshkentda Amir Temurning otliq haykali, Samarqand va Shahrisabzda Amir Temur haykallari, Farg'ona va Quvada al-Farg'oniy (1998), Xorazmda Jaloliddin Manguberdi haykallari (1999) yaratildi. Haykaltarosh R.Mirboshiyev ijodiga mansub «Z.M.Bobur» (1993, Andijon), «Abdulla Qodiriy» (1994, Toshkent), «Cho'lpon» (1997, Andijon), «Ona» (1999, Jizzax shahri) kabi bir qator haykal va yodgorliklar yaratildi. 1999-yilda Termizda «Alpomish» haykali va majmua-kompozitsiyasi (A.Rahmatullayev va boshqalar) buniod etildi.

O’zbekistonda qadimdan amaliy san'at o'ziga xos tarzda rivojlanib kelgan. Mustaqillik yillarida badiiy kulolchilik, pichoqchilik, zargarlik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, naqqoshlik, kashtachilik, zar-do'zlik, gilamdo'zlik, bezakchilik kabi amaliy san'at turlari tiklandi va yangi ma'no-mazmun bilan rivojlanib bormoqda. Mustaqillik sharofati bilan dizayn san'ati ham jadal rivojlanmoqda. Tasviriy san'at, rassomchilik san'atining rivojida 1997-yilda tashkil etilgan O’zbekiston Badiiy akademiyasi va «Tasviriy oyina» respublika ijodiy uyushmasi muhim rol o'ynadi. O’zbekiston xalq rassomlari Malik Nabiyev, Bahodir Jalolov va boshqalar xalqimiz ongida milliy g'urur, Vatanga sadoqat tuyg'ularini uyg'otuvchi qator san'at asarlari yaratdilar. Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bobur Mirzo portretlari shular jumlasidandir. Tasviriy va miniatura san'ati yangi ma'no-mazmun bilan boyidi. Shahar ko'chalariga bugungi hayotimizni tasvirlovchi rasmlar o'rnatildi, binolarning devorlari odarnlarga huzur-halovat, zavq bag'ishlaydigan naqshlar bilan bezatildi. ;y $thi0 san-stL Mustaqillik yillarida kino san'ati rivoj topdi. 1996-yilda «O'zbekfilm» tasarrufida 8 ta kinostudiya, 30 ga yaqin mustaqil ijodiy studiyalar faoliyat yuritdi. 1996-yilda tashkil etilgan «O'zbekkino» davlat aksionerlik kompaniyasi, uning davlat tomoni-dan moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi kino san'atining rivojida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 1991-2002-yillarda 60 ga yaqin badiiy filmlar yaratildi. «Temir xotin», «Dallol», «Sharifva Ma'rif», «Tilla bola», «Buyuk Amir Temur», «Yulduzingni ber, osrnon», «Kenja singil» va boshqa filmlarda milliylik va zamonaviylik uyg'unligi yaqqol namoyon bo'ldi. 1997-yil 22-29 may kunlari XII Xalqaro Toshkent kinofestivali bo'lib o'tdi. Unda 32 ta davlat va 8 ta xalqaro tashkilotdan vakillar, kino san'ati ustalari qatnashdi. «Buyuk Arnir Temur» filmi ijodkori R.Ibrohimovga festival bosh sovrini -«Neksiya» avtomobili berildi.

Mustaqillik yillarida o'nlab hujjatli filmlar yaratildi. «O’zbekiston bahorlari», «Ulkan odim», «Ular Germaniyada o'qigan edilar», «O’zbekiston qahramonlari», «Umid qaldirg'ochi», «Istiqlol fidoyilari» va boshqalar shular jumlasidandir.

O‘ZBEKISTON TARIXI FANIDAN MA'RUZA MAVZULARI

№	Mavzular	soat	Bajarilish muddati	izoh
1	**Mavzu: O‘zbekiston tarixi faning predmeti, uni o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari, manbalari va ahamiyati** REJA 1. O‘zbekiston tarixi fanining predmeti va ob'yekti 2. O‘zbekiston tarixining dolzarb muammolari. 3.O‘zbekiston tarixni o‘rganishda manbalarning ahamiyati 4. “O‘zbekiston tarixi” fanining yoshlarni har tomonlama yetuk, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati Tayanch iboralar: Fanning predmet iva dolzarb muammolari, xolislik, ilmiylik, tarixiylik, dialektik uslub, moddiy va yozma manbalar.	2	1 hafta	
2	**Mavzu: Markaziy Osiyo jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi** REJA: 1. O‘zbekiston qadimgi sivlizatsiya va madaniyat beshigi. 2. O‘zbekiston xududida ibtidoiy jamoa tuzumi. Antropogenez jarayonlari. 3. Markaziy Osiyoda ilk shahar madaniyatining paydo bo‘lishi. 4. Dastlabki sivilizatsiyaning ma'naviy asoslari. Avesto Tayanch iboralar: Sivilizatsiya, rivojlanishdagi notekistlik, antropogenez jarayonlari, poleolit, mezolit, neolit, eneolit, bronza, Teshiktosh, Joytun, Hisor, Kaltaminor, Zamonbobo, Sopolli, Kromanyon, Matriarxat, Patriarxat, petrogliflar.	2	2 hafta	
3	**Mavzu: O‘zbek davlatchiligining shakllanishi va dastlabki taraqqiyot bosqichlari** REJA: 1. Davlatchilik tushunchasi. Davlat tuzilmalarining shakllanish shart-sharoitlari va omillari 2. Kadimgi Xorazm, Baktriya, Sugdiyona, uning o‘zbek davlatchiligining shakllanishidagi o‘rni 3. O‘rta Osiyoda antik davr davlatlari.Ularning ijtimoiy-iktisodiy va madaniy hayoti 4. Buyuk ipak yo‘lining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. Tayanch iboralar: Davlatchilik, Shaxarsozlik madaniyati, Baktro, Kiziltepa, Ko‘ktepa, Afrosiyob, Uzunqir, Yerqo‘rg‘on, Kanga, Avesto, Ellinizm, Antik davr, Guyshuan, Kanishka, Budaviylik, moniylik, Yunon-Boxtar yozuvi	2	3 hafta	
4	**Mavzu: O‘zbek xalqining etnik shakllanishi** REJA: 1. O‘zbek xalqi etnognezi va uning tarixshunosligi. O‘zbek xalqining etnik shakllanishi va uning asosiy bosqichlari. 2. Mil.av. I yillikning o‘rtalarida Markaziy Osiyo hududlaridagi etnik va ijtimoiy holat 3. IX-XII asrlardagi etnik- madaniy jarayonlar.	2	4 hafta	

	4. O‘zbek xalqi etnogenezining keyingi davrlari. «O‘zbek» atamasi Tayanch iboralar: Etnogenez, xorazmiylar, sug‘diylar, baqtriyaliklar, saklar, massagetlar, Dashti Qipchok, «Iki daryo oralig‘i tipi», «O‘zbek atamasi», O‘zbekxon			
5	**Ilk o‘rta asrlar o‘zbek davlatchiligi: ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayot** REJA: 1. Ko‘chmanchi kidariylar va xioniylar, ularning O‘rta Osiyoga yurishlari 2. Eftaliylar davlati. Ijtimoiy -iqtisodiy hayot madaniyat, diniy e'tiqodlar 3.Turk xoqonligining vujudga kelishi,ikki qismga bo‘linib ketishi. Madaniyat, yozuv tizimlari. 4. Arab xalifaligining paydo bo‘lishi. Boskinchilik yurishlari. Islom dinining yoyilishi. Tayanch iboralar: Eftaliylar, Mazdak xarakati, «Turk» atamasi, Xoqon, Abruy ko‘zg‘oloni, So‘g‘d, Choch, Afrigiylar, Kutayba ibn Muslim, Kur'on, Arablashtirish, Abu Muslim, Muqanna.	2	5 hafta	
6	**1X-XPI asrlarda o‘zbek davlatchiligi, siyosiy ijtimoiy va iqtisodiy madaniy hayot.** 1. X asr boshlarida Movarounnaxrning siyosiy ahvoli. Toxiriylar davlati. Somoniylar davlatining tashkil topishi. Qoraxoniylarni ikkiga bo‘linishi zaiflashuvi. 2.Xorazmshox-Anushteginlar sulolasining o‘rnatilishi. Davlatni boshqarish tizimi Ijtimoiy iqtisodiy hayot. 3. Mo‘g‘ullarning O‘rta Osiyoga harbiy yurishlari va uning oqibatlari. Jaloliddin Manguberpdi jasorati. Chig‘atoy ulusining tashkil topishi. Ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayot. 4. O‘rta Osiyo xalqlari hayotida 1X-XSH asrlarda yuz bergan (renessans) uyg‘onish davri. Fan va madaniyatning yuksak ravnaqi.O‘rta Osiyolik buyuk islomshunos olimlar	2	6 hafta	
7	**Amir Temur va temuriylar davrida ijtimoiy-siyosiy, iktisodiy va madaniy xayot.** Reja 1. X1V asrning o‘rtalarida Movarounnahrdagi vaziyat. Amir Temurning markazlashgan davlat tuzishi, uning harbiy yurishlari 2. Amir Temur davlatining ichki va tashqi siyosati. Temur tuzuklari 3. Amir Temur vafotidan keyin markazlashgan davlatning parchalanishi 4. Movarounnahrda Mirzo Ulug‘bek hukmronligi 5. Amir Temur va temuriylar davri madaniyati Tayanch iboralar: Markazlashgan davlat, Amir Temur, «Loy jangi», Ilyosxo‘ja, Sarbadorlar, Temur davlati, harbiy yurishlar, Anqara jangi, suyurg‘or, devonbegi, arkbegi, tarxon, «Kuch adolatdadir», «Temur tuzuklari». Behzod, Madaniyat	2	7 hafta	

o'quv yurtlari kutubxonlariga tarqatildi.

Mamlakatimizda iqtidorli yoshlarni izlab topish, ularga ko'maklashish, qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosati sobit qadamlik bilan olib borilmoqda. Iste'dodli yoshlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, chet elda o'qishini qo'llab-quvvatlash maqsadida "Respublika bolalar fondi", "Sog'lom avlod uchun", "Iste'dod" jamg'armalari tashkil topdi. «Zulfiya» mukofoti ta'sis etildi. Ta'lim sohasida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi. 2000 dan ortiq talaba va mutaxassislar chet elda o'qib keldi.

O’zbekiston ta'lim tizimi dunio miqyosida katta qiziqish uyg'ot-moqda. Moskvadagi Oliy ta'lim Xalqaro Fanlar akademiyasi prezidenti V.Shukshunov O’zbekistonda ishlab chiqilgan bu Milliy dasturni mazmun-mohiyati jihatidan tengi yo'q hujjat, deb ta'rifladi. O’zbekistonda yaratilayotgan ta'lim tizimi «Ta'limning o'zbek modeli» deb e'tirof etildi.

Madaniyat ravnaqi

Mustaqillik yillarida badiiy adabiyotda milliylik, ming yiliik tarixiy ijodiy an'analar, umuminsoniy qadriyatlar, erkin fikr yuritish tamoyillari tiklandi. Badiiy adabiyot sinfiylik, partiyaviylik, kommunistik mafkuraviylik kabi aqidalar hukmronligi illatlaridan ozod bo'ldi.

Badiiy adabiyotda mustaqillikni asrab-avaylash, ozod va obod Vatan qurish, barkamol insonni tarbiyalash, milliy o'zlikni anglash kabi masalalar bosh mavzu bo'lib qoldi.

Abdulla Oripov, Odil Yoqubov, Primqul Qodirov, Xurshid Davron kabi ijodkorlarning tarixiy roman, pyesa va qissalarida ulug' bobokalonlarimiz Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Z.M.Bobur va boshqalarning siymolari umuminsoniy va milliy qadriyatlarga mos tarzda yangicha talqinda yoritildi. Xalqaro Sholoxov mukofoti laureati To'lepbergen Qayipbergenovning «U dunioga, bobomgaxat» asari, Shukrulloning «Kafansiz ko'milganlar» romanida, Nazar Eshonqulovning «Qora kitob» povestida, O'tkir Hoshimovning «Tushda kechgan umrlar», Tog'ay Murodning «Otamdan qolgan dalalar» singari asarlarida mustabid sovet davrida xalq boshiga solingan behad kulfatlar, g'am-alamlar haqqoniy tasvirlangan.

Tohir Malikning «Shaytanat» (4 kitob), Hojiakbar Shayxovning «Tutqin odamlar» asarlarida insonni iymon va vijdondan ozdirishga, razolat va qabohat ummoniga botirishga urinuvchi yomonlik duniosi, mafiya olami shaytonlari fosh qilinadi, ularga nisbatan nafrat tuyg'ulari tarannum etiladi.

Omon Muxtorning «To'rt tomon qibla» nomli trilogiyasi, Barot Boyqobulovning «O'zbeknoma» tarixiy-falsafiy dostoni, Abduqahhor Ibrohimovning «Biz kim, o'zbeklar” badiiy -tarixiy asari, Azim Suyunning «Oq va qora», Abduvali Qutbiddinning «Izohsiz lug'at» she'riy asarlari zamonaviy o'zbek adabiyotining yorqin ifodasidir.

O'zbek xalqi me'morchiligi

Mustaqillik yillarida me'morchilik san'ati yanada rivojlanib, takomillashib bormoqda. Me'morchilikda ikki asosiy tamoyil ko'zga tashlanadi. Ulardan biri sharqona me'morchilikning an'anaviy qonun-qoidaiariga rioya yetishdir. Bu tamoyil Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Turkiston saroyi, Oliy Majlis, Senat, Toshkent shahar hokimiyati binolari timsolida o'z aksini topgan.

Me'morchilikdagi ikkinchi tamoyil esa O’zbekistonning jahon tiamjamiyatidan munosib o'rin olish sari intilishini namoyish etuvchi jahon me'morchiligining eng yaxshi yutuqlaridan foydalanishda namoyon bo'lmoqda. Bunday binolar jumlasiga « Meridian», «Afrosiyob» (Samarqand), «Buxoro» «Interkontinental», «Sheraton» meh-monxonalari,

Ma'naviy-ma'rifiy sohadagi yutuqlarimiz ta'lim tizimidagi tub o'zgarishlarda yaqqol namayon bo'lmoqda. Xalq ta'limini isloh qilish, kadrlar tayyorlash tizimini mustahkamlash sohasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi. Yangi oliy o'quv yurtlari tashkil etilib bilimlarning yangi tarmoqlari bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Oliy ta'lim tizimidagi 16 universitetning 12 tasi mustaqillik yillarida tashkil etildi. Mustaqillik yillarida eng zarur zamonaviy mutaxassisliklar bo'yicha o'nlab yangi oliy o'quv yurtlari - Mudofaa vazirligi qoshida Harbiy akademiya, Ichki ishlar vazirligi qoshida Ichki ishlar akademiyasi, Bank-moliya akademiyasi, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyauniversiteti, Toshkent aviatsiya instituti, Navoiy tog'-konchilik instituti, Toshkent Moliya instituti va boshqalar tashkil etildi.

Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan ta'limni tubdan isloh qilish yo'llari ishlab chiqildi. 1997-yil 27-avgustda Oliy Majlisning IX sessiyasida O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi. Milliy dasturning maqsadi ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdan iboratdir.

Milliy dastur ro'yobga chiqmoqda. Yoshlar umumiy o'rta ta'limni 9 yillik maktablarda oladilar, yana uch yil davomida yangidan tashkil etilgan akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida o'rta maxsus bilim va kasb-hunar o'rganadilar.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan vazifalarni bajarish umumxalq, umummillat ishiga aylandi. 2001-yilda Kadrlar tayyor-lash milliy dasturini amalga oshirishning birinchi bosqichi yakunlandi.

2001-yilda respublikamizda 6742 ta maktabgacha ta'lim muassasalarida 608500 nafar o'g'il-qizlartarbiyalandi. Ularda 65862 nafar pedagog, tarbiyachi va boshqa xodimlar xizmat qildi. 9727 ta umumta'lim maktablarida 440762 nafar o'qituvchi 6,3 mln. o'quvchiga ta'lim bermoqda. Umumiy o'rta ta'lim bo'yicha barcha o'quv fanlaridan Davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi va ular 346 ta maktabda tajribadan o'tkazildi, ta'lim jarayoniga joriy etildi. Davlat ta'lim standartlariga mos o'quv dasturlari va darsliklari yaratildi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini eng muhim, O'zbekistonga xos xususiyati yangi turdagi 3 yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimini yaratishdir. 1998-2004-yillar davomida zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalari bilan jihozlangan 54 ta akademik litsey va 533 ta kasb -hunar kolleji barpo etildi. Bu maqsadlar uchun 135 mlrd. so'm mablag' sarflandi. O'rta maxsus o'quv yurtlariga zarur bo'lgan jihozlar sotib olish uchun jalb qilingan chet el investitsiyalarining miqdori 150 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari ishlab chiqildi, amaliyotga kiritildi va darsliklar yaratildi. 2003-2004 o'quv yilida akademik litseylarda 26,2 ming, kasb-hunar kollejlarida 531,6 ming o'quvchi ta'lim oldi.

Oliy ta'lim tizimida katta o'zgarishlar qilindi. Oliy ta'lim ikki bosqichdan - bakalavriat va magistrattiradan iborat etib qayta tashkil etildi. 62 ta oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan bo'lajak bakalavr va magistrlar soni 2003-2004-o'quv yilida 254400 nafarni tashkil etdi. 18486 nafar professor-o'qituvchilar mehnat qilmoqdalar, ularning 1462 nafari fan doktori, 7201 nafari fan nomzodidir. O'tgan 4 yil davomida barcha yo'nalishlar bo'yicha bakalavr va magistrlar uchun qo'yiladigan talablarni o'zida mujassamlashtirgan Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari yaratildi. Oliy ta'lim uchun 1129 nomdagi darslik va o'quv adabiyotlari nashr etildi va Oliy

8	**O‘zbekiston hududlarining xonliklarga bo‘linib ketishi, uning sabablari va oqibatlari** 1. Tarixiy yozma manbalar. Shayboniylar va Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligi. 2. Mang‘itlar sulolasi. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot. 3. Buxoro amirligining ichki va tashqi munosabatlari 4. Buxoro amirligida madaniy hayot. 5. Xiva va qo‘qon xonliklaridagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot. Tayanch iboralar: Shayboniyxon, Bobur, Safaviylar, Ubaydulloxon, Ashtarxoniylar, Xokimiyatni kuchaytirish uchun kurash, Buxoro mang‘itlari, «Tarixi mang‘itiya», Siyosiy parokandalik	2	8 hafta	
9	**O‘zbek xonliklarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olishi. Mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy-ozodlik harakati. Jadidchilik.** REJA: 1. Mavzu tarixshunosligi. XIX asr o‘rtalarida o‘zbek xonliklarning ijtimoiy-siyosiy ahvoli. 2. Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyoni bosib olishi.Mustamlakachilik ma'muriy idora usulining joriy etilishi. 3. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy ozodlik harakatlari. 4. Turkistonda jadidlar harakatining yuzaga kelishi. Ularning ijtimoiy-siyosiy qarashlari. Tayanch iboralar: Angliya bilan Rossiya raqobati., Oqmachit, Avliyoota, Turkiston, Chimkent, Jizzax, O‘ratepa, Kaufman, Zirabuloq jangi, Xiva, Gandimiyon shartnomasi, Po‘latxon, Kaspiy orti viloyati, 1886 yil Nizom, Temir Yo‘l, Ruslashtirish, Rozenbax, Rus- tuzem maktablari, Qurbonjon Dodxox, Dukchi Eshon ko‘zg‘oloni, Jadidchilik, I. Gaspirali. Avloniy, Bexbudiy, 1916 y. ko‘zg‘oloni.	2	9 hafta	
10	**Turkistonda sovet hokimiyatiing o‘rnatilishi va unga qarshi qurolli harakati.** Reja 1. Rossiyada 1917 yil fevral burjua -demokratik inqilobi, uning o‘lkamizga ta'siri. 2. Turkiston muxtoriyatining tashkil etilishi. Qo‘qon fojeasi 3. Farg‘ona vodiysida sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat, uning mohiyati, harakatlantiruvchi kuchlari. 4. Xiva xonlgi va Buxoro amirligida ijtimoiy siyosiy ahvol. Sovetlar istibdodiga qarshi qurolli harakatlar Tayanch iboralar: Fevral inqilobi, sho‘roi islom , sho‘roi ulamo, oktyabr to‘ntarishi, Turkiston muxtoriyati, Farg‘ona muvaqqat xukumati, Buxoro va Xorazm qo‘rboshchilari	2	10 hafta	
11	**Sovet davlatida ma'muriy buyruqbozlik tuzumining kuchayishi va inqirozi davrida O‘zbekiston.** Reja 1. Urushdan keyingi yillarda xalk xujaligini kayta tiklash uchun kurash.	2	11 hafta	

	2. 50-70 yillarda Uzbekistonda siyosiy, ijtimoiy-iktisodiy xayot. 3. Paxta yakkaxokimligining kuchayishi va ekologik muammolarning kelib chikishi. 4. Kayta kurish siyosati va uning cheklanganligi.			
12	**O‘zbekistonda davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi. Demokratik huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyat asoslarining barpo etilishi** Reja 1. 1991 yil 31 avgust O‘zbekiston davlat mustaqilligining e'lon qilinishi va uning tarixiy ahamiyati. 2. I.A.Karimov O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 3. Siyosiy islohotlar. Davlat hokimiyatining milliy, huquqiy, demokratik asoslarining shakllanishi. 4. O‘zbekistonda erkin fuqarolik jamiyati asoslarining yaratilishi Tayanch iboralar: Referendum, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyati, vazirlar mahkamasi, ko‘ppartiyaviylik, o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari.	2	12 hafta	
13	**Mustaqillik yillarida O‘zbekistonning iqtisodiy, ma'naviy-madaniy taraqqiyoti** Reja 1. Taraqqiyotning “O‘zbek modeli”. O‘zbekistonning o‘ziga xos va o‘ziga mos taraqqiyot yo‘lining jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilishi. 2. Bozor infratuzilmasining shakllanishi. 3. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida O‘zbekistonning kuchli ijtimoiy siyosati. 4. Mustaqillik yillarida ma'naviy hayot. Tayang iboralar: O‘zbek modeli, xususiylashtirish, ko‘p ukladli iqtisodiyot, qadryatlar, ta'lim to‘g‘risidagi qonun, kadrlar tayyorlash milliy dasturi, ilm fan, madaniyat.	2	13 hafta	
14	**O‘zbekistonning va jaxon hamjamiyatigi integratsiyalashuvi** Reja 1. O‘zbekistonning jug‘rofiy siyosiy imkoniyatlari. Uning Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida tutgan o‘rni. 2. Tinchliksevar mustaqil tashqi siyosat asoslarining ishlab chiqilishi, uning tamoyillari. 3. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo‘shilishi. 4. O‘zbekistonning MDH davlatlari bilan ko‘p tomonlama va ikki tomonlama aloqalari Tayanch iboaralr: Tinchliksevar tashqi siyosat, xorijiy investitsiyalar, ochik eshiklar siyosati, jahon hamjamiyati, MDX, BMT, YEXXT, Yunesko, NATO, YUNISEF, qo‘shilmaslik harakati, qo‘shma korxonalar	2	14 hafta	
	JAMI	28		

- milliy mafkura, avvalarnbor, o'zligimizni, muqaddas an'analarimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarni qamrab olishi shart;

- ikkinchidan, jamiyatimizda bugun mavjud bo'lgan xilma-xil fikrlar va g'oyalar, erkin qarashlardan, har qanday toifalar va guruh- larning intilishlari va umidlaridan, har qanday insonning e'tiqodi va dunioqarashidan qat'i nazar, ularning barchasini yagona milliy bayroq atrofida birlashtiradigan, xalqimiz va davlatimizning daxlsizligini asraydigan, el-yurtimizni eng buyuk maqsadlar sari chorlaydigan yagona g'oya-mafkura bo'lishi kerak;

- uchinchidan, milliy mafkuramiz har qanday millatchilik va shunga o'xshagan unsurlardan, boshqa elat va xalqlarni mensimaslik, ularni kamsitish kayfiyati va qarashlaridan mutlaqo xoli bo'lib, qo'shni davlat va xalqlar, umuman jahon hamjamiyatida, xalqaro maydonda o'zimizga munosib hurmat va izzat qozonishda poydevor va rahnamo bo'lishi darkor;

- to'rtinchidan, milliy g'oya birinchi navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek olijanob ishlarimizda madadkor bo'lishi zarur;

- beshinchidan, u Vatanimizning shonli o'tmishi va buyuk kelajagini uzviy bog'lab turishga, o'zimizni ulug' ajdodlarimiz boqiy merosining munosib vorislari deb his qilish, shu bilan birga, jahon va zamonning umumbashariy yutuqlariga erishmoqqa yo'l ochib beradigan va shu maqsadlarga muttasil da'vat qiladigan g'oya bo'lishi kerak.

Yurtboshimiz hozirgi zamonda insonlarning qalbi va ongini egallash uchun mafkuraviy kurash bo'layotganligi, ko'p narsalarni mafkura majydonlarida bo'layotgan kurashlar hal qilishi mumkinligi,

O’zbekistonda ham ba'zi yoshlarni yo'ldan chalg'itadigan diniy ekstremizm havfi mayjudligi haqida ogohlantirib kelmoqda. 80-yillarning oxirlarida mamlakatimizga o'zini «do'st», «diadosh», «millatdosh» qilib ko'rsatib, go'yo islom dinining sofligi uchun kurashishga «da'vat» etuvchi ayrim kimsalar kirib kelganligi ma'lum. Ular muqaddas islom dinimizning asl mohiyatini bilmaydigan oddiy odamlarni, g'o'r yoshlarni o'z tuzog'iga ilintirib, bizga begona bo'lgan diniy aqidalarni yoyishga urindi, ayrim yoshlarni o'ziga mahliyo qilishga, jaholat va jinoyat botqog'iga tortishga ulgurishdi ham. Namangan, Toshkent va Andijonda sodir etilgan qonli voqealardan keyingina bu kuchlarning niyati hokimlyat uchun kurash bo'lib, ular din niqobi ostida harakat qilayotgan xalqaro terrorchilik harakatiriing O’zbekistondagi bir to'dasi ekani oshkor bo'ldi. Mustaqillikning dastlabki yillarida eski mafkuradan voz kechish natijasida paydo bo'lgan bo'shliq vaziyatida begona g'oyalarning O’zbekistonga huruji kuchaydi.

Bunday mafkuraviy ta'sirlar salbiy oqibatlarga olib kelmasligi uchun nima qilish kerak?

«Buning yo'li -odamlarimiz, avvalarnbor yoshlarimizning iymon-e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash... Farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta'bir joiz bo'lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur”.1

G'oyaning asosiy tamoyillari ta’lim va madaniy-ma'rifiy muassasalari, ommaviy axborot vositalari, adabiyot va san'at, mahallalar va mehnat jamoalari tomonidan odamlar ongi va qalbiga singdirilmoqda.

Ta’lim ravnaqi.

diniy ta'lim muassasasi faoliyat ko'rsat-moqda. 1999-yilda Toshkentda Islom Universiteti ochildi.

O'zbekiston hududida xalqning ulug'vor va shonli tarixiga oid 2000 dan ortiq yodgorliklar ta'mirlandi.

O'zbek xalqining ming yillar davomida shakllangan, mustam-lakachilik davrida oyoq-osti qilingan insonparvar urf-odatlari va an'analari, madaniy qadriyatlari ehtiyotlab tiklandi va yangi ma'no-mazmun bilan boyitildi. Maqomchilar, to'y-marosim qo'shiqlari, shoir-baxshilar va folklor-etnografik dastalarning o'nlab ko'rik-tan-lovlari o'tkazildi.Pianinochi vaskripkachilarning simfonikvakamer musiqalari, zamonaviy estrada guruhlarining festival va tanlovlari bo'lib o't-moqda.

Mamlakatimizda o'zbek tilining xalq va davlat turmushidagi o'rni va ahamiyati qayta tiklandi. Davlat tili haqidagi qonunda o'zbek tili o'zbek xalqining ma'naviy mulki ekanligi, uning ravnaqi, qo'llanilishi va muhofazasi davlat tomonidan ta'minlanishi belgilab qo'yildi. Oliy davlat hokimiyati, rnahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarida, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda ish yuritish, asosan, o'zbek tilida olib borilmoqda. Respublikamizning ma'muriy-hududiy birlik-lari, ko'chalari, geografik o'rinlarning nomlariga yagona milliy shakl berildi va o'zbek tilida yozib qo'yildi. Natijada, o'zbek xalqining milliy qadr-qimmati qayta tiklandi va mustahkamlandi. Shuningdek, O'zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlarning tillari, qadr-qimmati ham o'z o'rniga qo'yilgan.

Milliy istiqlol g'oyasi, uning tarixiy ildizlari

Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish sohasidagi eng asosiy vazifa milliy istiqlol g'oyasini shakllantirish va odamlar ongiga singdi-rishdan iboratdir.

1993-yil 23-aprel kuni Prezident Islom Karimov bir guruh adiblar bilan suhbat qilib, milliy istiqlol g'oyasini yaratishning zaruriyati va ahamiyatini asoslab berdi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII sessiyasida 1993-yil 7-may kuni nutq so'zlab, Prezident Islom Karimov quyidagilarni ta'kidladi:

- "milliy istiqlol g'oyasi xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diliga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr- oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma'rifat tuyg'ularini ongimizga singdirishi lozim".

- shu bilan birga bu g'oya xalqimizda o'zining qudrati va himoyasiga suyangan holda, umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, jahon hamjamiyatidagi taraqqiy topgan davlatlar orasida teng huquqli asosda munosib o'rin egallashiga doimiy intilish hissini tarbiyalamog'i kerak.

«Tafakkur» jurnalining 1998-yil 2-sonidajurnal bosh muharriri savollariga Prezident I.Karimovning javoblari e'lon qilindi. Mazkur javoblarda milliy g'oyamizni nazariy va amaliy jihatlari yanada chuqurroq yoritildi. Bugungi kunda sobiq sovetlar zamonida hukmronlik qilgan, odamlarni qullik, mute'lik holatiga solgan, manqurtga aylantirgan kommunistik mafkurani tanqid qilish, ma'muriy choralar ko'rish yo'li bilan yengib bo'lmaydi. «G'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin», - degan haq fikrni ilgari surdi.

Milliy istiqlol g'oyasidan kutilgan maqsad nima?

Prezident I.Karimov suhbatda «Xo'sh, milliy g'oya, milliy mafkura nitnalarni o'zida mujassamlashtirishi va qanday talablargajavob berishi kerak?» degan savolni qo'yadi va unga javob berar ekan, quyidagi dasturiy ahamiyatga molik fikr-mulohazalarni, vazifalarni ilgari surdi:

«O'ZBEKISTON TARIXI» FANIDAN SEMINAR MASHG'ULOTLARI

№	Mavzular	soat	Bajarilish muddati	izoh
1	**Mavzu: Markaziy Osiyo insoniyat sivilizatsiyasining kadimgi o'choklaridan biri** REJA: 1. Jaxon tarakkiyoti tarixida Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining o'rni. 2. Markaziy Osiyo xududida ibtidoiy jamoa tuzumi. Antropogenez jarayonlari. 3. "Avesto" Uzbekiston tarixini urganishda muxim manba.	2	1 hafta	
2	**Mavzu: O'zbek davlatchiligining shakllanishi va dastlabki taraqqiyot** Reja: 1. Ilk davlatlar paydo bo'lishining asosiy omillari. Xorazm, Baqtriya, Sug'diyona. 2. O'rta Osiyoda antik davr davlatlari. Ularning ijtimoiy -iqtisodiy va madaniy hayoti. 3. Kushonlar saltanati. Kushon davlati va madaniyatining Vatanimiz xalqlari tarixida tutgan alohida o'rni.	2	2 hafta	
3	**Mavzu: Buyuk ipak yo'li: shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va hozirgi zamon.** Reja: 1. Eng qadimgi yo'llar. Buyuk ipak yo'lining paydo bo'lishi va rivojlanishi. 2. Amir Temur va temuriylar davrida Buyuk Ipak yo'li shuhratining yanada ortishi. 3. XU1 asrdan boshlab Buyuk ipak yo'li ahamiyatining pasayishi, uning sabablari 4. Hozirgi davrda Buyuk Ipak yo'li an'analarini tiklash va rivojlantirish borasidagi xalqaro hamkorlik harakatida O'zbekistonning ishtiroki.	2	3 hafta	
4	**Mavzu: O'zbek xalqining etnik shakllanishi** REJA: ko'ring 1. O'zbek xalqi etnognezi va uning tarixshunosligi. O'zbek xalqining etnik shakllanishi va uning asosiy bosqichlari. 2. Mil.av. I yillikning o'rtalarida Markaziy Osiyo hududlaridagi etnik va ijtimoiy holat 3. IX-XII asrlardagi etnik- madaniy jarayonlar. 4. O'zbek xalqi etnogenezining keyingi davrlari. «O'zbek» atamasi Tayanch iboralar: Etnogenez, xorazmiylar, sug'diylar, baqtriyaliklar, saklar, massagetlar, Dashti Qipchok, «Iki daryo oralig'i tipi», «O'zbek atamasi», O'zbekxon	2	4 hafta	
5	**Ilk o'rta asrlar o'zbek davlatchiligi: ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayot** REJA: 1. Ko'chmanchi kidariylar va xioniylar, ularning O'rta Osiyoga yurishlari	2	5 hafta	

	2. Eftaliylar davlati. Ijtimoiy -iqtisodiy hayot madaniyat, diniy e'tiqodlar 3. Turk xoqonligining vujudga kelishi,ikki qismga bo‘linib ketishi. Madaniyat, yozuv tizimlari. 4. Arab xalifaligining paydo bo‘lishi. Boskinchilik yurishlari. Islom dinining yoyilishi. Tayanch iboralar: Eftaliylar, Mazdak xarakati, «Turk» atamasi, Xoqon, Abruy ko‘zg‘oloni, So‘g‘d, Choch, Afrigiylar, Kutayba ibn Muslim, Kur'on, Arablashtirish, Abu Muslim,Mukanna.			
6	**Mavzu: 1X-XPI asrlardao‘zbekdavlatchiligi, siyosiyijtimoiyvaiqtisodiyhayot.** REJA: 1. 1X asr boshlarida Movarounnaxrning siyosiy ahvoli. Toxiriylar davlati. Ijtimoiy iqtisodiy hayot. 2. Somoniylar davlatining tashkil topishi. Ijtimoiy iqtisodiy hayot 3. Qoraxoniylar davlatining tashkil topishi.Ikkiga bo‘linishi,zaiflashuvi. 4. Xorazmshox-Anushteginlar sulolasining o‘rnatilishi. Davlatni boshkarish tizimi. 5. Markaziy Osiyo hududiga mo‘g‘ullar istilosi	2	6 hafta	
7	**Mavzu: O‘rta Osiyo xalqlari hayotida 1X-XP asrlarda yuz bergan (renessans) uyg‘onish davri. Fan va madaniyatning yuksak ravnaqi.** Reja 1. Uyg‘onish davri atamasi. Uning mazmun va mohiyati. 2. IX-XII asrlar O‘rta Osiyoda madaniy yuksalishni ta'minlagan omillar va shart sharoitlar. 3. Ilm-fan ravnaqi. O‘rta Osiyolik allomalar va ularning jahon sivlizasiyasi xazinasiga qo‘shgan hissasi. IX-XII asrlarda islom dini va so‘fiylik. Islom dinini targ‘ib etuvchi markazlar.	2	7 hafta	
8	**Mavzu: Amir Temur - va Temuriylar davrida uzbek davlatchiligi.** Reja: 1. Amir Temur shaxsi. Temurning siyosiy kurash maydoniga kirib kelishi 2. Movarounnahr va Xurosonda markazlashgan o‘zbek davlatchiligini bunyod etishda Amir Temurning buyuk tarixiy xizmati 3. Amir Temur davlatining ichki va tashqi siyosati. 4. Amir Temur- atoqli davlat arbobi, mohir diplomat.	2	8 hafta	
9	**Uzbekiston xududlarining xonliklarga bulinib ketishi, uning sabablari va okibatlari.** REJA: 1. Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligi. 2. Mangitlar sulolasi davrida Buxoro amirligi. 3. XUSH-X1X asr birinchi yarmida Shayboniylar, Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklari. tashkil topish ijtimoiy-iktisodiy,madaniy xayot	2	9 hafta	

xalqimiz tarixini xolisona, haqqoniy yoritish, barcha o'quv maskanlarida Vatan tarixini o'qitish borasida muhim tadbirlar amalga oshirildi.

O'zbek xalqi va o'zbek davlatchiligi tarixini, tariximizning boshqa sahifalarini xolisona ilmiy asosda yoritish vazifalari Prezident I.A.Karimovning bir guruh tarixchilar bilan 1998-yil iyun oyida bo'lgan suhbatida, Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-iyulda qabul qilingan «O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi qarorida belgilab berildi.

Mustaqillik yillarida Vatanimiz tarixini yoritish va o'rganish masalalari partiyaviy, sinfiy yondashuvlardan, hukmron kommunistik mafkura ta'siridan xalos etildi. Necha 10 yillar davomida buzib ko'rsatilgan yoki so'z yuritilmay kelgan tarixiy voqealarni xolislik, tarixiylik, haqqoniylik tamoyillari asosida yoritgan qator ilmiy asarlar, darsliklar va o'quv adabiyotlari yaratildi.

Prezident Farmoni bilan 1996-yil Amir Temur yili deb e'lon qilindi. Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlashga bag'ish-langan tadbirlar O’zbekistonda, dunioning 50 dan ortiq mamlakat-larida o'tkazildi. UNESCO qarori bilan Sohibqiron yubileyi jahon miqyosida nishonlandi. Parijda Amir Temurga bag'ishlangan madaniyat haftaligi, «Temuriylar davrida fan, madaniyat va maorifning gullab yashnashi» mavzusida xalqaro konferensiya va ko'rgazmalar bo'lib o'tdi. Toshkent shahrida Amir Temurga haykal qo'yildi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi tashkil etildi, uning nomi bilan bog'liq tarixiy yodgorliklar ta'mirlandi.

1999-yilda vatanparvar siymo, xalq qahramoni Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi, xalq dahosi yaratgan Alpomish dostonining 1000 yilligining nishonlanishi, Urganch va Termizda ular xotirasiga barpo etilgan yodgorlik majmuasi jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishga, milliy ong va milliy g'ururni ko'ta-rishga xizmat qilmoqda.

Vatanimiz ozodligi yo'lida shahid ketgan Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosir va boshqa xalq jigarbandlarining nomi, hurmati o'z joyiga qo'yildi, asarlari chop etildi. Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan Toshkentda mustamlakichilik davri qurbonlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmui, «Qatag'on qurbonlari xotirasi» muzeyi, fashizmga qarshi janglarda jon fido etgan xalqimizning farzandlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida «Xotira maydoni» majmuasi barpo etildi. Bu tadbirlar xalqimizda milliy ongni yuksaltirishga, tarixiy xotirani tiklanishiga, yoshlarni milliy istiqlol g'oyalari ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Milliy va diniy qadriyatlarning tiklanishi.

Mustaqillik sharofati bilan diniy qad-riyatlar, diniy e'tiqod qayta tiklandi. Ramazon hayiti, Qurbon hayiti, qadimiy xalq bayrami Navro'z qayta tiklandi, bu kunlar Prezident Farmoni bilan dam olish, bayram kuni bo'lib qoldi. Musulmonlar O’zbekiston xalqi tarixida birinchi marta bevosita hukumat homiyligida har yili Haj va Umra amallarini ado etish imkoniyatlariga ega bo'ldilar. Prezident Farmoni bilan tuzilgan «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi, «Oltin meros» xalqaro xayriya jamg'armasi jamiyatning ma'naviy- ma'rifiy ravnaqi yo'lida xizmat qilmoqda.

Respublikada 17 diniy konfessiya ro'yxatga olingan va rasman faoliyat ko'rstamoqda. 170 dan ortiq diniy tashkilotlar ishlab turibdi va ularda O’zbekistonda yashovchi 130 millat va elat vakillari o'zlarining diniy ehtiyojlarini qondirmoqdalar. 1,7 mingdan ortiq masjidlar, xristian ibodatxonalari, sinagoglar va boshqa diniy markazlar ta'mir-landi va yangidan qurildi. 10 ta

7. Karimov I.A. O’zbekiston demokratik islohotlarni chuqurlashtirish yo’lida. O’z R 1 chaqiriq Oliy Kengashining VI-sessiyasida so’zlagan ma’ruzasi. T., 1996.
8. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent. «O’zbekiston», 1992.
9. N. Jo’rayev. Prezident Vatan va millat timsoli. «Muloqot», 1-son 2000 yil.
10. Vatan tuyg’usi. Toshkent. «O’zbekiston», 1996.
11. Davlat, jamiyat, oila va yoshlar tarbiyasi muammolari. Toshkent. «O’zbekiston», 1997.

14-MAVZU:
MUSTAQILLIK YILLARIDA O’ZBEKISTONNING IJTIMOIY – IQTISODIY TARAQQIYOTI. O’ZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATI.

REJA:

1. Mustaqillik yillarida ma’naviy hayot, ma’naviy qadriyatlarning tiklanishi.
2. O’zbekistonda fan, madaniyat va san’atni rivojlantirishga e’tibor.
3. O’zbekistonning bozor munosabatlariga o’tish yo’li.Iqtisodiy islohotlar strategiyasi va uning huquqiy asoslarining yaratilishi.
4. Tinchliksevar tashqi siyosat uning muhim tamoyillari.
5. O’zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan hamkorligi.O’zbekiston va xalqaro tashkilotlar.

TAYANCH TUSHUNCHA VA IBORALAR:

Ma’naviy meros, madaniy taraqqiyot, «Oltin meros» jamg’armasi, «Ma’naviyat va ma’rifat» markazi, Milliy qadriyatlarning tiklanishi, Milliy istiqlol mafkurasi, milliy g’oya, ta’lim-tarbiya tizimi.

Tinchliksevar tashqi siyosat, geografik-strategik imkoniyat, xorijiy investorlar, tashqi siyosatning asosiy tamoyillari, «ochiq eshiklar» siyosati, bankrotlik, jahon hamjamiyati, tadbirlar palatasi, Lizing kompaniyasi, hamdo’stlik mamlakatlari, Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati.

Jamiyat ma'naviyati mamlakat barqa-rorligi va taraqqiyotinig muhim sharti va kafolatidir.Biron-bir mamlakat o'z ma naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay, xalqning milliy ruhini uyg'otmay va mustahkamlamay turib yuksak taraqqiyot darajasiga ko'tarila olmaydi. Shuning uchun mustaqillik yillarida boy ma'naviy merosimizni tiklash tadbirlari amalga oshirildi. Milliy madaniyatimizga, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga buyuk hissa qo'shgan bobolarimiz-Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband, Xo'ja Ahmad Yassaviy, Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur va boshqa ko'plab ajdodlarimizning milliy va ma'naviy merosi xalqimizga qaytarildi, tavallud topgan kunlari butun mamlakat bo'yicha nishonlandi, ruhlari shod etildi, asarlari nashr etildi. Ularning ma'naviy merosi bugungi kunda xalqimizga yangi jamiyat qurishda ma'naviy kuch-qudrat bag'ishlamoqda, jamiyatimizni ma'naviy yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishda tarixiy xotira, ajdodlar tarixini bilish, milliy axloqiy qadriyat hamda an'analar va muqaddas dinimizning o'rni va ahamiyati katta. Biron-bir xalq o'z tarixini bilmay, asrlar osha yaratilgan ma'naviy merosga tayanmay va uni yanada rivojlantirmay turib o'z kelajagini tasavvur eta olmaydi. Shu bois, mustabid tuzum davrida soxtalashtirilgan

10	**O‘zbek xonliklarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olishi. Mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy-ozodlik harakati. Jadidchilik.** REJA: 1. Mavzu tarixshunosligi. XIX asr o‘rtalarida o‘zbek xonliklarning ijtimoiy-siyosiy ahvoli. 2. Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyoni bosib olishi. Mustamlakachilik ma'muriy idora usulining joriy etilishi. 3. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy ozodlik harakatlari. 4. Turkistonda jadidlar harakatining yuzaga kelishi. Ularning ijtimoiy-siyosiy qarashlari. Tayanch iboralar: Angliya bilan Rossiya raqobati., Oqmachit, Avliyoota, Turkiston, Chimkent, Jizzax, O‘ratepa, Kaufman, Zirabuloq jangi, Xiva, Gandimiyon shartnomasi, Po‘latxon, Kaspiy orti viloyati, 1886 yil Nizom, Temir Yo‘l, Ruslashtirish, Rozenbax, Rus-tuzem maktablari, Qurbonjon Dodxox, Dukchi Eshon ko‘zg‘oloni, Jadidchilik, I. Gaspirali. Avloniy, Bexbudiy, 1916 y. ko‘zg‘oloni.	2	10 hafta	
11	**Turkistonda sovet hokimiyatiing o‘rnatilishi va unga qarshi qurolli harakati.** Reja 1. Rossiyada 1917 yil fevral burjua -demokratik inqilobi, uning o‘lkamizga ta'siri. 2. Turkiston muxtoriyatining tashkil etilishi. Qo‘qon fojeasi 3. Farg‘ona vodiysida sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat, uning mohiyati, harakatlantiruvchi kuchlari. 4. Xiva xonlgi va Buxoro amirligida ijtimoiy siyosiy ahvol. Sovetlar istibdodiga qarshi qurolli harakatlar Tayanch iboralar: Fevral inqilobi, sho‘roi islom , sho‘roi ulamo, oktyabr to‘ntarishi, Turkiston muxtoriyati, Farg‘ona muvaqqat xukumati, Buxoro va Xorazm qo‘rboshchilari	2	11 hafta	
12	**Sovet davlatida ma'muriy buyruqbozlik tuzumining kuchayishi va inqirozi davrida O‘zbekiston.** Reja: 1. Urushdan keyingi yillarda xalk xujaligini kayta tiklash uchun kurash. 2. 50-70 yillarda Uzbekistonda siyosiy, ijtimoiy-iktisodiy xayot. 3. Paxta yakkaxokimligining kuchayishi va ekologik muammolarning kelib chikishi. 4. Kayta kurish siyosati va uning cheklanganligi	2	12 hafta	
13	**O‘zbekistonda davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi. Demokratik huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyat asoslarining barpo etilishi** Reja 1. 1991 yil 31 avgust O‘zbekiston davlat mustaqilligining e'lon qilinishi va uning tarixiy ahamiyati.	2	13 hafta	

	2. I.A. Karimov O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 3. Siyosiy islohotlar. Davlat hokimiyatining milliy, huquqiy, demokratik asoslarining shakllanishi. 4. O‘zbekistonda erkin fuqarolik jamiyati asoslarining yaratilishi Tayanch iboralar: Referendum, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyati, vazirlar mahkamasi, ko‘ppartiyaviylik, o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari.			
14	**Mavzu: Mustaqillik yillarida O‘zbekistonning iqtisodiy, ma'naviy-madaniy taraqqiyoti** Reja: 1. O‘zbekiston Respublikasining bozor munosabatlarini shakllantirishda o‘ziga xos yo‘li. 2. Mamlakatimizda iktisodiyotni modernizatsiyalash va yangilanishning izchil davom ettirilishi. 3. Ma'naviy kadriyatlarning tiklanishi va rivojlanishi. Ta'lim, ilm-fan, madaniyat va sanoat tarakkiyoti. 4. Uzbekistonning uzaro manfaatli xamkorlik kilish asosida jaxon xamjamiyatiga kushilishi va xalkaro nufuzining ortib borishi.	2	14 hafta	
15	**O‘zbekistoning jaxon xamjamiyatidagi integratsiyalashuvi 5.** Reja 1. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo‘shilishi. 6. 2. Tinchliksevar mustaqil tashqi siyosat asoslarining ishlab chiqilishi , uning tamoyillari. 7. 3. O‘zbekistonning MDH davlatlari bilan ko‘p tomonlama va ikki tomonlama aloqalari 4. Tashqi iyosatda iqtisodiy omillarning muhim o‘rni. Xorijiy armoyalar, texnologiyalarning O‘zbekistonga kirib kelishi. 5. Xalqaro terrorizmga qarshi kurashda O‘zbekistonning tutgan o‘rni. Tayanch iboaralr: Tinchliksevar tashqi siyosat, xorijiy investitsiyalar, ochik eshiklar siyosati, jahon hamjamiyati, MDX, BMT, YEXXT, Yunesko, NATO, YUNISEF, qo‘shilmaslik harakati, qo‘shma korxonalar	2	15 hafta	
	Jami:	**30 soat**		

Mustaqilishlarni tashkiletish shakliva mazmuni

Mustaqil ta'limning turli xilshakllari mavjud bo‘lib, bunda asosiy e'tib o’rta labaning berilgan mavzular (amaliy masalalar, topshiriqlar va (keys-stadilar)ni mustaqil ravishda, ya'ni auditoriyadan tashqarida bajarishi, o‘qib o‘rganishi va shu yo‘nalishbo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini chuqurlash tirishiga qaratiladi. Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik yoki o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fanlar boblari va mavzularini o‘rganish; tarqatma materiallar bo‘yicha ma'ruzalar qismini o‘zlashtirish;
- mustaqil ishlar, keys-stadilar bilan ishlash;
- maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo‘yicha fanlar bo‘limlari yoki

qarashlarini ifodalaydi. Ular parlament shaklidagi partiyalar bo’lib, qonun chiqaruvchi va vakillik organlari saylovlarida ishtirok etadilar va qonun doirasida faoliyat ko’rsatadilar. SHuningdek, bu partiyalar saylangan deputatlari orqali qonun chiqarish jarayonida ishtirok etadilar. Mamlakatimizda partiya va harakatlardan tashqari 200 ga yaqin kasaba, tadbirkorlar, yoshlar, faxriylar kabi ijtimoiy uyushmalar ham mavjud. Bular orasida eng ommaviysi kasaba uyushmalari bo’lib, tarkibida 7,5 mln. a’zo bor.

O’zbekiston hayotida yoshlarning o’rni beqiyosdir. 1991 yil oxirida O’zbekiston yoshlar ittifoqi tuzilgan. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 7 yanvar farmoni bilan iqtidorli yoshlarni xorijdagi ilg’or taraqqiy etgan oliygohlarda bilim olishlarini tayyorlash, tashkil etish uchun «Umid» jamg’armasi tuzildi. Hozirgi kunda 2300 jamoat birlashmalari va nodavlat tashkilotlari faoliyat ko’rsatmoqda. Prezident I.A.Karimov, «bu tashkilotlar faqat xayriya va muruvvat muassasalariga aylanib qolmasdan, demokratik qadriyatlarni, kishilarning qonuniy haq-huquqlarini va erkinliklarini himoya qilishlari kerak», degan vazifa qo’yadi.

O’zbekiston Respublikasi 120 dan ortiq millatlar va elatlarni birlashtirgan ko’pmillatli davlat. Bugungi kunda respublikada yashovchi har bir fuqaro millati, kelib chiqishi, dini va irqidan qat’iy nazar teng huquq va imkoniyatlarga ega. Aynan mana shu tamoyil milliy siyosatimizning asosini tashkil etadi. Respublikadagi barcha millatlarning rivojlanishiga katta e’tibor qaratilib, ularning tili va dinini hurmat qilish, milliy va xalq an’analarini saqlash, erkin va har tomonlama taraqqiyotini ta’minlash maqsadida 80 ta milliy madaniyat markazlari tashkil etilgan. Bularning faoliyatini 1993 yil yanvarida tashkil etilgan Respublika Baynalmilal madaniy markazi boshqarib boradi. Respublikamizda millatlararo munosabatlarda barqarorlikka erishilgan, bu O’zbekistonda demokratik jamiyat qurishning garovidir. Millat va elatlarning o’zaro hurmatda bo’lishi jamiyat ma’naviy barkamolligining belgisidir. Bu holat davlatdagi milliy barqarorlikdan tashqari, uni yanada mustahkamlanishi uchun zamin yaratadi.

Hozirgi bosqichda jamiyatning demokratlashuvida «to’rtinchi hokimiyat» - matbuotning ahamiyati kattadir. 1997 yil Respublikamizda 8 tilda 495 ta gazeta, 1844,2 ming nusxada, 113 ta jurnal 820 ming nusxada nashr etilgan. Ommaviy axborot vositalarini demokratiyalashtirish va qo’llab-quvvatlash maqsadida ijtimoiy-siyosiy jamg’arma tashkil etilgan. Respublikamizda jurnalist kadrlarni, ayniqsa, xalqaro jurnalistlarni tayyorlashga katta e’tibor berilmoqda. Bu borada 1999 yil mart oyida Vazirlar Mahkamasining O’zbekistonda jurnalist kadrlarni tayyorlashni yanada takomillashtirish maqsadida O’zbekiston Milliy universitetining jurnalistika fakulteti va Jahon tillar universiteti xalqaro jurnalistika fakultetlari ishlarining markazlashtirilishi katta ahamiyat kasb etadi.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOT VA MANBALAR:

1. Karimov I.A. O’zbekiston-bozor munosabatlariga o’tishning o’ziga xos yo’li. Toshkent. «O’zbekiston», 1993.
2. Karimov I.A. O’zbekistonning o’z istiqlol va taraqqiyot yo’li. Asarlar. 1 jild. Toshkent. «O’zbekiston», 1996.
3. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida... Toshkent. «O’zbekiston», 1997.
4. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. Toshkent. «O’zbekiston», 1998.
5. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent. «O’zbekiston», 1999.
6. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asrga intilmoqda. Toshkent. «O’zbekiston», 1999.

G’arbiy sudlar tizimi, Qoraqalpog’iston Respublikasi oliy sudi, Qoraqalpog’iston Respublikasi xo’jalik sudi, viloyat, rayon va shahar sudlari kiradi. Sud hokimiyatining faoliyati to’g’risidagi qonun-qoidalar O’zbekiston Respublikasining 1993 yil 2 sentyabrida qabul qilingan «Sudlar to’g’risida»gi qonunda bayon etilgan.

Jamiyat tizimini qayta tashkil etar ekan, respublika rahbariyati sud hokimiyati doirasida islohotlar o’tkazib, inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, ularning erkinligi va majburiyatlarini kafolatlovchi huquqiy mexanizmni shakllantirdilar. Bu jarayonda, respublikamizda demokratik jamiyat talablariga mos tushadigan saylov tizimining tashkil etilishi ham muhim ahamiyatga egadir. Bu o’zgarishlarning barchasi shaxsning davlat va jamiyat bilan munosabatlarini belgilashga qaratilgan. Davlat va shaxs o’tasidagi munosabat fuqarolikni namoyon etadi va ularning o’zaro huquq va majburiyatlaridan kelib chiqadi. O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999 yil (dekabr) sessiyasi sud-huquqiy ishlaridagi islohotlarni chuqurlashtirish yo’lida advokatura tizimini kuchaytirish, sudyalarning chinakam mustaqilligini ta’minlash vazifalarini qo’ydi.

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O’zbekiston Respublikasining 1993 yil 28 dekabrdagi, 1995 yil 5 maydagi Qonunlari negizida demokratik saylov tizimi asoslab berilgan. «Saylov tizimi» to’g’risidagi Qonunga asoslanib 1994 yilning 25 dekabrida vakillik organlariga birinchi marta hududiy bir mandatli saylov okruglari bo’yicha ko’p partiyaviylik asosida besh yil muddatga deputatlar saylandi. I.A.Karimov davlat va jamiyat hayotini erkinlashtirish yuzasidan muhim vazifani belgilab: «..hokimiyat vakolatlarini nodavlat va jamoat tashkilotlariga, fuqarolarni o’z-o’zini boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o’tkaza borish, ularning haq-huquqlari va erkinliklarini muhofaza etishni kuchaytirishdan iborat» degan g’oyani ilgari surdi. Oliy Majlisning XIV sessiyasi «kuchli davlatdan-kuchli fuqarolik jamiyat sari» degan siyosiy qurilish dasturini belgiladi.

Ko’p partiyaviylik tizimi. Milliy siyosat Partiyalar va harakatlar demokratik jamiyat qurishning zaruriy sharti bo’lib, 80-yillarning oxirlaridan boshlab O’zbekistonda bir qator ijtimoiy harakatlar paydo bo’ldi. «Birlik» xalq harakati, «Erk» demokratik partiyasi, O’zbekiston erkin yoshlar uyushmasi kabi norasmiy tashkilotlar faoliyat ko’rsatib, jamiyatdagi muhim muammolarni ilgari sursa ham sovet rejimi ularni rasmiy tan olmadi. Faqat mustaqillik sharofati bilan 1991 noyabr oyida «Birlik» va «Erk» tashkilotlari O’zbekiston Adliya vazirligi tomonidan ro’yxatga olindi. Biroq bu harakat rahbarlarining so’l qarashlari va boshqa sabablar oqibatida oradan ko’p o’tmay ularning faoliyati to’xtatildi.

Mustaqillik yillari mamlakatimizda 5 ta siyosiy partiya tashkil topdi. O’zbekiston Xalq demokratik partiyasi 1991 yil noyabrdan faoliyat ko’rsatib, o’z safida 420 mingdan ziyod a’zoni birlashtirgan. Oliy Majlisning 69 ta deputati uning a’zolaridir. «Vatan taraqqiyoti» partiyasi 1992 yil may oyida tuzilgan bo’lib, uning saflarida 35 mingdan ortiq a’zo bor. Uning 14 a’zosi Oliy Majlis deputati. «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi 1995 yil fevralda tashkil topgan bo’lib, 30 mingdan ortiq a’zosi bor. Oliy Majlisda 47 deputatdan tashkil topgan o’z fraksiyasiga ega. «O’zbekiston Milliy Tiklanish demokratik partiyasi» 1995 yil iyunida tashkil topgan. Saflarida 6 mingga yaqin a’zosi bor. 1998 yil «Fidokorlar» milliy-demokratik partiyasi tashkil topdi. 2000 yilda maqsad va vazifalari mamlakatni har tomonlama rivojlantirishdan iborat bo’lgan «Vatan taraqqiyoti» va «Fidokorlar» yagona partiyasiga birlashdilar. SHuningdek, Respublikada 1995 yil iyun oyida ta’sis etilgan «Xalq birligi» harakati ham mavjud. Bu partiya va harakatlarning har biri jamiyat ma’lum qatlamlarining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy

mavzulari ustida ishlash;

- fanga oid ma'lumotlarni o‘rganish, ularni tahlil qilish;
- talabaning o‘quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan fanlar bo‘limlari yoki mavzularni chuqur o‘rganish;
- faol va muammoli o‘qitish uslubidan foydalaniladigan o‘quv
- mashg‘ulotlari;
- masofaviy (distansion) ta'lim.

O‘zbekiston tarixi fanidan talabalarning mustaqil ishlarini referat, seminar, ma'ruza tayyorlash, Prezident asarlarini konspektlashtirish va boshqa shakllarda tashkil etilishi tavsiya etiladi. Mustaqil ish mavzularini belgilashda ma'ruza va seminar mashg‘ulotlari mavzularini to‘ldirishga harakat qilinishi lozim.

Talabalar mustaqil ta'limining mazmuni va hajmi

№	Mustaqil ta'im mavzulari	Berilgan topshiriqlar	Bajar. muddat	Hajmi Soatda
1	Islom Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q» asaridagi tarix fanini rivojlantirish borasidagi konseptual g‘oyalarning ahamiyati.	Esse	1-hafta	2
2	“Avesto” - tarixiy manba sifatida.	Esse	1-hafta	2
3	O‘zbekiston- insoniyat sivilizatsiyasining qadimgi o‘choqlaridan biri.	taqdimot	2-hafta	2
4	O‘zbekistonda dastlabki davlatlarning paydo bo‘lishi va rivojlanish bochqichlari.	Davra suhbati	2-hafta	2
5	Turkiy xalqlarning kelib chiqishi, tarqalishi va hozirgi zamon.	Davra suhbati	3-hafta	2
6	Imom Al-Buxoriyning «Jome' as-Sahih» asari - Islom dininingmuhim tarixiy manbasi.	Esse	3-hafta	2
7	Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asari - tarixiy manba sifatida.	Esse	4-hafta	2
8	IX-XII asrlarda o‘zbek davlatchiligi.	Esse	4-hafta	2
9	O‘rta Osiyoda uyg‘onish (renessans) davri (IX-XII asrlar).	taqdimot	6-hafta	2
10	O‘rta Osiyolik allomalarning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi.	Davra suhbati	6-hafta	2
11	Shaxobiddin an-Nasaviyning «Sirat as sulton Jaloliddin Mankburni» asarida Jaloliddin Manguberdi faoliyatining aks etishi.	Davra suhbati	7-hafta	2
12	Amir Temur tuzuklari - davlat boshqaruv to‘g‘risidagi muhim manba sifatida.	Esse	7-hafta	2
13	Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat.	Esse	8-hafta	2
14	Jaloliddin Manguberdining Vatan himoyasi yo‘lidagi jasorati.	Esse	9-hafta	2
15	Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklarida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayot.	taqdimot	10-hafta	2
16	Turkiston jadidlari ilgari surgan g‘oyalar, ma'rifiy qarashlar va ularning mazmun-mohiyati.	Esse	11-hafta	2
17	O‘zbekistonda 40-yillar oxiri - 50-yillar boshidagi qatag‘onlar.	Esse	12-hafta	1

18	O‘zbekistonda 50-70 yillarda paxta yakkahokimligining kuchayishi va ekologik muammolarning kelib chiqishi.	Esse	13-hafta	1
19	O‘zbekistonda 50-80 yillarda iqtisodiy va ma'naviy hayot, turg‘unlik holatlari va uning sabablari.	Esse	14-hafta	2
20	O‘zbekiston: yigirma yil mustaqil taraqqiyot yo‘lida.	taqdimot	15-hafta	2
	Jami			**38**

“O‘zbekiston tarixi” fanidan talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash mezoni

“O‘zbekiston tarixi ” fani bo‘yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo‘yicha birinchi mashg‘ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Fan bo‘yicha talabalarning bilim saviyasi va o‘zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o‘tkaziladi:

• **joriy nazorat (JN)** - talabaning fan mavzulari bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda seminar mashg‘ulotlarida og‘zaki so‘rov, test, suhbat, nazorat ishi, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o‘tkazilishi mumkin;

• **oraliq nazorat (ON)** - semestr davomida o‘quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o‘z ichiga olgan) bo‘limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat bir smestrda bir marta o‘tkaziladi va shakli (yozma, og‘zaki, test) o‘quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

• **yakuniy nazorat (YAN)** - semestr yakunida muayyan fan bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni talabalar tomonidan o‘zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan “Yozma ish” shaklida o‘tkaziladi.

ON o‘tkazilish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartiblari buzilgan hollarda, ON natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda ON qayta o‘tkaziladi.

Oliy ta'lim muassasi rahbarining buyrug‘i bilan ichki nazorat va monitoring bo‘limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida YAN ni o‘tkazish jarayoni muntazam ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartiblari buzilgan hollarda, YAN natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda YAN qayta o‘tkaziladi.

Talabaning bilim saviyasi, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi

“O‘zbekiston tarixi” fani bo‘yicha talabalarning semestr davomidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi.

Ushbu 100 ball baholash turlari bo‘yicha quyidagichataqsimlanadi:

YAN -30, ON-30, JN-40

ko’rsatilgan. Bu organlar faoliyati erkin, bir-biridan mustaqil bo’lib, ayni vaqtda bir-biri bilan chambarchas bog’liqdir.

1994 yil 24 dekabrda ko’p partiyaviylik va muqobillik asosida saylangan Respublika Oliy Majlisi qonun chiqaruvchi hokimiyat vazifasini bajaradi. Oliy Majlisga saylovlar demokratik rivojlanishning yangi bosqichga o’tganligidan dalolat berdi. Oliy Majlisga 250 deputat saylanib, ularning 120 nafari viloyatlar deputatlari kengashidan saylangan bo’lib, qolganlari har xil partiyalardan vakillar edi.

Davlatni boshqarishning prezidentlik shakli mamlakat boshqaruv tizimini isloh qilishning boshlanishi bo’ldi. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat hokimiyatining boshlig’i bo’lib, bir vaqtning o’zida Vazirlar Mahkamasining Raisi vazifasini ham bajaradi. Prezident fuqarolar erkinligi va huquqlarini himoya qilish, Konstitutsiya va O’zbekiston qonunlariga rioya qilinishini kafolatlaydi. Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyat organi bo’lib, u ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy jabhalardagi vazifalarning bajarilishini, qonunlar, Oliy Majlis qarorlari, mamlakat Prezidenti farmonlarining ijro etilishini ta’minlaydi.

Ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimi ilgarigi hokimiyatdan tubdan farq qilib, bu tizim jamiyat hayotida muvofiqlashtiruvchilik vazifasini bajaradi. O’zbekiston Respublikasida avval 28 ta ittifoq va 17 ta respublika vazirliklari va komitetlari ish ko’rgan bo’lsa, endilikda ular o’rniga bozor iqtisodi tizimiga mos keladigan vazirliklar va qo’mitalar tashkil etilgan.

Respublikada hokimlar boshqaruvining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega bo’lib, hokimlikka tajribali va malakali shaxslar Prezident tomonidan tayinlanadi va xalq deputatlari kengashlari tomonidan tasdiqlanadi. Xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo’lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko’zlab o’z vazifalarini hal etadi. Mahalliy o’z -o’zini boshqarish organlarining asosini mahallalar tashkil etadi. Aholini huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy qo’llab-quvvatlash, ijtimoiy jamg’armalar tashkil etish, turli xayriya tadbirlari o’tkazishda mahallaning o’rni benihoya kattadir. Undan tashqari, mahalla yoshlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, mehr-oqibatli qilib voyaga yekazishda katta ishlarni amalga oshirmoqda. Fuqarolar yig’ini, Oqsoqollar Kengashiga 1998 yil noyabr-dekabr oylarida o’tgan saylovlarda mahalliy organlarga ko’pchiligi oliy ma’lumotli, ko’p tajribaga ega kadrlar ishga tortildi. Bular davlat organlari vazifalarini jamoat tashkilotlariga o’tkazish jarayonining faol qatnashchiliridir.

Yangi davlat apparatining shaklanishi va faoliyatini davr talabiga mos keladigan kadrlar siyosatisiz tasavvur etib bo’lmaydi. SHu nuqtai nazardan O’zbekistonda ishni yuqori darajada olib borishga qodir bo’lgan ma’naviy yetuk kadrlarni tayyorlash va tarbiyalashga qaratilgan qator chora-tadbirlar o’tkazilmoqda. Xususan, davlat va jamoat tashkilotlari, huquqiy organlar uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlab beradigan bir qancha oliy o’quv yurtlari tashkil etildi.

O’zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanishi

Fuqarolik jamiyati, bu insonning rivojlanishiga imkon yaratadigan, uning huquq va erkinliklarini to’la darajada ta’minlaydigan qonun ustuvor bo’lgan ijtimoiy jamiyatdir. Bunday jamiyat qurish davlat qonunlari va inson huquqlarini poymol etmaslikni, insondan qonunlarga qat’iyan rioya qilishni talab etadi. Har bir fuqaroning davlat boshqaruviga keng jalb etilishi, inson huquqlarini himoya qilishda faol qatnashishini ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratilishi zarur.

Huquqiy davlatda sud hokimiyati O’zbekiston Respublikasida odil sudlov va tarbiyalash vazifalarini bajarish bilan alohida ahamiyat kasb etadi. O’zbekiston Respublikasi sud hokimiyati tizimiga besh yil muddatga saylanadigan Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, Oliy xo’jalik sudi,

I.A.Karimov yangi jamiyat qurishda milliy, diniy qadriyatlarimizni tiklash ishlariga, shu maqsadda Vatanimiz tarixini xolisona, yangicha yaratishga e'tiborni kuchaytirmoqda. Prezident Istiqlolning dastlabki kunlarida (1992 yil, yanvar): «Tarixga, merosimizga bo'lgan munosabat tubdan o'zgartirilishi lozim, yangi darsliklardan tortib oddiy kitoblargacha - hammasiga haqiqat yozilishi shart», deb aniq vazifa qo'ydi.

Vatan tarixini o'rganish uning yangi avlodni tarbiyalashdagi tutgan o'rni, ahamiyati masalalari I.A.Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» (1998 yil, avgust) nomli asarlarida keng bayon qilib berildi. YUrtboshimiz haqqoniy tarix millatning o'zligini anglashning zaruriy sharti, ma'naviy va mafkuraviy ishlarimizning haqiqiy manbai ekanligini qayta-qayta taqqoslab ko'rsatadi. I.A.Karimov har bir «siyosatchiman, arbobman degan odam, agar vijdoni bo'lsa, o'z xalqining tarixiy o'tmishini bilishi shart», deb vazifani keskin qo'yadi.

O'tmish davrining murakkab vazifalari, qarama-qarshilik-lari davlat rahbaridan boshqaruvning har xil usullarini ishlatishini, kerak bo'lsa qattiqqo'llikni talab qiladi. Prezident I.A.Karimov shunday vaziyatda xalqqa ma'qul usullarni qo'llab ishlamoqda.

1992 yil Moskvaning «Komsomolskaya pravda» gazetasi muxbiri: «Muxoliflaringiz sizni totalitarizmda ayblab tanqid qilmoqda», desa, unga javoban I.A.Karimov: «Ha, men buni yaxshi bilaman. Muxoliflarim meni diktator qilib ko'rsatishni juda xohlaydilar. Tan olaman; ehtimol mening harakatlarimda avtoritarizm nishonlari bordir. Ammo men buni faqat bir narsa bilan izohlayman: tarixning muayyan davrlarida, haqiqiy davlatchilik qaror topayotgan paytda, ayniqsa bir tizimdan ikkinchisiga o'tish davrida har holda kuchli hokimiyat zarur. Qon to'kilishiga va qarama-qarshilikka yo'l qo'ymaslik, mintaqada millatlararo va fuqarolarning totuvligi, tinchligi va barqarorligini saqlash uchun shunday bo'lishi zarur. Bu yo'lda men jonimni fido qilishga tayyorman», deb javob bergan edi.

O'zbekiston xalqining istiqlol yillarida erishgan eng katta yutug'i-mamlakatda o'rnatilgan tinchlik, osoyishtalik, tartib-intizomdir. Respublika aholisining mutloq aksariyati (97,5 foizi) bunday sharoitga bevosita I.A.Karimovning yetakchiligida erishildi deb hisoblaydi.

I.A.Karimov yangi davrning jahon miqyosidagi davlat arbobi. O'zbekiston xalqining buyuk yo'lboshchisi, mamlakatininggina emas, xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlarning bir qancha nishonlari va unvonlari bilan taqdirlangan.

O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarining barpo etilishi:

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab huquqiy davlatchilik asoslarini yaratish muhim vazifalardan biriga aylandi. Milliy davlatchilik rivojlanishining minglab yillik an'analari chorizm mustamlakasi davrida batamom inkor etilgan edi. Mustaqil O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov tarixiy an'analarga, dunyo tajribalariga, o'lkaning milliy-tarixiy rivojlanishiga hamda o'lkaning o'ziga xos tomonlariga tayangan holda jamiyatni tubdan isloh qilish yo'llarini ishlab chiqdi. Bu jarayonda ikkita vazifa:

1. Eski ma'muriy tizimni tugatish va hokimiyat boshqaruv organlarini qayta qurish;
2. YAngi davlatchilikning huquqiy-siyosiy asoslarini yaratish, davlatchilikda yangi markaziy va mahalliy boshqaruv tizimini shakllantirish masalalari hal qilindi.

O'zbekiston Respublikasida huquqiy davlat qurilishining kafolati O'zbekiston Konstitutsiyasidir. Davlat hokimiyati tashkil etishning muhim demokratik tamoyillari Konstitutsiyada qayd qilingan bo'lib, unda hokimiyat qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlaridan iborat deb

Ball	Baho	Talabalarning bilim darajasi
86-100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushoxoda yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
71-85	Yaxshi	Mustaqil mushoxoda qilish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
55-70	Qoniqarli	Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish
0-54	Qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik. Bilmaslik.

Fan buyicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabaning saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi.

Talabalarning o'quv fani bo'yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

Talabaning fan bo'yicha reytingi qo'yidagicha aniqlanadi: $R = \frac{V \cdot O'}{100}$, bu yerda: V - semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda); O'-fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

Joriy JN va **ON** turlari bo'yicha 55ball va undan yuqori ballni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo'l qo'yiladi.

Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy balli har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to'plagan ballari yig'indisiga teng.

ON va **YAN** turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. **YAN** semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o'tkaziladi.

JN va **ON** nazoratlarda saralash ballidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.

Talabaning semestrda **JN** va **ON** turlari bo'yicha to'plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy ballining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestr yakuniy joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plagan ballari yig'indisi 55 baldan kam bo'lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.

Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakul'tet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakul'tet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakul'tet dekani, kafedra muduri, o'quv-uslubiy bo'lim hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

Talabalar JN dan to‘playdigan ballarning namunaviy mezonlari

№	Ko‘rsatkichlar	JN ballari		
		maks	1-JN	2-JN
1	Darslarga qatnashganlik va o‘zlashtirishi darajasi. Amaliy mashg‘ulotlardagi faolligi, amaliy mashg‘ulot daftarlarining yuritilishi va holati	20	0-10	0-10
2	Mustaqil ta'lim topshiriqlarining o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi. Mavzular bo‘yicha uy vazifalarini bajarilish va o‘zlashtirishi darajasi.	20	0-10	0-10
Jami: JN ballari		40	11-20	11-20

Talabalar ON dan to‘playdigan ballarning namunaviy mezonlari

№	Ko‘rsatkichlar	ON ballari	
		maks	1-ON
	Yozma ishni har bir savolga imlo xatolarsiz, to‘liq javob bera olganligi.	15	0-15
	Yozma ish mantiqiy ketma-ketlikka amal qila olishi, va aynan savolga mosligi inobatga olinadi.	15	0-15
Jami: ON ballari		**30**	**17-30**

Yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida belgilangan bo‘lsa, u holda yakuniy nazorat 30 ballik “Yozma ish” variantlari asosida o‘tkaziladi.

Agar yakuniy nazorat markazlashgan test asosida tashkil etilgan bo‘lib fan bo‘yicha yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida belgilangan bo‘lsa, u holda yakuniy nazorat quyidagi jadval asosida amalga oshiriladi

№	Ko‘rsatkichlar	YAN ballari	
		maks	O‘zgarish oralig‘i
	Fan bo‘yicha yakuniy yozma ish nazorati yozishda imlo xatolarsiz bayon etishi, talaba chuqur bilimga ega bo‘lishi, egallangan bilimlarni amaliyot bilan bog‘lay olishi va qo‘llay olishi.	10	0-10
	Nazariy bilimlarning mohiyatini tushunishi, mustaqil mushohoda yurita olishi, aniq va lo‘nda iboralar bilan mavzuni bayon qila olishi.	10	0-10
	Yozma ishda mantiqiy ketma-ketlikka amal qila olishi, mustaqil qaror chiqarishi va xulosa qila olishi.	10	0-10
Jami: YAN ballari		**30**	**17-30**

asoschisi va yo’lboshchisi I.A.Karimovning siyosiy chizmasiga qiziqish ortib bormoqda. 1996 yili Venada (Avstriya) «XX asr xalqlar dohiylari» nomida bosib chiqarilgan kitoblarning bir jildi O’zbekiston Prezidentiga bag’ishlangan. Kitob mualliflaridan biri, Garvard Universitetining professori Donald S.Karlayl «...Islom Karimov kommunizmdan keyingi O’rta Osiyo mintaqasidagi eng buyuk davlat arbobidir», deb tan beradi.

SSSRda, chunonchi O’zbekistonda sotsialistik tizim, kommunistik mafkura har tomonlama inqirozga uchrab, ziddiyatlar bilan to’lib-toshib turgan bir paytda I.A.Karimovning, avvalo O’zbekiston kompartiyasi rahbarligiga (iyun, 1989 yil), keyin Prezidentlik lavozimiga (mart, 1990 y.) tayinlanishi bejiz emas edi. Vaqti, soati yetgan, lekin jon saqlash uchun o’zini har tomonga urayotgan, hech narsadan qaytmaydigan istibdod tizimidan jafokash xalqini, ezilgan el-yurtini mustaqillikka chiqarish uchun sovet tuzumining ikir-chikirigacha tushunib yetgan katta jur’at egasi, dovyurak Islom Karimovdek rahbar kerak edi.

Islom Karimovning har bir asari, ma’ruza va maqolalari bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurishning nazariy asoslarini, amaliy ishlarning kundalik dasturini tashkil qiladi.

G’arb va SHarqning rivojlangan mamlakatlari ko’p yillik taraqqiyot yo’llarini, o’zbek davlatchiligini ming yillar davomidagi tarixiy tajribasini o’rgangan holda yaratilgan I.A.Karimov asarlarida mustaqil O’zbekiston Respublikasini ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy-madaniy taraqqiyotining muhim yo’nalishlari, butun dunyoda tan olingan bozor iqtisodiyoti va demokratik jamiyat qurishning asosiy tamoyillari to’g’risidagi ta’limot yaratildi. Istiqlolning, boshlang’ich bosqichida yorug’likka chiqqan «O’zbekistonning o’z istiqlol va taraqqiyot yo’li», «O’zbekiston - bozor munosabatlariga o’tishning o’ziga xos yo’li» va boshqa bir qancha asarlarida bayon etilgan O’zbekiston mustaqilligining birinchi navbatdagi kechiktirilmas ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy vazifalari keyinchalik «O’zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo’lida», «Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish vazifalari» va boshqa asarlarida o’z rivojini topdi.

O’zbekistonning yaqin o’tmishda va XX asrning so’nggi o’n yilida o’tgan yo’llari, XXI asrda Respublika istiqlolini mustahkamlashning strategik vazifalarining asosiy yo’nalishlarini to’plagan kitoblari xorijiy mamlakatlarda chop etilgan I.A.Karimovning «O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida», «O’zbekiston XXI asrga intilmoqda» asarlarida bayon etib berildi.

Islom Karimov donoligining yana bir ko’rinishi bozor munosabatlariga o’tish, demokratik jamiyat qurish jarayonida ma’naviy-ma’rifiy va mafkuraviy ishlarning yuksak ahamiyatini taqqoslab ko’rsatganligidadir.

Parchalangan Ittifoq o’rnida vujudga kelgan Mustaqil davlatlarning hech birida ilgari surilmagan ma’naviy-ma’rifiy ishlarning vazifalari Prezidentning «Jamiyatimiz mafkurasi, xalqni xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin», «Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman» asarlarida, «Istiqlol va ma’naviyat» (hujjatlar to’plami) kitobi va boshqa ko’plab maqolalarida bayon etilgan bo’lib, bu asarlarida ma’naviyat - kelajagi buyuk O’zbekistonning mustahkam poydevori, milliy mustaqillik mafkurasi, 120dan ortiq millatlar va elatlardan tashkil topgan O’zbekiston xalqini «O’zbekiston - Vatanim manim» shiori ostida yagona, buyuk maqsad uchun birlashtiradigan bayroq sifatida tutgan o’rni ko’rsatib beriladi.

Ma’naviy-ma’rifiy, mafkuraviy ishlarning yangi jamiyat qurishning zaruriy sharti sifatida qo’yilishi, o’ziga xos, o’zbek modelining ustivor tamoyillaridan biridir.

gilari mamlakatimiz hududidagi qadimda mavjud bo'lgan yirik saltanatlarning tug'laridagi an'analarni davom ettiradi hamda xalqning milliy va madaniy o'ziga xosligini, Respublika tabiiy sharoitini aks ettiradi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992 yildagi X sessiyasida O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to'g'risidagi qonun, 1992 yil 10 dekabrdagi XI sessiyasida O'zbekiston Respublikasining madhiyasi to'g'risidagi qonun qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi davlat ramzlarining qabul qilinishi mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlashda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi:

Konstitutsiya davlatning asosiy qonuni bo'lib, buyuk kelajakning huquqiy kafolatidir. YAngi Konstitutsiyani tayyorlash g'oyasi 1990 yilning mart oyida ilgari surila boshlandi. Ko'p o'tmay, iyun oyida Oliy Kengashning ikkinchi sessiyasida I.A.Karimov boshchiligida Konstitutsiyaviy komissiya tuzildi. Komissiya mustaqillikning huquqiy asoslarini ishlab chiqish jarayonida xalqaro huquq qoidalariga, Birlashgan Millatlar Tashkiloti hujjatlariga, Butunjahon inson huquqlari Deklaratsiyasiga tayandi. SHu bilan birga boy tariximizdagi davlat boshqaruvi va adolatli qonunshunoslik an'analari ham chuqur o'rganildi.

Loyihaning dastlabki nusxasi 1991 yil noyabrida tayyorlanib, har tomonlama ko'rib chiqildi va 1992 yilning sentyabrida umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi.

Tuzatishlar va aniqlashlar - loyihaning 60 dan ortiq moddasiga kiritildi. 1992 yil 8 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII chaqiriq XI sessiyasida Mustaqillik Konstitutsiyasi qabul qilindi. Uning mohiyati Asosiy qoidalar bo'limida bayon etilgan. Bu qoidalar: davlat suvereniteti; xalq hokimiyati; fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilish; shaxs va davlat birgaligini ta'minlash; qonuniylik; hokimiyatni ajratish; mahalliy o'z-o'zini boshqarish; sud tizimi va odil sudlovni tashkil qilish va boshqalardan iborat. Konstitutsiya preambula, 6 bo'lim, 26 bob va 128 moddadan iborat. Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi fuqarolarning inson huquqlari demokratik partiyasi bo'lib, insonparvar huquqiy davlat shakllantirishning strategik dasturidir. Uning qabul qilinishi g'oyat katta siyosiy, huquqiy va xalqaro ahamiyatga ega bo'ldi. Mustaqillik Konstitutsiyasi barcha qonunlarning va boshqa davlat va jamoat tashkilotlari huquqiy hujjatlarining asosi bo'lib xizmat qiladi.

I.A. Karimov - O'zbekiston mustaqilligining asoschisi va yo'lboshchisi:

Jahon sivilizatsiyasida alohida o'rin tutadigan, ko'p asrlik boy tarixga ega O'zbekiston diyorida butun dunyoga nomi ketgan olimlar, davlat arboblari voyaga yetgan. Buyuk zotlarni buyuk xalq, buyuk el yaratadi.

Xalqimizning ko'p yillar davomida olib borgan kurashi natijasida qaror topgan mustaqil O'zbekistonda bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurish stixiyali (ko'r-ko'rona) ravishda emas, balki ilm-fan yutug'lariga, jahon taraqqiyotining, xususan, buyuk zaminimizda yaratilgan tarixiy tajribalarga asoslangan g'oyalarga amal qilib ro'yobga chiqadi.

O'zbekiston mustaqillik tomon yo'l tutar ekan birinchi kunlardan boshlab, uning tepasida Islom Abdug'aniyevich Karimov turibdi. Asrlarga teng shu qisqa vaqtda erishilgan yutug'lar: mamlakatda o'rnatilgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy barqarorlik, tarixiy, diniy qadriyatlarimizning tiklanishi jamiyatda o'rnatilgan osoyishtalikni, mustaqil O'zbekiston Respublikasining xalqaro hamjamiyatda tutgan o'rnining ortib borishini butun xalqimiz, jahonning yirik davlat arboblari Islom Karimov nomi bilan bog'laydi.

Dunyo mamlakatlarida yangi jamiyat qurishning «o'zbek modeli»ga (o'zbek yo'li) uning

Yakuniy nazoratda "Yozma ish"larni baholash mezoni

Yakuniy nazorat "Yozma ish" shaklida amalga oshirilganda, sinov ko'p variantli usulda o'tkaziladi. Har bir variant 3 ta nazariy savoldan iborat. Savollar fan bo'yicha tayanch so'z va iboralar asosida tuzilgan bo'lib, fanning barcha mavzularini o'z ichiga qamrab olgan.

Har bir nazariy savolga yozilgan javoblar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi 0-10 ball oralig'ida baholanadi. Talaba maksimal 30 ball to'plashi mumkin.

Yozma sinov bo'yicha umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo'yilgan o'zlashtirish ballari qo'shiladi va yig'indi talabaning yakuniy nazorat bo'yicha o'zlashtirish balli hisoblanadi.

Texnologik xarita
FAN : «O'zbekiston tarixi»
2016-2017 O'QUV YILI 1 KURS 1 SEMESTR

Jami: 96 soat — Maksimal ball – 100
Ma'ruza – 38 soat — Saralash bali – 55
Seminar – 38 soat — Mustaqil ta'lim – 38 soat

T/r	Mavzu, bo'lim	Dars soati			Nazorat		Ballar		Muddati
		Ma'ruza	Seminar	Jami	Turi	Shakli	Maksimal	Minimal	
1	1-7 mavzular	14	16	30	JB-1	so'rov	20	11	Dars davomida
2	8-14 mavzular	14	14	28	JB -2	so'rov	20	11	Dars davomida
3	1-14 mavzular	28	30	58	OB-1	yozma	30	16,5	Grafik buyicha
4	1-14 mavzular	28	30	58	YAB	yozma	30	16,5	Grafik buyicha
Jami		**28**	**30**	**58**			**100**	**55**	

Raxbariy adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2011.
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1.-T.: O'zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2. -T: O'zbekiston,1996.
4. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. -T.: O'zbekiston, 1996.
5. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. T.4. -T.: O'zbekiston, 1996.
6. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. T.5. -T.:O'zbekiston, 1997.
7. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6. -T.:O'zbekiston, 1998.
8. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. -T.:O'zbekiston, 1999.
9. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon turmush-pirovardmaqsadimiz. T.8.. -T.: O'zbekiston, 2000.
10. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T.9. -T.:O'zbekiston, 2001.

11. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10. -T.:O‘zbekiston. 2002.
12. Karimov I.A. Biz tanlagan yo‘l-demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyobilan hamkorlik yo‘li. T.11. -T.: O‘zbekiston, 2003.
13. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o‘z kuch-qudratimizga,hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog‘liq. T.12. -T.: O‘zbekiston,2004.
14. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari - oliy qadriyat. Tom.14. -T.: O‘zbekiston, 2006.
15. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish - barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. Tom. 15. -T.: O‘zbekiston, 2007.
16. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiy timizni barqaror rivojlantirish yo‘lida. Tom 16. -T.: O‘zbekiston, 2009.
17. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqarorrivojlanishini ta'minlash - bizning oliy maqsadimizdir.Tom 17. -T.: O‘zbekiston, 2009.
18. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008.
19. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimizfarovonligini yanada yuksaltirishdir. -T.: O‘zbekiston, 2010.
20. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.: O‘zbekiston, 2011.

Darslik va o‘quv qo‘llanmalar:

1. Bobojonova D. O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. O‘quvqo‘llanma. -T.: Sharq, 1999
2. O‘zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston chor Rossiyasimustamlakachiligi davrida. -T.: Sharq, 2000.
3. O‘zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O‘zbekiston sovetmustamlakachiligi davrida. -T.: Sharq, 2000.
4. O‘zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O‘zbekistontarixi. -T.: Sharq, 2000.
5. Murtazayeva R.X. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. Darslik.-T.: 2003.
6. Murtazayeva R.X., Doroshenko T.I i dr. Istoriya Uzbekistana.Elektronnыy uchebnik dlya vuzov. - Tashkent. 2010.
7. Murtazayeva R.X. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. O‘quv qo‘llanma. -T.:Akademiya, 2010.
8. Murtazayeva R.X. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar vabag‘rikenglik. O‘quv qo‘llanma -T., Universitet, 2007.
9. Sa'dullayev A. Qadimgi O‘rta Osiyo tarixi. O‘quv qo‘llanma -T.:Universitet, 2004.
10. Sa'dullayev A. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyattaraqqiyoti. O‘quv qo‘llanma -T.: Akademiya, 2000.
11. Eshov B.J. O‘rta Osiyo qadimgi shaharlari tarixi. O‘quv qo‘llanma.-Toshkent, 2006.
12. Eshov B.J. Qadimgi O‘rta Osiyo shaharlari tarixi. Darslik. -T., Fanvatexnologiya, 2008.
13. Eshov B.J. O‘zbekiston davlatchiligi tarixi. O‘quv qo‘llanma.- Toshkent,Ma'rifat. 2009.

hon hamjamiyati uni tezda tan ola boshladi.

Mustaqil demokratik respublikaning tashkil topishi jahonshumul tarixiy ahamiyatga ega bo’ldi. Xalqning asrlar davomidagi mustaqillik uchun kurashi ro’yobga chiqib, mamlakatda huquqiy, demokratik jamiyat shakllanishiga shart-sharoit yaratildi. O’zbekistonning boy imkoniyatlaridan xalq turmushini yaxshilash uchun foydalanish mumkin bo’ldi.

Mustaqil O’zbekiston bozor munosabatlariga o’tishda har xil salbiy holatlar tug’diradigan «falaj» yo’li bilan emas, asta-sekinlik bilan o’tish yo’lini tanladi. Istiqlolga erishgan xalqimiz jahon minbarida o’z manfaatlari haqida bor ovoz bilan gapirish, xalqaro tashkilotlar ishida faol qatnashish imkoniyatiga ega bo’ldi. Eng asosiy natijalardan yana biri-xalqning tarixiy merosini o’rganish, ma’naviy qadriyatlarini tiklash imkoni tug’ildi.

O’zbekistonda mustaqillik sharoitida siyosiy va iqtisodiy qayta qurishlar amalga oshirila boshlandi, birinchi navbatda mustaqil davlatning huquqiy asoslari yaratildi.

1991 yil 18 noyabrda Respublika Oliy Kengashi VIII sessiyasi 1991 yil 29 dekabrda O’zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylov va Mustaqillik g’oyasini butun xalqning muhokamasidan o’tkazish to’g’risida qaror qabul qildi. Saylov komissiyalari tashkil qilinib, ularga O’zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylovlar va referendum to’g’risidagi qonunning bajarilishini ta’minlash, O’zbekiston fuqarolariga o’z xohishlarini erkin bildirish, Prezidentlikka nomzodlar uchun teng shart-sharoitlar yaratish vazifalari yuklandi. 29 dekabr kuni muqobillik asosida o’tkazilgan saylovda Islom Abdug’aniyevich Karimov nomzodiga saylov qatnashchilarining 86 foizidan ko’prog’i o’z ovozini berdi.

Markaziy Saylov komissiyasi okrug komissiyalari bayonnomalarini ko’rib chiqib, O’zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylov haqidagi qonunning 35-moddasiga asosan I.A. Karimov birinchi O’zbekiston Prezidenti etib saylanganligi to’g’risida qaror qabul qildi. I.A. Karimov 1991 yil 31 dekabrdan o’z vazifasini bajarishga kirishdi.

Prezidentlikka saylovlar bilan bir vaqtda «O’zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo’llab-quvvatlaysizmi?» savoli bo’yicha referendum ham o’tkazildi. Ovoz berishda ro’yxatga olinganlarning 94,1 foizi qatnashdi. Qatnashganlarning 98,2 foizi mustaqillikni qo’llab ovoz berdi.

Mustaqil O’zbekiston bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurish uchun boy tabiiy resurslar va keng imkoniyatlarga egadir. O’zbekistonda foydali qazilma boyliklarning 2.700 dan ortiqroq o’rni aniqlangan. Har yili Respublika hududidan 5 mlrd. dollardan ortiqroq qimmatdagi foydali yer osti boyliklari qazib olinmoqda.

Respublika oltin zahirasi bo’yicha jahonda to’rtinchi, qazib olish bo’yicha jahonda 7-8 o’rindadir. Rangli metallar, fosforitlar, tabiiy gaz, neft, ko’mir va boshqalarning zahira manbalari ham aniqlangan.

O’zbekiston yeri juda ham hosildor bo’lib, bu yerda paxta, don, sabzavot va mevalardan yuqori hosil olish mumkin. Respublika energetikasi bugun 11 mln. kilovatt-quvvatdan ko’proq kuchga ega bo’lgan, 37 issiqlik va gidroelektrostansiyani o’z ichiga oladi. Transport yo’llari bo’yicha katta imkoniyatga ega. Respublikada sanoatning 100 dan ortiq sohasiga oid 2 ming atrofida zavod va fabrikalar ishlab turibdi. Mustaqil O’zbekiston moddiy boyliklar bilan birga katta ilmiy va ma’naviy imkoniyatlarga ham ega.

Har bir mustaqillikka erishgan davlat o’z ramzlariga ega bo’lishi kerak. 1991 yil 18 noyabrda Respublika Oliy Kengashining VIII sessiyasida O’zbekiston davlat bayrog’i tasdiqlandi. Uning bel-

7. To'xliyev N. O'zbekiston iqtisodiyoti (savollar va javoblar). Toshkent. «O'zbekiston», 1997.
8. O'zbekiston tarixi. (1917-1993). Toshkent. «O'qituvchi», 1994.

13-MAVZU:
O'ZBEKISTONDA DAVLAT MUSTAQILLIGINING QO'LGA KIRILISHI. HUQUQIY DEMOKRATIK DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYAT ASOSLARINING BARPO ETILISHI

REJA:

1. Mustaqillikning qo'lga kiritilishi hamda uning tarixiy ahamiyati.
2. I.A.Karimov-O'zbekiston mustaqilligining asoschisi va yetakchisi.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi.
4. O'zbekistonning o'ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo'li. Siyosiy islohatlar.

TAYANCH TUSHUNCHA VA IBORALAR:

Huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyati, milliy davlatchilik rivojlanishi, ko'ppartiyaviylik, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, mahalliy boshqaruv, sud hokimiyati, Milliy siyosat, «To'rtinchi hokimiyat».

XX asrning 80-yillar oxiri 90-yillar boshlarida O'zbekistonda mustaqillikka intilish harakatlari kuchaya borib, uni qo'lga kiritish shart-sharoitlari vujudga keldi.

1989 yil oktyabrda davlat tili to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi mustaqillik yo'lida muhim bosqich bo'ldi. Qonunni amalga oshirish maqsadida O'zbek tilini tekin o'qitish maxsus kurslari tashkil etildi, o'zbek tilidagi adabiyotlar, darsliklar nashr etilishiga va o'quv yurtlarida o'qitilishiga e'tibor kuchaydi. 1990 yili bahorda Markazning qattiq qarshiligiga qaramasdan Ittifoq Respublikalari orasida birinchi bo'lib O'zbekistonda Prezidentlik lavozimi ta'sis etildi. Bu o'zbek davlatchiligi va mustaqilligining prinsipial yangi bosqichi bo'ldi. O'zbekiston rahbariyati ba'zi yuqori rahbarlik lavozimlariga tavsiya qilingan shaxslarni Moskvada suhbatdan o'tkazish amaliyotini tugatdi.

I.A. Karimov 1990 yil 24 martda O'zbekiston Oliy Kengashida O'zbekistonning birinchi Prezidenti qilib saylandi. 1990 yil 20 iyunda Mustaqillik to'g'risidagi deklaratsiyaning qabul qilinishi xalqning davlat mustaqilligiga intilishini huquqiy, iqtisodiy va siyosiy mazmun bilan to'ldirdi va g'oyat katta tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekiston jamoat tashkilotlari va harakatlari orasida mustaqillik g'oyasi keng qo'llab-quvvatlandi.

1991 yil 31 avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti XII chaqiriq navbatdan tashqari VI sessiyasi davlat mustaqilligi va mustaqil suveren O'zbekiston Respublikasi davlati tashkil topganligini e'lon qildi. Unda «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida» Oliy Kengash Qarori va «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi qonun qabul qilindi hamda 1 sentyabr-Mustaqillik kuni, milliy bayram, deb belgilandi. Bu asosiy hujjatlar O'zbekiston oldida turgan maqsad va vazifalarini ko'rsatib berdi.

Mustaqillikning e'lon qilinishi Respublika tarixida muhim voqea bo'lib, u nafaqat butun davlat uchun, balki O'zbekistonda yashaydigan har bir aholi uchun katta ahamiyat kasb etdi. Ko'pincha mustaqillikka qon to'kishlar yo'li bilan erishiladi. Lekin O'zbekiston bunday yo'ldan bormadi. XXI asr arafasida jahon xaritasida yana bir mustaqil, teng huquqli davlat - O'zbekiston paydo bo'ldi. Ja-

Chet tillar adabiyotlar:

1. The rise and rule of Tamerlane - Beatrice Forbes Manz - Caimbridge University Prsee - 1989.
2. La Route de Samarcande autemps de Tamerlan - Lucien Kehren - Paris, 1990.
3. Amir Temur in World History - A.Turaqulov, V.Ignatenko. Tashkent Head Printing House of the Polygraphic Concern "Sharq". 15.10.1999.
4. La Route de Samarcande - Svetlana Gorshenina - Geneve, 2000.
5. Samarkand la Magnifique - Frederique Beapertuos-Bressand, October, 2003.
6. Masterpieces of Central Asia Samarkand - Alexey Arapov - Tashkent "San'at" - 2004.
7. Samarkande Et Samarra - Etienne de la Vaissiere - Paris - 2007.
8. The Immortal Alexander the great - published by Museum Shop Hermitage Amsterdam. From September 2010 to 18th March 2011.
9. Uzbekistan die Stadte und Ihre Legenden. "Davr Nashriyoti" Tashkent, 2011.
10. The History of Samarkand (since early antique up to nowadays) - Art Flex. Tashkent, 2011.
11. The Everlasting Flame: Zoroastrianism in history and Imagination - Sarah Stewart. Brunei Gallery "SOAS" University of London. 11th October 2013.
12. Cultural Transfers in Central Asia Before, During and After the Silk Road - Shahin Mustafayev, Michel Espagne, Amriddin Berdimuradov. Paris, Samarkand, 2013.
13. Prominent Scholars and Thinkers of the Medieval East. Tashkent, 2015.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. -T.: Fan, 1993.
2. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlanganasarlar. 1 jild. -T.: Fan, 1968.
3. Aliyev A. Mahmudxo'ja Behbudiy. -T.: Yozuvchi, 1994.
4. Amir Olimxon. Buxoro xalqining hasrati tarixi. -T.: Fan, 1991.
5. Asqarov A. Eng qadimiy shahar. -T.: Ma'naviyat, 2001.
6. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi.-T.: Sharq, 2000.
7. Abulg'oziy. Shajarayi turk. -T.: CHo'lpon, 1992.
8. "Avesto". "Yasht" kitobi. O'zbek tiliga M. Ishoqov ilmiy-izohlitarjimalari. -T.: Sharq, 2001.
9. Alimova D.A. Istoriya kak istoriya, istoriya kak nauka. Tom. 1, 2. - T.:Uzbekistan, 2008, 2009.
10. Ata-Mirzayev O.B., Gentshke V.L., Murtazayeva R.X. Istoriko-demograficheskiye ocherki urbanizatsii Uzbekistana. -T.: Universitet,2002.
11. Ata-Mirzayev O.B., Gentshke V.L., Murtazayeva R.X. Mejnatsionalnayatolerantnost v Uzbekistane: istoriya i sovremennost. 2004. 18,9 p.l. Vsoavtorstve.
12. Ata-Mirzayev O.B., Gentshke V.L., Murtazayeva R.X. Uzbekistanmnogonatsionalnыy: istoriko-demograficheskiy aspekt. -T.:, Yangi asravlodi, 2011.
13. A'zamxo'jayev S. Turkiston muhtoriyati.-T.: Ma'naviyat, 2000.
14. Amir Temur Ko'ragon. Zafar yo'li. -T.: Nur, 1992.
15. Ahmedov B. Sohibqiron Temur (hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati). -T.:Fan, 1996.

16. Ahmedov B. O‘zbek ulusi. -T.: Meros, 1992.
17. Axmedov E. O‘zbekiston shaharlari. T.: O‘zbekiston. 1998.
18. Buniyotov 3. Anushtegin Xorazmshohlar davlati (1097-1231). -T.: G‘afurG‘ulom, 1998.
19. Bobobekov H.N. Qo‘qon tarixi. -T.: Fan, 1996.
20. Bobur Z.M. Boburnoma. -T.: Fan, 1960.
21. Valixo‘jayev B. Xo‘ja Ahror tarixi. -T.: Yozuvchi, 1994.
22. Vatan tuyg‘usi. -T.: O‘zbekiston, 1996.
24. Yermetov A.A. Turkiston nazorat organlari faoliyati. Abu matbuot KonsaltT., 2007.
25. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. -T.: Universitet, 1999.
26. Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. -T.:Sharq, 1998.
27. Ziyoyev H. O‘zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi - T.,Sharq,2001.
28. Ibrohimov A. Biz kim o‘zbeklar -T.: Sharq, 2000.
29. Levitin L. O‘zbekiston tarixiy burilish pallasida. -T.: O‘zbekiston,2001.
30. Ma'naviyat yulduzlari. -T.: Meros, 2001.
31. MaxkamovaN.Sotsialnaya strukturaobщyestva naterritoriiUzbekistana: traditsii i transformatsii (konets XIX v. - 30-ye godы XXv.). -T.: Aloqachi, 2009. -S 236.
32. Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. -T.: CHo‘lpon, 1994.
33. Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug‘ati. -T.: Sharq, 2009.
34. Muhammadjonov A. Temur va temuriylar davri. -T.: Fan, 1996.
35. Mo‘minov I. Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli. T.: Fan, 1993.
36. Murtazayeva R.X. Tolerantnost kak integriruyuщiy faktor vmnogonatsionalnom Uzbekistane. T.: Uzbekistan, 2010.
37. Nasimxon R. Turk xoqonligi. -T.: Meros, 1993.
38. Nizomul mulk. Siyosatnoma. -T.: Adolat,1997.
39. Ogaxiy Muxammadrizo. Shoxid ul-iqbol. -T., 2009.
40. Polvonov N., Qo‘shjonov O. Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar vaharakatlar. -T., Abumatbuotconsalt, 2007. 24 b.t.
41. Polvonov N.T. O‘zbekistonda ijtimoiy harakatlar va siyosiy partiyatarixi (Xorazm misolida). -T., Universitet, 2007, 5,75 b.t.
42. Polvonov N.T. Xorazmdagi ijtimoiy harakatlar va siyosiy partiyalartarixi (1900-1924). -T.: Akademnashr, 2011. -B.108.
43. Polvonov N.T. Istoriya sotsialnыx dvijeniy i politicheskix partiiXorezma (1900-1924). -T.: Akademnashr, 2011. -S.105.
44. Rasulov A. Turkiston va Volgabo‘yi, Uraloldi xalqlari o‘rtasidagimunosabatlar (1917-1924 yy.). - Toshkent. Universitet, 2005. - B. 199.
45. Sobirov Q. Xorazm qishloq va shaharlari mudofaa inshootlari (mil.avv.VI asrdan miloddiy IX asrgacha). -T., Fan, 2009.
46. Sulaymonova F. Sharq va G‘arb. -T.: O‘zbekiston, 1997.
47. Temur tuzuklari. -T.: G‘afur G‘ulom, 1991.
48. Temur va Ulug‘bek davri tarixi. -T.: Qomuslar bosh taxririyati, 1996.
49. Usmonov Q. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi. -T.: Moliya,

deyarli o’zgartira olmadi.

20-30-yillar o’zbek adabiyoti va san’atida izlanishlar, uyg’onish va yo’qotish yillari bo’ldi. 20-yillarda ma’rifatchilik harakatining samarali yillari bo’lib, A. Qodiriy, Fitrat, CHo’lpon, Botu, Elbek, Hamza, S.Ayniy, so’ngroq yangi yosh ijodkorlar Oybek, G’.G’ulom, H.Olimjon, A.Qahhor kabi o’zbek adabiyotining yirik namoyandalari faoliyat ko’rsatdi.

30-yillarda sahna san’atida opera va balet sohasida dastlabki yutug’larga erishildi. Kino san’ati qaror topdi. Ayni shu davrda adabiyot va san’atda sotsialistik realizm deb atalmish yo’nalish hukmron bo’la boshladi va respublikada madaniy hayot kommunistik mafkuraga bo’ysundirildi.

Urushdan keyingi 50-60-yillarda respublika ijodiy ziyolilarining yangi avlodi shakllandi. SHaxsga sig’inishning fosh etilishi bilan yuzaga kelgan iliqlik shamoli bilan badiiy adabiyotda ko’pgina salmoqli asarlar yaratildi, bir qancha yangi o’zbek teatr va konsert san’atining dong’ini taratgan jamoalar tashkil etildi. Jamiyatda inqirozli holatlarni kuchayishi bilan madaniy hayotdagi ziddiyatlar ham keskinlashdi. CHirib borayotgan sotsializm g’oyalarisiz tarixiy, badiiy asarlar yorug’lik ko’rmaydigan bo’ldi. Faqat 80-yillarning ikkinchi yarmidan yangicha fikrlash davrida sotsializm g’oyalari va amaliyotining jamiyat hayotining barcha sohalaridagi mudhish oqibatlarini fosh qiladigan asarlar yaratildi.

Kechayu-kunduz kishilar onggiga majburan singdirilgan kommunistik mafkura odamlarni ma’naviy qashshoqlikka olib keldi. «Ijtimoiy tenglik» to’g’risidagi sotsializm g’oyasi kishilarni ishyoqmas, boqimanda qilgan bo’lsa «davlat mulki», «umumxalq mulki» degan aqidasi insonni mulkdorlik, egalik tuyg’ularidan begona qildi. «Davlat mulkiga» «egasiz mulk» deb qarash natijasida tashimachilik ommaviy tus oldi.

O’zbek xalqi uchun eng dahshatlisi milliy, diniy, tarixiy qadriyatlardan judo bo’lganligida edi. «YAgona sovet xalqi», «internatsional til» to’g’risidagi uydirma nazariyalar adabiyot va san’atdagi «shaklan milliy, mazmunan sotsialistik» asarlarning yaratilishi xalqimizni azaliy qadriyatlaridan mahrum etdi.

MAVZUGA OID MUSTAQIL ISH MAVZULARI:

1. Sovet davrida O’zbekistonning iqtisodiyoti va uning markazga qaramligi.
2. Sovet davrida O’zbekiston madaniyati va uning ma’naviy qashshoqligi.
3. Fashizmni tor-mor keltirishda O’zbekiston xalqlarining qo’shgan hissasi.
4. Maorif, ilm-fan va kadrlar tayyorlashdagi yutug’lar va nuqsonlar.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOT VA MANBALAR:

1. Karimov I.A. O’zbekistonning o’z istiqlol va taraqqiyot yo’li. Asarlar. I-jild. Toshkent. «O’zbekiston», 1996.
2. Karimov I.A. O’zbekiston-bozor munosabatlariga o’tishning o’ziga xos yo’li. Toshkent. «O’zbekiston», 1993.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. Toshkent. «O’zbekiston», 1998.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent. «O’zbekiston», 1999.
5. O’zbekiston Respublikasi. Ensiklopediya. Toshkent. «O’zbekiston», 1997.
6. Ahmedov E., Saydaminova Z. O’zbekiston Respublikasi. Qisqacha ma’lumotnoma. Toshkent. «O’zbekiston», 1995.

qilinib, o'zlarining tabiiy burchlarini bajarish hamda sharqona fazilatlaridan mahrum bo'ldilar.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar kompartiyaning g'oyalarini, sotsialistik mafkurani omma o'rtasida keng tarqatish yuzasidan faol ishlar olib bordi.

Fashizmga qarshi urush yillari izdan chiqqan ta'lim-tarbiya ishlari, madaniy-oqartuv muassasalari urushdan keyingi yillarda qayta tiklandi va kengaytirildi. 1970 yili respublikada 2977 ta klub muassasalari, 5822 ta kutubxonalar, 26 ta muzey, 3988 ta kinoqurilmalar ishlab turdi. Lekin, amalda bu muassasalarning bir qismi statistik axborotlarda oshirib ko'rsatilgan, boshqa qismi har xil sabablarga ko'ra qoniqarsiz bo'lib, moliyaviy yordamga muhtoj, ayniqsa, qishloq joylarda tashlandiq ahvolda edi. Qanday bo'lmasin bu muassasalar marksizm-leninizm soxta g'oyalarini, sotsialistik qurilish amaliyotini tashviqot-targ'ibot qilishning quroli bo'lib xizmat qildi.

Urushdan keyin majburiy 7 yillik, 1959 yildan 8 yillik, 1970 yildan boshlab 10 yillik ta'lim amalga oshirila boshlanadi. 1980 yillarda o'rta va oliy ta'lim tarmoqlari kengayib bordi. 1990 yil O'zbekistonda maktablar soni 9.000 ga yetdi, lekin ulardan 1.700 tasi vayrona ahvolda bo'lib, kapital ta'mirlashni talab qilar edi. 1978-79-o'quv yilida respublikada 43 ta oliy o'quv yurti bo'lib, bularning kunduzgi, sirtqi, kechki bo'limlarida 26.000 talabalar o'qidi. Respublika Fanlar Akademiyasida ilmiy-tadqiqot institutlarining qatori kengayib, ularda yirik olimlar ilmiy izlanish ishlarini olib bordilar.

Talabalar, oliy ma'lumotli mutaxassislar, ilmiy xodimlarning soni jihatdan 10.000 kishiga hisoblaganda O'zbekiston ilg'or mamlakatlar qatorida tursa ham kadrlar tayyorlash tizimida qo'pol nuqsonlar bor edi. Oliy o'quv yurtlariga viloyatlardan qat'iyan reja asosida qabul qilish: qanday o'qimasin, ularni bitirtirib chiqarish natijasida ko'pincha malakasi yetarli bo'lmagan mutaxassislarga diplom berishga to'g'ri keldi.

Ta'lim-tarbiya, ilmiy-tadqiqot ishlarining miqdoriy ko'rsatkichlari qanchalik yuqori bo'lmasin, ular Markazga qaramligi sababli o'zlarining ish faoliyatida kompartiya mafkuraviy tazyiqidan chetga chiqolmadilar. O'quv dasturlari, ayniqsa ijtimoiy fanlar haddan tashqari siyosatlashtirildi. O'tmishda dunyoga mashhur bo'lgan, jahon fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan ajdodlarimiz nomi esga olinmadi, millatimizning boy tarixi va adabiyoti o'qitilmadi. CHunki, maktab, oliy ta'lim tizimining asl maqsadi O'zbekiston misolida butun jahonga sovet davlati milliy siyosatining tantanasini ko'rsatishdan boshqa hech narsa emas edi. Bu tizim respublikaning Markazga qaramligini yana ham kuchaytirdi.

Markazning baynalmilalchilik siyosati aslida mamlakatda istiqomat qiluvchi 120 dan ortiq millatlar va elatlardan yagona sovet xalqini shakllantirish siyosatini ro'yobga chiqarish uchun jadal ishlarni olib bordi. SHu maqsadda rus tilini hayotga kiritish faollashdi. 1969 yildan boshlab O'zbekistonning barcha bolalar bog'chalarida rus tilini o'rgatish boshlandiki, butun harakat yagona baynalmilal til yaratishga qaratildi. Bunday siyosatning oqibatida o'zbek tilining jamiyatdagi o'rni, milliy, diniy qadriyatlari yo'qola bordi.

Sovet hukumati dastlabki kunlardan boshlab dinga, diniy tashkilotlarga qarshi keng miqyosda kurash olib borib, ateistik jamiyat qurish tomon yo'l tutgan edi. Machit va madrasalarni yopib, ularning binolaridan boshqa maqsadlarda foydalanildi. Navro'z kabi umumxalq bayrami, diniy marosimlar bekor qilindi. Haj safariga boradigan musulmonlarning soni har yili butun O'zbekistonda ikki-uch kishidan oshmasdi. Ruhoniylarning ko'pchiligi har xil bahonalar bilan qamoqqa olindi, surgun qilindilar. Din va diniy tashkilotlarni ta'qib qilib, dindorlarga nisbatan ko'r ko'rona munosabat qanchalik faol olib borilmasin, ularning e'tiqodini

2003.
50. Sharafiddinov O. Istiqlol fidoiylari. -T.: CHo'lpon, 1993.
51. Shoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. -T., Fan, 2001.
52. Sharifxo'jayev M., Rahimov F. Davrni belgilar bergan inson. -T.: Sharq,2004.
53. Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdihayoti tafsilotlari. -T.: Yozuvchi, 1999.
54. Eshov B.J. Sivilizatsiya tizimida ilk shaharlar. Toshkent, Zar qalam,2004.
55. Eshov B. Qadimgi davlatchilik va urbanizatsiya (tarixiy lavhalar). -T.:Mumtoz so'z, 2010. -B.108.
56. Shomiy Nizomiddin. Zafarnoma. -T.: O'zbekiston, 1996.
57. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. -T.: Yulduzcha, 1990.
58. Yunusova X.E. O'zbekistonda sovet davlatining milliy siyosati va uning oqibatlari (XX asr 80-yillari misolida). -T., Zar qalam, 2005. 7, 75.
59. Yunusova X.E. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va ma'naviyjarayonlar (XX asr 80-yillari misolida). -T., Abumatbuot-konsalt, 2009.10,23 b.t.
60. Yazdiy Sh. Zafarnoma. -T.: Sharq, 1997.
61. O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari -T.: Sharq, 2001.
62. O'zbekiston Respublikasi: Mustaqil davlatning bunyod bo'lishi. -T.:O'zbekiston, 1992.
63. Qoraqalpog'iston tarixi (1917-1994 yy.). Nukus, 1995.
64. Qurbonov I. Qatag'on qurbonlari. -T.: O'zbekiston, 1992.
65. Hasaniy M. Turkiston bosqini. -T.: Nur, 1992.
66. Haydarov M., Rajabov Q. Turkiston tarixi. -T., Universitet, 2002.
67. Hayitov Sh. O'zbek muhojirligi tarixi (1917-1991 yy.). -T.: Abu-MATBUOT KONSALT. 2008. -B. 208.
68. Xojaniyozov G'. Qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari (mil.avv. VIasrdan IV asrgacha). -T., 2007.
69. Xudoyberganov Q. Xiva xonlari tarixidan. -T., 2007.
70. Xoliqova R. Rossiya-Buxoro: tarix chorrahasida (XIX asrning ikkinchiyarmi - XX asr boshlari). - Toshkent. 2005. - B. 240.
71. Abulqosim Firdavsiy. Shohnoma. Uch jildlik. -T.: G'afur G'ulom, 1984.
72. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. Ikki jildlik. -T.: Mehnat, 1992.
73. Ipak yo'li afsonalari. -T.: Fan, 1993.
74. Yo'ldoshev N. Bahovuddin Naqshband. Buxoro, 1993.
75. Muhammadjonov A. Qadimgi Toshkent. -T.: Fan, 1988.
76. Muhammadjonov A. Qadimgi Buxoro. -T.: Fan, 1991.
77. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.1-12. -T.: O'zME davlat ilmiynashriyoti, 2000-2006.
78. Hasan Ato Abushiy. Turkiy qavmlar tarixi. -T.:CHo'lpon, 1993.

Lotin imlosidagi adabiyotlar

1. Oblomurodov N., va boshqalar. O`zbekiston tarixi. O`quv qo`llanma. -T.: Yangiasr avlodi, 2011.
2. Usmovov Q. va boshqalar. O`zbekiston tarixi. Darslik. -T.: Sharq,

Elektron ta'lim resurslari:

1. “Xalq so‘zi” gazetasi -www info XS. Uz.
2. “Turkiston” gazetasi - wwwturkistonsarkor.uz.
3. “Ma'rifat” jurnali - www ma’rifat - inform.
4. “Jamiyat va boshqaruv” jurnali - www rzultacademy freenet uz.
5. “Moziydan sado” jurnali - www moziydostlink.Net
6. www. Ziyo net.uz.

bo’ldi. O’lkaning o’ziga xos demografik holati hisobga olinmasdan davlat byudjetidan ijtimoiy sohaga ajratiladigan mablag’ qoldiq prinsipiga asoslanib yildan-yilga qisqarib bordi. Ta’lim-tarbiya, sog’liqni saqlash, aholiga maishiy xizmat ko’rsatish masalalarida miqdoriy o’sishlar ko’zga tashlanganligi bilan, aslida bular inson talabini qondirmas edi. Respublika bu sohalardagi ko’rsatkichlar bo’yicha Ittifoqdagi 15 respublika o’rtasida 13-14 o’rinlarda turdi.

80-yillarda fan, madaniyat va xalq ta’limiga ajratilgan xarajatlar davlat byudjetining atigi 2,7 foizini tashkil qilgan bo’lsa, bu ko’rsatkich 1989 yili yevropa mamlakatlarida 5,5 foizni, Afrika mamlakatlarida 5,4 foizni tashkil qilgan. Bolalar o’limi, oshqozon-ichak va yuqumli kasalliklar bo’yicha O’zbekiston SSSR da birinchilar qatorini egalladi. Aholining o’rtacha yoshi 1970 yil 72 yosh bo’lsa, 1980 yili bu ko’rsatgich 67,7 yoshni tashkil qildi. Bunga asosiy sabab ekologik vaziyatning keskinlashuvi bo’ldi. Jafokash o’zbek xalqining turmush darajasi achinarli ahvolda bo’lib, boshqa respublikalar bilan qiyoslaganda oxirgi o’rinlarda edi. Bundan boshqacha bo’lishi mumkin ham emas edi.

Davlat bosh ekspluatator rolini bajargan sotsialistik tizimda mehnat ahli o’z kuchi bilan yaratgan mahsulotning atigi 25-30 foizi hajmidagina haq oldi. Sovet Ittifoqining sanoat rivojlanishiga, yadro qurollarini ishlab chiqarish, koinotni o’zlashtirishdagi yutug’lariga katta hissa qo’shgan O’zbekistonning million tonnalab paxtasi, ming tonnalab oltin, kumush, uranlari uchun Markaz u bilan nohaq, surbetlarcha, adolatsiz hisob-kitob qildi. O’sha davrning mehnat ilg’orlari sovet tizimidagi sotsial siyosatning og’ir oqibatlarini hali ham ko’rishyapti.

«SHaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyat»ning oqibatlari:

Totalitar tizim jarayonida o’lkadagi madaniy-ma’rifiy ishlar e’tibordan chetda qolmadi. 20-30-yillarda savodsizlikni tugatish, ta’lim-tarbiya ishlari astoydil qo’lga olindi. 1941 yili O’zbekistonda 5.504 maktab bo’lib, ularda 42.000 o’qituvchilar dars berdi, 1 mln. 315 ming o’quvchi ta’lim oldi. Sanoat ishlab chiqarishining ishchi kadrlarga talabini qondirish uchun fabrika, zavodlar qoshida maxsus o’quv yurtlari ochildi.

O’rta Osiyoda oliy ta’limning beshigi, hozirgi O’zbekiston Milliy Universiteti bir qancha oliy o’quv yurtlariga asos bo’ldi, 1940 yili respublikada 30 ta oliy, 100ga yaqin o’rta maxsus o’quv yurtlari ishlab turdi.

1943 yilda tashkil etilgan O’zbekiston Fanlar Akademiyasi va uning ilmiy tekshirish institutlarida fanning turli sohalari: ayniqsa kimyo, fizika, elektronika, tarix, arxeologiya va boshqa fanlar rivojlandi.

20-30-yillarda adabiyot va san’at sohasida jahonga mashhur yozuvchilar va shoirlar yetishib chiqdi. Teatr va kino san’ati o’zining dastlabki qadamlarini qo’ydi. Madaniy-oqartuv muassasalarining soni ortib bordi.

Achinarlisi shundaki, respublikada ta’lim-tarbiya, madaniy-ma’rifiy ishlar «SHaklan milliy, mazmunan sotsialistik» shiori ostida olib borildiki, asl maqsad «baynalmilalchilik» niqobi bilan pardalanib, o’lkaga rus madaniyatini, ularning turmush tarzini tarqatishdan iborat bo’ldi. 1938 yil 19 martda O’zbekiston rahbariyati milliy maktablarda majburan rus tilini o’qitish to’g’risida qaror qabul qildi. O’qishlar va idoralarda ish yuritishlar 1929 yildan boshlab lotin, 1940 yildan boshlab kirill alifbosida olib boriladigan bo’ldi. Bularning oqibatida ko’p asrlar davomida arab alifbosida yaratilgan tariximiz, madaniyatimizni o’rganishdan respublikaning tub aholisi mahrum bo’ldi. 1927 yili o’tkazilgan «Hujum» harakati oqibatida o’zbek xotin-qizlari jahon taraqqiyotiga tortilgan holda, ikkinchi tomondan, ular industriyalashtirish girdobiga keng jalb

Jumladan, 1954-1956 yillari ittifoq miqyosidagi bir qator yirik korxonalar respublika ixtiyoriga o'tkazildi. Natijada sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning salmog'i 31 foizdan 55 foizga ko'tarildi. Xo'jalikni boshqarishda iqtisodiy omillarga suyanish, mehnat manfaatdorligini oshirish va boshqa tadbirlar o'z samarasini bermadi, chunki jamiyatda tub islohotlar o'tkazilmagan edi. Sanoat va qishloq xo'jaligi ekstensiv yo'l bilan, ya'ni tabiiy boyliklardan o'rinsiz, hisobsiz foydalanish, butun xalqning mehnatini haddan ortiq ekspluatatsiya qilish hisobiga 60-70-yillarda sanoatning yangi sohalari vujudga keldi.

O'zbekistonda oltin, uran, rangli metallar ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yila boshlandi. Energetika, kimyo sanoati rivojlandi. Sanoatning rivojlanishi natijasida yangi shaharlar: Navoiy, Uchquduk, Zarafshon, Zafarobod, Nurobod kabilar qad ko'tardi. Lekin mustamlaka holatidagi respublikaning rivojlanayotgan iqtisodidan boshqalar ko'proq manfaatdor edilar. So'nggi hisob-kitoblarga qaraganda bevosita Ittifoq ministrliklariga bo'ysundirilgan faqat oltin va uranning o'zidan 15 milliard amerika dollariga teng boylik Markazga olib ketilgan. O'zbekistonning aksariyat shahar, qishloqlari gazlashtirilmagan holda respublikada qazib chiqarilgan tabiiy gaz Rossiyaning sanoat markazlariga yetkazib berildi.

50-60-yillari O'zbekistonda paxta maydonini yanada kengaytirish maqsadida qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish ishlari olib borilib, 1945-1985 yillari qariyib 2.400.000 gektar yangi yerlar o'zlashtirildi. Sug'orish ishlarini yaxshilash uchun sun'iy suv omborlari qurildi.

Qishloq xo'jaligi uchun traktor, paxta terish mashinasi va boshqa texnika uskunalari tayyorlab berildi. Paxtachilikning moddiy texnika bazasini mustahkamlash bilan birga paxta hosildorligini oshirish uchun kimyoviy moddalardan cheksiz foydalanildi. Ko'rilgan tadbirlar natijasida 1970 yili respublikada paxta maydoni 1.700.000 gektarni tashkil qildi, yalpi hosil 4.495.000 tonnaga yetdi.

Yirik sanoat korxonalarining vujudga kelishi bilan Respublikaning Ittifoqqa bog'lanishi yana ham kuchaydi. Prezident I.A. Karimov: «... u paytda O'zbekiston bir yoqlama iqtisodiyotga-Markazga butunlay qaram, izdan chiqqan iqtisodiyotga ega bo'lgan yarim mustamlaka mamlakat qatoriga aylangan edi», deydi.

1985 yilning bahorida qishloq xo'jaligini boshqaruv tizimiga o'zgartirish kiritilib, mehnatni tashkil etishning brigada yoki oila pudrati, ijara singari yangi shakllari joriy etildi. Lekin markazda ma'muriy buyruqbozlik boshqaruv tartibi saqlangan holda ko'rilgan tadbirlar, qayta qurishlar natija bermadi. Jamiyatda, xususan iqtisodiyotda inqirozli holatlar kuchaya bordi. Qayta qurish deb boshlangan qurug' kompaniya Prezident I. Karimov ta'biri bilan aytganda, «hamma yoqni buzib, baqir-chaqir, o'g'rilik, qotillikni kuchaytirdi».

XII besh yillik vazifalari ilgarigi uch besh yilliklardagi kabi bajarilmay qoldi. O'zbekistonda milliy daromadning o'sishi 80-yillar birinchi yarmida o'rta hisobda 3,3 foizni tashkil qilgan bo'lsa, ikkinchi yarmida bu ko'rsatgich 2,2 foizni tashkil qildi.

Paxta ekin maydonlarining o'rinsiz kengaytirilishi va agrotexnika qoidalarining buzilishi tufayli yerning hosildorligi pasayib ketdi. Hosildorlikni oshirish uchun ekin maydonlarida haddan tashqari ortiqcha mineral o'g'itlaridan foydalanish oqibatida bu yerlar ma'lum bir vaqtdan keyin batamom yaroqsiz holga kelib qoldi. Qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish, O'rta Osiyoning yirik daryolari suvlaridan nazoratsiz foydalanish, o'lkada o'rinsiz ravishda sun'iy suv havzalarining qurilishi natijasida Orol dengizi asta-sekin quriy boshladi va XX asrning eng yirik Orol fojiasi vujudga keldi.

O'zbekistonning iqtisodiy ahvolidagi noxush holatlarning ijtimoiy oqibatlari nihoyatda og'ir

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

САМАРҚАНД ДАВЛАТ ЧЕТ ТИЛЛАР ИНСТИТУТИ

Рўйхатга олинди:
№_____
2016 йил "__" _____

"ТАСДИҚЛАЙМАН"
Ўқув ишлари бўйича проректор
_____ доц. Ф.Ш. Рўзиқулов
2016 йил "__" _____

ФАКУЛТЕТЛАРАРО
ИЖТИМОИЙ ФАНЛАР КАФЕДРАСИ
Ўзбекистон тарихи
Фани бўйича тайёрланган
СИЛЛАБУС

Билим сохаси: 100000-Гуманитар соха
Таълим сохаси 120000-гуманитар фанлар
5111400 – хорижий тил ва адабиёти (инглиз тили)
5120100 – филология ва тилларни ўқитиш (инглиз, немис, француз, италян, испан тиллари)
5120200 – таржима назарияси ва амалиёти (инглиз тили)
Билим сохаси: 100000-Гуманитар соха
Таълим сохаси 120000-гуманитар фанлар
5111400 – хорижий тил ва адабиёти (инглиз тили)
5120100 – филология ва тилларни ўқитиш (инглиз, немис, француз, италян, испан тиллари)
5120200 – таржима назарияси ва амалиёти (инглиз тили)

Самарқанд – 2016

Ушбу силлабус Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2011 йил 17 сентябрдаги 392 рақамли буйруғи билан тасдиқланган “Ўзбекистон тарихи” фанидан “Тажриба-синов” намунавий дастури, ўқув ва ишчи ўқув режага мувофиқ ишлаб чиқилди.

Тузувчилар:

М.А. Хандамова СамДЧТИ “Ижтимоий фанлар” кафедраси т.ф.н. доцент**.**
С.Ю. Султанова СамДЧТИ “Ижтимоий фанлар” кафедраси катта ўқитувчиси.
Ш.А. Индиаминова СамДЧТИ “Ижтимоий фанлар” кафедраси ўқитувчиси.

Тақризчилар:
Б.Ж. Эшов ЎзМУ “Ўзбекистон тарихи” кафедраси профессори

Фаннинг силлабуси Самарқанд давлат чет тиллар институти “Ижтимоий фанлар” кафедраси йиғилишининг 2016 йил “26” августдаги 1 - сон мажлисида муҳокамадан ўтган.

Кафедра мудири: ф.ф.н. Д.Т.Амридинова

Келишилди:
Ўқув-услубий бўлим бошлиғи **М.Б.Холиқов**

ramoni unvoniga sazovor bo’lgan bo’lsalar, butun O’zbekiston ahli xalq xo’jaligi mehnat frontida yuksak jasorat namunalarini ko’rsatdilar. 280 dan ortiq o’zbekistonliklar frontdagi jasoratlari uchun Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga, minglab jangchilarimiz esa urush yillari ta’sis etilgan orden va medallarga o’z jasurliklari sababli sazovor bo’ldilar.

Mamlakatning turli rayonlaridan ko’chirib keltirilgan aholini O’zbekistonda hurmat-e’tibor va g’amxo’rlik bilan kutib olindi. Bu yerga bir millionga yaqin odam, jumladan, 200.000 bola ko’chirib keltirildi. O’zbekistonda ular boshpana va mehr topishdi. Ularga 135 ming kvadrat metrdan ko’proq turar joy berildi, ularni ishga joylashtirish yuzasidan doimiy ish olib borildi. O’zbekiston aholisi o’zining so’nggi burda nonini, kiyim-kechagini, turar joyini ko’chib kelganlar bilan birgalikda baham ko’rdi. 15 nafar yetim bolani farzandlikka olgan SHomahmudovlar oilasining nomi butun jahonga ma’lum. Bu xalqlar do’stligining buyuk namunasi bo’lib, xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirsa-da, bu yillarda milliy siyosatda kechirib bo’lmaydigan xatolarga ham yo’l qo’yildi. 1943-44 yillarda qalmiqlar, qrim tatarlar, chechenlar, ingushlar, nemislar, qorachoylar, mesxeti turklari o’zlarining tarixiy vatani va doimiy joylaridan mamlakatning sharqiy rayonlariga ko’chirib yuborildi. O’zbekistonga 15 mingdan ortiq qrim tatarlar, 175 ming chechenlar, 157 ming ingushlar va boshqa xalqlar ko’chirib keltirildi. Urush yillarida va undan keyin omon qolgan harbiy asirlarning ham ahvoli og’ir kechdi.

Ma’muriy buyruqbozlik tizimining urush yillaridagi xunuk ko’rinishlaridan biri «talafotlar bilan hisoblashib o’tirmay, har qanday qilib bo’lsa ham harbiy maqsadlarga erishish zarur» degan prinsip bo’ldi. G’alaba nihoyatda qimmatga tushdi. Sovet kishilarining 27 millionga yaqin nafari urushning alangayu otashida halok bo’ldi. 18 milliondan ortiqroq jangchilar yarador bo’ldilar. Ularning ko’pchiligi mehnat qobi-liyatlarini yo’qotib, nogiron bo’lib qolishdi.

YUrtboshimiz aytib o’tganlaridek, bu urush kimlar tomonidan qanday maqsadlarda, qayerlarda bo’lib o’tganligidan qat’i nazar, unda o’zbekistonliklar qatnashib, o’z oilasi, bola-chaqasi, ota-onasi, muborak zaminni himoya qildilar. Ularning jasorati esa hech qachon unutilmaydi.

1945-80-yillar O’zbekiston iqtisodiyoti:

Ikkinchi jahon urushi yillari davrida izdan chiqqan O’zbekistonning iqtisodiyoti urushdan keyingi 1946-1950 yillari g’oyat keskinlashgan xalqaro vaziyatda qayta tiklana boshladi.

Mamlakatning ichki resurslari, tabiiy boyliklari va arzon ishchi kuchini g’oyat kuchli ekspluatatsiya qilish evaziga, xorijiy sarmoyalardan bosh tortgan holda olib borilgan iqtisodiyotni tiklash xalq boshiga og’ir kunlarni keltirdi. O’zbekiston xalq xo’jaligini tiklash ishlari sovet hukumatining zo’r berib kurollanish siyosatiga buysundirildi. Ayni bir vaqtda o’zbek xalqi urushda vayron bo’lgan o’lkalarni tiklashga ham o’z hissasini qo’shdi. Urush davrining shart-sharoitlari saqlangan holda xalqning mardona va fidokorona mehnati bilan besh yil ichida sanoat mahsulotini ishlab chiqarish urushdan avvalgi darajaga yetib, deyarli ikki marta oshib ketdi.

Urushdan keyingi yillarda qishloq xo’jaligini, ayniqsa chorvachilikni tiklash ishlari ancha og’ir o’tdi. 1945 yil 15 iyuldagi Markaziy hukumatning «O’zbekistonda paxtachilikni tiklash va yanada rivojlantirish choralari to’g’risida»gi qarori asosida paxta yakkahokimligi kuchaytirildi va O’zbekistonning markazga bog’liqligi yana ham mustahkamlandi. Ob-havoning injiqligiga, tiklash ishlarining qiyinchiliklariga qaramasdan, 1950 yilgi tayyorlangan paxta 2.200.000 tonnaga yetdi.

50-60-yillarda sanoat va qishloq xo’jaligini boshqarish tizimiga ayrim o’zgarishlar kiritildi.

mondan xalqni ezishning sovetcha ko'rinishi bo'lgan desak xato qilmaymiz. O'zbekistonda paxta yakkahokimligini kuchaytirish yo'li bilan SSSR paxta mustaqilligiga erishdi.

12-MAVZU:
O'ZBEK XALQINING II-JAHON URUSHIDA FASHIZM USTIDAN QOZONILGAN G'ALABAGA QO'SHGAN HISSASI

REJA:

1. Ikkinchi jahon urushining boshlanishi.
2. O'zbekiston moddiy va ma'naviy kuchlarining dushmanga qarshi kurashga safarbar etilishi.
3. Urush yillarida O'zbekiston qishloq xo'jaligi.
4. Urush yillarida O'zbekiston fani va madaniyati.
5. O'zbekiston jangchilarining frontdagi jasorati.

TAYANCH TUSHUNCHA VA IBORALAR:

Markazga qaramlik, «harbiy kommunizm», industriyalashtirish, jamoalashtirish, fashizmga qarshi urush. Sanoatning yangi sohalari, yangi yerlar o'zlashtirilishi-ekologik fojia, «shaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyat» shiori-milliylikning poymol qilinishi, kadrlar tayyorlashdagi nuqsonlar.

1939 yilda boshlangan ikkinchi jahon urushi sababli vujudga kelgan xalqaro vaziyatga SSSR bilan birga O'zbekiston ham tortildi. Xalqimizning botir farzandlari «kichik urushlar» deb nom olgan Xalxingol, Hasan ko'li, Finlyandiya urushlarida ishtirok etganlar.

1941 yil 22 iyun kuni gitlerchilar Germaniyasining SSSRga to'satdan qilgan hujumi o'zbek xalqining ham tinchini buzib, qalbini nafratga to'ldirdi. O'tkazilgan miting va yig'ilishlarda ariza bergan ko'ngillilar soni dastlabki oylardayoq 32 mingdan ko'proqni tashkil etdi.

Front orqasini mustahkamlash, xalq xo'jaligini qayta qurib, harbiy izga tushirish mamlakatni yagona harbiy lagerga aylantirishga doir umumiy dasturning eng muhim tarkibiy qismi bo'ldi. Bu dasturni amalga oshirishda O'zbekiston qizil Armiyaning front orqasidagi mustahkam bazasiga aylandi. O'zbekiston Qarbdan keltirilgan 100tadan ortiq korxonalarni qabul qilib oldi va bu zavodlar xalqimizning fidokorona mehnati bilan qisqa vaqt ichida mahsulot bera boshladi. «Rostselmash», «Krasnыy Aksoy», «Moskva», «Pod'emnik» va «Elektrostanok» zavodlari shular jumlasidandir. «Tashselmash» zavodi, CHirchiq elektrokimyo zavodi va boshqa respublika sanoati korxonalari ham front ehtiyoji uchun ishlay boshladi.

O'rta Osiyo va Qozog'iston respublikalari aholisi va moddiy resurslarini safarbar qilish va jangovar tayyor holga keltirishda O'rta Osiyo harbiy okrugi muhim rol o'ynadi. Bir yarim yil ichida bu okrug 109 qo'shilma tuzdi. O'zbekiston mehnatkashlari milliy harbiy qo'shilma tuzish tashabbusi bilan chiqdilar. 1941 yil noyabridan 1942 yil martigacha O'zbekistonda 14 ta milliy brigada, jumladan, 9 ta alohida o'qchi brigada, 5ta otliq diviziya tuzildi. Urush yillarida bir million to'rt yuz ming o'zbekistonliklar frontlarda jang qildilar. Ulardan to'rt yuz ellik ming kishi qaytib kelmagan. Urushning dastlabki kunlarida Respublika mudofaa fondiga 30 mln. so'm miqdorida pul to'plandi. Qisqa vaqt ichida O'zbekiston xalq xo'jaligi harbiy izga o'tkazildi. Butun xalq, jamiiyki moddiy resurslar vatan himoyasiga sarf qilindi.

Sobir Rahimov, Mamadali Topivoldiyev, R. Abzalov, O. Rahimov, Xalloq Aminov, Qo'chqor Turdiyev, Nazar Rajabov kabi o'zbekistonliklar jangovor jasoratlari uchun Sovet Ittifoqi Qah-

Ўқув фани дастурининг қисқача тавсифи "Ўзбекистон тарихи" фанининг 2016/2017 ўқув йили учун мўлжалланган силлабуси

Фаннинг қисқача тавсифи			
ОТМнинг номи ва жойлашган манзили:	Самарқанд давлат чет тиллар институти		Бўстонсарой шоҳ кўчаси, 93-уй
Кафедра:	"Ижтимоий фанлар", ауд: 1/12 хона		Факультетлараро
Таълим соҳаси ва йўналиши:	5120100 – филология ва тилларни ўқитиш (тиллар бўйича)	Бакалавриат босқичининг биринчи босқич барча йўналиш талабалари учун мўлжалланган	
Ўқитувчи тўғрисида маълумот:	Ўқитувчи**: тарих фани ўқитувчиси Индиаминова Шоира Амриддиновна**	**e-mail:**	Indiaminova sh/@umail.uz
Дарс машғулотини ўтказишнинг вақти ва жойи:	Маъруза – дарс жадвалига асосан Амалиёт – дарс жадвалига асосан	**Курсни ўқитиш муддати:**	Таълим йўналишлари ўқув режасига мувофиқ биринчи курснинг биринчи семестрида
Индивидуал график асосида профессор-ўқитувчининг талабалар билан ишлаш вақти:	Ҳафтанинг Сешанба ва Жума кунлари тушдан сўнг соат 14.30-16.00 гача "Ижтимоий фанлар" кафедрасида 1/12-хона		
Фаннинг бошқа фанлар билан узвий алоқаси (пререквизитлари):	"Ўзбекистон тарихи" фани бошқа ижтимоий-гуманитар фанлар, хусусан, археология, этнография, нумизматика, маданиятшунослик, диншунослик, фалсафа, иқтисод, география, демография кабилар билан бевосита боғлиқ ҳолда ўрганилади. Фанлар аро алоқалардан унумли фойдаланиш, ўзаро узвийлик ва узлуксизликни таъминлаш "Ўзбекистон тарихи" фанининг таълим-тарбия берувчи, маънавиятни юксалтирувчи ва инсон камолоти ҳамда миллат равнақини таъминловчи вазифаларини тўлақонли амалга оширишга хизмат қилади.		
Ўқитувчининг талабага қўядиган асосий талаблари:	- ўқитувчига ва гуруҳдошларга нисбатан ҳурмат билан муносабатда бўлиш; -институт ички тартиб - интизом қоидаларига риоя қилиш; - уяли телефонни дарс давомида ўчириш; - берилган уй вазифаси ва мустақил иш топшириқларини ўз вақтида ва сифатли бажариш; - кўчирмачилик (плагиат) қатъиян ман этилади; - дарсларга қатнашиш мажбурий ҳисобланади, дарс қолдирилган ҳолатда қолдирилган дарслар қайта ўзлаштирилиши шарт; - дарсларга олдиндан тайёрланиб келиш ва фаол иштирок этиш; -талаба ўқитувчидан сўнг, дарс хонасига - машғулотга киритилмайди; - талаба рейтинг балидан норози бўлса эълон қилинган вақтдан бошлаб 1 кун мобайнида апелляция комиссиясига мурожаат қилиши мумкин		

Фанга ажратилган ўқув соатларининг ўқув турлари бўйича тақсимоти	Аудитория соатлари				Мустақил таълим:
	Маъруза:	38	**Амалиёт**	38	40
Фаннинг қисқача мазмуни:	Ўзбекистоннинг давлат мустақиллигини қўлга киритиши туфайли халқимизнинг асрий орзуси ушалди, ўз тақдири ва келажагини ўзи яратадиган бўлди. Тарихан қисқа даврда жамиятимиз ижтимоий-сиёсий ҳаётининг барча соҳаларида кескин бурилиш ясалди. Мамлакатимизни модернизация қилиш, фаол демократик янгиланишларни амалга ошириш билан боғлиқ қатор ислоҳотлар ўтказилди. Жумладан, ана шу буюк ўзгаришларни асрлар давомида орзу қилган халқимизнинг кўҳна тарихига бўлган муносабати тубдан ўзгарди. Зеро, Президент Ислом Каримов таъкидлаганидек: "Ўз тарихини билмайдиган, кечаги кунини унутган миллатнинг келажаги йўқ".[1]Айниқса, бугунги мураккаб глобаллашув даврида маънавият соҳасида вужудга келаётган долзарб муаммолар, халқимиз маънавиятини асраш ва янада юксалтириш, ёш авлоднинг қалби ва онгини турли зарарли ғоя ва мафкуралар таъсиридан сақлаш ва ҳимоя қилишда Ватан тарихини ҳар томонлама ва чуқур тадқиқ этиш, бирламчи манбаларга таяниб талқин этиш, келажак авлодга ҳақиқий тарихимизни ўқитиш орқали уларни юксак маънавиятли шахслар этиб тарбиялаш долзарб аҳамият касб этади. Мамлакатимиз тарихида янги давр – мустақил тараққиёт даври бошланди. Халқимиз демократик ҳуқуқий давлат ва очиқ фуқаролик жамияти қуриш йўлида дастлабки синовлардан ўтди. Истиқлол йилларида юртимизда миллий маънавиятимизни тиклаш, уни замон талаблари асосида ривожлантириш бўйича улкан ишлар амалга оширилди. Демократик ислоҳотлар тобора чуқурлашиб бормоқда. Янги жамият қуриш, аввало, ёшларга, уларнинг маънавий дунёси, касб-маҳоратига боғлиқ. Бинобарин, ёш авлодда миллий ғояни, юксак маънавий фазилатларни шакллантиришда, миллий онг ва соғлом фикрни уйғотиш, уларни Ватан, халқ ва истиқлол тақдири учун ғоявий курашчанлик руҳида тарбиялашда, юксак маънавиятли комил инсон бўлиб шаклланишида, шунингдек, халқимизнинг маънавий юксалиши йўлида "Ўзбекистон тарихи" фанининг аҳамияти катта. Ушбу фаннинг барча олий ва ўрта махсус ўқув юртлари ҳамда мактабларда ўқитилиши ҳам ана шу юксак аҳамият билан белгиланади.. **Фанни ўқитишдан мақсад -** ёш авлод онгида инсоният учун энг муҳим бўлган маънавиятни шакллантириш ҳамда янада юксалтириш, улар онгида юксак маънавий фазилатларни шакллантириш жараёнида миллий онг ва соғлом фикрни уйғотиш, тарихий хотиранинг ёшларимизни Ватанга садоқат ҳамда миллатпарварлик руҳида тарбиялашдаги мислсиз аҳамиятини ифода этиш, ўз тақдири ва келажагини барпо этадиган ёш авлодни янги жамиятни янада ривожлантиришга йўналтирилган ғоялар асосида тарбиялашга қаратилган.				

Sovetlar davrida O'zbekistonning iqtisodiy va ma'naviy qaramligi hamda uning oqibatlari:

20-yillarning boshlarida joriy etilgan yangi iqtisodiy siyosat O'zbekistonning ham iqtisodiyotida jonlanishga olib keldi. Lekin 20-yillarning oxirida bu siyosat o'zining mohiyatini yo'qota boshladi va 1929 yilda batamom bekor qilindi. Erkin savdo, xususiy tadbirkorlikka chek qo'yildi. Qishloq xo'jalik maxsulotlarining xarid narxi tushirilishi oziq-ovqat muammosini keltirib chiqardi, dehqonlar qashshoqlashdi.

O'zbekistonda sovet hokimiyatini mustahkamlashning zaruriy sharti sifatida industriyalashtirish siyosatini amalga oshirish boshlandi. Sanoati qoloq, malakali ishchi kadrlari, mutaxassislari deyarli yo'q, og'ir sanoatni rivojlantirish tajribasi yo'q o'lkada industriyalashtirish og'ir kechdi. SHu bahona malakali ishchilar, muhandis-texnik xodimlarni Rossiyaning markaziy hududlaridan ko'chirib keltirildi. Faqat 1931 yilning o'zida ko'chirib keltirilganlar 15.000 nafarni tashkil qildi. Oqibatda 1926-1939 yillari O'zbekiston aholisi 37 foizga ko'paygan bo'lsa, yevropaliklar soni 62 foizga oshdi.

Industriyalashtirishning dastlabki paytida kichik suv elektrostansiyalari hamda qishloq xo'jaligiga, paxtachilikka qaratilgan xom-ashyoni qayta ishlash korxonalari qurilib ishga tushirildi. CHirchiqdagi GESlar, Toshkent tikuvchilik, poyafzal, tamaki, Farg'ona to'qimachilik, Samarqand va Marg'ilondagi ipak fabrikalari shular jumlasidandir. 30-yillarda Toshkent to'qimachilik kombinati, qishloq xo'jalik mashinasozlik zavodi, CHirchiq ximiya kombinati va boshqa ko'plab yirik korxonalar ishga tushirildi. 30-yillar oxirida respublikada 1445 ta har xil sanoat korxonalari mavjud bo'lib, bularda 142 ming ishchi mehnat qilar edi.

Sovetlarning «o'z kuchimiz bilan qisqa muddatda» deb olib borgan industriyalashtirish siyosati O'zbekiston uchun g'oyat og'ir kechdi. Markaz respublikamizning yer osti va yer usti qazilma boyliklari, xom-ashyo manbalarini talon-taroj qilib, arzon ishchi kuchidan foydalanib, o'lkadan mumkin qadar ko'proq foyda olish harakatida bo'ldi. Bu siyosat ayniqsa millionlab dehqonlar hisobidan amalga oshirildi. CHunki qishloqda zo'rlik bilan olib borilgan jamoalashtirish siyosati g'arazli maqsad uchun juda ham qo'l keldi.

1930 yilning boshlaridan yoppasiga jamoalashtirish harakati boshlanib, katta yer egalari, o'rta hol dehqonlar va kambag'allarning yerlari jamoa xo'jaliklariga birlashtirildi, ularning qo'llaridagi ot-ulov, mehnat vositalari, chorva mollari ham majburiy umumlashtirildi.

Davlat, jamoa xo'jaliklari orqali rejalashtirilgan yo'l bilan mehnatkash dehqonlar oladigan hosilning deyarli barchasini yig'ib oladigan bo'ldi. Buning natijasida dehqonlar xo'jaligi xonavayron bo'ldi. 30-yillar boshlarida yuz bergan ocharchilik, uning oqibatida minglab kishilarning qirilib ketishi, aholining haligacha qishloq xo'jalik mahsulotlariga yolchimay kelishi-o'sha davr ko'r ko'rona siyosatining natijasi bo'ldi.

Ommaviy jamoalashtirishga suyanib, badavlat xo'jaliklar, ayrim o'rtahol dehqonlardan 5,5 mingdan ortig'i o'z oilasi bilan uzoq o'lkalarga surgun qilindi. Bu bilan sovet davlati qishloq aholisining bosh ko'tarishga qodir, vaziyatni tushunadigan qismini yo'q qilib, talonchilik siyosatini osonlashtirdi.

O'z-o'zidan ravshanki, jamoalashtirish siyosati natijasida qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligi pasayib, moddiy manfaatdorlik yo'qoldi, qishloq aholisi qashshoqlashdi, dehqonni ekspluatatsiya qilishning birdan-bir takomillashgan uslubi kashf etildi.

O'atto xalqimizning qadim an'anasi hashar ham ekspluatatsiya quroliga aylantirildi. 1939 yilda qazilgan Katta Farg'ona kanali bir tomondan, xalqimizning mehnat jasorati, ikkinchi to-

1951 yilda Maqsud SHayxzoda, SHukrullo YUsupov, G'ulom Alimov va boshqa bir qator ijodkorlar «antisovet millatchilik faoliyati» da ayblanib qamoqqa olindilar va 25 yillik qamoq jazosiga hukm qilindilar. SHu yillari jamiyatshunos olimlardan bir guruhi, chunonchi, faylasuf V.Zohidov, iqtisodchi A.Aminovlar panturkizmni tashviqot qilishda va burjua-millatchilikda ayblanib, ta'qib qilindi.

Qatag'on qilingan san'at, fan va madaniyat arboblari mustabid tuzum davrida haq-huquqsizlik qurboni bo'ldilar.

Adolat bir qadar qaror topib, shaxsga sig'inish va uning oqibatlarini tuzatish uchun olib borilgan kurashlardan keyin asossiz qatag'on qilingan madaniyat va fan arboblari oqlandilar.

Qatag'onlikning yangi to'lqinlari:

80-yillarning o'rtalariga kelib qatag'onlik va qonundan chekinishlar yana bo'y ko'rsata boshladi. Galdagi qatag'onlik to'lqiniga nafaqat ijod ahli, balki xo'jalik xodimlari va davlat arboblari ham tortildi.

O'zbekistonning milliy ziyolilari hech qachon, hattoki mustabid tuzumning «gullab-yashnagan» davrida ham o'zbek xalqining milliy mustaqilligi g'oyalaridan voz kechmadilar. Ochiq kurash imkoni bo'lmaganda ham milliy mustaqillikni qo'lga kiritish uchun zimdan kurash olib bordilar.

O'zbekistonda qonunchilik va huquqiy tartiblarni tiklash, partiya davlat organlarini kadrlar bilan mustahkamlash degan niqoblar bilan Markazdan katta vakolatga ega bo'lgan mas'ul xodimlarning «desant» guruhlari kela boshladi. Ularga partiya, sovet va sud organlaridan muhim ahamiyatga ega bo'lgan lavozimlar berildi. Uydirma, to'qib chiqarilgan «paxta ishi» va «o'zbeklar ishi» deb ishlarga siyosiy tus berildi. Oqibatda go'yoki butun O'zbekiston jinoyatchilar makoniga aylanib qolgandek tasavvur uyg'otishga harakat qilindi. Ittifoqning Gdlyan va Ivanov boshliq emissarlar guruhi respublikadagi turli sohalarda ishlayotgan bir necha minglab rahbar xodimlarni tergov jarayoniga tortdilar.

Ularga poraxo'rlik, ko'zbo'yamachilik va jinoyatchilikning boshqa ko'rinishlaridagi aybnomalar qo'yildi. Mahbuslarni «o'z aybiga iqror qilish» uchun jismoniy zo'ravonliklar, ruhiy azoblar qo'llanildi. O'zbekiston Kompartiyasi MK ning sobiq birinchi kotibi SH.R. Rashidov nomiga ham nohaq tuhmatlar qilindi, o'zbek xalqining milliy g'ururi toptaldi. Bunda O'zbekiston SSRning o'sha davrdagi qo'g'irchoq rahbarlarining mash'um hissasi bo'ldi.

Ommaviy qamoqqa olishlar avj oldi, qiynoqlarga ko'plab halol, sof vijdonli kishilar ham tortildi. Qo'shib yozishlar, ko'zbo'yamachilik va poraxo'rlik kabi illatlar sotsialistik jamiyatda tabiiy holat bo'lib, o'sha paytdagi barcha respublikalarda mavjud hodisa edi. O'zbekistonga nisbatan «paxta ishi» oldindan, maxsus tayyorlangan uzoqni mo'ljallab tashkil qilingan siyosiy fitnadan boshqa hech narsa emasdi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng «paxta ishi» qayta ko'rib chiqildi va minglab begunoh kishilar oqlandilar. O'z navbatida O'zbekistonning mohir, taniqli davlat va jamoat arbobi SH.R. Rashidovning pok nomi tiklandi. SHuningdek, mehnatkash o'zbek xalqining yuzi yorug' ekanligi asoslandi.

O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimovning tashabbusi bilan 2000 yil 12 mayda Toshkent shahrida YUnusobod mavzesida mustabid sovet rejimi davrida qatag'on qilingan shahidlar xotirasiga bag'ishlab o'rnatilgan yodgorlik majmuining ochilishi bugungi minnatdor avlodning ajdodlarimiz oldidagi chuqur ehtiromi ramzidir.

	Фаннинг вазифаси:– Ватанимиз ҳудудларида энг қадимги даврлардан бошлаб бўлиб ўтган тарихий-маданий жараёнларни холисона ҳамда манбаларга таянган ҳолда таҳлил қилиш, ўрганиш, уларнинг сабаблари ва моҳиятини очиб бериш; – тарихнинг турли даврларида мамлакат иқтисодий ва маданий равнақи учун фидойилик қилган давлат арбоблари, улуғ саркардалар, илм-фан ҳамда маданият намояндалари, миллий қаҳрамонлар фаолиятини холисона баҳолаш асосида ёшларимизни миллатпарварлик руҳида тарбиялаш; – тарихий хотира асосида ёшларимизни "Биз ҳеч кимдан кам эмасмиз ва кам бўлмаймиз" ғояси руҳида тарбиялаш; – ҳозирги кунда мамлакатимизда ўтказилаётган ислоҳотлар ва жуда кўплаб бўлаётган замонавий ўзгаришлар моҳиятини, ҳуқуқий-демократик жамият қуриш йўлидаги янгиликларни, Ўзбекистоннинг жаҳон ҳамжамиятга интеграциялашуви жараёнларини ёшларга етказиш.
Фанини ўргатиш натижасида ҳосил бўладиган билим, малака ва кўникмалар:	Ўзбекистон тарихи ўқув фанини ўзлаштириш жараёнида амалга ошириладиган масалалар доирасида бакалавр: фаннинг предмети, назарий-методологик асослари, манбалари ва аҳамиятини, Ўзбекистон тарихи жаҳон тарихининг ажралмас қисми эканлигини, ўзбек давлатчилигининг шаклланиши ва ривожланишижараёнларини билиши керак; Ўзбекистон тарихининг асосий даврлари ва тараққиётининг тадрижий босқичлари тўғрисида, уларнинг узвий боғлиқлиги ва давомийлиги, тарихий воқеалар ворисийлиги ҳақида тасаввурларга эга бўлиши лозим; мустамлакачилик ва қарамлик даврида Ўзбекистоннинг турли соҳалари ривожланишига қарши сиёсат ва уларнинг аянчли оқибатлари, турли даврларда истилочиларга ва мустабид тузумга қарши озодлик йўлидаги курашлар ҳамда ватанпарвалик жасоратлари ҳақида билиши, Ватанимизнинг ривожи йўлида фаол иштирок этиш кўникмаларига эга бўлиши керак; аждодларимизнинг жаҳон цивилизациясига қўшган ҳиссаси тўғрисида чуқур билимга эга бўлиши, уларнинг ибратли ҳаёти ва фаолияти билан фахрланиш ҳиссиётуйғусига эга бўлиш и зарур; Ўзбекистонда давлат мустақиллигининг қўлга к иритилиши, ҳуқуқий демок ратик давла т ва фуқаролик жа мияти асосларининг барпо этилиши, янгиланиш ва модернизация жараёнлари ҳақида тўла қонли билимга эга бўлиши керак; Ўзбекистон тарихида кечган жараёнларга нисбатан ўз нуқтаи назарига эга бўлиши, хулоса чиқара олиши ва ўзининг жамият тараққиётида тутган ўрнини англаш кўникма ва малакасига эга бўлиши лозим.
Электрон почта орқали муносабатлар тартиби	Профессор-ўқитувчи ва талаба ўртасидаги алоқа электрон почта орқали ҳам амалга оширилиши мумкин, телефон орқали баҳо масаласи муҳокама қилинмайди, лекин оралиқ, жорий ва якуний баҳолаш фақатгина институт ҳудудида, ажратилган хоналарда ва дарс давомида

	амалга оширилади. Электрон почтани очиш вақти соат 15.00 дан 20.00 гача.

Фан мавзулари ва унга ажратилган саотлар тақсимоти:

Т/р	Мавзулар номи	Жами соат	Маъ-руза	Семи нар	Мустакил таълим
1	Ўзбекистон тарихи фанининг предмети, унинг ўрганишнинг назарий-методологик асослари, манбалари ва аҳамияти	6	2	2	2
2	Марказий Осиё жаҳон цивилизатциясининг ажралмас қисми	6	2	2	2
3	Ўзбек давлатчилигининг шаклланиши ва дастлабки тараққиёт босқичлари	6	2	2	2
4	Ўзбек халқининг этник шаклланиши	6	2	2	2
5	Илк ўрта асрлар ўзбек давлатчилиги:ижтимоий-сиёсий,иқтисодий ва маънавий ҳаёт	6	2	2	2
6	IX-XII асрларда ўзбек давлатчилиги, сиёсий – ижтимоий ва иқтисодий ҳаёт.	6	2	2	2
7	Ўрта Осиё халқлари ҳаётида IX – XII асрларда юз берган (ренесанс) уйғониш даври. Фан ва маданиятнинг юксак равнақи.				
8	Мўғуллар истилоси ва зулмига қарши кураш. Жалолиддин Мангуберди – Ватан химоячиси.	6	2	2	2
9	Амир Темур ва темурийлар даврида ижтимоий – сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаёт.	10	2	4	4
10	Ўзбекистон ҳудудларининг хонликларга бўлиниб кетиши, унинг сабаблари ва оқибатлари.	6	2	2	2
11	Ўзбекистон ҳудудларининг хонликларга бўлиниб кетиши, унинг сабаблари ва оқибатлари.	6	2	2	2
12	Ўзбек хонликларининг Россия империяси томонидан босиб олиниши. Мустамлакачилик зулмига қарши миллий озодлик ҳаракати. Жадидчилик.	6	2	2	2
13	Туркистонда совет ҳокимиятининг ўрнатилиши ва унга қарши қуролли ҳаракат.	6	2	2	2
14	Совет ҳокимиятининг Ўзбекистонда амалга оширган ижтимоий – сиёсий, иқтисодий тадбирларнинг мустамлакачилик моҳияти.	6	2	2	2
15	Иккинчи жаҳон уруши йилларида ўзбек халқининг фашизм устидан қозонилган ғалабага қўшган хиссаси.	6	2	2	2
16	Совет давлатида мамурий буйруқбозлик тузумининг кучайиши ва инқирози даврида Ўзбекистон.	6	2	2	2
17	Ўзбекистонда давлат мустақиллигининг қўлга киритилиши. Демократик ҳуқуқий давлат ва фуқаролик жамияти асосларининг барпо этилиши.	6	2	2	2
18	Мустақиллик йилларида Ўзбекистоннинг иқтисодий, маънавий – маданий тараққиёти.	6	2	2	2
19	Ўзбекистоннинг жаҳон ҳамжамиятидаги интеграциялашуви.	4	2	-	2
	ЖАМИ	116	38	38	40

shaxslarni qidirish va tekshirish bilan bog'liq bo'ldi. Masalan, F. Xo'jayev, A. Ikromov, D. Manjara, A. Karimov kabi partiya va davlat rahbarlari hibsga olindilar va otib tashlandilar.

O'zbekiston Ichki Ishlar Xalq Komissarligining «uchliklari» olib borgan faoliyati oqibatida 1939-1953 yillar mobaynida 61799 kishi qamoqqa olingan, ulardan 56112 nafari turli yillarga qamoq jazosiga, qolganlari otishga hukm qilingan. Keyinroq ularning ko'pchiligi oqlandi, ming afsuslar bo'lsinki, ularning aksariyati bu adolatga o'limidan so'ng sazovor bo'ldilar.

1930-50-yillarda ziyolilarning ta'qib qilinishi:

Milliy adabiyot va san'atning ahvoli qiyin va nomutanosib holatda edi. SHaxsga sig'inishning rutubatli iqlimiga qaramay ijodiy hayot so'nmadi, yozuvchilar va adabiyotshunoslar qatori kengaydi. 1934 yil martda Toshkentda O'zbekiston yozuvchilarining s'ezdi bo'ldi va unda Respublika YOzuvchilar uyushmasi tashkil qilindi.

O'zbek yozuvchilarining nomlari jahonga keng yoyila boshladi. G'afur G'ulom, Oybek, G'ayratiy, Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor, Oydin Sobirova, Usmon Nosir, Komil YAshin va boshqalarning asarlarida xalqning ijtimoiy hayoti va an'analari, mehnat qahramonlari, shijoati kabi xususiyatlar o'z badiiy ifodasini topgan.

Lekin 30-yillarda kuchaygan ma'muriy buyruqbozlik tizimi va shaxsga sig'inish mafkurasi ijod ahlini, qolaversa respublikaning madaniy hayotini bo'g'a boshladi. Ijodni partiyaviylik va yagona mafkuraga bo'ysundirilishi hayotni badiiy tasvirida vulgar-sotsial ko'rinishlarga keng yo'l ochdi. Partiya tomonidan yangi hayotni kuylashga bo'lgan chaqiriq va majburiy cheklashlar ijodiy jarayonda tarixiy o'tmishni bir tomonlama tasvirlashga olib keldi.

Adabiyotda borliqni, murakkab ijtimoiy muammolarni bo'yab ko'rsatish, xato va kamchiliklar haqida sukut saqlash zaruriy shart bo'lib qoldi.

Milliy madaniyat 30-yillarda qattiq fojiaga uchradi. Inson haq-huquqlarining poymol qilinishi kuchaydi. Abdulla Qodiriy, CHo'lpon, Fitrat, SHokir Sulaymon, Ziyo Said, Elbek, Botu, A'zam Ayub, Usmon Nosir, Qosim Sorokin kabi millatning yetuk ziyolilari qatag'on qilindi va xalqimiz ularning asarlarini o'qishdan uzoq vaqt mahrum bo'ldi.

40-yillar oxirlarida fan va madaniyat xodimlarini qatag'on qilishlar davom etdi. VKP (b) MKning 1946 yil «Zvezda» va «Leningrad» jurnallari haqidagi qarorlari qatag'onlar yangi to'lqinining g'oyaviy asosi bo'lib xizmat qildi. SHu paytdan boshlab adabiyot va san'atda ijodiy demokratik rivojlanish uzoq yillar davomida sun'iy ta'qib qilindi, joylarda hurfikrlilik siquvga olindi.

Markazning ko'rsatmalariga asoslanib, respublikaning partiya organlari ijodiy ziyolilarga qarshi kurash olib bordilar. Ularning asarlaridagi milliy g'oyalar ularni ayblash uchun foydalanildi. YOzuvchi va shoirlarning asarlarida o'rta asr va inqilobgacha bo'lgan davrdagi xalq tarixini, madaniyatini badiiy tasvirlash-o'tmishni qo'msash, ideallashtirish deb ayblandi va ularga «millatchi» degan tamg'alar yopishtirildi. SHu qabilda Oybek, Abdulla Qahhor, Mirtemir, SHayxzoda va boshqa o'zbek yozuvchilari qoralandi.

1951 yil avgustda respublika matbuotida «qator shoir va yozuvchilarning ijodida mafkuraviy og'ishlar» mavzusida maqola chop etildi. Unda Turob To'la, Kamtar Otaboyev, Mirtemir, Sobir Abdulla, O'abibiy kabi ijodkorlar millatchilikda va panturkchilikda ayblanib, tanqid qilindilar. SHuningdek, Oybek, X. Zarifov, X. YOqubov, Said Ahmad, I. Sultonov va boshqalar «o'zbek sovet adabiyoti vazifalaridan chetda turish»da va «jiddiy g'oyaviy xatoliklar»ga yo'l qo'yganlikda ayblandilar.

hisoblaydigan, mahalliy aholiga ishonchsizlik bilan qarovchi Turkistonning bir qator rahbarlariga nisbatan choralar ko'rildi. SHu o'rinda qayd qilish lozimki, o'lkada mustamlakachilik siyosatini olib borishda Markaz tashkil qilgan Turkkomissiya va RKP (b) MK Turkbyurosi, keyinroq uning o'rniga VKP (b) MK ning O'rta Osiyo byurosi kabi tashkilotlar katta xizmat ko'rsatdilar.

Turkistondagi rahbar xodimlar, xususan Turor Risqulov (Turkiston MIK raisi) boshchiligidagi milliy kommunistlar, Turkiston mustaqilligi va uning o'z taqdirini o'zi belgilashdek demokratik tamoyillar uchun kurash boshladilar. 1920 yilda TKP Musulmon byurosining III-konferensiyasi va TKP ning V-o'lka konferensiyasida T. Risqulovning turk xalqlari kommunistik partiyasi tuzish va Turkiston Respublikasini Turk respublikasi deb atash haqidagi g'oyalari ko'rib chiqildi va ma'qullandi. Biroq bu g'oyalarning asl maqsadi Turkiston mustaqilligi bo'lganligi bois, Markaz T. Risqulov va uning tarafdorlarining fikrlariga qarshi chiqdi. O'z navbatida Markazning Turkistondagi hukmronligining tayanchi Turkkomissiya bu harakatni rad etdi va millat fidoyilarini quvQinga uchratdi.

T. Risqulov o'lkada ulug' davlatchilik shovinizmi, burjua millatchiligi yuzaga kelayotganligi to'g'risidagi masalalarni ko'tarib chiqdilar. F. Xo'jayev partiya ichidagi toqat qilib bo'lmas holatlarni ko'rsatib o'tdi. Ushbu vatanparvarlarning chiqishlari, keyinchalik ularni jismoniy yo'q qilishda ayblov uchun asos bo'ldi.

Turkistonning sotsial - iqtisodiy rivojlanishi borasida bildirilgan muqobil fikr mualliflari millatchilikda ayblandilar. Ayni shu damlarda O'zbekistonning ilg'or, hurfikrli farzandlari «inog'omovchilik», «18 lar guruhi», «qosimovchilik» kabi guruhbozlikda va davlatga qarshi - millatchilikda aylanib qatag'on qilindilar. 20-yillarning oxiriga kelib respublikada mustabid tuzum o'zini to'liq namoyon etdi. Siyosiy qatag'onliklar avj oldi.

1929 yilda mashhur jadidchi, ma'rifatparvar Munavvarqori Abrurashidxonov boshliq «Milliy istiqlol» tashkiloti a'zolarini qamoqqa olish boshlandi. Bu tashkilotning qamoqqa olingan 85 a'zosidan 15 tasi otildi, qolganlari axloq tuzatish lagerlariga jo'natildi. «Milliy ittihod» tashkilotining a'zolari ham qatag'on qilindilar. Mashhur jamoat arboblari Mannon Abdullayev (Ramzi), Nosir Saidov, Mahmud Mirxodiyev, Xosel Vasilov, Sobir Qodirov va boshqalar o'lim jazosiga hukm qilindilar, so'ngra bu hukm uzoq muddatli qamoq jazosiga almashtirildi.

1930 yilda Davlat Banki ma'muriyatida o'tkazilgan tozalash vaqtida qator rahbar xodimlar qamoqqa olindilar. O'zbekiston SSR Sudi raisi Sa'dulla Qosimovning «qosimovchilik» deb nomlangan ishini ko'rib chiqish boshlandi. Bu jarayonlarning mohiyati ko'zga ko'ringan siyosiy arboblarni tugatishga qaratilgan edi.

30-yillarning boshi dindor va e'tiqodli kishilarga nisbatan zo'ravonlik siyosiy qatag'onlikning cho'qqisi bo'ldi. Juda katta miqdordagi islom, xristian, budda diniga taalluqli asarlar yo'q qilindi. Bu davrda O'zbekistondagi dindorlar, ulamolarning asosiy qismi qamoq lagerlariga jo'natildi. O'tmishda nafaqat diniy rusumlar ado etadigan, balki madaniyat, fan, tarbiya, san'at markazlari, xalqning ko'p asrlik merosini saqlovchisi bo'lgan machit va madrasalarning deyarli barchasi yopib qo'yildi, ayrimlari buzib tashlandi.

Butun respublikaning hayoti Markazning qattiq nazorati ostiga o'tdi. Partiya direktivalaridan har qanday chekinish aksilinqilobiy, siyosiy muxolifat deb baholandi.

1937 yildan «antisovet», «xalq dushmanlari»ni qidirib topish va jazolash keng tus oldi. Xususan, siyosiy boshqaruv organlarining (OGPU) faoliyati asosan ana shunday «tamg'a» olgan

Талабалар билимини баҳолаш тизими:

т/р	Назорат турдаги топшириқларнинг номланиши	Максимал йиғиш мумкин бўлган балл	ЖН ва ОН баллар тақсимоти		
I. Жорий назоратдаги баллар тақсимоти		**40 балл**	*1-ЖН (12 б)*	*2-ЖН (12 б)*	
Маъруза машғулотларда					
1.	Талабанинг маъруза машғулотларда фаоллиги, мунтазам равишда конспект юритиши учун	3	2	1	
2.	Мустақил таълим топшириқларининг ўз вақтида ва си фатли бажарилиши (кейс-стадилар, эссе, реферат, тақдимот ва бошқа турдаги мустақил таълим топшириқлари)	7	4	3	
Тажриба (Амалий семинар) машғулотларда					
1	Талабанинг машғулотларда фаоллиги, саволларга тўғри жавоб берганлиги, амалий топшириқ (масала, мисол) ларни бажарганлиги учун	30	Семестр давомида		
II. Оралиқ назорат		**30 балл**			
1.	Биринчи оралиқ назорат (маърузачи томонидан қабул қилинади)	30	Семестрнинг -ҳафтаси		
III. Якуний назорат		**30 балл**	Семестрнинг охирги икки ҳафтасида		
Жами:		**100 балл**	Семестрнинг охирги икки ҳафтасида		

Изоҳ: якка тартибда ва гуруҳ бўйича топшириқлар қуйидагича бўлиши мумкин: кейс-стади, тақдимот, эссе, вазиятли масалалар, вариантлар асосида савол-жавоб.

Талабанинг фан бўйича ўзлаштириш кўрсаткичининг намунавий мезонлари:

Балл	Баҳо	Талабанинг билим даражаснни ифодаловчи ҳолатлар
86-100	Аъло	- ўтилган мавзулар бўйича тўлиқ ва етарли даражада назарий ҳамда семинар билимларга эга эканлигинн намойиш эта олиши; - муҳим топшириқ ва масалалар бўйича тўғри хулоса ва қарорлар қабул килиши; - муаммоларни ҳал этишга ижодий ёндаша олиши; - мустақил фикрлаши ва мушоҳада юритиши; - фаннинг моҳиятини аниқ тушуниш орқали унинг асосий қоидаларини тўлиқ баён эта олиши: - мамлакатимизда руй бераётган ижтимоий-иқтисодий ўзгаришлар тўғрисида тасаввурга эга бўлиши ва х.к.
71- 85	Яхши	-ўтилган мавзулар бўйича деярли тўлиқ даражада назарий ҳамда семинар билимларга эга эканлигини намойиш эта олиши; -муҳим топшириқ ва масалалар бўйича маълум даражада хулоса ва қарорлар қабул қилиши; -мустақил фикрлаши ва мушоҳада юритишга ҳаракат қилиши;

55 -70	Қониқа рли	-фанннг моҳиятини аннқ тушуниш орқали унинг асосий қоидаларнни маълум даражада баён эта олиши; -ўтнлган мавзулар бўйича назарий ҳамда семинар билимларнн қисман ўзлаштириши; -муҳим топширнқ ва масалалар бўйича қабул қилинган хулоса ва қарорларнинг тўлик ва аниқ билмаслиги.
55 дан паст	Қони-қарсиз	-фаннинг моҳиятини тушуниш орқали унинг асосий қонунларини қисман баён этиши ва х.к. -ўтилган мавзулар бўйича назарий ҳамда семинар билимларни ўзлаштнришнинг паст даражаси; -муҳим топшириқ ва масалалар бўйича хулоса ва қарорларни қабул қила олмаслиги; -фаннинг моҳиятини тушунмаслиги ҳамда уннг қоидаларини баён эта олмаслиги ва х.к.

Ахборот ресурс базаси:

Асосий адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. -Т.: Ўзбекистон, 2011.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1.- Т.: Ўзбекистон, 1996.
3. Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т.2. -Т: Ўзбекистон,1996.
4. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т.3. -Т.: Ўзбекистон, 1996.
5. Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. Т.4. -Т.: Ўзбекистон, 1996.
6. Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби. Т.5. -Т.: Ўзбекистон, 1997.
7. Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т.6. -Т.: Ўзбекистон, 1998.
8. Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан курамиз. Т.7. –Т.: Ўзбекистон, 1999.
9. Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон турмуш-пировард мақсадимиз. Т.8.. -Т.: Ўзбекистон, 2000.
10. Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. Т.9. -Т.: Ўзбекистон, 2001.
11. Каримов И.А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Т.10. –Т.: Ўзбекистон. 2002.
12. Каримов И.А. Биз танлаган йўл-демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.11. -Т.: Ўзбекистон, 2003.
13. Каримов И.А. Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз куч-қудратимизга, ҳамжиҳатлигимиз ва қатъий иродамизга боғлиқ. Т.12. -Т.: Ўзбекистон, 2004.
14. Каримов И.А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари – олий қадрият. Том. 14. – Т.: Ўзбекистон, 2006.
15. Каримов И.А. Жамиятимизни эркинлаштириш ислоҳотларни чуқурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва халқимизнинг ҳаёт даражасини ошириш – барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир. Том. 15. – Т.: Ўзбекистон, 2007.
16. Каримов И.А. Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодий тимизни барқарор ривожлантириш йўлида. Том 16. – Т.: Ўзбекистон, 2009.

korxonalarda tayyor mahsulotlarga aylantirar edi Bu esa Ittifoq hukumati xazinasiga mo'may valyuta daromadlarining kelib tushishini taxmin etardi. Markaz amri bilan respublikaning xom ashyo, tabiiy resurslari ayovsiz ekspluatatsiya qilingani holda uning o'ziga xos iqtisodiv manfaatdorligi hech qanday nazarpisand qilinmasdi. Yana shunisi ajablanarliki, O’zbekistonda qurilgan sanoat korxonalarining asosiy qismi lining bevosita tasarrufida bo'lmay, ular to'lig'icha Ittifoq ixtiyoriga bo'ysunardi. Masalan, 1928yilda O’zbekistondagi mavjud korxonalaming 81,7%i Ittifoqqa tegishli, 14,5%i respublika va 3,8%i mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa, 30-yillarning o'rtalariga kelib

Ittifoq tasarrufida bo'lgan korxonalar 90%ni tashkil qilgan. Buning ustiga industrlashtirishning butun og'irligi mehnatkash xalq zimmasiga og'ir yuk bo'lib tushgan. Ular og'ir sharoitlarda mehnat qilishga, bu murakkab jarayonlarning barcha qiyinchiliklariga bardosh berishga majbur edilar.

Respublikada industrlashtirishning yana bir xarakterli tomoni shundaki, bu jarayon davomida malakali ishchi kuchi yetishmaganligidan RSFSR hududidan bu yerga juda ko'plab odamlar oqimi kirib keldi. Ular hisobiga respublikaning ishchilar sinfi saflari to'ldirilib borildi. Jumladan, 1926-yildan to 1940-yilga qadar O’zbekiston aholisi yangi kelganlar hisobiga 750 ming kishiga yoki 10% dan ortiqroqqa ko'paydi. SSSRning markaziy tumanlaridan aholining sun'iy tarzda ommaviy olib kelinishi ko'p jihatdan xalq xo'jalik mulohazalari bilan emas, balki ko'proq siyosiy mulohazalar taqozosi bilan amalga oshirilgan edi. Agar joylarda o'zining malakali ishchi kadrlarini keng miqyosda tayyorlash tashkil etilganda edi, bu hoi ancha oqilona va ijobiy bo'lishi va eng muhimi ko'plab mahalliy navqiron yoshlarni foydali ishga jalb etish hamda ularni yaxshi ishchi kadrlar qilib tarbiyalashga sezilarli ta'sir ko'rsatishi shubhasiz edi. Biroq sovet tuzumi davrida siyosat va mafkuraning iqtisodiyotdan ustun qo'yilib kelinishi bu masala bobida ham o'z salbiy ta'sirini ko'rsatmasdan qolmagandi. Negaki, totalitar tuzum sharoitida barcha aholi tabaqalarida bo'lgani singari respublikaning ishchi va xizmatchilariga nisbatan ham g'oyaviy va ma'muriy tazyiq ko'rsatib borishga alohida urg'u berilgan edi. Shuningdek, bu tuzum mutasaddilari aholining moddiy, ma'naviy manfaati, shaxsiy qiziqishi, tashabbuskorligi masalalariga mumkin qadar panja ortidan qarar, bularni ikkinchi darajali ish deb hisoblardi.

Shunday qilib, sanoatlashtirish yillarida partiya va sovet hukumatining so'zi bilan amaliy ishi o'rtasida yakdillik va uyg'unlik bo'lmadi. Sotsializmning kapitalizmdan afzalligi, ustuvorligi, mehnatkashlar turmush farovonligini tubdan yaxshilash, ularning hayoti mazmunmohiyatini chuqur o'zgartirish to'g'risidagi g'oyalar amaliyotda puch bo'lib chiqdi. Xalq ommasining o'n yillar davomida to'kkan peshona ten, amalga oshirgan tinimsiz mehnati, chekkan zahmati, fidokorligi unga yengillik, baxtu farovonlik keltirmadi. Buning aksicha xalqning mehnat jasorati va buniodkorlik faoliyati samarasi 30-yillarga kelib mamlakatda bo'y ko'rsatgan «kazarma sotsializmi» o'pqonini to'ldirishga, uning g'arazli manfaatlarini qondirishga xizmat qildi. Bu esa tariximizning fojeali sahifasi bo'lib totalitar tizimning SSSR midudida qaror topib, chuqur ildiz otib borishiga asosiy sabab bo'ldi.

1918 yil aprel oyida RSFSR tarkibida Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi tuzildi. Bolsheviklarning majburan yon berishi bilan hokimiyat organlarida mahalliy aholi vakillari ishtirok qila boshladilar. 1919 yil sentyabr oyida mahalliy aholining Sovetlarga jalb qilinishiga xalaqit beruvchi, sovet hokimiyatining o’lkadagi tayanchi faqat rus ishchilari deb

xo'jaligi tarmoqlarini qaytadan tiklashga arang muvaffaq bo'lib, o'z qaddibastini asta-sekinlik bilan rostlab borayotgan edi. Shuning uchun ham bu mintaqada sanoatlashttrish jarayonining tashabbuskori va tashkilotchisi bevosita hukmron Markaz va Kommunistik partiya bo'ldi. Chunk! ular O'zbekistonning xom ashyo resurslarini to'la ishga solish, bu hududda qizil sovet imperiyasining mavqeini mustahkamlash, uni yangi mustamlakachilik tizginiga yanada kiritib olishni o'z oldilariga bosh maqsad qilib qo'ygandilar. Bu o'rinda shuni aytish joiz3d, Ittifoq hukumatining sanoatlashtirish rejasida O'zbekistonda zamonaviy yirik industrial tarmoqlami emas. balki ko'proq xom ashyoni (ayniqsa paxta xom ashyosini) qayta ishlaydigan sanoat korxonalarini, tog'kon sanoatini rivojlantirishga asosiv urg'u berilgandi. Negaki, bu hudud Markaz uchun ko'proq xom ashyo mahsulotlari yetkazib berishga ixtisoslashtirilishi kerak edi. Shu bois ham muhim e'tibor paxtachilik va u bilan bevosita bog'liq tarmoqlarni rivojlantirishga qaratilgandi. O'zbekistonda 1925-yilda atigi 21 sanoat tarmog'iga taalluqli 149 ta korxona mavjud edi, xolos. Ular ham asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga moslashgan, uncha katta bo'lmagan korxonalar edi. Industrlashtirish -yillarida O'zbekiston energetik resurslarga nihoyatda boy bo'lishiga qaramay, kuchli gidroenergetik inshootlar qurilishi sust olib boiildi. Agar O'zbekistonda 20-yillar oxirida buniod etilgan to'ng'ich Bo'zsuv GESi bilan Ukrainada qurilgan DneproGES quvvatini birbiriga solishtiradigan bo'lsak bunda katta farqli manzara namoyon bo'ladi. Negaki, DneproGESning 50 ming kv/s quvvati bilan Bo'zsuv GESining esa 2 ming kv/s quvvatini birbiriga qiyoslab bo'lmasligi o'zo'zidan ravshandir. Bu ham O'zbekistonning Ittifoq davlati nazdida ko'proq iqtisodiy qoloq o'lka sifatida gavdalanishi kerakligiga yaqqol bir ishoradir. Sanoatlashtirish davrida respublikada 17 ta paxta tozalash zavodlari barpo etildi. Shuningdek, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Marg'ilon va Shahrisabzda pillakashlik fabrikalari, Farg'ona (1930) va Toshkent (1936—1939) to'qimachilik, Chirchiq elektrokimyo (1937) kombinatlari. Toshkent mashinasozlik zavodi, bir necha konserva, g'isht pishirish va urug' yetishtirish korxonalari qurildi. Umunian, statistik ma'lumotlarga qaraganda O'zbekistonda birinchi besh yillik (1928— 1932)da 289 ta va ikkinchi besh yillik (1933—1937) davrida 189 ta katta va kichik sanoat korxonalari quril-gan hamda ishga tushirilgan. Ularning mahsulot ishlab chiqarish hajmi va salmog'i ham yil sayin ortib bordi. Chirchiq, Yangiyo'l kabi sanoat shaharlari vujudga keldi. 1925—1940 -yillar davomida respublikada qurilgan GESlar soni 49 taga yetdi. Toshkent—Angren temir yo'li, Toshkent — Termiz katta o'zbek trakti avtomobil yo'li qurildi.

Ikkinchi jahon urushiga qadar bo'lgan davrda O'zbekistonning sanoat salohiyati 1445 ta yirik va o'rtacha sanoat korxonalarini va 19 mingga yaqin mayda korxonalarni o'z ichiga olardi. Garchand sanoat qurilishi urushgacha bo'lgan -yillarda ancha ko'zga ko'rinarli tarzda rivojlanib, muayyan yutuqlarga erishib borgan bo'lsada, biroq bu sohada ko'plab jiddiy muammolar va nuqsonlar ham mavjud edi. Avvalo, Ittifoq davlati bilan respublika o'rtasida imperiyachilik munosabatlari tizimi, yuqoridan tazyiq qilish amaliyoti, rahbarlikning ma'muriybuyruqbozlik usullari O'zbekiston sanoati tarmoqlarida chuqur salbiy asorat qoldirdi. Mustabid tuzum tomonidan O'zbekiston sanoatini rivojlantirish siyosatining amalga oshirilishi orqasida respublika metropoliyaning rangli va nodir metallar, oltingugurt, ozokrit, volfram, molibden, paxta tolasi, xom ipak bilan ta'minlovchi mintaqasiga aylantirildi.

O'zbekistonda buniod etilgan sanoat korxonalarining ko'pchiligi xom ashyo yoki yarim mahsulot turlarini tayyorlashga ixtisoslashtirilgan edi. Ularni boshqa hududlardagi

	17. Каримов И.А. Ватанимизнинг босқичма-босқич ва барқарор ривожланишини таъминлаш – бизнинг олий мақсадимиздир. Том 17.Т.: Ўзбекистон, 2009. 18. Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. -Т.: Маънавият, 2008. 19. Каримов И.А. Асосий вазифамиз – Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. Т.: Ўзбекистон, 2010. 20. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида.–Т.: Ўзбекистон, 2011.
Дарслик ва ўқув қўлланма–лар	1. Бобожонова Д. Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий муносабатлар. Ўқув қўлланма. -Т.: Шарқ, 1999 2. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. -Т.: Шарқ, 2000. 3. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. -Т.: Шарқ, 2000. 4. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи. -Т.: Шарқ, 2000. 5. Муртазаева Р.Х. ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи. Дарслик.-Т.: 2003. 6. Муртазаева Р.Х., Дорошенко Т.И и др. История Узбекистана. Электронный учебник для вузов. – Ташкент. 2010. 7. Муртазаева Р.Х. ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи. Ўқув қўлланма. –Т.: Академия, 2010. 8. Муртазаева Р.Х. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик. Ўқув қўлланма –Т., Университет, 2007. 9.Саъдуллаев А. Қадимги Ўрта Осиё тарихи. Ўқув қўлланма –Т.: Университет, 2004. 10. Саъдуллаев А. ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. Ўқув қўлланма –Т.: Академия, 2000. 11.Эшов Б.Ж. Ўрта Осиё қадимги шаҳарлари тарихи. Ўқув қўлланма.- Тошкент, 2006. 12.Эшов Б.Ж. Қадимги Ўрта Осиё шаҳарлари тарихи. Дарслик. –Т., Fan va texnologiya, 2008. 13.Эшов Б.Ж. Ўзбекистон давлатчилиги тарихи. Ўқув қўлланма.- Тошкент, Маърифат. 2009.
Қўшимча адабиётлар	1. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. -Т.: Фан, 1993. 2.Абу Райҳон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Танланган асарлар. 1 жилд. -Т.: Фан, 1968. 3. Алиев А. Маҳмудхўжа Беҳбудий. -Т.: Ёзувчи, 1994. 4. Амир Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. -Т.: Фан, 1991. 5. Асқаров А. Энг қадимий шаҳар. -Т.: Маънавият, 2001. 6. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи.-Т.: Шарқ, 2000. 7. Абулғозий. Шажарайи турк. -Т.: Чўлпон, 1992. 8. "Авесто". "Яшт" китоби. Ўзбек тилига М. Исҳоқов илмий-изоҳли таржималари. -Т.: Шарқ, 2001. 9. Алимова Д.А. История как история, история как наука. Том. 1, 2. – Т.: Узбекистан, 2008, 2009. 10. Ата-Мирзаев О.Б., Гентшке В.Л., Муртазаева Р.Х. Историко-демографические очерки урбанизации Узбекистана. –Т.: Университет, 2002.

11. Ата-Мирзаев О.Б., Гентшке В.Л., Муртазаева Р.Х. Межнациональная толерантность в Узбекистане: история и современность. 2004. 18,9 п.л. В соавторстве.
12.Ата-Мирзаев О.Б., Гентшке В.Л., Муртазаева Р.Х. Узбекистан многонациональный: историко-демографический аспект. –Т.:, Янги аср авлоди, 2011.
13.Аъзамхўжаев С. Туркистон мухторияти.-Т.: Маънавият, 2000.
14.Амир Темур Кўрагон. Зафар йўли. -Т.: Нур, 1992.
15.Аҳмедов Б. Соҳибқирон Темур (ҳаёти ва ижтимоий-сиёсий фаолияти). -Т.: Фан, 1996.
16. Аҳмедов Б. Ўзбек улуси. –Т.: Мерос, 1992.
17. Ахмедов Э. Ўзбекистон шаҳарлари. Т.: Ўзбекистон. 1998.
18. Буниётов З. Ануштегин Хоразмшоҳлар давлати (1097-1231). -Т.: Ғафур Ғулом, 1998.
19. Бобобеков Ҳ.Н. Қўқон тарихи. -Т.: Фан, 1996.
20. Бобур З.М. Бобурнома. -Т.: Фан, 1960.
21. Валихўжаев Б. Хўжа Аҳрор тарихи. -Т.: Ёзувчи, 1994.
22. Ватан туйғуси. -Т.: Ўзбекистон, 1996.
24. Ерметов А.А. Туркистон назорат органлари фаолияти. Abu matbuot Konsalt Т., 2007.
25. Жадидчилик: ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. –Т.: Университет, 1999.
26. Зиёев Ҳ. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. -Т.: Шарқ, 1998.
27. Зиёев Ҳ. Ўзбекистон мустақиллиги учун курашларнинг тарихи - Т., Шарқ, 2001.
28. Иброҳимов А. Биз ким ўзбеклар -Т.: Шарқ, 2000.
29. Левитин Л. Ўзбекистон тарихий бурилиш палласида. -Т.: Ўзбекистон, 2001.
30. Маънавият юлдузлари. –Т.: Мерос, 2001.
31. Махкамова Н.Социальная структура общества на территории Узбекистана: традиции и трансформации (конец XIX в. – 30-е годы XXв.). –Т.: Aloqachi, 2009. –С 236.
32. Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи. -Т.: Чўлпон, 1994.
33. Мустақиллик изоҳли илмий-оммабоп луғати. -Т.: Шарқ, 2009.
34. Муҳаммаджонов А. Темур ва темурийлар даври. –Т.: Фан, 1996.
35. Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. Т.: Фан, 1993.
36. Муртазаева Р.Х. Толерантность как интегрирующий фактор в многонациональном Узбекистане. Т.: Узбекистан, 2010.
37. Насимхон Р. Турк хоқонлиги. –Т.: Мерос, 1993.
38. Низомул мулк. Сиёсатнома. –Т.: Адолат,1997.
39. Огахий Мухаммадризо. Шохид ул-иқбол. –Т., 2009.
40. Полвонов Н., Қўшжонов О. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар. –Т., Abu matbuot consalt, 2007. 24 б.т.
41. Полвонов Н.Т. Ўзбекистонда ижтимоий ҳаракатлар ва сиёсий партия тарихи (Хоразм мисолида). –Т., Университет, 2007, 5,75 б.т.

Yangi iqtisodiy siyosat asosida sanoatni xo'jalik hisobiga o'tkazish jarayoni amalga oshirib borildi. Bu esa sanoat korxonalari ishlab chiqarishining biroz bo'lsada jonlanishiga olib keldi. Mayda va o'rta sanoat korxonalari, yirik kooperativ tasnkilotlar va ularning birlashmalari tadbirkorlarga ijaraga berildi, o'lkada yangi sanoat korxonalari, temir yo'llar qurildi. Xilkovo sement zavodi, Farg'ona pillakashlik fabrikasi, Qizilqiya, Xilkovo temir yo'l shoxobchalari shular jumlasidandir.

O'lkada ayniqsa paxtachilik va u bilan bevosita bog'liq bo'lgan paxta tozalash korxonalari tez suratda o'sdi. Bu Markaz to'qimachilik sanoatining o'zbek paxtasiga talabehtiyoji ortib borayotganiga ko'p jihatdan bog'liq edi. Natijada paxta ekiladigan maydonlar 1924-yilda 1921-yilga nisbatan 3 barobar ko'paydi. Ishlab turgan sanoat korxonalari soni 144 taga yetdi. Birgina paxta tozalash sanoatida yalpi mahsulot ishlab chiqarish 1923-yildagi 23,9 mln. so'mlikdan 1924-yilda 57,8 mln. so'mga yetdi. Bundan ko'rinadiki, yangi iqtisodiy siyosat asosida Turkiston sanoati tiklanib sezilarli darajada rivojlana boshladi.

Bu hoi asta-sekinlik bilan o'lkada yangi iqtisodiy siyosat yo'lidan chekinishga olib keldi. Dehqonga berilgan imtiyozlar qaytarib olindi. Ular qishloq xo'jalik artellariga birlashtirila boshlandi. Sanoatni milliylashtirish jarayoni avj oldirildi. Ayniqsa, 20-yillarning oxirlariga kelib Ittifoqning, shu jumladan, O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-madaniy hayotida ma'muriybuyruqbozlik boshqaruvi tizimining kuchayishi natijasida yangi iqtisodiy siyosat o'z mazmuni va mohiyatini tobora yo'qota bordi.

O'zbekistonda sanoatlashtirish va uning oqibatlari.

XX asr 20-yillari o'rtalaridan e'tiboran hukmron kommunistik partiya va sovet davlatining butun diqqat-e'tibori sovetlar mamlakatini industrlashtirishga qaratildi. Buning asosiy sababi shundaki, industrlashtirish SSSRda sotsializm qurish dasturiy rejasining eng asosiy vazifalaridan bin hisoblanardi. Shu sababdan VKP(b) XIV s'ezdida (1925-yil dekabr) mamlakatni industrlashtirish partiyaning sotsializmni barpo etishga qaratilgan bosh strategik vazifasi, deb belgilanishi bejiz emas edi. Hukmron Markaz bu asosiy vazifani bajarishga xalqni safarbar etar ekan, bu ishni mamlakatning barcha mintaqalarida, jumladan, O'zbekistonda ham tezkor suratlarda amalga oshirishga qarata qat'iyan yo'l tutdi. Bunda o'sha hudud va o'lkalarda zarur yetarli shartsharoitlar, moddiy yoki moliyaviy imkoniyatlar, resurslar boy-yo'qligi hech bir inobatga olinmadi.

O'zbekistonda sanoatlashtirish ishini amalga oshirish orqali sovetlar ko'p narsaga umid bog'lagandilar. Eng asosiysi, ular bu o'lkada ko'plab sanoat korxonalari va tarmoqlarini yaratish yo'li bilan uning bitmastuganmas boy tabiiy va mineral resurslarini ishga solish, arzon mahaliiy ishchi kuchidan foydalanish va oxir oqibatda Markaz uchun ko'proq foyda undirib olishni ko'zlaganlar.

Ularning nazarida bu narsa O'zbekistonda sotsializm qurish yo'lida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilishi kerak edi. So'ngra sanoatlashtirish jarayoni O'zbekistonning Markaz ta'sirida batamom qolib ketishi uchun qulay imkoniyatlar yaratardi. Gap shundaki, zamonaviy sanoat tarmoqlarini vujudga keltirish va ishga tushirish respublikaning iqtisodiy taraqqiyoti uchun g'oyatda katta ahamiyat kasb etardi. Biroq bu jarayon juda ko'p miqdordagi moliyaviy resurslar, pul mablag'lari, xilmaxil texnika jihozlari, ilmiytexnika salohiyati, ko'p sonli yuqori ma'lumoth muhandistexnik xodimlar, malakali ishchi kadrlar va hokazo omillar bilan bog'liq edi. Bunday salohiyatga O'zbekiston mutlaqo ega emas edi. Negaki, respublika bu davrga kelib, xalq

pallasiga kirgan ekan, bunda iqtisodiy siyosatning davr talabiga javob beradigan yangi yo'nalishlarini ishlab chiqishi hayotiy zaruriyat boMib qolgandi. Bu vazifalar 1921-yil -mart oyida bo'lib o'tgan RKP(b) X s'ezdi belgilab bergan yangi iqtisodiy siyosat (YalS) da o'z ifodasmi topdi. Bu siyosatning muhim bo'g'inlari oziqovqat razvyorstkasini oziqovqat solig'i bilan almashtirisru savdosotiqni erkinlashtirish, sanoatda, xizmat ko'rsatish va mayda hunarmandchilik sohalarida xususiy tadbirkorlikka ruxsat etish, bozorni tartibga solish mexanizmlaridan foydalanish, ijaraga olish va yollanma mehnatning cheklanishini bekor qilishdan iborat bo'ldi.

Eng muhimi, bu siyosat shahar bilan qishloq o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni izga solishga, yangi hokimiyatning tayanch negizi hisobJangan ishchilar bilan dehqonJar sinii o'rtasidagi ittifoqni, iqtisodiy aJoqalarni mustahkamlashga xizmat qilardi. Yangi iqtisodiy siyosatning bosh maqsadlaridan bin — bu dehqon xo'jaligini oyoqqa turg'izish, uni rivojlantirish edi. Negaki, busiz sanoami ham, xalq xo'jaligining boshqa sohalarini ham hech bir yuksaltirib, yetarli xoni ashyo bazasini yaratib bo'lmasdi. Oziqovqat solig'i talabiga ko'ra ekish mavsumi oldidan yakka dehqon xo'jaligi bilan davlat o'rtasida mahsulot yetkazib berish majburiyati to'g'risida alohidaalohida shartnoma tuziladigan bo'ldi. Bu shartnoma yil oxirigacha, ya'ni hosil olingunga qadar o'zgarmas edi. Bu esa dehqonlarni yerdan ko'proq hosil olish uchun astoydU mehnat qilishga undardi. Xullas, yangi iqtisodiy siyosat dehqonning o'z mehnatidan manfaatdor bo'lishini tayin qildi. Endilikda dehqonning ortiqcha g'allasi tortib olinmaydigan, bugina emas, dehqonga o'zi yetishtirgan oshiqcha mahsulotni bozorda erkin sotish huquqi berildi. Oshiqcha mahsulot deganda dehqonning davlat buyuitma topshiriqrejasida belgilangan hajmdagi mahsulotni topshirgandan keyin ortib qolgan qismi tushuniladi. Shuningdek, narxnavo tartibga solindi.

Yangi iqtisodiy siyosat Turkiston uchun bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega edi. Birinchidan, Turkiston chekka, asosan qishloq xo'jaligi o'lkasi edi. Demak, bu yerda zamonaviy qishloq xo'jaligi va sanoatni yangidan barpo etish kerak edi. Ikkinchidan, o'lkada miliiy ishchilar sinfini shakllantirish zarur edi. Uchinchidan, Turkiston ko'p millatli o'lka bo'lib, yangi iqtisodiy siyosatga o'tishda yerli xalqlarning qadriyatlari, an'analari, urf-odatlari xususiyatlarini hisobga olish kerak bo'lardi. Ammo RKP(b) va sovet hukumati Turkistonda yangi iqtisodiy siyosatni joriy etishda o'z manfaatlaridan kelib chiqib ish yuritdilar.

1921-yil 20-aprelda Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi oziqovqat, yemxashak va xom ashyo razvyorstkasini mahsulot solig'i bilan almashtirish to'g'risida qaror qabul qildi. Unda 1921—1922-yillar uchun soliq miqdori belgilandi. Achinarlisi shundaki, Turkiston mehnatkashlaridan olinadigan soliq markaziy rayonlardan farqli o'laroq yil oxirida yig'ib olingan hosil miqdoriga qarab emas, balki ekilgan yerning har desyatinasi, shuningdek, qoramol va mayda mollar hisobidan olinadigan bo'ldi. Bu esa, Turkiston dehqonining kamsitilishini bildirardi.

Bundan tashqari, sovet hukumati o'lkada birinchi navbatda o'zi uchun zarur bo'lgan tarmoqlarni, chunonchi, paxta, qand Javlagi, tamaki va boshqa texnik ekinlarni rivojlantirishga alohida e'tiborni qaratdi. Yordam ko'rsatish bahonasida 300.000 dan ortiq ishchi va dehqon oilalari Rossiya markaziy rayordaridan Turkistonga keltirilib joylashtirildi. Buning ustiga o'lkada ahvol og'ir bo'lishiga qaramasdan 1921-yil kuzida bu yerdan Moskva va boshqa shaharlarga 300 ming puddan ko'proq g'alla mahsulotlari olib ketildi. Shunga qaramay, o'lka mehnatkashlari fidokorona mehnat qildilar. Ularning, biroz bo'lsada, hayotga ishonchi uyg'ona boshladi. Chunki, sovet hokimiyati cheklangan holda bo'lsada, o'lkada xususiy mulkchilik va xususiy tadbirkorlikka erkinlik bergan edi.

42. Полвонов Н.Т. Хоразмдаги ижтимоий ҳаракатлар ва сиёсий партиялар тарихи (1900-1924). –Т.: Akademnashr, 2011. –Б.108.
43. Полвонов Н.Т. История социальных движений и политических партии Хорезма (1900-1924). –Т.: Akademnashr, 2011. –С.105.
44. Расулов А. Туркистон ва Волгабўйи, Уралолди халқлари ўртасидаги муносабатлар (1917-1924 йй.). – Тошкент. Университет, 2005. – Б. 199.
45. Собиров Қ. Хоразм қишлоқ ва шаҳарлари мудофаа иншоотлари (мил.авв. VI асрдан милоддий IX асргача). –Т., Фан, 2009.
46. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. -Т.: Ўзбекистон, 1997.
47. Темур тузуклари. -Т.: Ғафур Ғулом, 1991.
48. Темур ва Улуғбек даври тарихи. –Т.: Қомуслар бош тахririяти, 1996.
49. Усмонов Қ. Ўзбекистоннинг жаҳон ҳамжамиятига интеграциялашуви. – Т.: Молия, 2003.
50. Шарафиддинов О. Истиқлол фидоийлари. –Т.: Чўлпон, 1993.
51. Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. -Т., Фан, 2001.
52. Шарифхўжаев М., Раҳимов Ф. Даврни белгилар берган инсон. –Т.: Шарқ, 2004.
53. Шиҳобиддин Муҳаммад ан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти тафсилотлари. –Т.: Ёзувчи, 1999.
54. Эшов Б.Ж. Цивилизация тизимида илк шаҳарлар. Тошкент, Zar qalam, 2004.
55. Эшов Б. Қадимги давлатчилик ва урбанизация (тарихий лавҳалар). –Т.: Mumtoz so’z, 2010. –Б.108.
56. Шомий Низомиддин. Зафарнома. -Т.: Ўзбекистон, 1996.
57. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. -Т.: Юлдузча, 1990.
58. Юнусова Х.Э. Ўзбекистонда совет давлатининг миллий сиёсати ва унинг оқибатлари (XX аср 80-йиллари мисолида). –Т., Zar qalam, 2005. 7, 75.
59.Юнусова Х.Э. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва маънавий жараёнлар (XX аср 80-йиллари мисолида). –Т., Abu matbuot-konsalt, 2009. 10,23 б.т.
60. Яздий Ш. Зафарнома. –Т.: Шарқ, 1997.
61. Ўзбекистон давлатчилиги тарихи очерклари -Т.: Шарқ, 2001.
62. Ўзбекистон Республикаси: Мустақил давлатнинг бунёд бўлиши. -Т.: Ўзбекистон, 1992.
63. Қорақалпоғистон тарихи (1917-1994 йй.). Нукус, 1995.
64. Қурбонов И. Қатағон қурбонлари. –Т.: Ўзбекистон, 1992.
65. Ҳасаний М. Туркистон босқини. –Т.: Нур, 1992.
66. Ҳайдаров М., Ражабов Қ. Туркистон тарихи. –Т., Университет, 2002.
67. Ҳайитов Ш. Ўзбек муҳожирлиги тарихи (1917-1991 йй.). –Т.: Abu-MATBUOT KONSALT. 2008. –Б. 208.
68. Хожаниёзов Ғ. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари (мил.авв. VI асрдан IV асргача). –Т., 2007.
69. Худойберганов Қ. Хива хонлари тарихидан. –Т., 2007.
70. Холиқова Р. Россия-Бухоро: тарих чорраҳасида (XIX асрнинг иккинчи ярми - XX аср бошлари). – Тошкент. 2005. – Б. 240.
71. Абулқосим Фирдавсий. Шоҳнома. Уч жилдлик. -Т.: Ғафур Ғулом, 1984.
72. Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. Икки жилдлик. -Т.: Меҳнат, 1992.
73. Ипак йўли афсоналари. -Т.: Фан, 1993.
74. Йўлдошев Н. Баҳовуддин Нақшбанд. Бухоро, 1993.

	75. Муҳаммаджонов А. Қадимги Тошкент. -Т.: Фан, 1988. 76. Муҳаммаджонов А. Қадимги Бухоро. -Т.: Фан, 1991. 77. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т.1-12. –Т.: ЎзМЭ давлат илмий нашриёти, 2000-2006. 78. Ҳасан Ато Абуший. Туркий қавмлар тарихи. -Т.: Чўлпон, 1993.
Электрон таълим ресурслари :	1. “Халқ сўзи” газетаси –www info XS. Uz. 2. “Туркистон” газетаси - www turkiston sarkor. uz. 3. “Маърифат” журнали - www ma’rifat – inform. 4. “Жамият ва бошқарув” журнали - www rzult academy freenet uz. 5. “Мозийдан садо” журнали - www moziy dostlink. Net 6. www. Ziyo net.uz.

ligi uchun mas'uliyatni jamoa a'zolari ham, MTS xodimlari ham olz zimmalariga olmadilar. Bu esa katta va keraksiz xarajatlarga sabab bo'ldi.

O’zbekiston qishloq xo'jaligi azalazaldan sun'iy sug'orish tizimiga asoslanib kelganligidan bu sohani rivojlantirib borish asosiy vazifalar sirasiga kiradi. Respublikaning asosiy ekin turi hisoblangan paxtachilikni o'stmsh ham ko'p jihatdan shunga bog'liq edi. Bu esa o'lka hududlarida sug'orish inshootiari, chunonchi, kanallar, kollektorlar, suv havzalari, suv omborlarini ko'plab barpo etishni taqozo etardi.

O’zbekiston qishloq xo'jaligi va ayniqsa uning yetakchi tarmog'i — paxtachilik sohasining tezkor rivojlanishidan manfaatdor bo'lgan sovet hukumati ham boshdan boshlab respubhkada irrigatsiya va melioratsiya tizimini yaxshilash va takomillashtirishga jiddiy e'tibor berib bordi.

Shu maqsadda 1922-yildayoq respubhkada irrigatsiya tizimini qayta tiklash va yanada rivojlantirishning asosiy vazifalari belgilab berildi. Xususan, O’zbekiston hukumati tarkibida suv va qishloq xo'jaligi xalq komissarligi, uning huzurida esa suv xo'jaligi bosh boshqarmasi, joylarda viloyat, tuman, uchastka suv xujaligi bo'limlari tashkil etildi. Ularga davlat yordami ko'rsatib borildi. Jumladan, 1922-yilda irrigatsiya ishlariga 6 mln. oltin rubl hisobida mablag' ajratildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad sug'oriladigan yerlarni 2 yil ichida 2 mln. desyatinaga yetkazish edi. Joylarda suv inshootiari qurilishi avj oldirib yuborildi. Yangi kanallar, ariqlar qurildi. Ko'plab yangi yerlar o'zlashtirildi. Natijada 1924-yilga kelib sug'oriladigan yerlar miqdori 2,4 mln. desyatinaga, shu Jumladan, paxta ekiladigan maydon esa 500 ming desyatinaga yetkazlidi.

Bu ishlar O’zbekiston SSR tuzilgach, yanada avj oldirib yuborildi. Urushgacha bo'lgan davrda respublikada Darg'om, Na^ay, Savay, Dalvarzin, Log'on, Katta Farg'ona kanallari, Kattaqo'rg'on suv onibori kabi ko'plab suv inshootlari qurildi. ChirchiqOhangaron vodiylarida, Zarafshon daryosi havzasida, shuningdek, Qashqadaryo va Surxondaryoda irrigatsiya tarmoqlari ancha yaxshilandi. 1929—1933-yillarda bu sohaga 234,9 mln. rubl sarflandi.

1939-yilda O’zbekiston KP(b) Markaziy Qo'mitasi va respublika hukumati hashar yo'li bilan Katta Farg'ona kanalini qurish to'g'risida qaror qabul qildi. O'sha yilning 1 avgustidan 160 ming kolxozchi kanal qurilishini boshlab yubordi. Ulaming 70 mingdan ziyodrog'ini yoshlar tashkil etardi. Uzunligi 270 kilometr bo'lgan bu kanal asosan qo'l mehnati bilan 45 kun ichida qurildi. Unda 46 ta yirik, 274 ta kichik gidrotexnik inshootlar, 5 ta temir yo'l va 40 ta avtomobil ko'priklari barpo etildi. Holbuki, bunday kanalni barpo etish uchun chorizm davrida 6—8 yil, sovet davrida esa 6—8 oy kerak bo'ladi, deyilgan edi. Amalda esa u xalq qudrati, azmu qarori bilan atigi 1,5 oyda buniod etildi. Bu o'zbek xalqiga xos bo'lgan hashar usulidagi shonli, fidokor mehnatning samaralari edi.

XX asrning 20-yillari bosh lariga kelganda o'lka hayoti, yerli aholining maishiy turmush tarzi nochor ahvolda edi. Birinchi jahon urushining og'ir soratlari, yangi sovet tuzumini o'rnatishda bolshevik huknidorlarning mahalliy aholiga nisbatan qo'llagan zo'rlik, bedodlik siyosati har qadamda ko'zga tashlanib turardi. Sanoat izdan chiqqan, transport va aloqa vositalari ishlamayotgan, sonsanoqsiz ekin maydonlari payhon bo'lib ketgandi. Eng yomoni, o'lkada ochlik, qashshoqlik, ommaviy ishsizUk hukm surardi.

Vaziyat sovet hokimiyati yo'lboshchilari oldiga ahvolni o'nglash, tang vaziyatdan chiqish va xo'jalik siyosatining yangi vazifalarini belgilashni ko'ndalang qilib qo'ydi. Modomiki, sovet hokimiyati butun mamlakatdagi vaziyatni o'z tasarrufiga olib, nisbatan tinch xo'jalik yuritish

bir va Shimoliy Kavkazga surgun qilindi.

Ma'muriy tazyiq, oshkora zo'ravonlik, iqtisodiy terror usullari va shu kabi ta'sir choralarining uzluksiz qo'llanilishi orqasida kolxoz qurilishi sezilarli sur'atlarda rivojlantirib borildi. 1932-yil oxiriga kelib umuman O'zbekistonda jamoalashtirilgan xo'jaliklar barcha dehqon xo'jaliklarining 81,7 foizini birlashtirgan edi. 800 ming dehqon xo'jaliklari negizida 9734 ta kolxoz va 94 ta sovxoz tashkil etilgandi.

Bu davrga kelib paxtachilik tumanlarida jamoalashtirish asosan tugaUangan, ularning ekin maydonlari 1929-yildagi 530 ming gektardan 1932-yilga kelib 928 ming gektarga ko'paygan edi. Shu tariqa, «SSSRning paxta mustaqilligini ta'minlash»da O'zbekiston o'z salmoqli ulushini qo'shib bormoqda edi. Masalan, 1935-yilda O'zbekistonda 1 mln. tonna paxta tayyorlangan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1939-yilda 1,5 mln. tonnani, 1941-yilga kelib esa 165620 tonnani tashkil etdi. Bu SSSR bo'yicha tayyorlangan paxtaning 60 foizidan ziyodrog'ini tashkil qilardi. 30-yillar davomida respublika qishloq xo'jaligi tizimida paxta yakkahokimligi mustahkam o'rin egallab bordi. Jumladan, agar 1933-yilda paxta mahsuloti respublika yetishtirib tayyorlab beradigan qishloq xo'jalik niahsulotlari umumiy hajmining 81,5 foizini tashkil etgan bo'lsa, 1937-yilga kelib bu raqam ko'rsatkichi 93,4 foizga yetdi. Qishloqni jamoalashtirish jarayoni ham o'zining yakunlovchi pallasiga kirib bordi. Chunonchi, 1937-yilda dehqon xo'jaliklarining jamoalashtirish darajasi 95 foizga yetgan bo'lsa, 1939-yilda u 99,2 foizni tashkil etdi. Ommaviy jamoalashtirish jarayonida O'zbekiston bo'yicha 60 mingdan ortiqroq kishi quloqlarga mansublikda ayblanib qatag'on qilindi. Shunday qtfib, «quloqlarni sinf sifatida tugatish» masalasi uzil-kesil hal qilindi.

O'zbekistonda dehqon xo'jaliklarini ommaviy tarzda jamoalashtinsh ishlari ayni chog da yangi xo jahklarga moddiy-texnik baza bo'lib xizmat qiladigan mashinatraktor stansiyalari (MTS)ni tashkil etish bilan uzviy bog'liq holda olib borildi. O'zbekistonda dastlabki mashinatraktor stansiyasi 1929-yilda Andijon okrugining Asaka tumanida tuzilgan, u yangidan tashkil etilgan jamoa xo'jaliklariga texnik yordam ko'rsatgan edi. Asta-sekin ularning soni ortib bordi. 1931-yilga kelib MTSlar 48 ta qishloq tumanlarida tashkil etilib qishloq ahlining dala yumushlariga xizmat ko'rsatdi.

MTSlarning yirik dehqon xo'jaliklariga nafi katta bo'lganligidan ularning safi respublikada to'xtovsiz ortib bordi. Jumladan, 1937-yilda ularning soni 163 taga, 1941-yilga kelganda esa 189 taga yetdi. Garchand yirik jamoa yerlarini ishlab berish, qo'l mehnatini yengillashtirish, qishloqqa texnika olib kirish, texnika ilmidan qishloq mehnatkashlarini xabardor qilish, ma'lumotini oshirishda MTSlar muhim rol o'ynagan bo'lsada, biroq bu narsa jamoa xo'jaliklarining davlatga tobeligini yanada kuchaytirdi. Buning asosiy sabablaridan biri shundaki, yirik ishlab chiqarish vositalari MTSlar orqali tobora davlat qo'lida to'plana bordi. MTSlar jamoa yerlarini natural haq evaziga ishlab berar, bu haqning miqdori esa yuqoridan, davlat organlari tomonidan belgilanardi.

MTSlarning vujudga kelishi va xizmat ko'rsata boshlashi bilan qishloqda shartli ravishda bo'lsada, «ikkita xo'jayin» — kolxozlar va MTSlar qaror topdi. Garchand har ikkalasining asosiy jilovi davlat qo'lida bo'lsada, biroq ularning biri texnika uchun va ikkinchisi qishloq xo'jaligi sohasining qolgan boshqa ishlari uchun mas'ul hisoblanardi. Shunday bo'lsada, bunday «ikki hokimiyatchilik»ning yuzaga kelishi orqasida ishlab chiqarishni tashkil etish va texnika xizmatidan foydalanishda xo'jasizlik kelib chiqdi, ekinlar hosildorligi, chorvachilik mahsuldor-

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
”IJTIMOIIY FANLAR”
KAFEDRASI

“O’ZBEKISTON TARIXI”

fanidan I-kurs talabalari uchun

TA'LIM TEXNOLOGIYASI

“O’zbekiston tarixi” fanidan ushbu ta’lim texnologiyasi Samarqand davlat chet tillar instituti ijtimoiiy fanlar kafedrasining **2015** yil **26** avgustdagi **1**-sonli yig`ilishi bayonnomasi bilan ma’qullangan.

Taqrizchilar:
Dots. Doliyev

Tuzuvchilar:
T.f.n: Handamova M. A
O’qituvchi: Indiaminova Sh. A
O’QITUVCHI: SUYUNOV SH. B O’zbekiston tarixi” fanidan ta’lim texnologiyasi.- Samarqand davlat chet tillar instituti, **2016**.

okrugidan 14 ming nafar kishi qatnashgan. Ma'lumotlarda qayd etilishicha, bunday ommaviy norozilik harakatlari shu davrda respublika bo'yicha 240 marta sodir bo'lgan. Eng achinarlisi shuki, ko'plab oddiy dehqon xo'jaliklari arzimagan sabablar bilan yoxud birgina jamoa xo'jaligiga kirishga rag'bat bildirmaganligi vajidan borbudidan mahrum etilib, uyjoyi, mol-mulki tortib olinib quloq qilinuvchilar ro'yxatiga tirkab yuborilavergan.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda jamoalashtirish boshlarida O’zbekistonda shartli ravishda quloq xo'jaligiga kiritish mumkin bo'lgan xo'jaliklarning salmog'i aslini olganda umumiy dehqon xo'jaliklarining 5 foizidan kamrog'ini tashkil etardi, xolos. Biroq ommaviy jamoalashtirish boshlanishi bilan 15 foizdan ortiq xo'jaliklar quloqlashtirishga duchor bo'ldi, faqat 1930 - yilning o'zida respublikada boy va quloq xo'jaliklar toifasiga kiritilgan 2648 ta o'rtahol dehqon xo'jaliklari tugatilgan edi.

Respublikaning o'ziga to'q, bozorga tovar g'alla yetishtirib berishga qodir bo'lgan sonsanoqsiz dehqon xo'jaliklari bor narsasidan mahrum bo'lib. haqsizhuquqsiz holda o'z oila a'zolari, qarindoshurug'lari bilan uzoq hududlarga (Sibir, Ukraina, Qozog'iston) yoki yangi o'zlashtirilayotgan cho'lli. to'qayzor, qamishzor yerlarga badarg'a qilindilar. Ularning ko'plari bu kimsasiz, huvullagan joy laming og'ir shartsharoitlariga dosh berolmay, turli kasalliklarga chalinib, ochlik, muhtojlik azobidan bevaqt ko'z yumib ketdilar.

Endi quloq qilingan va o'z joylaridan ko'chirilgan xo'jaliklarning tortgan azobuqubatlari haqida bir kichik lavha: Samarqand viloyatining Miyonkol oroliga bir necha ming quloq xo'jaliklari olib kelinib joylashtirilgandi. Botqoqli va ko'llardan iborat to'qayzor, qamishzor yerlar ularning kuchi bilan quritilib, o'zlashtirilgach, paxta, sholi ekiladi. Qamishdan to'qilgan lagerlarda yashovchi "quloq" oilalari hayvonchalik qadr etilmasdi. Ichki ishlar xodimlari ularni xo'rlar, ovoz chiqarsa otib tashlar. beayov ishlatardi. Miyonkollik keksalarning eslashicha, ularning ko'plari mashaqqatli mehnat, ochlik, kasallik azobidan, soqchilar zulmidan o'lib ketdilar. Bu yerda yuzlab, minglab o'lim topgan kishjlar bir joyga kafansiz, diniy rasmrusumlarsiz ko'mib yuborilgan.

Ming-minglab qishloq oilalari bunday xavfxatarning bo'lishinj oldindan his qilib, o'z kindik qonlari to'kilgan muqaddas zaminni tark etib, uzoq begona yurtlarga bosh olib ketishga majbur bo'ldilar, Ularning ko'plari uzoq -yillar xorijiy ellarda umrguzaronlik qilib, ona yurt sog'inchi bHan, unga talpinib yashab o'tdilar. Faqat O’zbekiston miiliy mustaqillikka erishgandan so'nggina orzuarmonlari ushalib, yangidan Vatanning mo"tabar tuprog'ini tavof qilish baxtiga musharraf bo'ldilar.

Sovet hokimiyati, uning tegishli mas'ul organlari, mahalliy partiya, sovet va xo'jalik tashkilotlari butun choralar bilan qishloqda jamoalashtirish siyosatini qat'iyat bilan o'tkazishda davorn etdi. Garchi partiya Markazqo'mining 1930-yil 5-yanvardagi qaroriga binoan O’zbekistonda dehqon xo'jaliklarini yoppasiga jamoalashtirish ishlarini 1933-yil boshlariga qadar tugallash muddati belgilangan bo'lsada, mahalliy rahbarlar uni muddatidan avval bajarish uchun shiddat ko'rsatdilar. Buni quyidagi raqamlar ko'rsatkichida ham yaqqol ko'rish mumkin. Agar 1930-yil iyunida respublikada 6124 ta kolxoz tuzilgan, ularga jalb qilinganlar dehqon xo'jaliklarining 27,1 foizini tashkil etgan bo'lsa, shu yilning oxiriga borib 37 foizga, 1931-yil - dekabrida esa 68,2 foizga yetdi.

Ayni paytda dehqon xo'jaliklarini majburiy quloq qilish, boshqa joylarga surgun qilish ishlari avj oldirildi. QuroUashtirish oqibatida 60 mingdan ortiq kishi O’zbekistondan Ukraina, Si-

Mahalliy hududlaming o'ziga xos xususiyatlari, milliy jihatlari, turmush tarzi ko'rinishlari ham inobatga olinmadi. Xo'sh, O'zbekiston qishloq xo'jaligining 20-yillar manzarasi qanday edi? Uning qishloq aholisining sinfiy, tabaqaviy tarkibidagi o'zgarishlar nimadan dalolat berardi?

20-yillarda o'tkazilgan yer-suv islohoti davrida badavlat dehqonlaming yerlari, vaqf yerlari, ruhoniylarga tegishli yerlar davlat tomonidan tortib olingan edi. Yer bilan birga hamma otulov va asbobuskunalar ham musodara qilindi. Umuman, 1925—1929-yillar ichida boylar, yirik savdogarlar va ruhoniylarning 45 mingga yaqin individual xo'jaliklari batamom. tugatildi. Ko'pgina xo'jaliklar tasarrufldagi ortiqcha yerlar ham tortib olingan edi. Bu yerlar qayta taqsimlanib, ularning bir qismi yersiz yoki kam yerli dehqon xo'jaliklariga mulk qiUb berildi. Buning natijasida batrakkambag'allar toifasi islohotdan oldin barcha dehqonlaming 76 foizini tashkil etgan bo'lsa, islohotdan so'ng ularning soni 39 foizgacha qisqardi. Ulaming xo'jalik turmushi yaxshilanib, o'sib borganligi bois o'rta hoi dehqonlar salmog'i 17 foizdan siyosati va uning oqibatlari 52 foizga ko'tarildi. Shu tariqa, qishloqda tovarg'alla yetishtiruvchi mayda ishlab chiqaruvchilarning salmog'i ko'payib bordi. Bu islohot jarayoni davomida respublikada jamoa xo'jaliklari, ya'ni kolxozlar tashkil etildi. Biroq ulaming hali xo'jalik va moliyaviy zaiftigi, ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining pastligi ko'zga tashlanib turardi.

Sovet hokimiyatining 20-yillarda qishloqda yuritgan bir qadar mo"tadil siyosatidan bahra olib, Yer-suv islohotidan naf topib, o'z xo'jaliklarini anchayin oyoqqa turgizib, o'rtahollar darajasiga ko'tarilib olgan o'zbek dehqonlari hayoti va qismati, ta'ssufki, tez orada hukmron partiya boshlab yuborgan ommaviy Jamoalashtirish jarayoni girdobiga g'arq bo'ldi.

Qishloqda yalpisiga Jamoalashtirish siyosatini izchil amalga oshirish uchun O'zbekistondagi partiya, sovet, xo'jalik, yoshlar, xotin-qizlar va boshqa jamoat tashkilotlari to'la safarbar qilindi. Markaz buyrug'i va dasturulamal ko'rsatmasini quloq qoqmay bajarishni o'zlari uchun katta ishonch yorlig'i deb bilgan, unga ko;rko'rona asoslangan mahalliy rahbarlar dehqonlami zudlik bilan kolxozlarga majburan kiritishni 1929-yilning ikkinchi yarmi va 1930-yil boshlarida avj oldirib yubordilar. Masalan, O'zbekiston partiya va hukumatining 1930-yil 17-fevraldagi «Jamoalashtirish va quloq xo'jaliklarini tugatish to'g!risida»gi qarorida respublikaning 17 ta tumanida yoppasiga jamoalashtirishni amalga oshirish vazifasi belgilangan edi. Ko'p joylarda quloqlami tugatish shiori ostida o'rta hoi, hattoki kambag'al dehqon xo'jaliklariga nisbatan ham zulm o'tkazildi. 1929-yil oktabriga qadar respublikadagi dehqon xo'jaliklarining 3,4 foizi kolxozlarga kirgani holda, 1930-yil martiga kelganda dehqon xo'jaliklari ning 47 foizi kolxozlashtirilgan edi.

Ko'pgina joylarda aholi Jamoalashtirish xavfidan qo'rqib o'z chorva mollarini keragidan ziyod so'yib yubordi. Bu esa chorvachilik uchun koni zarar bo'ldi. Masalan, birgina qoramollar tuyog'ining soni 1930-yilda respublika bo'yicha 60 mingdan ziyodroqqa kamayib ketdi. Jamoalashtirish ishidagi shoshmashosharlik, joylardagi real shartsharoitlar bilan hisoblashmasiik, milliy hududlarning o'ziga xos xususiyatlari, aholisining miiliy an'analari, udumlarini, e'tiborga olmaslik, ularni pisand qilmaslik oxiroqibatda bundan ham ko'ngilsizroq va noxushroq holatlarning yuz berishiga sabab bo'ldi.

Ko'p qishloq tumanlarida hokimiyat organlarining zo'ravonligi, o'zboshimchaligiga qarshi aholi keskin norozilik bildirib, turli harakatlar uyushtirishga majbur bo'ldi. 1929—1930 yillarda dehqonlarning sovet tuzumiga nisbatan ommaviy norozilik harakatlarida faqat Qashqadaryo

K I R I SH

O'zbekistonning davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi tufayli xalqimizning asriy orzusi ushaldi, o'z taqdiri va kelajagini o'zi yaratadigan bo'ldi. Tarixan qisqa davrda jamiyatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida keskin burilish yasaldi. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish, faol demokratik yangilanishlarni amalga oshirish bilan bog`liq qator islohotlar o'tkazildi. Jumladan, ana shu buyuk o'zgarishlarni asrlar davomida orzu qilgan xalqimizning ko'hna tarixiga bo'lgan munosabati tubdan o'zgardi. Zero, Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek: "O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q" (Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengil maskuch – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. B.4.). Ayniqsa, bugungi murakkab globallashuv davrida ma'naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma'naviyatini asrash va yanada yuksaltirish, yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g`oya va mafkuralar ta'siridan saqlash va himoya qilishda Vatan tarixini har tomonlama va chuqur tadqiq etish, birlamchi manbalarga tayanib talqin etish, kelajak avlodga haqiqiy tariximizni o'qitish orqali ularni yuksak ma'naviyatli shaxslar etib tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz tarixida yangi davr-mustaqil taraqqiyot davri boshlandi. Xalqimiz demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurish yo'lida dastlabki sinovlardan o'tdi. Istiqlol yillarida yurtimizda milliy ma'naviyatimizni tiklash, uni zamon talablari asosida rivojlantirish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi.

Yangi jamiyat qurish, avvalo, yoshlarga, ularning ma'naviy dunyosi, kasb-mahoratiga bog`liq. Binobarin, yosh avlodda milliy g`oyani, yuksak ma'naviy fazilatlarni shakllantirishda, milliy ong va sog`lom fikrni uyg`otish, ularni Vatan, xalq va istiqlol taqdiri uchun g`oyaviy kurashchanlik ruhida tarbiyalashda, yuksak ma'naviyatli komil inson bo'lib shakllanishida, shuningdek, xalqimizning ma'naviy yuksalishi yo'lida "O'zbekiston tarixi" fanining ahamiyati katta.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti O'zbekiston tarixi va huquq asoslari kafedrasida O'zbekiston tarixi fani bakalavr bosqichi I kursining birinchi semestrida o'tiladi. Ushbu fan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijtimoiy kompleksining maxsus metodologik komissiyasi bayonnomasi va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, oliy o'quv yurtlar ilmiy-uslubiy birlashmalarining faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash Prezidiumining **2011** yil **8**-sentabrdagi majlisi qarori bilan tavsiya etilgan namunaviy dastur asosida o'tiladi. Mazkur dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan **2004** yil **17** sentabrdagi 392-sonli buyrug'I bilan tasdiqlangan. O'zbekiston tarixi fani namunaviy dastur asosida tarix yo'nalishidan tashqari yo'nalish mutaxassisligiga muvofiq ravishda ishlab chiqilgan o'quv-uslubiy, ishchi dastur asosida **66** soat (ma'ruza 28 soat, seminar **30** soat) hajmida olib boriladi.

Fanning o'qitish maqsadi va vazifalari: oliy ta'limning birinchi bosqichi bo'lgan bakalavriatning barcha yo'nalishlarida «O'zbekiston tarixi» fani o'qitiladi. «O'zbekiston tarixi» fani o'quv dasturiga kiritilgan nazariy va konseptual-metodologik mazmundagi mavzular Prezident Islom Karimovning **1998** yil **26** iyun kuni Respublikamizning taniqli olimlari va mutaxassislari bilan bo'lgan suhbatida hamda "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida insoniyat uchun eng muhim boylik bo'lgan ma'naviyatni yuksaltirish, uni yoshlar qalbi va

ongiga chuqur singdirishga xizmat qiladigan g`oyalar va metodologik ko'rsatmalar ruhida o'qitiladi.

"O'zbekiston tarixi" fani ajdodlarimiz hayotida sodir bo'lgan tarixiy voqealarni tahlil qilishni, ularning sabablari va mohiyatini, ichki va tashqi omillarini, umumiy va o'ziga xos qonuniyatlarini ochib berishni ko'zda tutadi. Bu o'z navbatida, talaba-yoshlarni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan yuksak ma'naviyatli komil inson qilib tarbiyalashga va ularda milliy g`oya, tarixiy tafakkurni shakllantirishga ko'maklashadi.

O'zbekiston tarixi fanining mohiyati, uning ilmiy-amaliy ahamiyati: tarixni o'rganish jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega. Ozod va obod, erkin va farovon hayotni barpo etishda, komil insonni tarbiyalashda, mustaqillikni mustahkamlash va jamiyatimizni ma'naviy yuksaltirishda hamda milliy ong, milliy g`ururni shakllantirishda, milliy o'zlikni anglash jarayonida ko'hna va boy tarixning roli beqiyosdir. Istiqlol sharofati bilan o'zbek xalqining asriy orzusi ushalib, uning e'tiqodi, urf-odatlari, qadriyatlari o'z o'rniga qaytdi. Mustaqil davlatning xalqiga xos bo'lgan xususiyat va an'analarni hisobga olgan holda o'z rivojlanish yo'lini tanlashi, boy madaniyati va ma'naviyatini e'zozlash, xalq istiqboliga qaratilgan milliy istiqlol g`oyasini targ`ib etish, Vatan tarixini xolisona o'rganish va tadqiq etishni hayotiy zaruriyat darajasiga ko'tardi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "...biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimiz, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur" (Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q – Toshkent: Sharq, 1998. B.8.). Shu o'rinda ko'p yillar mobaynida soxtalashtirilib, kommunistik mafkura manfaatlariga bo'ysundirilib kelingan boy tariximizni mustaqillik davri nuqtai nazaridan o'rganish, xolisona baholash zaruriyati mavjuddir.

Mazkur qo'llanma professor-o'qituvchilarga fanni o'qitishda va talabalarning O'zbekiston tarixini o'rganishida o'quv-uslubiy qo'llanma sifatida tavsiya etiladi.

1-MAVZU: O'ZBEKISTON TARIXI FANINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA MAQSAD-VAZIFALARI. (2 SOAT)

Ma'ruzani olib borish texnologiyasi

Talabalar soni: 2 ta guruh	**Vaqti: 2 soat**
Mashg`ulot shakli	Mavzuga kirish bo'yicha ko'rgazmali-ma'ruza.
Ma'ruza rejasi	**1**. O'zbekiston tarixining fan sifatidagi o'rni, fanni o'qitishning maqsad va vazifalari. Uning predmeti va o'rganish ob'ekti. **2**. O'zbekiston tarixi fanining g`oyaviy-nazariy asoslari va metodologik tamoyillari. **3**. O'zbekiston tarixini davrlashtirish masalasi va o'tmishni o'rganishda moddiy va yozma manbalarning o'rni va ahamiyati. **4**. Vatan tarixining komil insonni tarbiyalashdagi ahamiyati.
Mashg`ulotning maqsadi: Fan haqida umumiy tasavvurni berish.	
Pedagogik vazifalar	**O'quv faoliyati natijalari:**

«Fan», 1996, 60 b.
5. Mustafo CHo'qay o'g'li. Istiqlol jallodlari. Toshkent, 1992, 8 b.
6. Rajabova R.YO. va b. O'zbekiston tarixi (1917-1993 yy.). T., «O'qituvchi», 1994.
7. Rajabov Q. Mustaqil Turkiston uchun mujodalalar (1917-1935 y.). //Jamiyat va boshqaruv, 1998, № 1-2, 3-4.
8. Norjigitova N. «Bosmachilik harakati» va uning sovet tuzumi davridagi tarixiy adabiyotlarda yoritilishi. T., 1996.
9. Ibodinov A. Qo'rboshi Madaminbek T., «YOzuvchi», 1993 y.

11-MAVZU:
SOVETLAR DAVRIDA O'ZBEKISTONNING IQTISODIY-MA'NAVIY QARAMLIGI VA QATAG'ONLIK SIYOSATINING FOJEALIOQIBATLARI

REJA:

1.O'zbekistonda 20-yillardagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyat.
2.Sovet hokimiyatining 20-30 yillarda O'zbekistonda sanoatlashtirish va jamoalashtirish siyosati va uning oqibatlari.
3.50-80 yillarda O'zbekiston sanoati, transporti, agrar xo'jaligi. Paxta yakkahokimligining kuchayishi va uning oqibatlari.
4. XX asrning 20-30 yillarida fan va madaniyat.
5. 50-80 yillarda fan va madaniyat. Kommunistik mafkura hukmronligi. Ma'naviy hayotdagi cheklashlar.

MAVZUGA OID TAYANCH SO'Z VA IBORALAR:

Xususiy tadbirkorlik,Oziq - ovqat razviyoritkasi,Yollanma mehnat,Yangi iqtisodiy siyosat.Maxsulot solig'i. Exspulatator. Jamoa, dehqon, qishloq, quloq, sovet. Prezident.Leyka.Quvg'in.Milliy istiqlol.Milliy Ittihod.Qatag'on.Inqilob.

Sovetlar hokimiyatining o'tgan asrning 20-30-yillanda amalga oshirgan ma'muriy buyruqbozlik va zo'ravonlik siyosatining yorqin ifodasi qishloqda o'tkazilgan Jamoalashtirish jarayonida namoyon bo'ldi.

Necha asrlar davomida individual xo'jalik yuritib kelgan, ongi, shuurida xususiy mulkchilik hissiyoti kuchli bo'lgan, mulk daxlsizligi tushunchasini muqaddas bilgan millionlab dehqon xonadonlarini ularning xohishirodasiga qaramasdan, majburiy tarzda yirik jamoa xo'jaliklariga olib o'tish bu hazilakam jo'n, oson ko'chadigan ish emas edi. Sovet hokimiyati, hukmron partiya ijtimoiy taraqqiyotning borishi, uning tabiiy qonuniyatlariga zid o'laroq bu jarayonni qisqa muddatlar ichida zo'ravonlik va majburiylik yo'li bilan o'tkazish sari yo'l tutdi. VKP(b) XV s'ezdi (1927-yil dekabr) belgilab bergan qishloqda yoppasiga jamoalashtirishni amalga oshirish siyosati bunga to'la asos qilib olindi.

Butun SSSR hududida bo'lgani singari O'zbekistonda ham bu ishga fao yeng shimarib kirishildi. Negaki, yuqoridan belgilangan har qanday amru farmon va direktiv ko'rsatmalar bu yerda ham so'zsiz bajarilishi, hayotga joriy etilishi majburiy hisoblanardi. Buning uchun tegishli shartsharoit va imkoniyatlar bormi, yo'qligi yoxud mahalliy aholining bu tadbirlarni bajarishga tayyorgarligi qay darajada ekanligi e'tiborga olinmasdi.

o'rinbosari To'raqul Jonuzoqov, asli boshqirdistonlik Ahmad Zakiy Validiy To'g'on va boshqalar istiqlolchilik harakatining g'oyaviy mafkurachilari edilar. Harakatga rahbarlik qilgan islom ulamolari orasida yassaviylik va naqshbandiylik tariqatlarining pirlari ko'p bo'lgan.

1920-1924 yillarda istiqlolchilik harakati Buxoro va Xorazm respublikalarida ham avj oldi. Buxoro Xalq Respublikasidagi harakatning Turkistondagi istiqlolchilik harakatidan farq qiladigan asosiy tomoni shundan iboratki, vatanparvarlar Buxoroda ikki jabhada turib kurash olib borishlariga to'g'ri keldi. Bir tomondan, amirlik tuzumi tarafdorlari bo'lgan mujohidlar, jadidlardan iborat. Buxoro hukumatiga va shuningdek, qizil armiya qo'shinlariga qarshi kurash olib bordilar (Ibrohimbek, Mulla Abdulqahhor va b.). Ikkinchi tomondan, milliy istiqlol g'oyalariga sodiq bo'lgan buxorolik vatanparvarlar Fayzulla Xo'jayev boshliq Buxoro Xalq Respublikasi hukumati bilan yashirin aloqalar o'rnatib, Buxoroning muqaddas tuprog'idan qizil askarlarning olib ketilishi, Buxoro respublikasining mustaqilligi amalda qaror topishi uchun kurashdilar (Anvar Posho, Davlatmandbek, Jabborbek, Doniyolbek va b.).

Xorazm Xalq Respublikasida qizil armiyaga qarshi kurashning tepasida Junaidxon turdi. U Xorazmda siyosiy hokimiyat uchun kurash boshlab, katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Qisqa muddatda Junaidxon o'z qo'shinini 20000 kishiga yetkazdi. O'zbek hunarmandlari va dehqonlaridan tashkil topgan dastalarga Madraimboy, Sa'dulla bola, SHokir bola va boshqalar rahbarlik qilgan. Junaidxon boshchiligidagi mujohidlar hujumga o'tib, 1920 yil yozida Qo'hna Urganch, Xo'jayli, Ilonli va Taxtani qayta egallashdi, ko'plab qizil askarlarni asirga olishdi. Junaidxon sovet qo'mondonligiga maxsus maktub yuborib, agar qo'shinlar Xorazmdan olib chiqib ketilmasa, asirlarni otib tashlashini bildirdi. Biroq sovet qo'mondonligi Junaidxonning haqli talablarini rad qilgach, u bosqinchilarni otib tashlashga buyurdi.

1924 yilga kelganda istiqlolchilar iqtisodiy tanazzul va qashshoqlik, dahshatli ochlik, xalqning og'ir turmushini ko'rmasliklari mumkin emas edi. Tinimsiz davom etgan yetti yillik kurashdan Turkiston xalqlari ham, qo'rboshi va ularning yigitlari ham juda toliqqan edilar. SHuning uchun qasoskorlarning ko'pchiligi 1924 yil davomida qarshilikni to'xtatdilar. Bunga ularning rahbarlari orasida jipslik va umumiy dasturning yo'g'ligi ham sabab bo'ldi.

Lekin hali oldinda kurashning to'liq o'n yili turar edi. Vatanparvarlar yana 1935 yilgacha bosqinchi qizil armiya qo'shinlariga qarshi kurashini olib bordilar.

MAVZUGA OID MUSTAQIL ISH MAVZULARI:

1. 1917 yil fevral va oktyabr oralig'ida Turkiston.
2. Turkistonda oktyabr voqealari: haqiqat va uydirma.
3. Turkiston Muxtoriyati.
4. Istiqlolchilik harakati - umumxalq kurashi.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOT VA MANBALAR:

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., «O'zbekiston», 1997, 328 b.
2. Karimov I.A.Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., «O'zbekiston», 1998, 31b
3. Abdullayev R.M. Natsionalniye politicheskiye organizatsii v Turkistane v 1917-1918 gg., avtoref. diss. Doktora ist.nauk. T., 1998, s.62.
4. A'zamxo'jayev S. Turkiston Muxtoriyati (Mustaqilligimiz tarixidan sahifalar). - T.,

O'zbekiston tarixi fanining vazifalari sanab o'tilib, ular asoslab beriladi; O'zbekiston tarixini o'rganishning nazariy-uslubiy tamoyillari sanab o'tiladi; Jamiyatni ijtimoiy va iqtisodiy, ma'naviy va ma'rifiy yuksaltirishda tarix fanining ahamiyati yoritiladi; O'zbekiston tarixining jahon xalqlari tarixi va boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqasi ko'rsatib beriladi; Islom Karimov asarlarida O'zbekiston tarixi fani oldida turgan dolzarb muammolar haqida ma'lumot beriladi; O'zbekiston tarixini o'rganishda moddiy va yozma manbalarning o'rni hamda ahamiyati ko'rsatiladi; O'zbekiston tarixi fanining predmeti va tadqiqot ob'ekti ko'rsatib beriladi.	Kursning maqsadini aytib, vazifalarini sanab beradi; O'zbekiston tarixini o'rganishning nazariy-uslubiy tamoyillarini yoritib beradi; Jamiyatni ijtimoiy va iqtisodiy, ma'naviy va ma'rifiy yuksaltirishda tarix fanining ahamiyatini ochib beradi; O'zbekiston tarixining jahon xalqlari tarixi va boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqasini ko'rsatib beradi; Prezident I.A.Karimov tomonidan O'zbekiston tarixi fani oldida turgan dolzarb muammolarga berilgan e'tibor hamda ularning yechimi haqida bilimlarni aytib beradi; O'zbekiston tarixini o'rganishda moddiy va yozma manbalarning o'rni hamda ahamiyati haqida fikr yuritadi; O'zbekiston tarixi fanining predmeti va tadqiqot ob'ektini ko'rsatib beradi.
O'qitish usullari va texnika	Ma'ruza, namoyish, aqliy hujum, klaster, blits-so'rov.
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, kompyuter slaydlari, doska, bo'r, latta, skoch, A**3** formatli qog`oz.
O'qitish shakllari	Yakka tartibda, frontal, guruhlarda ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Kompyuter, proyektor (yoki proyektor va LCD panel) mavjud auditoriyalar.
Monitoring va baholash	Og`zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

Ma'ruzaning texnologik xaritasi

Ish jarayonlari vaqti	**Faoliyatning mazmuni**	
	O'qituvchi	**Talaba**
I-bosqich. Kursga va mavzuga kirish. (**20** minut)	**1.1**. O'quv kursining nomini aytib, kurs doirasida dastlabki umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi (**1**-ilova).	Tinglaydi.
	1.2. Mazkur kurs bo'yicha o'rganiladigan mavzular bo'yicha nazariy va amaliy mashg`ulotlar, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma'lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro'yxati bilan tanishtiradi (**2**-ilova).	Yozadi, tinglaydi.
	1.3. Birinchi o'quv mashg`uloti mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi.	Mavzu nomini yozib oladilar.
II-bosqich. Asosiy (**50** minut)	**2.1**. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida diqqatni jamlovchi savollar beradi: Tarixni o'rganishning ahamiyati nimada? O'zbekiston tarixi fanining predmeti va o'rganish ob'ekti nima?	Savollarga javob beradi.

	O’zbekiston tarixini o’rganishda moddiy va yozma manbalar qanday o’rin tutadi? Savolga berilgan javoblarni tahlil qiladi.	
	2.**2**. Ekranga “O’zbekiston tarixining yoshlarni tarbiyalashdagi o’rni” nomli (**1**-sonli) slaydni qo’yib, uni sharhlaydi.	**1**-sonli slayd mazmunini o’rganadi, kursning roli va ahamiyati haqida o’z fikr-mulohazalarini aytadi.
	2.**3**. Ekranda “O’zbekiston tarixi fanining predmeti va o’rganish ob’ekti” ko’rsatiladi (**2**-sonli slayd), rejaning **2**-savoli yuzasidan talabalarga o’z fikr-mulohazalarini bayon qilib berishini so’raydi. Talabalarning fikrlari umumlashtiriladi va xulosa qilinadi.	**2**-sonli slayd mazmuni bilan tanishadi
	2.**4**. Blits-so’rov orqali O’zbekiston tarixining jahon xalqlari tarixi va boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqasi bir necha talabalardan so’raladi (**3**-ilova), olingan javoblar tahlil etilib, xulosa qilinadi.	Bir necha talaba javob beradi.
III-bosqich. Yakuniy bosqich. (**10** minut)	**3**.**1**. Mavzu bo’yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo’yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma’lum qiladi.	Savollarga javob beradi.
	3.**2**. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi.	Tinglaydi.
	3.**3**. Mavzu bo’yicha mustaqil o’rganish uchun topshiriqlar beradi (**4**-ilova).	Mustaqil o’rganish uchun topshiriqlarni yozib oladi.
	3.**4**. Mavzu bo’yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro’yxatini beradi (**2**-ilova).	Yozadi.

1(**1**.**1**)-ilova

Kurs bo’yicha tinglovchilarning o’zlashtirishlarinibaholash mezonlari

Muddati	**Nazorat shakllari**	**Reyting ballari**
Amaliy mashg`ulot darsida.	Amaliy mashg`ulotda individual topshiriqlarni bajarish va guruhda	**45** ball
Kurs tugagandan so’ng bir hafta ichida.	Mustaqil ish variantlari bo’yicha individual topshiriqlarni bajarish.	**10** ball
Kurs oxirida.	Test topshirish.	**15** ball
Doimiy.	Ijodiy yondoshuv.	**30** ball
Jami:		**100** ball

rashayotgan Madaminbek bilan Anvar Poshoning taqdirlari esa fojiali tugadi.

Farg’ona vodiysidagi istiqlolchilik harakati 1919 yil yozining oxiri va kuzida o’zining yuqori cho’qqisiga chiqdi. Madaminbek boshchiligidagi islom qo’shinlari safiga Jalolobodda turgan rus krestyanlar armiyasining qo’shilishi vodiyda sovet hokimiyatini aQdarish uchun real kuch edi. Sentyabrning dastlabki kunlarida Madaminbek lashkarlari Jalolobod shahrini egalladi. Qurshob qasabasi yonidagi janglarda sovet armiyasi qismlari katta mag’lubiyatga uchrab, O’sh shahriga chekindi. 8 sentyabrda bir yarim kecha-kunduzlik qonli janglardan keyin O’sh shahridagi garnizon taslim bo’ldi va qamoqhonada yotgan mahbuslar istiqlolchilar tomonidan ozod qilindi.

Madaminbek qo’shinlari 13 sentyabrda Eski Marg’ilon shahrini egalladilar. SHu bilan birga vodiydagi eng yirik strategik shahar-Andijonni qamal qilishga kirishdilar. Afsuski, bir oy davomida Farg’ona vodiysini larzaga keltirgan Madaminbek boshchiligidagi musulmon qo’shinining hujumi pirovard natijada mag’lubiyat bilan tugadi.

1919 yil 22 oktyabrda Pomirning Ergashtom ovulida bo’lgan anjumanda Farg’ona muvaqqat muxtoriyat hukumati tuzildi. Hukumat tarkibiga 16 musulmon va 8 rus, hammasi bo’lib 24 kishi kiritildi. Madaminbek hukumat boshlig’i bo’lishi bilan birga Bosh qo’mondon qilib ham tayinlandi.

1919 yilning kech kuziga kelib Madaminbek qo’l ostida 30 mingga yaqin yigit qizil armiyaga qarshi istiqlol janglarini olib bordilar. Bu paytda SHermuhammadbekda 20000 yigit, Ergash qo’rboshida 8000 yigit bo’lgan. Aynan ana shu uch lashkarboshi vodiydagi jangovor harakatlarni yo’naltirib turganlar.

Madaminbek siymosida sarkardalik, davlat va siyosat arbobiga xos sifatlar o’zaro uyg’unlashib ketgan edi. U Farg’ona vodiysidagi istiqlolchilarning haqiqiy ma’nodagi dohiysi, tan olingan yo’lboshchisi edi. Madaminbek vodiydagi sovet hokimiyati organlariga muqobil ravishda o’z siyosiy boshqaruv usulini joriy qildi. Bunday boshqaruv usulini yana Ergash va SHermuhammadbek qo’rboshilargina joriy etgan edilar.

Turkistondagi istiqlolchilik harakati 1920 yilning yozi va kuzida o’zining yangi bosqichiga qadam qo’ydi. Kurash yana ham shafqatsiz va murosasiz tus oldi. Farg’ona vodiysi va Samarqand viloyatidagi vatanparvarlar bilan bir qatorda endilikda Xorazm va Buxorodagi fidoyilar ham bosqinchi qizil armiya jangchilariga qarshi muqaddas kurashga otlandilar. Kurash bayrog’ini vodiyda Madaminbek o’rniga endi SHermuhammadbek ko’tardi. Farg’ona vodiysidagi butun qo’rboshilar va tinch aholi vakillari Oltiariq tumanida o’zlarining nav-batdagi qurultoylariga to’plandilar. Qurultoy 1920 yil 3 mayda Turkiston muvaqqat hukumatini tuzdi. Ushbu qurultoyda SHermuhammadbek hukumat raisi va islom qo’shinlarining Oliy bosh qo’mondoni qilib saylandi. Bolshevik maddohlardan birining e’tiroficha, «Madaminbek qo’rboshilar o’rtasida eng kuchlisi bo’lgan bo’lsa, SHermuhammadbek shubhasiz, eng xavflisi edi».

Turkiston MIK raisi Inog’omjon Xidiraliyevning sal keyinroq yozishicha, «1920 yil sentyabrda bosmachilarning soni 70000 kishiga yetdi va kuchli vahima uyg’otdi».

Turkistondagi istiqlolchilik harakatining g’oyaviy rahnamolari ham yetarli darajada mavjud bo’lib, ular asosan jadid munavvarlari va islom ulamolari edi. SHuni alohida ta’kidlash kerakki, istiqlolchilik harakatiga g’oyaviy rahnamolik qilish borasida jadidlar bilan ulamolar o’rtasida o’zaro raqobat mavjud edi. Namanganlik Nosirxon To’ra Said Kamolxon To’ra o’g’li, toshkentlik muftiy Sadriddinxon Maxsum SHarifxo’ja Qozi o’g’li, Turkiston MIKning sobiq

mustamlakachilik zulmi ostida ezilib kelgan Farg'onaliklar endi bolsheviklar tuzumi va sovet Rossiyasiga qarshi qurolli kurashga otlandilar. Demak, Turkistonda sovet hokimiyati va bolshevikcha tuzumga qarshi istiqlolchilik harakatining boshlanishini xronologik jihatdan 1918 yil fevral oyining so'nggi o'n kunligida deb belgilashimiz mumkin.

Dastlabki istiqlolchi guruhlarining tuzilishi Qo'qon atrofidagi Bachqir qishlog'idan chiqqan Kichik va Katta Ergashlarning nomlari bilan uzviy bog'liqdir. 27 fevralda bo'lgan janglarning birida Kichik Ergash shahid bo'lgach, uning o'rniga Katta Ergash qo'rboshi (uni Mulla Ergash ham deyishgan) Farg'ona vodiysida bolsheviklarning mustamlakachilik tartibiga qarshi kurash boshladi.

Skobelev uyezdida esa Marg'ilon militsiyasining sobiq boshlig'i Muhammad Aminbek Ahmadbek o'g'li-Madaminbek sovetlarga qarshi kurash e'lon qildi. «YAkkatut volosti Garbobo qishlog'idagi Madaminbek guruhining qarorgohiga ommaviy ravishda mahalliy yoshlar kelib qo'shilardi», deb yoziladi 1918 yilga oid arxiv hujjatlarining birida.

1918 yil mart oyiga kelib Farg'ona vodiysida bir-biridan mustaqil ravishda 40 dan ortiq qo'rboshi dastalari faoliyat ko'rsatardi. Madaminbek Skobelev uyezdida, aka-uka SHermuhammadbek va Nurmuhammadbek Marg'ilon atroflarida, Omon Pahlavon, Qobul, Sotiboldi Qozi va Rahmonqul Namangan uyezdida, Parpi qo'rboshi Andijon shahri atrofida, Eshmat qo'rboshi Qo'qonning Buvayda qishlog'ida, Jonibek Qozi O'zgan tomonda, Muhiddinbek Novqatda o'z faoliyatlarini boshladilar.

Istiqlolchilik harakatining harbiy birlikka aloqasi bo'lmagan qurolli bezorilik yoki bosqinchilik, yoxud «bosmachilik» harakati emasligini alohida ta'kidlab o'tish kerak. Istiqlolchilik harakatining o'ziga xos milliy yo'nalishi va Turkistonga mos xususiyatlari bo'lgan. Harakatning boshdan oxirigacha ustuvor g'oya-bu butun Turkistonning milliy istiqloli edi.

Sovet hokimiyati vakillarining butun Turkiston o'lkasida yuritgan shovinistik va mustamlakachilik siyosati, mahalliy aholi manfaatlari bilan hisoblashmay ularning nafsoniyatiga tegishi istiqlolchilik harakatining doimiy ravishda avj olishi hamda uning uzluksiz davom etishiga olib keldi.

Turkistondagi istiqlolchilik harakatining asosiy harakatlantiruvchi kuchlari dehqonlar, chorikorlar, mardikorlar, hunarmandlar va kosiblar edi. Turkiston respublikasi rahbarlaridan birining e'tirof etishicha, istiqlolchilik harakatiga «asosan dehqonlar va hunarmandlar qatnashdi». Farg'onadagi qurolli muxolifat kuch va son jihatdan tish-tirnog'igacha qurollangan sovet qo'shinlaridan ba'zan mag'lubiyatga uchrab tursa-da, e'tiqod va ozodlik uchun kurashayotgan istiqlolchilar vodiydagi butun aholi orasidan doimo madad va yordam olib turardilar.

Turkistondagi istiqlolchilik harakatining uyushgan bir shaklda namoyon bo'lishida qo'rboshilar ko'rsatgan g'ayrat-shijoatni alohida ta'kidlab o'tish kerak. O'z vaqtida Farg'ona vodiysida Kichik va Katta Ergashlar, Madaminbek, SHermuhammadbek, Islom Pahlavon, Buxoro Xalq Respublikasida Said Olimxon (sobiq amir), Ibrohimbek, Mulla Abdulqahhor, Anvar Posho, Salim Posho, Davlatmandbek, Jabborbek, Oston Qorovulbegi, O'rmon Polvon, Hayit Amin, Fuzayl Mahdum, Doniyolbek, Xorazm Xalq Respublikasida Junaidxon, G'ulomalixon, Qo'shmamedxon, Temir Alixon kabi qo'rboshilar bu harakatni yagona kuchga birlashtirish uchun rahbarlikni birin-ketin o'z qo'llariga olsalar-da, lekin Farg'ona vodiysi, Xorazm va Buxorodagi istiqlolchilik harakati boshdan oxirigacha yagona markazga to'liq uyusha olmadi. Turkiston fidoyilarining ozodlik harakatini yagona markazga birlashtirish uchun izchil ku-

86%-100% – «A'lo»
71%-85% – «Yaxshi»
56%-70% – «Qoniqarli»
0%-55% – «Qoniqarsiz»

Kurs bo'yicha baholashda bilish, tushunish, tadbiq qilish, tahlil qilish, sintez qilish va baholay olish mezonlariga asoslaniladi.Talabalar har bir amaliy mashg`ulotda **2** ballgacha olishlari mumkin bo'lib, unda quyidagi mezonlar asosida baholaniladi.

Asosiy tushunchalarni biladilar	Mavzu bo'yicha asosiy kategoriya va qonunlarni tushunadilar	Usullarni qo'llay oladilar	Natijalarni tahlil qila oladilar
20 %	**20** %	**30** %	**30** %

Ijodiy yondoshuv bo'yicha baholanish mezonlari quyidagicha:

O'zbekiston tarixi fanining predmetini bilgan holda, uni jamiyatdagi, inson hayotidagi ahamiyatini isbotlay oladilar	O'zbekiston tarixi fanining kategoriya va strukturasini mustaqil tahlil qila oladilar va xulosa chiqara oladilar
50 %	**50** %

2(**1**.**1**)-ilova

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., **2008**.
2. O'zbekiston Konstitutsiyasi-biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining **17** yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. «Xalq so'zi», **2009** yil **6** dekabr.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-T.: Ma'naviyat, **2008**.
4. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q-T., Sharq, **1998**.
5. Karimov I.A. O'zbekistonning **16** yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O'zbekiston mustaqilligining **16** yilligiga bag`ishlangan qo'shma majlisdagi ma'ruzasi. «Xalq so'zi», **2007** yil **31** avgust.
6. Berdyayev N. Smыsl istorii-M.: Mыsl, **1990**.
7. Moziydan taralgan ziyo. Imom al-Buxoriy. T., Sharq, **1998**.
8. O'zbekiston tarixi: yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar.-T., Yel'dimur, **1998**.
9. O'zbekistonning yangi tarixi. Konseptual-metodologik muammolar. T., Akademiya, **1998**.

3 (**1**.**1**) -i lova

1-mavzu bo'yicha tayanch tushuncha va iboralar:

Tarix	“istoriya” degan yunoncha so’zning arabcha aytilishi bo’lib “tadqiqot”, “voqealar bayoni” ma’nosini beradi.
Ashyoviy manbalar	tosh qurollar, bronza, temirdan yasalgan turli hunurmandchilik asboblari, qurol-yarog`lar, taqinchoqlar va sopol idishlar hisoblanadi.
Arxeologiya	tarixni ashyoviy manbalar asosida o’rganuvchi fan. Arxeologiya, yunoncha so’z bo’lib, “arxeos”-qadimgi, “logos”-fan, ya’ni “qadimiylikni o’rganuvchi fan” demakdir. Moddiy ashyoviy manbalar asosida tarixni o’rganuvchi olimlarni ARXEOLOGLAR deb ataladi.
Antropologiya	Qadimgi odamlarning suyak qoldiqlariga qarab, qiyofasini, kelib chiqishini va rivojlanishini o’rganuvchi fandir. Odam haqidagi fan bilan shug`ullanuvchi olimlarni ANTROPOLOGLAR deb atashadi.
Etnografiya	xalqlarning urf-odatlari, xo’jaligi va madaniyatini o’rganuvchi fan. Qadimgi xalqlarning urf-odatlari, xo’jaligi va madaniyatini o’rganuvchi olimlarni esa ETNOGRAFLAR deb ataladi.
Yozma yodgorliklar	tarixni o’rganishda qadimgi yozuvlar, bitiklar va kitoblar muhim yodgorliklar hisoblanadi. Bu yozma manbalar tarix sahifalarining bizga noma’lum qirralarini ochib beradi.

4(1.1)–ilova

1-mavzuni jonlantirish uchun savollar:
1. O’zbekiston tarixining fan sifatidagi o’rni qanday va uni o’qitishning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. O’zbekiston tarixi fanining o’rganish predmeti va ob’ektini izohlab bering.
3. O’zbekiston tarixini o’rganishning nazariy asoslari va metodologik tamoyillari nimalardan iborat?
4. O’zbekiston tarixini o’rganishda manbalar qanday ahamiyatga ega?
5. Vatan tarixining komil insonni tarbiyalashdagi roli va ahamiyatini ko’rsating.

2-MAVZU:O’ZBEKISTON-INSONIYAT SIVILIZATSIYASI QADIMGI O’CHOQLARIDAN BIRI (2 SOAT)

Ma’ruzani olib borish texnologiyasi

Talabalar soni:2 ta guruh	**Vaqti: 2 soat**
Mashg`ulot shakli	**Mavzuga kirish bo’yicha ko’rgazmali-ma’ruza.**
Ma’ruza rejasi	**1**. Insoniyatning dastlabki ajdodlari. O’zbekiston hududida eng qadimgi odamlar hayotining izlari. Paleolit. **2**. Miloddan avvalgi XII-IV ming yilliklarda O’rta Osiyo. Mezolit, neolit, eneolit davrlari. **3**. Bronza davrining yutuqlari.
Mashg`ulotning maqsadi:O’zbekiston-insoniyat sivilizatsiyasi qadimgi o’choqlaridan biri ekanligi haqida tushuncha berish	

tiqlol harakatini qo’llab quvvatladilar.

Turkiston muxtoriyatining e’lon qilinishi va bolsheviklar tomonidan tor-mor qilinishi:

1917 yil 26-28 noyabrda Qo’qon shahrida Turkiston o’lka musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi bo’lib o’tdi. Qurultoyda demokratik musulmon ziyolilar talabi bilan Turkiston aholisining yevropali qismi vakillari ham teng huquqli bo’lib ishtirok etdilar. Turkistonning boshqarish tuzumi to’g’risidagi masala uch kun davom etgan qurultoyning diqqat markazida turdi. Qurultoyda o’lkaning barcha mintaqalari va ko’pgina jamoat tashkilotlaridan 200 nafardan ortiq vakillar hozir bo’ldi. Unda vakillarning siyosiy faolligi tufayli muhim masalalar yuzasidan munozaralar bo’lib o’tdi. Muxtoriyat e’lon qilish g’oyasini qo’llab-quvvatlovchilar ko’pchilikni tashkil etdi.

Qurultoyda qabul qilingan qarorda: «Turkistonda yashab turgan turli millatga mansub aholi Rossiya inqilobi da’vat etgan xalqlarning o’z taqdirlarini o’zlari belgilash xususidagi irodasini namoyon etib, Turkistonni Rossiya tarkibida hududiy jihatdan muxtor deb e’lon qildi».

28 noyabrda tarkib topayotgan mazkur davlatning nomi aniqlanib, Turkiston muxtoriyati deb ataladigan bo’ldi. Butunrossiya Ta’sis majlisi chaqirilgunga qadar hokimiyat Turkiston Muvaqqat kengashi va Turkiston xalq (millat) majlisi qo’lida bo’lishi kerak edi. Turkiston Muvaqqat kengashi a’zolaridan tuzilgan Muvaqqat huqumat hay’ati tarkibiga 8 kishi saylandi, yana 4 o’rin yevropa aholi vakillariga ajratildi.

Qurultoy jarayonida Turkiston Millat majlisi 54 kishidan iborat qilib saylandi, shundan 2/3 qismi, ya’ni 36 nafari mahalliy aholi vakillaridan edi.

Turkiston Muxtoriyati hukumati qisqa fursat ichida xalq o’rtasida katta e’tibor qozondi. Abdurauf Fitrat muxtoriyat e’lon qilingan kunni «milliy laylatulqadrimiz» deb atadi. Turkiston muxtoriyatini barcha demokratik kuchlar qizQin quvvatladi.

Afsuski, o’lka bolsheviklari Turkiston Muxtoriyati huqumatiga katta xavf deb qaradilar. Turkiston Sovetlarining IV s’ezdi Turkiston Muxtoriyati hukumati va uning a’zolarini qonundan tashqari deb hisobladi va hukumat a’zolarini qamoqqa olish haqida qaror qabul qildi. Turkiston XKS muxtoriyat hukumatni tugatish uchun harbiy harakatlarni boshladi. Turkiston bolsheviklari buning uchun qizil askarlardan tashqari armanlarning «Dashnoqsutyun» partiyasi a’zolaridan keng foydalandilar.

1918 yilning 19 fevralida (eski hisob bilan 6 fevral) Qo’qon shahrida faoliyat ko’rsatayotgan Turkiston muxtoriyati hukumati bolsheviklarning qonli hujumlari natijasida ag’darib tashlandi. Hukumat ag’darilgach ham Qo’qon va uning atroflaridagi tinch aholini talash va o’ldirish battar avjiga chiqdi. Faqat Qo’qonning o’zida uch kun davomida 10000 kishi o’ldirildi.

«Ulug’ Turkiston» gazetasi chuqur qayg’u bilan xabar berganidek, 20 (7) fevral Ho’qand tarixining eng dahshatli kuni bo’ldi. Eski shahardagi hamma magazinlar, savdo firmalari, banklar va ozmi-ko’pmi yaxshiroq ko’ringan xususiy xonadonlarning hammasi talangan. Gazetadagi ushbu maqola «Ho’qand hozir o’liklar shahri» deb tugaydi. Turkiston Muxtoriyatini ag’darilishi O’rta Osiyoni sovetlashtirishga keng yo’l ochib berdi.

Turkiston mintaqasidagi istiqlolchilik harakati va uning tarixiy ahamiyati:

Turkiston Muxtoriyati hukumati bolsheviklar tomonidan tor-mor qilinsa ham, u Farg’ona vodiysida istiqlolchilik harakatini tashkiliy jihatdan rasmiylashtirdi, unga milliy bo’yoq va tus berdi. Muxtoriyat hukumatining tugatilishi istiqlolchilik harakatining butun Farg’ona vodiysida ommaviy ravishda boshlanishiga bir turtki vazifasini o’tadiki, chor Rossiyasining

Toshkentdagi ishchi va soldat deputatlari Soveti musulmonlar o'rtasidagi ushbu bo'linishdan ustalik bilan foydalanishga urindi. Sentyabr voqealari natijasida Toshkent Soveti hokimiyatni qo'lga olishga harakat qildi.

1917 yil 10 sentyabrda Toshkentda Butunturkiston musulmonlarining II qurultoyi ochildi. Ushbu qurultoy hokimiyatni soldat, ishchi va dehqon deputatlari sovetlariga berishga qarshi chiqdi. Sentyabr voqealari jamiyatdagi siyosiy qarama-qarshiliklarni keskinlashtirib, o'lkadagi ishchilar harakati bilan milliy harakatning keyingi yo'llarini bir-biridan ajratib yubordi.

Toshkentda 1917 yil 17-20 sentyabrda turkistonlik va qozoq musulmonlarning qurultoyida «SHo'roi Islomiya», «SHo'roi Ulamo», «Turon» va boshqalarni birlashtirish yo'li bilan butun Turkiston va Qozog'iston uchun umumiy bo'lgan «Ittifoqi muslimin» degan siyosiy partiya tuzishga qaror qilindi.

«Ulamochilar»ning ushbu qurultoyidagi asosiy masala Turkiston o'lkasining bo'lg'usi siyosiy boshqaruvi to'g'risida bo'lib, unda demokratik Rossiya tarkibida hududiy federatsiya "Turkiston federativ respublikasi" tuzilishi g'oyasi olg'a surildi. Fevral inqilobining ta'siri bilan Turkistonda kasaba uyushmalari ommaviy ravishda tashkil etildi, mahalliy xalqlar tillarida gazetalar chiqa boshladi.

Oktyabr to'ntarishi. Turkistonda mustabid Sovet hokimiyatining o'rnatilishi, uning shovinistik siyosati:

1917 yil sentyabr oyida bolsheviklashgan Toshkent Soveti soldatlarni va asli rossiyalik ishchilarni o'z tomoniga torta olgan edi. Oktyabr oyida Rossiyada to'ntarish bo'lib o'tgandan co'ng, uning ta'siri tez orada mustamlaka o'lkaga ham yoyildi. Toshkentdagi Oktyabr to'ntarishi qatnashchilari 1 noyabrda Bosh komissar general Korovichenko va Muvaqqat hukumatning Turkiston qo'mitasini qamoqqa oldilar va shu kuni Turkistonda Sovet hokimiyatini o'rnatilganligi e'lon qilindi. Qurollangan yevropali ishchilar, asosan temiryo'lchilar, Toshkent garnizonining soldatlari davlat to'ntarishini o'tkazdilar.

Turkiston bolsheviklari o'lkadagi butun hokimiyatni o'z qo'llariga olish uchun shafqatsiz kurash olib bordilar.

1917 yil 15-22 noyabrda Toshkent shahrida bo'lib o'tgan ishchi, soldat va dehqon deputatlarining III o'lka s'ezdida hokimiyat masalasi hal qilindi. Bunda 15 kishidan iborat Turkiston Xalq komissarlari soveti tuzildi (8 so'l eser va 7 bolshevik). Hukumatga mahalliy aholidan bironta ham vakil kiritilmadi. S.Lapin boshliq «ulamochi»lar, menshevik va so'l eserlarning o'lka Soveti tarkibiga musulmon vakillarini ham kiritish borasidagi takliflari inobatga olinmadi. Bu esa bolsheviklarning milliy masalada yo'l qo'ygan katta siyosiy xatosi bo'lib, bunda sovet rahbarlarining shovinistik kayfiyatlari ochiq namoyon bo'ldi. Hukumatning bunday ziddiyatli tarkibi o'lkada yevropali aholi hukmronligini mustahkamladi.

Rossiya Xalq Komissarlari Soveti 2 noyabrda «Rossiya xalqlari huquqlarining deklaratsiyasi» va 20 noyabrda «Rossiya va SHarqning barcha musulmon mehnatkashlariga» murojaatnomasini e'lon qildi. Ushbu dabdabali hujjatlarda xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi rasmiy ravishda tan olindi; hattoki ajralib chiqish va mustaqil davlat tuzish huquqi; hamma va har qanday milliy, diniy imtiyozlar va cheklashlar bekor qilindi.

Bu hujjatlar qanchalik balandparvoz va'dalar bermasin, amalda qurug' tashviqot bo'lib chiqdi. Ko'p o'tmay, Turkiston XKS «SHo'roi Islomiya», «SHo'roi Ulamo» tashkilotlarini tarqatib yubordi. Bu tashkilotlarning a'zolari Turkiston muxtoriyatini, keyinroq esa milliy is-

Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyati natijalari:
Mavzu tarixshunosligi haqida ma'lumot beriladi. Sivilizatsiya tushunchasi va uning mohiyati ochib beriladi. Insoniyatning dastlabki ajdodlari, ularning makonlari haqida ma'lumot beriladi. Vatanimiz odamzod ilk bor paydo bo'lgan mintaqalardan biri ekanligi ma'lumotlar asosida ochib beriladi. Qadimgi odamlarning turmush tarzi, mashg`ulotlari haqida ma'lumot beriladi. Ibtidoiy jamiyat, uning davrlari haqida batafsil ma'lumot beiladi. Ibtidoiy davrning har bir bosqichida insoniyat tomonidan amalga oshirilgan kashfiyotlar, yutuqlar va yangiliklar haqida tushuncha beriladi.	Ibtidoiy davr bosqichlari, manzilgohlari, ilk paleolit davri odamlari, ularning makonlari haqida ma'lumotga ega bo'ladi. Hozirgi ko'rinishdagi aql-idrokli odamlar (kromanonlar)ning shakllanishi haqida tushuncha hosil bo'ladi. Mehnat qurollarining takomillashuvi, urug`chilik jamoasining shakllanishi va uning taraqqiyoti haqida tasavvur hosil bo'ladi. Dastlbaki diniy e'tiqodlar, ibtidoiy tasviriy san'at haqida ma'umotga ega bo'ladi. Chorvachilik va dehqonchilikning shakllanishi, ishlab chiqarishga asoslangan hunarmandchilikning vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatgan omillar haqida tushunchaga ega bo'ladi. O'rta Osiyo shaharlarining jahon shaharsozlik madaniyatida tutgan o'rni, "Avesto", zardushtliylik ta'limoti, uning jahon sivilizatsiyasidagi o'rni haqida bilim va ko'nikmaga ega bo'ladi.
O'qitish usullari va texnika	Ma'ruza, namoyish, aqliy hujum, klaster, blits-so'rov.
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, kompyuter slaydlari, doska, bo'r, latta,
O'qitish shakllari	Yakka tartibda, frontal, guruhlarda ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Kompyuter, proyektor (yoki proyektor va LCD panel) mavjud auditoriyalar.
Monitoring va baholash	Og`zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

Ma'ruzaning texnologik xaritasi

Ish jarayonlari	**Faoliyatning mazmuni**	
	O'qituvchi	**Talaba**
I-bosqich. Kursga va mavzuga kirish. (**20** minut)	**1.1**. O'quv kursining nomini aytib, kurs doirasida dastlabki umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi (**1**-ilova).	Tinglaydi.
	1.2. Mazkur kurs bo'yicha o'rganiladigan mavzular bo'yicha nazariy va amaliy mashg`ulotlar, ularning	Yozadi, tinglaydi.

	uzviyligi haqida qisqacha ma'lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro'yxati bilan tanishtiradi (**2**-ilova).	
	1.**3**. Birinchi o'quv mashg`uloti mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi.	Mavzu nomini yozib oladilar.
II-bosqich. Asosiy (**50** minut)	**2**.**1**. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida diqqatni jamlovchi savollar beradi: Ibtidoiy jamoa tuzumi qanday davrlarga bo'linadi? Antropogenez jarayoni haqida ma'lumot bering. Savolga berilgan javoblarni tahlil qiladi.	Savollarga javob beradi.
	2.**2**. Ekranga Ibtidoiy jamoa tuzumining davrlari nomli (**1**-sonli) slaydni qo'yib, uni sharhlaydi.	**1**-sonli slayd mazmunini o'rganadi, kursning roli va ahamiyati haqida o'z fikr-mulohazalarini aytadi.
	2.**3**. Ekranda "Antropogenez jarayoni" ko'rsatiladi (**2**-sonli slayd), rejaning **2**-savoli yuzasidan talabalarga o'z fikr-mulohazalarini bayon qilib berishini so'raydi. Talabalarning fikrlari umumlashtiriladi va xulosa qilinadi.	**2**-sonli slayd mazmuni bilan tanishadi
	2.**4**. Blits-so'rov orqali Ibtidoiy jamoa tuzumining davrlari bir necha talabalardan so'raladi (**3**-ilova), olingan javoblar tahlil etilib, xulosa qilinadi.	Bir necha talaba javob beradi.
III-bosqich. Yakuniy bosqich. (**10** minut)	**3**.**1**. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma'lum qiladi.	Savollarga javob beradi.
	3.**2**. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi.	Tinglaydi.
	3.**3**. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi (**4**-ilova).	Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlarni yozib oladi.
	3.**4**. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi (**2**-ilova).	Yozadi.

1-slayd

IBTIDOIY JAMOA TIZIMI-hamma baravar ishlagan va teng bo'lgan,mehnat qurollari umumniki bo'lgan. Bu davr **6** davrga bo'linadi:

1. PALEOLIT-qadimgi tosh davri, bu davr uzoq davom etganligi sababli **3** bosqichga

13. O'zbekistonning yangi tarixi. 1-kitob. Turkiston CHor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. Toshkent. «SHarq», 2000.
14. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar. Toshkent. «Eldinur», 1998.
15. Turkiston mustaqilligi va birligi uchun kurash sahifalaridan. Toshkent. «Fan», 1996.
16. Fayzulla Xo'jayev. Buxoro inqilobi tarixiga materiallar. T.. «Fan» 1997 y.

10-MAVZU:
O'ZBEKISTONDA MUSTABID SOVET HOKIMYATINING O'RNATILISHI

REJA:

1. 1917 yil fevral inqilobining Turkistonga ta'siri
2. Oktyabr to'ntarishi. Turkistonda mustabid Sovet hokimiyatining o'rnatilishi, uning shovinistik siyosati
3. Turkiston muxtoriyatining e'lon qilinishi va bolsheviklar tomonidan tor-mor qilinishi
4. Turkiston mintaqasidagi istiqlolchilik harakati va uning tarixiy ahamiyati

TAYANCH TUSHUNCHA VA IBORALAR:

Fevral inqilobi, SHo'roi Islom, SHo'roi Ulamo, Ittifoqi muslimin, Oktyabr to'ntarishi, Turkiston Muxtoriyati, Istiqlolchilik harakati, Farg'ona muvaqqat muxtoriyat hukumati, Farg'ona, Buxoro va Xorazm qo'rboshilari.

1917 yil 27 fevralda Petrogradda demokratik inqilobi g'alabasi Turkiston o'lkasiga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Natijada Turkistonda ham ishchi va soldat deputatlari Sovetlari va har xil toifalar vakillaridan tuzilgan ijroiya komitetlar tashkil etila boshlandi. Toshkentning hamma dahalari vakillari to'planib «SHo'roi Islomiya» tashkilotini tuzdilar.

1917 yilning mart oyida o'lka muxtoriyati masalasi Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotidagi asosiy masala bo'lib qoldi. Turkistonga muxtoriyat maqomini berish g'oyasi nafaqat demokratik ziyolilar o'rtasida, hatto oddiy fuqarolar orasida ham tarqala boshladi. 31 mart kuni rus podshosining o'lkadagi tayanchi-Turkiston general-gubernatori hokimiyatni tark etdi. 1917 yil 7 aprelda Muvaqqat hukumat qarori bilan kadet N.N.SHchepkin raisligida Turkiston qo'mitasi tashkil qilindi. 9 kishidan iborat bu komitet a'zolarining to'rttasi: A. Bukeyxonov, M.Tinishboyev, S. Maqsudov va A. Davletshinlar turkiy xalqlar vakillaridan edi.

Turkiston mahalliy aholisining oshib borayotgan ijtimoiy-siyosiy faolligi sharoitida Toshkentda 1917 yil 16 aprelda «SHo'roi Islomiya»ning Toshkent tashkiloti tashabbusi bilan chaqirilgan Butunturkiston musulmonlarining 1 qurultoyi ish boshladi.

Qurultoyning so'nggi majlisida markaziy rahbar organ-Turkiston o'lka musulmon sho'rosi tashkil etilishi haqida qaror qabul qilindi. SHunday qilib Turkistonning birligi va yaxlitligi tomon muhim qadam qo'yildi.

Afsuski, birlashish jarayonlari har doim ham bir tekis rivojlanmadi. Munavvar Qori boshchiligidagi «SHo'roi Islomiya»dan 1917 yil iyun oyida diniy ulamolardan tashkil topgan «SHo'roi Ulamo» ajralib chiqdi. «SHo'roi Ulamo» jamiyati tarafdorlari demokratik kayfiyatdagi milliy ziyolilar va musulmon ruhoniylarning jamiyatda islohotlar o'tkazish yo'lidagi har qanday urinishlariga va yevropacha madaniyatning kirib kelishiga keskin qarshi chiqishdi. Ma'rifiy, siyosiy sohadagi yangilanishlar haqidagi g'oyalarni ham rad etishdi.

qo'lga olish maqsadida faoliyat yuritgan.

Sovet davrida jadidlardan chiqqan milliy ziyolilar sovet organlarida faoliyat ko'rsatdilar va o'z faoliyatlari bilan xalq ta'limi san'atini rivojlantirishga ma'rifiy ishlarni taraqqiy ettirishga harakat qildilar. Jadidlarning ayrim qismi mustabid tuzumning siyosatiga ko'nikmay xorijga o'tib ketdilar, muayyan qismi esa istiqlolchilar harakatiga qo'shilib ketdilar. Istiqlolchilik harakatiga g'oyaviy rahnamolik qilish, ayniqsa, sovet organlarida ishlab, milliy mustaqillik g'oyalarini targ'ib qilishdagi sa'y-harakatlari jadidlarning sovetlar tomonidan 1929, 1937-1938 yillarda ommaviy qirQin qilinishiga olib keldi.

Buxoro amirligi va Xiva xonligida jadidchilik harakati Turkistondagi kabi XIX asr oxiri-XX asr boshlarida shakllangan bo'lsa ham bu hududlardagi tarixiy sharoit undagi jadidchilik harakatiga ham o'ziga xos xususiyatlar baxsh etdi. Buxoro va Xiva jadidlari dastlab amir va xon hukmronligini cheklash, mavjud tuzum sharoitida islohotlar o'tkazib, jamiyat taraqqiyoti va milliy mustaqillikni qo'lga kiritishni maqsad qilib qo'ygan bo'lsalar, keyinchalik xon va amir yakka hukmronligi har qanday taraqqiyotga to'siq ekanligini tushunib yetdilar. CHunki 1917 yilda Xivada Asfandiyorxon ruxsati bilan tuzilgan yosh xivaliklardan iborat majlis va nozirlar kengashi, ularning taqiqlanishi va Junaidxon davridagi yosh xivaliklarning qattiq ta'qib qilinishi; Buxoro amiri Said Olimxonning o'zi qabul qilgan islohotlar o'tkazish haqidagi farmonini bekor qilishi va 1918-1920 yillarda yosh buxoroliklarning quvg'inga uchrashi shunga olib kelgan. Buxoro va Xorazm Xalq Respublikalarida jadidlar hukumat organlarida rahbar lavozimlarida ishlab mamlakatni taraqqiy qildirish va mustaqillikni saqlab qolishga intildilar (1920-1924). Biroq sovet rejimi avval Buxoro va Xorazm davlatlari mavjudligiga chek quygan bo'lsa, keyinchalik barcha jadid namoyondalarini jismonan mahv qildi.

Umuman olganda, asr boshida yuzaga kelgan jadidchilik harakati Turkiston xalqlarining milliy ozodlik, mustaqillik uchun dastlab chor Rossiyasi, so'ngra sovet mustamlakachiligiga qarshi kurashda muhim o'rin tutadi.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOT VA MANBALAR:

1. Karimov I.A. «Turkiston» gazetasi muxbiri savollariga javobi. «Turkiston», 2 fevral 1999.
2. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. Toshkent, «O'zbekiston», 1994.
3. Aliyev A. Mahmudxo'ja Behbudiy. Toshkent. «YOz», 1994.
4. Ziyoev O'. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. Toshkent. «SHarq», 1998.
5. Sodiqov M. Erksevar, hurriyatparvar el vorislarimiz. Toshkent. «Kamalak», 1992, 20-30 b.
6. Fozilbek Otabek o'g'li. Dukchi eshon fojiasi. Toshkent. «CHo'lpon», 1992.
7. Qosimov B. Ismoilbek Gasprali. Toshkent, 1992.
8. O'zbegim. «Vatan» seriyasi. Toshkent, 1992, 142-180 b.
9. Vatan tuyg'usi. Toshkent. «O'zbekiston», 1996.
10. Milliy uyg'onish. Toshkent, 1996.
11. YUnusova X. «1892 yil Toshkentdagi xalq qo'zg'oloni». Toshkent, 1998.
12. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. To'plam. Toshkent. «Universitet», 1999.

bo'linadi:

ILK PALEOLIT-Olduvay madaniyati (Sharqiy Afrika), Ashel madaniyati (Fransiyaning Sent-Ashel mavzesi), (mil.avv. **3-2** ming yilliklar-**100** ming yilliklar). Bu davrda Zinjantrop odami (Afrikaning Olduvay darasidan topilgan), Pitekantrop odami (Indoneziyaning Yava orolidan topilgan), Sinantrop odamlari (Xitoydan topilgan) yashagan.

O'RTA PALEOLIT-Muste madaniyati.Fransiyadagi shahar. (mil.avv. **100-40** ming yilliklar). Bu davrda Neandertal odamlar yashagan (Germaniya).

SO'NGGI PALEOLIT-Orinyak, Salitre, Madlen madaniyatlari (Fransiya), (mil.avv.**40-12** ming yilliklar). Bu davrda Kromanyon odamlari (Fransiya) yashagan.

2. MEZOLIT-O'rta tosh asri mil. avv. **12-7** ming yilliklar.

3. NEOLIT-Yangi tosh davri mil. avv. **6-4** ming yilliklar.

4. **ENIOLIT-**mis-tosh davri. mil.avv. **4-3** ming yilliklar.

5. **BRONZA DAVRI**-mil.avv. **3-2** ming yilliklar.

6. TEMIR DAVRI-mil. avv. bir minginchi yillarning boshlari (mil. avv.**10-8** asrlar).

1(**1**.**1**)-ilova

Kurs bo'yicha tinglovchilarning o'zlashtirishlarinibaholash mezonlari

Muddati	Nazorat shakllari	Reyting ballari
Amaliy mashg`ulot darsida.	Amaliy mashg`ulotda individual topshiriqlarni bajarish va guruhda ishlash.	**45** ball
Kurs tugagandan so'ng bir hafta ichida.	Mustaqil ish variantlari bo'yicha individual topshiriqlarni bajarish.	**10** ball
Kurs oxirida.	Test topshirish.	**15** ball
Doimiy.	Ijodiy yondoshuv.	**30** ball
Jami:		**100** ball

86%-100% – «A'lo»
71%-85% – «Yaxshi»
56%-70% – «Qoniqarli»
0%-55% – «Qoniqarsiz»

Kurs bo'yicha baholashda bilish, tushunish, tadbiq qilish, tahlil qilish, sintez qilish va baholay olish mezonlariga asoslaniladi.

Talabalar har bir amaliy mashg`ulotda **2** ballgacha olishlari mumkin bo'lib, unda quyidagi mezonlar asosida baholaniladi.

Asosiy tushunchalarni biladilar	Mavzu bo'yicha asosiy kategoriya va qonunlarni tushunadilar	Usullarni qo'llay oladilar	Natijalarni tahlil qila oladilar
20 %	**20** %	**30** %	**30** %

Ijodiy yondoshuv bo'yicha baholanish mezonlari quyidagicha:

O'zbekiston tarixi fanining predmetini bilgan holda, uni jamiyatdagi, inson hayotidagi ahamiyatini isbotlay oladilar	O'zbekiston tarixi fanining kategoriya va strukturasini mustaqil tahlil qila oladilar va xulosa chiqara oladilar
50 %	**50** %

2 (**1**.**1**)-ilova

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-Toshkent: Sharq, **1998**.
2. Tolstov S.P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab.-T., **1964**.
3. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi.-T.: Sharq, **2000**.
4. Murtazayeva R.X. va boshqalar. O'zbekiston tarixi. Darslik.-Toshkent, **2003**.
5. Sa'dullayev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda.-Toshkent: Universitet, **1996**.
6. Usmonov Q., Sodiqov M., Oblomurodov N. O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma.-Toshkent: Meros, **2002**.

4 (**1**.**1**)–ilova

2-mavzuni jonlantirish uchun savollar:
1. Insoniyatning dastlabki ajdodlari paydo bo'lishi va shakllanishi haqida sizning fikringiz.
2. O'zbekiston hududida eng qadimgi odamlar hayotining izlari qayerlarda topilgan?
3. Paleolit davri yodgorliklari qayerlarda ko'proq uchraydi?.
4. Miloddan avvalgi XII-IV ming yilliklarda O'rta Osiyo xalqlari hayotida qanday o'zgarishlar ro'y berdi?
5. Bronza davrining yutuqlari nimalardan iborat?

3-MAVZU: O'ZBEK DAVLATCHILIGI ASOSLARINING YARATILISHI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI. (2 SOAT)

Ma'ruzani olib borish texnologiyasi

Talabalar soni:**2 ta guruh**	Vaqti: **2** soat
Mashg`ulot shakli	Mavzuga kirish bo'yicha ko'rgazmali-ma'ruza.
Ma'ruza rejasi	Davlatchilik tushunchasi. Ilk davlatlar paydo bo'lishining asosiy omillari. O'rta Osiyoda ilk davlat uyushmalarining paydo bo'lishi (Katta Xorazm, Qadimgi Baqtriya, So'g`diyona). Eron ahamoniylarining O'rta Osiyo davlatlarini bosib olishi va boshqaruv tizimi. Yunon-makedon qo'shinlarining O'rta Osiyoga yurishi va aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli.

aylandi. Agar Birinchi Jahon urushidan keyin jadidlar parlamentar monarxiya uchun kurashgan bo'lsalar, fevral inqilobidan keyin Turkiston jadidlarining «taraqqiyparvarlar» oqimini tashkil qilgan radikal qismi ancha keng qamrovli, bir qator siyosiy talablarni ilgari surdi. Ular qatoriga mahalliy aholi huquqlarini kengaytirish tomon o'lkani boshqarish yuzasidan asosli islohotlar o'tkazish, o'lkaga Davlat Dumasidan aholi soniga qarab o'rin berish, asosiy demokratik erkinliklar, avvalo, milliy matbuot erkinligini ta'minlash, chorizmni konstitutsion tuzum bilan almashtirish kabilar kiradi. Rossiyadagi Fevral demokratik inqilobi Rossiyada yangi davlat tuzumi o'rnatilgandan so'ng federativ davlat shaklida muxtoriyat olishga umid bog'lagan jadidlarni ruhlantirib yubordi. Ayni paytda, milliy siyosiy partiyalar va tashkilotlar, jumladan, jadidlar tomonidan «SHo'roi Islomiya», «Ittifoqi muslimin», «Turon» kabi bir qator tashkilotlar tuzildi. Bu paytga kelganda jadidlar tub yerli aholi ijtimoiy tarkibining turli qatlamlarini o'z ortlaridan ergashtira oldilar, ular ongida musulmonlar birligini mustahkamlash, jipslashtirish hissini uyg'otdilar. Ammo ular tez kunlarda tushundilarki, Rossiyadagi Muvaqqat hukumat va uning Turkiston Qo'mitasi ham o'lkada avvalgidek mustamlakachilik siyosatini davom ettirish yo'lini tutmoqda. CHunonchi, bu siyosat Ta'sis majlisini chaqirishga tayyorgarlikda yaqqol namoyon bo'ldi. SHu vaqtdan jadidlar uchun mustaqillik va muxtoriyat yo hayot, yo mamot muammosiga aylandi va jadal siyosiy janglar boshlandi. Ular hukumatning mustamlakachilik siyosatini qattiq tanqid ostiga oldilar va Turkistonning Rossiya Demokratik Federativ Respublikasi tarkibida milliy-hududiy muxtoriyat olish uchun astoydil harakat qilishga kirishdilar. Jadidlarning dasturiy hujjatlarida diqqat-e'tibor milliy-hududiy muxtoriyatning asosiy tamoyillarini amalga oshirish mexanizmlari-Turkiston Federativ Respublikasi imkoniyatlariga taalluqli bo'lgan masalalar bo'yicha, qonunlar chiqarishni amalga oshirish uchun chaqirilgan mustaqil vakolatli o'lka hokimiyatining oliy organlari, boshqaruvi va sudi mexanizmlarini ishlab chiqish, o'z davlat tuzilishini barpo etishga qaratildi. Boshqaruvning poydevori sifatida respublika shakli tanlab olindi. Demokratik huquq va erkinliklar berilgan va konstitutsion jihatdan kafolatlanishi lozim bo'lgan demokratik jamiyatni shakllantirish-ustuvor maqsad qilib belgilandi. Turkiston jadidlari davlat mustaqilligi haqidagi o'z g'oyalarini hayotga tatbiq etishni mamlakatdagi turli ijtimoiy kuchlar o'rtasida tinchlik va kelishuvchilik, demokratik asosda shakllantirilgan Rossiya Ta'sis majlisini chaqirish bilan bog'langanliklari ham diqqatga sazovor. 1917 yil iyulda «SHo'roi islomiya»dan «SHo'roi Ulamo» tashkiloti ajralib chiqdi. Ammo Ta'sis majlisida o'rin olish masalasining muhimligini anglash, bu ikki oqimning keyinchalik qo'shilishiga va «Turk Adami markaziyati» nomi bilan ataluvchi yagona Turkiston Federalistlari partiyasining tashkil etilishiga olib keldi.

Biroq Turkistondagi oktyabr voqealari va bolsheviklarning zo'ravonlik bilan hokimiyatni egallashi ularga o'z maqsadlarini oxirigacha amalga oshirishlariga imkon bermadi. SHunga qaramay, ular Petrogradda tuzilgan Lenin boshchiligidagi bolsheviklar hokimiyatining «Rossiya xalqlari Deklaratsiyasi» (1917 yil 2 noyabr), «Rossiya va sharqning barcha musulmon mehnatkashlariga» Murojaatnoma (1917 yil 20 noyabr), hujjatlarda ko'rsatilgan millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilashi to'g'risidagi huquqlardan foydalanib, Turkiston muxtoriyati hukumatini e'lon qildilar. Uch oygina yashagan bu muxtor respublika tugatilishi oqibatida jadidlar ta'qibga uchradilar. Munavvarqori Abdurashidxonovning guvohlik berishicha, «Ittihodi taraqqiy» (1917-1920), «Milliy ittihod» (1920-1925), «Milliy istiqlol» (1925-1929) va «Turkiston Milliy Birligi» (1921-1923) (raisi Ahmad Zakiy Validiy) maxfiy tashkilotlari o'lkada hokimiyatni

din domla, 1901 yilda Qo'qonda Salohiddin domla, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov va Samarqandda Abduqodir SHakuriylar birinchi bo'lib jadid maktablarini ochadilar. Jadidchilik harakatining yirik namoyandalari jadid maktablari uchun darsliklar ham yaratganlar. Xususan, Saidrasul Aziziyning «Ustozi avval» (1903), Munavvarqorining «Adibi avval» (1907), Abdulla Avloniyning «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim» (1912) darsliklari alohida e'tiborga molikdir.

Jadidlarning xalq ma'rifati uchun kurash dasturi uch asosiy yo'nalishdan iborat bo'lgan:

YAngi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish.Umidli, iqtidorli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish.Turli ma'rifiy jamiyatlar tuzish hamda ziyolilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan gazetalarni chop etish.

SHu dasturni amalga oshirish borasida Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Abdulla Avloniy, Abdulhamid CHo'lpon va boshqa ziyolilar jonbozlik ko'rsatishdi. YAngicha o'qitish musulmon bolalariga qisqa vaqt ichida dunyoviy, diniy ta'lim berish dasturi asosida olib borildi. Bu dasturga ko'ra maktablarda o'qitish tizimi ikki bosqichdan iborat bo'lgan. Birinchi bosqich ibtidoiy qism deb atalib, uning tahsil muddati 4 yil bo'lgan. Birinchi bosqichni tugatgan shogird eski maktabda 10 yil o'qigandan ko'ra yaxshiroq savod chiqargan. Ikkinchi bosqichni muvaffaqiyatli tugatgan shogird arabcha, forscha, turkiy tilda bemalol so'zlashib, ruschada erkin gaplasha olar edilar.

Jadidlarning xalqaro aloqalari juda keng qamrovli bo'lgan. Ular Rossiya, Turkiya, Misr va boshqa mamlakatlardagi jadidchilik oqimlari dasturlaridan xabardor bo'lganlar, o'zaro safarlar, muloqotlar orqali tajriba almashganlar. 1905-1906 yilgi Rossiyadagi inqilobiy harakatlar Turkistonga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Faol kuchlar jipslasha boshladilar va jadidlar ma'rifatchilik faoliyatini jadallashtirdilar. Bu faqatgina maktablarda emas, balki jonli matbuotchilik faoliyati, jumladan, ro'znomalarning ko'plab vujudga kelishida ham ko'rindi. CHunonchi, 1906 yilda Ismoil Obidovning muharrirligida «Taraqqiy», shu yili Munavvarqori muharrirligida «Xurshid», 1907-1908 yillarda Abdulla Avloniy muharrirligida «SHuhrat», Ahmadjon Bektemirov muharrirligida «Osiyo» ro'znomalari chop etildi.

Lekin tez orada chor ma'muriyati ashaddiy shovinist N.P. Ostroumov bildirishnomasiga asoslanib, bu ro'znomalarni man etdi.

Ma'rifatchilikning yangi to'lqinida 1913-1915 yillarda «Samarqand», «Sadoi Turkiston», «Sadoi Farg'ona», «Buxoroi sharif», «Turon», 1917 yilda esa «El bayrog'i», «Kengash», «Hurriyat», «Ulug' Turkiston» gazetalari, «Oyina» jurnali kabi ommaviy axborot vositalari ham paydo bo'ldi.

Jadidchilik Stolipin reaksiyasidan so'ng yashirin tusga o'tdi. CHunonchi, Toshkent politsiyasi mahkamasiga yetkazishicha, maxfiy guruhlardan birini o'qituvchi Ahmadjonov boshqargan va u, asosan, milliy ziyolilar hamda o'quvchi yoshlar vakillaridan tarkib topgan. Qo'qondagi maxfiy guruh 50 kishidan iborat bo'lgan. Andijondagi jadidlarning yashirin tashkiloti «Taraqqiyparvar» deb atalib, maxfiy ishlar bo'yicha politsiya bo'limining ma'lumotlariga qaraganda, uning rahbarlaridan biri Ubaydulla Xo'jayev bo'lgan. SHuningdek, podsho ayg'oqchilari 1909-1916 yillar davomida mudarris va maktab o'qituvchilarining o'lkani boshqarishda islohotlar o'tkazish kerakligi haqida targ'ibotlar olib borayotganliklarini bir necha marotaba hukumatga yetkazganlar.

Rossiya Fevral demokratik inqilobi arafasida Turkiston jadidchiligi yetuk siyosiy harakatga

	"Avesto"-O'rta Osiyo xalqlari qadimgi tarixi haqidagi muhim manba. **6**. Antik davr davlatlari **7**. Ilk o'rta asr davlatlari-kidariy, xiyoniy, eftalitlar davlati, uning ichki tizimi, ijtimoiy munosabatlari, madaniyati. **8**. Turk xoqonligi uning boshqaruv tizimi. **9**. Turk xoqonligidagi ijtimoiy va madaniy hayot.
Mashg`ulotning maqsadi:O'zbek davlatchiligining shakllanishi va uning IX asrga qadar ilk rivojlanish bosqichlari haqida tushuncha berish	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyati natijalari:
Davlatchilik tushunchasi haqida ma'lumot beriladi. Davlat tuzilmalarining shakllanish shart-sharoitlari tushuntiriladi. Vatanimiz xududlarida dastlabki ishlab chiqarish jamoalarining tashkil topishi haqida tushuncha beriladi. Mehnat taqsimoti, mahsulotlarni ayirboshlash, bozor va shaharlarning xususiy mulk va turli ijtimoiy tabaqalarning vujudga kelishi tushuntiriladi. O'lkamiz xududlarida dastlabki davlatlarning tashkil topishi manbalar asosida ochib beriladi. Eron ahamoniylari, yunon-makedon qo'shinlarining O'rta Osiyo davlatlarini bosib olishi va boshqaruv tizimi; "Avesto"-O'rta Osiyo xalqlari qadimgi tarixi haqidagi muhim manba ekanligi haqida bilim va ko'nikmalar beriladi.	Davlatchilik tushunchasi. Ilk davlatlar paydo bo'lishining asosiy omillari; O'rta Osiyoda ilk davlat uyushmalarining paydo bo'lishi (Katta Xorazm, Qadimgi Baqtriya, So'g`diyona); Eron ahamoniylarining O'rta Osiyo davlatlarini bosib olishi va boshqaruv tizimi; Yunon-makedon qo'shinlarining O'rta Osiyoga yurishi va aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli; "Avesto"-O'rta Osiyo xalqlari qadimgi tarixi haqidagi muhim manba ekanligi haqida bilim va ko'nikmaga ega bo'ladi.
O'qitish usullari va texnika	Ma'ruza, namoyish, aqliy hujum, klaster, blits-so'rov.
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, kompyuter slaydlari, doska, bo'r, latta, skoch, A**3** formatli qog`oz.
O'qitish shakllari	Yakka tartibda, frontal, guruhlarda ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Kompyuter, proyektor (yoki proyektor va LCD panel) mavjud auditoriyalar.
Monitoring va baholash	Og`zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

Ma’ruzaning texnologik xaritasi

Ish jarayonlari vaqti	Faoliyatning mazmuni	
	O’qituvchi	**Talaba**
I-bosqich. Kursga va mavzuga kirish. (**20** minut)	**1.1**. O’quv kursining nomini aytib, kurs doirasida dastlabki umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi (**1**-ilova).	Tinglaydi.
	1.2. Mazkur kurs bo’yicha o’rganiladigan mavzular bo’yicha nazariy va amaliy mashg`ulotlar, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma’lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro’yxati bilan tanishtiradi (**2**-ilova).	Yozadi, tinglaydi.
	1.3. Birinchi o’quv mashg`uloti mavzusi, maqsadi va o’quv faoliyati natijalarini aytadi.	Mavzu nomini yozib oladilar.
II-bosqich. Asosiy (**50** minut)	**2.1**. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida diqqatni jamlovchi savollar beradi: Zardo’shtiylik dinining vujudga kelishdagi tarixiy shart-sharoitlar haqida gapiring. “Avesto”da zardo’shtiylik dini tamoyillari va qonun-qoidalarining asoslab berilishini izohlang. “Avesto”da qadimgi ajdodlarimizning jamiyatni boshqaruv tizimi, ijtimoiy turmushi va madaniy hayotiga oid ma’lumotlar haqida gapirib bering. Savolga berilgan javoblarni tahlil qiladi.	Savollarga javob beradi.
	2.2. Ekranga “Avesto kitobi Vatanimiz tarixini o’rganishda muhim manba” nomli (**1**-sonli) slaydni qo’yib, uni sharhlaydi.	**1**-sonli slayd mazmunini o’rganadi, kursning roli va ahamiyati haqida o’z fikr-mulohazalarini aytadi.
	2.3. Ekranda “Avesto” qadimgi tariximizni o’rganishda muhim, noyob manba ekanligi ko’rsatiladi (**2**-sonli slayd), ilk davlatlarning boshqaruv usuli aks etgan **3**,**4**,**5-slayd**lar ko’rsatiladi. Rejaning **2**-savoli yuzasidan talabalarga o’z fikr-mulohazalarini bayon qilib berishini so’raydi. Talabalarning fikrlari umumlashtiriladi va xulosa qilinadi.	**2**-sonli slayd mazmuni bilan tanishadi
	2.4. Blits-so’rov orqali “Zardo’shtiylik”ning dinlar tarixida tutgan o’rni haqida bir necha talabalardan so’raladi (**3**-ilova), olingan javoblar tahlil etilib, xulosa qilinadi.	Bir necha talaba javob beradi.
III-bosqich. Yakuniy bosqich. (**10** minut)	**3.1**. Mavzu bo’yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo’yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma’lum qiladi.	Savollarga javob beradi.

qo’zg’oloni bo’ldi. Jizzaxdagi qo’zg’olonga Nazirxo’ja Abdusalom o’g’li, Abdurahmon Jevachi kabi xalq yo’lboshchilari boshchilik qilib, aholini mustaqil beklik tuzishga chaqirdilar. Qo’zg’olon davomida temir yo’l bekatlari, ko’priklar vayron qilingan.

Jizzaxning yangi shahariga yetib kelgan polkovnik Afanasevning jazo otryadi qo’zg’olonchilardan yengildi. SHundan keyin Turkiston general-gubernatori yuborgan polkovnik Ivanov boshchiligidagi katta harbiy kuchlarga ega bo’lgan jazo otryadi qo’zg’olonni shafqatsizlik bilan bostiradi. CHor qo’shinlari bilan so’nggi to’qnashuv 1916 yil 21 iyulda Qilich qishlog’ida bo’lib o’tdi. Mingga yaqin kishi hibsga olinib, jazolandi. 1916 yilgi qo’zg’olon hukmron sinflarning zulmiga qarshi qaratilgan xalq qo’zg’oloni edi. Qo’zg’olonni harakatga keltirgan asosiy kuch dehqonlar va hunarmand kambag’allar bo’ldi.

Qo’zg’olonchilarni mahalliy ziyolilar, ruhoniylarning bir qismi qo’llab-quvvatladi. Qo’zg’olon bostirilgach, uning yo’lboshchilari jazoga tortilib, o’limga mahkum etildi. Jami 51 kishi qatl etildi, 168 kishi surgun qilindi, 128 kishi qamaldi, 228 kishi turli jazo xizmatlariga safarbar etildi. 1916 yilgi qo’zg’olon butun mustamlakachilik davomida Turkistondagi eng qudratli va uyushgan qo’zg’olon bo’ldi.

Jadidchilik harakati

XIX asr oxiri-XX asrning boshlarida siyosiy, madaniy, iqtisodiy jihatdan inqiroz holatiga tushib qolgan mustamlaka tufayli rivojlanish past darajada bo’lgan o’lkada Turkiston ziyolilari chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmidan qutulish, o’z milliy davlatchiligini tuzish, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga yo’l ochish, xalqqa ziyo tarqatish choralarini ko’rdi. Bu borada jadidchilik harakati katta rol o’ynadi.

Jadidchilik rus mustamlakachiligiga qarshi milliy demokratik harakat bo’lib, u o’sha davr Turkistondagi qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashayotgan xalqlarni ma’rifatlashtirish, jamiyat hayotida ijtimoiy va madaniy islohotlar o’tkazish, pirovardida milliy mustaqillik g’oyalarini hayotga tadbiq etish maqsadini o’z oldiga qo’ygan edi.

Turkistonda jadidchilik g’oyalari XIX asrning 90-yillaridan yoyila boshladi. Bu harakat XX asrning 30-yillari oxirlarigacha o’lka ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim rol o’ynadi. Bugungi kunda respublikamiz tarixchi olimlari jadidchilik harakatida quyidagi uchta bosqichni farqlashmoqda: 1) XIX asr oxirlaridan 1915 yilgacha-ma’rifatchilik; 2) 1915 yildan-1918 yil fevraligacha -muxtoriyatchilik; 3) 1918 yil fevralidan-20-yillar oxirlarigacha mustabid sovetlar davridagi faoliyati.

Jadidchilik Rossiyaga qaram bo’lgan musulmon xalqlari orasida dastlab Qrimda XIX asrning 80-yillarida paydo bo’ldi. Uning asoschisi diniy-dunyoviy ilmlarni chuqur egallagan Ismoilbek Gasprali (1851-1914) bo’ldi. Ismoilbek 1884 yilda jadid maktabi tashkil etib, 40 kunda 12 bolaning savodini chiqaradi. Uning o’qitish usuli «usuli savtiya», ya’ni «yangi usul» nomi bilan shuhrat qozondi. «Jadid» arabcha so’z bo’lib, «yangi» degan ma’noni bildiradi. Ismoilbek g’oyalarini qabul qilgan yangilik tarafdorlari «jadidlar», uning g’oyalari esa «jadidchilik» nomini oldi. Ismoilbek Gasprali darslik yaratadi, o’zining «Tarjimon» (1883-1914) gazetasini tashkil etib, jadidchilikni turkiy xalqlar orasida keng targ’ib qiladi. Bu gazeta Toshkent va boshqa shaharlarga ham tez yoyiladi.

I. Gasprali 1893 yilda Toshkent, Samarqand va Buxoroda bo’ldi. Buxoroda amir Abdulahadni jadid maktabi ochishga ko’ndiradi. Bu maktabga «Muzaffariya» nomi beriladi. 1898 yilda To’qmoqda (Qirg’iziston) ham shunday maktab ochildi. 1899 yilda Andijonda SHamsud-

barcha qatlamlari ishtirok etdi. Mahalliy aholining milliy-madaniy an'analariga xos diniy bayram «Qurbon hayit» kuni boshlangan bu qo'zg'olon, tezda chor askarlari tomonidan bostirilib, qo'zg'olonchilardan 8 kishi dorga osib o'ldirilishga, 15 kishini 2 yil muddat bilan mahbuslar rotasiga yuborilishiga, 2 kishini olti oydan qamoq jazosini o'tashga hukm qilishdi. Lekin chor Rossiyasi dunyo matbuotchilari oldida bu jazolar shov-shuvga sabab bo'lishidan cho'chib, o'lim jazoni umrbod surgun bilan almashtirdi. Bu qo'zg'olon Toshkent shahrining o'zida yuz bergan bo'lsa-da, uning aks sadosi butun Turkiston o'lkasi bo'ylab tarqaldi.

XIX asr oxirlarida Rossiyaning mustamlakachilik siyosatiga qarshi o'lka xalqlarining milliy ozodlik harakatining yana bir yorqin namunasi 1898 yil may oyida Andijonda bo'lib o'tgan Dukchi Eshon qo'zg'oloni orqali namoyon bo'ldi. Bu qo'zg'olon rahbari Muhammadali Eshon o'z davrining obro'li, diniy va dunyoviy ilmlardan boxabar, davr siyosatini to'g'ri tushungan shaxs edi. U o'z muridlari va hamfikrlari bilan bosqinchilarning xalqqa qarshi olib borayotgan zulmkor siyosatini qoralar va bunga qarshi har qanday harakatni ma'qullar edi.

Dukchi Eshon Mingtepa qishlog'idan turib Farg'ona shaharlari va qirg'iz yerlaridagi mustamlakachilardan norozi aholini birlashtirish va bu zulmni ag'darib tashlash uchun harakat boshladi. Qo'zg'olon olib borish usullaridan bexabarlik, birlikning yo'g'ligi, uyushmaganlik, qurol-aslaha va moddiy bazaning yetishmasligi qo'zg'olonning tezda mag'lubiyatga uchrashiga sabab bo'ldi, ayniqsa qo'zg'olonning kelishilgan muddatdan oldin boshlanishi, harakat mag'lubiyatining asosiy sabablaridan biri bo'ldi. Qo'zg'olon bostirilib, uning rahbarlari qattiq jazolandi. Qo'zg'olon natijasida Farg'ona viloyatida va butun Turkiston general-gubernatorligida harbiy politsiya rejimi kuchaytirildi.

XX asr boshlariga kelib Rossiyadagi ijtimoiy, siyosiy vaziyat Turkistonga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. O'lka hududida demokratik-inqilobiy harakatlar avj ola boshladi. Bu harakatlarni biz nafaqat rus aholisi orasida, balki mahalliy mehnatkashlar orasida ham kuzatamiz.

Turkiston o'lkasi hududida temir yo'llarning qurilishi, zavod va fabrikalarning ishga tushirilishi Rossiya markaziga ko'plab o'lka boyliklarini chiqib ketishini osonlashtirdi. Bu jarayon mahalliy aholi ahvolini yanada og'irlashuviga sabab bo'ldi. Turkiston o'lkasi hududida dehqonlar g'alayonlari, norozilik chiqishlari ortib bordi.

Rossiyaning 1914 yilda boshlagan birinchi jahon urushiga tortilishi natijasida mahalliy xalqdan olinadigan soliqlar miqdori oshib bordi. Turkiston o'lkasi hududida yersiz dehqonlarning soni ko'paydi. CHor hukumatining 1916 yil 25 iyunda «Urush borayotgan joylarda mudofaa va harbiy inshootlarni qurish, shuningdek, davlat mudofaasi uchun zarur bo'lgan jamiki boshqa ishlarni bajarish uchun rus bo'lmagan aholining erkak qismini jalb etish to'g'risidagi» farmoni e'lon qilindi. Ushbu farmonga muvofiq hozirgi O'zbekiston hududlaridan 19-43 yoshgacha bo'lgan 250 mingdan ziyod erkak aholi front ortidagi ishlarga (mardikorlikka) chaqiriladigan bo'ldi.

Mardikorlikka ketadiganlar uch oyda qaytib kelishlari va bungacha ularning oilalari hukumat tomonidan ta'minlanishi va'da qilindi. Ro'yxatga olish davomida amaldorlar boylik orttirish payida bo'lishib, boylarning bolalarini pul evaziga ro'yxatga kiritishmadi. Bu xalq noroziligining ortib borishiga sabab bo'ldi. 1916 yil iyul oyidan mahalliy aholining qo'zg'oloni boshlandi. 4 iyul kuni Xo'jandda, 5 iyul Samarqand viloyatida, 9 iyul kuni Qo'qon uyezdida, 10 iyul kuni Marg'ilonda, 11 iyulda Samarqand va Toshkentda mardikorlikka olishga qarshi qo'zg'olonlar boshlandi. 1916 yil 18 iyulda butun Turkiston harbiy holatda deb e'lon qilindi.

1916 yildagi harakatlarning eng kuchaygan nuqtasi 13 iyul kuni boshlangan Jizzax

	3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi.	Tinglaydi.
	3.3. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi (**4**-ilova).	Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlarni yozib oladi.
	3.4. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi (**2**-ilova).	Yozadi.

ASOSIY ADABIYOTLAR RO'YXATI

2-ilova

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., «Sharq» **1998**
2. Prezident Islom Karimovning «Avesto» kitobining **2700** yilligiga bag`ishlab barpo etilgan yodgorlik majmuining ochilish marosimidagi nutqi. «Xalq so'zi», **2001**, **6** noyabr.
3. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. T., «Sharq», **2000**
4. Asqarov A. O'zbekiston tarixi (eng qadimgi davrlardan milodning V asrigacha). T., «O'qituvchi», **1994**.
5. Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. T., "O'qituvchi", **1994**.
6. Maxmudov T. «Avesto» haqida. T., «Sharq» **2000**.
7. Jo'rayev U., Saidjonov I. Dunyo dinlari tarixi. T., «Sharq», **1998**.
8. Sagdullayev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. T., «O'qituvchi», **1996**.
9. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. T., «O'zbekiston», **1997**.
10. Sulaymonov R.X., Ishoqov M.M. Zardo'shtraning vatani va yashagan davriga oid mulohazalar. «O'zbekiston tarixi» jurnali, **1**-son. **1999**.

1-ilova
1-slayd

“АВЕСТО” китоби – Ватанимиз тарихини ўрганишда муҳим манба

- **ЗАРДУШТ** – зардуштийлик дининнг асосчиси, асли исми Заратуштра, Спитама уруғидан бўлиб, отасини – Пурушасп, онасини – Дуғдова деб аташган.
- **ЗАРДУШТИЙЛИКНИНГ МУҚАДДАС КИТОБИ** – “Авесто” бўлиб, аввал халқ оғзаки ижодида шакиллаган, подшо ДОРО I даврида 12 минг қорамол терисига битилган, Македонский истеълосидан сўнг Аршоҳийлар ва Сосонийлар даврида тўла китоб ҳолига келтирилган.
- **АВЕСТО** – бу китоб 21 наск (қисмдан) иборат бўлган, ҳозиргача 4 китоби етиб келган. Улар қуйдагилардан иборат:
- **МАЗДА ЯСНА** – “мутлоқ оқил” зотга сиғиниш дегани, Зардуштийлик дини шундай номланган, ўрта асрлардан бошлаб дин пайғамбар номи билан атала бошланган.
- **ЯСНА** – намоз учун зарур дуолар.
- **ВИДЕВДОТ** – Ахурамазданинг душманлари бўлган девларни мавҳ этишга мўлжалланган дуолар тўплами.
- **ВИСПРАТ** – намоз ва зикру сано матнлари.
- **ЯШТ** – яштлар Ахурамаздадан бошлаб у яратган турли маъбудалар шанига айтилган, ўқилиши кўп савобли ҳисобланган алқовлар тўпламини ўз ичига олади.
- **ХУРДАК АВЕСТО** – яъни Кичик Авесто – турли насклардан кундалик эътиқод маросимлари учун энг зарур дуолар тўплами.
- **ЗАРДУШТИЙЛИК ИЙМОНИНИНГ 3 ТАЯНЧИ** – фикрлар софлиги, сўзнинг собитлиги, амалнинг инсонийлиги.
- **МУҚАДДАС ИЧИМЛИГИ** – Хаома деб номланган, Эфедра дарахти баргларининг шарбати ва сут қўшиб тайёрланган. Бу ичимлик ибодатдан олдин ичилган.
- **ЭЗГУЛИК ХУДОСИ** – Ахурамазда.
- **ЁВУЗЛИК ХУДОСИ** – Ахриман.
- **ДАВЛАТ БОШҚАРУВИ** – Ўрта Осиёда жамиятнинг асосини катта патриархат оила ташкил этган. Булар қуйидагилардан иборат:
- **НМАНА** – оила жамоаси;
- **ВИС** – уруғ жамоаси;
- **ВАРЗАНА** – ҳудудий қўшничилик жамоаси;
- **ЗАНТУ** – жамоалар бирлашмаси қабила;
- **ДАХЮ** – қабилалар иттифоқи, вилоят, мамлакат маъносини ҳам берадилар;
- **ВАРЗАНАПАТИ** – оқсоқоллар кенгаши;
- **ВЪЯХА** – халқ йиғилиши.

uchragan qo’zg’olonchilar 1876 yili Andijonda, Oloy vodiysida kurashni davom ettirdilar. Ammo harbiy jihatdan kuchlar teng emas edi. 1876 yil 1 martda Po’latxon tutib olinib Marg’ilonda osib o’ldirildi. Boshqa qo’zg’olonchilar ham qattiq jazolandi. Podshoning buyruQi bilan Qo’qon xonligi tugatilib, Farg’ona viloyati tashkil etildi.

Farg’ona vodiysida bo’lib o’tgan 70-80-yillardagi xalq harakatlarida Qurbonjon dodxoh, yetimxon, Darvishxon to’ra, YOqubbek boshchiligidagi qo’zg’olonlarni alohida qayd qilishimiz zarur. Qurbonjon dodxoh rus qo’shinlariga qarshi kurashda sharq ayollarining qahramonligini, jasoratini namoyon etdi. Manbalarning ma’lumot berishicha, general Skobelev sulh tuzish uchun mayor Ionovni Qurbonjon dodxoh huzuriga jo’natadi. Ammo Qurbonjon dodxoh mayorni qabul qilmay faqat o’z mavqei bilan teng bo’lgan sarkarda bilangina muzokaralar olib borishi mumkinligini bildiradi. CHorasiz qolgan rus generali Skobelev u bilan sulh tuzishga va uni «Oloy malikasi», deb tan olishga majbur bo’ldi. Qurbonjon dodxohning nabiralari 1898 yilgi milliy ozodlik qo’zg’olonida ham faol qatnashganlar Rus amaldorlari doimo Oloy malikasidan hayig’ishgan. SHuning uchun gubernatorlar uning oldiga tez-tez kelib turishgan. 1901 yilda Rossiya imperiyasi Qurbonjonga imperatritsaning sovg’asini shaxsan topshirgan. Qurbonjon dodxoh 1907 yilda O’shda 96 yoshida vafot etgan.

O’rta Osiyo xalqlarining mustamlakachilarga qarshi kurashida YOqubbek va u boshqargan yettishahar davlati (1865-1877) ham muhim o’rin egallaydi. CHunki ular Qo’qon, Buxoro, Xiva vatanparvarlarining rus bosqinchilariga qarshi kurashlarida yordam berib turishgan. SHu sababli Turkistondagi so’nggi mustaqil davlatni tugatish Rossiya uchun kechiktirilmas vazifa bo’lib qoldi. 1877 yil 22 iyunda rus qo’shinining G’uljaga bostirib kirishi shu maqsadni amalga oshirishga qaratilgan edi. Amir YOqubbekning to’satdan vafot etishi yettishahar davlati qo’shinining mag’lubiyatga uchrashiga sabab bo’ldi. Oqmachit, CHimkent, Toshkent mudofaalarini tashkil qilishda jonbozlik ko’rsatgan YOqubbek Turkiston ozodligi uchun kurash yo’lida jon baxshida etgan qahramonlarimizdan biridir.

1878 yili Mingtepada chorizmning siyosiy-iqtisodiy zulmiga qarshi yetimxon boshchiligidagi g’alayon ko’tarildi. Bunday g’alayon 1879 yilda Farg’ona viloyatida ham sodir bo’ldi. Bu qo’zg’olonlar kuch bilan bostirilsa ham aholining qahr-g’azabidan xavfsiragan Farg’ona viloyati gubernatori g’ayri-qonuniy soliq yig’uvchilarni ishdan olib tashlashga majbur bo’ldi.

1889-1890 yillarda Farg’ona vodiysi va Toshkent hududlarida ko’plab xalq harakatlari, qurolli to’qnashuvlar bo’lib o’tdi. SHulardan biri Darveshxon qo’zg’olonidir. Andijon uyezdining Qo’rg’ontepa volostida yuqori tabaqaga mansub bo’lgan vatanparvar Darveshxon qo’shin to’plashga kirishdi. U mustamlakachilik tuzumiga qarshi ochiqdan-ochiq qurolli qo’zg’olonga tayyorgarlik ko’rdi, ammo Farg’ona viloyati harbiy ma’murlari katta kuch yuborib Darveshxon kuchlarini tor-mor etdi, uning yordamchisi Mo’minboy ushlab olinib, dorga osildi.

1892 yilgi qo’zg’olon ko’plab tarixiy adabiyotlarda rus hukumatini o’lkaning bir qancha shaharlarida vabo kasali tarqalishining oldini olish uchun Toshkent shahrida ko’rilgan chora-tadbirlariga qarshi ko’tarilgan qo’zg’olon deb ta’riflangan bo’lsa-da, aslida bu qo’zg’olon chor Rossiyasining o’lkada ko’p yillar davomida olib borgan mustamlakachilik siyosatiga qarshi qaratilgan edi.

Rus hukumatining vaboni oldini olish uchun ko’rgan chora-tadbirlari davomida mahalliy aholining diniy e’tiqodlari, urf-odatlari hisobga olinmaganligi natijasida sabr kosasi to’lgan xalq ommasining noroziligi kuchaydi. Natijada bu qo’zg’olonda Toshkent shahri aholisining

asta-sekin mahalliy aholining moddiy va ma’naviy qashshoqlanishiga, ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlarning keskinlanishiga olib kelib, chorizm mustamlakachiligiga qarshi qaratilgan milliy ozodlik harakatlarining kuchayishiga sabab bo’ldi.

CHorizm istibdodiga qarshi turkiston xalqlarining milliy-ozodlik kurashi. Jadidchilik:

O’lkada XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib chor Rossiyasining mustamlakachilik, uluQ davlatchilik, shovinistik siyosati mahalliy aholining milliy ozodlik harakatlari boshlanishiga asosiy sabab bo’ldi.

Tarixiy manbalarda, arxiv hujjatlarida chor Rossiyasi qo’shinlarining O’rta Osiyo hududiga kirib kelishi bilan, unga qarshi xalq ozodlik harakatlari boshlanganligi va bu chor hukumatining aQdarilishiga, qolaversa mustaqillikka erishganimizga qadar davom etganligi haqidagi ma’lumotlar beriladi. Bu ma’lumotlar asosida O’rta Osiyo xalqlarining chorizmga qarshi olib borgan quyidagi eng yirik va ommaviy tus olgan kurashlarini qayd qilishimiz mumkin: 1837-1846 yillarda Sulton Kenesarin rahbarligidagi, keyinchalik Buxoro amirligining, SHahrisabz bekligidagi harakatlar, 1871 yilda Eshon Eshmuhammad boshchiligida Sirdaryo viloyatidagi chiqishlar; 1871 yildagi Farg’onada yetimxon qo’zg’oloni; 1872 yilda CHirchiqdagi isyonlar, 1873-76 yillar Qo’qondagi Po’latxon qo’zg’oloni; 1892 yildagi Toshkent qo’zg’oloni; 1898 yildagi Andijonda Dukchi Eshon qo’zg’oloni; 1899 yildagi Sirdaryo viloyatidagi harakatlar, 1916 yildagi Jizzax qo’zg’oloni va boshqalar.

XIX asr 70-yillar boshlaridagi Farg’onadagi xalq harakatlarini alohida qayd etish lozim. 1868 yilda Kaufman bilan sulh shartnomasi tuzib, Qo’qon xonligining katta hududlarini Rossiya ixtiyoriga bergan va Rossiya hukmronligini tan olgan Xudoyorxon siyosatidan nafaqat oddiy xalq, balki yirik yer egalari ham norozi edilar. Qo’qon xonligida elchi va josus vazifasini bajargan polkovnik SHaufus ma’lumotlariga qaraganda norozi beklar tepasida Abdurahmon oftobachi turgan. 1872 yilda xon siyosatiga qarshi xalq harakati ayniqsa kuchaydi. Bundan foydalangan Abdurahmon oftobachi o’z tanishi mulla Ishoq O’asan o’g’lini qirQizlar orasida Po’latxon nomi bilan qo’zg’olon ko’tarishga undaydi va o’zi ham bu harakatga qo’shiladi. 1873 yilda boshlangan bu qo’zg’olonda oddiy xalq, dehqonlar, hunarmandlar faol ishtirok etdilar va bu harakat butun Farg’ona vodiysi bo’ylab yoyildi. Xudoyorxonning o’g’li Nasriddinbek boshchiligidagi xon qo’shinlari ham qo’zg’olonchilarni qo’llab-quvvatladilar. Bu voqeadan qo’rqib ketgan Xudoyorxon rus hokimiyatidan boshpana so’rab, Toshkentga qochdi. Qo’qon taxtiga uning o’g’li Nasriddinbek (1875-76) xon qilib ko’tarildi.

Qo’zg’olonchilar kelishuviga binoan esa Po’latxon xon etib saylanishi kerak edi. Nasriddinbekning xonlikka ko’tarilishi va uning ham ruslar bilan kelishuv siyosatini olib borishi, qo’zg’onlochilar o’rtasida norozilik keltirib chiqardi. Natijada Marg’ilon, Namangan, Andijon hududlarida Po’latxon tarafdorlari yerlarni kambag’allarga bo’lib berib, xon siyosatiga qarshi chiqdilar. Qo’qon xonligining ruslarga qarashli bo’lgan yerlarida ham norozilik chiqishlari avj ola boshladi. Bu rus hukumatini xavotirga solib qo’ydi va Kaufman Qo’qon xonligini tugatish to’g’risida podshoning roziligini so’rab, iltimosnoma jo’natdi. Qo’qon xonligi hududiga esa Skobelev boshchiligida harbiy jazo otryadi kiritildi. Bu vaqtda Nasriddinxon hokimiyatdan chetlashtirilib, vodiyda Po’latxonning mavqei oshib ketgan edi.

G’arbiy jihatdan ustun bo’lgan rus qo’shinlari qo’zg’olonchi-larni tezda mag’lubiyatga uchratdi. Po’latxon qo’shinlari harakatining ikkinchi bosqichi 1875 yili Ohangaron, Telov, Pskent va Toshkentda bo’lib o’tgan harakatlarni o’z ichiga oladi. Bu harakatlarda qattiq zarbaga

2-slayd

“Avesto" qadimgi tariximizni o'rganishda muhim, noyob manba ekanligi haqida qanchalik bilimga ega ekanligingizni quyidagi jadval asosida sinab ko’ring:

№	Zardushtiylik dini	Yashtsh	Quyosh	7 yosh	Axriman	Turonzamin	Avesto	Xamatushtra	Zaratushtra	Ezgulish	Axuramazda	Yasna	Ossuariy	Mitra	15 yosh	Vispa-rat	Zoro-aster	Olov	Videvdat
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18
1	Asoschisi va uning qavmi								+								+		
2	Muqaddas ichimligi							+											
3	Vatani qayerda?					+													
4	Muqaddas kitobi						+												
5	Dinning nomlanishi																		
6	Ezgulik xudosi										+								
7	Suyakdon												+						
8	Diniiy tarbiya necha yoshdan boshlangan?			+															
9	Avesto kitobining nechtasi bizgacha yetib kelgan ularning nomlari	+										+							+
10	Quyosh xudosi													+					
11	Baxt va boylik qushi														+				
12	Balog`at yoshi															+			
13	Yovuzlik xudosi				+														
14	Asosiy e’tiqodi nimada?																		
15	Mehrobi		+																
16	Dinni Yevropada qanday atashgan?																	+	
17	Dinga davlat maqomini bergan davlat qaysi?																		
18	Yer yuzidagi 1chi podshox																		

"Ch A R X P A L A K" texnologiyasi
"Ch A R X P A L A K"
texnologiyasining javobi

2-Mavzu "Avesto" kitobi Vatanimiz tarixini o'rganishda muhim manba	
Savollar	**Javoblar**
1	**8, 16, 23**
2	**7**
3	**5, 31**
4	**6**
5	**20, 21, 27**
6	**10**
7	**12**
8	**3**
9	**1, 11, 15, 18**
10	**13**
11	**32**
12	**14**
13	**4**
14	**9, 19, 30**
15	**2, 12**
16	**27**
17	**22**
18	**25**
19	**17, 24, 26, 28**
20	**29**

"TALABALAR" (O'yin texnologiyasi)

Amaliy mashg`ulotda talabalarning, o'tilgan "O'zbekiston hududida ilk o'rta asrlarda vujudga kelgan davlatlar" (**5-8** asr o'rtalarigacha) mavzusi bo'yicha qanchalik ma'lumotga ega ekanliklarini bilish uchun **"Talabalar" (O'yin texnologiyasi)** dan foydalaniladi.

Bu texnologiya asosida talabalar Eftalitlar davlati, uning ichki tizimi, ijtimoiy munosabatlari va madaniyatini hamda Turk xoqonligi uning boshqaruvi va ijtimoiy va madaniy hayotini ochib berish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

"Talabalar"(O'yin texnologiyasi)-quyidagicha: Auditoriyadagi barcha talabalar o'tilgan va o'tilayotgan mavzu yuzasidan o'zlarini qiziqtirgan savollarni yozadilar. Amaliy mashg`ulot davomida yozilgan savollarni o'qituvchi yig`ib olib, aralashtirib, talabalardan birma-bir shu savollarni tanlab olishlariga imkon beradi.

Har bir talaba savolga og`zaki aniq va lo'nda javob berishi talab etiladi. Agar talaba savolga noaniq javob bersa, savolni yozgan talaba aniqlik kiritadi. O'qituvchi talabaning javobiga qarabuni baholaydi.

Bu o'yin texnologiyasi qo'llanganda talaba izlanadi, fikr almashadi, aqli charxlanadi. Amaliy mashg`ulotda faol ishtirok etmayotgan talabani faollashtiradi.

Turkistonga ko'chirib keltirishi bu maqsadga erishishda katta o'rin tutadi.

CHorizm Turkistonni rus inqilobchilari va sotsial-demokratlarini surgun qiladigan makonga aylantirdi. Markaziy Rossiya, Kavkazortidan kelgan Rossiya monarxiyasining minglab raqobatchilari Turkistonning yirik shaharlariga joylashib oldilar.

Rossiyadan ko'chirib keltirilganlarga katta imtiyozlar berildi, ularning joylashishi, dehqonchilik qilishi uchun ko'p miqdorda mablag'lar ajratildi, o'zini o'nglab olgunga qadar oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlab turildi.

YAngi tashkil topgan rus qishloqlari aholisi mahalliy aholiga nisbatan ancha ko'proq ekin maydonlariga ega bo'ldi, ma'lum muddatgacha soliqdan ham ozod qilindi. Natijada, ko'chirib keltirilganlar qisqa vaqtda ishlab chiqarishning texnikaviy zaminini ham yaxshilab oldilar. Bunday imtiyozlarni chor ma'murlari, «Rossiyadan ko'chib kelayotganlar bo'sh yerlarni o'zlashtirishga, bog'lar yaratishga yordam beradi», deb ko'rsatdi. Aslini olganda qashshoqlashib ketgan yuz minglab aholining O'rta Osiyoga ko'chirib keltirilishi Rossiyada tobora chuqurlashib borayotgan ichki ziddiyatlarni hal etishning bir yo'li bo'ldi.

Mustamlaka o'lkada ko'p sonli rus aholisining mavjudligi Rossiya uchun harbiy va siyosiy tayanch bo'ldi. Ular ayni bir vaqtda mahalliy xalqlarning mustamlakachilik tuzumiga qarshi bo'lgan harakatlarini bo'g'ib turish uchun tayanch vazifani bajardilar. CHorizmning Turkistondagi madaniy-ma'rifiy ishlari mustamlakachilik siyosatiga to'la bo'ysundirildi. Bu boradagi siyosat mahalliy aholining ma'naviy hayotiga aralashmaslik deb ko'rsatilgan bo'lsa-da, aslida aholini ruslashtirish, milliy madaniyatini cheklash, kamsitishdan iborat bo'ldi. SHu maqsadda dastlabki tadbirlar yevropa turmush tarzini ifoda etuvchi maktablarni ochishdan boshlandi. O'lkada joriy etilgan rus-tuzem maktablari haqidagi loyihaga binoan 1884 yili Toshkentda dastlabki rus-tuzem maktabi ochildi.

Podsho ma'murlari mahalliy maktablardagi ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirishni mahalliy aholini ruslashtirish borasidagi katta to'siq deb qaradilar. SHu sababli eski maktablarda o'qish-o'qitish ishlarini yaxshilash uchun biror bir tadbir ko'rilmadi. Maktablarning ahvoli Rossiya bosqinidan avval qanday bo'lgan bo'lsa, shundayligicha qolib ketaverdi.

Rossiya Turkistonni istilo qilgach, rus ma'murlari o'z mavqelarini mustahkamlash uchun mahalliy xalqning ayrim an'analaridan, urf-odatlaridan foydalanishga urindilar va shu maqsadda diniy aqidalardan, mahalliy xalq o'rtasida obro'-e'tibor qozongan shaxslardan, ruhoniylardan foydalandilar. Mahalliy xalqlarning tarixiy qadriyatlariga, diniy e'tiqodlariga ta'sir o'tkazish, ularni ma'naviy qaramlikda ushlash uchun Rossiya ma'muriyati, tajribali mustamlakachi davlatlarning o'z mustamlakalarida olib borgan missionerlik siyosatlaridan foydalandilar. Ostroumov va boshqa missionerlarning o'lkadagi faoliyati buning yorqin misolidir.

Mahalliy aholining yashash tarzi, sihat-salomatligini yaxshilash borasida ham biron-bir tadbir amalga oshirilmadi. Guberniyalarda, uyezdlarda bir yoki ikki vrach bo'lib, ular ham asosan, soldatlar va rus aholisiga yordam ko'rsatish bilan band bo'lganlar.

Masalan, 250 ming qoraqalpoq aholisi orasida atigi bitta shifokor bor edi. Vrachlar yetishmasligini, sog'liqni saqlash ishlarining bunday ahvolini chor ma'murlari «mahalliy aholi kuchli, sog'lom va kasal bo'lmaydi. Ular yashaydilar va vaqti kelganda o'ladilar. Tarqalgan epidemiyalarga qanchalik pul ajratilmasin, baribir yetmaydi», - deb chorizmning shovinistik siyosatini yaqqol namoyish etdilar.

O'lkada mustamlakachilikni kuchaytirishga qaratilgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jarayonlar

CHor Rossiyasi Turkiston o'lkasini egallagan kunlaridan boshlab o'zining iqtisodiy mustamlakachilik niyatlarini amalga oshirishga kirishdi.

Buning uchun, birinchi navbatda, Rossiya gubernyalaridagi sanoat korxonalarini muntazam ravishda xom-ashyo bilan taa'minlab turuvchi temir yo'llar qurildi. SHu maqsadda 1881-1886 yillarda Mixaylovskiy ko'rfazidan CHorjo'yga Kaspiyorti temir yo'li qurildi, 1888 yilda bu yo'l uzaytirilib, Samarqandga yetkazildi. 1906 yilda Toshkent - Orenburg temir yo'li ishga tushirildi. 1912 yilda Farg'ona vodiysi ham Rossiya bilan temir yo'l orqali bog'landi.

Mustamlaka Turkistonda temir yo'llarni qurib bitirilishi o'lkani Rossiya sanoatining g'ildiragiga yanada mahkamroq bog'ladi. O'lkaning xom-ashyo yetkazib beruvchi manba sifatidagi o'rni mustahkamlangach, bu yerga turli firma va birjalar kirib kela boshladi va ular Turkistonning iqtisodiy hayotida jadallik bilan o'z ta'sirini kuchaytirib bordi. Ular o'lkadan xom-ashyo olib ketish, Rossiyadan sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlari olib kelib sotish bilan cheklanmay sug'oriladigan yerlarni sotib olib paxta ekishni kengaytirdilar. Paxtachilikning rivojlanishi bunday firma-birjalar, mahalliy sudxo'r va savdogarlar uchun katta imkoniyatlar yaratib berdi. Ular asosan xom-ashyo yetishtirish yo'liga o'tib olgan dehqonlarga kelasi yil oladigan hosili hisobidan pul qarz berar edilar. Dehqonlarning moddiy ahvoli og'irlashgan sari ularning hosildan tushgan daromadi qarzini to'lashga, yerga ishlov berishga, oilasiga oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olishga ham yetmas, ikkinchi tomondan katta yer maydonlari mahalliy boylar va sudxo'rlar qo'liga o'tib keta boshladi. Bu holat yersiz dehqonlar, mardikorlar va arzon ishchi kuchini yanada ko'payishiga sabab bo'ldi.

Rossiya sanoatida paxta tolasiga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi bu yerlarda yetishtiriladigan paxtaning sifatiga e'tiborni kuchaytirdi. SHu maqsadda o'lka yerlarida paxtaning Amerika navlarini yetishtirishni yo'lga qo'yish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib boruvchi stansiyalar tashkil etildi. Hatto bu navlarni o'rganish uchun Amerikaga maxsus mutaxassislar ham yuboriladi. Mustamlaka yillarida bunday navlar o'lka paxtachiligida yetti barobar ko'paydi.

Rossiya uchun Turkistondan ko'proq foyda ko'rish maqsadida o'lkaning o'zida xom-ashyoga dastlabki ishlov beruvchi korxonalar tashkil etishga kirishildi. Bunday korxonalar o'lkada barpo bo'layotgan sanoatning asosiy sohasi edi. 1900 yilgacha Turkis-tonda 170 dan ortiq sanoat korxonalari ishga tushirildi. Bularning 80% ni paxtaga qayta ishlov beruvchi korxonalar tashkil etdi. O'lkaning o'zida ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan sanoatning rivojlanishi va Rossiyadan kirib kelayotgan tayyor sanoat mahsulotlari asrlar davomida hunarmandchilik bilan shug'ullanib kelayotgan aholini xonavayron etdi.

Raqobat natijasida hunarmandchilikning ko'plab sohalari inqirozga yuz tutdi, xonavayron bo'lgan hunarmandlar ham yersiz dehqonlar singari ishsizlar safini to'ldirib bordi.

O'lkaning ko'plab unumdor yerlariga paxta ekilishi boshoqli ekinlar ekiladigan maydonlarning qisqarishiga olib keldi. Ming yillar davomida o'zini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlab kelgan mahalliy aholi asta-sekin oziq-ovqat masalasida Rossiyaga qaram bo'lib qoldi. G'alla mahsulotlari o'lkaga Rossiyadan keltirilib, unga chor ma'murlarining o'zi narx-navoni belgiladi. Sanoatda band bo'lgan mahalliy ishchilarning turmush sharoiti yana ham og'ir edi. CHunki ularning ish haqi yevropalik ishchilardan 2-2,5 barobar kam bo'lsa, olinadigan soliqlar va jarimalar shuncha ko'p edi.

Mustamlakachilik siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri Turkiston o'lkasini ruslashtirishdan iborat bo'ldi. Podsho hukumati ko'p minglab yersiz dehqonlarni, ishsizlarni mustamlaka

3-slayd

2-илова



4-slayd

O'rta Osiyo viloyatlari Ahmoniylar davlati tarkibida



*** Bir talant 25,92 kg kumushga teng**

5-slayd

Ilk davlatchilikning shakllanishida boshqaruvning paydo bo'lishi va ijtimoiy mansablar



Mil.avv. **6** asrning o'rtalariga kelib, Erondagi Ahmoniylar davlatining harbiy siyosati qo'shni davlatlarni bosib olishga qaratildi. Podsho Kir **2** davrida forslar Midiya, Elam, Bobil kabi qadimgi davlatlarni bosib oldilar.

Mil. avv. **545-550** yillarda Kir **2** Parfiya, Marhiyona va Baqtriyani o'ziga bo'ysundiradi. **Kir 2 (mil. av. 530 yil massagetlarga qarshi yurishi)-To'maris.**

Mil. avv. **522** yilda Ahmoniylar taxtiga **Doro 1** o'tiradi.

Doro 1-Frada qo'zg`aloni (Marg`iyona 522 yil).

Doro 1 qo'shinlari-Shiroq (sak qabilasidan 519 yil).

Ahmoniylar davridako'pgina Sharq xalqlarining siyosiy birligi, keng madaniy va iqtisodiy aloqalari rivojlandi. Bu davrda O'rta Osiyoda **Oromiy** yozuvi tarqaldi. Oromiy yozuvi asosida

qirg'og'idagi yerlaridan va mustaqil tashqi siyosat yurgizishdan mahrum bo'ldi. Ruslarning O'rta Osiyodagi harbiy harakatlari XIX asrning 80-yillari o'rtalarigacha chorvador ko'chmanchi turkmanlarni bo'ysundurgunga qadar davom etdi. Rossiya o'lkamiz xalqlarini kuch, qurol, talonchilik va vayronagarchiliklar yo'li bilan bosib oldi.

1867 yilda Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilib, o'lka to'la ravishda harbiylar qo'liga o'tdi va o'lkani boshqarish katta vakolatlarga ega bo'lgan Turkiston general-gubernatorligiga topshirildi. Turkiston general-gubernatori lavozimiga general fon Kaufman tayinlandi.

General-gubernator katta huquqlarga ega bo'lib, xorijiy mamlakatlar bilan diplomatik aloqalar olib borishi, soliq siyosatini belgilashi, rus fuqaroligi huquqini berishi, mahalliy aholi ustidan chiqarilgan turli hukmlarni ijro etishga ruxsat berishi mumkin edi. Bu «Vaqtli Nizom» qonuni chor ma'muriyatining mustamlakachilik siyosati manfaatlariga mos kelmasligi sezila boshlangach, Kaufman Rossiya imperatoriga 1873 yilda Turkiston o'lkasini boshqarishning yangi nizom loyihasini taqdim etdi. Nizom 1886 yilda podsho Aleksandr II tomonidan tasdiqlandi. Nizomning asosiy g'oyasiga ko'ra, o'lkada Rossiya hukmronligi yanada mustahkamlanishi, o'lka yerlari avvalgidek harbiy vazirga bo'ysundirilishi nazarda tutilgan. Markaziy o'lka boshqaruvi general-gubernator hamda uning Kengashi va mahkamasidan iborat edi.

XIX asrning 90-yillariga kelib, Turkiston general-gubernatorligi beshta - Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand, yettisuv, Kaspiyorti viloyatlariga, viloyatlar uyezdlarga, uyezdlar bo'lislarga, bo'lislar uchastkalarga bo'linib boshqariladigan bo'ldi.

Turkistonning barcha viloyatlarida harbiy gubernatorlik boshqarmalari ta'sis etildi. G'arbiy gubernatorlar bevosita podsho tomonidan tayinlanadigan bo'ldi. Viloyat boshliqlari esa doimo harbiy gubernatorlarning nazorati ostida bo'ldi.

O'lkada mustamlakachilik tartiblari o'rnatilishiga qadar hakamlik vazifasini bajarib kelgan qozilar mahalliy aholi o'rtasidagi huquqiy muammolarni shariat va odat normalariga tayanib hal qiluvchi organ sifatida saqlanib qolindi. Bu, albatta, mahalliy xalq ommasining noroziligini kuchaytirmaslik maqsadida ko'rilgan tadbirlar edi. Ular general-gubernator tomonidan tasdiqlanib, uyezd boshliqlari nazorati ostida ish olib bordi.

Turkiston general-gubernatorligining markazi - Toshkentni boshqaruv 1870 yilgi shahar boshqaruvi qoidasiga ko'ra to'lig'i bilan podsho ma'muriyati qo'liga o'tdi. 1877 yilgacha eski shahar va yangi shahar alohida boshqarilsa-da, lekin eski shaharda hokimiyat general Geyns qo'lida edi. O'sha yili shahar Davlat dumasiga saylovlar bo'ldi. Saylangan 71 deputatning atigi 21 nafari mahalliy aholi vakillari edi.

SHunday qilib, XIX asrning oxirlarida O'rta Osiyoning katta qismi Turkiston general-gubernatorligi nomi bilan Rossiya tasarrufiga o'tdi. Qo'qon xonligi tugatilib, Xiva xonligi va Buxoro amirligi Rossiya imperiyasiga qarashli kichik, yarim mustamlaka davlatga aylanib qoldilar. Xiva xonining Amudaryo bo'limi boshlig'i, Buxoro amirining «Rus siyosiy agentligi» nazorati ostida ekanligi va uchastka pristavlarigacha harbiy-lardan bo'lganligini inobatga olib, o'lkada to'la harbiy-ma'muriy boshqaruvi, harbiy politsiya rejimi o'rnatilganli-gini yana bir bor qayd qilamiz. Bunday boshqaruv tez vaqt ichida o'lkani ruslashtirish va iqtisodiy qaram hududga aylantirish imkonini berdi.

Turkistonning xom ashyo bazasiga aylantirilishiva o'lkada chor Rossiyasi iqtisodiy hamda siyosiymanfaatlarining amalga oshirilishi:

birinchi yarmi davomida rus hukumati Pyotr I orzularini amalga oshirish yo'lida uning vasiyatlarini bajarib, Qipchoq dashtlarini o'ziga bo'ysundirdi va u yerda harbiy istehkomlar bunyod etdi. Bu davrda Rossiya uchun sanoatni rivojlantirish, uni xom-ashyo bilan ta'minlash va ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish uchun yangi bozorlar izlash kechiktirilmas vazifa bo'lib qoldi. Rossiyaning agressiv tashqi siyosati davomida uning kelajakda imperiyani kengaytirish uchun Xitoy, Hindiston, Afg'oniston, Eronga uyushtiradigan harbiy yurishida, janubdagi dengizlar, ular orqali okeanga chiqishida O'rta Osiyo platsdarm vazifasini bajarishi kerak edi.

YAna shuni ko'rsatib o'tmoq joizki, chorizmning Turkistonga bo'lgan qiziqishi bu o'lkadagi katta yer osti boyliklarini o'zlashtirishga intilish bilan bog'liqdir. SHu bilan birga XIX asr o'rtalarida O'rta Osiyoda Rossiya va Angliya manfaatlari to'qnashdi. Bu hol Rossiyaning O'rta Osiyo xonliklarini bosib olish rejasini ishlab chiqish va harbiy yurishlarni tezlashtirishiga sabab bo'ldi. SHu sabablarga ko'ra chor Rossiyasi o'zining tish-tirnog'igacha qurollangan qo'shinlari bilan Turkiston xalqlarini bo'ysundirish va jonajon Vatanimizni bosib olib, unga egalik qilish maqsadida harbiy yurishlarini boshladi.

Oldindan belgilangan reja asosida rus qo'shinlarining hujumi Qo'qon xonligiga qaratildi. Zamonaviy qurollar bilan to'la ta'minlangan 2850 kishilik rus qo'shini bir yil oldin mag'lubiyatga uchragan general Perovskiy boshchiligida 1853 yil iyul oyida Oqmachit qal'asiga hujum qildi. Oddiy qurollar bilan qurollangan 400ga yaqin qal'a himoyachilari 20 kun davomida dushman hujumini qaytarib, mardlik, jasurlik, vatanparvarlik timsoli bo'lib tarixga kirdilar. 1853-1856 yillardagi Qrim urushi sababli Rossiya O'rta Osiyodagi harbiy harakatlarini to'xtatishga majbur bo'ldi. U Qo'qon xonligidagi faol harakatini 1860 yil yozidagina qayta tashkil qila oldi. Xalqimizning qahramonona qarshiligiga qaramasdan yangi harbiy texnika bilan qurollangan rus qo'shinlari 1860-1864 yillarda Pishpak, To'qmoq, Avliyo ota, Turkiston, CHimkent shaharlari va ular atrofidagi qishloqlarni bosib oldilar. Bu janglarda ko'ngilli himoyachilar, Qo'qon xonligi sarkardasi mulla Alimqul va boshqalar o'z qahramonliklari bilan vatanparvarlik namunalarini ko'rsatdilar. 1864 yil oktyabrida general CHernyayev boshchiligidagi rus qo'shinlarining Toshkentga hujumi muvaffaqiyatsizlikka uchragach, ular Niyozbek qal'asini egallab, CHirchiq daryosidagi to'g'onni buzib tashladilar va shaharga suv chiqmay qoldi. 1865 yil may oyida ruslar Toshkent shahriga yangitdan hujum boshladilar. Himoyachilarning fidokorligi, Mulla Alimqulning tadbirkorligi yangi harbiy qurollar va muntazam harbiy qo'shin oldida ojiz edi. Toshkentni ruslar 42 kun deganda bosib oldilar.

1865-1866 yillarda rus qo'shinlari Qo'qon xoni va Buxoro amiri o'rtasida hamisha qo'ldan-qo'lga o'tib turgan Xo'jand, O'ratepa, Jizzax shaharlarini qattiq janglardan keyin egalladi.

Buxoro amiri Muzaffarning ko'rgan tadbirlariga, xalqning qahramonona qarshiliklariga qaramasdan 1868 yilgi CHo'ponota va Zirabuloq janglarida ruslarning qo'li baland keldi. Natijada amir Muzaffar Qo'qon xoni Xudoyorxon (1864-1879) kabi Rossiya bilan noteng sulh shartnomasini imzolashga majbur bo'ldi. Qo'qon xonligiga va Buxoro amirligiga tegishli bo'lgan yerlarning katta qismi Rossiya tasarrufiga o'tkazildi. Katta miqdorda tovon puli to'landi.

Olinmas qal'a hisoblangan Xiva xonligiga ruslar qattiq tayyorgarliklardan keyin 1873 yilda hujum qildilar. Xonlikdagi qoloqlik, harbiy texnika va san'atning pastligi bu yerda ham ruslarning g'olib kelishiga asos bo'ldi. Xiva xoni Muhammad Rahimxon Feruz (1864-1910) Gandimiyon shartnomasiga asosan 2200000 oltin so'm to'ladi hamda Amudaryoning o'ng

4 ta mahalliy yozuv ajralib chiqdi. Parfiya, so'g`d, baqtriya va xorazm yozuvlari bo'lib, ular O'rta Osiyo hududida arablar kelgunga qadar saqlanib qoldi.

Ahmoniylar davrida O'rta Osiyo xalqlari ilk marta zarb qilingan tanga pullar bilan tanishdilar.

Dastlabki davlatlar alohida makonlar yoki ilk shaharlar, xo'jalik va ishlab chiqarish maqsadida keng foydalaniladigan qadimgi sug`orma dehqonchilik vohalarida paydo bo'ldi.

O'zbekistondagi dastlabki davlat uyushmalari ham dehqonchilik vohalari aholisini chetdan bo'ladigan bosqinchilardan himoya qilish va jamoadagi munosabatlarni huquqiy boshqarib turish uchun tashkil etildi.

O'lkamizda mil. avv. **2** ming yillik o'rtalarida (Surxon vohasi-Sopolli tepa) qadimgi dehqonchilik madaniyati rivojlanishi asosida ilk davlatchilikka o'tish jarayoni boshlandi.

Mil.avv. **7-6** asrlarda qadimgi **Baqtriya davlati** tarkibida Surxondaryo, Qashqadaryo, Zarafshon vodiylari va O'zbekistonga chegaradosh viloyatlar kirgan. Qiziltepa, Uzunqir, Yerqo'rg`on va Afrosiyob o'rnida Baqtriya va So'g`dning markaziy shaharlari joylashgan. Bu shaharlarning yoshi **2700** yildan kam emas. Yana bir qadimiy davlat **Xorazm** bo'lib, uning markazlaridan biri Ko'zaliqir shahri bo'lgan. Qadimgi davlatlarning davlatchilik taraqqiyoti mahalliy aholining yuqori darajadagi rivojlangan dehqonchiligiga asoslangan edi.

Mil. avv. **334** yilda Makedonskiyning qo'shinlari Qadimgi Sharqda hukmronlik qilgan forslarga qarshi frish boshlaydi. Uch asosiy jangdan so'ng Ahmoniylar davlati yengiladi.

Mil. avv. **329** yilda Iskandar Baqtriyani egalladi. Shundan so'ng u So'g`diyonanining markazi bo'lgan Maroqandni egallab, o'z harbiylarining bir qismini qoldirib, Sirdaryo-Yaksart tomonga yo'l oladi.

Maroqand-**Spitaman qo'zg`aloni** (mil.av. **329-327** yillar).Mil.av. **328** yil Spitaman Baqtriyada va Quyi Zarafshonda yunon-makedon bosqinchilariga qarshi hujum uyushtiradi, lekin mag`lubiyatga uchraydi.

Iskandar Baqtriya, So'g`diyona va Ustrushona (Jizzax va Sirdaryo o'rtalari)ning bir qismini istilo qilib, mil.av. **327** yilda Xindistonga hujum boshlaydi. Xorazm, Choch, Farg`ona va saklar yurti mustaqil bo'lib qoladi. So'g`diyona, Baqtriya, Marg`iyona va Parfiya yangi davlatga qo'shilib, keyinchalik ularning tuprog`ida ayrim yunon-makedon davlatlari vujudga keladi.

Iskandarning xarbiy yurishlari o'lkamizda ko'pgina yo'qotishlar bilan birga Sharq va G'arb o'rtasida keng savdo-sotiq va madaniy aloqalarning rivojlanishiga olib keldi. Ellinizm madaniyati vujudga keldi.

Iskndarning xarbiy yurishlari natijasida Bolqon yarim oroli, Kichik Osiyo, Misr, Sirdaryo va Xindistongacha cho'zilgan xududda ulkan davlatga asos solindi. Bu davlatning poytaxti Bobil shahri bo'ldi, lekin mil. av. **323** yil Makedonskiyning vafotidan so'ng bu yirik davlat parchalana boshladi.

**Qang` davlati mil.av. 3 asrning** boshlarida vujudga keldi. Dastlab uning hududini Toshkent vohasi tashkil etgan. Bu davlatning tashkil topish sabablaridan biri, tashqi xarbiy hujumlardan himoyalanish zarurati bo'lgan. Mil av. **2** va melodiy **1** asrda Qang` davlatining xududi kengayib, Toshkent vohasi, Chimkent viloyati, O'rta Sirdaryo yerlarini ichiga olgan. Qang` hukumdorlarining markaziy shaharlari **2** ta edi. Ular yozni O'trorda , qishni Qang`a (hoz. Oqqo'rg`on tumanida) shaharlarida o'tkazar edilar. Mil. av. **2** asr oxirida Qang` qudratli davlatlatining qudrati ancha kuchayadi. Uning hukumdorlari o'z nomidan tangalar zarb

qildirgan. Bu xududdan Buyuk Ipak yo'lining shimoliy tarmog`ining o'tishi, bu davlatning har tomonlama gullab-yashnashiga olib kelgan. Shu bilan birga Xitoy bilan nizolar chiqib turishiga ham olib kelgan. Bu urushlarda ko'pincha qang`liklar g`olib chiqqan. Milodning **3** asriga kelib Qang` davlati parchalanib ketdi.

Qang` davlatining idora-tartib usuli



Dovon-Farg`ona (Parkana)mil. avv. 3 asrdan** milodning **2** asrigacha mavjud bo'lgan. Bu davlat to'g`risida dastlabki ma'lumotlar Xitoy manbaalarida uchraydi. Bu davlatning poytaxti Ershi (Marhamat) shahri bo'lgan. Dovonliklar dehqonchilik uzumchilik va yilqichilik bilan shug`ullanganlar. Dovonning "Samoviy otlari" juda mashhur bo'lgan. Mil. av. **2** asrning oxirlarida Xitoy xukmdorlari Dovon yerlarini bosib olishga xarakat qiladilar. Qang`liklarning yordami bilan Dovon o'z mustaqilligini saqlab qoladi. Mil. av. **2-1 asrlarda Dovon yuksak taraqqiy etgan. Olimlarning fikricha Farg`ona millodning **2** asrida Kushonlar davlatiga qo'shib olindi.

Iskandar davlatining qulashi va O'rta Osiyoda yangi davlatlarning tashkil topishi

Mil.av. **1** asrda yuechji qabilalari uyushmasida Guyshuan (Kushon) xokimligi ancha kuchayadi. Podsho **Kujula Kadfiz** davrida poytaxt Dalvarzin shahrida bo'lgan. Podsho **Kanishka** davrida (**1-2** asrlar) poytaxt Peshovarga ko'chiriladi va uning yerlari ancha kengayadi, lekin o'lkamizning Xorazm, Zarafshon, Qashqadaryo, Toshkent va Farg`ona vohalari Kushon davlati tarkibiga kirmagan. Ushbu hududlarda boshqa mahalliy davlatlar rivojlanib, kushon madaniyatiga xos an'analar deyarli tarqamagan. Savdoning rivojlanishida Buyuk ipak yo'lining ahamiyati katta bo'lgan. Kanishka davridan boshlab davlat dini **Budda dini** bo'lgan. Oromiy va yunonlar yozuvi asosida kushon yozuvi mavjud bo'lgan. Kushon davlatining o'z tilla tanga pullari bo'lgan, tangalarga "shoxlar-shoxi" so'zlari yozilgan. Bu so'zlar Kushon saltanatining o'sha davrdagi qudratidan dalolat beradi. Bu davlatning parchalanishiga xarbiy yurishlar, ichki nizolar sabab bo'ldi.

MAVZUGA OID MUSTAQIL ISH MAVZULARI:

1. SHayboniylar davlati, Abdullaxon II.
2. Ashtarxoniylar davrida O'rta Osiyo.
3. Qo'qon xonligi.
4. Xiva xonligi.
5. Buxoro amirligi.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOT VA MANBALAR:

1. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. Toshkent. O'zbekiston, 1994.
2. Karimov I. A. Xiva va Buxoro shaharlarining 2500 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimlardagi tabrik so'zi. «Xalq so'zi», 1997, 21 oktyabr.
3. Bayoniy M.YU. SHajarai Xorazmshohiy. Toshkent. G'afur G'ulom nomli nashriyot, 1994.
4. Bobobekov X.N. Qo'qon tarixi. Toshkent. Fan, 1996.
5. Ziyoev X. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. Toshkent. SHarq, 1998.
6. Ibrat I. Farg'ona tarixi. Toshkent. Kamalak, 1991.
7. Mirza Abdulazim Somiy. Mang'it hukmdorlari tarixi. M., 1962.
8. Mulla Olim Mahdumxoja. Tarixi Turkiston. Toshkent, 1995.
9. Milliy uyg'onish. Toshkent, 1997.
10. O'zbekiston tarixi. Toshkent. Universitet. 1997, ikkinchi nashr, 1999.

9-MAVZU:

CHOR ROSSIYASINING TURKISTONNI HARBIY ISTILO QILISHI VA UNING MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATIGA QARSHI XALQ OZODLIK HARAKATLARI.

REJA:

1. Xonliklarning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi.
2. Rossiya imperiyasi istibdodiga qarshi Turkiston xalqlarining milliy ozodlik kurashi.
3. Jadidchilik harakati va milliy uyg`onish.

TAYANCH TUSHUNCHA VA IBORALAR:

Milliy ozodlik harakatlari, Po'latxon qo'zg'oloni, Dukchi Eshon, Mardikorlik, Jizzax qo'zg'oloni, Jadidchilik, Turkiston jadidlari, YOsh buxoroliklar, YOsh xivaliklar, Buxoro va Xorazm Xalq Respublikalari.

XIX asr ikkinchi yarmiga kelib O'rta Osiyo xonliklaridagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy ahvol tang darajada bo'lganligi bu paytda jahondagi eng agressiv davlatlar qatoriga kirgan, yevropa davlatlariga nisbatan iqtisodiy taraqqiyotdan orqada qolayotgan Rossiyaning O'rta Osiyoni o'ziga bo'ysundirish niyatini ro'yobga chiqarishni tezlashtirdi. Bu niyat Rossiya imperatori Pyotr I (1672-1725) davrida tuQilgan bo'lib, u Xiva xonligini bo'ysundirish uchun hatto 1717 yilda Bekovich-CHerkasskiy boshchiligida O'rta Osiyoga harbiy ekspeditsiya uyushtirgan edi. Lekin bu harakat, undan keyingi boshqa harbiy harakatlar: jumladan, 1839-40 yillarda Perovskiy boshchiligidagi harbiy yurish ham muvaffaqiyatsizlikka uchradi. XVIII-XIX asrning

boshidan kechirdiki, Eron shohi Nodirshoh 1710 yilda Buxoroni, keyin Xorazmni bosib oldi. Buxoroliklar va xorazmliklarni eroniylar talab, xonavayron qildilar. 1747 yilda Nodirshoh vafotidan keyin Abulfayzxon ham o'ldirildi.

O'rta Osiyoning xonliklarga bo'linib ketish oqibatlari:

Uchta xonlik boshqaruv tizimida feodal munosabatlar asos qilib olingan edi. Xonliklar hududida yer egaligining uchta turi: davlat yerlari, xususiy yerlar, vaqf yerlari mavjud edi.

Xonliklar aholisi asosan dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanar edilar. Asosiy soliq turlari xiroj, zakot bo'lib, shu bilan birga turli majburiyatlar mavjud edi. Bular Xiva xonligida begar, qazuv, mushrifona va boshqalar bo'lsa, Buxoro amirligida urush paytda olinadigan favqulodda soliq-jul, suv haqi, nimsara va boshqalar, Qo'qon xonligida esa hashar, harbiy xizmat majburiyatlari bor edi.

Xonliklar boshqaruvida islom mafkurasi asosiy o'rinni egallagan bo'lib, diniy mutaassiblik mamlakat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatar edi. Ayniqsa, xonliklar ichidagi etnik guruhbozlik fuqarolarning tinch va osoyishta hayot kechirishiga to'siq bo'lar edi. Undan tashqari turli urug' vakillari davlat boshqaruvida yuqori mavqega ega bo'lish uchun boshqa urug' vakillariga qarshi zimdan va ochiqchasiga kurash olib borib, siyosiy beqarorlikni keltirib chiqarar edilar. Buni Xiva xonligidagi XVIII asr voqealarida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Bu davrda Xivada turli urug' vakillaridan xonlar ko'tarildi.

Bu xonlarning almashishi xalq uchun katta kulfatlar keltirar edi. XVII asr oxirlariga kelib, Xiva xonligida qo'ng'irotlarning mavqei osha bordi va 1804 yilda ular Xiva xonligi taxtini egallab, 1920 yilgacha bu xonlikda hukmronlik qilishdi. Qo'qon xonligida hukmronlik qilishgan minglar sulolasi o'zlarining tashqi istilochilik urushlari va o'zaro sulolaviy kurashlari bilan xonlik aholisining ijtimoiy, iqtisodiy ahvolini yanada og'irlashtirdi. Ayniqsa Xudoyorxon davrida talonchilik urushlari va solingan ko'plab soliqlar xalqning ko'plab noroziligiga sabab bo'ldi, natijada Xudoyorxon ikki marotaba taxtdan haydalib, yana taxtni egalladi. Minglar sulolasi Qo'qonda 1710 yildan 1876 yilgacha hukmronlik qilishdi.

XVII-XVIII asrning birinchi yarmida bitta iqtisodiy hududdagi bir elat, bir xalqning uchta mustaqil, siyosiy xonlikka ajralib ketishi, bu hududda yashayotgan xalqlarning boshiga juda og'ir kulfatlarni keltirdi. Xonliklar ichidagi sulolaviy va o'zaro urushlari xalqning og'ir ahvolini yanada og'irlashtirdi. Xivaliklarning turkman urug'lariga qarshi uyushtiradigan mavsumiy talonchilik yurishlari, Buxoro amirligining Kitob va SHahrisabz bekliklariga qarshi olib borgan doimiy urushlari, Qo'qon xonligining Toshkent va Xo'jand uchun Buxoro amiriga qarshi kurashlari bitta xalqning parchalanishiga, o'zaro madaniy, savdo aloqalarining uzilib qolishiga sabab bo'ldi. Xonliklar hududidagi xalq norozilik harakatlari shafqatsizlik bilan bostirildi, har qanday ilg'or fikr, yangilik diniy mutaassiblarning ta'qibiga uchrar edi. Bu paytda nafaqat boshqa hududlar bilan hatto Qo'qon, Xiva, Buxorodagi madaniy markazlarning ham o'zaro aloqasi yo'q edi. Bu o'z navbatida O'rta Osiyo ilm-fanini turg'unlikka, hatto tanazzulga olib keldi. Tabiiy fanlarga e'tibor umuman yo'qoldi. O'rta Osiyo xalqlari yevropa fan texnika taraqqiyotidan bexabar bo'lib, orqada qolib ketdi.

Rossiya bilan o'rnatilgan savdo aloqalari asosan bir guruh boylar qo'lida bo'lib, ular madaniy aloqalarga, fan-texnika taraqqiyotini kirib kelishiga aytarli ta'sir ko'rsatmadi va o'lkadagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy vaziyat chor Rossiyasining o'z agressiv maqsadlari uchun sharoit yaratib berdi. Natijada Rossiya O'rta Osiyoni osonlik bilan bosib oldi.

1 (**1**.**1**)-ilova

Kurs bo'yicha tinglovchilarning o'zlashtirishlarinibaholash mezonlari

Muddati	Nazorat shakllari	Reyting ballari
Amaliy mashg`ulot darsida.	Amaliy mashg`ulotda individual topshiriqlarni bajarish va guruhda ishlash.	**45** ball
Kurs tugagandan so'ng bir hafta ichida.	Mustaqil ish variantlari bo'yicha individual topshiriqlarni bajarish.	**10** ball
Kurs oxirida.	Test topshirish.	**15** ball
Doimiy.	Ijodiy yondoshuv.	**30** ball
Jami:		**100** ball

86%-100% – «A'lo»
71%-85% – «Yaxshi»
56%-70% – «Qoniqarli»
0%-55% – «Qoniqarsiz»

Kurs bo'yicha baholashda bilish, tushunish, tadbiq qilish, tahlil qilish, sintez qilish va baholay olish mezonlariga asoslaniladi.

Talabalar har bir amaliy mashg`ulotda **2** ballgacha olishlari mumkin bo'lib, unda quyidagi mezonlar asosida baholaniladi.

Asosiy tushunchalarni biladilar	Mavzu bo'yicha asosiy kategoriya va qonunlarni tushunadilar	Usullarni qo'llay oladilar	Natijalarni tahlil qila oladilar
20 %	20 %	30 %	30 %

Ijodiy yondoshuv bo'yicha baholanish mezonlari quyidagicha:

O'zbekiston tarixi fanining predmetini bilgan holda, uni jamiyatdagi, inson	O'zbekiston tarixi fanining kategoriya va strukturasini mustaqil tahlil qila oladilar
50 %	50 %

2(**1**.**1**)-ilova

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., **2008**.

O'zbekiston Konstitutsiyasi-biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining **17** yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. «Xalq so'zi», **2009** yil **6** dekabr.

Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-T.: Ma'naviyat, **2008**.
Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q-T., Sharq, **1998**.
Karimov I.A. O'zbekistonning **16** yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O'zbekiston mustaqilligining **16** yilligiga bag`ishlangan qo'shma majlisdagi ma'ruzasi. «Xalq so'zi», **2007** yil **31** avgust.
Berdyayev N. Smыsl istorii-M.: Mыsl, **1990**.
Moziydan taralgan ziyo. Imom al-Buxoriy. T., Sharq, **1998**.
O'zbekiston tarixi: yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar.-T., Yel'dimur, **1998**.
O'zbekistonning yangi tarixi. Konseptual-metodologik muammolar. T., Akademiya, **1998**.

1-1 ilova

Kurs bo'yicha tinglovchilarning o'zlashtirishlarinibaholash mezonlari

Muddati	Nazorat shakllari	Reyting ballari
Amaliy mashg`ulot darsida.	Amaliy mashg`ulotda individual topshiriqlarni bajarish va guruhda ishlash.	**45** ball
Kurs tugagandan so'ng bir hafta	Mustaqil ish variantlari bo'yicha individual	**10** ball
Kurs oxirida.	Test topshirish.	**15** ball
Doimiy.	Ijodiy yondoshuv.	**30** ball
Jami:		**100** ball

86%-100% – «A'lo»
71%-85% – «Yaxshi»
56%-70% – «Qoniqarli»
0%-55% – «Qoniqarsiz»

Kurs bo'yicha baholashda bilish, tushunish, tadbiq qilish, tahlil qilish, sintez qilish va baholay olish mezonlariga asoslaniladi.

Talabalar har bir amaliy mashg`ulotda **2** ballgacha olishlari mumkin bo'lib, unda quyidagi mezonlar asosida baholaniladi.

Asosiy tushunchalarni biladilar	Mavzu bo'yicha asosiy kategoriya va qonunlarni	Usullarni qo'llay oladilar	Natijalarni tahlil qila oladilar
20 %	20 %	30 %	30 %

mad II ham bebosh amirlarni tiyib qo'ya olmadi.

YUzaga kelgan vaziyatdan Eron safoviylari, Xiva inoqlari va qozoqlar unumli foydalandilar. Eroniylar Balxni, qozoq sultonlari o'z manfaatlari yo'lida Toshkentni egallagan bo'lsa, Xorazm xonlari mustaqil bo'lib oldilar. Buxoroning zodagon guruhlari astraxanlik Jonibek Sultonni taxtga taklif qildilar. Jonibek Sulton o'g'illari foydasiga taxtdan voz kechdi va shu tariqa O'rta Osiyoda ashtarxoniylar sulolasi hukmronligi boshlandi. Ashtarxoniylar Balxni eroniylardan, Toshkentni qozoqlardan tortib oldilar. Ammo ko'pgina urushlarga qaramay Xorazm o'z mustaqilligini saqlab qoldi.

Ayrim ashtarxoniy hukmdorlari Imomqulixon (1611-1642 yy.), Abdulazizxon (1645-1680 yy.), Ubaydullaxon (1702-1711 yy.) hukmronliklari davrida markaziy hokimiyatni kuchaytirishga harchand harakat qilinmasin, bu harakatlar aytarli ijobiy natijalar bermadi. Mahalliy amirlar va sultonlar o'z joylashgan shahar va hududlarida hokimlik qilib, bu hududlarda yirik yer egalari bo'libgina qolmay, butunlay xo'jayin edilar. Ulardan ko'pchiligi o'z guruhlari kuchiga tayanib markaziy hokimiyatga deyarli bo'ysunmas edilar. Hukmdorlar esa amirlar va sultonlarning bir-birlari ustiga yurishlaridan ko'p foydalanardilar. Abdulfayzxon hukmronligi davrida (1711-1747 yy.) markaziy hokimiyat o'z ahamiyatini yo'qotib bordi. O'okimiyat astasekinlik bilan mang'it urug'lari qo'liga o'ta boshladi. Bu urug' vakili bo'lgan Muhammad Rahim 1753 yilda amir unvoni bilan Buxoro taxtiga o'tirdi.

Xorazm hududida 1512 yilda mustaqil Xiva xonligi vujudga keldi. Unga SHayboniy urug'idan bo'lgan Elbarsxon (1512-1525 yy.) asos soldi. Elbars vafotidan keyin Xiva xonlari tez-tez almashib turgan. O'zaro urushlar va hukmdorlarning tez-tez almashib turishi natijasida bu davrda Xorazm hali markazlashgan davlat darajasiga yetmagan edi.

Xon hokimiyati qabila zodagonlari bilan cheklangan bo'lib, nizolar va o'zaro urushlar deyarli tinmagan. SHu davrda Xorazm chuqur inqiroz davrini boshidan kechirdi. Savdosotiqning arzimas darajada ekanligi shahar hayotini sust rivojlantirdi. Bu jarayon XVII-XVIII asr boshlarida ham davom etdi. XVII asr oxiri - XVIII asr boshlariga oid Xorazm haqidagi ma'lumotlarda siyosiy va iqtisodiy tanazzul ta'kidlanadi. Xususan, Abdulg'oziyning «SHajarai turk» asarida, Ivan Fedotov ma'lumotlarida bu holat qayd etilgan. Boshqaruvda vazir qushbegi bilan birgalikda xon maslahatchilari, inoqlarning borligi ma'muriy tuzumning juda murakkabligidan darak beradi. Xo'jalik inqirozi va feodal urushlar Xorazm vohasi madaniyatiga ham putur yetkazdi. Feodal o'zaro nizolar Arab Muhammad (1602-1623 yy.) va uning o'Qilari davrida eng yuqori nuqtaga yetdi. Asfandiyor (1623-1643 yy.), AbulQozixon (1643-1663 yy.), Anusha (1663-1687 yy.) lar davrida Buxoro bilan Xiva o'rtasida mamlakat ahvolini xarob qiladigan urushlar bo'lib o'tdi.

Ashtarxoniylar davridagi iqtisodiy-siyosiy tushkunlik Buxoro xonligini parchalanishiga olib keldi. Bu davrda Farg'ona xonlikdan alohida o'lka sifatida ajralib chiqdi. 1710 yilda minglar sulolasidan bo'lgan SHohruhbiy Farg'onada hokimiyatni o'z qo'liga oldi. Minglar sulolasi keyinchalik Sirdaryo havzasini, yettisuvning bir qismini egalladi. Bu davlatning poytaxti Qo'qon shahri bo'lib qoldi.

XVIII asr boshlarida Buxorodan Balx, Xorazm, ikkinchi yarmida Toshkent mustaqil davlat sifatida ajralib chiqdilar. Ichki kelishmovchilik, nizolar va siyosiy parokandalik mamlakatdagi bo'linib ketishning asosiy sababi bo'ldi. 1722 yildagi Rajabxon qo'zg'oloni Buxoro xonligini larzaga soldi. Abulfayzxon (1710-1747) davrida Buxoro xonligi shu darajada parokandachilikni

unga topshiradi.

Dashti Qipchoqliklar qisqa muddat ichida Buxoro (1500), Samarqand (1501), Toshkent (1503), Hisor (1504), Urganch (1505), Hirot (1507) kabi shahar va viloyatlarni egallab, SHarqiy Turkiston chegaralaridan Markaziy Afg'oniston hududlarigacha cho'zilgan yerlarda markazlashgan shayboniylar davlatiga asos soldilar. Temuriylar davlatidagi siyosiy tarqoqlik, ayrim hukmdorlarning ajralib mustaqillikka intilishi bu davlatning yemirilishiga olib kelgan bo'lsa, SHayboniyxon bunday tarqoqlikka chek qo'yib mamlakatning birligini mustahkamlay oldi.

SHayboniyxonning janubga tomon yurishlari Eron shohi Ismoil I tomonidan to'xtatildi. 1510 yil Marv atroflarida bo'lgan jangda dasht qo'shinlari tor-mor etildi va SHayboniyxon halok bo'ldi. Eroniylar tomonidan qo'llab-quvvatlangan Bobur 1511 yilda Hisor, Ko'lob, Qunduz, Badaxshon va Samarqandni egalladi. Ammo 1512 yilda shayboniylardan bo'lgan Ubaydulla Sulton qo'shinlari o'ijduvon yaqinida Bobur va shoh Ismoilning birlashgan kuchlarini mag'lubiyatga uchratdi. SHundan so'ng Bobur avval Qobulda, keyin esa Hindistonda o'z hokimiyatini o'rnatdi. Dashti Qipchoq qabilalari esa Movarounnahrda o'rnashib qoldilar.

XV asr oxiri-XVI asr boshlaridagi Dashti Qipchoq, Movarounnahr va Xurosondagi ijtimoiy-siyosiy voqealar to'g'risida yozilgan muallifi noma'lum «Tarixi guzidai Nusratnoma», Muhammad Solihning «SHayboniynoma», Boburning «Boburnoma» asarlari muhim manbalar hisoblanadi.

Temuriyzodalar o'rtasidagi o'zaro urushlar, birodarkushliklar nafaqat quyi tabaqa ahlining, balki yirik zodagonlarning ham noroziliklariga sabab bo'ldi. Natijada Amir Temur asos solgan ulkan saltanat tanazzulga yuz tutdi va tugatildi. Temuriylardan keyin hokimiyat tepasiga kelgan shayboniylar sulolasi davrida ham markaziy hokimiyat unchalik mustahkam emas edi (bu o'rinda Abdullaxon II hukmronligi davri (1583-1598) birmuncha diqqatga sazovordir). Bu holat o'sha davr Vatanimiz hududlarining parchalanib, alohida davlatlarga bo'linib ketishi va zaiflashuvi uchun zamin yaratdi.

O'rta Osiyo hududlarining parchalanishga yuz tutishi va uning sabablari: Muhammad SHayboniyxon vafotidan so'ng Movarounnahr va Xurosonda markaziy hokimiyat zaiflashib, amirlar va sultonlar markaziy hokimiyatga bo'ysunmay qo'ydilar. Ubaydulla Sulton 1512 yilda Buxoro hukmdori bo'lgan bo'lsa, 1534 yildan butun markazlashgan o'zbek davlatining Oliy hukmdori etib saylandi. Ubaydullaxon mamlakat poytaxtini Samarqanddan Buxoroga ko'chirdi. XVI asrning 40-yillariga kelib, zodagonlar va mahalliy sulolalar o'rtasida shaharlar va hududlar uchun kurash avj olib ketdi. Samarqand hukmdori Abdulatifxon (1541-1552 yy.) bilan Buxoro xoni Abdulazizxon (1540-1550 yy.) o'rtasidagi kurashni Toshkent va Sirdaryo bo'yidagi shaharlarning hukmdori Baroqxon (Navro'z Ahmadxon) yanada kuchaytirdi. U hatto 1551 yilda Samarqandni bosib oldi. Karmana va Miyonqol hukmdori Abdulla Sulton Baroqxonga qarshi kurash olib bordi va 1557 yilda Buxoroni bosib oldi.

1561 yilda taxtga o'tirgan Iskandarxon ham siyosiy tarqoqlikka barham bera olmadi. Ammo uning o'g'li Abdullaxon II markazlashgan shayboniylar davlatini tiklash maqsadida amirlar va sultonlar bilan ayovsiz kurash olib bordi. Tinimsiz urushlar natijasida Farg'ona (1573), SHahrisabz, Qarshi, Hisor viloyatlari (1574), Samarqand (1578), Toshkent, SHohruhiya, Sayram, Ohangaron (1582), Balx (1583), Badaxshon (1584), Hirot (1588), Xorazm (1595) Abdullaxon qo'l ostiga birlashtirildi. Ammo 1598 yilda Abdullaxon II vafotidan so'ng uning o'g'li Abdulmo'min uzoq muddat taxtni boshqara olmadi. So'nggi SHayboniy hukmdori Pirmuham-

3 (**1**.**1**) - ilova

3-mavzu bo'yicha tayanch tushuncha va iboralar:

Ahmoniylar	Miloddan avvalgi VI asrda tashkil topgan Ahmoniylar davlati o'zining ikki asrlik huqmronligi davrida Misrdan to shimoli-g`arbiy Hindistonga qadar bo'lgan davlat va xalqlarni birlashtirib, jahon tarixida birinchi bo'lib yirik imperiyaga aylanadi.
"satrap", "satrapiya"	Forscha so'z bo'lib, viloyat ma'nosini bildiradi.
"talant", "darik"	Bobil pul birligi bo'lib, bir talant **25**,**92** kg kumushga teng

4 (**1**.**1**) – ilova

3-mavzuni jonlantirish uchun savollar:
1. O'zbek davlatchiligi qaysi asrda paydo bo'ldi?
2. Ilk o'zbek davlatchiligining paydo bo'lishiga qanday tarixiy shart-sharoitlar ta'sir ko'rsatdi?
3. O'zbek davlatchiligi qanday tarixiy bosqichlari bosib o'tdi?

4-MAVZU: ILK O`RTA ASR O`ZBEK DAVLATCHILIGI: IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOT (V-VIII). (2 SOAT)

Ma'ruzani olib borish texnologiyasi

Talabalar soni:**2 ta guruh**	Vaqti: **2** soat
Mashg`ulot shakli	Mavzuga kirish bo'yicha ko'rgazmali-ma'ruza.
Ma'ruza rejasi	Ko'chmanchi kidariylar, xioniylar va eftaliylarning O'rta Osiyoga yurishi. Turk hoqonligining vujudga kelishi, aholining etnik tarkibi, idora usuli. Arab xalifaligining paydo bo'lishi, ularning bosqinchilik yurishlari. Soliq siyosati va xalq g'alayonlari. O'rta asrlardagi etnik-madaniy jarayonlar. "O'zbek" atamasi.
Mashg`ulotning maqsadi:O'zbek xalqining etnik shakllanishi haqida tushuncha berish	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyati natijalari:
Mavzu tarixshunosligi haqida ma'lumot beriladi. Etnogenez tushunchasi va uning mohiyati ochib beriladi. O'lkamiz hududlaridagi qadimgi mahalliy aholi va o'zbek xalqining shakllanish bosqichlari tushuntiriladi. O'rta asrlardagi etnik-madaniy jarayonlar hamda "o'zbek" atamasi	O'zbek xalqining paydo bo'lishi masalalari; O'zbek xalqining etnik asosini tashkil etgan Vatanimiz xududidagi qadimgi aholi, ularning ijtimoiy madaniy hayoti; O'zbek xalqining etnik shakllanishi muhim rol o'ynagan turkiy qavmlar va elatlar; O'zbek xalqi etnik nomining shakllanishida XVI asr boshlarida Movarounnaxrga kelib joylashgan o'zbek urug`larining ta'siri;

haqida manbalar asosida bilim va ko'nikmalar shakllantiriladi.	"O'zbek" atamasining kelib chiqishi va keng yoyilishi haqida keng ma'lumot va tushunchaga ega bo'ladi.
O'qitish usullari va texnika	Ma'ruza, namoyish, aqliy hujum, klaster, blits-so'rov.
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, kompyuter slaydlari, doska, bo'r, latta, skoch, A**3** formatli qog`oz.
O'qitish shakllari	Yakka tartibda, frontal, guruhlarda ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Kompyuter, proyektor (yoki proyektor va LCD panel) mavjud auditoriyalar.
Monitoring va baholash	Og`zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

Ma'ruzaning texnologik xaritasi

Ish jarayonlari	**Faoliyatning mazmuni**	
	O'qituvchi	**Talaba**
I-bosqich. Kursga va mavzuga kirish. (**20** minut)	**1**.**1**. O'quv kursining nomini aytib, kurs doirasida dastlabki umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi (**1**-ilova).	Tinglaydi.
	1.**2**. Mazkur kurs bo'yicha o'rganiladigan mavzular bo'yicha nazariy va amaliy mashg`ulotlar, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma'lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro'yxati bilan tanishtiradi (**2**-ilova).	Yozadi, tinglaydi.
	1.**3**. Birinchi o'quv mashg`uloti mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi.	Mavzu nomini yozib oladilar.
II-bosqich. Asosiy (**50** minut)	**2**.**1**. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida diqqatni jamlovchi savollar beradi: Etnogenez jarayoni deganda nimani tushunasiz? O'zbek xalqining etnik shakllanishining tarixiy bosqichlari haqida ma'lumot bering. Savolga berilgan javoblarni tahlil qiladi.	Savollarga javob beradi.
	2.**2**. Ekranga O'zbek xalqining kelib chiqishi tarixida muhim ahamiyatga ega **3** davr nomli (**1**-sonli) slaydni qo'yib, uni sharhlaydi.	**1**-sonli slayd mazmunini o'rganadi, kursning roli va ahamiyati haqida o'z fikr-mulohazalarini aytadi.

SHohruh va uning oila a'zolari qo'l ostida edi. Movarounnahr yerlarini 1409 yildan boshlab SHohruhning to'ng'ich o'g'li Mirzo Ulug'bek boshqara boshladi. Ulug'bekning hukmronlik davri (1409-1449 yy.) asosan, Movarounnahrda ijtimoiy-iqtisodiy hayot, ilm-fan va madaniyat-ning rivojlanishi bilan izohlanadi.

Ulug'bek bobosi Amir Temur kabi harbiy iste'dodga ega emas edi. U mamlakat ichidagi va atrofidagi osoyishtalikni saqlab turish maqsadida ayrim harbiy yurishlar qilib turdi xolos. 1447 yilda SHohruh Mirzo vafotidan so'ng Temuriyzodalar o'rtasida kurash boshlanib ketdi. Oqil va dono hukmdor Ulug'bek bu kurashlarga barham berishga harchand harakat qilmasin buning uddasidan chiqolmadi. Aksincha, o'g'li Abdulatifning bevosita ishtiroki tufayli o'zi bu kurash-larning qurboni bo'ldi. Xullas, XV asrning o'rtalariga kelib, Mirzo Ulug'bek vafotidan keyin (1449 y.) Temuriy shahzodalar o'rtasida toj-taxt uchun kurash yana avj oldi. Abduqosim Bobur (1452-1457) va Abdusaid Mirzolarning (1458-1468) faoliyati ham o'zaro urushlarga barham bera olmadi. 1469 yilga kelganda Xurosonda Xusayn Boyqaro hokimiyatni egallab, bu hudud-larda nisbatan tinchlik o'rnatdi. Uning do'sti-buyuk shoir Alisher Navoiy (1441-1501) muhrdor, vazir, Astrobod hokimi lavozimlarida ishlab, Xuroson ijtimoiy-siyosiy hayotida katta rol o'y-naydi. Navoiyning sa'y-harakatlari bilan Hirotda ilm-fan, madaniyat gurkirab rivojlandi. O'zaro urushlarga nisbatan barham berildi.

Movarounnahrda esa bu davrga kelib siyosiy tarqoqlik avjiga chiqdi. Har bir viloyat, har bir shaharlarda temuriy shahzodalar o'zlarining mustaqil hukmronligini o'rnatishga harakat qildi-lar. Ular hokimiyat uchun o'zaro kurashlarda Dashti Qipchoq qabilalari kuchlaridan foydalan-ishar edilar. Masalan: 1451 yilda Urusxonning nabiralari Abdusaidga hokimiyatni egallash uchun yordam bergan bo'lsa, oradan uch yil o'tgach Abulhayron Muhammad Juqiyga hokimi-yatni egallashga ko'maklashdi. Bu o'zaro kurashlar Movarounnahr ahlining ahvolini yo-monlashishiga olib keldi.

XY asr oxirlariga kelib, Movarounnahrda Temuriylarning bir-biridan o'zaro mustaqil bo'l-gan uchta hokimiyati vujudga keldi: 1. Samarqandda Sulton Ahmad Mirzo hukmronligi (1468-1503); 2, Toshkentda Sulton Mahmud Mirzo hukmronligi (1468-1498); 3. Andijonda Umar-shayx I Mirzo hukmronligi (1468-1494).Bu uchala davlatning o'zaro urushlari Movarounnahr ahlining temuriylardan noroziligini yanada avj oldirdi. Ayniqsa, yuqori tabaqa vakillari markazlashgan davlat tarafida turdilar. Bu temuriyzodalarning davlat boshqaruvida mustahkam tayanchga ega emasligidan dalolat berardi. Bu vaqtda temuriylar huzurida ta'lim olgan Abulxayrxonning nevarasi Muhammad SHohbaxt Dashti Qipchoqda dasht urug'larini bir-lashtirib, o'z hokimiyatini mustahkamlamoqda edi.

SHayboniyxon harbiy harakatlar olib borib markazlashgan davlat tuzish maqsadida goh te-muriylar, goh shimoldagi mo'g'ullar bilan ittifoq tuzdi. U 1487-88 yillarda O'tror, Sayram, YAssa (Turkiston), Sig'noq shaharlarini bosib olib, 1499 yilda Movarounnahr hududlariga jiddiy harbiy harakatlar boshladi.

Mahalliy hukmdorlar o'rtasidagi o'zaro kurashlar avj olgan Samarqand shahrini SHayboni-yxon 1500 yilning boshlarida jangsiz egalladi. Dasht uluqlari bir necha oy shaharni shafqatsiz talon-taroj qildilar. Bu esa mahalliy feodallar noroziligiga sabab bo'ldi. Bundan foydalangan Temuriy shahzoda Zahiriddin Muhammad Bobur o'sha yili (1500 yil) Samarqand taxtini ik-kinchi marta egalladi. Ammo mahalliy zodagonlar ko'pchiligi Boburni qo'llab-quvvatlamadilar. 1501 yilning bahorida Bobur SHayboniyxon bilan bo'lgan jangda yengiladi va Samarqandni

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOT VA MANBALAR:

1. Karimov I.A. Amir Temur davridagi bunyodkorlik va hamkorlik ruhi bizga namuna bo'laversin. Asarlar. 4-jild. Toshkent. O'zbekiston, 1996.
2. Karimov I.A. Amir Temur haqida so'z. Toshkent. O'zbekiston, 1996.
3. Temur tuzuklari. Toshkent. G'afur G'ulom nomli nashriyot, 1991.
4. Nizomiddin SHomiy. Zafarnoma. Toshkent. O'zbekiston, 1996.
5. SHarafuddin Ali YAzdiy. Zafarnoma. Toshkent. Kamalak, 1994.
6. Ahmedov B. Amir Temur: rivoyat va haqiqat. Toshkent. Qomuslar bosh tahririyati, 1996.
7. Ahmedov B. Amir Temurni yod etib. Toshkent. O'zbekiston, 1996.
8. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. I-II j. Toshkent. Mehnat, 1992.
9. Herman Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. Toshkent, 1990.
10. Ivanin M. Ikki buyuk sarkarda. CHingizxon va Amir Temur. Toshkent, 1994.
11. Amir Temur va temuriylar davrida madaniyat va san'at. Toshkent. G'afur G'ulom nomli nashriyot, 1996.
12. Mo'minov I. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. Toshkent. Fan, 1993.
13. O'zbekiston tarixi, 1-qism. Toshkent. Universitet, 1997, II-nashri, 1999.

8-MAVZU:
O'ZBEK XONLIKLARIDA IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOT.

REJA:

1. XV asr oxiri-XVI asr boshlarida Movarounnaxrdagi ijtimoiy-siyosiy hayot. Shayboniylar va Ashtarxoniylar sulolasi.
2. Buxoro amirligida ijtimoiy-siyosiy vaziyat..
3. Xiva xonligining tashkil topishi hamda Qo'ng'irotlar sulolasi boshqaruvi.
4. Qo'qon xonligining ichki va tashqi siyosati.

TAYANCH TUSHUNCHA VA IBORALAR:

O'zaro urushlar, SHohruh, Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Navoiy, SHayboniyxon, Bobur, Safoviylar, Ubaydulla Sulton, Abdullaxon II, ashtarxoniylar, hokimiyatni kuchaytirish uchun kurash, Xiva inoqlari va qo'ng'irotlari, Qo'qon minglari, Buxoro mang'itlari, xonliklardagi norozilik harakatlari, Rossiya bilan savdo aloqalari.

1405 yilda Amir Temur vafotidan so'ng uning yirik davlati parchalana boshladi. Temuriy shahzodalarning taxt uchun o'zaro kurashlari qudratli davlatning bo'linishiga asosiy sabablardan biri bo'ldi. Sohibqiron taxtiga valiahd qilib nabirasi Pirmuhammadni qoldirgan bo'lsada, ko'pgina amirlar va amaldorlar uning hukmronligini tan olmadilar. 1405 yil mart oyida Temurning boshqa bir nabirasi Xalil Sulton Samarqand taxtini egalladi. Undan tashqari, Xurosonda SHohruh; Balx, G'azna va Qandahorda Pirmuhammad; G'arbiy Eron va Ozarbayjonda Mirzo Umar va Abu Bakr Mirzo; Turkiston, Sabron, O'tror, Sayramda Amir Berdibek; O'ratepa va Farg'onada amir Xudoydod; Xorazmda amir Idiku o'zlarini hukmdor deb e'lon qildilar.

Mamlakatdagi parokandalik va o'zaro urushlarga barham berish uchun SHohruh Mirzo ko'p sa'yi-harakatlar qildi. XV asrning 20-yillariga kelib Amir Temur mulklarining qariyb hammasi

	2.3. O'yin texnologiyasi asosida reja savollari yuzasidan talabalarga o'z fikr-mulohazalarini bayon qilib berishini so'raydi. Talabalarning fikrlari umumlashtiriladi va xulosa qilinadi.	**2**-sonli slayd mazmuni bilan tanishadi
	2.4. Charxpalak texnologiyasi orqali talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichi aniqlanadi (**3**-ilova).	Bir necha talaba javob beradi.
III-bosqich. Yakuniy bosqich. (**10** minut)	**3.1**. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma'lum qiladi.	Savollarga javob beradi.
	3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi.	Tinglaydi.
	3.3. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi (**4**-ilova).	Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlarni yozib oladi.
	3.4. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi (**2**-ilova).	Yozadi.

1-slayd

O'zbek xalqining kelib chiqishi tarixida muhim ahamiyatga ega **3** davrga alohida ahamiyat berishimiz kerak:

Birinchidan mil.avv**. 3-2 asrlarda** O'rta Osiyo dasht mintaqalarida hozirgi o'zbek xalqiga xos antropologik qiyofa shakllana boshlagan. Bu esa fanda O'zbeklarga xos O'rta Osiyo ikki daryo orolig`i irqi Volga daryosi bo'ylarida va Uralda sarmat qabilalari tarkibida shakillanib tarqaldi degan, hamda bu irq Baykal ko'li atrofida va Mo'g`iliston cho'llarida shakillanib tayyor holda mahalliy aholiga o'z irqini tarqatdi degan fikrni rad etadi.

So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida o'zbeklarga xos antropologik qiyofa dastlab Sirdaryoning o'rta havzasi tumanlarida, Toshkent vohasi, Farg`ona vodiysi qisman Xorazm va Janubiy Qozog`istonning Chimkent viloyatlarida, Yettisuv mintaqasida mil. avv. **1 ming** yillik oxirida shakllana boshlaganligi aniqlandi.

Ikkinchidan milodiy **9-12** asrlarda O'rta Osiyoda, jumladan O'zbekistonda hozirgi o'zbeklarga xos qiyofa, mahalliy aholining asosiy qismini tashkil etdi. Fanda mo'g`ul istilosi O'zbekiston aholisining tashqi qiyofasiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan degan qarashlar hozirgi kunda noto'g`ri ekanligi isbotlandi. Chunki **13 asrda** mo'g`ul davlatida mo'g`ullar soni taxminan **0.7 million** kishidan iborat bo'lganligi aniqlandi. Bu davrda **Muhammad Xorazmshoh davlatida 20 million** aholi yashagan. Shu bilan birga mo'g`ul qo'shinlarining **10** dan **9** qismini turkiy xalqlar tashkil qilgan, bundan mo'g`ullarning turkiy xalqlarga ta'siri sezilarli bo'lmaganligini ko'rishimiz mumkin.

O'zbek xalqining shakillanishida **uchinchi** muhim davr **15 asr** oxiri **16 asr** hisoblanadi. Bu davrda dashti qipchoq o'zbeklari O'rta Osiyoga kirib keladi va ular mahalliy aholiga o'z nomini beradi. **1312 yil Muhammad Sultonning** xon qilib saylanishi, unga **O'zbekxon-o'zbeklarning xoni** degan unvonning berilishi bilan turkiy qabilalarning xalq bo'lib birlashuv jarayoni yana

boshlandi va asosan nihoyasiga yetdi. O'zbekxonning asl ismi Sulton Muhammad edi, xon saylovi quriltoyida unga O'zbekxon unvoni beriladi. Bu dalil to Sulton Muhammad xonlik taxtiga chiqguncha uni saylaganlar o'zlarini o'zbeklar deb hisoblaganliklarini bildirib turadi. Bu xalqning nomi O'zbek edi. O'zbeklar Oltin O'rda davlatida qariyb **250** yil yashadilar va xukmronlik qildilar.

O'zbek xalqining asosiy tarkibini tashkil etgan turkiy qabilalar quyidagilardan iborat:

Qorluq, o'g`uz, nayman, qiyot, qo'ngirot, kenagas, barlos, do'rmon, burqut, kurlaut, mang`it, do'ldoy, chimboy, chig`atoy, tuboy, qitoy, toymas, echki, shunqorli, shodboqli, jaloyir, qirq, yuz, ming, laqay, qotog`on, mojor, turk, saroy, elbek, qurama, qangli, uz, nukuz, tangut, uyg`ur, arg`in, aymoq, uyshun, g`onchi, qushchi, iyjon va boshqalar. Bu qabilalarning otlari ko'pgina tarixiy va badiiy asarlarda, hozirgi O'zbekiston hududida ham joy nomlari tarzida hamon saqlanib kelmoqda.

Mirzo Ulug`bekning shogirdi Mavlono Alouddin Ali ibn Muhammad **Qushchi** Samarqandiy qushchi qabilasidan bo'lib, **Ali Qushchi** oti bilan mashhur bo'lgan. Uning otasi Muhammad Qushchi Samarqandiy Amir Temur qarorgohi, ya'ni Ko'ksaroyning boshlig`i bo'lgan. Xusayn Boyqaro amirlari orasida **Ibrohim Do'ldoy** va **Ibrohim Chig`atoy** degan beklari bo'lgan, ular **do'ldoy** va **chig`atoy** qabilalaridandir.

2-slayd

"TALABALAR" (O'yin texnologiyasi)

Amaliy mashg`ulotda talabalarning, o'tilgan O'zbek xalqining etnik asosini tashkil etgan Vatanimiz hududidagi qadimgi aholi, ularning ijtimoiy-madaniy hayoti, o'zbek xalqining etnik shakllanishida muhim rol o'ynagan turkiy qavmlar va elatlar, "O'zbek" atamasining kelib chiqishiga oid ma'lumotlarni yoritishda **"Talabalar" (O'yin texnologiyasi)** dan foydalaniladi.

"Talabalar" (O'yin texnologiyasi)-quyidagicha: Auditoriyadagi barcha talabalar o'tilgan va o'tilayotgan mavzu yuzasidan o'zlarini qiziqtirgan savollarni yozadilar. Amaliy mashg`ulot davomida yozilgan savollarni o'qituvchi yig`ib olib, aralashtirib, talabalardan birma-bir shu savollarni tanlab olishlariga imkon beradi.

Har bir talaba savolga og`zaki aniq va lo'nda javob berishi talab etiladi. Agar talaba savolga noaniq javob bersa, savolni yozgan talaba aniqlik kiritadi. O'qituvchi talabaning javobiga qarabuni baholaydi.

Bu o'yin texnologiyasi qo'llanganda talaba izlanadi, fikr almashadi, aqli charxlanadi. Amaliy mashg`ulotda faol ishtirok etmayotgan talabani faollashtiradi.

Ijodiy yondoshuv bo'yicha baholanish mezonlari quyidagicha:

O'zbekiston tarixi fanining predmetini bilgan holda, uni jamiyatdagi, inson hayotidagi	O'zbekiston tarixi fanining kategoriya va strukturasini mustaqil tahlil qila oladilar va
50 %	**50** %

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-Toshkent: Sharq, **1998**.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-Toshkent: Ma'naviyat, **2008**.

«Tuzukot» da ham, tarixiy asarlarning mualliflari ibn Arabshoh, Nizomiddin SHomiy, SHarafuddin Ali YAzdiy, Abdurazzoq Samarkandiy, Davlatshoh Samarqandiy asalarida ham, de Klavixo kundaligida ham buni yaqqol ko'rish mumkin.

Temur o'z faoliyati davomida Olloh buyurgan oliy insoniy fazilatlarga astoydil amal qildi. Temur o'z farzandlariga qilgan vasiyatda shunday deydi: «... Millatning dardlariga darmon bo'lmoq vazifangizdir. Zaiflarni qo'ring, yo'qsillarni zanginlar (boylar) zulmiga tashlamang. Adolat va yillik (yaxshilik) qilmoq dasturingiz va rahbaringiz bo'lsin». Adolatni shunchalik qadrlagan hukmdor albatta xalq orasida katta obro'-e'tiborga ega bo'lishi tabiiy hol edi.

Temurning «Kuch-adolatda» degan so'zi haqiqatda shiorga aylanib, hamma davrlar uchun jaranglab turuvchi ibora tusini olganligini shohidi bo'lishimiz mumkin. Temur xalqning shikoyatlari va arzlarini o'rganuvchi maxsus arzbegi lavozimini joriy qilgan. Arzbegi shikoyat, arizalarni ko'rib chiqar, ularda kimlar aybdorligini aniqlar va bu xususda kengashga xabar qilar edi. Aybdorlar kim bo'lishidan qat'i nazar qattiq jazolangan. Soliqlar, moliyaviy masalalarda qat'iy tartibqoida o'rnatilgan. Rus sharqshunosi D.N. Logofet bu xususda shunday deb yozadi: «... biz hozir zo'r berib intilayotgan daromad solig'i degan narsa uning (Temurning) hokimiyatida o'shandayoq mavjud edi».

Temur ma'naviyati ulkan manba va tuganmas bir buloqdir. Hozirgi mustaqillikka erishgan davrimizda, yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda, milliy mafkura g'oyalarini fuqarolarimiz ongiga singdirishda bu manbaning ahamiyati beqiyosdir. SHuning uchun ham Prezidentimizning Amir Temur tavalludining 660 yillik tantanalari va keyingi vaqtdagi qator chiqishlarida bu manbaning ahamiyati takror va takror qayd etilmoqda. Temur ma'naviyatining bizga o'rgatuvchi, saboq bo'lguvchi joylari juda ko'pdir. Zero, bu ma'naviyat-bobokalonlarimizning bebaho ma'naviy boyligining bir bo'lagi bo'lib, yurtimiz ravnaqi va porloq kelajagi uchun hamisha xizmat qilajakdir.

Hurmatli yurtboshimiz Islom Karimov. Amir Temur davri ma'naviyati, sohibqiron shaxsiyati va u qoldirgan ulkan meros nima uchun zarurligi masalalariga to'xtalib, buni quyidagicha sharhlab berdilar: «Amir Temur avvalo qudratli davlat qurgan. Davlat qudratli bo'lmasa, betakror ma'naviy meros ham, obidalar ham, tarixiy yodgorliklar ham bo'lmasdi. O'zbekistonning bugungi ozodligini mustahkamlash davrida Amir Temur biz uchun buyuk davlat asoschisi sifatida qadrlidir. U davlat poydevorini qurgan, davlatning huquqiy asoslarini barpo etgan. Uning davlatchilik borasidagi fikrlari nafaqat o'z davri, balki kelgusi avlodlar uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Amir Temur o'z davlatini aql-zakovat va huquqiy asos bilan idora etgan. Uning «Davlat ishlarining to'qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini qilich bilan amalga oshirdim» degan so'zlari buning yorqin dalilidir».

MAVZUGA OID MUSTAQIL ISH MAVZULARI:

1. Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishi va markazlashgan davlat tuzishi.
2. Amir Temurning harbiy yurishlari.
3. Amir Temurning ichki va tashqi siyosati.
4. Temur tuzuklari.
5. Amir Temurning 660 yillik yubileyi o'tkazilishi.

«Temur tuzuklari» ikki qism, 56 ta banddan iborat tarixiy va huquqiy asar bo'lib, unda sohibqironning davlat tuzilish va mamlakatlarni boshqarish xususidagi nuqtai nazari bayon qilinadi. Bu asardan ko'plab sharq hukmdorlari o'zlarining faoliyatlari davomida foydalanganlar va unga yuqori baho berganlar. Jumladan, SHoh Jahon (1628-1657), Qo'qon xoni Muhammad Alixon (1821-1842), Buxoro amiri Abdullahadxon (1885-1910) «Tuzukot» dan parchalar ko'chirtirib, ulardan o'z faoliyatlarida foydalanganlar.

«Tuzuklar»ning birinchi qismida Amir Temurning yetti yoshidan to vafotiga qadar (1342-1405 yil 18 fevral) kechgan hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati, uning Movarounnahrda markaziy hokimiyatni qo'lga kiritishi, ijtimoiy tarqoqlikka barham berishi va markazlashgan davlat tuzishi, qo'shni yurt va mamlakatlarni, masalan Eron va Afg'onistonni o'z tasarrufiga kiritishi, Oltin O'rda xoni To'xtamishxon ustixon, nihoyat, buyuk jahongirning Ozarbayjon, Turkiya va Hindistonga qilgan harbiy yurishlari ixcham tarzda bayon etilgan.

Ikkinchi qismi Sohibqironning nomidan aytilgan va uning toju taxt vorislariga atalgan o'ziga xos vasiyat va pandu nasihatlaridan iboratdir. Unda davlatni idora qilishda kimlarga tayanish, toju-taxt egalarining burchi va vazifalari, vazir va qo'shin boshliqlarining burch va vazifalari, amirlar va boshqa mansabdorlarning toju taxt oldida ko'rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash tartibi va hokazolar xususida gap boradi.

Amir Temur o'z oldiga ulug' davlatning ichki siyosati va ishchan davlat tizimini qadimiy tajribalardan ijodiy foydalangan holda tuzish, harbiy siyosatni zamon talabi asosida tobora takomillashtirib, mo'g'ul istilosi asoratlarini tezroq bartaraf etib, xo'jalikni oyoqqa turg'izish, savdo-sotiq, hunarmandchilikni bir me'yorga tushirish va rivojlantirish, aholi manfaatlarini himoya qilish, islom diniga rivoj berish, ilm-fan, madaniyat, me'morchilikni tubdan rivojlantirish, obodonlashtirish ishlarini keng ko'lamda jadallashtirish kabi dolzarb vazifalarni qo'ygan edi. Uning bunday sa'y-harakatlari katta kuch-g'ayrat, mablag', bilim va oqilona tadbirlarni talab etar edi. Temur yetuk siyosatdon va mohir davlat arbobi bo'lib, u o'zidan avval o'tgan hukmdorlardan farqli ravishda, davlat va mamlakatni boshqarishda bir yoki ikki tabaqaga emas, balki aholining barcha tabaqalariga suyangan.

Amir Temur davri ma'naviyati va hozirgi zamon: Amir Temur shaxsini idrok etish-tarixni idrok etish demakdir. Amir Temurni anglash-o'zligimizni anglash demakdir.

Amir Temuni uluqlash-tarix qa'riga chuqur ildiz otgan tomirlarimizga, madaniyatmizga, qudratimizga asoslanib, buyuk kelajagimizga ishonchimizni mustahkamlash demakdir.

Islom Karimov

Ma'naviy ildizlarimizdan biri bu Temur ma'naviyatidir. Bu qudratli manba insoniyat tarixida tengi yo'q markazlashgan davlatchilikka, qonunchilikka asos solish bilan yer yuzining deyarli hamma mamlakatlarida o'rganilib, hozirgi kunda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biz faqat hozirgi kunga kelgandagina bu ma'naviyatni naqadar zarur ekanligini va buyuk kelajak sari qadam tashlayotgan xalqimiz uchun nihoyatda qadrli ekanligini anglamoqdamiz.

Amir Temur insonni qadrlay oladigan va uni farqlay oladigan ulkan arbob edi. Musulmonchilikda, «eng yaxshi kishining ikki qo'li ham to'g'ri bo'ladi, u bir qo'li bilangina emas, ikki qo'li bilan ham yaxshilik qiladi», degan hikmatli ibora bor. Amir Temur do'stiga ham, dushmaniga ham ana shunday ikki qo'li bilan yaxshilik qildi. Qolganlarni ham shunga undadi.

3. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi.-T.: Sharq, **2000**.
4. Murtazayeva R.X. va boshqalar. O'zbekiston tarixi. Darslik.-Toshkent, **2003**.
5. Sa'dullayev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda.-Toshkent: Universitet, **1996**.
6. Usmonov Q., Sodiqov M., Oblomurodov N. O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma.-Toshkent: Meros, **2002**.

3(**1**.**1**)-ilova

4-mavzu bo'yicha tayanch tushuncha va iboralar:

Etnos	Yunoncha so'z bo'lib, xalq degan ma'noni bildiradi.
Etnik an'analar	Ayrim etnoslarni bir-biridan farqlovchi muhim belgilaridan biri bu madaniy xususiyatlardir. Bu xususiyatlarni har bir xalq o'z tarixiy-madaniy rivojlanish jarayonida o'zlashtiradi va avloddan avlodga qoldiradi. Fanda bu jarayon «etnik an'analar» deyiladi.

4 (**1**.**1**)–ilova

4-mavzuni jonlantirish uchun savollar:
1. O'zbek xalqining kelib chiqishi tarixida muhim ahamiyatga ega **3** davr haqida ma'lumot bering.
2. O'zbek xalqining asosiy tarkibini tashkil etgan turkiy qabilalarni sanab bering.
3. O'zbek etnonimi haqidagi fikringizni bayon eting.

5-MAVZU: IX-XII ASRLARDA O'ZBEK DAVLATCHILIGI, SIYOSIY-IJTIMOIY, IQTISODIY, MADANIY HAYOT. (2 SOAT)

Ma'ruzani olib borish texnologiyasi

Talabalar soni:2 ta guruh	**Vaqti: 2 soat**
Mashg`ulot shakli	Mavzuga kirish bo'yicha ko'rgazmali-ma'ruza.
Ma'ruza rejasi	IX asrda Movarounnahrning siyosiy ahvoli. Toxiriylar davlatining tashkil topishi. Movarounnahrda Somoniylar hukmronligining boshlanishi. Soliq siyosati va yer, suv masalasi. Qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar davlatlarining tashkil topishi. Aholining etnik tarkibi va davlatning boshqaruv usullari. Xorazmshohlar sulolasining tashkil topishi. Davlatni boshqaruv tizimi. Agrar munosabatlar.
Mashg`ulotning maqsadi: IX-XII asrlarda o'zbek davlatchiligi: ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayot haqida tushuncha berish	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyati natijalari:

Mavzu tarixshunosligi haqida ma'lumot beriladi. IX asr boshlarida Movarounnahrning siyosiy ahvoli ochib beriladi. IX-XII asrlardagi davlatlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayoti haqida bilim beriladi.	Arab istilochilariga qarshi Vatanimiz xalqlarining ozodlik kurashi; Mustaqil davlatlarning vujudga kelishi; IX-XIIIasr boshlarida vujudga kelgan davlatlarning boshqaruv tizimi, ichki va tashqi siyosati, ma'naviy hayoti; O'rta asr allomalarining milliy davlatchilik haqida siyosiy qarashlari haqida bilim va ko'nikmaga ega bo'ladi.
O'qitish usullari va texnika	Ma'ruza, namoyish, aqliy hujum, klaster, blits-so'rov.
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, kompyuter slaydlari, doska, bo'r, latta, skoch, A**3** formatli qog`oz.
O'qitish shakllari	Yakka tartibda, frontal, guruhlarda ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Kompyuter, proyektor (yoki proyektor va LCD panel) mavjud auditoriyalar.
Monitoring va baholash	Og`zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

Ma'ruzaning texnologik xaritasi		
Ish jarayonlari	**Faoliyatning mazmuni**	
	O'qituvchi	**Talaba**
I-bosqich. Kursga va mavzuga kirish. (**20** minut)	**1.1**. O'quv kursining nomini aytib, kurs doirasida dastlabki umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi (**1**-ilova).	Tinglaydi.
	1.2. Mazkur kurs bo'yicha o'rganiladigan mavzular bo'yicha nazariy va amaliy mashg`ulotlar, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma'lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro'yxati bilan tanishtiradi (**2**-ilova).	Yozadi, tinglaydi.
	1.3. Birinchi o'quv mashg`uloti mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi.	Mavzu nomini yozib oladilar.
II-bosqich. Asosiy (**50** minut)	**2.1**. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida diqqatni jamlovchi savollar beradi: IX asr boshlarida Movarounnahrning siyosiy ahvoli qanday edi?. Savolga berilgan javoblarni tahlil qiladi.	Savollarga javob beradi.
	2.2. Ekranga IX-XII asrlardagi o'zbek davlatchiligi nomli (**1**-sonli) slaydni qo'yib, uni sharhlaydi.	**1**-sonli slayd mazmunini o'rganadi, kursning roli va ahamiyati haqida o'z

qo'shnichilik qilish, savdo karvon yo'llarini rivojlantirish niyati borligini ko'rsatib o'z davlati shuhratini yevropaga tarqata oldi. Uning saltanatini dovrug'i bu mamlakatlarga yetib borishi bilan Fransiya, Angliya, Genuya, Vizantiya, Ispaniya kabi davlatlarning qirollari sohibqiron bilan siyosiy, iqtisodiy, savdo aloqalari o'rnatishga intilganlar. SHu bois ular sohibqiron huzuriga muntazam elchilar yuborib turganlar. Temurning chet davlatlar bilan olib borgan diplomatik aloqalarida uning o'g'li Mironshoh ko'p yordam bergan.

Amir Temur davrida diniy ilmlar va dunyoviy fanlar barqaror bo'lgan. Sohibqiron o'z davrining fan va madaniyati jonkuyari sifatida shuhrat qozondi. Temur taqvodor ruhoniylarga chuqur hurmat bilan qaradi. Ularning duolarini oldi, doimo kamsitilgan mazhab tarafdorlarini o'z himoyasiga oldi. Darvesh, faqir va miskinlarni o'ziga yaqin tutib, ularni ranjitmaslik uchun barcha talablarini bajardi.

O'rta Osiyo xalqlarining ma'naviy taraqqiyotida Temurning diniy va dunyoviy bilimlariga e'tibor berishi katta ahamiyatga ega edi. Sohibqiron doimo ilm ahli va ulamo bilan suhbatda bo'lib, qalbi toza kishilarga talpingan. Temur davridagi ilm-fan, me'morchilik, san'at sohalari o'z davriga nisbatan o'ta darajada rivojlanib, yuksak ma'naviy boylik darajasiga ko'tarildi. SHu davrning nodir qo'lyozmalari tarixning mo'jizasiga aylanib qoldi.

Din jamiyatda mafkuraning ustunlaridan biri bo'lganligi sababli sohibqiron dinga keng e'tibor berdi. U nafaqat askarlarini, balki barcha fuqarolarini musulmonchilik ruhida tarbiyalashga harakat qilgan. Uning doimo amal qilib kelgan «Kuch adolatdadir» degan so'zlari uning davlatni boshqarishdagi yuksak qobiliyatidan dalolat beradi.

Mashhur muarrixlardan biri Nizomiddin SHomiy o'zining «Zafarnoma» asarida shunday yozadi: «... uning adolatiyu siyosati o'rnatilgan kunlarda Movarounnahrning eng chekka joylaridagina emas, balki Xo'tan chegarasidan Dehli va Kanboyit atrofigacha, Bobil Abvobdan to Misr va Rum hududigacha bo'lgan yerlardan savdogarlar u yerda tursin, bolalaru, beva xotinlar ham ipakli matolar, oltin-kumush va eng zarur tijorat mollari keltirardilar va olib ketardilar. Hech bir kimsa ularning bir doniga ham ko'z olaytira olmaydi va bir dirhamiga ham ziyon yetkazmaydi. Bu cheksiz ne'mat va poyonsiz marhamatlar Amir sohibqironning siyosati va adolati natijasidandir».

Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, Temurning hayoti katta jangnoma, u ko'plab mamlakatlarni o'z tasarrufiga oldi. Lekin bu yerdagi asosiy masala-Temur shaxsining ustunligini va idora qilish qudratining sirlarini, mohir sarkarda va tinchlik pos-boni, fuqaro farovonligi rahnamosi sifatidagi shaxs ekanligi, uning yuksak me'moriy inshootlar qurishdagi o'rnini izohlash, uning yechimini topishdir.

«Temur tuzuklari» - adolatli hamda kuchli davlat barpo etishdagi muhim qonun-qoidalar sifatida:

Buyuk strateg, mohir siyosatchi, eskirgan ijtimoiy munosabatlarning qat'iy islohatchisi, savdo-sotiq, hunarmandchilik va madaniyatning homiysi bo'lgan Amir Temur «Qonunlar va urf -odatlarga asoslangan» davlatni barpo etdi.

Islom Karimov

Amir Temur va temuriylar davrida yozilgan tarixiy asarlar anchagina bo'lib, ular orasida «Temur tuzuklari» buyuk jahongir hayotiga va faoliyatiga bag'ishlangan asarlar ichida shubhasiz alohida ahamiyat kasb etadi. «Temur tuzuklari» jahonning mashhur kutubxonalaridan joy olgan qimmatli asardir.

olinadigan daromadning uchdan bir qismiga teng bo'lgan. Temur tuzuklarida yozilishicha, kimki biron sahroni obod qilsa, yoki yer osti suvlarini tortib oladigan inshoot qursa, yo, biron bog' ko'kartirsa, yoxud biron tashlandiq yerni obod qilsa, faqat yerni o'zlashtirganining uchinchi yili (birinchi, ikkinchi yil umuman to'lamagan) qonun doirasida xiroj solig'i olingan. Undan tashqari ushr, mol, suvloq kabi soliq turlari mavjud bo'lib, ular yillar davomida amal qilingan tartib-qoidalarga binoan to'plangan. Soliq to'plovchi soliq yig'ish jarayonida soliqni yaxshi so'zlar bilan to'plashi, aholini kaltaklash hollari, zanjirband etish hollari kelib chiqmasligini nazorat qilishi shart edi.

Amir Temur davlatni mustahkamlashda qonun-qoidalarning tutgan o'rniga keng e'tibor berdi. Fransuz olimi Alfons de Lamartin Amir Temur davlati haqida shuday degan edi: «Evropa na Iskandarda, na Atillada va na Moskoviya zafarini quchgan yangi fotih Napoleonda adolatli qonunlar asosiga qurilgan bunday boshqaruvni bunyod etgan emas». «Davlat ishlarini, - deb yozgan edi Amir Temur, - saltanat qonun-qoidalariga asoslangan holda boshqardim. To'ra va tuzukka tayanib saltanatda o'z martaba va maqomimni mustahkam saqlab turdim».

Sohibqiron mamlakat obodonchiligiga ham juda katta e'tibor berdi. Dastlab, Samarqandni poytaxt qilib olgach, u juda katta imtiyozlarga ega bo'lgan shaharga aylanadi. Sohibqiron harakati bilan Samarqandda dunyoning yirik shaharlaridan keltirilgan binokorlar, me'morlar tomonidan masjidlar, madrasalar, maqbaralar bino etildi. Hatto g'ariblarga oziq-ovqat beradigan g'aribxonalar, yo'lovchilar qo'nib o'tadigan maxsus joylar ham qurilgan. SHahar atrofi mustahkam devorlar bilan o'ralib, Ohanin, SHayxzoda, CHorsu, Korizgoh, So'zangaron va Feruza kabi nomlar bilan darvozalar quriladi. Temurning qarorgohi sifatida noyob ma'muriy bino Ko'ksaroy va Bo'stonsaroylar ham aynan shu yerda quriladi. Temur noyob qurilishlardan tashqari Samarqand atrofida o'zining xeshu aqrabolariga atab turli go'zal bog'lar qurdirardi.

Temur ulkan sohibqiron sifatida o'zining ona yurti Keshga katta diqqat-e'tibor bilan qaradi. YOzma manbalardagi ma'lumotlariga qaraganda, Amir Temur SHahrisabzda Oqsaroy, jome' masjid, madrasalar barpo ettiradi. Sohibqirondagi ulug' sahovatning yana bir tomoni shunda ediki, u bepoyon dashtlar bilan qamrab olingan Turkiston shahrini ham obodonchiligiga keng e'tibor berdi. Jumladan, Xoja Ahmad YAssaviy maqbarasini qurish bilan bu yerda nafaqat obodonchilik, balki ko'chmanchi va o'troq aholi orasidagi munosabatni yaxshi yo'lga qo'yish, urug'lar o'rtasida tinchlik saqlash maqsadi yotgani ma'lum.

Amir Temur davrida yangi shaharlar, savdo va hunarmandchilik keng rivojlanganligini aytib o'tmoq lozim. Temurning sa'y-harakatlari bilan Buxoro, SHahrisabz, Toshkent kabi shaharlar savdo va hunarmandchilik markazlari sifatida rivojlanib bordi. Ayniqsa, bu davrlarda hunarmandchilikning keng rivojlanishi shaharlarda hunarmandchilik mahallalari, savdo rastalari soni ortib borishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Sohibqiron savdo yo'llari rivojiga, uning tinchligiga keng e'tibor berib bordi. SHaxsan o'zining nazorati ostida savdo yo'llari nazorat qilib borilishi savdo karvonlarining xavfsizligini ta'minladi.

Amir Temur davlatining mafkurasi ijtimoiy-iqtisodiy hayotni izga solib yo'naltirishdan tashqari siyosiy hayotda ham kuch keng yo'lga qo'ydi. Sohibqiron chet davlatlar bilan aloqani keng yo'lga qo'ydi. U davr shart-sharoitlariga ko'ra tashqi siyosatda qat'iy, faol harakat qilib, o'z saltanati dovrug'ini jahon miqyosiga chiqara oldi. Sohibqironning Yildirim Boyazid ustidan bo'lgan g'alabalaridan so'ng Fransiya, Angliya, Genuya va Vizantiya erkin aloqalarni, savdogarlar va mol almashishni taklif etgan. SHunday qilib u yevropa davlatlari bilan yaqin

		fikr-mulohazalarini aytadi.
	2.3. Ekranda "Somoniylar davlatining boshqaruv tizimi" ko'rsatiladi (**2**-sonli slayd), rejaning **2**-savoli yuzasidan talabalarga o'z fikr-mulohazalarini bayon qilib berishini so'raydi. Talabalarning fikrlari umumlashtiriladi va xulosa qilinadi.	**2**-sonli slayd mazmuni bilan tanishadi
	2.4. Blits-so'rov orqali Xorazmshohlar hukmdorlaridan kimlarni bilasiz? deb bir necha talabalardan so'raladi (**3**-ilova), olingan javoblar tahlil etilib, xulosa qilinadi.	Bir necha talaba javob beradi.
III-bosqich. Yakuniy bosqich. (**10** minut)	**3.1**. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma'lum qiladi.	Savollarga javob beradi.
	3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi.	Tinglaydi.
	3.3. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi (**4**-ilova).	Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlarni yozib oladi.
	3.4. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi (**2**-ilova).	Yozadi.

№	6-MAVZU: IX –XII asrlardagi Markaziy Osiyodagi davlatchilik		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	31	32
			360	**570**	Anushtaginiylar sulolasi	Ko'pxudolik, budparastlik	**622**	Abu Bakr	Badaviylar	Yozdigard 3	**651** yilda Marv	Arabiston yarim oroli	Umar	Tohir ibn Xusayn 2 ta guruh yilda	Itoat, bo'ysunish	Sobuqtegin	Saljuqbek	Usmon	**705** yilda Xurosonning	Talon-tarojlik bilan boylik orttirish	Sotuq Bag'roxon (915-955)	Ali	Dehqonlarning yaxshi qurollangan harbiy bo'linmalari askarlari	Barcha boj va soliqlardan	Xudotlar	Zimmiylar	Yarim ozod kadivarlar, ozodlikka chiqqan qullar va qaram qullar	Somonxudotning avlodlari	Qur'oni Karim va Payg'ambar ko'rsatmalari nasihatlariga	Taharat, namozlarni amalga	Jiz'ya, xiroj
1	Islom dining vatani qayer											+																			
2	Arabistonda ko'chmanchilar kimlar deb atalgan								+																						
3	Islom dinidan oldin aholi o'rtasida qanday din urf bo'lgan																														
4	Ka'bada nechta but bo'lgan	+																													
5	Islom qanday ma'noni anglatadi														+																
6	Payg'ambarimiz tavallud topgan yil			+																											
7	Makkadan Madinaga qachon hijrat qilingan						+																								
8	Arab xalifaligiga kimlar asos soldi							+					+					+													
9	So'nggi Eron shoxi									+																					
10	Arablarning O'rta Osiyoga dastlabki yurishi qachondan boshlangan										+																				
11	**720** yildagi So'g'd qo'zg'oloniga kimlar boshchilik qildi																														
12	Qutayba ibn Muslim qachon va qaysi viloyatning noibi bo'ldi																														
13	Arablarning Mavaraunnahrga qarshi harbiy yurishlari o'z maqsadiga ko'ra ikki davrga bo'linadi, ularning maqsadlari																		+												

Amir Temur 1398 yilda Hindistonga qilgan yurishida Dehli shahrini, 1400 yilda Suriyaga qilgan yurishida Halab va Bayrut shaharlarini, 1401 yilda Damashq shahrini egallaydi.

1402 yilda usmoniylar imperiyasining sultoni Yildirim Boyazidga qarshi yurishida uni mag'lubiyatga uchratdi. Bu g'alaba bilan Temur yevropaning usmoniylar asoratiga tushishini bir necha o'n yillar orqaga surib yubordi.

Temur 1404 yilda Kichik Osiyodan Samarqandga keladi va Xitoyga yurish uchun harbiy taraddud ko'radi. SHubhasiz, Temur bu yurish uchun uzoq yillar tayyorlanib, jang uchun kerakli bo'lgan ma'lumotlarni yillar davomida to'plagan edi. 1404 yilda Temur 200 minglik qo'shin bilan Xitoy safariga otlandi. Ammo Temurning qattiq betobligi tufayli uning qo'shinlari 1405 yilning yanvar oyida Xitoyga yaqin bo'lgan chegara shahar O'tror shahrida to'xtaydilar va shu yerda 1405 yilning 18 fevralida buyuk sohibqiron Amir Temur vafot etadi.

Amur Temur davlatining ichki va tashqi siyosati: «Siyosatda maslahat, mulohazakorlik, o'ylab ish qilish qurol kuchidan o'n baravar foydaliroqdir», degan dono so'zlar Amir Temurga mansubdir. Bu so'zlar hozirgi tilda nizoli masalalarni siyosiy muloqot, ogohlantiruvchi diplomatiya yo'li bilan hal qilishni bildiradi.

Amir Temurning tarixiy xizmati yana shundan iboratki, uning harakatlari tufayli Osiyo va yevropa davlatlari tarixda birinchi marta yagona-jo'g'rofiy-siyosiy makonda ekanliklarini his etdi.

Islom Karimov

Temur o'zining hayoti davomida harbiy iste'dodi, mohir sarkardaligi, diplomatliligi va yetuk davlat arbobi bo'lganligi tufayli milliy yuksalish va insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan ulkan markazlashgan davlat tuzishga muvaffaq bo'ldi. Sohibqiron turk-mo'g'ul an'analariga amal qilgan holda o'z davlati hududlarini suyurg'ol (ulus) tariqasida in'om qilish yo'li bilan boshqargan. Temur Movarounnahrdan tashqaridagi yerlarini to'rt ulusga bo'lib, farzandlariga in'om etdi. Bu masalaning e'tiborli tomoni shundaki, garchi sohibqiron tomonidan bo'lib berilgan yerlar ichki mustaqillikka ega bo'lsalar-da, lekin amalda batamom markaziy hokimiyatga bo'ysundilar. Temurning o'ta darajadagi zukkoligini shundan bilsa bo'ladiki, u uluslar o'rtasida o'zaro nizolar kelib chiqmasligi uchun ularning faoliyatini doimo o'zi nazorat qilib turadi.

Temur davlatining eng ko'zga ko'ringan va muammoli tomoni shundaki, sohibqiron kichik bir viloyat doirasida tarbiya topgan bo'lsa-da, davlat mafkurasining boshqaruv tayanchi kuchli hokimiyat ekanligini tushundi va davlat, saltanat ishlarini yuzaga chiqarishda kamchilikka yo'l qo'ymaydigan vazirlarni tanlashga harakat qildi. Amir Temur vazir to'rtta sifatga ega bo'lishi lozim deb hisoblagan: birinchisi-asllik, toza nasllilik, ikkinchisi-aql-farosatlilik, uchinchisi-sipohu raiyat ahlidan xabardorlik, to'rtinchisi-sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik.

Amir Temur hukmronlik qilgan davlarda davlatning markaziy ma'muriyati boshida devonbegi, arkbegi va to'rt vazir turgan. Vazirlar soliqlar yig'ish, meros ishlari, askarlar maoshi va ularni oziq-ovqat bilan ta'minlash, saroy xarajatlari bilan bog'liq bo'lgan ishlarni bajarganlar.

Bu davrlarda yerga egalikning ba'zi turlari mavjud bo'lib, ular suyurg'ol yerlar, vaqf yerlar, jamoa yerlari edi. Xususiy yer egalari tarxon unvonini olganlar, davlatga soliq to'lashda ba'zi imkoniyatlarga ega bo'lganlar, vaqf yerlar masjid va madrasalarga qarashli yerlar bo'lib, ular soliq to'lashdan ozod qilganlar. Amir Temur davrida asosiy soliq daromad solig'i-xiroj bo'lib, u

Movarounnahrda mo’g’ullar ustidan qozonilgan g’alaba haqida xabar eshitgach, Amir Temur va Amir Husayn Movarounnahrga yo’l olib Samarqand yaqinidagi Konigil degan joyda sarbadorlarning rahbarlari bilan uchrashadilar. Bu uchrashuvda o’zaro kelishmovchilik kelib chiqib, sarbadorlarning rahbarlari hiyla yo’li bilan o’ldiriladi. Movarounnahrda Samarqand taxtini Amir Husayn egallab, uning hukmronligi tiklanadi. SHu vaqtdan boshlab Amir Husayn va Amir Temur o’rtasidagi munosabatlar yanada keskinlashib ketadi.

Bu vaqtga kelib butun Movarounnahr yerlarida o’zaro urushlardan so’ng ijtimoiy-iqtisodiy ahvol og’irlashib ketgan edi. Mana shunday bir vaqtda, mamlakatda o’zaro urushlarga barham beradigan markazlashgan davlat tizimini barpo etish nihoyatda zarur edi. Buni birinchi bo’lib anglagan Amir Temur Amir Husaynga qarshi zimdan kurash olib borib 1370 yilda Movarounnahr taxtini egallashga muvaffaq bo’ladi.

Vatan haqida qayg’urish, Vatan mustaqilligini tiklash haqidagi fikrlar shu yillar yuzaga chiqib, Amir Temur Balx shahrida chaqirilgan qurultoyda Movarounnahrning amiri deb e’lon qilinadi. Temur o’z tasarrufida markazlashgan davlatni yuzaga keltirish maqsadida Kesh shahridan Samarqandga ko’chib o’tib, uni Movarounnahrning poytaxtiga aylantiradi. Sohibqiron aniq mulohazalari bilan xalqni zulmdan ozod qilish va uzoq yillik boshboshdoqlik hukmron bo’lgan yerda markazlashgan davlat tuzish mushkulligini sezganligi sababli dastlab mamlakatni tashqi xavfdan saqlash maqsadida asosini barlos urug’lari tashkil etgan yengilmas va jangovor milliy qo’shin tuzadi, ularga katta imtiyozlar beradi.

Temur davlat boshqaruvida, ichki va tashqi siyosatda asosan o’z qo’shinlariga suyanganligi sababli harbiy islohotga, ya’ni qo’shin boshliqlarini tanlash, lashkar qismlar, ularning joylashishi, askarlarning qurollanishi va harbiy intizom masalalariga keng e’tibor bergan. U qo’shinlarini o’nlik, yuzlik, minglik kabi askariy birikmalarga bo’lgan. Uning uchun har bir askar jang qilish uslublarini yaxshi bilishi farz hisoblagan. Amir Temur lashkarlarga ham katta e’tibor berib, ular nizomni qat’iy bajarishi, jangda ayovsiz va dovyurak bo’lishi, dushmanga yumshoq muomalali va adolatli bo’lishi lozim deb hisoblardi. Ibn Arabshohning yozishicha, Temur askarlari ichida taqvodor, saxovatli, xudojo’y kishilar ko’p bo’lgan. Ular bechoralarga xayru ehson ko’rsatish, boshga og’ir kunlar tushganda yordam qo’lini cho’zish, asirlarga yumshoq muomalada bo’lish va ularni ozod etishga odatlanganlar. Amir Temur doim jangda jasorat ko’rsatgan amirlar va askarlarga alohida e’tibor bilan qaradi. Natijada Sohibqiron uyushqoqlik hukm surgan yuz minglik qo’shinlari ichida intizomni mustahkamlash bilan o’z davlatining poydevori bo’lgan qo’shin tuzishga muvaffaq bo’ldi.

Temur Movarounnahr taxtini egallagan vaqtdan boshlab, o’z davlati chegaralarini mumkin qadar kengaytirishga kirishadi. SHu maqsadda u Amudaryo va Sirdaryo oralig’idagi yerlarni o’z tasarrufiga oladi. Xorazmga besh marotaba yurish qilib, 1388 yilda uni butunlay bo’ysundiradi, bu yerda hukmronlik qilayotgan so’fiylar sulolasini tugatadi. Temur o’zining uch yillik (1386-1388), besh yillik (1392-1398), yetti yillik (1399-1405) yurishlari davomida Ozarbayjonda jaloyirlar, Sabzavorda sarbadorlar davlatini, Hirotda kurdlar davlatini tugatib, Eron va Xurosonni o’z tasarrufiga oladi. 1394-1395 yillarda Oltin O’rda xoni To’xtamishga qarshi yurish qilib, uning ko’p sonli qo’shinini mag’lubiyatga uchratadi va Oltin O’rda hududini egallaydi. Temurning bu g’alabasi Oltin O’rdaga juda katta zarba berish bilan birga Temur qo’shinlarining Volga daryosi bo’ylarida bemalol yurishlariga ham keng yo’l ochdi. Ta’kidlash joizki, Temurning bu g’alabalari tarix sahnasida ulkan ahamiyat kasb etdi.

	Ko’pgina yirik yer egalari kimlar	Chokarlar kimlar	Musulmon dinini qabul qilganlar nimadan ozod etilar edi	Xalifalikning huquqiy masalalari qanday hal qilinar edi	Islom dinini qabul qilmagan soliq to’lovchilar kimlar	Mehnatkashlar tarkibi kimlardan iborat	Sug’diylar qanday soliqlar to’laganlar	Qozi sud qilishdan oldin qanday amalni bajargan	Toxiriylar davlatiga kim asossolgan	Movaraunnahrdagi ulkan xalq qo’zg’oloni qanday nomlangan	Somoniylar davlatiga kimlar asos solgan	Qoraxoniylar davlatiga kim asos solgan	G’aznaviylar davlatining asoschisi kim	Xorazmshohlar davlatiga kim asos solgan	Saljuqiylar davlatiga kim asos soldi
14							+								
15								+							
16				+											
17											+				
18						+									
19					+										
20	+														
21			+												
22		+													
23												+			
24															
25															
26															
27															
28															

"Ч А Р Х П А Л А К" технологиясининг жавоби

5-мавзу. IX-XII асрларда ўзбек давлатчилиги: ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий ҳаёт	
Саволлар	**Жавоблар**
1	**10**
2	**7**
3	**4**
4	**1**
5	**13**
6	**2**
7	**5**
8	**6,11,16,20**
9	**8**
10	**9**
11	**30**
12	**17**
13	**18,28**
14	**23**
15	**21**
16	**22**
17	**27**
18	**24**
19	**25**
20	**32**
21	**31**
22	**12**
23	**29**
24	**26**
25	**19**
26	**14**
27	**3**
28	**15**

Kimki o'zbek nomini, o'zbek millatining kuch-qudratini, adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini, uning umumbashariyat rivojiga qo'shgan hissasini, kelajakka ishonchini anglamoqchi bo'lsa, Amir Temur siymosini eslashi kerak.

Islom Karimov

XIV asr o'rtalarida CHingizxon egallab olgan yerlar uning merosxo'rlari qo'l ostida bo'lsa ham, bu yerlar mayda bo'laklarga bo'linib ketib, ularda toju taxt, hokimiyat uchun o'zaro nizolar kuchayib ketgan edi. 1348 yilga kelib SHarqiy Turkiston yerlarida Mo'g'uliston feodal davlati tashkil topdi, uning xoni etib CHig'atoy avlodidan Tug'luq Temur ko'tarildi. Tug'luq Temur dastlabki davrlardanoq o'z yerlarini kengaytirish maqsadida Movarounnahr yerlariga bir necha harbiy harakatlar uyushtirdi. Mana shunday ichki o'zaro urushlar avj olib, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy inqiroz kuchayib borgan davrda tarix maydoniga mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashda nom chiqargan buyuk sohibqiron, mohir sarkarda Amir Temur kirib keldi.

Amir Temur SHahrisabz yaqinidagi Xo'ja Ilg'or qishlog'ida Barlos beklaridan Muhammad Tarag'ay oilasida 1336 yil 8 aprelda dunyoga kelgan. Uning amakisi Hoji Barlos Kesh shahrining hokimi edi. Temur yoshligidanoq harbiy mahoratga ega shaxs bo'lib, u o'z atrofiga barlos urug'idan chiqqan yosh jangchilarni to'plagan edi. 1360-1361 yillarda Tug'luq Temur hech qanday qarshiliksiz Movarounnahr yerlariga bostirib kirganida Hoji Barlos Xurosonga qochadi. Vatanparvarlik, milliy Qurur va iftixor hissiyoti kuchli bo'lgan yosh Temur esa amakisi hokimlik qilib turgan yerlarini dushman qo'liga bermaslik uchun Tug'luq Temur xizmatiga kiradi va tez orada uning ishonchini oqlab, Kesh viloyati yerlariga hokimlik qilish uchun yorliq oladi.

Amir Temurning bu ishi Movarounnahrda siyosiy tarqoqlik, o'zaro kurashlar va boshboshdoqlik hukm surgan davrdagi birdan-bir to'g'ri yo'l edi. CHunki Movarounnahr amirlarining Tug'luq Temurga qarshi bosh ko'tarib chiqishi mo'g'ul bosqinchilarining Movarounnahr yerlarini yana bir bor vayron etishiga olib kelishi muqarrar edi.

Tug'luq Temur 1361 yilda Movarounnahr yerlarini boshqarishni tajribasiz o'g'li Ilyosxo'jaga topshiradi. Lekin Temur Ilyosxo'jaga xizmat qilishdan bosh tortib, o'sha vaqtda Balx hokimi bo'lib turgan Amir Qozog'onning nabirasi Amir Husayn bilan ittifoq tuzadi. Temur o'z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida mo'g'ullarga qarshi kurash boshlaydi. Mahalliy hokimiyat uchun bo'lgan janglarning birida, aniqrog'i Seyistonda turkmanlarga qarshi bo'lgan janglarda o'ng qo'li va o'ng oyog'idan yaralanib bir umrga oqsoq bo'lib qoladi.

1363 yilda Tug'luq Temurning vafoti Movarounnahr uchun bo'lgan kurashlarni kuchaytirib yuboradi. Lekin mo'g'ul bosqinchilari osonlikcha Movarounnahr yerlarini bermasliklari ma'lum edi. SHu munosabat bilan Amir Temur va Tug'luq Temur vafotidan so'ng Movarounnahrdan haydalgan Amir Husaynning birlashgan qo'shinlari 1365 yilda Ilyosxo'ja qo'shinlariga qarshi ittifoqlikda kurash boshlaydilar. Toshkent va CHinoz oralig'ida bo'lgan mashhur «loy jangi» ittifoqchilar o'rtasidagi kelishmovchilik tufayli mag'lubiyat bilan tugaydi. Ushbu voqealardan so'ng Amir Husayn va Amir Temur o'rtasida dastlabki ixtilof boshlanadi. «Loy jangi»da g'alabaga erishgan Ilyosxo'ja uchun Movarounnahrga keng yo'l ochilgan edi.

U katta qo'shinlar bilan Samarqandga yurish boshlaydi. Bu paytda Samarqanddagi Mavlonzoda va Abu Bakr Qalaviy boshliq sarbadorlar Ilyosxo'jaga qarshi chiqadilar. Mahalliy aholining vatanparvarlik namunalarini ko'rsatib qarshilik qilganliklari tufayli Samarqandni bir oz qamal qilib turgan mo'g'ul qo'shinlari Movarounnahrni butunlay tark etishga majbur bo'ladilar.

Botu va Saroy Berke, Eronda Sulaymoniya kabi yangi shaharlar barpo etildi. Ularni qurishda mahalliy aholining hissasini yoddan chiqarmaslik zarur. Mo'ng'ul xonlari Movarounnahrga kelib fan va madaniyatdan bahramand bo'ldi. Ular xat savodni shu yerdan o'rgandi. Chunki tashkil topayotgan davlatni boshqarish uchun savodli kishilar zarur edi. Shu yerda ma'ruzachi Movarounnahrni yana bir karra madaniyat markazi ekanligini «Nur Sharqdan chiqishini» ta'kidlab o'tishi lozim bo'ladi.

Bu davrda Movarounnahrda ko'plab maqbaralar, me'moriy ansambillar «ma'suriya va Xoniya» kabi madrasalar barpo etildi. bu davrda fors-tojik poeziyasining yirik namoyondalari Jaloliddin Rumiy, Sa'di-Sheroziy, Amir Xisrav Dehlaviy kabi buyuk siymolar yashab ijod etganlar.

Shunday qilib XIII-XIV asrning I-yarmi vatanimiz tarixida eng og'ir davr bo'ldi. Chunki Mo'ng'ullar istilosi va zulmi o'lkamiz xalqlari hayotida og'ir iz qoldirdi. Mamlakatimiz hayoti taraqqiyotini bir necha un va yuz yillab orqaga surib yubordi, ammo uni to'xtatib qololmadi. Ozodlik, xurlik va mustaqillikga tashna bo'lgan avlodlarimiz mo'ng'ullar zulmiga qarshi kurashdilar, va nihoyat mo'ng'ul bosqinchilarini mamlakatimiz tuprog'idan uloqtirib tashladilar. Bu ozodlik kurashi ulug' bobomiz Amir Temur faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOT VA MANBALAR:

1. Karimov I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q», T. Sharq, 1998.
2. Karimov Sh., Shamsiddinov R. Vatan tarixi, T. 1997.
3. Abulg'oziy "Shajarai turk", T. Chulpon, 1992.
4. Vamberi X. «Buxoro yoxud Movarounnaxr tarixi», T. 1990.
5. Bayoniy M.YU. "Shajarai Xorazimshoxiy", T. 1994.
6. Mug'ullar istilosi (1218-1226), Sharq yulduzi, 1990, №4.
7. Murtozayeva R.X. va b. O'zbekiston tarixi (ma'ruzalar matni), T. 2000, 221-265 betlar.
8. Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Xalq so'zi, 1998, 21-oktyabr.

7-MAVZU:
AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA O'ZBEK DAVLATCHILIGINING YUKSALISHI. IJTIMOIY, SIYOSIY-IQTISODIY VA MADANIY HAYOT.

REJA:

1. Amir Temurning markazlashgan davlat tuzish uchun kurashi va harbiy yurishlari.
2. Amir Temur vafotidan so'ng Temuriylar davlatidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat.
3. XV asrning **2**-yarmida Movarounnaxr va Xuroson. Temuriylar saltanatining inqirozga yuz tutishi.
4. Temuriylar hukmronligi (**1405-1506** yy.) davrida ilm-fan va madaniy hayot.

TAYANCH TUSHUNCHA VA IBORALAR:

Markazlashgan davlat, Amir Temur, «Loy jangi», Ilyosxo'ja, Sarbadorlar, Temur davlati, harbiy yurishlar, Anqara jangi, suyurqol, devonbegi, arkbegi, tarxon, «Kuch adolatdadir», «Temur tuzuklari», Temur davri ma'naviyati.

1(**1**.**1**)-ilova

Kurs bo'yicha tinglovchilarning o'zlashtirishlarinibaholash mezonlari

Muddati	Nazorat shakllari	Reyting ballari
Amaliy mashg`ulot darsida.	Amaliy mashg`ulotda individual topshiriqlarni bajarish va guruhda ishlash.	**45** ball
Kurs tugagandan so'ng bir hafta ichida.	Mustaqil ish variantlari bo'yicha individual topshiriqlarni bajarish.	**10** ball
Kurs oxirida.	Test topshirish.	**15** ball
Doimiy.	Ijodiy yondoshuv.	**30** ball
Jami:		**100** ball

86%-100% – «A'lo»
71%-85% – «Yaxshi»
56%-70% – «Qoniqarli»
0%-55% – «Qoniqarsiz»

Kurs bo'yicha baholashda bilish, tushunish, tadbiq qilish, tahlil qilish, sintez qilish va baholay olish mezonlariga asoslaniladi.

Talabalar har bir amaliy mashg`ulotda **2** ballgacha olishlari mumkin bo'lib, unda quyidagi mezonlar asosida baholaniladi.

Asosiy tushunchalarni biladilar	Mavzu bo'yicha asosiy kategoriya va qonunlarni tushunadilar	Usullarni qo'llay oladilar	Natijalarni tahlil qila oladilar
20 %	**20** %	**30** %	**30** %

Ijodiy yondoshuv bo'yicha baholanish mezonlari quyidagicha:

O'zbekiston tarixi fanining predmetini bilgan holda, uni jamiyatdagi, inson hayotidagi ahamiyatini isbotlay oladilar	O'zbekiston tarixi fanining kategoriya va strukturasini mustaqil tahlil qila oladilar va xulosa chiqara oladilar
50 %	**50** %

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-Toshkent: Sharq, **1998**.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-Toshkent: Ma'naviyat, **2008**.
3. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi.-T.: Sharq, **2000**.
4. Murtazayeva R.X. va boshqalar. O'zbekiston tarixi. Darslik.-Toshkent, **2003**.
5. Sa'dullayev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda.-Toshkent: Universitet, **1996**.
6. Usmonov Q., Sodiqov M., Oblomurodov N. O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma.-Toshkent: Meros, **2002**.
7. I.Jabborov. Etnografiya. .-Toshkent: Sharq, **2000**.
8. K.Shoniyozov . O'zbek xalqining etnik shakllanishi.-Toshkent: Sharq, **1998**.

3(1.1)-ilova

5-mavzu bo'yicha tayanch tushuncha va iboralar:

Soliq turlari	xiroj, daromadning uchdan bir qismi miqdorida yig`ilgan; ushr, davlat idora ishlari uchun daromadning **10** foizi miqdorida olingan; juzya-jon solig`i, oziq-ovqat, xomashyo yoki pul hisobida yig`ilgan; zakot, mol-mulkning **2**,**5** foizi miqdorida olingan.
Muqanna qo'zg`oloni	**776** yilda Marvda boshlangan xalk qo'zg`oloni (**14** yil davom etgan).
Somoniylar davlati	IX asr o'rtalariga kelib Ahmad va uning o'g`li Nasr Somoniylar Movarounnahrning ko'pchilik hududlarini birlashtirishga muvoffaq bo'ladilar. Xurosonda **Tohiriylar** sulolasi (**853**y), ag`darilgach uning tarkibiga kirgan Buxoro yerlari **Somoniylar** tasarufiga olinadi. Nasr ukasi Ismoilni Buxoroga noib etib tayinlaydi (**874**y) va Somoniylar hukmronligi deyarli Movarounnahrning barcha hududlariga yoyiladi. Akasi Nasr vafotidan so'ng (**892**y) Ismoil Somoniy Movarounnahrning yagona hukmdoriga aylanadi. Shu tariqa, o'zbek davlatchiligi qayta tiklanadi va yuksalib boradi. X asrning ikkinchi yarmidan boshlab, xususan keyingi Somoniy hukmdorlar: Nuh ibn Nosir (**943-954**), Abdul Malik (**954-962**), Mansur ibn Nuh (**961-971**), Nuh II ibn Mansur (**997-999**) davrida mamlakat oliy hokimiyati ichida ham, mahalliy feodal beklar, amaldorlar o'rtasida ham o'zaro ichki nizolar, ziddiyatlar to'xtovsiz kuchayib bordi. Bunday jiddiy nizolar, ziddiyatli jarayonlar pirovard oqibatda Somoniylar davlati tanazzulini tezlashtirishga olib keldi. Buning natijasida Sharqdan kelgan Qoraxoniylar sulolasi Somoniylar hukmronligini barxam topdirib, uning hududlarini o'z davlati tarkibiga qo'shib oldi.
Qoraxoniylar davlati.	Mintaqamizning Sharqiy hududida, hozirgi Yettisuv, Sharqiy Turkiston o'lkalarida X asr o'rtalariga kelib Qoraxoniylar davlati yuzaga kelgan. Mazkur davlatga asos solgan siymo Satuk Abdulkarim Bug`roxon (qoraxon) yag`molar qavmiga mansub bo'lgan. Qoraxon so'zining lugaviy ma'nosi esa turkiy qabilalarda «ulug`», «buyuk» degan tushunchani anglatgan.
G'aznaviylar davlati.	Somoniylar tarkibida bulib kelgan G'azna mulkining X asr ikkinchi yarmiga kelib mustaqil davlat maqomiga ega bo'lishi avvalo shu davrda mintaqada kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar hamda ayrim sulolaviy kuchlarning o'zaro kurashlari va uning oqibatlari bilan bog`liqdir.G'aznaviylar davlatining yuksak maqomini qaror topishi va keng e'tirof etilishi Sabuktegin nomi bilan bog`liqdir. U Somoniylar davlatining yetuk harbiy lashkarboshisi bo'lib katta xizmatlari evaziga **977** yilda G'azna mulkini qo'lga kiritib, asta-sekin uning mustaqilligini ta'minlash, qudratini oshirish borasida ustamonlik bilan siyosat yuritadi. G'oyatda salohiyatli, uzoqni ko'ra bilgan Sabuktegin Somoniylar davlati ichida davom etayotgan o'zaro nizolardan foydalanib, qisqa vaqt ichida Qobul daryosi havzasi yerlarini G'azna viloyatiga qo'shib, mustaqil davlat tuzishga muvaffaq bo'ladi. X asr oxirlariga kelib Qoraxoniylarning Somoniylarga qarshi urush harakatlari kuchayganidan foydalanib, Sabuktegin o'z hududlarini yanada kengaytiradi. Uning vafotidan so'ng esa (**997**) o'g`li Mahmud G'aznaviyning (**998-1030**) davrida ancha kuchaygan G'azna davlati tashkil topgan edi.

kor qilindi. Bizga ma'lumki Chingizxon Movarounnahr, Yettisuv va Sharqiy Turkistonni Chig'atoyga bergan edi. Bu Chig'atoy ulusi deb atalib bu davlat XIV asrning 40-yillarigacha yashardi. Unga Chig'atoy 1227-1241 yillar hukumronlik qildi. Asosiy soliq yig'ish ishlarini Mahmud Yalavoch bajargan. 1238 yil Chig'atoyning Mahmud Yalavoch bilan aloqasi yomonlashadi va u Qoraqurumga ketadi, so'ngra O'qdoyning taklifi bilan Dasin (Pekin) shahriga hukumdor qilib tayinlanadi. Uning o'rniga noib qilib o'g'li Ma'sudbek tayinlanadi. Uning davrida shaharlarning ichki ahvoli yaxshilanadi, tovar pul munosabatlarini tiklash natijasida pul islohati o'tkazdi. U o'lkaning 16 ta shahar va viloyatlarida bir xil vazn va o'lchovlarda yuqori qiymatli sof kumush tangalar zarb ettiradi. Natijada mamlakatda ichki va tashqi savdo jonlanadi, dehqonchilik vohalari iziga tusha boshlaydi. Ko'plab mo'ng'ul oq suyaklari o'zlarining oldingi ko'chmanchi hayotidan voz kechib o'troq hayotga ko'nika boshlaydi. 1251 yilda Qoraqurumda bo'lgan quriltoyda taxtga Munqa (1251-1259) o'tiradi. Uning davrida Chig'atoy ulusi mulk sifatida tugatiladi. Ulus Botu bilan Munqa o'rtasida taqsimlanadi. XIII asrning 60 yillarida Chig'atoyning nabirasi Olg'uxon Oltin O'rda ma'murlariga qarshi kurashib, Chig'atoy ulusini qaytadan tiklaydi. Munqa Chingizxon vafotidan so'ng berilgan payza[7] va yorliqlarni bekor qiladi.

Chig'atoy ulusi hukumdorlari davrida yer egaligining 4 xil formasi mavjud bo'lgan: 1. Mulki -devon-davlat yerlari.

2. Mulki inju-xon noiblari va ularning avlodlariga qarashli yerlar.

1. Mulki vaqf-masjid, madrasa, xonaqoh yerlari.

2. Xususiy mulk yerlari.

Movarounnahrdagi bu o'zgarishlarni XIV asrning 30-yillarida bu yerga kelgan arab sayyohi Ibn Batuta ham yozib qoldirgan. U Samarqand, Termiz, Xuroson, Balx kabi shaharlar to'g'risida ko'p ma'lumot bergan.

Chig'atoy ulusi Kebekxon (1318-1326) davrida nihoyatda rivojlangan. U Nasaf shahri yonida o'ziga bir saroy qurdirib mo'ng'ul tilida Qarshi deb atagan. U mamlakatda ijtimoyi hayotni yo'lga solish maqsadida ma'muriy va pul islohoti o'tkazgan. Unga ko'ra davlat viloyatlarga bo'linib, mo'ng'ulcha tuman deb atalgan, lekin uning bu islohoti Movarounnahrdagi qadimiy an'analarga barham bera olmagan, feodal davlatni mustahkamlashda ijobiy rol o'ynagan. Uning davrida ikki xil pul: dinor-kumush tanga, dirham-mayda kumush tanga zarb etilgan. Bu pullar Temuriylar davrida ham aholi o'rtasida muomilada bo'lgan.

XIV asrning 40-yillarida Mo'ng'ullar o'rtasida taxt talashlar, ichki nizolar, boylikka xirs qo'yish natijasida Chig'atoy ulusi 2 ga bo'linib ketadi. Uning sharqiy qismida-Sharqiy Turkiston va Yettisuv mo'ng'ullarning Dug'lat amirligi, g'arbiy qismida esa Mavorounnahr amirligi tashkil topadi. «Xorazm sharqiy qismi ham g'arbiy ulusga qaragan»[8].

1348 yilda boshlab Movarounnahr-ya'ni Chig'atoy ulusi yerlariga hukumronlik qilish Mo'ng'ullardan bo'lgan Tug'lug' Temurga, 1363 yilda uning vafotidan so'ng esa o'g'li Ilyosxo'ja qo'liga o'tadi. Demak Movarounnahr mo'ng'ullarning hukumronligi bir yarim asr davom etgan.

Ma'ruzaning yakunida Chingizxon boshliq mo'ng'ullarning Mavorounnahrga bosqinchilik siyosati va uning oqibatlarini gapirish bilan bir qatorda ba'zi ijobiy tomonlarni aytib o'tish ham zarur. Lekin ularni bosqinchi ekanligini esdan chiqarmaslik zarur. Keyingi Chig'atoy xonlari davrida Urganch va Buxoro shaharlari qayta tiklandi, Andijon, Qarshi, Olitin O'rdada Saroy

day qilib eng so'nggi Xorazmshoxning hukumdorligi shu tariqa 1231 yilning kech kuzida tugaydi. 140 yil xukumronlik qilgan buyuk Xorazmshoxlar davlati va uni boshqargan xonadon barham topadi.

Ma'ruzaning shu joyida ma'ruzachi mo'ng'ul istilochilarining muvaffaqiyatlarining sabablarini talabalarga tushuntirishi lozim. Unda Chingizxonning shaxsiy fazilatlari, mo'ng'ul xalqining ijtimoiy ahvoli, urush arafasida Movarounnahr millatlarining xususiyatlari, ularning ijtimoiy siyosiy ahvoli yoritilsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

Unda H.Vamberining yuqorida nomi zikr etilgan asaridan (29-30 betlar) foydalansa yaxshi bo'lardi.

3. Mo'ng'ullar istilosidan so'ng Movarounnahr va Xorazmning yashnab turgan obod dehqonchilik viloyatlari halokatga uchradi, Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv kabi shaharlar xarobazorga aylandi. Samarqand va Marv vohasining sug'orish tarmoqlari vayron etildi, Urganch suvga bostirildi, natijada o'lkaning tub aholisi boshqa joylarga ko'chib ketishga majbur bo'ldi. Sharq va G'arbni bog'lab turgan Ipak Yo'li butunlay barham topdi. Ilm, ma'rifatga ulkan ziyon yetkazildi.

Chingizxon biroz vaqt Movarounnahrda turgach 1224 yil o'z vataniga qaytadi va u yerda quriltoy chaqrib o'z imperiyasini o'g'illari, nabiralariga taqsimlab beradi. Xitoy va Mug'iliston O'qdoyga, uyg'urlardan to Xorazmgacha bo'lgan, Movarounnahr va Turkistonning bir qismi Chig'atoyga, Xorazm va Dashti Qipchoq to'ng'ich o'g'li Jo'jiga va keyin nabirasi Botuga; Xuroson, Eron va Hindiston To'liga meros qilib berildi. Mo'ng'ullar bosib olgan viloyatlarni uluslarga taqsimlanib uzel asosida boshqariladi. 1227 yil Chingizxon 70 yoshida vafot etadi.

Mo'ng'ullar hukmronligi davrida xalqning ahvoli nihoyatda og'irlashadi, ular ikki tomonlama eziladi, ba'zi oqsuyaklar o'zlarining molu-davlatlaridan ayrilishidan qo'rqib mo'ng'ullar xizmatiga o'tadi. Mo'ng'ullar mamlakatni boshqarishda Mahmud Yalavochga o'xshash mahalliy savdogarlardan yaxshi foydalangan. Uning qarorgohi Xo'jand shahri bo'lib, Movarounnahr noibi va soliqlarni o'z vaqtida yig'ishtirib olish bilan shug'ullangan. Mahalliy aholi mo'ng'ullarga «kalon»-yer solig'i hosilning 1/10 qismi hajmida, «qopchun»-chorva solig'i-har 100 chorvadan bar boshdan, «zakot» solig'i, «shulen» deb ataladigan oziq-ovqat soliqlari to'langan. Bunday soliq turlarining ko'pligi mahalliy aholi boshiga ko'p kulfatlar keltirgan. Aholining bunday azoblari natijasida Buxoroda 1238 yil yirik qo'zg'olon ko'tariladi. Unga asli kasbi elakchi bo'lgan Mahmud Tarobiy boshchilik qiladi. Unga yaqindan yordam bergan kishi Shamsiddin Maxbubiy edi. Mahmud shahardagi mo'ng'ullarning tarafdorlari bo'lgan sadrlar, feodallar, badavlat kishilarni saroyga to'plab uzini hukumdor deb e'lon qiladi[6].

Shundan keyin Mahmud Buxoro atrofida katta kuch to'plab, ularga qurol berib, mo'ng'ullarni mamlakatdan haydab yuborishga chaqiradi. Bu davr haqida o'sha davr tarixchisi Juvayniy ma'lumot bergan. Unda aytilishicha Mahmud amaldorlar va badavlat kishilarni haqoratlagan, oddiy xalq va fuqorolarga iltifot ko'rsatgan. Ammo mo'ng'ullar bilan jangda Tarobiyning kuchi hali yetarli emas edi.Qo'zg'olonning aniq rejasi, taktikasi bo'lmagan. Natijada Karmana yaqinida qirg'inborot jang bo'lib o'tadi. Unda qo'zg'olon rahbarlari o'ldiriladi. Rahbarsiz qolgan olamon sarosimaga tushadi. Bir oz vaqt qo'zg'olonga rahbarlik qilgan Torobiyning ukalari Muhammad va Alida harbiy tajribaning yo'qligi, omma o'rtasida yetarli obro'ga ega emasligi natijasida xalq harakati bostiriladi. Uni bostirishda Mahmud Yalavochning katta hissasi bor. Qo'zg'olon natijasida soliqlar miqdori kamaytirildi. Jon solig'idan boshqa turli xil soliqlar be-

Saljuqiylar davlati.	Sirdaryo quyi oqimida paydo bo'lgan o'g`iz davlatning dastlabki yobg`usi (sardori) Saljuqbek bo'lgan. Uning avlodlari Tug`rulbek, Dovudbek, Chag`ribek va Shakarbeklar o'z davrlarida saljuqiylar shuhratini yuksakka ko'tardilar.Somoniylar hukmronligi davrida ularning ruxsati bilan saljuqiy qabilalari Zarafshon vohasiga, Nurotaning tog`li yerlariga kelib o'rnashib, chorvachilik bilan shug`ullanganlar. XI asrning **20-30** yillariga kelib saljuqiy urug`-qabilalarning hozirgi turkman yerlari orqali G'aznaviylar tasarrufidagi Xuroson o'lkasiga kirib borishi faollashadi. **1038** yilda Saraxsda, **1040** yilda Dandoniqonda bo'lib o'tgan hal kiluvchi urushlar davomida saljuqiylar g`aznaviylarni yengib, butun Xuroson yerlarini egallab, o'z davlati markazini shu xududga ko'chiradilar. Shu tariqa Nishopur shahri Saljuqiylar poytaxtiga aylanadi. Saljuqiylar hukmdori Tug`rulbek egallangan Movarounnaxr va Xuroson hududlarini o'z avlodlari-Chag`rilbek va Dovudbeklar tasarrufida qoldirib, o'zi g`arbga tomon harbiy yurishlarni davom ettiradi. Tug`rulbekning **1038-1063** yillarni o'z ichiga olgan hukmronlik davri old Osiyo va Kichik Osiyoning katta hududlarini qo'lga kiritilganligi bilan tavsiflanadi. Bu davr mobaynida Saljuqiylar Gurgon, Tabariston, Xorazm, Azarbayjon, Kurdiston hududlarini, hozirgi g`arbiy Eron viloyatlarining bir qismi, Fors, Kermon viloyatlarini egallaydilar. Shunday qilib, Tug`rulbek kuchli Saljuqiy sultonligiga asos soladi.
Xorazmshohlar davlati.	Vatanimiz hududida miloddan avvalgi so'nggi ming yillik boshlaridagi ilk davlatchilik tuzilmalari Xorazm hududida vujudga kelgan. Milodimizning turli bosqichlarida ham xorazmshohlar sulolasi nomi bilan hukmronlik qilgan hukmdorlar xonadoni tarixdan ma'lum.Bunda shuni ta'kidlash joizki, Xorazmning qaytadan mustaqillikni qo'lga kiritishi, bugina emas, hududiy jihatdan kengayib, butun-butun o'lkalarni o'z tarkibiga kiritib, qudratli saltanat darajasiga ko'tarilishi, so'ngra uning pirovardida inqirozga yo'liqishi-bu jarayonlar yangi sulola-Anushtaginiylar sulolasi (**1097-1231**) nomi bilan uzviy bog`liqdir.Xususan saljuqiy hukmdorlardan Malikshoh (**1071-1092**) davrida katta obro'-martabaga erishgan harbiy lashkarboshi Anushtaginning Xorazm hukmdori etib tayinlanishi (**1077-1097**) hamda ko'p o'tmay uning Xorazmshoh unvoniga sazovar bo'lishi-bu Xorazmning mustaqillikka erishishida jiddiy qadam bo'lgan edi. **1097** yilda uning o'rniga Xorazm taxtiga o'tirgan va Xorazmshoh unvoni sohibi Qutbiddin Muhammad o'lka mustaqilligini ta'minlashda muhim rol o'ynagan. Qutbiddin Muhammad ham Saljuqiylar hukmronligini tan olgan holda Xorazmni idora qildi. Biroq shunga qaramay o'lkaning har tomonlama rivojlanishi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy yuksalishi uchun ham muhim imkoniyatlar topa bildi. Xorazmning mustaqil davlat sifatidagi ravnaki, hududlarining benihoya kengayib borishida Alovuddin Takashning o'rni katta bo'lgan. Uning hukmronlik davrida (**1172-1200**) Xorazm vohasida katta ijobiy o'zgarishlar yuz berdi.

4(1.1)–ilova

5-mavzuni jonlantirish uchun savollar:
1. Arab istilochilariga qarshi Vatanimiz xalqlarining ozodlik kurashi haqida gapirib bering.
2. Mustaqil davlatlarning vujudga kelishiga sabab bo'lgan omillar.
3. IX-XIIIasr boshlarida vujudga kelgan davlatlarning boshqaruv tizimi, ichki va tashqi siyosati, ma'naviy hayoti haqidagi fikringiz.
4. O'rta asr allomalarining milliy davlatchilik haqida siyosiy qarashlari haqida ma'lumot bering.

6-MAVZU: MOVAROUNNAHR XALQLARINING MO'G'UL ZULMIGA QARSHI KURASHI. (2 SOAT)

Ma'ruzani olib borish texnologiyasi

Talabalar soni:**2 ta guruh**	Vaqti: **2** soat
Mashg`ulot shakli	Mavzuga kirish bo'yicha ko'rgazmali-ma'ruza.
Ma'ruza rejasi	Mo'g`ul davlatining tashkil topishi. Chingizxon va Xorazmshoh munosabatlari. Movarounnahrning mo'g`ullar tomonidan istilo etilishi. Mo'g`ul bosqinchilariga qarshi kurash. Jaloliddin Manguberdi-yurt himoyachisi. Temur Malik, Najmiddin Kubro jasoratlari. Mo'g`ullar istilosidan keyingi siyosiy vaziyat. Chig`atoy ulusi davridagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, xo'jalik ahvoli. **1238** yilgi Mahmud Tarobiy qo'zg`aloni. XIII asr **2**-yarmi va XIV asr **1**-yarmidagi madaniy hayot.
**Mashg`ulotning maqsadi**:Mo'g`ullar istilosi va zulmiga qarshi kurash. Jaloliddin Manguberdining yurt himoyasi yo'lidagi jasorti haqida tushuncha berish	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyati natijalari:
Mavzu tarixshunosligi haqida tushuncha beriladi. Mo'g`ullar istilosi arafasida Xorazmshohlar davlati, uning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va tashqi siyosati manbalarga tayanib ochib beriladi. Mo'g`ul-tatar istilochilarining Movorounnahrga bostirib kirishi va ularga qarshi Vatanimiz xalqlarining milliy ozodlik kurashi haqida; Jaloliddin Manguberdi, Temir Malik, Mahmud Tarobiy haqida; O'lkamizda mo'g`ullar hukumdorligini o'rnatilishi va uning oqibatlari haqida ma'lumot beriladi.	Mo'g`ul davlatining tashkil topishi hamda Chingizxon va Xorazmshoh munosabatlari; Mo'g`ullar tomonidan Movarounnahrning istilo etilishi; Mo'g`ul bosqinchilariga qarshi kurash olib borgan Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Najmiddin Kubro jasoratlari; Chig`atoy ulusining tashkil topishi, undagi ijtimoiy -iqtisodiy munosabatlar, xo'jalik ahvoli; **1238** yilgi Mahmud Tarobiy qo'zg`aloni; XIII asr **2**-yarmi va XIV asr **1**-yarmidagi madaniy hayot haqida bilim va ko'nikmaga ega bo'ladi.

olinadi. U suvga bostiriladi.

Mo'ng'ullarga qarshi kurash olib borgan oxirgi Xorazmshoxlar vakili Jaloliddin Manguberdi edi. U Mo'ng'ullarga qarshi 11 marta jang olib borib mag'lubiyat nimaligini bilmagan buyuk vatanparvar edi.

Mo'g'ul qo'shinining eng atoqli lashkarboshilari Jaloliddinga qarshi tura olmaydilar. U Parvona dashtidagi jangda mug'ul lashkarboshisi Shiki-Xutuhu No'yon boshliq 45000 qo'shinni mag'lub etadi. Jaloliddin jangda yangi harbiy taktikani qo'llaydi ya'ni dushman suvoriylariga qarshi ot yonida turib piyoda jang qilish uslubini.

Mo'ng'ullarning bu mag'lubiyati ularni esankiratib qo'yadi. Chunki ular shu vaqtgacha mag'lubiyat nimaligini bilmagan. Bu mag'lubiyatdan keyin barcha harbiy harakatlarni endi Chingizxon o'z qo'liga olishga majbur bo'ladi. Afsuski bu vatanparvarning xalq oldidagi xizmati Sovet tarixshunosligida noto'g'ri talqin etilgan. Xatto M.Shayxzodaning «Jaloliddin Manguberdi» dramasidagi bosh qahramon obrazi nihoyatda ideallashtirilgan-deb ayb qo'yilib sahna yuzini ko'rmagan.

O'zbekiston Mustaqilligi tufayli Jaloliddin Manguberdi siymosi qaytadan tiklanmoqda. Jaloliddin Manguberdi xotirasini abadiylashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1998 yil 24 sentyabrda 408-sonli maxsus qaror qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq buyuk sarkardaning tavallud to'yi keng miqyosda nishonlanishi qayd qilib utildi.

1999 yil noyabrda Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi Xorazmda keng nishonlandi. Unda ishtirok etgan yurtboshimiz Jaloliddin Manguberdi faoliyatiga yuqori baho berdi: «G'anim oldida bosh egmagan, tiz cho'kmagan, Vatan deb halok bo'lgan» milliy qaxramonimizga xalqimizning ehtiromi, muhabbati, ajdodlar xotirasini muqaddas saqlashi ramzi bo'lib qoldi.

Jaloliddinning Parvona dashtidagi g'alabasi unga qimmatga tushdi. G'alabadan so'ng olingan o'ljani taqsimlashda uning lashkarboshilari Sayfutdin Ug'roq, A'zam Malik va Muzaffar Maliklar o'rtasida nizo kelib chiqadi. Sulton Jaloliddinning kuchi ancha zaiflashadi. Chunki Sayfutdin Ug'roq o'zining 30000 kishilik askari bilan ketib qoladi. Fursatdan foydalangan Chingizxon G'aznaga lashkar tortadi. Jaloliddin esa urushsiz Hind daryosi sohillariga chekinadi.

Daryo bo'yida 1221 yilning noyabrida qattiq jang bo'lib o'tadi. Chingizxon Hind daryosiga yaqinlashganda Jaloliddin keyingi kuni daryoni kechib o'tmoqchi ekanligini eshitib shu kechaning o'zidayoq daryoning kechuv yo'lini to'sdi. U Sulton qo'shinining orqadigi qismiga yetib olib uni tor-mor qildi. «Sulton Jaloliddin bin Sulton Muxammad Xorazmshox-deb yozadi Mirzo Ulug'bek,-o'zini Suv va olov o'rtasida ko'rdi, chunonchi bir tarafida keskir qamchilar olov sochardi, boshqa tarafida esa qohur daryo turardi. Hyech bir tomondan chiqib ketishning iloji yo'q edi. Noiloj jangga kirishdi»[4].

Kuchlar nisbati va jang qilish befoyda ekanligini tushungan Jaloliddin, oilasini mo'ng'ullar qo'liga asr tushishini istamaganligi uchun rafiqasi, onasi va bolalarini daryoga uloqtirib suvga g'arq qiladi, o'zi esa Hind daryosining narigi qirg'og'oga suzib o'tib ko'zdan g'oyib bo'ladi.

Uning qahramonligiga tan bergan Chingizxon Jaloliddinni taqib etishni man qiladi va o'g'illariga qarab «Ko'rdingiz! Bunday otaning o'g'li shunday bo'lishi kerak»[5]-deb ta'kidlaydi. Jaloliddin mo'ng'ullarga qarshi kurashda kavkazda kuchli davlat barpo etmoqchi bo'ladi, ammo mahalliy hokimlar o'rtasidagi nizolar uning rejasini ro'yobga chiqishga to'sqinlik qiladi. Shun-

uchun Qoracha Hojib qo'mondonligida yana 10000 kishilik qo'shin keladi. Juvoyning ma'lumotlariga qaraganda shahardagi musulmonlar Mo'ng'ullar xujumidan sarosimaga tushadi. Shahar 5 oy davomida mudofaada bo'ladi. Ammo kuchlar nisbatan teng bo'lmaganligi sababli shahar taslim bo'ladi, Inalxon asir tushadi, O'qtoy uning quloqlariga kumush eritilib qo'yib Samarqanddagi Ko'ksaroy maydonida o'ldiriladi.

Chingizxon o'zining asosiy kuchlarini Buxoroga tashlaydi. Ular Sirdaryoning janubida joylashgan Zarinuq va Nur qal'asini jangsiz ishg'ol qiladi. Shu sababli mo'ng'ullar bu shaharga «Qutlug' baliq» deb nom beradi.

1220 yil fevralida Chingizxon Buxoroga yetib keladi. Shaharda 20000 kishilik qo'shin bo'lib, unga Sevinchxon, Qo'shlixon va Ko'kxon boshchilik qilardi. Ikki o'rtada qonli jang bo'lib o'tdi. Buxoro ahli taslim bo'lishga majbur bo'ldi, Shahar yondirildi, 16 fevralda egallandi. Shahardan 30000 kishi mo'ng'ullar tomonidan o'ldirildi. Ilm va ma'rifat egalari, shayxlar qul qilib sotildi. Qozilar eshak va xachir boqishga majbur qilindi.

Buxorodan keyin navbat Samarqandga keldi. Bu ulug' shaharni mudofaa qilish uchun 110000 qo'shin bor edi. Ularning 60000 turk va 50000 tojik edi. Ular qo'l ostida 20ta fil ham bor edi.

Bu vaqtda shahar noibi To'g'ayxon edi. Ammo jangchilar o'rtasida birdamlik yo'q edi. Samarqandni bosib olish uchun Chingizxon O'trordan olib kelingan asirlardan foydalandi. Jang 3 kun davom etdi. Natijada To'g'ayxonning barcha qo'shinlari qirib tashlandi.

Mo'ng'ullar Samarqandni suv bilan ta'minlovchi «Qo'rg'oshinnova»ni buzib tashladi, shahar suvsiz qoldi. 50000 ga yaqin sog' qolgan shaharliklar tashqariga olib chiqildi. Lekin ular kun botishi bilan qatil etildi. Shaharda qolgan 5000 aholi 20000 oltin tanga to'lash sharti bilan ularni aybi kechirildi. Shunday qilib butun Movarouannaxr mo'ng'ullar tomonidan bosib olindi.

Chingizxonning yaqinlashib kelayotganligini eshitgan Sulton Muhammad Jayxun orqali Xurosonga qochadi. Keyin u Rayga so'ngra Mozondoronning o'tib bo'lmas tog'lari orqali xozirgi Astrobod shahriga keladi. Keyinchalik Kaspiy dengizining janubidagi bir orolchaga borib joylashadi va u yerda hor-zorlikda, g'ariblikda zotiljam kasali bilan o'ladi.

1220 yil aprelda Samarqand taslim bo'lgach mo'ng'ullar Sig'noq, O'zgan, Jandga qarshi hujum boshlaydi. Lekin bu shaharlar tezda taslim bo'ladi. Endi navbat Sirdaryo bo'yidagi Binokat va Xo'jand shahriga yetib keladi.

4 kunlik mudofadan so'ng Elatxu Malik rahbarligidagi Binokot shahri taslim bo'ladi. Navbat Temur Malik rahbarligidagi Xo'jandga keladi. Xo'jand mudofasida Temur Malik qahramonlik namunalarini ko'rsatadi. Ammo kuchlar nisbatining teng emasligi jang qilish befoyda ekanligini tushungan Temur Malik 12 ta qayiq yasattirib o'zining barcha oziq-ovqat va qurol yarog'larini 70 ta kemaga yuklatib Urganchga shoshiladi. Bu davrda mo'ng'ullar Nasaf va Termiz shaharlarini egallaydi. Chingizxon endi asosiy kuchlarni Xorazmning markaziga tashlaydi. Bu yerning himoyasi bilan Jaloliddin Manguberdi shug'ullanadi. Lekin Urganch mudofasida Jand noibi Qochqin Qutlug'xon xalaqit beradi. U Jaloliddinga qarshi fitna uyushtiradi. Natijada Jaloliddin Xurosonga ketishga majbur bo'ladi. Urganch mudofasi bilan shug'ullanib qolgan shaxzodalar Uzloqshox va Oq shoxlar ham Urganchni tark etib poytaxtdan qochadi.

Amalparast amir Xumor Takin esa shahar darvozalarini dushmanga ochib beradi. Poytaxt ichidagi janglarda o'z zamonasining buyuk allomasi shayx Najmiddin Kubro «Yo atan, sharofatli o'lim» shiori bilan mo'nullarga qarshi kurashadi va qahramonlarcha o'ladi. Shahar bosib

O'qitish usullari va texnika	Ma'ruza, namoyish, aqliy hujum, klaster, blits-so'rov.
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, kompyuter slaydlari, doska, bo'r, latta, skoch, A**3** formatli qog`oz.
O'qitish shakllari	Yakka tartibda, frontal, guruhlarda ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Kompyuter, proyektor (yoki proyektor va LCD panel) mavjud auditoriyalar.
Monitoring va baholash	Og`zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

Ma'ruzaning texnologik xaritasi

Ish jarayonlari vaqti	**Faoliyatning mazmuni**	
	O'qituvchi	**Talaba**
I-bosqich. Kursga va mavzuga kirish. (**20** minut)	**1**.**1**. O'quv kursining nomini aytib, kurs doirasida dastlabki umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi (**1**-ilova).	Tinglaydi.
	1.**2**. Mazkur kurs bo'yicha o'rganiladigan mavzular bo'yicha nazariy va amaliy mashg`ulotlar, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma'lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro'yxati bilan tanishtiradi (**2**-ilova).	Yozadi, tinglaydi.
	1.**3**. Birinchi o'quv mashg`uloti mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi.	Mavzu nomini yozib oladilar.
II-bosqich. Asosiy (**50** minut)	**2**.**1**. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida diqqatni jamlovchi savollar beradi: Mo'g`ul davlatining tashkil topish jarayonini gapirib bering. Chingizxon va Xorazmshoh munosabatlari haqida ma'lumot bering. Savolga berilgan javoblarni tahlil qiladi.	Savollarga javob beradi.
	2.**2**. Ekranga Chig`atoy ulusining boshqaruv tizimi nomli (**1**-sonli) slaydni qo'yib, uni sharhlaydi.	**1**-sonli slayd mazmunini o'rganadi, kursning roli va ahamiyati haqida o'z fikr-mulohazalarini aytadi.
	2.**3**. Ekranda Chig`atoy ulusida soliq tizimi ko'rsatiladi (**2**-sonli slayd), rejaning **2**-savoli yuzasidan talabalarga o'z fikr-mulohazalarini bayon qilib berishini so'raydi. Talabalarning fikrlari umumlashtiriladi va xulosa qilinadi.	**2**-sonli slayd mazmuni bilan tanishadi
	2.**4**. Blits-so'rov orqali mo'g`ul istilosi qancha muddat davom etdi va oqibatlari bir necha talabalardan so'raladi (**3**-ilova), olingan javoblar tahlil etilib, xulosa qilinadi.	Bir necha talaba javob beradi.

III-bosqich. Yakuniy bosqich. (**10** minut)	**3**.**1**. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma'lum qiladi.	Savollarga javob beradi.
	3.**2**. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi.	Tinglaydi.
	3.**3**. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi (**4**-ilova).	Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlarni yozib oladi.
	3.**4**. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi (**2**-ilova).	Yozadi.

1-slayd
Chig`atoy davlatining boshqaruv tizimi



lakat hukumdorlariga qimmatbaho savdo salomlar berilgan. Bu orada ikki mamlakat bir-biri haqida qimmatli ma'lumotlarni to'plashga erishgan. Bu haqda XIII asr muallifi Nasaviy yozib qoldirgan.

Ma'ruzachi shu yerda ikki mamlakat o'rtasida shunday elchilik munosabatlari davom etganda qirg'inboron urush kelib chiqmas edi, degan xulosani talabalarga to'g'ri tushuntirib berish lozim. Urush muqarrar edi. 1218 yilda Chingizxon tomonidan Xorazmga yuborilgan savdo va elchilar karvonining Utror shahrida Sulton Muhammadning buyrug'iga binoan uning tog'asi Utror hokimi Inalxon tomonidan talanishi, savdogarlarning qirib tashlanishi urushni tezlashtirdi. Bunday voqyeadan g'azablashgan Chingizxon Ibn Kafroj Bug'roni ikki ishonchli mulozim kuzatuvchilar bilan Xorazmshox xuzuriga yuborib, undan utror noibini tutib berishni talab qiladi. Xorazmshox Chingizxonning talabiga javoban elchini o'ldirishni va u bilan birga kelgan ikkita mulozimning saqol-mo'ylovlarini qirqib sharmanda qilib qaytarib yuborishni buyuradi. Bu voqyea ikki mamlakat o'rtasida savdo aloqalari va elchilik munosabatlarini uzilishiga olib keladi, urush holati kelib chiqadi.

Bu davrda Xorazmshox davlatida siyosiy ahvol nihoyatda og'ir edi. Uning muntazam qo'shni Qang'li-qipchoq va turkmanlardan tuzilgan bo'lib armiyada Sulton Muhammadning obro'yi yo'q, «turklar onasi»nomi bilan mashhur bo'lgan Muhammadning onasi Turkmanxotunning obro'yi yuqori edi. Ba'zi masalalarda ona-bola kelisha olmagan.

Xorazmshoxlar davlatidagi bunday og'ir siyosiy vaziyatdan Chingizxon xabardor edi. Ichki nizo boshboshdoqlik va aholining noroziligi kuchayib, mamlakat siyosiy hayoti inqirozga yuz tutgan bir paytda Xorazmshoxlar davlati ko'chmanchi Mung'ul qabilalarining bosqiniga duchor bo'ldi.

2. «O'tror voqyeasi» va Chingizxon elchisi Ibn Kafroj Bug'roning o'ldirilishi Chingizxonning Movarounnahrga bostirib kirishi uchun bohona bo'ldi. Chingizxonning Xorazm ustiga yurish qilishining yana bir sababi Shayx Najmiddin Kubroning muruti shayx Majiddin Bog'dodiyning Xorazmshoxning onasi tomonidan qastdan o'ldirilishi bo'ldi[1]. Bu hujum shunchaki tartibsiz bosqin bo'lmay, avvaldan rejalashtirilgan vaxshiyona hujum edi. Unga Chingizxon katta ahamiyat berib puxta tayyorgarlik ko'rgan edi. Urush boshlanishida Xorazmshox qo'shinlari Mo'ng'ullardikiga nisbatan ko'p sonli edi. Ammo armiyani bir joyda to'plashdan qo'rqqan Sulton Muhammad uni tarqoq holda jangga tayyorladi, jang boshlanganda esa mudofaa taktikasini qo'llaydi. Bu Muhammadning jangdagi eng katta xatosi edi. U xatto sarkarda Shohobudin Xivakiyning «dushmanni o'zini o'nglab olmasdan to'satdan zarba berish kerak»-degan fikrini ham inobatga olmadi.

Oqibatda 615 (1218 y) mung'ul jahongiri o'z o'g'illari Chig'atoy, O'qtoy va Jo'ji bilan birga 200 000 qo'shin bilan Xorazmshox ustiga yurish boshladi[2]. Bu yurishda unga Uyg'ur xoni Edikut va Olmaliq hukumdori Sig'noq ham xamroh bo'ldi. Ular Farg'onadan o'tib O'tror ustiga yurish boshlaydi. Shu yerda Chingizxon armiyani to'rt qismga bo'ladi: 1. Chig'atoy va O'qtoy rahbarligidagi armiya O'trorni qamal qilib turish uchun qoldiriladi. 2. Jo'ji boshchiliq armiya Sirdaryo etagiga yuborilib Sig'noq, O'zgan, Jand, Yangikent shaharlarini bosib olish buyuriladi. 3. Besh ming kishilik armiyaga Oloqno'yon va Sintubuqa nomlarida sarkardalar Sirdaryoning o'ng sohili va Binkentni bosib olish uchun yuborildi. 4. Chingizxonning o'zi muntazam askarlari bilan O'rta Osiyoning markazi-Buxoroga qarshi harakat boshlaydi.O'tror chegara qal'a bo'lib, uning noibi Inalxon qo'lida 50000 otliq qo'shin bor edi. Qal'ani mudofa qilish

turklar bir-necha asrlar mobaynida G'arbiy Osiyoning hayotiga kuchli ta'sir ko'rsatib kelgan.

«Mug'ul» atamasi etnik mazmundan ko'ra, siyosiy mazmunga ega. Xalq o'zining ko'p sonli qabilalari nomi bilan «tatar» deb atar edi. Shu sababli bu xalqlar tarixda «mongolo-tatarlar» deb yuritilgan.

XII asrning oxiri va XIII asr boshlarida mung'ul urug' boshliqlari orasidan ichki kurashlarda Timuchin degan kishi g'olib chiqadi. 1204-1205 Mug'ilistondagi ko'chmanchi qabilalarni birlashtirib, markazlashgan davlat tuzadi. 1206 yilda Timuchin Onon daryosi bo'yida o'ziga buysundirilgan mo'ng'ul urug' va qabila boshliqlarini quriltoyini chaqiradi. Unda Timuchinga "Chingiz"-beg'ubor, toza, musaffo, baquvvat laqabi beriladi. U o'z davlatini kuchaytirib, uning barqarorligini mustaxkamlash maqsadida kuchli armiya tuzishga kirishadi. Jangchilar zarur qurollar bilan (o'q-yoy, sadoq, nayza, qilich, qalqon) qurollantirildi.

Ushbu quriltoyda qo'llanma sifatida Chingizxon mamlakatni boshqarishda "Yoso" nomi bilan mashhur bo'lgan o'z qonunlaridan foydalanishni taklif etadi. Bu qonunlar M.Ivanovning "Ikki buyuk sarkarda. Chingizxon va Amir Temur", nomli kitobida bayon qilingan. Unda aytilishicha jinoyatchilar, o'g'rilar qattiq jazolangan. Agarda kimda kim ot, tuya o'g'irlasa o'lim jazosiga, o'g'rilik miqdori kichikroq bo'lsa 7-700 tagacha qamchi urish bilan jazolangan. Mug'ullarda o'tkir spirtli ichimliklar ichish 1 oyda 3 marta ruxsat berilgan. Qonunlarda tabiat, uning muhofazasi, hayvonat dunyosiga ham e'tibor berilgan. Mart va oktyabr oylarida cho'lda yashovchi kiyik, yovvoyi echki, ko'lon, qo'yon va parrandalarni ovlash man etilgan. Qonunda suv nihoyatda e'zozlangan. Uni isrof qilgan kishi jazolangan. Qonunda ayollarni muhofaza etuvchi maxsus bo'limlar bo'lgan.

Akademik B.V.Bartoldning yozishicha Chingizxon armiyasi 2 qismdan iborat bo'lgan.

1. 10000 kishidan iborat jangchilar birlashmasi "tuman" deb yuritilib, unga mo'ng'ul shaxzodalari boshchilik qilgan asosiy qo'shindan;

2. "Keshik" deb yuritilgan maxsus gvardiya tashkil etilgan bo'lib, u harbiy boshliqlardan tuzilib, u jangga qarab favqulotda hollarda safarbar etilgan.

Chingizxon soldatining markazi qoraqurum bo'lib, markazlashgan davlatni boshqarish uchun savodli kishilar kerak edi. Ular savodli uyg'urlardan hamda Mug'iliston bilan qadimdan savdo aloqasi bo'lgan musulmon savdogarlardan o'rganishgan.

Chingizxon markazlashgan davlat tuzgach o'z hududini kengaytirishga e'tibor berib 1206 yilda naymanlarni, 1207-1208 yillarda enasoy havzasi, so'ng Yettisuv viloyatining shimoliy qismini, uyg'urlarni buysuntirdi. 1211-1214 yillarda u Xitoyga yurish qildi. 1215 yilda Shimoliy Xitoyning markazi Chjundu (Pekin) shahrini egalladi. U yerdan katta boylik, cho'rilar, harbiy qurol yasaydigan, ularni ishlata biladigan moxir hunarmandlarni olib ketdi.

Chingizxon Xitoyni bosib olgach, o'z madaniyati, boyligi, buyukligi bilan shuxrat qozongan -Xorazmshoxlar davlatiga yo'l ochildi. Chingizxon 1218-1219 yillarda sharqiy Turkiston va Yettisuv viloyatlarini deyarli talofatsiz egalladi. Endi uning chegaralari Sulton Muxammad Xorazmshox saltanatini chegarasiga tutashib ketgan edi.

Shraqning bu ikki buyuk davlati bir-birini kuch qudratini, harbiy ma'lumotlar to'plash uchun elchilik munosabatlarini yo'lga qo'ygan. Bunday ishni amalga oshirishda Chingizxon o'z huzuridagi musulmon savdogarlardan xususan Mahmud Yalovachdan, Sulton Muhammad esa Bohovuddin G'oziy boshchiliq elchilardan foydalangan. Ikki o'rtada elchilik munosabatlari qariyib ikki yil davom etgan. Elchilar har ikki tomondan ham yaxshi kutib olingan. Ularga va mam-

2-slayd
Chig`atoy ulusida soliq tizimi



1(**1**.**1**)-ilova
Kurs bo'yicha tinglovchilarning o'zlashtirishlarinibaholash mezonlari

Muddati	Nazorat shakllari	Reyting ballari
Amaliy mashg`ulot darsida.	Amaliy mashg`ulotda individual topshiriqlarni bajarish va guruhda ishlash.	**45** ball
Kurs tugagandan so'ng bir hafta ichida.	Mustaqil ish variantlari bo'yicha individual topshiriqlarni bajarish.	**10** ball
Kurs oxirida.	Test topshirish.	**15** ball
Doimiy.	Ijodiy yondoshuv.	**30** ball
Jami:		**100** ball

86%-100% – «A'lo»
71%-85% – «Yaxshi»
56%-70% – «Qoniqarli»
0%-55% – «Qoniqarsiz»

Kurs bo'yicha baholashda bilish, tushunish, tadbiq qilish, tahlil qilish, sintez qilish va baholay olish mezonlariga asoslaniladi.
Talabalar har bir amaliy mashg`ulotda **2** ballgacha olishlari mumkin bo'lib, unda quyidagi mezonlar asosida baholaniladi.

Asosiy tushunchalarni biladilar	Mavzu bo'yicha asosiy kategoriya va qonunlarni tushunadilar	Usullarni qo'llay oladilar	Natijalarni tahlil qila oladilar
20 %	**20** %	**30** %	**30** %

Ijodiy yondoshuv bo'yicha baholanish mezonlari quyidagicha:

O'zbekiston tarixi fanining predmetini bilgan holda, uni jamiyatdagi, inson hayotidagi ahamiyatini isbotlay oladilar	O'zbekiston tarixi fanining kategoriya va strukturasini mustaqil tahlil qila oladilar va xulosa chiqara oladilar
50 %	**50** %

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi.-T.:O'zbekiston, **1999**.
2. Bo'riyev O., Toshev N. Jaloliddin Manguberdi.-T.:Fan, **1999**.
3. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi.-T.: Sharq, **2000**.
4. Murtazayeva R.X. va boshqalar. O'zbekiston tarixi. Darslik.-Toshkent, **2003**.
5. Sa'dullayev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda.-Toshkent: Universitet, **1996**.
6. Usmonov Q., Sodiqov M., Oblomurodov N. O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma.-Toshkent: Meros, **2002**.

3(**1**.**1**)-ilova

6-mavzu bo'yicha tayanch tushuncha va iboralar:

"Yasoq"	Mo'g`ullarning qonunlar to'plami bo'lib, uning asosiy yo'nalishlari quyidagilar bo'lgan: **1**. Hukmdor (xon) "Yasoq"qa qat'iy rioya etishi xususida qasamyod qilishi va unga amal qilish, amal qilmagudek bo'lsa, xonni umrbod qamash mumkin bo'ladi; **2**. Chingizxon mo'g`ullar orasida diniy adovat kelib chiqmasligi uchun barchaga to'la diniy erkinlik beradi. Ruhoniylar soliqdan ozod etiladi; **3**. Ayollar naslni davom ettiruvchi bo'lganliklari uchun ham, urush vaqtida ularning gunohlari kechirilishi lozim; **4**. Jazolash darajasi sifatida o'lim jazosini eng ko'p miqdorda qo'llash; **5**. Bosib olinayotgan mamlakatlar xalqlariga butkul rahm-shafqat qilmaslik.
Chig`atoy ulusi	Oltoy tog`larining janubiy sarhadlaridan to Amudaryo va Sindgacha bo'lgan yerlar
Kalon	Yangi yer solig`ining nomi **bo'li**b, u hosilning o'ndan bir miqdorida olingan
Qopchur	**1235**-yilgi qurultoydan so'ng esa chorva mol boshidan olinadigan yalpi soliq
Shulen	davlat xazinasi uchun olingan oziq-ovqat solig`i
Tamg`a	Hunarmandlar to'laydigan maxsus soliqning nomi
Suyurg`ol	Mo'g`ullar hukmronligi davrida yer egaligi holati ham o'zgarib, yangi in'om etilgan yerlarning mo'g`ulcha nomi. **Suyurg`ol** hajmi jihatidan (uning tarkibiga juda katta yer maydonlari, suv havzalari, dasht-yaylovlar ham kirib ketar edi) **iqtodan** farq qilar edi. Bu davrda davlat, mulk (xususiy yerlar), vaqf (diniy idoralar ixtiyoridagi yerlar) yerlarda ko'p holda ijaraga chorakor dehqonlar mehnat qilishgan. Bir qism ijarador-o'rtahol dehqonlar esa **muzoriylar** deb yuritilgan

4. Mo'g`ullar istilosidan keyingi siyosiy vaziyat. Chig`atoy ulusi davridagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, xo'jalik ahvoli. **1238** yilgi Mahmud Tarobiy qo'zg`aloni.
5. XIII asr **2**-yarmi va XIV asr **1**-yarmidagi madaniy hayot.

1. Markaziy Osiyo va O'rta sharq mamlakatlarining XII-XIII asrlardagi tarixiy davrni yoritishda ilmiy manba xizmatini o'taydigan talaygina tarixiy asarlarning mavjudligi tadqiqotchilarga allaqachon ma'lum. Ulardan biri Mirzo Ulug'bek qalamiga mansub, 1425 yilda yozilgan «Tarix-i Arba' Ulus» (To'rt ulus tarixi) asaridir.

Asarda Markaziy Osiyo xalqlarining XII-XIII asrlardagi tarixi hamda Mug'ullar imperiyasining to'liq tarixi yoritilgan.

Ushbu mavzuga oid yana bir muhim manba oliy nasab va toju taxt sohibi, yirik olim Abulqozixonning «Shajarayi turk» asaridir. Bu asar 1663-1664 yillarda yozilgan bo'lib, kirish va 9 bobdan iborat. Asarda Odam Atodan to turklarni qadimgi xonlaridan Mo'g'ul xongacha kechgan xodisalar zikri, Mo'g'ul xondan-Chingizxongacha bo'lgan tarix, Chingizxonning tug'ilganidan to vafotigacha tarixi va uning o'g'illri podsholik qilgan davr hamda Shayboniylar tarixi keng yoritilgan.

Ulardan tashqari bu mavzuga oid yana bir muhim manba Herman Vamberining «Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi» asaridir. Asarning «Mug'ullar istilosi. Xijriyning 615-624 yillari (1218-1226) bo'limida Chingizxonning Movarounnahrga qilgan istilochilik harakatlari bayon etilgan.

Akademik B.V. Bartoldning «Turkistan v epoxu mongalskogo nashestviya» (Soch, tom I, Moskva; Nauka, 1963), V.G.Yanning «Chingizxan» (Nukus, 1981), «Батыу» (Nukus, 1982) va M.Ivaninning «Ikki buyuk sarkarda. Chingizxon va Amir Temur» (Toshkent; fan, 1994 yil) asarlari bu mavzuni o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Markaziy Osiyoda tashkil topgan Xorazmshoxlar davlati 1017 yilda Maxmud G'aznaviy boshchilik G'azniviylar davlatiga 1044 yildan Saljuqiylar davlatiga qaram bo'ldi. Xorazmning mustaqilligi uchun kurash XII asrning ikkinchi choragidan boshlandi. Bu harakat xorazmshox Otsiz(1127-1156) davrida boshlanib, Alouddin Takash (1172-1200) davrida nihoyasiga yetdi. Takash davrida Xorazm davlati mustaqillikga erishdi, mamlakat xududlari ikki baravar kengaydi. Natijada Old va O'rta Osiyoda yirik va qudratli feodal davlati tashkil topdi.

Alouddin Takash vafotidan so'ng taxtga uning ug'li Sulton Muhammad (1200-1220) utirdi. Uning davrida mehnatkash aholining ahvoli og'irlashdi, maxalliy hukumdorlarning talon-tarojlar avjiga chiqdi, tuxtovsiz urushlar xalq xo'jaligini xonavayron qildi, mamlakatda ichki ziddiyatlar keskinlashdi. Bu shubxasiz shahar va qishloq mehnatkashlarining xorazmshoxlarga qarshi noroziligini oshirdi. Natijada 1210 yilda Utrorda, 1212 yil Samarqandda yirik xalq harakatlari bo'lib o'tdi.

Xorazmshoxlar davlatidagi bunday ichki ziddiyatlar, uning sharqdagi dushmani mo'ng'ullarga ayni muddat edi. Mo'ng'ullar XII asrda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda Markaziy Osiyoda eng qoloq aholi edi. Ular asosan chorvachilik bilan shug'ullanuvchi ko'chmanchi aholi edi. XII asrdan boshlab ularning hayotida urug'chilik munosabatlari yemirilib, sinfiy tabaqalanish boshlanadi.

XII asrning oxiridan boshlab hozirgi Mug'iliston xududida bir-biri bilan kelisha olmaydigan tatar, nayman, merket kabi o'nlab qabilalar yashab kelishgan, ammo ular bilan hamjins bo'lgan

Tashtdorlar malik unvoni sohibi ham bo'lishgan. Ayrimlari hatto o'n ming askarga boshchilik qilib, harbiy yurishlarda qatnashganlar;

-sharobdor-sulton sharobxonasining boshlig'i. U amirlar orasidan tayinlangan;

-Hissador-saroy a'yomi bo'lib, hafta davomida sultonga kelgan iltimosnoma va shikoyatlarni jamlab, ularni juma kuni hukmdorga topshirgan va so'ngra javobini zulm ko'rganlarga yetkazgan;

-choshnigir-bu ko'p hollarda bakovulning sinonimi, ya'ni, sultonga uzatilajak taomni sinab ko'rgan;

-davotdor-sultonning kotibi;

-farrosh-farroshxona boshlig'i;

-amir ul-alam (alamdor)-sulton tug'ining sohibi.

Ma'lumotlarda qayd qilinishicha, Xorazmshohlar davlatining aholisi va uning tarkibidagi turli qatlamlari orasida sayyidlar, imomlar va olimlar, qozilar va hakimlar, tasavvuf vakillari, qishloq, kasaba, urug'-qabila boshliqlari, oqsoqollar, amaldorlar va sipohiylar, islom dini uchun kurashuvchi g'oziylar bo'lganki, hukmdorlar ularni asosiy tayanch sifatida foydalanganlar.

Mamlakat mehnatkashlarining qatlami va martabalar o'rtasidagi farqlar somoniylar davlatidagi singari edi. Markaziy Osiyoda IX-XII asrlarda tashkil topgan markazlashgan davlatlar davrida Samaeqand, Buxoro, Urganch, Marv, Termez va ko'plab shaxarlar ma'muriy va madaniy markazlarga aylandi. Bu shaxarlarda ko'rkam madrasalar, machitlar,m maqbaralar va karvonsaroylar qurildi. Ularga X asrda barpo etilgn Ismoyil Samoniy maqbarasi, Samarqand yaqinidagi Arab ota maqbarasi, XI asrda Marvda barpo etilgan Sulton Sanjar va boshqa o'nlab memoriy unshoatlarni aytish mumkin. Bu davrda Markaziy Osiyoda kulolchilikda ijobiy siljishlar ro'y berdi. Ayniqsa badiy kulolchilik tez taraqqiy etdi.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOT VA MANBALAR:

1. Karimov.I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., Sharq, 1998.
2. Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1-jild, T., Fan, 1968.
3. Axmedov.B. Tarixdan saboqlar. T., O'qituvchi, 1994.
4. Sulaymonova.F. Sharq va G'arb. T., O'zbekiston, 1997.
5. Vamberi.X. Buxoro yoxud Movorounnaxr tarixi. T., Fan, 1990.
6. O'zbekiston tarixi. 1-qism. T., Universitet, 1996.
7. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchilik tarixi. T., Sharq, 2000.
8. Muqimov.Z. O'zbekiston davlati xuquq tarixi. (Tarixiy xuquqiy tadqiqot) 1-qism Samarqand 1998.

6-MAVZU:
MOVAROUNNAHR XALQLARINING MO'G'UL ZULMIGA QARSHI KURASHI.

REJA:

1. Mo'g`ul davlatining tashkil topishi. Chingizxon va Xorazmshoh munosabatlari.
2. Movarounnahrning mo'g`ullar tomonidan istilo etilishi.
3. Mo'g`ul bosqinchilariga qarshi kurash. Jaloliddin Manguberdi-yurt himoyachisi. Temur Malik, Najmiddin Kubro jasoratlari.

4(1.1)–ilova

6-mavzuni jonlantirish uchun savollar:
1. Mo'g`ullar istilosi arafasida Xorazmshohlar davlati, uning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti qanday edi?
2. Mo'g`ul-tatar istilochilarining Movoraunnahrga bostirib kirishi va ularga qarshi Vatanimiz xalqlarining milliy ozodlik kurashi haqida gapirib bering.
3. O'lkamizda mo'g`ullar hukmdorligi o'rnatilishi va uning oqibatlari haqida ma'lumot bering.

7-MAVZU: AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA O'ZBEK DAVLATCHILIGINING YUKSALISHI. IJTIMOIY, SIYOSIY-IQTISODIY VA MADANIY HAYOT. (2 SOAT)

Ma'ruzani olib borish texnologiyasi

Talabalar soni:**2 ta guruh**	Vaqti: **2** soat
Mashg`ulot shakli	Mavzuga kirish bo'yicha ko'rgazmali-ma'ruza.
Ma'ruza rejasi	Amir Temurning markazlashgan davlat tuzish uchun kurashi va harbiy yurishlari. Amir Temur vafotidan so'ng Temuriylar davlatidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. XV asrning **2**-yarmida Movarounnaxr va Xuroson. Temuriylar saltanatining inqirozga yuz tutishi. Temuriylar hukmronligi (**1405-1506** yy.) davrida ilm -fan va madaniy hayot.
Mashg`ulotning maqsadi:Amir Temur va Temuriylar davrida o'zbek davlatchiligining yuksalishi. Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot haqida tushuncha berish	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyati natijalari:
Mavzu tarixshunosligi haqida ma'lumot beriladi. Amir Temur tuzuklari saltanatni to'g`ri boshqarish, odil idora qilishning qonun-qoidalari majmuasi ekanligi; XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrda Movarounnahr va Xurosonda madaniyat ravnaqi; Temuriylar davrida ilm-fan. Ulug`bekning ilmiy maktabi; Alisher Navoiy ijodiy merosi haqida tushuncha beriladi.	Amir Temur tuzuklarining mohiyati; Amir Temur harbiy yurishlari; Davlat mavqeini saqlash, uning dahlsizligi, yurt tinchligini ta'minlash, qo'shinning alohida o'rni haqida Amir Temur qarashlari. XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrda Movarounnahr va Xurosonda madaniyat ravnaqi. Temuriylar davrida ilm-fan. Ulug`bekning ilmiy maktabi. Badiiy adabiyot. Alisher Navoiy ijodiy merosi. haqida bilim va ko'nikmaga ega bo'ladi.
O'qitish usullari va texnika	Ma'ruza, namoyish, aqliy hujum, klaster, blits-so'rov.
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, kompyuter slaydlari, doska, bo'r, latta, skoch, A**3** formatli qog`oz.
O'qitish shakllari	Yakka tartibda, frontal, guruhlarda ishlash

O'qitish shart-sharoiti	Kompyuter, proyektor (yoki proyektor va LCD panel) mavjud auditoriyalar.
Monitoring va baholash	Og`zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

Ma'ruzaning texnologik xaritasi

Ish jarayonlari vaqti	**Faoliyatning mazmuni**	
	O'qituvchi	**Talaba**
I-bosqich. Kursga va mavzuga kirish. (**20** minut)	**1.1**. O'quv kursining nomini aytib, kurs doirasida dastlabki umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi (**1**-ilova).	Tinglaydi.
	1.2. Mazkur kurs bo'yicha o'rganiladigan mavzular bo'yicha nazariy va amaliy mashg`ulotlar, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma'lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro'yxati bilan tanishtiradi (**2**-ilova).	Yozadi, tinglaydi.
	1.3. Birinchi o'quv mashg`uloti mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi.	Mavzu nomini yozib oladilar.
II-bosqich. Asosiy (**50** minut)	**2.1**. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida diqqatni jamlovchi savollar beradi: Temuriylar davlati siyosiy tuzumi qanday edi? Savolga berilgan javoblarni tahlil qiladi.	Savollarga javob beradi.
	2.2. Ekranga Temuriylar davri siyosiy tizimi nomli (**1**-sonli) slaydni qo'yib, uni sharhlaydi.	**1**-sonli slayd mazmunini o'rganadi, kursning roli va ahamiyati haqida o'z fikr-mulohazalarini aytadi.
	2.3. Ekranda "Temuriylar davri boshqaruv tizimi" ko'rsatiladi (**2**-sonli slayd), rejaning **2**-savoli yuzasidan talabalarga o'z fikr-mulohazalarini bayon qilib berishini so'raydi. Talabalarning fikrlari umumlashtiriladi va xulosa qilinadi.	**2**-sonli slayd mazmuni bilan tanishadi
	2.4. Blits-so'rov orqali Temuriylar davri harbiy boshqaruvi haqida bir necha talabalardan so'raladi (**3**-ilova), olingan javoblar tahlil etilib, xulosa qilinadi.	Bir necha talaba javob beradi.
III-bosqich. Yakuniy bosqich. (**10** minut)	**3.1**. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma'lum qiladi.	Savollarga javob beradi.
	3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi.	Tinglaydi.
	3.3. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi (**4**-ilova).	Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlarni yozib oladi.
	3.4. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi (**2**-ilova).	Yozadi.

sining g'alayonlari faollashib bormoqda edi. 1206-1207 yillarda Buxoroda yuz bergan Malik Sanjar boshchiligidagi, 1212 yilda Samarqandda ko'tarilgan kuchli xalq qo'zg'olonlari xorazmshohlar davlatining halokatga borayotganligidan dalolat berdi.

Muhammad Xorazmshohning kaltabin siyosati bosqinchilik yurishlari xalqaro maydonda ham katta norozilikka sabab bo'ldi, tobora yakkalanib bordi. hatto butun musulmon olamida ham bu mamlakatga nisbatan nafrat kuchaydi. Xalifalik davlati Sharqdagi qudratli mo'g'ul davlati Chingizxon bilan birlashib, Xoramshohga zarba berish to'g'risida diplomatik yo'l bilan muzokaralar olib bordi. Bularning hammasi oxir–qibatda xorazmshohlar davlatining chuqur ijtimoiy–siyosiy va iqtisodiy inqirozga uchrashiga olib keldi. Bu esa Chingizxon boshchiligida mo'g'ul bosqinchilarining Movarounnahr sarhadlariga bostirib kirishi va uni ishg'ol etishi uchun qulay shart–sharoitlar yaratib berdi.

Xorazmshohlar davlatining siyosiy tuzumi va boshqaruvi ham o'rta asr davriga mos bo'lgan. Xorazmshohlar markaziy davlat boshqaruvi «al–majlis ul oliy al faxri at-toji» deb nomlangan bo'lib, unga vazir raislik qilgan. Vazir bevosita Xorazmshohga bo'ysunar va hukmdorning bosh maslahatchisi edi. Vazirning vazifalari quyidagilar iborat iborat bo'lgan:

-ashab ad-davonin, ya'ni, devon amaldorlarining boshlig'i. U kishilarni yuqori mansab sohiblarini ishga ta'minlash va bo'shatish bilan shug'ullangan;

-davlat amaldorlariga nafaqa belgilash;

-soliq va xazinani nazorat qilish;

-hukmdorni xalqaro aloqalar, marosimlarda rasmiy ravishda tanishtirish hamda raiyat bilan munosabatlarda vositachilik qilish;

-hukmdorga muntazam hamrohlik, ba'zi paytlarda qo'shin yuborish va ularga boshchilik qilish.

Vazirlarda sadr, dastur, xojayi buzurg singari unvonlar bo'lgan. Ular asosan arab–fors amaldorlari muhitidan tanlangan va arab hamda fors tili, ma'muriy ishdagi qobiliyatlar, saroy odobi singari bilimlarga ega bo'lishligi hal qiluvchi rol o'ynagan. Xorazmshohlar davlatining vazirlari, asosan, Xorazm, Buxoro, Nishopur, Isfaxon, Balx, Hirotdan chiqqan shaxslar bo'lgan.

Xorazmshohlar davlatida, uning boshqaruvi quyidagi mansab va lavozimlar bo'lgan:

-Hojib ul-kabir-hukmdor shaxsi bilan bog'liq masalalar, marosimlarning nazorati bilan aloqador ishlarga javobgar bo'lgan. Ular eng zarur topshiriqlarini bajarganlar hamda hukmdorga doimiy ravishda hamrohlik qilganlar. Ular vazirlik devonining daftarlari, undagi yozuvlar, arxivlar, moliya sohasidagi kotiblar va amaldorlarning harakatlarini nazorat qilgan. Hojib ul-kabir bilan bir qatorda Hojib ul-xos ham bo'lgan;

-ustozdor-barcha xo'jalik ishlar: otxona, oshxona, novvoy, saroy xizmatkorlari ustidan idora ishlarini amalga oshirgan saroy a'yoni. U bundan tashqari saroyning barcha chiqimlarini amalga oshirgan. Mamlakat xazinasi va boyliklarining ma'lum qismiga egalik qilar edi. Shu pul hisobidan novvoy, oshpaz, otboqar va boshqa saroy ishlari hamda yumishlariga sarflanar edi. Xazinadan chiqadigan sarf–xarajatlar uchun shohga hisob berilgan;

-amir–oxur-otxona boshlig'i lavozimi sultonga qarashli minib yuriladigan otlarga egalik qilgan. Miroxo'rlar harbiy yurishlarda faol ishtirok etganlar;

-amir–shikor-sultonning ov ishlari boshlig'i;-tashtdor-sultonning yuvinish ishlarida zarur bo'lgan ashyo va narsalarni saqlovchi shaxs. Uning qo'l ostida g'ulomlar bo'lgan. Sultonning ayrim yashirin amallari borligi uchun ham tashtdor hukmdorga eng yaqin kishi hisoblangan.

Xorazmda anushteginlar sulolasining mustahkamlanishi, o'lkaning ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishida Qutbiddin Muhammad garchi muhim rol o'ynagan bo'lsa-da, biroq uning butun hukmronlik davri saljuqiylar ta'siri doirasida o'tdi. Shuning uchun ham Xorazmning mustaqil davlat sifatidagi o'rni va mavqyei ko'proq uning o'g'li Otsiz (1127-1156) hamda anushteginiylarning keyingi avlodlari: El Arslon (1156-1172), Takash (1172-1200) va Alavuddin Muhammad (1200-1220) davrlarida har jihatdan ko'zga tashlandi. So'nggi hukmdorlar Takash va Muhammad Xorazmshohlar davriga kelib, Xorazm davlati o'rta asrlar davridagi eng qudratli saltanatga aylanadi. Ayniqsa, Otsiz hukmronligi davrida Xorazm saljuqiylarga bo'lgan tobelikdan, Qoraxitoylarga 30 ming dinar to'lash majburiyatidan ozod bo'ldi. Bu Xorazm mustaqilligini ta'minlashda juda katta qadam edi. Hattoki, Otsiz o'z hududini kengaytirishga ham harakat qildi. 1141 yilda Qoraxitoylar bilan Sulton Sanjar o'rtasidagi qonli to'qnashuv va unda saljuqiylar mag'lubiyatidan foydalangan Otsiz Xuroson yerlarini, Marv va Nishopur shaharlarini egalladi.

Otsizning vorisi El Arslon ham mamlakat mustaqilligini ta'minlash yo'lida Qoraxitoylar bilan jang olib bordi. El Arslon vafotidan foydalangan Qoraxitoylar Xorazm hududiga bostirib kirdilar va uni o'lpon to'lashga majbur qildilar. Ammo Xorazm taxtini egallagan Takash (1172-1200) o'z davlati qudratini yuksaltirishga muvaffaq bo'ldi 1187-1193 yillarda u Nishopur, Ray va Marv shaharlarini bosib oldi. 1194 yilda saljuqiylar sultoni To'g'rul II ta zarba berib, Eronni egalladi. Uning yirik va katta markazlashgan hokimiyat boshqaruviga ega bo'lgan. Unda oliy idora-devon mavjud bo'lib, davlatning ichki va tashqi siyosati vazir tomonidan amalga oshirilgan. Hokimiyatning muhim bo'g'inlarida Takashning xotini-Turkon xotinga qarashli qipchoq qavmlarining ta'siri kuchli bo'lgan.

Xorazm davlatining eng yuksalgan cho'qqisi ham, uning inqirozi ham shu so'nggi Xorazmshoq nomi bilan bog'liq. Binobarin, Muhammad Xorazmshohning hukmdorlik davrining murakkabligi va ziddiyatliligi hamda fojealiligining boisi ham shundadir. Negaki, shuhratparastlik va jahongirlikka nihoyatda o'ch bo'lgan Sulton Muhammad o'zining 20 yillik hukmronlik davrida, bir tomondan to'xtovsiz jangu jadallarda bo'lib, qanchadan–qancha hududlarni bosib olishga erishgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, uning davrida katta saltanat turli ichki va tashqi sabablarga ko'ra yemirilish va chuqur tushkinlik holatini boshidan kechirdi. Bu esa oqibatda xorazmshohlar davlatining qulashi va mo'g'ul istilosiga duchor bo'lishiga olib keldi. Dastlab Muhammad Xorazmshoh katta qo'shin tuzib, zafarli harbiy yurishlar qildi, o'z davlatining hududlarini kengaytirdi. Janubda Hindiqush tog'larigacha, janubi-g'arbda Fors qo'ltig'i, xalifalik davlati chegaralarigacha, Sharqda Yettisuvga qadar bo'lgan hududlarni egallashga muvaffaq bo'ldi. 1210 yilda Talos vodiysida Qoraxitoylar bo'lgan hal qiluvchi jangda ularni ham yengib, o'z qudratini namoyon etdi. Ushbu g'alabalardan so'ng Xorazmshoh o'ziga ortiqcha bino qo'ydi, o'zini «Iskandari soniy» («ikkinchi Iskandar»), «Xudoning yerdagi soyasi» deb atashgacha borib yetdi. Biroq aslida esa uning saltanati «usti yaltirog', ichi qaltiroq» edi. Buning sababi birinchidan, oliy hokimiyat chuqur ziddiyatga botgan edi. Hukmdorlar bilan uning hokimiyatparast, katta siyosat mavqyeiga ega bo'lgan uning onasi Turkon xotin va uning turkiy zodagonlaridan iborat muxolifotchi kuchlari o'rtasidagi ittiloflar kuchayadi. Ikkinchidan, markaziy hokimiyat tizimi bilan mahalliy hokimlar, beklar o'rtasidagi qarama–qarshiliklar, ularning o'zboshimcha hatti–harakatlarining kuchayib borayotganligi saltanatni inqirozga tortmoqda edi. Buning ustiga hukmron tizimdan norozi bo'lgan keng xalq omma-

1-slayd

Темурийлар давлатида бошқарув тизими



2-slayd

Темурийлар даври бошқарув



3-slayd
2-ilova

ТЕМУРИЙЛАР ДАВЛАТИДАБОШҚАРУВ ТИЗИМИ



Темурийлар давлати сиёсийтузуми



katta boyliklarni qo'lga kiritdi. Jumladan, u Shimoliy Hindistonga 17 marta Harbiy yurishlar uyushtirgan. 1019 yilda Kanauja shaHrini zabt etdi. 1010-1015 yillarda Xurosonning G'ur viloyati ham unga taslim bo'ldi.

Mahmud G'aznaviy Xorazmning moddiy boyliklari va madaniy salohiyatini e'tiborga olib, Xorazm shohini o'ziga tobe etish maqsadida o'z singillarini Xorazmshoh Ali ibn Ma'mun (997-1009); uning ukasi Ma'mun ibn Ma'mun (1009-1016)ga uzatadi. Ma'mun ibn Ma'mun shoqligining so'nggi yillarida Mahmud G'aznaviyning Xorazmga tazyiqi kuchaydi. 1017 yilda shohning Xozaraspda turgan qo'shinida Ma'munga qarshi fitna uyushtirilib, suiqasd qilinadi. Isyonchilardan o'ch olish baHonasida Mahmud G'aznaviy Xorazmga bostirib kirib, uni egallaydi. Xorazmda o'z odami Oltuntoshni noib qilib qoldiradi.

Mahmud G'aznaviy vafotidan so'ng (1030) uning o'g'li Ma'sud davrida (1030-1041) bu davlat ichki ziddiyatlarning kuchayishi va saljuqiy turklarning ketma–ket hujumlari, ayniqsa, 1040 yildagi Dandanakondagi zarba natijasida o'zini o'nglab ola olmadi. Nihoyat, 1043 yilda Xorazmni saljuqiylar bosib oldi. Saljuqiy sultoni Malikshoh (1072-1092) o'z tashtdori Anushteginni 1076 yilda Xorazm hokimi etib tayinlaydi.

Saljuqiylar davlati dastlab IX asrning ikkinchi yarmi va X asr o'rtalarida Orolbo'yi va Kaspiybo'yi hududlarida yashagan o'g'uzlar ittifoqi negizida shakllangan edi. Uning dastlab poytaxti Sirdaryo etaklaridagi Yangikent edi. O'g'uzlar aslida 22-24 qabiladan iborat bo'lgan. Unga chovdir, chandir, sireli, ichdir yazir, salir, qoradoshli, bayot, koyi kabi qabilalar kirgan. O'g'uzlarning muayyan sabablar bilan hozirgi Turkmaniston yerlariga o'tib, islomni qabul qilgan va o'sha joydagi yerli aholi bilan singishib ketgan qismi turkmanlar nomini olgan.

O'g'uzlarning yobg'usi (yetakchisi) Saljuqbek Saljuqiylar davlatiga asos solgan. Uning avlodlari-To'g'rulbek, Chog'irbek va Shakarbeklar bu davlatni buyuk saltanat darajasiga ko'tardilar. O'g'uzlar turli xalqlarning, chunonchi o'zbek, turkman, turk, gagauz va boshqa xalqlarning etnik shakllanishiga ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatganlar.

Ko'chmanchi chorvador qabilalar bo'lgan o'g'uz-turkmanlar XI asr o'rtalariga qadar Qoraxoniylar va g'aznaviylar hukmdorlari bilan kelishuv asosida bu davlatlarga qarashli turli hududlarda o'z ko'ch–ko'roni, chorvasi bilan ko'chib yurganlar. Ba'zi hollarda mahalliy aholi bilan kelisha olmay ularga hujum uyushtirib, talonchilik va bosqinchilik bilan ham shug'ullanganlar. G'aznaviylar roziligi bilan Niso, Farova, Dehiston, Obivard hududlarida joylashgan turkman o'g'uzlari To'g'rulbek boshchiligida tez orada katta kuch bo'lib birlashib, G'azna davlatiga Ham jiddiy xavf sola boshlaydi. To'g'rulbek qisqa vaqtda Xuroson yerlarini ishg'ol Qildi. 1040 yilda Saraxs va Marv o'rtasidagi Dandanakonda qaqshatgich zarbaga uchragan g'aznaviylar hududlari ham saljuqiylar tasarrufiga o'tdi. To'g'rulbek Saljuqiylar davlatining boshlig'i (1038-1063) sifatida istilochilik yurishlarini g'arb tomonga davom ettirib, Fors Iroqi, Ozarbayjon, Kurdiston, Qo'histonni zabt etdi. 1055 yilda xalifalik poytaxti Bog'dodni o'ziga bo'ysindirdi. Ray shahri (Eron) uning poytaxti edi.

Saljuqiylar davlati, ayniqsa, Sulton Sanjar (1118-1157) davrida o'z hududlarini kengaytirdi. Bu davrda Xorazm ham saljuqiylar nomidan boshqarildi. Qoraxoniylar xoni Arslonxon ham Sulton Sanjar bilan hisoblashishga majbur bo'lgan. Biroq 1141 yilda Katvon cho'lida Qoraxoniylar bilan bo'lgan katta to'qnashuvda saljuqiylar qaqshatqich zarbaga uchragach, ularning hukmdorlari ham inqiroz tomon yuz tutdi. Sulton Sanjar vafotidan keyin (1157) saljuqiylar davlatining Movarounnahrdagi ta'siri amalda barham topdi.

taqsimlangan edi. Bu tartib doimo o'zaro nizolar kelib chiqishiga sabab bo'lgan.

Yettisuvda turib Movarounnahrni boshqarish qiyin edi. Qoraxoniylar davrida Samarqand elikxoni ancha kuchayib ketgandi. Saroyda somoniylar davlatidagidek, vazir, sohib barid, mustavfiy, hojib, rais-muhtasib kabi amaldorlar bo'lgan. Qoraxoniylar davlatida imom, sayyid, shayx, sadrlar mavqyei kuchli edi.

Xoqon davlat boshlig'i hisoblanib, u merosiy sanalgan. Ma'muriy idoralar ikkiga bo'lingan: dargoq va devonga xoqonning ulug' hojibi xoqon bilan fuqaro o'rtasida vositachilik qilgan. Xoqon saroyida quyidagi amaldorlar bo'lgan: og'ichi-shoyi kiyimlar xazinachisi; biruk-meqmonlarni qabul qilish bo'yicha mutasaddi; oshchi-xoqon oshxonasi boshlig'i (bovarchi); bitikchi-munshiy; kotib-mirzo; Qushchi-xoqon ovining tashkilotchisi.

Xoqon harbiy qo'shinlari cherik deyilgan. Unga sipoxshi yoki sipaqsolar qo'mondonlik qilgan. Kichik zobitni chovush, sipoqiylar to'dasi qo'mondani xaylboshi deyilgan. Qo'shin o'nlik, yuzlik va mingliklarga bo'lingan. qoraxoniylar xoqoni qo'shini (harbiy lager) xonto'y deyilgan.

Xonlik hududlari el va viloyatlarga bo'lingan.

Alohida mulklarning boshqaruvi, ma'muriy idoralar somoniy davridagi tartiblarga muvofiq kelar, ijtimoiy mansab va martabalaridagi farq katta emas edi.

Ijtimoiy tuzumda mavqyei baland hisoblangan yirik zamindorlar-dehqonlar qatlami qoraxoniylar davrida o'z ahamiyatini yo'qotdi. Sababi eng ta'sirli ko'chmanchilik sharoitiga moslashgan el-uluslarning o'troq aholi hududlarini ishg'ol etishidir. Boshqacha qilib aytilganida, Qoraxoniylar ilgarigi yirik yer egalarining mulklarini tortib olib, asli kasbi–kori ko'chmanchi chorvachilik bo'lgan o'z amaldorlari va lashkarboshilariga bo'lib bera boshladilar. Natijada ilgari gullab yashnagan vaholar xaroblashib, chorva yaylovlariga aylantirildi. Shu boisdan bo'lsa kerak Yusuf Xos Hojib Bolasog'uniy o'zining 1069 yilda yozilgan «Qutadg'u bilig» («Baxtga eltuvchi bilim») asarida tamg'achxonlardan biriga nasiHat tariqasida fikr bildiradi. U jamiyatning asosiy kuchlari bo'lgan dehqonlar, hunarmand, kosiblar, olimu donolar va savdogarlar ko'chmanchi chorvadorlarga nisbatan jamiyat uchun foydaliroqdir, degan xulosa chiqaradi.

Movarounnahrda sodir bo'lgan o'zgarishlardan yana biri shuki, bu davrga kelib uzoq davom etgan etnik jarayonlar natijasida o'zbeklar xalq sifatida shakllandi.

4. Xorazm somoniylar davrida ularga tobe edi. Xorazm davlati o'z mustaqilligiga g'aznaviylar va saljuqiylar hukmronligiga qarshi kurash jarayonida erishdi. 996 yilda Shimoliy Xorazm shoqi Ma'mun ibn Muhammad (995-997) ikki qismga bo'lingan o'lkani birlashtirib, xorazmshoh unvonini oladi va Urganchni o'z poytaxtiga aylantiradi.

X asr ikkinchi yarmidan G'azna shahri Xurosonning siyosiy markaziga aylanadi. G'aznaviylar davlatiga dovyurak turk qo'mondoni Sabuqtegin asos solgan (962). Bu davlat uning o'g'li Sulton Mahmud (998-1030) davrida musulmon dunyosining eng kuchli davlatlaridan biriga aylanadi. Mohir siyosat arbobi Mahmud Qoraxoniylar bilan bo'lgan kelishuvga binoan o'zining shimoliy chegaralarini aniqlab, g'arbda Kaspiygacha bo'lgan hududlarni rasmiy jihatdan mustahkamlab oldi. Shu tariqa uning davlati tarkibiga hozirgi Afg'oniston, O'rta Osiyoning katta qismi, Shimoli-Sharqiy Eron va Shimoliy Hind yerlari kirgan.

Mahmud G'aznaviy temir intizomli, yaxshi harbiy tayyorgarlik ko'rgan, zamonaviy qurollangan katta qo'shin tashkil qilgan. Unga tayanib, ko'plab istilochilik yurishlarini uyushtirdi va

1(1.1)-ilova

Kurs bo'yicha tinglovchilarning o'zlashtirishlarinibaholash mezonlari

Muddati	**Nazorat shakllari**	**Reyting ballari**
Amaliy mashg`ulot darsida.	Amaliy mashg`ulotda individual topshiriqlarni bajarish va guruhda ishlash.	**45** ball
Kurs tugagandan so'ng bir hafta ichida.	Mustaqil ish variantlari bo'yicha individual topshiriqlarni bajarish.	**10** ball
Kurs oxirida.	Test topshirish.	**15** ball
Doimiy.	Ijodiy yondoshuv.	**30** ball
Jami:		**100** ball

86%-100% – «A'lo»
71%-85% – «Yaxshi»
56%-70% – «Qoniqarli»
0%-55% – «Qoniqarsiz»

Kurs bo'yicha baholashda bilish, tushunish, tadbiq qilish, tahlil qilish, sintez qilish va baholay olish mezonlariga asoslaniladi.

Talabalar har bir amaliy mashg`ulotda **2** ballgacha olishlari mumkin bo'lib, unda quyidagi mezonlar asosida baholaniladi.

Asosiy tushunchalarni biladilar	Mavzu bo'yicha asosiy kategoriya va qonunlarni tushunadilar	Usullarni qo'llay oladilar	Natijalarni tahlil qila oladilar
20 %	**20** %	**30** %	**30** %

Ijodiy yondoshuv bo'yicha baholanish mezonlari quyidagicha:

O'zbekiston tarixi fanining predmetini bilgan holda, uni jamiyatdagi, inson hayotidagi ahamiyatini isbotlay oladilar	O'zbekiston tarixi fanining kategoriya va strukturasini mustaqil tahlil qila oladilar va xulosa chiqara oladilar
50 %	**50** %

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Amir Temur davridagi bunyodkorlik va hamkorlik ruhi bizga namuna bo'laversin. Asarlar, **4**-jild.-Toshkent: O'zbekiston, **1996**.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-Toshkent: Ma'naviyat, **2008**.
3. Temur tuzuklari.-T.:G'afur G'ulom, **1991**.
4. Sharofiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma.-T.:Sharq, **1997**.
5. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi.-T.: Sharq, **2000**.
6. Murtazayeva R.X. va boshqalar. O'zbekiston tarixi. Darslik.-Toshkent, **2003**.
7. Usmonov Q., Sodiqov M., Oblomurodov N. O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma.-Toshkent: Meros, **2002**.

3(1.1)-ilova

7-mavzu bo'yicha tayanch tushuncha va iboralar:

Dargoh	Uning davrida boshqaruv ikki idoradan, ya'ni dargoh va vazirliklardan iborat bo'lgan. Dargoh tepasida oliy hukmdorning o'zi turgan. Mamlakat va davlat ahamiyatiga molik masalalar uning ko'rsatmasi bilan hal etilgan.
Devon (vazirliklar)	Dargoh faoliyatini boshqarish, uning vazirliklari, mahalliy hokimiyat idoralari va umuman saltanatda kechayotgan jarayonlar bilan bog`liq ishlar oliy devon zimmasida bo'lgan. Oliy devonda har kuni **4** vazir, ya'ni ijroiya idoralaridan bosh vazir, harbiy vazir, mulkchilik va soliq ishlari vaziri, moliya vaziri hozir bo'lib, o'ziga xos ravishda hisob berib turgan. Shayhulislom, Qozi al-quzzat (Oliy sudya), Qoziy ahdas (ahloq-odob bo'yicha), Qoziyi askar (harbiy sudya), Sadri a'zam (vaqf mulklari vaziri), Muxtasib (shariat qoidalari, bozorlardagi narx-navolar nazorati bilan shug`ullanuvchi vazir), saroy vaziri, Yasovul, Eshikog`a singari yuqori lavozimlar ham davlat hokimiyati tizimining eng asosiy bo'g`inlari hisoblangan.

4(1.1)–ilova

7-mavzuni jonlantirish uchun savollar:
1. Amir Temur tuzuklari necha qism va necha banddan iborat bo'lgan va uning mohiyati?
2. Amir Temur harbiy yurishlari haqida ma'lumot bering.
3. Temuriylar davrida ilm-fan va Ulug`bekning ilmiy maktabi haqida ma'lumot bering.

8-MAVZU: O'ZBEK XONLIKLARIDA IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOT. (2 SOAT)

Ma'ruzani olib borish texnologiyasi

Talabalar soni:**2 ta guruh**	Vaqti: **2** soat
Mashg`ulot shakli	Mavzuga kirish bo'yicha ko'rgazmali-ma'ruza.
Ma'ruza rejasi	**1**. XV asr oxiri-XVI asr boshlarida Movarounnaxrdagi ijtimoiy-siyosiy hayot. Shayboniylar va Ashtarxoniylar sulolasi. **2**. Buxoro amirligida ijtimoiy-siyosiy vaziyat.. **3**. Xiva xonligining tashkil topishi hamda Qo'ng'irotlar sulolasi boshqaruvi. **4**. Qo'qon xonligining ichki va tashqi siyosati.
Mashg`ulotning maqsadi:Turkistonning xonliklarga bo'linib ketishi, uning sabablari va oqibatlari haqida ma'lumot berish.	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyati natijalari:
Movarounnaxr va Xurosonning shayboniylar tomonidan bosib olinishi va shayboniylar sulolasi hukmronligining o'rnatilishi haqida ma'lumot berish;	Shayboniylar sulolasi hukmronligining o'rnatilishi haqida ma'lumot beriladi; Mamlakatning sultonlar va beklarga bo'lib berilishining oqibati ko'rsatiladi;

bilan foydalandilar. Hasan Bug'roxonning 992 yili somoniylarga qarshi harbiy yurishi oldidan somoniylar lashkarboshisi Abuali Simjuriy u bilan muzokara olib borgan. Somoniylarning boshqa lashkarboshilaridan Balx hokimi Foyiq Raboti Malik yaqinidagi Bug'roxonga qarshi jangda, har tomonlama ustunlikka ega bo'lishiga qaramasdan taslim bo'ladi. Iloq hokimi Mansur ibn Ahmad esa xoqonga tobelik bildirib, uning nomiga pul zarb etadi. Shu bois Bug'roxon 992 yilgi birinchi hujumdayoq Buxoroni egallashga erishadi. Lekin Bug'roxon kasallangani tufayli Buxoroni tark etdi va yurtiga qaytish chog'ida yo'lda vafot etildi. Bundan foydalangan somoniylar vakili Nuh II ning o'g'li Nasr Somoniy Buxoro taxtini qayta egallaydi. Lekin Qoraxoniylar 996 yili Buxoroni to'liq ishg'ol qiladi. Butun Movarounnaqr Qoraxoniylar tasarrufiga o'tadi. 1001 yildagi Mahmud G'aznaviy bilan tuzilgan shartnomaga ko'ra Amudaryoning janubidagi barcha yerlar Qoraxoniylar qo'liga o'tgandi. Shu tariqa Somoniylar davlati o'rnida ikkita turk davlati-Qoraxoniylar va G'aznaviylar davlatlari tashkil topdi.

XI asr o'rtalarida tamg'ochxon unvonini olgan Qoraxoniy Ibrohim ibn Nasr g'arbiy Qoraxoniylar davlatining poytaxtini O'zganddan Samarqandga ko'chirdi.

1068 yilda Movarounnahrda Ibrohim ibn Nasr o'g'illari o'rtasida taxt uchun bo'lgan kurashlarda Shamsulmulk g'alaba qozondi.

1080 yilda Shamsulmulk vafotidan keyin Movarounnahrda hokimiyat uchun kurash yana avj oldi. Bundan foydalangan saljuqiylar sultoni Malikshoh 1089 yilda Movarounnahrga bostirib kirib, Buxoro va Samarqandni zabt etadi. Ahmadxon asirga olinadi. Ahmad bilan sulh qilinib, uni o'z taxtida qoldiradilar. Lekin uning saljuqiylarga itoatkorligi amirlar va ruhoniylar noroziligiga sabab bo'ldi. Natijada Ahmadxon 1095 yilda o'ldiriladi.

Undan keyin taxtga o'tirgan Arslonxon (1102-1130) davrida Qoraxoniylar garchi yarim mustaqillik sharoitida siyosat yurgizgan bo'lsalar ham, Samarqandning obodonligi bo'yicha ko'rinarli ishlar qilindi. Lekin Arslonxon siyosatidan harbiy qo'mondonlar va ruhoniylar norozi edilar. Arslonxon sog'ligi yomonlashgani uchun hokimiyat uning o'g'li Nasrga o'tadi. Lekin fitnachilar Nasrni o'ldiradilar. Arslonxon Marvdan Sulton Sanjarni yordamga chaqiradi. Bundan foydalangan Sanjar 1130 yilda Samarqandni egallaydi.

XII asr boshlarida Qoraxitoylar Bolasog'unni egalladilar. 1138 yilda Qoraxitoylar go'rxoni Sulton Sanjarning Qarindoshi, Samarqand hukmdori Mahmudni Xo'jand yaqinida mag'lub etdi. Shahar talanib, katta tovon o'ndirildi. Lekin shahar bosib olinmadi.

1141 yilda Qoraxoniylar yana Movarounnahrga bostirib kirdilar. Bu galgi jang Samarqand yaqinidagi Katvon cho'lida bo'ldi. Jangda Sulton Sanjar va Mahmudning birlashgan qo'shnilari tor–mor qilindi. Qoraxitoylar Samarqand va Buxoroni egalladilar.

So'nggi Qoraxoniylar Qoraxitoylarga tobelikdan qutulgan edilar. Lekin 1212 yilda Alovuddin Muhammad Xorazmshoh g'arbiy Qoraxoniylar davlatining xoqoni Usmonni o'ldirib, Samarqandni o'z mulkiga qo'shib oldi.

Qoraxoniylar davrida Movarounnahr markazlashgan davlat tizimidan alohida mulk boshqaruv tizimiga o'tdi. Har bir viloyat ma'lum siyosiy mavqyega ega holda xondan kichikroq unvonga ega elikxonlar tomonidan boshqariladigan bo'ldi.

Qoraxoniylarda ikki poytaxt Qashqar va Bolasog'un sanalib, ulug'xon ana shu shaqarlarning birida qarorgohda o'tirgan. Ulug' xoqon yoki ulug' xon xoqon ul-xoqon degan nomda yuritilgan. Bu nom tamg'achxon deb ham atalgan.

Xonlikdagi barcha yerlar tamg'achxon tomonidan uning o'g'illari va qarindoshlari o'rtasida

o’z ichiga olgan.

-Mulk yerlari-xususiy mulk yerlari. U asosan hukmron sulola vakillari hamda yuqori tabaqa nomoyandalari ixtiyoridagi mulklardir.

-Vaqf yerlari. Bu madrasa, masjid va boshqa diniy muassasalar tasarrufiga berilgan yerlar. Ulardan keladigan daromadlar musulmon ruhoniylari manfaati uchun sarf qilingan.

Olinadigan soliqqa qarab yerlar 2 ga bo’lingan:

1. «Mulki xiroj»-xiroj yerlar, ya’ni soliq olinadigan yerlar. Dehqonlar yashagan yerlar, ya’ni «mulki sultoniy» va mulklar» ana shu toifaga kirgan. Bu yerni ishlovchilar hosilning 1/3 ni davlatga soliq sifatida topshirganlar.

2. Soliq to’lashdan qisman va butunlay ozod etilgan yerlar. Bunday yerlar oliy musulmon ruhoniylari hamda payg’ambar avlodidan bo’lgan sayidlar mulki hisoblangan.

Bu davrda ham dehqonlar ommasi turli soliqlar va to’lovlardan tashqari davlat tomonidan belgilangan majburiyatlarni bajarishga jalb qilingan. Suv inshootlarini tozalash, ta’mirlash, to’g’onlar, ko’priklar, yo’llar qurish shular jumlasidan edi. Qishloqlarda esa yersiz dehqonlarning ko’pchiligi kadivorlar, ya’ni, yollanib ishlovchi korandalar tashkil etardi. Korandalar IX-X asrlarda «sherik» yoki «barzikor», Xurosonda esa «akkor» deb atalgan. Bu davrda yirik mulkdorlar kadivorlardan ko’ra barzikorlarga yerlarini ijaraga berib ishlatishni o’zlari uchun afzal bilganlar.

Mahalliy feodallar, saroy a’yonlarining xalqqa o’tkazgan zulmlari, ularning hokimiyat talashib olib borgan o’zaro urushlari, oddiy mehnatkash ommasining zulmga qarshi harakatlari-somoniylar sulolasi hukmronligining ham inqiroziga sabab bo’ldi. Ayniqsa, 961 yilda Buxoroda oddiy nonvoy Abubakr boshchiligida bo’lib o’tgan va hokimiyatga dahshat solgan xalq Qo’zg’olonlari somoniylar davlati obro’siga putur yetkazdi, uni zaiflashtirdi. Ayni paytda Xurosonning ko’pchilik aqolisi somoniylarni quvvatlamay qo’ydi.

3. X asr o’rtalarida Yettisuv va Qashqarda yashovchi Qarluq, chig’il va yag’mo qabilalarining ijtimoiy–iqtisodiy hayotida muhim o’zgarishlar sodir bo’ldi. Avvaldan asosan chorvachilik bilan shug’ullangan bu qabilalar endi o’troq hayotga o’ta bordi va dehqonchilik bilan shug’ullana boshladi. Shaharlar yuzaga keldi, yana bu davrda Issiqko’l janubi va Qashqarda yashagan yag’molarning o’zlaridan shimolda yashayotgan chig’il qabilalari bilan yaqinlashuvi tezlashdi. Ular Yettisuvdagi Qarluqlarni uyushtirib, o’zlariga bo’ysundirdilar. Yag’mo urug’idan chiqqan, o’z qavmi bilan islomni qabul qilgan Sotuq Abdul-Karim Qoraxon (Bug’raxon) 942 yili Bolasog’un hokimini mag’lub etib, o’zini xoqon deb atadi. Demak, Qoraxon davlati Yettisuv hududida Qarluq davlati o’rnida tashkil topdi. Bu davlatning vujudga kelishida chigillar, tuxsilar, arg’ular, yag’molar, turgashlar, Qipchoqlar, yabaqular, qaylar, o’g’uzlar, qirg’izlar singari urug’-qabilalar muhim rol o’ynagan. Bu davlatga yuqorida qayd etilgan Sotuq Abdul-Karim Qoraxon asos solgan. Xoqon nomiga ko’ra Qoraxoniylar davlati deb nomlangan. U o’zini Afrosiyob (Alp Er To’nga)ning avlodi deb hisoblar edi. «Qora» iborasi qadimgi turkiy tilda «buyuklik», «ulug’lik» ma’nolarini bildirgan. Odatda Qoraxoniylar hukmdorini «tamg’achxon», ya’ni, «xonlar xoni» deb yuritgan. Sotuq zamonida Qoraxoniylar davlati ikkiga bo’linib ketadi. Birining poytaxti Bolasog’un bo’lib, oliy hokimiyat yoshi katta bo’lgan xoqon tomonidan boshqarilgan. Ikkinchi davlatning poytaxti Taroz, keyinchalik Qashqar bo’lib, kichik xoqon tomonidan boshqarilgan. Qoraxoniylar somoniylar davlatidagi ichki nizolardan ustalik

Shayboniylar sulolasining boshqaruv tizimini yoritish; Mamlakatimizning uch xonlikka bo’linib ketishi haqida ma’lumot berish; Buxoro xonligining tashkil topishi haqida tushuncha berish; Ashtarxoniylar sulolasi davrida Buxoro xonligining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvolini yoritish; Xiva xonligining tashkil topishini ko’rsatib berish; O’zbeklarning ming urug`idan bo’lgan Shohruhbiy tomonidan Qo’qon xonligiga asos solinishi haqida ma’lumot berish.	Buxoro xonligida Ashtarxoniylar (Joniylar) sulolasining o’rnatilishi yoritib beriladi; Ashtarxoniylar sulolasi davrida Buxoro xonligining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvoli yoritiladi; Xiva xonlikda Qo’ng`irot o’zbeklari sulolasining o’rnatilishi haqida ma’lumot beriladi; XVIII asrda Farg`ona vodiysidagi siyosiy vaziyat ko’rsatib beriladi. O’zbeklarning ming urug`idan bo’lgan Shohruhbiy tomonidan Qo’qon xonligiga asos solinishi haqida ma’lumot beriladi.
O’qitish usullari va texnika	Ma’ruza, namoyish, aqliy hujum, klaster, blits-so’rov.
O’qitish vositalari	Ma’ruza matni, kompyuter slaydlari, doska, bo’r, latta, skoch, A**3** formatli qog`oz.
O’qitish shakllari	Yakka tartibda, frontal, guruhlarda ishlash
O’qitish shart-sharoiti	Kompyuter, proyektor (yoki proyektor va LCD panel) mavjud auditoriyalar.
Monitoring va baholash	Og`zaki nazorat, savol-javob, o’z-o’zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

Ma’ruzaning texnologik xaritasi

Ish jarayonlari vaqti	**Faoliyatning mazmuni**	
	O’qituvchi	**Talaba**
I-bosqich. Kursga va mavzuga kirish. (**20** minut)	**1.1**. Ma’ruzaning nomini aytib, kurs doirasida dastlabki umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi (**1**-ilova).	Tinglaydi.
	1.2. Mazkur kurs bo’yicha o’rganiladigan mavzular bo’yicha nazariy va amaliy mashg`ulotlar, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma’lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro’yxati bilan tanishtiradi (**2**-ilova).	Yozadi, tinglaydi.
	1.3. Sakkizinchi o’quv mashg`uloti mavzusi, maqsadi va o’quv faoliyati natijalarini aytadi.	Mavzu nomini yozib oladilar.
II-bosqich. Asosiy (**50** minut)	**2.1**. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida diqqatni jamlovchi savollar beradi: Xonliklardagi ijtimoiy hayotning o’xshashlik tomonlari nimada? Xonliklardagi soliq va majburiyatlarning xillari qanday?	Savollarga javob beradi.

	Savolga berilgan javoblarni tahlil qiladi.	
	2.2. Ekranga “Shayboniylar sulolasi” nomli (**1**-sonli) slaydni qo’yib, uni sharhlaydi.	**1**-sonli slayd mazmunini o’rganadi, kursning roli va ahamiyati haqida o’z fikr-mulohazalarini aytadi.
	2.3. Ekranda “Qo’qonda minglar sulolasi” shajarasi ko’rsatiladi (**2**-sonli slayd), rejaning **2**-savoli yuzasidan talabalarga o’z fikr-mulohazalarini bayon qilib berishini so’raydi. Talabalarning fikrlari umumlashtiriladi va xulosa qilinadi.	**2**-sonli slayd mazmuni bilan tanishadi
	2.4. Blits-so’rov orqali xonliklardagi o’zaro va ichki kurashlarning avj olishi, uning oqibatlari bir necha talabalardan so’raladi (**3**-ilova), olingan javoblar tahlil etilib, xulosa qilinadi.	Bir necha talaba javob beradi.
III-bosqich. Yakuniy bosqich. (**10** minut)	**3.1**. Mavzu bo’yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo’yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma’lum qiladi.	Savollarga javob beradi.
	3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi.	Tinglaydi.
	3.3. Mavzu bo’yicha mustaqil o’rganish uchun topshiriqlar beradi (**4**-ilova).	Mustaqil o’rganish uchun topshiriqlarni yozib oladi.
	3.4. Mavzu bo’yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro’yxatini beradi (**2**-ilova).	Yozadi.

1-slayd

Shayboniylar sulolasi (1500-1601)

Muhammad Shayboniyxon	**1500-1510**
Ko’chkinchixon	**1510-1531**
Abu Saidxon	**1531-1533**
Ubaydullaxon	**1533-1539**
Abdullaxon I	**1539-1540**
Abdulazizxon (Buxoroda)	**1540-1550**
Abdullatif (Samarqanda)	**1540-1550**
Navro’z Ahmadxon (Baroqxon)	**1551-1556**
Pirmuhammadxon I	**1557-1561**
Isqandarxon	**1561-1583**
Abdullaxon II	**1583-1598**
Abdulmo’minxon	**1598-1599**
Pirmuhammadxon II	**1599-1601**

dan boshlab esa Ismoil Somoniy butun Movarounnahrning yagona hukmdori bo’lib oladi. Ismoil Somoniy o’z davrining qobiliyatli, serg’ayrat va nihoyatda zukko davlat arbobi bo’lib, Movarounnahr hududida yirik markazlashgan davlatga asos soladi. U o’z davlatiga doimo xavf solib turgan ko’chmanchilar ustiga 893 yilda harbiy qo’shin bilan bordi, Taroz shahri egallanib, shimoldan bo’ladigan hujumlarning oldi olindi. Ismoil Somoniy 900 yilda Xuroson noibi Amr ibn Lays bilan bo’lgan hal qiluvchi jangda ham g’olib chiqdi. Natijada xalifa Ismoil Somoniy davlatini tan oldi va unga hukmdorlik yorlig’ini berdi. Shu tariqa IX asr oxirida Movarounnaqr xalifalik istibdodidan butunlay xalos bo’ldi.

Somoniylar davlatida markaziy va viloyatlar boshqaruvi tizimi yuzaga keldi. Markaziy boshqaruv dargoh (saroy) va devon (mahkama) orqali amalga oshirildi. Boshqaruvda amir (hukmdor)ning shaxsiy lashkari bo’lmish turk g’ulomlarining roli katta bo’lgan. Eng obro’li, iqtidorli g’ulomlar xiyolboshi (otliq askarlar boshlig’i), so’ng hojib lavozimini egallaganlar. Amirning hamma hukm va farmoyishlarini ijro etuvchi sohibi xaros yoki amiri xaros oliy siyosiy hokimiyatni boshqargan. Somoniylar saroyida ham devonboshilar, mirzaboshilar, miroxo’rlar va boshqa mansablar mavjud bo’lgan. Devonlarning eng kattasi vazir devoni hisoblanib, unga boshqalari bo’ysungan.

Davlat daromadlari va xarajatlarini boshqarib turuvchi oliy moliyaviy amaldor-mustavfiy devoni (xazinador) muhim o’rin tutgan.

Devoni risoil yoki devoni insho-devoni umudulmulk davlatning rasmiy Hujjatlarini tuzib beruvchi maxsus markaziy maqkama edi. Armiyani boshqargan mahkamaga Devoni shurat rahbarlik qilgan.

Mamlakatning aloqa xizmatlari esa Devoni barid tasarrufida bo’lgan. Muhtasib devoni esa savdogarlarning toshu tarozisini, narx-navo hamda fuqarolarning mafkurasi, shahar hunarmandlari mahsulotlari normasini belgilash va ularning sotilishi ustidan nazorat qilish bilan shug’ullangan.

Mushriflar devoni saroy ish boshqaruvchisi sifatida mablag’larning qanday sarflanishi jarayonini kuzatgan.

Qozilik devoni-adliya ishlari, Vaqf devoni-masjid va madrasalarning xo’jaliklari bilan shug’ullangan.

Mamlakat viloyatlari esa kadxudolar va raislar tomonidan boshqarilgan.

Mamlakat xo’jalik hayotida «iqto» mulklarining o’rni katta bo’lgan. Bu mulk egalari «iqtodor» deb yuritilgan. Iqtidorlar bu mulklarni davlat oldidagi alohida xizmatlari uchun yer va suv shaklida olganlar. Somoniylar davrida xo’jalikning barcha sohalari-dehqonchilik va chorvachilik rivoj topdi. Sug’orish shaxobchalarining kengayishi ziroatchilikning muHim tarmoqlari-g’allachilik, sholikorlik, polizchilik, bog’dorchilik tez o’sib bordi. Bu sohalar, ayniqsa, Zarafshon, Qashqadaryo, Shosh, Farg’ona vodiysi, Xorazm vohasida ko’proq rivojlandi. Murg’ob, Buxoro, Samarqand, Shosh atroflarida paxtachilik maydonlari kengayib bordi.

Bu davrda tog’ sanoati ham tez rivojlandi. Farg’ona vodiysida, Nurota-Zarafshon tog’larida, Iloq viloyatida turli xil qimmabaho toshlar, ma’danlarni qazib olish, ulardan turli xil mahsulotlar tayyorlash yo’lga qo’yildi.

Somoniylar davlatida yer egaligi quyidagicha bo’lgan:

-Mulki sultoniy-sulton (amir)ga qarashli yerlar. Undan olinadigan daromadlar davlat xazinasiga tushgan. Bu juda katta yer mulklari, shu jumladan, ko’p sonli dehqonlar mulklarini ham

O’g’uzlar ham qom (shomonlik) diniga sig’ingan. X asrdan islomni qabul qila boshlagan.X asrning birinchi choragida O’g’uzlar davlati parchalanish sari yuz tutadi. Buning asosiy sababi shimoli-sharqda qo’zg’algan qipchoqlarning bergan zarbalari bo’ldi. Ularning bir qismi hozirgi janubiy Rossiya dashtlariga o’rnashadi. Qolgan qismi avval Movarounnahrga kirib boradi, undan janubi g’arbga siljib, yangi sulola-saljuqlar boshchiligida Old Osiyo mamlakatlari hududlarini egallaydi.

Ma’lumotlar ko’rsatishicha, arablar hukmronligi davrida Movarounnahr va Xurosonning yerli aholisi o’z mustaqilligi uchun tinimsiz kurash olib borganlar. Shu bois istilochilar har doim qo’rquv va tahlikada bo’lganlar va maqalliy xalq ichidan chiqqan hukmdorlarning markaziy xalifalikda ta’siri ham kuchli bo’lgan. Abbosiylar hukmronlik qilgan davrdan qariyb ellik yil mobaynida davlatni idora qilishning mas’ul lavozimlari Balxdan chiqqan barmoqiylarning qo’lida bo’lganligi yuqoridagi fikrimizning isbotidir. Ayni vaqtda hukmdorlar yerli aholi vakillarining faollashuvidan ham o’ta darajada qo’rqar edi. Masalan, 786-809 yillarda xalifalikni boshqargan Xorun ar-Rashidning barmoqiylar xonadiniga qaqshatgich zarba berganligini shu ma’noda tushunsa bo’ladi. U hatto o’ziga yaqin bo’lgan qishloqlarni ham qirib tashlagandi. Hokimiyat tepasiga barmoqiylar o’rniga tohiriylar keladi. Ular Xurosonning yirik yer egalaridan bo’lib, bu sulolaning asoschisi ToHir ibn Husayn edi. Tohir 809-813 yillarda Xorun ar–Rashidning o’g’illari Ma’mun va Aminlar o’rtasidagi xalifalik taxti uchun kurashda Xuroson noibi Ma’munning g’alabasini ta’minlashda ko’maklashgandi.

Buning evaziga Ma’mun Tohirni 821 yilda Xuroson noibi etib tayinladi. U davrda Movarounnahr ham Xuroson tarkibiga kirgan. Tohir noiblikni mustaqil davlat qilish uchun harakat qildi. Buni jome masjidida juma xutba nomozidan xalifa nomining olib tashlanishidan sezish mumkin. Tohirning o’g’li Abulabbos Abdulloq noibligi davrida (830-844) noiblik rasman xalifalikka vassal bo’lsa-da, amalda mustaqil davlatga aylanib poytaxtni ham Marvdan Nishopurga o’tkazdi. Bunga asosiy sabab noiblikda tez-tez sodir bo’layotgan xalq qo’zg’olonlari edi. Ana shunday qo’zg’olonlardan eng kuchlisi 806 yilda arab lashkarboshisi Rafi ibn Lays boshchiligida sodir bo’lib, u Qashqadaryo, Buxoro, Shosh, Xorazm kabi vohalarni qamrab oladi. Qo’zg’olonchilar hattoki Samarqandni egallaydi. Xalifa Ma’mun bu harakatning xalifalik uchun o’ta xavfliligini anglab, uni bostirish uchun barcha vositalarni ishga soladi. Nihoyat, qo’zg’olonning 810 yilda bostirilishida Somon ibn Asad faollik ko’rsatadi. Uning bostirilishida Somonning o’g’illari Nuh, Ahmad, Yahyo va Ilyoslar ham ishtirok etgandi. Hududimiz vakillari bo’lgan Somon ibn Asad va farzandlari xizmati evaziga xalifa Ma’mun Nux ibn Asadni-Samarqandga, Aqmad ibn Asadni-Farg’onaga, Yahyoni-Shosh va Usrushonga, Ilyosni-Hirotga noib etib tayinladi. Ana shu tariqa Movarounnahrda somoniylar sulolasi qaror topdi.

Yana shuni qayd etish zarurki, 873 yilda Buxoroni tohiriylarning so’nggi vakili Muhammad ibn Tohir bosib olgan edi va xalqqa nisbatan zulmni kuchaytirdi. Buxoro xalqi Muhammadga qarshi qo’zg’olon ko’tardi. Shahar amaldorlari Nasr ibn Ahmadga murojaat etib, somoniylardan Buxoroga noib yuborishni iltimos qildilar. Ko’pdan beri Buxoroni o’ziga qo’shib olishni rejalashtirib yurgan Nasr bu taklifga ko’ra ukasi Ismoilni Buxoro noibi qilib jo’natadi. Ismoil Buxoro qo’zg’olonini bostiradi va Buxoro somoniylar tasarrufiga o’tadi. Muhammad esa Buxorodan chiqarib yuboriladi. Ismoil Somoniy esa Buxoro hukmdori bo’lib qoladi.

2. Biroq aka-uka o’rtasidagi qo’sh hokimiyatchilik uzoqqa bormadi. Natijada Nasr va Ismoil o’rtasida harbiy to’qnashuv sodir bo’lib, 888 yilda ukasi akasi ustidan g’olib chiqadi. 892 yil-

2-slayd
Qo’qonda minglar sulolasi (1710-1875)

Shohruh	**1710-1721**
Abdurahim	**1721-1733**
Abdulkarim	**1733-1750**
Abdurahmon	**1750** (**9**oy)
Erdona	**1751-1752**
Bobobek	**1752-1753**
Erdona (ikkinchi marta)	**1753-1762**
Sulaymon	**1762-1763**
Norbo’ta	**1763-1798**
Olimxon	**1798-1810**
Umarxon	**1810-12 ta guruh2**
Muhammadalixon	**12 ta guruh2-1842**
Sheralixon	**1842-1844**
Murodxon	**1844**
Xudoyorxon	**1845-1858**
Mallaxon	**1858-1862**
Xudoyorxon (ikkinchi marta)	**1862-1863**
Sulton Sayyidxon	**1863-1865**
Xudoyorxon (uchinchi marta)	**1865-1875**

1(**1**.**1**)-ilova
Kurs bo’yicha tinglovchilarning o’zlashtirishlarinibaholash mezonlari

Muddati	**Nazorat shakllari**	**Reyting ballari**
Amaliy mashg`ulot darsida.	Amaliy mashg`ulotda individual topshiriqlarni bajarish va guruhda ishlash.	**45** ball
Kurs tugagandan so’ng bir hafta ichida.	Mustaqil ish variantlari bo’yicha individual topshiriqlarni bajarish.	**10** ball
Kurs oxirida.	Test topshirish.	**15** ball
Doimiy.	Ijodiy yondoshuv.	**30** ball
Jami:		**100** ball

86%-100% – «A’lo»
71%-85% – «Yaxshi»
56%-70% – «Qoniqarli»
0%-55% – «Qoniqarsiz»

Kurs bo’yicha baholashda bilish, tushunish, tadbiq qilish, tahlil qilish, sintez qilish va baholay olish mezonlariga asoslaniladi.
Talabalar har bir amaliy mashg`ulotda **2** ballgacha olishlari mumkin bo’lib, unda quyidagi mezonlar asosida baholaniladi.

Asosiy tushunchalarni biladilar	Mavzu bo'yicha asosiy kategoriya va qonunlarni tushunadilar	Usullarni qo'llay oladilar	Natijalarni tahlil qila oladilar
20 %	**20** %	**30** %	**30** %

Shunisi e'tiborliki, turk xoqonlari, ularning zodagonlari va amaldorlari ishg'ol qilingan xududlarga kelib yashamadilar. Ular o'zlari ilgari istiqomat qilgan cho'l yerlarda qolib, ko'proq vassallik yerlaridan keltirilgan to'lovlar, o'lponlar, sovg'a-salomlar hisobiga hayot kechirishni afzal ko'rdilar. Bu esa mahalliy boy-zodagonlarga qo'l keldi. Ular mamlakatning iqtisodiy va siyosiy hayotini o'z tasarruflariga olib, uni o'zlari boshqardilar. Xoqonlik faqat maqalliy zodagonlar o'rtasida ichki ziddiyatlar va kelishmovchiliklar kelib chiqqandagina aralashar edi.

VI asrning 60-70-yillarida hozirgi O'zbekiston xududida bir nechta alohida mulklar bo'lib, ular rasmangina xoqonlikka bo'ysungan. Samarqand So'g'di Kan degan nomda edi. Uni mahalliy sulola vakili boshqarib turgan. Umuman, Zarafshon, Qashqadaryo va Amudaryo havzalarida to'qqizta alohida mulkiy hududlar mavjud bo'lib, ular Maymurx, Ishtixon, Kushaniya, Buxoro, Naxshab, Amul, Andxoy, Samarqand (Kan) deb nomlangan. Samarqand hokimi yuqoridagi 9 mulk orasida kattasi sanalgan. Boshqalari kuch-qudrat jihatidan yuksak sanalib, Samarqand hokimi bilan hisoblashib, muomalada bo'lgan. So'g'diyonaning mahalliy hokimlari Choch va Xorazmning mustaqil hukmdorlari bilan birlashgan edilar. Yirik siyosiy birliklar ma'lum muddatlarda shaharlardan birida o'z qurultoylarini o'tqazib turganlar.

Xorazm boshqa mulklarga nisbatan ancha mustaqil edi. Mamlakatni Afrig'iylar sulolasiga mansub podsholar boshQarib turgan.Sug'diyona qududiga o'sha vaqtda hozirgi Panjikentdan Karmanagacha bo'lgan yerlar kirgan. Buxoro esa VIII asrda mustaqil mulklar itifoqidan iborat alohida birlashma sifatida Samarqandga bo'ysunmay qolgan. Uning podshosi buxorxudot unvoni soHibi bo'lgan.

Farg'ona Kan siyosiy ittifoqiga kirmay, u aloqida mustaqil davlat edi. Uni afshin boshqargan. Xoqonlikka birlashgan xalqlar taraqqiyotning qar xil bosqichida edi. Aholining bir qismi chorvachilik bilan shug'ullangan bo'lsa, shaharlarda yashovchi aholi kosibchilik, hunarmandchilik va savdo bilan band bo'lgan. Turk qabilalarining bir qismi VI-VIII asrlarda o'tovlarda yashaganlar, to'rt oyoqli g'ildirak aravalarda ko'chib yurganlar. Mehnatkash aholini «Budun» yoki «Qora budun» deb ataganlar. Urug'-Qabilalarning yirik vakillari «beklar» nomi bilan yuritilgan. Jamoani «xoqon» va zodagonlar kengashi-«Qurultoy» boshqargan. Xonni taxtga o'tqazishda maxsus marosim bo'lgan. Amaldorlar xonni oq kigizga o'tkazib, quyosh harakati bo'ylab 9 marta aylantirganlar va so'ngra otga mindirib bo'yniga ipak mato bog'laganlar. Xoqondan keyingi shaxs yabg'u (bahodir) bo'lgan. Patriarxal oilalarga oila boshlig'i katxudolar bosh bo'lganlar. Turk xaqonligida urig' aymoqchilik munosabatlari kuchli bo'lgan. Shu sababli bu davlat markazlashgan davlat emas edi. 603 yilda Turk xaqonligi ikkiga bo'linib ketadi. Buning sababi ichki nizolarning kuchyishidan edi. Bu davlatning biri Mo'g'ulistonda tashkil topgan Sharqiy turk davlati va Markaziy Osiyo, Jung'riya va Sharqiy Turkistonda tashkil topgan G'arbiy turk xaqonligi. G'rbiy turk xaqonligi aholisining katta qismi o'troq dexqonchlik bilan shug'ullanib, 7 asrning birinch choragida nihoyatda kuchayadi. Xaqon Tunyabug'u(618-630) davrida ko'plab islohatlar o'tkaziladi.

V-VII asrlarda fiodal zulmining kuchayishi oqibatida yersiz aholi kadivarlarning axvoli yo-

Shunday qilib, V-VI asrlarda mamlakatimizda, umuman, mintaqada yuz yildan ortiq davr davomida eftaliylar sulolasi hukmronlik qildi. Davlatni boshqarishda ular o'tmishdagi dongdor sulolalaridan qolishmaganlar. So'nggi kushonlar zamonida boshboshdoqlik yo'liga kirgan mamlakatni qaytadan birlashtirib, siyosiy, iqtisodiy, madaniy munosabatlar va tashqi aloqalar taraqqiyotini an'anaviy yuksak darajada tutib turishiga bosh-qosh bo'lganlar.

2. VI asr o'rtalariga kelib, Sharqiy Turkiston, Farg'ona, So'g'diyona, Xorazm, Baqtriya, Shimoliy Hindiston va Sharqiy Eronni o'z ichiga olgan Eftaliylar davlati tanazzulga uchray boshlagan. Ayni davrda Oltoy, Yettisuv va Markaziy Osiyodagi turli qabilalar va xalqlar birlashib, yirik turk xoqonligi davlatini tashkil qildilar. Lekin bu turkiy xalqlarning davlatga uyushuvi VI asr o'rtalarigacha bo'lmagan degan xulosani bermaydi. Turkiyshunos olimlar fikricha, eng qadimgi turkiyzabon xalq Xitoy solnomalarida miloddan avvalgi 1756 yildan tilga olinadi. Lekin bu xalq «Turk» nomi bilan emas, balki «xun» deb atalgan. «Turk» so'zi etnik (xalq) nomi sifatida milodimizning V asridan boshlab uchraydi. Xunlar turkiy xalqlarning uzoq ajdodlari bo'lib, juda qadimiy tarixga egadirlar. Xunlar Markaziy Osiyo, Kaspiy dengizi bo'ylari hamda Shimoliy Kavkaz va G'arbiy Yevropa yerlarigacha cho'zilgan hududlarda yashaganlar. Miloddan avvalgi 207 yildan to milodning 216 yiligacha, ya'ni 423 yil hukmronlik qilgan Ulug' Xun saltanati sharqiy va g'arbiy qismga bo'linib idora qilingan. 374 yildan to 469 yilgacha Yevruopoda Xunlar saltanati mavjud bo'lgan. Bu saltanatning asoschisi Balamir (374-400) hisoblanadi. U juda ko'p mamlakatlarni o'z qo'l ostida birlashtiradi. Sharqiy Rus, Ruminiya, Yugoslaviyaning shimoli, Mojariston (Vengriya), Avstriya, Chexoslovakiya, Sharqiy va O'rta Olmoniya mamlakatlari bu saltanatga kirgan. Xun Hukmdorlaridan Attila (434-453) nomi Yevropada hozirgacha ma'lum.

Ikkinchisi Oq Xun saltanatidir. Bu O'rta Sharq-Eftalit saltanati deb ham yuritiladi. Sulolaning asoschisi Kun xon bo'lgan. Uning tarkibiga Hindistonning yarmi, Afg'oniston va Turkiston kirgan. Hindiston bu sulola tarkibida bo'lganligidan ko'k tangridan tashqari buddizm ham yetakchi din hisoblangan.

Qayd qilinishicha, V asrning ikkinchi yarmida Xun davlati turli sabablarga ko'ra parchalanib ketgan. Xunlarning uncha katta bo'lmagan bir toifasi o'z atrofiga qisman mo'g'ul va xitoy muhojirlarini birlashtirib, hech qanday hokimiyatga va davlatga bo'ysunmasdan ko'chmanchilik qilib hayot kechirganlar. Ana shu toifani ya'ni ularga qo'shilgan mo'g'ullarni «Turk-utu», ya'ni «bo'ri urug'i» deb ataganlar. Bu degan so'z turklar bo'ridan tarqalgan ma'noni bildirmaydi. Balki barcha xalqlarning uzoq o'tmishida bo'lgani singari har bir qabilaga homiylik qilgan hayvon, daraxt va jismlar nomi bilan atalgan.

VI asr boshlariga kelib, o'sha qabilalar uyushmasi son jihatidan osha borgan. Nomlanishdagi ikkinchi so'z tushib qolib, «Turk» deb atalavergan. Ana shu tariqa VI asr o'rtalariga kelib, Markaziy Osiyoda Turk xoqonligi tarkib topadi. Unga asos solgan kishi Ashin bo'lgan.

545 yilda Qo'zg'olon ko'targan jo'jonlarga Teles qabilalari zarba beradi va o'z navbatida turklar Teles qabilalarini tor-mor keltiradi. Shundan so'ng 545 yildan e'tiboran Turk xoqonligi Markaziy Osiyo, Mo'g'uliston, G'arbiy Sibir va Dashti Qipchoq yerlarida Hukmron davlatga aylanadi.

Umuman, birinchi va ikkinchi turk xoqonligi 545 yilda to'liq mustaqillikka erishganlaridan so'ng o'z hukmronliklarini deyarlik ikki yuz yil davom ettirdilar. Turk xoqonlari nihoyatda katta xududlarga ega bo'lgan mamlakatlarini sakkizta tobe xonliklar asosida boshqardi. Sharqiy

xukmronligi, **20-30** yillardagi fan va madaniyat, ma'naviy hayotdagi cheklashlarni yoritib berish vazifalari qo'yiladi.Suhbat-munozara, savol-javob orqali talabalarni mavzuni qay darajada o'zlashtirganligini nazorat qilish, ularning bilimini baholash. Talabalar fikrini jamlash va mavzuga yo'naltirish.	
O'qitish usullari va texnika	Ma'ruza, namoyish, aqliy hujum, charxpalak, blits-so'rov.
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, nutq, doska, tarqatma material
O'qitish shakllari	Yakka tartibda, frontal, guruhlarda ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Kompyuter, proyektor (yoki proyektor va LCD panel) mavjud auditoriyalar.
Monitoring va baholash	Og`zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

Ma'ruzaning texnologik xaritasi

Ish jarayonlari vaqti	**Faoliyatning mazmuni**	
	O'qituvchi	**Talaba**
I-bosqich. Kursga va mavzuga kirish. (**20** minut)	**1.1**. Ma'ruzaning nomini aytib, kurs doirasida dastlabki umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi (**1**-ilova).	Tinglaydi.
	1.2. Mazkur kurs bo'yicha o'rganiladigan mavzular bo'yicha nazariy va amaliy mashg`ulotlar, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma'lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro'yxati bilan tanishtiradi (**2**-ilova).	Yozadi, tinglaydi.
	1.3. O'n birinchi o'quv mashg`uloti mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi.	Mavzu nomini yozib oladilar.
II-bosqich. Asosiy (**50** minut)	**2.1**. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida diqqatni jamlovchi savollar beradi: **1**.O'zbekistonda **20**-yillardagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyat haqida gapiring. **2**. Sovet hokimiyatining **20-30** yillarda O'zbekistonda sanoatlashtirish va jamoalashtirish siyosati va uning oqibatlari. Savolga berilgan javoblarni tahlil qiladi.	Savollarga javob beradi.
	2.2. "Quloqlashtirish siyosati va uning mudhish natijalari" haqida ma'lumot berilib, rejaning **2**-savoli yuzasidan talabalarga o'z fikr-mulohazalarini bayon qilib berishini so'raydi. Talabalarning fikrlari umumlashtiriladi va xulosa qilinadi.	Bir necha talaba o'z fikr-mulohazalarini bayon qilib beradi.

	2.3. Blits-so'rov orqali paxta yakka hokimligining oqibatlari bir necha talabalardan so'raladi (**3**-ilova), olingan javoblar tahlil etilib, xulosa qilinadi.	Bir necha talaba javob beradi.
III-bosqich. Yakuniy bosqich. (**10** minut)	**3.1**. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma'lum qiladi.	Savollarga javob beradi.
	3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi.	Tinglaydi.
	3.3. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi (**4**-ilova).	Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlarni yozib oladi.
	3.4. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi (**2**-ilova).	Yozadi.

1(**1**.**1**)-ilova

Kurs bo'yicha tinglovchilarning o'zlashtirishlarinibaholash mezonlari

Muddati	Nazorat shakllari	Reyting ballari
Amaliy mashg`ulot darsida.	Amaliy mashg`ulotda individual topshiriqlar va guruhda ishlash.	**45** ball
Kurs tugagandan so'ng bir hafta ichida.	Mustaqil ish variantlari bo'yicha individual topshiriqlarni bajarish.	**10** ball
Kurs oxirida.	Test topshirish.	**15** ball
Doimiy.	Ijodiy yondoshuv.	**30** ball
Jami:		**100** ball

86%-100% – «A'lo»
71%-85% – «Yaxshi»
56%-70% – «Qoniqarli»
0%-55% – «Qoniqarsiz»

Kurs bo'yicha baholashda bilish, tushunish, tadbiq qilish, tahlil qilish, sintez qilish va baholay olish mezonlariga asoslaniladi.

Talabalar har bir amaliy mashg`ulotda **2** ballgacha olishlari mumkin bo'lib, unda quyidagi mezonlar asosida baholaniladi.

Asosiy tushunchalarni biladilar	Mavzu bo'yicha asosiy kategoriya va qonunlarni tushunadilar	Usullarni qo'llay oladilar	Natijalarni tahlil qila oladilar
20 %	**20** %	**30** %	**30** %

Ijodiy yondoshuv bo'yicha baholanish mezonlari quyidagicha:

O'zbekiston tarixi fanining predmetini bilgan holda, uni jamiyatdagi, inson hayotidagi ahamiyatini isbotlay oladilar	O'zbekiston tarixi fanining kategoriya va strukturasini mustaqil tahlil qila oladilar va xulosa chiqara oladilar
50 %	**50** %

yer egaligi munosabatlari shakllana boshlagan. Eski tartibdagi shaxarlar o'rnida yangi shahar-qal'alar qaror topgan. Eron, Vizantiya, Xitoy va Hindiston kabi davlatlar bilan savdo aloqalari olib borilgan.O'rta Osiyoda feodal munosabatlari-yer egaligi yuzaga kelishining o'ziga xos xususiyatlari shuki, bu yerda deqhon ko'proq mulkdor zamindorga emas, yerga bog'lanib qolar edi. Bu esa chorikorlik tartibini vujudga keltirdi. Feodal munosabatlar yuzaga kelishini yana shundan sezish mumkin ediki, kushonlar podsholigi davrida dehqonchilik uchun yaroqli, sug'oriladigan yerlar asosan qishloq jamoalari ixtiyorida bo'lib, bu jamoa a'zolari «Kashovarzlar» deb atalardi. Yer egasi bo'lib qolgan harbiy zodagonlar esa «dehqon» deb atalardi.

Bu davrlarda «dehqonlar» qishloqda ekin yerlari, ariq bo'ylariga joylashib, «Koshavarzlar»ni bo'ysindirganlar va xom g'ishtdan kushk-qo'rg'onlar qurib yashaganlar. Jamoa yerlarini egallagan «dehqon»larning qullari, bog'-rog'lari, chorva mollari, xizmatkorlari va kanizaklari shaxarda savdo-sotiq bilan ham shug'ullanish uchun ularning savdo-do'konlari hamda hunarmandchilik bilan bog'liq dastgohlari mavjud edi. Bu davrda qator shaharlar paydo bo'lib, savdo-sotiq kengayadi. Tanga pullar zarb qilinadi. Shaharlarda yirik karvonsaroylar, shinam uy-joy binolari va ibodatxonalar bunyod qilinadi. V-VI asrlarda dehqonchilik vohalarida kichik-kichik sug'orish kanallari ishga tushuriladi. Hozirgi vaqtda ham mavjud bo'lgan Zag'ariq, Bo'zsuv, Darg'om kanallari V asrda barpo etilgan. Shuningdek, tog' oldilariga suv olib borish uchun suv chiqarish asboblaridan keng foydalanilgan.

Qalin mudofaali Qo'rg'onlar ilk o'rta asrning o'ziga xos me'morchilik namunalaridan bo'lib, Nahshab vohasidagi Zahoki-Moron qal'asi, Buxorodagi Shahri Vayron, Xorzamdagi Fir qal'asi shular jumlasidandir. Vohalarni tashqi dushmandan himoya qilish maqsadida bir necha chaqirim uzunlikdagi qalin devorlar barpo etilgan. Samarqand vohasidagi 12 ta darvozaga ega bo'lgan «Devori Qiyomat», Buxoro vohasidagi uzunligi 336 kilometrli «Kampirik», Toshkent vohasidagi «Kampirdevor» istehkom devorlari shular jumlasidandir. Bu davr me'morchiligida qasrlar qurilishi, ayniqsa, ahamiyatlidir. Qasrlar odatda 2 Qavatli, shipi tekis, gumbazsimon va ravoqsimon yopilgan bir necha xonadan iborat bo'lgan. Bu davrda qurilgan saroy va ibodatxonalar qurilishida paxsa va xom g'ishtdan tashqari pishiq g'isht ham ishlatila boshlangan. Bularga misol tariqasida Surxandaryodagi Bolaliktepa, Xorazmdagi Tuproqqal'a qasrlari xarobalarini ko'rsatish mumkin.

Eftaliylar me'morchiligining ajoyib namunalaridan biri Buxoro yaqinidagi Varaxsha saroyidir. Bu qo'rg'on ulkan kvadrat shakldagi tepa ustiga qurilgan. Devorlari ganch qilinib, tasviriy suratlar bilan bezatilgan. Aytishlaricha, bu buxorxudotlarning VI-VII asrlardagi qarorgohi bo'lgan. Eftaliylarning diniy ta'limoti xilma-xil edi. Ular Hukmronlik qilgan xududda zardo'shtiylik va buddizm singari dinlar mavjud edi. Shaharlarda nestorianlar va yahudiylar jamoalari o'z dinlariga e'tiqod qilganlar. Eftaliylar buddizmga qisman e'tiqod qilsa-da, otashparastlikdagi ma'budlarga sig'inish ustunroq darajada bo'lgan.

Har kuni tongda o'zlarining o'tovlaridan chiqib, quyoshga sig'inganlar. Eftaliylar davrida Navro'z bayrami keng nishonlanib, hatto Buxoro otashparastlari Siyovush qabri ustida ho'roz so'yib qurbonlik qilishgan. Bu bayram 3000 yillik tarihga egadir.

Eftaliylarda kushon yozuvining rivoj topgan shaklini ko'rish mumkin. Bu yozuv boshqa yozuvlardan farq qiladi. Alifbosida harflar soni 25 ta bo'lib, chapdan o'ngga qarab o'qilgan. So'g'dda so'g'd yozuvi va so'g'd tili yetakchilik qilgan.

podshochalari o'zlarini turli nom bilan atadilar: Buxoroda-buxorxudotlar, Chog'aniyonda-chog'anxudotlar, Vardanzida-vardanxudotlar, Chochda-to'dunlar, Samarqand va Farg'onada-ixshidlar, Osrushanda-afshinlar, Xorazmda-xorazmshoHlar, Termizda-termizsho, Iloqda-dehqonlar kabi. Ularning harbiy kuchlari esa chokarlar deyilgan. Markaziy hokimiyat ana shu podshohlar va mulklar uyushmasidan tashkil topgan.

O'rta asrlar davrida mamlakatimiz xududida tashkil topgan dastlabki yirik davlat birlashmasi eftalitlar davlati bo'lgan. Eftaliylarning kelib chiqishlari to'g'risidagi ma'lumotlar Yunon, Xitoy hamda arab olimlari manbalarda uchraydi, ularda eftaliylar haqida turli qarashlar bildirilganlar: eftaliylar turklar bilan bog'liq; eftaliylarning asli kelib chiqishi xunlardandir; eftaliylar massagetlarning yettinchi qabilasi; milodiy IV asr o'rtalarida kushonlar va eftaliylarning boshqa qabilalar bilan birlashishgan yoxud ularni xioniylar va kidariylar deb atashgan; xioniylar kushonlarning aynan o'zi va hokazo.

Kidariylar nomi bilan atalgan qabila (bu nom qabila boshlig'i va podshosi Kidar nomi bilan bog'liq) esa V asrda massaget qabilalaridan ajralib chiqqan. Bunga 456 yilda kidariylarning sosoniylar bilan bo'lgan jangda yengilishi sabab bo'lgan. Jangda Halok bo'lgan Kidarning o'g'li Kungas boshchiligidagi kidariylar Shimoliy Hindistonga o'tib, Gupta podsholigini o'zlariga tobe etganlar va u bu yerda 75 yil hukmronlik qilganlar. Qisqasi, nima bo'lganda ham olimlar eftaliylarni asli O'rta Osiyoda ilgaridan yashab kelgan sak-massaget va xun qabilalarining birikmasidan kelib chiqqan deb hisoblaydilar. Bu qabilalar o'rtasidagi farq etnik xarakter emas, sulolaviy jihatdan bo'lishi mumkin. «Eftal» so'zi esa eftaliylar shohi Vaxshunvor Eftalon nomi bilan bog'liqdir. Vaxshunvor 457 yildan e'tiboran Chog'aniyon, Tohariston va Badaxshonni ham o'ziga bo'ysundirib O'rta Osiyoda yirik davlatga asos soladi. Bundan taxlikaga tushgan Eron shohi Peroz eftaliylarga qarshi uch marta harbiy yurish qilgan va ularda muvaffaqiyatsizlikga uchragan. Natijada, eftaliylar Marv, Qobul va Panjob vodiysi, Qarashar, Kuchu, Qashqar va Xo'tonni ham qo'lga kiritadilar. Eron uzoq davr eftaliylarga xiroj to'lab turgan.

Perozning o'g'li Kovad (hukmronligi 488-531 yillar), Kovadning o'g'li Xusrav Anushirvon I (hukmronligi 531-579 yillar) davrida ham Eron eftaliylarga soliqlar to'lab turgan. Zulm, adolatsizlik va tengsizlik ijtimoiy hayotning barcha sohalarida chidab bo'lmas darajasiga yetgan. Xalq ommasi bundan norozi bo'lib Mazdak Hamdadon (470-529) boshchiligida qo'zg'olon ko'targan. Qo'zg'olonning g'oyaviy asosini zardo'shtiylik mafkurasi tashkil etgan. Mazdak ilgari surgan g'oya bo'yicha barcha kishilar bu dunyo ne'matlaridan teng foydalanishlari lozim edi. Shu bois mazdakchilar «3» harfi bilan boshlanuvchi to'rt narsa aholi o'rtasidagi teng taqsimlansin, degan talabni ko'tarib chiqdilar. Bular quyidagilar: 1.Zamin (yer), 2.Zar (oltin), 3.Zo'rlik (hokimiyat), 4.Zan (xotin). Kovad shox dastlab qo'zg'alonchilar tomonida bo'ldi, so'ngra u 496 yilda zindondan qochib, eftaliylar yordamida o'z taxtini egalladi va qo'zg'olonni shafqatsizlarcha bostirib, Mazdakni (529) qatl ettirdi.

Taxminiy fikrlarga ko'ra, Eftaliylar davlatining poytaxti Poykand yoki Balx shaharlari bo'lgan. Aholining asosiy qismi dehqonchilik bilan shug'ullangan, qolganlari esa ko'chmanchi chorvachilik hayot tarzini o'z boshidan kechirgan. Eftaliylarning ko'pchiligi maxalliy aholi bilan aralashib, o'troq hayot tarziga o'tgan, yoki shaharliklarga xos yashashga moslashganlar. Eftaliylarning ko'chmanchi aholisi esa kigiz o'tovlarda, keng yaylovlar va suvga boy yerlarga ega bo'lishgan. Ko'rinadiki, ular dastlab ko'chmanchi chorvador bo'lishgan, keyinroq esa, shaHarlarni ishg'ol qilib, uning doimiy axolisiga aylanishgan. Muhimi shuki, eftaliylar davlatida

2 (**1**.**1**)-ilova

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston tarixi (**1917-1994** yy.)-T.:O'qituvchi, **1996**.
2. O'zbekiston qaramlik va mustaqillik yillarida.-T., **1996**.
3. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi.-T.: Sharq, **2000**.
4. Murtazayeva R.X. va boshqalar. O'zbekiston tarixi. Darslik.-Toshkent, **2003**.
5. Sa'dullayev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda.-Toshkent: Universitet, **1996**.
6. Usmonov Q., Sodiqov M., Oblomurodov N. O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma.-Toshkent: Meros, **2002**.

4 (**1**.**1**)–ilova

11-mavzuni jonlantirish uchun savollar:
1. O'zbekistonda **20**-yillardagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyat haqida tushunchangiz?
2. Sovetlarning **20-30** yillarda O'zbekistonda sanoatlashtirish va jamoalashtirish siyosati va uning oqibatlarini nimalarda ko'rasiz?
3. Paxta yakkahokimligining kuchayishi va uning oqibatlari haqida ma'lumot bering.
4. **20-30** yillarda fan va madaniyat qay ahvolda edi?
5. Kommunistik mafkura hukmronligi yillarida ma'naviy hayotdagi cheklashlar nimalarda aks etgan?

12-MAVZU: O'ZBEK XALQINING II-JAHON URUSHIDA FASHIZM USTIDAN QOZONILGAN G'ALABAGA QO'SHGAN HISSASI (2 SOAT)

Ma'ruzani olib borish texnologiyasi

Talabalar soni:**2 ta guruh**	Vaqti: **2** soat
Mashg`ulot shakli	Mavzuga kirish bo'yicha ko'rgazmali-ma'ruza.
Ma'ruza rejasi	**1**. Ikkinchi jahon urushining boshlanishi. **2**. O'zbekiston moddiy va ma'naviy kuchlarining dushmanga qarshi kurashga safarbar etilishi. **3**. Urush yillarida O'zbekiston qishloq xo'jaligi. **4**. Urush yillarida O'zbekiston fani va madaniyati. **5**. O'zbekiston jangchilarining frontdagi jasorati.
**Mashg`ulotning maqsadi**:Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek xalqining fashizm ustidan qozonilgan g`alabaga qo'shgan hissasihaqida ma'lumot berish.	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyati natijalari:
Mavzuda berilgan rejani birma-bir yoritib, ikkinchi jahon urushining boshlanish sabablarini ochib berish;	Ikkinchi jahon urushining boshlanish sabablari va uning oqibatlari haqida ma'lumot beriladi; O'zbekiston sharoitida moddiy va ma'naviy kuchlarning dushmanga qarshi kurashga safarbar

O'zbekiston sharoitida moddiy va ma'naviy kuchlarning dushmanga qarshi kurashga safarbar etilishi haqida ma'lumot berish; O'zbekiston qishloq xo'jaligining urush yillaridagi ahvolini yoritish; O'zbekiston jangchilarining frontdagi jasoratlarini yoritib berish.	etilishi haqida tushuncha hosil qilinadi; O'zbekiston qishloq xo'jaligining urush yillaridagi ahvoli yoritib beriladi; O'zbekistonlik jangchilarning frontdagi jasoratlari haqida gapirilib, talabalarda vatanparvarlik tuyg`ulari kuchaytiriladi.
O'qitish usullari va texnika	Ma'ruza, namoyish, aqliy hujum, blits-so'rov.
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, nutq, doska, tarqatma material
O'qitish shakllari	Yakka tartibda, frontal, guruhlarda ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Kompyuter, proyektor (yoki proyektor va LCD panel) mavjud auditoriyalar.
Monitoring va baholash	Og`zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

Ma'ruzaning texnologik xaritasi

Ish jarayonlari vaqti	**Faoliyatning mazmuni**	
	O'qituvchi	**Talaba**
I-bosqich. Kursga va mavzuga kirish. (**20** minut)	**1**.**1**. Ma'ruzaning nomini aytib, kurs doirasida dastlabki umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi (**1**-ilova).	Tinglaydi.
	1.**2**. Mazkur kurs bo'yicha o'rganiladigan mavzular bo'yicha nazariy va amaliy mashg`ulotlar, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma'lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro'yxati bilan tanishtiradi (**2**-ilova).	Yozadi, tinglaydi.
	1.**3**. O'n ikkinchi o'quv mashg`uloti mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi.	Mavzu nomini yozib oladilar.
II-bosqich. Asosiy (**50** minut)	**2**.**1**. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida diqqatni jamlovchi savollar beradi: **1** Respublikada xo'jalik va ijtimoiy hayotning harbiy izga solinishi haqida nimalarni bilasiz? **2**. O'zbekiston jangchilarining frontda ko'rsatgan jasoratlari haqida gapiring. Savolga berilgan javoblarni tahlil qiladi.	Savollarga javob beradi.
	2.**2**. Ikkinchi jahon urushining O'zbekiston xalqi hayotiga ta'siri haqida ma'lumot berilib, rejaning **2**-savoli yuzasidan talabalarga o'z fikr-mulohazalarini bayon qilib berishini so'raydi. Talabalarning fikrlari umumlashtiriladi va xulosa qilinadi.	Bir necha talaba o'z fikr-mulohazalarini bayon qilib beradi.

bo'ldi. Kushon davriga kelib yana bir yozuv-Kushon (Baqtriya) yozuvi shakllanadi. O'rta Osiyo va Afg'oniston hududidagi arxeologik tadqiqiotlar antik davr madaniyatining gullab yashnaganidan dalolat beradi. Ayritom va Ko'hna Termizda Budda ibodatxonalari ochilgan. Fayoztepa, Quva, Xolchayon, Dalvarzin kabi ko'hna shaharlarda ham saroylar, ibodatxonalar ochilib, ular yuksak madaniyatga ega ekanligi kuzatilgan.

1972 yilda Dalvarzintepadan (Surxondaryo) tilla buyumlar xazinasi (32 kg) topilgan. Bu xazina orasida antik davrga oid bilaguzuk, xalqalar, to'g'alar, bo'yin taqinchoqlari kabi san'at buyumlari ham bor. Umuman, antik davr Qang', So'g'd, Farg'ona yerlarida mavjud bo'lgan madaniyat o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko'tariladi.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOT VA MANBALAR:

1. G'ulomov YA.G'. Xorazmning sug'orilish tarixi. Toshkent, 1959.
2. Dandamayev M.A. Politicheskaya istoriya Axemenidskoy derjavы. Moskva, 1985.
3. Isomiddinov M.I. Sopolga bitilgan tarix. Toshkent, 1993.
4. Zeymal ye.V. Amudarinskiy klad. Leningrad, 1979.
5. Masson V.M. Drevnezemledelcheskaya kultura Margianы. MIA, 1959, № 73.
6. Masson V.M. Strana tыsyachi gorodov. Moskva, 1966.
7. Muhammadjonov A. R. Qadimgi Buxoro. Toshkent, 1991.
8. Pidayev SH.R. Sirli kushonlar saltanati. Toshkent, 1990.
9. Pugachenkova G.A., Rtveladze E.V. Severnaya Baktriya-Toxaristan. Tashkent, 1990.
10. Sagdullayev A.S. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. Toshkent, 1996.
11. Pugachenkova G.A. SHedevrы Sredney Azii. Tashkent, 1986.
12. O'zbekiston tarixi. Mualliflar jamoasi. A. Sagdullayev, B. Eshov tahriri ostida. Toshkent, 1997, ikkinchi nashri-1999.
13. Baqtriya-Toxariston qadimda va o'rta asrlarda. To'plam, Samarqand, 1993.
14. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. Toshkent, 2000.

4-MAVZU:
ILK O`RTA ASR O`ZBEK DAVLATCHILIGI: IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOT (V-VIII)

REJA:

1. Ko'chmanchi kidariylar, xioniylar va eftaliylarning O'rta Osiyoga yurishi.
2. Turk hoqonligining vujudga kelishi, aholining etnik tarkibi, idora usuli.
3. Arab xalifaligining paydo bo'lishi, ularning bosqinchilik yurishlari.
4. Soliq siyosati va xalq g'alayonlari.
5. O'rta asrlardagi etnik-madaniy jarayonlar. "O'zbek" atamasi.

TAYANCH TUSHUNCHA VA IBORALAR:

Kidariylar, eftalilar, kadivar, kashovarz, Mazdak, Bumin Xaqon, budun, qora budun, tudun, najjorlik, yabg'u, badaviylar, Quron, juzya, xiroj, zakot, Qutayba ibn Muslum, Go'rak, Tarhun, Muqanna qo'zg'aloni, Abumuslum.

1. MilodiyI-III asrlarda yuksalish davrini kechirgan Kushon podsholigiI Vasro'rtalarigake-libinqirozdavrigakirdi. Uning ayrim vohalarida mustaqil mulklar paydo bo'ldi. Bu mulklarning

chiqdi. Mil. avv. 250 yilda birinchi YUnon-Baqtriya podshosi Diodod o'zini hukmdor deb e'lon qildi va tangalar zarb etdi. Tangashunoslik ma'lumotlariga ko'ra, mil. avv. III asrning oxirigacha YUnon-Baqtriyada bir necha podsholar o'tganki, ular yozma manbalarda eslatilmaydi. Mil. avv. II asr boshlariga kelib Demetriy, yevkratid kabi podsholar YUnon-Baqtriya yerlarini janubga tomon kengaytirib boradilar. Mil. avv. II asrning ikkinchi yarmidan boshlab ko'chmanchi qabilalarning hujumlari va o'zaro kurashlari natijasida YUnon-Baqtriya podsholigi qulatiladi.

Antik davr davlatlari va madaniyati: Mil. avv. III asrning o'rtalarida mustaqil davlat sifatida tashkil topgan Parfiya davlati hozirgi Turkmaniston va Eronning bir qismini o'z ichiga olgan. Bu davlatning birinchi hukmdori Arshak bo'lib, u mil. avv. 247 yili taxtga o'tiradi. Mil. avv. 235 yildan boshlab, Parfiya podsholari o'z yerlari hududlarini kengaytirib bordilar. Milodiy III asrning birinchi choragida sosoniylar arshakiylar hukmronligini tugatib, Parfiyada hokimiyatni qo'lga oldilar. Antik davr Parfiyaning qishloq xo'jaligida qullar mehnatidan keng foydalanilgan. Mil. avv. III asr o'rtalaridan boshlab Parfiya davlati hozirgi O'zbekiston hududlarida joylashgan qadimgi viloyatlar-Xorazm, Baqtriya, So'g'diyona bilan siyosiy, madaniy va iqtisodiy munosabatlarni ayniqsa rivojlantirdi.

Undan tashqari, parfiyaliklar besh asr davomida Hindiston, O'rta Osiyo va Xitoyning Qarb mamlakatlari bilan qilgan savdo aloqalarida vositachilik qildilar. Parfiyaliklarning yozuvi oromiy (Niso hujjatlari) yozuvi bo'lib, zardo'shtiylik diniga e'tiqod qilishgan.

Qadimgi Farg'ona turli davr manbalarida Dovon, Boxan, Polona, Parkana kabi nomlar bilan eslatib o'tiladi. Ma'lumotlarga qaraganda Ershi (Marhamat) shahri Dovonning poytaxti edi. Antik davr Dovon aholisi dehqonchilik, uzumchilik, yilqichilik bilan shug'ullanishgan. Dovonning «samoviy otlari» o'lkadan tashqarida ham ma'lum va mashhur bo'lgan.

Mil. avv. II asrning oxirlarida Xitoy hukmdorlari Dovon yerlarini bosib olishga harakat qildilar. Ammo qo'shni davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlangan dovonliklar o'z mustaqilligini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldilar.

Mil. avv. III asrlar boshlarida paydo bo'lgan Qang' davlatining hududlari Sirdaryoning o'rta oqimidagi yerlar edi. Mil. avv. II-I asrlarda Qang' davlati yerlari kengayib, Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi yerlar va Xorazmni o'z ichiga oladi. Antik davrida Qang' davlati ancha rivojlangan davlat edi. O'troq aholi asosan vodiylarda yashab, dehqonchilik, bog'dorchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanib kelishgan. Qang' hukmdorlarining markaziy shaharlari ikkita edi. Ular yozni O'trorda (hoz. Aris va Turkiston oralig'ida), qishlovni esa Qang'a (hoz. Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumanida) shaharlarida o'tkazar edilar.

Mil. avv. I asrga kelib, O'rta Osiyo hududlarida antik davrning eng qudratli davlatlaridan biri bo'lgan Kushon davlati tashkil topadi. Dastlabki hukmdorlar Kadfiz I va Kadfiz II lar davlat yerlarini kengaytirib, pul islohoti o'tkazadilar. Milodiy II asrga kelib Kushon davlati yerlari SHimoliy Hindiston, Afg'oniston, O'rta Osiyo, SHarqiy Turkistondan iborat edi. Kushon hukmdorlari, xususan Kanishka (II asr) davrida savdo-sotiq, ichki va tashqi savdo ayniqsa rivojlanadi. Dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik ham ancha taraqqiy etadi. Bu jarayonda Buyuk Ipak yo'lining ahamiyati nihoyatda katta bo'ldi. Kushon davlatida asosiy din buddaviylik bo'lib, yunon, zardo'shtiylik aqidalariga ham e'tiqod qilinar edi.

Antik davr O'rta Osiyo xalqlari moddiy va ma'naviy madaniyatida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Mil. avv. IV-II asrlar oromiy yozuvi asosida Xorazm, Parfiya va So'g'd yozuvlari paydo

	2.3. Blits-so'rov orqali urush yillarida namoyon bo'lgan o'zbek xalqining bag`rikenglik xususiyatlari haqida bir necha talabalardan so'raladi (**3**-ilova), olingan javoblar tahlil etilib, xulosa qilinadi.	Bir necha talaba javob beradi.
III-bosqich. Yakuniy bosqich. (**10** mint)	**3.1**. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma'lum qiladi.	Savollarga javob beradi.
	3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi.	Tinglaydi.
	3.3. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi (**4**-ilova).	Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlarni yozib oladi.
	3.4. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi (**2**-ilova).	Yozadi.

1(**1.1**)-ilova

Kurs bo'yicha tinglovchilarning o'zlashtirishlarinibaholash mezonlari

Muddati	**Nazorat shakllari**	**Reyting ballari**
Amaliy mashg`ulot darsida.	Amaliy mashg`ulotda individual topshiriqlarni bajarish va guruhda ishlash.	**45** ball
Kurs tugagandan so'ng bir hafta ichida.	Mustaqil ish variantlari bo'yicha individual topshiriqlarni bajarish.	**10** ball
Kurs oxirida.	Test topshirish.	**15** ball
Doimiy.	Ijodiy yondoshuv.	**30** ball
Jami:		**100** ball

86%-100% – «A'lo»
71%-85% – «Yaxshi»
56%-70% – «Qoniqarli»
0%-55% – «Qoniqarsiz»

Kurs bo'yicha baholashda bilish, tushunish, tadbiq qilish, tahlil qilish, sintez qilish va baholay olish mezonlariga asoslaniladi.

Talabalar har bir amaliy mashg`ulotda **2** ballgacha olishlari mumkin bo'lib, unda quyidagi mezonlar asosida baholaniladi.

Asosiy tushunchalarni biladilar	**Mavzu bo'yicha asosiy kategoriya va qonunlarni tushunadilar**	**Usullarni qo'llay oladilar**	**Natijalarni tahlil qila oladilar**
20 %	**20** %	**30** %	**30** %

Ijodiy yondoshuv bo'yicha baholanish mezonlari quyidagicha:

O'zbekiston tarixi fanining predmetini bilgan holda, uni jamiyatdagi, inson hayotidagi ahamiyatini isbotlay oladilar	O'zbekiston tarixi fanining kategoriya va strukturasini mustaqil tahlil qila oladilar va xulosa chiqara oladilar
50 %	**50** %

2(**1**.**1**)-ilova

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-Toshkent: Sharq, **1998**.
2. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi.-T.: Sharq, **2000**.
3. Murtazayeva R.X. va boshqalar. O'zbekiston tarixi. Darslik.-Toshkent, **2003**.
4. Usmonov Q., Sodiqov M., Oblomurodov N. O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma.-Toshkent: Meros, **2002**.
5. O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida.-T.:Sharq, **2000**.

4(**1**.**1**)–ilova

11-mavzuni jonlantirish uchun savollar:
1. O'zbekistonning urush girdobiga tortilishi haqida nimalarni bilasiz?
2. O'zbekiston moddiy va ma'naviy kuchlarining fashizmga qarshi urushga safarbar etilishi haqida ma'lumot bering.
3. Urush yillarida O'zbekiston sanoatida ro'y bergan o'zgarishlar haqida ma'lumot bering.
4. Fashizmni tor-mor etishda O'zbekistonning o'rni haqida qanday fikrdasiz?

13-MAVZU:O'ZBEKISTONDA DAVLAT MUSTAQILLIGINING QO'LGA KIRITILISHI. HUQUQIY DEMOKRATIK DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYAT SAOSLARINING BARPO ETILISHI. (2 SOAT)

Ma'ruzani olib borish texnologiyasi

Talabalar soni:**2 ta guruh**	Vaqti: **2** soat
Mashg`ulot shakli	Mavzuga kirish bo'yicha ko'rgazmali-ma'ruza.
Ma'ruza rejasi	**1**. Mustaqillikning qo'lga kiritilishi hamda uning tarixiy ahamiyati. **2**. I.A.Karimov-O'zbekiston mustaqilligining asoschisi va yetakchisi. **3**. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi. **4**. O'zbekistonning o'ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo'li. Siyosiy islohatlar.
Mashg`ulotning maqsadi:O'zbekistonda davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi. Huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarining barpo etilishi haqida ma'lumot berish.	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyati natijalari:
Mavzuda berilgan rejani birma-bir yoritib, SSSRning tanazzulga yo'l tutishining sabablarini ko'rsatish; O'zbekistonda davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi, Davlat ramzlari va Konstitutsiyasining qabul qilinishi va ularning ahamiyatini yoritish;	SSSRning tanazzulga yo'l tutishining sabablari ko'rsatiladi; O'zbekistonda davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi, Davlat ramzlari va Konstitutsiyasining qabul qilinishi va ularning ahamiyati yoritiladi; Milliy davlat boshqaruv tizimini shakllantirishdagi siyosiy islohatlar va O'zbekistonning o'z istiqlol

O'zbekiston hududlaridagi eng qadimgi davlatlar haqida zardo'shtiylarning muqaddas diniy kitobi «Avesto», ahmoniylarning mixxat yozuvlari (Bexistun, Naqshi Rustam, Suza, Persepol) yunon-rim tarixchilarining (Gerodot, Gekatey, Kursiy Ruf, Arrian, Strabon va boshqalar) ma'lumotlar beradi. So'nggi yillarda qadimgi Baqtriya, So'g'diyona va Xorazm hududlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar ko'p hollarda yozma manbalar ma'lumotlarini tasdiqlaydi.

Mil. avv. 559 yilda Eronda podsho Kir II ahmoniylar davlatiga asos soladi. Mil. avv. 545-540 yillarga kelib ahmoniy podsholari O'rta Osiyodagi Parfiya, Marg'iyona, Baqtriya, So'g'diyona kabi viloyatlar va ko'chmanchi qabilalar ustidan o'z hukmronliklarini o'rnatdilar. O'rta Osiyo xalqlari bosqinchilarga qarshi mardonavor kurash olib bordilar. Xususan, ko'chmanchi massaget qabilalari ahmoniylarning katta qo'shinlarini tor-mor etdilar (mil. avv. 530 yil). Bu jangda fors podshosi Kir II ham halok bo'ldi. SHuningdek, mil. avv. 522 va 519-518 yillarda Marg'iyonada hamda saklar o'lkasida forslarga qarshi qo'zg'olonlar ko'tariladi.

Bu davrda qadimgi Baqtriya aholisining asosiy mashg'uloti dehqonchilik edi. Qalaimir, Kuchuktepa, Qiziltepa, Qizilcha, Bandixon kabi mil. avv.VI-IV asr yodgorliklaridan ko'plab mehnat qurollari topilgan. Dehqonchilik sun'iy sug'orishga asoslangan. Bu hududlarda undan tashqari chorvachilik, kulolchilik, temirchilik va badiiy hunarmandchilik (Amudaryo xazinasi) ham rivojlanadi.

Mil. avv. VI-IV asrlarda So'g'diyonada ko'plab shahar va qishloqlar bo'lib, ular fors podsholariga katta-katta soliqlar to'lab turganlar. Xususan, bu davrga oid Uzunqir, yerqo'rg'on, Afrosiyob, Lolazor, Xo'ja Bo'ston, Sangirtepa, CHordara, Qo'rg'oncha, Ko'ktepa kabi 50 dan ziyod yodgorliklar o'rganilgan. Bu hududlardan topilgan ko'pgina topilmalar aholining dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanganidan dalolat beradi. SHuningdek, savdo-sotiq va o'zaro aloqalar ham ancha rivojlanadi.

Bu davrda Xorazm hududlarida ham yirik-yirik manzilgohlar mavjud edi. Qishloqlarda dehqonchilik, shaharlarda esa hunarmandchilik rivojlangan edi. Jonbosqal'a, Ko'zaliqir, Tuproqqal'a kabilar madaniy markazlar hisoblangan. O'zbekistondagi eng qadimgi mahalliy yozuv namunalari ham Xorazm hududlaridan (Tuproqqal'a, mil. avv.IV asr) topilgan.

Mil. avv. 329 yilga kelib, makedoniyalik Iskandarning O'rta Osiyoga yurishlari boshlandi. Iskandar qo'shinlari So'g'diyona va Ustrushona yerlarida juda qattiq qarshilikka duch keldi. Janglarda Iskandarning o'zi ham bir necha marta yarador bo'ldi. Mil. av.. 329-327 yillar davomida mahalliy so'g'diy aholi Spitaman boshchiligida yunon-makedon bosqinchilariga qarshi kurash olib borib, ularga juda katta talafot yetkazdi. Iskandar qo'shinlari hech qachon So'g'diyonadagidek qarshilikka uchramagan edi.

Mil. avv. 323 yilda makedoniyalik Iskandar vafot etganidan so'ng O'rta Osiyo yerlari Salavka hukmronligi ostiga o'tadi (mil. avv. 306 yil). Salavkiylardan bo'lgan Antiox I davrida (mil. avv. 280-261 yy.) O'rta Osiyo viloyatlarida tinch hayot boshlanib, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, savdo-sotiq anchagina rivojlanadi. O'rta Osiyo yerlari salavkiylar davlatining muhim qismi bo'lib, harbiy-strategik va iqtisodiy ahamiyatga ega edi. O'rta Osiyo viloyatlarining salavkiylar davlati tarkibiga kirgan davri yunon-makedon yurishlari paytida vayron bo'lgan ishlab chiqaruvchi kuchlarning va baqtriyaliklar, so'g'diylar hamda pafiyaliklarning bosqinchilarga qarshi kurashda birlashuv davri bo'ldi.

Mil. avv. III asrning o'rtalariga kelib, salavkiylar davlatida taxt uchun o'zaro kurashlar avj olib ketdi. Natijada dastlab Parfiya, keyin esa YUnon-Baqtriya davlatlari salavkiylardan ajralib

hududlariga tarqaldi. Bu - aynan yurtlar va xalqlar taraqqiyotidagi notekislik kabi tarixiy qonuniyatga zid emas.

Ko'p sonli arxeologik topilmalarning dalolat berishicha, O'zbekistondagi ayrim ko'hna shaharlarning yoshi 2700-3000 yildan kam emas. Ularga Afrosiyob (Samarqand), Qiziltepa (Surxondaryo), Uzunqir, yerqo'rQon (Qashqadaryo) kabilar kiradi. Qadimgi shaharlar - tarixiy rivojlanishdagi urbanistik jarayonda muhim ahamiyatga ega bo'lgan jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy asosi hisoblanadi. Fikrimizcha, shaharlar tarixini o'rganish jarayonida dastavval, eng qadimgi shaharlar shakllanishi va rivojlanishi; aniq hududlar va viloyatlardagi tarixiy-madaniy shart-sharoitning ta'siri; ekologik-geografik, ijtimoiy, iqtisodiy va demografik muhitlarning darajasi va ta'sir doirasi; shaharlarning vazifasi; qadimgi shahar markazlarining tarixiy-madaniy jarayonlardagi o'rni va ahamiyati masalalariga keng e'tibor qaratish lozim.

Eng qadimgi davlatlar. Ulardagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot: O'tgan asrning oxirlaridan boshlab hozirgi kunga qadar «Avesto» ma'lumotlari (viloyatlarning Aryoshayona bo'yicha birlashishi) Gerodot va Gekatey asarlari («Katta Xorazm»), shuningdek, Ktesiyning qadimgi Baqtriya podsholigi haqidagi ma'lumotlari va nihoyat arxeologik tadqiqotlar natijalari O'rta Osiyoda ilk davlat uyushmalarining paydo bo'lishi muammolarini o'rganish uchun asos bo'lgan bo'lishiga qaramasdan, qadimgi davlatlar hududlari, shakllari, boshqaruv tizimi va sanasi bilan bog'liq bo'lgan mavzularning ayrim yo'nalishlari hamon ilmiy bahslarga sabab bo'lmoqda.

Ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mil. avv. I ming yillikning boshlariga kelib, O'rta Osiyoning nisbatan rivojlangan hududlarida ilk davlat uyushmalari paydo bo'la boshlaydi. Mil. avv. IX-VIII asrlarga kelib, Baqtriya (Janubiy O'zbekiston, Janubiy Tojikiston, SHimoliy Afg'oniston) hududlarida harbiy ahamiyatga ega bo'lgan siyosiy birlashmalar tashkil topadi. O'sha davrda Marg'iyona va So'g'diyona qadimgi Baqtriyaning ayrim qismlari bo'lganligi haqida turli ma'lumotlar bor. Baqtriya SHarqdagi eng muhim harbiy va iqtisodiy markazlardan biri bo'lib, aholining, qudratli shaharlar va qal'alarning ko'pligi, tabiiy xom ashyoga boyligi, muhim markaziy savdo yo'llari chorrahasida joylashganligi, hunarmandchilikning ravnaqi shundan dalolat beradi.

So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar «Katta Xorazm», «Qadimgi Xorazm» masalalariga birmuncha aniqliklar kiritdi. Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, Xorazm tuproQida mil. avv. VIII-VII asrlarga oid paxsa yoki xom G'isht turar joylar aniqlanmagan (turar joylar yarim yerto'lalardan iborat). Qadimgi Xorazm davlati mil. avv. VI asrda Amudaryoning o'rta oqimi qismidan Orolga yaqin bo'lgan yerlarda vujudga kelgan. Baqtriya va Xorazm davlatining hududiy chegaralari O'rta Amudaryo oqimidagi yerlar orqali o'tgan. Xorazmning yirik sug'orish inshootlari mil. avv. VI-V asrlarga oiddir. O'lkada bu davrlarga oid ko'pgina shahar va qishloqlar xarobalari ochib o'rganilgan. Ulardagi topilmalar, manzilgohlar, xom G'isht va paxsadan qad ko'targan bo'lib, aholi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. SHaharlarda hunarmandchilik rivojlangan.

Qadimgi So'g'diyona, Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida joylashgan bo'lib, janubi-sharqda Baqtriya, shimoli-Qarbda Xorazm bilan chegaradosh bo'lgan. So'g'diyona haqida «Avesto», ahmoniylar davri, mixxat yozuvlari va yunon-rim tarixchilari ma'lumotlar beradilar. Qashqadaryodagi bir qator turar-joylar va uy-qo'rQonlar qoldiqlari mil. avv. IX-VIII asrlarga oiddir. So'g'diyonada Afrosiyob, yerqo'rg'on, Uzunqir kabi yirik shahar markazlari hamda qo'shni viloyatlar va davlatlar bilan o'zaro iqtisodiy va madaniy aloqalar rivojlanadi.

Milliy davlat boshqaruv tizimini shakllantirishdagi siyosiy islohatlar va O'zbekistonning o'z istiqlol taraqqiyot yo'lini ochib berish. Suhbat-munozara, savol-javob orqali talabalarni mavzuni qay darajada o'zlashtirganligini nazorat qilish, ularning bilimini baholash. Talabalar fikrini jamlash va mavzuga yo'naltirish.	taraqqiyot yo'li ochib beriladi.
O'qitish usullari va texnika	Ma'ruza, namoyish, aqliy hujum, charxpalak, blits -so'rov.
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, nutq, doska, tarqatma material
O'qitish shakllari	Yakka tartibda, frontal, guruhlarda ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Kompyuter, proyektor (yoki proyektor va LCD panel) mavjud auditoriyalar.
Monitoring va baholash	Og`zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

Ma'ruzaning texnologik xaritasi

Ish jarayonlari vaqti	**Faoliyatning mazmuni**	
	O'qituvchi	**Talaba**
I-bosqich. Kursga va mavzuga kirish. (**20** minut)	**1.1**. Ma'ruzaning nomini aytib, kurs doirasida dastlabki umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi (**1**-ilova).	Tinglaydi.
	1.2. Mazkur kurs bo'yicha o'rganiladigan mavzular bo'yicha nazariy va amaliy mashg`ulotlar, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma'lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro'yxati bilan tanishtiradi (**2**-ilova).	Yozadi, tinglaydi.
	1.3. O'n to'rtinchi o'quv mashg`uloti mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi.	Mavzu nomini yozib oladilar.
II-bosqich. Asosiy (**50** minut)	**2.1**. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida diqqatni jamlovchi savollar beradi: **1**. **1991** yil **29** dekabrda o'tkazilgan umumxalq referendumining tarixiy ahamiyatini yoritib bering. **2**. Demokratik jamiyatga xos saylov tizimining barpo etilishi haqida gapiring. Savolga berilgan javoblarni tahlil qiladi.	Savollarga javob beradi.
	2.2. O'zbekistonda davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi haqida ma'lumot berilib, reja savollari yuzasidan talabalarga o'z fikr-mulohazalarini bayon qilib berishini so'raydi. Talabalarning fikrlari umumlashtiriladi va xulosa qilinadi.	Bir necha talaba o'z fikr-mulohazalarini bayon qilib beradi.

	2.3. Blits-so'rov orqali O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinishining tarixiy ahamiyati haqida bir necha talabalardan so'raladi (**3**-ilova), olingan javoblar tahlil etilib, xulosa qilinadi.	Bir necha talaba javob beradi.
III-bosqich. Yakuniy bosqich. (**10** minut)	**3.1**. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma'lum qiladi.	Savollarga javob beradi.
	3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi.	Tinglaydi.
	3.3. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi (**4**-ilova).	Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlarni yozib oladi.
	3.4. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi (**2**-ilova).	Yozadi.

1(**1.1**)-ilova

Kurs bo'yicha tinglovchilarning o'zlashtirishlarinibaholash mezonlari

Muddati	Nazorat shakllari	Reyting ballari
Amaliy mashg`ulot darsida.	Amaliy mashg`ulotda individual topshiriqlarni bajarish va guruhda ishlash.	**45** ball
Kurs tugagandan so'ng bir hafta ichida.	Mustaqil ish variantlari bo'yicha individual topshiriqlarni bajarish.	**10** ball
Kurs oxirida.	Test topshirish.	**15** ball
Doimiy.	Ijodiy yondoshuv.	**30** ball
Jami:		**100** ball

86%-100% – «A'lo»
71%-85% – «Yaxshi»
56%-70% – «Qoniqarli»
0%-55% – «Qoniqarsiz»

Kurs bo'yicha baholashda bilish, tushunish, tadbiq qilish, tahlil qilish, sintez qilish va baholay olish mezonlariga asoslaniladi.

Talabalar har bir amaliy mashg`ulotda **2** ballgacha olishlari mumkin bo'lib, unda quyidagi mezonlar asosida baholaniladi.

Asosiy tushunchalarni biladilar	Mavzu bo'yicha asosiy kategoriya va qonunlarni tushunadilar	Usullarni qo'llay oladilar	Natijalarni tahlil qila oladilar
20 %	**20** %	**30** %	**30** %

Ijodiy yondoshuv bo'yicha baholanish mezonlari quyidagicha:

O'zbekiston tarixi fanining predmetini bilgan holda, uni jamiyatdagi, inson hayotidagi ahamiyatini isbotlay oladilar	O'zbekiston tarixi fanining kategoriya va strukturasini mustaqil tahlil qila oladilar va xulosa chiqara oladilar
50 %	**50** %

Misr podsholigi poytaxti esa Buto shahri edi. Qadimgi Misrning rivojlanishi O'rta, YAngi va So'nggi podsholiklar davrlariga bo'linadi.

Mil. avv. V ming yillikka kelib, qadimgi Mesopotamiya aholisi hayotida Xalaf madaniyati (Tal-Xalaf qishlog'i nomidan) ma'lum ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa-da, bu hududlarda jamiyatning tabaqalashuvi va davlatchilikning paydo bo'lishi hamda SHumer sivilizatsiyasining asoslari Uruk (IV ming yillikning ikkinchi yarmi) madaniyati bilan bog'liqdir.

Bu davrda Mesopotamiya xo'jaligining asosini sug'orma dehqonchilik tashkil etardi. Asta-sekinlik bilan dehqonchilikdan hunarmandchilik xo'jaliklari ajralib chiqib, ular jamiyat rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlarga aylana boshlaydi. Ichki va tashqi almashinuv rivojlanadi. Qo'shni viloyatlardan mis, oltin, qurilish mollari, qimmatbaho toshlar keltirila boshlanadi. Manzilgohlar o'lchamlari kengayib, ular madaniy, ma'muriy, siyosiy va diniy markazlarga aylanib boradi.

Mil. avv. IV ming yillikka kelib ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi natijasida ishlab chiqarish munosabatlari ham taraqqiy etadi. Natijada Mesopotamiya jamiyatda mulkiy tengsizlik va ijtimoiy tabaqalanish ro'y beradi. Mil. avv. III yillikning boshlari Mesopotamiyaning (Tigr va yevfrat daryolari vodiysi) janubida SHumer, O'rta qismida esa Akkad kabi davlatlar Eredu, Ur, Larsa, Uruk, Umma, Lagas kabi bir nechta shahar-davlatlar mavjud edi. O'sha davr Mesopotamiya rivojlanishining asosini sug'orma dehqonchilik tashkil etardi.

O'lkamiz hududlarida dastlabki shaharsozlik madaniyati: Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, ilk shaharlarning paydo bo'lishi dastlabki davlatchilik shakllanishida eng muhim va asosiy omil bo'lib, bu ikkala jarayon uzviy bog'liq holda kechgan.

Ma'lumki, mil. avv. II ming yillikka kelib qadimgi O'zbekistonning dehqonchilik vohalarida o'troq qabilalar rivojlanib, aholining alohida joylashuv tizimi shakllanadi. Aholining alohida joylashuv manzilgohlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar-o'troq dehqonchilikning rivojlanishi, aholi zichligining yuqori darajasi, hunarmandchilikning taraqqiy etishi, ijtimoiy tabaqalanish va boshqaruv tizimining murakkablashib borishi, o'zaro almashinuv, savdo-sotiq va madaniy aloqalarining kuchayishi hamda harbiy-siyosiy vaziyat O'zbekiston hududlarida dastlabki shaharlarning paydo bo'lishida asosiy omillardan hisoblanadi.

Jamiyat hayotida sodir bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar mil. avv. III ming yillikning oxiri-II ming yillikning boshlariga kelib, O'rta Osiyo hududlarida dastlabki shaharlarning paydo bo'lishiga olib keladi. SHahar madaniyatining shakllanishi ham xuddi jamiyat taraqqiyotida bo'lgani kabi uzluksiz taraqqiyot yo'li bilan rivojlangan. Bu qonuniyatga ko'ra shaharsozlik madaniyatining shakllanishi, uzoq, bosqichma-bosqich davrlarni bosib o'tgan. Mil. avv. II ming yillikka oid O'rta Osiyodagi Jarqo'ton, Sopolli, Dashli, Gonur, Namozgoh, Oltintepa, Ulug'tepa kabilarda ilk shaharsozlik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi uchun quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega bo'ldi:

- aholining o'troq dehqonchilikka o'tishi va keng vohalar bo'ylab yoyilishi;
- hunarmandchilikning rivojlanishi va ayrim sohalarga ixtisoslashishi;
- qadimgi savdo yo'llarining rivojlanishi natijasida iqtisodiy va madaniy aloqalar hamda savdo-sotiqning taraqqiy etishi;
- tabiiy-geografik hamda harbiy-strategik shart-sharoitlar.

SHahar madaniyati dastavval O'zbekistonning janubida, Surxondaryo hududida shakllandi, so'ngra esa shimolga So'g'd (Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro), Xorazm, SHosh va Farg'ona

Bunday holatni dunyo tarixidagi dastlabki davlatlar-Misr (Nil) va Mesopotamiya (Dajla va Frot) misolida ham kuzatish mumkin.

Hozirgi kunga kelib, O'rta Osiyoning juda ko'plab bronza va ilk temir davriga oid yodgorliklaridan (Sopolli, Jarqo'ton, Anov, Qiziltepa, Ko'zaliqir, Afrosiyob, CHust, Dalvarzin, Daratepa va boshq.) ishlab chiqaruvchi xo'jalik bilan bevosita bog'liq bo'lgan metall qurollar topib o'rganilgan. Metall qurollarining mehnat qurollari sifatida jamiyat hayotiga keng yoyilishi mehnat unumdorligining yanada yuksalishi uchun ulkan imkoniyatlar yaratib, bu jarayon davlatchilik paydo bo'lishini yanada tezlashtirdi.

So'nggi bronza davriga kelib kulolchilik charxining ishlatila boshlanishi natijasida Sopolli, Oltintepa, Gonur, Jarqo'ton kabilarda kulolchilik mahallalari paydo bo'ladi. SHuningdek, hunarmandchilikning toshga, metallga, yog'ochga, suyakka ishlov berish turlari ham keng tarqaladi. O'unarmandchi-likning ixtisoslashuvi, alohida xo'jalik tarmog'i sifatida shakllanib rivojlanishi jamiyatdagi iqtisodiy taraqqiyot uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, davlatchilik paydo bo'lishi uchun muhim bo'lgan qo'shimcha mahsulot ko'payishiga turtki bo'ldi.

O'rta Osiyo hududlarida yashagan aholi qadimgi davrlardan boshlab o'zaro munosabatlarni rivojlantirib kelganlar. Bronza davriga kelib shimoldagi ko'chmanchi chorvador qabilalar va janubdagi o'troq dehqonchilik aholisi o'rtasida o'zaro mol ayirboshlash va madaniy aloqalar yanada jadallashdi. Bu o'rinda o'sha davrda shakllanib keyinchalik yanada rivojlangan qadimgi yo'llarning ahamiyati beqiyos bo'ldi. Bu yo'llar orqali O'rta Osiyo qadimgi aholisi mintaqadan tashqari qo'shni davlatlar Mesopotamiya, Misr, Hindiston, Eron, Afg'oniston kabilar bilan turli aloqalarni rivojlantirganlar.

Xullas, Bronza davriga kelib aholi ishlab chiqarishning ma'lum bir sohalariga - dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikka ixtisoslashib bordi. Bu jarayon ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi va ularning bir yerga to'planishi uchun zamin yaratdi. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi o'z nav-batida mahsulot hajmining o'sib, qo'shimcha mahsulot paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Demak, qadimgi xo'jaliklarning ixtisoslashuvi, suQorma dehqonchilikning rivojlanishi, metallning hayotga jadallik bilan kirib kelishi va yoyilishi, hunarmandchilikda turli tarmoqlarning rivojlanishi, o'zaro ayirboshlash va savdo-sotiq taraqqiy etishi natijasida jamiyat hayotida ijtimoiy-iqtisodiy yuksalish kuzatiladi. Bu yuksalish ilk davlatchilikning asosiy poydevori hisoblanadi.

Mil. avv. IV ming yillikka kelib qadimgi Misr xo'jaligida sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik katta yutug'larga erishadi. Ko'p tarmoqli bo'lgan hunarmandchilik dehqonchilikdan ajralib chiqadi. Savdo-sotiq keng miqyosda rivojlanib boradi. Aynan mana shu davrda jamiyatning ijtimoiy hayotida ham tubdan o'zgarishlar bo'lib o'tdi. Aholi orasida tabaqalanish ro'y berib, jamiyat uchta - hukmron qatlam (qabila oqsoqollari, kohinlar, boy jamoachilar), dehqonchilik jamoasi a'zolari (Qad. Misr jamiyatdagi moddiy ishlab chiqaruvchilar) va qullar qatlamlariga bo'linadi.

Mil. avv. IV ming yillikning ikkinchi yarmida Qadimgi Misrda shahar markazi atrofidagi bir nechta qishloqlarni birlashtirgan unchalik katta bo'lmagan viloyatlar (nomlar) doirasida dastlabki davlatlar paydo bo'ladi. Markaziy shaharlar markazida hukmdor qarorgohi va bosh xudo ibodatxonasi joylashgan. Bu davrda Quyi Misrda 22 ta nom, YUqori Misrda 20 ta nom bo'lgani ma'lum. Mil. avv. IV ming yillik oxirlariga kelib barcha nomlar birlashtirilib Quyi va YUqori podsholiliklar tashkil topadi. Quyi Misr podsholigi poytaxti Enxab (Nexen) shahri, YUqori

2(**1**.**1**)-ilova

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-Toshkent: Sharq, **1998**.
2. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. **1**-jild.-Toshkent: O'zbekiston, **1996**.
3. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi.-T.: Sharq, **2000**.
4. Murtazayeva R.X. va boshqalar. O'zbekiston tarixi. Darslik.-Toshkent, **2003**.
5. Usmonov Q., Sodiqov M., Oblomurodov N. O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma.-Toshkent: Meros, **2002**.

4(**1**.**1**)–ilova

14-mavzuni jonlantirish uchun savollar:
1. Davlat mustaqilligini qo'lga kiritilishining olamshumul ahamiyatini isbotlang.
2. O'zbekiston Respublikasining davlat ramzlari va uning yangi Konstitutsiyasining qabul qilinishi mustaqillikni mustahkamlashda qanday ahamiyatga ega?
3. Huquqiy davlat deganda nimani tushunasiz?
4. Parlamentar respublika boshqaruv usuli nima?
5. Siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlarini tuzish, ularning faoliyat yuritishi uchun huquqiy asoslar qanday hujjatlarda belgilab berilgan?

14-MAVZU: MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOIY-IQTISODIY TARAQQIYOTI. O'ZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATI. (2 SOAT)

Ma'ruzani olib borish texnologiyasi

Talabalar soni:**2 ta guruh**	Vaqti: **2** soat
Mashg`ulot shakli	Mavzuga kirish bo'yicha ko'rgazmali-ma'ruza.
Ma'ruza rejasi	Mustaqillik yillarida ma'naviy hayot, ma'naviy qadriyatlarning tiklanishi. O'zbekistonda fan, madaniyat va san'atni rivojlantirishga e'tibor. O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tish yo'li.Iqtisodiy islohotlar strategiyasi va uning huquqiy asoslarining yaratilishi. Tinchliksevar tashqi siyosat uning muhim tamoyillari. O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan hamkorligi.O'zbekiston va xalqaro tashkilotlar.
Mashg`ulotning maqsadi:Mustaqillik yillarida O'zbekistonda o'tkazilgan iqtisodiy, madaniy islohotlar mazmun-mohiyati, erishilgan yutuqlar va galdagi vazifalar yuzasidan talabalar ongida aniq tasavvur hosil qilib, ularda yurt kelajagi va vatan oldidagi mas'uliyat hissini rivojlantirish.	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyati natijalari:

Siyosiy islohotlar va ko'ppartiyaviylik tizimining shakllantirilish bosqichlarini yoritish; Bozor iqtisodiyotiga o'tishning zaruriyligini asoslash; Iqtisodiy islohotlar strategiyasi va uning huquqiy asoslarini tushuntirish; Davlat mulkini xususiylashtirish, mulkdorlar sinfining shakllantirilishiga e'tibor qaratish; Iqtisodiyotning agrar sektoridagi o'zgarishlarga e'tibor qaratish; Milliy o'zlikni anglash, qadriyatlarning tiklanishini yoritish; Ta'lim, madaniyat, sport sohasidagi yutuqlarga to'xtalish.	Bozor iqtisodiyoti haqida ilmiy xulosalar oladi; Iqtisodiy islohotlar bosqichlari, erishilgan yutuqlar va galdagi vazifalar yuzasidan ma'lumotga ega bo'ladi; Vatan ravnaqiga o'z ulushini qo'shish hissini shakllantiradi va rivojlantiradi; O'zbekiston Parlamenti va hukumatining islohotchilik faoliyati bilan tanishadi; Milliy istiqlol g`oyasining tarixiy idizlari va uning jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rni haqida ma'lumot oladi; Istiqlolning ta'lim, madaniyat va sport sohalari rivojidagi o'rniga xolisona baho beradi.
O'qitish usullari va texnika	Vizual ma'ruza, blits-so'rov, bayon qilish, klaster, "ha-yo'q" texnikasi
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, nutq, doska, tarqatma material
O'qitish shakllari	Yakka tartibda, frontal, guruhlarda ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Kompyuter, proyektor (yoki proyektor va LCD panel) mavjud auditoriyalar.
Monitoring va baholash	Og`zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

Ma'ruzaning texnologik xaritasi

Ish jarayonlari vaqti	**Faoliyatning mazmuni**	
	O'qituvchi	**Talaba**
I-bosqich. Kursga va mavzuga kirish. (**20** minut)	**1**.**1**. Ma'ruzaning nomini aytib, kurs doirasida dastlabki umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi (**1**-ilova).	Tinglaydi.
	1.**2**. Mazkur kurs bo'yicha o'rganiladigan mavzular bo'yicha nazariy va amaliy mashg`ulotlar, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma'lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro'yxati bilan tanishtiradi (**2**-ilova).	Yozadi, tinglaydi.
	1.**3**. O'n beshinchi o'quv mashg`uloti mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi.	Mavzu nomini yozib oladilar.
II-bosqich. Asosiy (**50** minut)	**2**.**1**. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida diqqatni jamlovchi savollar beradi: **1**. Bozor iqtisodiyoti tushunchasga qanday izoh berasiz? **2**. Xususiylashtirish deganda nimani tushunasiz? **3**. Bozor infrastrukturasi deganda nimani tushunasiz? Savolga berilgan javoblarni tahlil qiladi.	Savollarga javob beradi.

8. Tolstov S.P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. Toshkent, 1964.
9. Taylor E.B. Pervobытnaya kultura. Per. s angl. D. A. Koropchevskogo. M., 1989.
10. CHeboksarov N.N., CHeboksarova I. A. Narodы, rasы, kulturы. M.: Nauka, 1985.
11. O'zbekiston tarixi. Sagdullayev A., Eshov B. tahriri ostida. Toshkent. Universitet, 1997, 2 -nashri, 1999.

3-MAVZU:
O'ZBEK DAVLATCHILIGI ASOSLARINING YARATILISHI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI

REJA:

1. Davlatchilik tushunchasi. Ilk davlatlar paydo bo'lishining asosiy omillari.
2. O'rta Osiyoda ilk davlat uyushmalarining paydo bo'lishi (Katta Xorazm, Qadimgi Baqtriya, So'g`diyona).
3. Eron ahamoniylarining O'rta Osiyo davlatlarini bosib olishi va boshqaruv tizimi.
4. Yunon-makedon qo'shinlarining O'rta Osiyoga yurishi va aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli.
5. "Avesto"-O'rta Osiyo xalqlari qadimgi tarixi haqidagi muhim manba.
6. Antik davr davlatlari
7. Ilk o'rta asr davlatlari-kidariy, xiyoniy, eftalitlar davlati, uning ichki tizimi, ijtimoiy munosabat-lari, madaniyati.

TAYANCH TUSHUNCHA VA IBORALAR:

Mehnatning dastlabki yirik taqsimoti, ixtisoslashgan hunarmandchilik, sun'iy suqorma dehqonchilik, savdo va madaniy aloqalar, qadimgi Misr va undagi qatlamlar, Mesopotamiya, Uruk madaniyati, ilk shaharsozlik, Baqtriya, Suqdiyona, Xorazm, «Avesto», qadimgi Farg'ona, Qanq, Kushonlar.

Nafaqat O'zbekiston, balki dunyo tarixida ilk davlatchilikning paydo bo'lishi masalalari hozirgi kunda tadqiqotchilar orasida eng dolzarb bo'lib turgan muammolardan biri hisoblanadi. Masalani o'rganib, unga aniqlik kiritishdan oldin davlatchilikning ildizlari va paydo bo'lish shart-sharoitlariga diqqat-e'tiborni qaratmog'imiz lozim.

YAngi tosh asriga (neolit) kelib O'rta Osiyo hududlarida dehqonchilikning paydo bo'lishi jamiyat hayotida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayonlarini yanada tezlashtirdi. Bronza davriga kelib esa dehqonchilikdan chorvachilikning ajralib chiqishi, ixtisoslashgan hunarmandchilik xo'jaliklarining rivojlanishi natijasida ishlab chiqarish hajmi ko'payib, mehnat qurollari yanada takomillashib bordi. Jamiyatda ishlab chiqaruvchi xo'jalikning paydo bo'lishi va jadallik bilan rivojlanishi o'z navbatida ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarga sabab bo'ldi.

Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik O'rta Osiyo xo'jaligining asosi hisoblanib, bu jarayon janubiy Turkmaniston, Tojikiston va O'zbekistonning janubida bronza (mil. avv. III-II yilliklar) davrida, Toshkent vohasi va uning atroflarida esa ilk temir (VIII-IV asrlar) davrida shakllanib rivojlandi. O'rta Osiyoda ilk davlat uyushmalari sun'iy sug'orish birmuncha qulay bo'lgan Amudaryo (yuqori, quyi, o'rta) oqimlari bo'ylarida, Murg'ob vohasida, Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida shakllanib rivojlanadi.

pishirilgan ayol haykalchalari neolit davri san'atining nodir namunalari hisoblanadi.

Bronza davri yutug'lari: Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda bronzaning vatani Kichik Osiyo va Mesopotamiya bo'lgan. Mil. avv. III ming yillikka kelib, O'rta Osiyo hududlarida bronza qurollar keng tarqaladi. O'zbekiston hududlarida bronza davri yodgorliklari ko'plab uchraydi. Bu davrga mansub madaniyat izlari dastlab Xorazm, keyinroq esa Zarafshon va Qashqadaryo hamda Farg'ona vodiylaridan topilgan.

Ulardan eng yiriklari Sopollitepa, Jarqo'ton, Tozabog'yob, Zamonbobo, CHust, Amirobod yodgorliklaridir. Bu yodgorliklarda olib borilgan tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, bronza davrida kishilik jamiyati madaniy taraqqiyotida katta-katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. Aholi xo'jalik yuritishning muayyan ko'rinishlariga, ya'ni vohalarda, ko'llar, daryolar va soylar bo'ylarida dehqonchilikka, dasht va tog'oldi hududlarida chorvachilikka (mehnatning dastlabki yirik taqsimoti) o'tib oldi.

Bu davrga kelib, O'rta Osiyoning ijtimoiy tuzumida ham o'zgarish jarayonlari bo'lib o'tdi. Urug'chilik tuzumi bronza davridayam davom etgan bo'lsa-da, ona urug'ining mavqei yo'qolib bordi. Metall eritish va xo'jalikning rivojlanishi natijasida jamiyatda erkaklar mehnat va mavqei birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lib bordi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, bronza davri jamiyat taraqqiyotida, dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va hunarmandchilikning rivojlanishida erkaklar yetakchilik qilganlar. Ayollar erkaklar ishlab chiqargan narsalarni iste'mol qilishda ishtirok etsalar ham, unga egalik qilishdan mahrum bo'ladilar. Ishlab chiqarishda hukmronlik qilish shu tariqa erkaklar qo'liga o'tadi va ona urug'i tuzumi o'rnini ota urug'i (patriarxat) tuzumi egallaydi.

Bronza davriga kelib, ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi, mehnat unumdorligining oshishi natijasida kishilik jamiyati tarixiy-madaniy taraqqiyotida katta-katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu jarayonlarda bronzaning ahamiyati katta bo'ldi. Aholi xo'jalik yuritishning ma'lum ko'rinishlariga, ya'ni vohalarda, ko'llar va soylar bo'ylarida dehqonchilikka dasht va tog'oldi hududlarida esa chorvachilikka o'tib oldi. Bu davrda jamiyat hayotidagi sodir bo'lgan turli taraqqiyot jarayonlari-kishilik tarixida muhim bosqich bo'lgan davlatchilikning paydo bo'lishi va rivojlanishi uchun ulkan ahamiyat kasb etdi.

MAVZUGA OID MUSTAQIL ISH MAVZULARI:

1. Antropogenez-insonning paydo bo'lishi va rivojlanishi.
2. Ibtidoiy jamoa tuzumining davrlarga bo'linishi va uning xususiyatlari.
3. Metall ishlatilishga o'tilishi. Jamiyat taraqqiyotida metallning ahamiyati.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOT VA MANBALAR:

1. Arxeologlar hikoya qiladi. To'plam. Toshkent, 1974.
2. Arsixovskiy A. Arxeologiya asoslari. Toshkent, 1970.
3. Askarov A., Albaum L. Poseleniye Kuchuktepa. Tashkent, 1970.
4. Borisovskiy A.I. Drevneysheye proshloye chelovechestva. Moskva. Nauka, 1980.
5. Kabirov J., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. Toshkent, 1990.
6. Muhammadjonov A. Qadimgi Buxoro.Toshkent, 1991.
7. Okladnikov A.P. Paleolit i mezolit Sredney Azii. V kn. Srednyaya Aziya v epoxu kamnya i bronzы. M. - L., 1966.

II-bosqich. Asosiy (**50** minut)	**2.2**. Mustaqillik yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar haqida ma'lumot berilib, reja savollari yuzasidan talabalarga o'z fikr-mulohazalarini bayon qilib berishini so'raydi. Talabalarning fikrlari umumlashtiriladi va xulosa qilinadi.	Bir necha talaba o'z fikr-mulohazalarini bayon qilib beradi.
	2.3. Blits-so'rov orqali jamiyat taraqqiyotida ma'naviy-madaniy islohotlarning o'rni haqida bir necha talabalardan so'raladi (**3**-ilova), olingan javoblar tahlil etilib, xulosa qilinadi.	Bir necha talaba javob beradi.
III-bosqich. Yakuniy bosqich. (**10** minut)	**3.1**. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma'lum qiladi.	Savollarga javob beradi.
	3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi.	Tinglaydi.
	3.3. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi (**4**-ilova).	Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlarni yozib oladi.
	3.4. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi (**2**-ilova).	Yozadi.

1(**1.1**)-ilova

Kurs bo'yicha tinglovchilarning o'zlashtirishlarinibaholash mezonlari

Muddati	**Nazorat shakllari**	**Reyting ballari**
Amaliy mashg`ulot darsida.	Amaliy mashg`ulotda individual topshiriqlarni bajarish va guruhda ishlash.	**45** ball
Kurs tugagandan so'ng bir hafta ichida.	Mustaqil ish variantlari bo'yicha individual topshiriqlarni bajarish.	**10** ball
Kurs oxirida.	Test topshirish.	**15** ball
Doimiy.	Ijodiy yondoshuv.	**30** ball
Jami:		**100** ball

86%-100% – «A'lo»
71%-85% – «Yaxshi»
56%-70% – «Qoniqarli»
0%-55% – «Qoniqarsiz»

Kurs bo'yicha baholashda bilish, tushunish, tadbiq qilish, tahlil qilish, sintez qilish va baholay olish mezonlariga asoslaniladi.
Talabalar har bir amaliy mashg`ulotda **2** ballgacha olishlari mumkin bo'lib, unda quyidagi mezonlar asosida baholaniladi.

Asosiy tushunchalarni biladilar	**Mavzu bo'yicha asosiy kategoriya va qonunlarni tushunadilar**	**Usullarni qo'llay oladilar**	**Natijalarni tahlil qila oladilar**
20 %	**20** %	**30** %	**30** %

Ijodiy yondoshuv bo'yicha baholanish mezonlari quyidagicha:

O'zbekiston tarixi fanining predmetini bilgan holda, uni jamiyatdagi, inson hayotidagi ahamiyatini isbotlay oladilar	O'zbekiston tarixi fanining kategoriya va strukturasini mustaqil tahlil qila oladilar va xulosa chiqara oladilar
50 %	**50** %

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

***Mashg`ulot vaqti*-4 soat**	**Talabalar soni: 60-80 nafargacha**
Mashg`ulot shakli	**Axborot berish asosidagi kirish ma'ruzasi**
Ma'ruza rejasi	Prezident I.Karimov O'zbekiston Respublikasi tinchliksevar tashqi siyosatining nazariyotchisi. O'zbekistonning jahon hamjamiyatga qo'shilishi, uning rivojlanishi va xalqaro nufuzining ortib borishi. O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi qardosh davlatlar bilan hamkorlik aloqalarining mustahkamlanib borishi
O'quv mashg`ulotining maqsadi: O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi yillarida jahonning turli mamlakatlari va xalqaro tashkilotlari bilan ko'p tomonlam hamkorligi va jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv, O'zbekistonning xalqaro miqyosdagi obro' e'tiborining oshib borishini tahlil etish. Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlikni ta'minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, iqtisodiy rivojlanish, ta'lim va sog`liqni saqlash, va bu borada O'zbekistonning turli davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish va faollashtirish borasidagi vazifalarni to'liq va samarali amalga oshirish bo'yicha talaba yoshlarda bilim va ko'nikmalar majmuasini shakllantirishdan iborat.	
Pedagogik vazifalar: o'quv kursining maqsadi va vazifalari, o'tiladigan mavzularga tuzilmaviy mantiqiy asosida tushuncha berish; O'zbekistonning tashqi siyosati haqida ma'lumot berish; O'zbekiston tashqi siyosati asoslari tamoyillari bilan tanishtirish; O'zbekistonning tashqi siyosati tamoyillari vazifalarini ko'rsatish; O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar faoliyatidagi ishtiroki haqida ma'lumotlar berish; O'zbekistonning jahon mamlakatlari bilan hamkorligining ahamiyatini tushuntirish O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi xavfsizlik va barqaror taraqqiyot masalalari borasidagi xalqaro hamkorligi va tashabbuslari to'g`risida gapirib berish; O'zbekistonning ekologiyani muhofaza qilish va atrof-muhitni asrab-avaylash borasidagi ko'p tomonlama haqida	*O'quv faoliyati natijalari:* o'quv kursining maqsadi va vazifalarini, o'tiladigan mavzularni tuzilmaviy mantiqiy chizma asosida sharhlab beradi; O'zbekistonning tashqi siyosati maqsadalarini yoritib beradi; Talabalar O'zbekiston tashqi siyosati asoslari tamoyillari haqida tushunchaga ega bo'ladilar; O'zbekistonning tashqi siyosati tamoyillarining asosiy maqsadi va vazifalarini ko'rsatib beradi; O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar faoliyatidagi ishtiroki haqida ma'lumotlar beradi; O'zbekistonning jahon mamlakatlari bilan hamkorligining ahamiyatini ahamiyatini tushuntirib berishadi; O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi xavfsizlik va barqaror taraqqiyot masalalari borasidagi xalqaro hamkorligi va tashabbuslari to'g`risida ma'lumotlarga ega bo'ladilar;

bildiradilar. Insonning paydo bo'lishi millionlab yillar davom etgan rivojlanish jarayonining natijasidir. Eng qadimgi qazilma odam qoldiqlari SHarqiy Afrikadan (Olduvay, zinjantrop), Indoneziyadan (YAva, pitekantrop), Xitoydan (sinatrop), Germaniyadan (Geydelberg) topib tekshirilgan. Keyingi topilmalar, ya'ni, zamonaviy odamga ancha yaqin bo'lgan odam qoldiqlari dastlab Neandertal (Germaniya) vodiysidan topilgan (O'zbekistondagi Teshiktosh).

O'rta tosh davrida, birinchi navbatda mehnat jarayonida inson tafakkurining rivojlanishi natijasida neandertal qiyofasidagi odamlar hozirgi qiyofadagi odamlarga aylana boshladilar. Ular jismoniy jihatdan kamol topib, hozirgi qiyofadagi kishilar vujudga keldi va shu bilan antropogenez jarayoni tugadi (kromanon ko'rinishidagi odamlar). Bu jarayonning tugashi insoniyat tarixidagi muhim voqea bo'lib, inson dastlab toshdan oddiy to'qmoq yasagan bo'lsa, uzluksiz mehnat, intilish hamda ongining rivojlanishi natijasida yuksak madaniyat yaratish darajasiga yetib keldi.

Janubiy Qozog'istonning tog' va tog'oldi tumanlaridan, QirQizistonning tog' vodiylaridan, Janubiy Turkmanistonda, Qizilqum va Qoraqum ichkarisidagi qadimgi ko'llar atrofida, O'zbekistondagi Ohangaron, CHirchiq daryolari vodiylarida, Zarafshon, Surxondaryo, Qashqadaryo vohalari, Farg'ona vodiysi va uning tog'li hududlaridan ibtidoiy jamoa tuzumining barcha davrlariga oid yodgorliklar topilgan. Bu topilmalar O'rta Osiyoni antropogenez jarayoni sodir bo'lgan hududlar sarasiga qo'shish imkonini beradi.

Hozirgi davrda olimlarning katta guruhi odamzodning dastlabki vatani Afrika degan fikrni ilgari sursa, yana bir guruh olimlar yevropa deydilar. Boshqa bir guruh olimlar esa odam ilk marta Osiyoning janubida paydo bo'lgan degan g'oyani ilgari suradilar. Umuman olganda, odamzodning dastlabki vatani haqida olimlar orasida yagona fikr hozircha yo'q.

Ibtidoiy tasviriy san'at: Dunyo tarixida ibtidoiy tasviriy san'at, xususan, qorlarning devorlariga turli tasvirlar chizish so'nggi paleolit davriga oiddir (Ispaniya, Altamir g'ori). O'rta Osiyoda ungurlar va qoyatoshlarga ishlangan rasmlar mezolit davrida paydo bo'ladi. Neolit davriga kelib esa rivojlangan bosqichga ko'tariladi. Kaltaminor, Hisor, ayniqsa Joytun madaniyatiga mansub yodgorliklardan ibtidoiy san'atning turli namunalari topilgan. O'rta Osiyoning tog'lik hududlarida keng tarqalgan qoyatosh rasmlari ishlanish usuliga ko'ra ikki xil. Bir xillari bo'yoq (oxra) bilan, ikkinchi xillari esa urib-o'yib ishqalash, chizish usuli bilan ishlangan (petrogliflar) rasmlardir.

O'zbekistondagi qoyatosh rasmlarning eng nodir namunalari Zarautsoy, Sarmishsoy, Bironsoy, Ko'ksaroy, Takatosh, Teraklisoy kabilar bo'lib, ular yuzdan ziyoddir. Bu yerdagi qoyatoshlarda O'zbekistonning qadimgi va hozirgi hayvonot olami vakillarining rasmlarini kuzatish mumkin. Ular ibtidoiy buqalar, sherlar va yo'lbarslar, qoplon, tulki va bo'rilar, bug'u va jayron kabilardir. Rasmlar orasida o'q-yoy, uzun qilich, xanjar, dubulg'a, qopqon kabi narsalar ham ko'pchilikni tashkil etadi.

Eng qadimgi rasmlar Zarautsoy (Surxondaryo) bo'lib, bu rasmlar mezolit-neolit, ya'ni mil avv. VIII-IV ming yilliklarga oiddir. Qoyatosh rasmlari orqali o'sha davr odamlarining ov, mehnat va jangovar qurollarini bilib olishimiz mumkin. SHuningdek, qoyatosh rasmlar qadimgi avlodlarimizning g'oyaviy qarashlari va diniy e'tiqodlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

SHuni ta'kidlash joizki, ibtidoiy san'atning eng rivojlangan bosqichi neolit davriga oiddir. Bu davr Joytun, Kaltaminor va Hisor madaniyatlariga mansub yodgorliklardan ibtidoiy san'atning juda ko'plab namunalari topilgan. Neolit davri odamlari idishlarga har xil rangdagi bo'yoq bilan turli naqshlar, odam va hayvon tasvirlarini ifoda etganlar. SHu bilan birga loydan yasalib,

ing ko'pgina yodgorliklaridan topib o'rganilgan. Bu davrga kelib muzlik yana shimolga qaytadi. O'ayvonot va o'simlik dunyosida katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. Insoniyat o'z tarixidagi dastlabki murakkab moslama-o'q-yoyni kashf etadi.

Mezolit davri qurollari paleolitga nisbatan ixchamligi va sifatliligi bilan farq qiladi. Mezolit davri qabilalari asosan ovchilik va termachilik xo'jaligi yuritganlar. Bu davrning oxirlariga kelib, dastlabki uy chorvachiligi yoki hayvonlarni xonakilashtirish boshlanadi.

Neolit davriga kelib, qadimgi qabilalar hayotida katta-katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu davr odamlari aksariyat hollarda daryo sohillari va tarmoqlari yoqasida, ko'llar bo'ylarida yashab, tabiiy imkoniyatlardan kelib chiqib, baliqchilik va ovchilik yoki dehqonchilik va chorvachilik hamda qisman hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar. Eng katta yutug'lardan biri kulolchilikning paydo bo'lishidir. SHuningdek, bu davrga kelib to'qimachilik va qayiqsozlik ham paydo bo'ladi. Neolit davri qabilalari xo'jalik shakllariga qarab quyidagi madaniyatlariga bo'linadi: Joytun madaniyati, Kaltaminor madaniyati, Hisor madaniyati.

Joytun madaniyati. Janubiy Turkmaniston hududidagi mil.avv. VI-V ming yilliklarga oid madaniyat. Bu yerdan O'rta Osiyodagi birinchi paxsa uylar qoldiqlari, sopol idishlar namunalari aniqlangan. Aholisi asosan dehqonchilik, chorvachilik va qisman ovchilik bilan shug'ullangan.

Kaltaminor madaniyati. Qadimgi Xorazm hududidan topilgan bo'lib, mil. avv. V-IV ming yilliklarga oiddir. Topilmalar Kaltaminor qabilalarining baliqchilik, ovchilik va qisman hunarmandchilik bilan shug'ullanganligidan dalolat beradi.

Hisor madaniyati. Asosan, Hisor-Pomir tog'laridan topilgan.Miloddan avvalgi V-IV ming yilliklarga oid. Hisorliklar sopol idishlar yasab, asosan chorvachilik, ovchilik, qisman termachilik bilan shug'ullanganlar.

Eneolit davri makonlari Xitoydan Dunaygacha bo'lgan katta hududda tarqalgan bo'lib, hamma joyda ijtimoiy taraqqiyotning bir xil bosqichi kuzatiladi. O'rta Osiyoda quyidagi yangi tarixiy-madaniy jarayonlar eneolit davri bilan bog'liq:

1. Xo'jalikning boshqa hamma turlariga qaraganda haydama dehqonchilikning ustunlik qilishi;
2. Toshdan ishlangan qurollar ko'p bo'lgan holda mis qurollarning paydo bo'lishi;
3. Katta-katta ibtidoiy jamoalarning paxsadan va xom g'ishtdan tiklangan katta-katta uylari;
4. Kulolchilikda muhim texnika yutug'i-xumdonlarning ishlatilishi.
5. Turli hayvonlarning loydan yasalgan va ona urug'i (matriarxat) ga xos haykalchalari;
6. Rangdor, turli tasvirlar bilan bezatilgan sopol buyumlar mavjudligi.

Eneolit-mis-tosh davrida odamlar dastlabki metall bilan tanishdilar. Bu davrga kelib mis qurollar ancha takomillashgan bo'lsa-da, undan og'ir mehnat qurollari yasashning imkoni yo'q edi. Misdan asosan uy-ro'zg'or buyumlari, taqinchoqlar va harbiy qurollar yasalgan. Eneolit davri yodgorliklari Buxoro viloyatining Lavlakon, Beshbuloq, Uchtut (mis koni) mavzelaridan, Panjikent atroflaridan (Sarazm madaniyati) topib tekshirilgan. Bu davrga kelib, dehqonchilik O'rta Osiyoning shimoli-sharqiy hududlariga ham yoyiladi.

Hozirgi kunda ibtidoiy jamoa tuzumining turli bahslarga sabab bo'layotgan muammolaridan biri antropogenez-odamning paydo bo'lishi va rivojlanishidir. Turli hududlarda qadim zamonlarda yashagan ilg'or mutafakkirlar odamning paydo bo'lishi haqida ilmiy ta'rifga yaqin fikrlarni bayon etganlar. Ular asosan insoniyat hayvonot olamidan ajralib chiqqan degan fikrni

ma'lumot berish.	O'zbekistonning ekologiyani muhofaza qilish va atrof-muhitni asrab-avaylash borasidagi ko'p tomonlama haqida haqida ma'lumot beradi.
Ta'lim berish usullari	Ko'rgazmali ma'ruza, suhbat, taqdimot, tushuntirish
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, juftlik
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, proyektor, grafik organayzerlar: klaster
Ta'lim berish sharoiti	O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
Monitoring va baholash	Og`zaki nazorat: savol-javob

1.2. "O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligi " ma'ruza mashg`ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	***Faoliyat mazmuni***	
	Ta'lim beruvchi	***Ta'lim oluvchilar***
1. Mavzuga kirish *(15 daqiqa)*	**1.1**. O'quv kursi nomini aytadi. Ekranga kursning tuzilmaviy mantiqiy chizmasini chiqaradi mavzular ro'yxatini beradi va ularga qisqacha ta'rif beradi **1.2**. Birinchi mashg`ulot mavzusi, uning maqsadi va o'quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi. **1.3**. Asosiy mavzu mazmuni bo'yicha ma'lumotlar bayon qilishga o'tadi.	Tinglaydi. Tinglaydi
2-bosqich Asosiy bosqich (**15** daqiqa)	**2.1**. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida savol beradi: "O'zbekistonning jahon mamlakatlari va xalqaro tashkilotlar faoliyatida tutgan o'rni nimada deb o'ylaysiz?" **2.2**. Javoblarni umumlashtirib, xalqaro tashkilotlarni tashkil etish maqsadalarini yoritib beruvchi slaydlar namoyishi orqali ma'lumotlarni kengroq yoritib beradi. **2.3**. O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar va jahon mamlakatlari bilan hamkorligining asoslari haqida talabalar bilan birgalikda klaster tuzadi. **2.4**. O'zbekistonning jahon mamlakatlari bilan hamkorligi borasidagi hamkorligi va xalqaro nufuzi qanday ma'lumotlarga ega ekanliklarini bilish maqsadida savol beradi: "O'zbekiston qanday xalqaro tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ygan?", berilgan savolni juftlikda, so'ngra mustaqil o'ylashga va juftlikda muxokama qilishni taklif qiladi: "O'ylang-juftlikda ishlang-fikr almashing" texnikasi bilan ishlash qoidasini ekranga chiqaradi *(ilova).* **2.5**. Berilgan javoblarni umumlashtirib, O'zbekistonning xalqaro hamkorligini slaydlar orqali kengroq tushuntirib beradi *(ilovaga qarang)*.	Savolga javob beradi. Tinglaydi, yozadi. Talabalar berilgan savolga javob beradi. Tinglaydi, yozadi.

2-bosqich Asosiy bosqich (**15** daqiqa)	**2**.**6**. Talabalarga “O’zbekistonni xalqaro tashkilotlar faoliyatidagi ishtiroki to’g`risida sizga nimalar ma’lum?” degan savol beradi. **2**.**7**. Javoblarni to’ldirish maqsadida O’zbekistonning xalqaro tashkilotlar faoliyatidagi ishtiroki to’g`risidagi ma’lumotlarni to’liqroq slaydlar orqali tushuntirib beradi *(ilova)*.	
3. Yakuniybosqich *(**10**daqiqa)*	**3**.**1**. Mavzu bo’yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. **3**.**2**. Mustaqil ishlash uchun Insert texnikasi asosida o’quv materialining **4-6** savolini o’rganish vazifasini beradi: *(ilova*). Insert texnikasidan foydalanish qoidasini eslatadi *(ilova*).	Savollar beradi. Vazifani yozib oladi.

quyidagi davrlarga bo’linadi:

1. Paleolit («palayos»-qadimgi, «litos»-tosh) davri; bundan taxminan 800 ming yil ilgari boshlanib, 15-12 ming yil ilgari tugaydi; o’z navbatida bu davr uchga bo’linadi;

a) ilk paleolit-Ashel davri, 800-100 ming yilni o’z ichiga oladi;

b) o’rta paleolit-Muste davri, miloddan avvalgi 100-40 ming yilliklar;

v) so’nggi paleolit-miloddan avvalgi 40-12 ming yillik.

2. Mezolit («mezos»-o’rta, «litos»-tosh) miloddan avvalgi 12-7 ming yilliklar.

3. Neolit («neos»-yangi tosh)-miloddan avvalgi 6-4 ming yilliklar.

4. Eneolit (mis-tosh davri)-miloddan avvalgi 4 ming yillikning oxiri-3 ming yillikning boshi.

5. Bronza davri-miloddan avvalgi 3-2 ming yilliklar.

6. Temir davri-miloddan avvalgi 1-ming yillikning boshlaridan.

O’zbekiston hududlaridagi eng qadimgi odamlarning manzilgohlari Farg’ona vodiysidagi Selung’ur, Toshkent viloyatidagi Ko’lbuloq, Buxorodagi Uchtut makonlaridan topilgan. Bu davr odamlari toshlardan qo’pol qurollar (chopperlar) yasab, termachilik va jamoa bo’lib ov qilish bilan shug’ullanishgan. Ilk paleolit davri odamlari jismoniy jihatdan ham, aqliy jihatdan ham hozirgi odamlardan farq qilishgan. Ular tabiat oldida ojiz bo’lib, unda tayyor bo’lgan mahsulotlarni o’zlashtirganlar. Ular na diniy tushunchani, na dehqonchilikni va na chorvachilikni bilganlar.

O’rta paleolit davri makonlari Toshkent vohasidagi Obirahmat, Xo’jakent, Samarqanddagi Omonqo’ton, Boysun tog’laridagi Teshiktosh kabi ko’pgina makonlardan aniqlangan bo’lib, ulardan shu davrga oid ko’pgina turli-tuman toshdan yasalgan mehnat qurollari topilgan. Obirahmat makoni yoysimon shaklda bo’lib, bu yerda 10 m qalinlikdagi 21 ta madaniy qatlam aniqlangan. Topilmalar orasida nukleuslar, parrakchalar, o’tkir uchli sixchalar, qirg’ichlar uchraydi, shuningdek, turli hayvonlar suyaklari ham ko’pchilikni tashkil etadi. YAna bir mashhur yodgorlik Teshiktosh Qor makoni bo’lib, bu yerdan turli-tuman qurollar va hayvon suyaklaridan tashqari, 9-10 yashar bolaning qabri qazib ochilgan. Qabrdagi murdaning yoniga turli tosh qurollar va arxar shoxi qadab qo’yilgan.

O’rta paleolit davriga kelib ibtidoiy jamiyat odamlarining mehnat qurollari takomillashib, turmushida yangi unsurlar paydo bo’la boshlaydi. Eng muhimi, ibtidoiy to’dadan urug’chilik jamoasiga o’tish boshlanadi. SHimoldan ulkan muzlik siljib kelishi natijasida olov kashf etiladi. Odamlar o’choqlar atroflarida to’lanib, ibtidoiy turar-joylarga asos soldilar. Jamoa bo’lib ov qilish paydo bo’ldi.

So’nggi paleolit qadimgi tosh asrining so’nggi bosqichidir. Bu davrga oid makonlar Ohangarondagi Ko’lbuloq, Toshkentning Qarbidagi Bo’zsuv 1 hamda Samarqand shahridan topilgan. Ulardan topilgan topilmalar orasida qirg’ichlar, kesgichlar, sixchalar, pichoqlar, boltalar kabi qurollar bor. Bu davrga kelib odamlar faqat tog’li hududlarga emas, tekisliklarga ham tarqala boshlaydilar. Bu davrning eng katta yutug’i urug’chilik tuzumiga (matriarxat) o’tilishidir.

Paleolit davriga xulosa yasab shuni aytish mumkinki, bu davrda ibtidoiy odamlar xo’jalik yuritishning eng oddiy yo’llaridan (terib-termachlab) murakkabroq ko’rinishlariga (ovchilik, baliqchilik) ga o’tdilar. Olov kashf etildi. Ibtidoiy turar-joylar o’zlashtirildi. Insoniyat ibtidoiy poda davridan urug’chilik tuzumiga o’tdi. Mehnat qurollari takomillashib, turlari ko’paya bordi. SHuningdek, bu davr ibtidoiy odamlari orasida dastlabki diniy qarashlar paydo bo’ldi.

Mezolit davri yodgorliklari Surxondaryodagi Machoy Qor makonidan, Markaziy Farg’onan-

2-MAVZU:
O'ZBEKISTON INSONIYAT SIVILIZATSIYASI QADIMGI O'CHOQLARIDAN BIRI.

REJA:

1. Insoniyatning dastlabki ajdodlari. O'zbekiston hududida eng qadimgi odamlar hayotining izlari. Paleolit.
2. Miloddan avvalgi XII-IV ming yilliklarda O'rta Osiyo. Mezolit, neolit, eneolit davrlari.
3. Bronza davrining yutuqlari.

TAYANCH TUSHUNCHA VA IBORALAR:

Sivilizatsiya, rivojlanishdagi notekislik, antropogenez jarayonlari, paleolit, mezolit, neolit, eneolit, Ashel, Muste, Teshiktosh, Joytun, Hisor, Kaltaminor, Sarazm, Zamonbobo, Sopolli, Neandertal, Kromonon, Zarautsoy, matriarxat, patriarxat.

O'zbekiston hududlari eng qadimgi davrlardan boshlab jahon sivilizatsiyasining o'choqlaridan biri ekanligiga ilmiy jihatdan hech qanday shubha yo'q. O'zbekiston va O'rta Osiyo hududlarida olib borilayotgan keng miqyosdagi tadqiqot ishlarining natijalari ham Vatanimizning jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rnini tasdiqlaydi.

Dunyoning turli burchaklarida yashaydigan xalqlarning turli davrlarda, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarda erishgan yutug'lari hamda taraqqiyot bosqichiga ko'tarilishini sivilizatsiya tushunchasi o'zida aks ettiradi. Bu taraqqiyot bosqichi insoniyatning paydo bo'lishi va rivojlanishi, jamiyatning rivojlanish darajasi, moddiy va ma'naviy madaniyatning yuksalishi, qabilalar va xalqlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar bilan izohlanadi.

O'rta Osiyo sivilizatsiyasi turli hududlarda turli davrlarda paydo bo'ldi va rivojlandi. Misol uchun, janubiy hududlarda yashagan qadimgi qabilalar miloddan avvalgi VI ming yillikdayoq dehqonchilikka o'tib, unumdor xo'jalikni rivojlantirgan bo'lsalar, bu davrda shimoliy hududlardagi qabilalar asosan ovchilik, baliqchilik va chorvachilikning ilk shakllari bilan shug'ullanganlar. Bu notekislik jarayonini tabiiy geografik sharoitlar va o'zaro munosabatlar bilan izohlash mumkin. Bu o'rinda O'rta Osiyoning cho'l va dasht hududlari hamda tog'oldi va daryo vohalari hududlarining rivojlanish darajasidagi madaniy notekislikni taqqoslab ko'rish (KopetdoQ, Hisor, Zarafshon tog'oldi hududlari hamda Qizilqum, Qoraqum, Qashqadaryo va Zarafshon vohasining dasht hududlari) muhimdir.

Undan tashqari, O'rta Osiyoda turli-tuman madaniyat yaratgan qadimgi aholining neolit davridayoq, ya'ni miloddan avvalgi VI-IV ming yilliklardagi o'zaro munosabatlari va bu aholining SHarqdagi, dastavval Old Osiyodagi boshqa qadimgi sivilizatsiya o'choqlari bilan uzviy aloqada bo'lishi ham mahalliy sivilizatsiyaning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

O'rta Osiyo hududida ibtidoiy jamoa tuzumi.Antropogenez jarayonlari: Ibtidoiy jamoa tuzumi kishilik jamiyati taraqqiyotidagi eng uzoq davom etgan va eng qadimgi davridir. Bu davrni yozma manbalar asosida o'rganib bo'lmaydi. SHuning uchun ham bu davrni chuqur o'rganishda arxeologiya, etnografiya, antropologiya kabi fanlarning ahamiyati beqiyosdir. Qadimgi odamlar o'z faoliyati davrida atrof-muhitga ta'sir ko'rsatib, kundalik hayotda o'ziga zarur bo'ladigan mehnat qurollari yasagan, yashash uchun makonlar tanlagan, keyinchalik esa boshpanalar qurganlar. O'z navbatida bu jarayonlar inson faoliyatiga ta'sir ko'rsatgan.

Hozirgi paytda O'rta Osiyo hududida ibtidoiy jamiyat rivojlanishining alohida bosqichlari

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
"IJTIMOIIY FANLAR"
KAFEDRASI

"O'ZBEKISTON TARIXI"

fanidan I-kurs talabalari uchun

MASALALAR VA MASHQLAR TO'PLAMI

“O’ZBEKISTON TARIXI” FANIDAN MASALA VA KROSSVORDLAR TO’PLAMI

№	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	
1	M	A	R	O	Q	A	N	D	A			
2	A	N	S	O	R	L	A	R				
3	S	A	K	L	A	R						
4	S	O	H	I	B	Q	I	R	O	N		
5	A	H	R	I	M	A	N					
6	G	O’	R	X	O	N						
7	E	L	L	I	N	I	Z	M				
8	T	A	R	X	O	N						
9	L	A	Y	L	A	T	U	L	Q	A	D	R
10	A	H	A	M	O	N	I	Y	L	A	R	
11	R	O’	Z	A								

BO’YIGA:

1. Kaspiyorti va Orol dengizi yaqinida va Sirdaryoning quyi oqimida mil. av. VI-IV asrlarda yashagan qabila.

ENIGA:

1. Samarqandning yunoncha nomi.
2. Islom dinini qabul qilgan madinalik avs va hazraj qabilalarining a’zolariga nisbatan qo’llanilgan nom
3. Milodan avvalgi I ming yillik va milodning boshlarida O’rta Osiyo va Sharqiy Turkistonning shimoliy-sharqiy hududlarida yashagan chorvador qabila.
4. «Baxtiyor podshoh», «Qudratli podshoh» ma’nolarini anglatuvchi qudratli so’z.
5. Zulmat, qorong`ulik, ochlik, vabo, sovuq, zaharli jonivorlarni yaratuvchi va boshqaruvchi yovuzliklar xudosi.
6. Qoraxitoy xonlarining faxriy laqabi.
7. Sharqda yunon madaniyatining yoyilish jarayoni, aralash madaniyatining-yunon va mahalliy sharq madaniyatining tashkil topish jarayoni
8. O’rta Osiyo xonliklarida feodallarning davlat soliqlaridan ozod qilingan yer-suv, molmulklari.
9. Ramazon oyining **27**-kunga o’tar kechasi.
10. Miloddan avvalgi **558-330** yillarda Eronda hukmronlik qilgan sulola.
11. Islomning farz hisoblangan marosimlaridan biri.

tutish muhimki, o'tmishimizni «oqlash» vazifasi umuman olganda bajarib bo'lindi, hozir esa asosiy vazifa, tarixiy tahlilni ilmiy jihatdan holisona va halol amalga oshirishdan iboratdir».

O'zbekiston tarixi yoshlarga xalqimizning o'tmishi, tarixi haqida bilim berish bilan chegaralanib qolmaydi, u yoshlarni vatanparvar, ma'naviy jihatdan komil fuqaro etib shakllantiradi.

Har qanday jamiyat taraqqiyotining asosiy kuchi ma'naviyat va ma'rifatdadir. Ma'nviy barkamollikni tarbiyalashda Vatan tarixi muhim omildir. «Ma'naviyat,-deb yozadi Islom Karimov,-o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi», «tug'ilib o'sgan yurtida o'zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko'tarib yurishi uchun insonga, albatta, tarixiy xotira kerak.. Tarixiy xotirasi bor inson-irodali inson».

Mustaqillik sharofati bilan Vatanimiz tarixi o'z o'rnini topdi. Barcha o'quv maskanlarida talaba o'quvchilarga Vatan tarixini o'qitish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Vatan tarixini o'qitish yo'lga qo'yildi. Vatanimiz tarixi millatning, yoshlarning xaqiqiy tarbiyachisiga aylanmoqda. Bu borada Prezident Islom Karimovning «Tarixiy xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixi-ni bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi», «Tarix-xalq ma'naviyatining asosidir», «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q», «O'zlikni anglash tarixni bilish-dan boshlanadi», «Inson uchun tarixdan judo bo'lish-hayotdan judo bo'lish demak-dir» degan metodologik ahamiyatga molik so'zlari dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu boisdan Vatan tarixini har tomonlama, chuqur o'rganish muhim ahamiyatga molik vazifadir. Mamlakatimizda mustaqillik sharofati tufayli bog'chalardan tortib oliy o'quv yurtlarigacha bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimlarida O'zbekiston tarixi fanini o'qitishga davlat darajasiga ko'tarilgan vazifa sifatida katta e'tibor berilmoqda, g'amxo'rlik qilinmoqda. «Tarix millatning xaqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda. Ahloqiy tarbiya va ibrat manbaiga aylanmoqda...».

MAVZUGA OID MUSTAQIL ISH MAVZULARI:

1. O’zbekiston tarixini o’rganishda moddiy va yozma manbalarning ahamiyati.
2. I.A. Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q» asari O’zbekiston tarixidagi dolzarb muammolarni o’rganish uchun muhim yo’llanma.
3. Fuqarolarimiz ongiga milliy istiqlol va milliy mafkura g’oyalarini singdirishda tarixning o’rni.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOT VA MANBALAR:

1. Karimov I.A. O’zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent, 1996.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. Toshkent. SHarq, 1998.
3. O’zbekiston tarixi konsepsiyasi. // O’zbekiston tarixi. 1999, 1 son.
4. G’ulomov O’., Tatiboyev A. O’rta Osiyo va jahon tarixi. - Toshkent. Universitet, 1994.
5. Sulaymonova F. SHarq va G’arb.-Toshkent. Fan, 1997.
6. Jo’rayev N. Agar sen ogoh... Toshkent. O’zbekiston, 1998.
7. O’zbekiston yangi tarixi konseptual-metodologik muammolar. Konferensiya materiallari. Toshkent, 1998.

bog'lab o'rgangandagina mazkur voqea hodisaning umumiy tarixiy jarayondagi o'rnini to'g'ri aniqlash, belgilash mumkin buladi. Har bir voqea, hodisaga umumiy tarixiy jarayonning bir qismi, bo'lagi deb qaramoq zarur.

Har bir hodisa, jarayon qanday tarixiy muhitda, nima uchun aynan shu paytda, shu shaklda sodir bo'lganligini, bu hodisa o'z taraqqiyotida qanday asosiy bosqichlarni bosib o'tganligini, keyinchalik u qanday bo'lib qolganligini bilish tarixiylik qoidasining talabidir. Masalan, bironta davlat faoliyatiga tarixiylik nuqtai-nazaridan turib baho bermoqchi bo'lsak, u, birinchidan, qachon, qanday tarixiy sharoitda paydo bo'ldi, ikkinchidan, u o'z taraqqiyotida qanday bosqichlarni bosib o'tdi, uchinchidan, uning tarixiy o'rni, mavqei qanday, degan savollarga aniq javob berish zarur bo'ladi.

Tarixiylik tamoyili xalqning o'tmishini yagona tabiiy-tarixiy jarayon deb, o'tmish hozirgi zamonni tayyorlaydi, hozirgi zamon esa kelajakni yaratadi deb qaraydi. Insoniyat ana shunday umumiy yo'ldan borayotgan ekan, istiqbolda porloq hayot, farovon turmush qurmoqchi bo'lgan avlod tarix fani orqali o'tmishni yaxshi bilmog'i lozim. O'tmishni, ajdodlarimiz tarixini qanchalik yaxshi bilsak, anglab yetsak, hozirgi zamonni shunchalik mukammal tushunamiz, kelajakni to'g'ri tasavvur etamiz.

O'zbekistonning, o'zbek xalqining boy, betakror tarixi bo'lib, uning o'ziga xos tarixiy taraqqiyot davrlari bor. Uni quyidagi yirik davrlarga bo'lish mumkin:

1. Ibtidoiy jamiyat. Qadimgi davr.
2. O'rta asrlar davri.
3. Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davri.
4. Sovetlar istibdodi davri.
5. Milliy istiqlol davri.

Hozirgi qadar O'zbekiston tarixini yaratishda rus olimlari salmoqli ishlarni amalga oshirdilar. V.Bartold, A.Yakubovskiy, YE.E.Bertels, Kastelskaya va boshqalar shular jumlasidandir. O'rta Osiyolik va O'zbekistonlik olimlardan Muhammad Narshahiy, Ahmad Donish, Po'lat Soliyev, Musojon Saidjonov, Yahyo G'ulomov, Ibrohim Mo'minov, Qori Niyoziy, Bo'riboy Ahmedov va boshqalar ham bu borada muayyan salmoqli ish olib bordilar. Lekin O'zbekiston tarixining ayrim muammolari jumladan o'zbek xalqining etnik tarkibi va etnik tarixi yaxshi o'rganilmagan. Bu sohada 1941 yilda mashhur sharqshunos olim A.Yakubovskiyning o'zbek xalqining etnogeneziga doir kitobi, 1954 yilda professor A.A.Semenovning Shayboniyxon va uning Temuriylar imperiyasining istilo etilishi maqolasi, 1962-1965 yillarda professor B.Ahmedovning o'zbeklarning kelib chiqishi tarixidan va ko'chmanchi o'zbeklar davlati kitoblari nashr qilindi xolos. Lekin bu masala O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng asta-sekin muvaffaqqiyatli tarzda amalga oshirilmoqda. Jumladan A.Asqarovning, O'zbekiston xalqlari tarixi 1 va 2 jild, O'zbekiston tarixi: SH.Karimov va R.Shamsutdinovning 1996-1997 yillarda nashr qilingan Vatan tarixi o'quv qo'llanmasi, A.Sa'dullayev tahriri ostida ToshDU da-1997 yilda O'zbekiston tarixining 1 qismi hamda O'zbekiston FA Tarix instituti tomonidan «Istoriya Uzbekistan» kitoblari nashr qilindi. Bundan tashqari mustaqillik sharofati bilan o'rta maktablarning 5-6-7-8-9-10-11sinflari uchun ham O'zbekiston tarixi darsliklari chop etildi.

Mustaqillik tarixni xolisona yoritish imkoniyatini yaratdi. «O'zbek olimlarining kuch g'ayratlari bilan,-deb yozadi I.A.Karimov,-tariximizning ko'pdan ko'p g'oyat muhim sahifalari, eng avvalo, temuriylar davri, X1X asr oxiri, XX asr boshlari tarixi yangidan kashf etildi. Shuni esda

«SO'G`DIYONA» BOSHQOTIRMASI

1	S	O`	G`	D	I	YO	N	A	
2	S	U	G`	D	A				
3	A	F	R	O	S	I	YO	B	
4	O	K	S	I	A	R	T		
5	R	A	V	SH	A	N	A	K	
6	S	P	I	T	A	M	E	N	
7	P	O	L	I	T	I	M	I	T
8	S	U	G`	U	D	A			

1. Zarafshon vohasidagi qadimgi davlat.
2. So`g`diyonaning «Avesto»dagi nomi.
3. So`g`diyonaning poytaxti.
4. Iskandar bosqini davrida So`g`diyona hokimi.
5. Iskandar sevib qolgan sug`d go`zali.
6. So`g`diyonada Iskandarga qarshi qo`zg`olon rahbari.
7. Zarafshon daryosining yunon manbalaridagi nomi.
8. So`g`diyonaning Behustun yozuvidagi nomi.

«AMIR TEMUR» BOSHQOTIRMASI

1	X	O`	J	A	I	L	G`	O	R				
2	J	A	H	O	N	G	I	R	M	I	R	Z	O
3	B	I	B	I	X	O	N	I	M				
4	A	N	Q	A	R	A							
5	S	A	M	A	R	Q	A	N	D				
6	Z	A	N	G	I	O	T	A					
7	S	A	I	D	B	A	R	A	K	A			
8	M	I	R	Z	O	U	L	U	G`	B	E	K	
9	X	A	L	I	L	S	U	L	T	O	N		
10	A	B	U	S	A	I	D	M	I	R	Z	O	
11	A	L	I	YA	Z	D	I	Y					

1. Amir Temur tug`ilgan qishloq nomi.
2. Amir Temurning to`ng`ich o`g`li.
3. Amir Temurning suyukli xotini

4. YildirimBoyazidgaqarshijango`tkazilganshahar.
5. Amir Temur davlatining poytaxti.
6. Toshkent yaqinida Amir Temur qurdirgan maqbara.
7. Amir Temurning pirlaridan biri.
8. «Tarixi arba` ulus» asarining muallifi.
9. Amir Temurdan so`ng Samarqand taxtini egallagan shahzoda.
10. Amir Temurdan so`ng Movarounnahr va Xurosonni qayta birlashtirgan temuriy shahzoda.
11. «Zafarnoma» asarining muallifi.

Vatan tarixini yoritish o'qitish va o'rganish jarayonida chuqur ilmiylik xolislik tarixiy haqiqatning ustivorligi asosiy va bosh yunalish bo'lmog'i lozim.

Vatan tarixininng har bir satri, har bir varag'i milliy qadriyatlarga hurmat ruhi bilan sug'orilgan bo'lishi va milliy istiqlol tafakkuri va mafkurasining kamol topishiga xizmat qilishi darkor.

Vatan tarixining o'rganilishi boshidan oxiriga qadar asosiy g'oya-otashin vatanpar-var-lik, baynalminalchilik, insonparvarlik va rostgo'ylik, mehnatsevarlik va kamtarlik, iymonlilik va e'tiqodlilik ruhida tarbiyalash uchun xizmat qilmog'i kerak. Kishilarda Vatan va xalq oldidagi burchga sadoqatni qaror toptirmog'i darkor.

Vatan tarixi fani-yoshlarimizni baynalminalchilik ruhida tarbiyalash qurolidir. Yoshlarimiz bu fanni o'qish, o'rganish va mutolaa qilish jarayonida O'zbekiston jahon hamjamiyatining ajralmas tarkibiy qismi va bir bo'lagi ekanligini tushunib oladilar. O'zbekiston ko'p millatli mamlakat ekanligi, o'zbek xalqi va buyuk allomalarimiz fan va madaniyat arboblarimizning jahon taraqqiyotiga qo'shgan munosib hissasi bilan qonuniy sur'atda faxrlanadilar.

Vatan tarixini o'rganishda uning manbalarini bilish g'oyatda muhim. Bu manbaalar nimalardan iborat. Bu eng avvalo o'tmish ota-bobolarimiz qoldirib ketgan va dunyodagi juda ko'p xorijiy mamlakatlar ya'ni Hindiston, Xitoy, Afg'oniston, Eron, Turkiya, Angliya, Fransiya, Misr kabi davlatlarning hamda sobiq ittifoq va O'zbekistonning kutubxonalarida saqlanayotgan boy qo'lyozma asarlaridir. Biz hali xalqimizning ana shu o'tmish tarixini o'rganishga yetarli darajada e'tibor berganimiz yo'q. Chet elga qo'lyozma izlab borgan olimlari-miz-ning ilk qaldirg'ochi Hamid Sulaymon bo'ldi. U Hindiston, Angliya va Fransiyaga bir necha bor safar qildi. U nafaqat Navoiy, Xofiz Xorazmiy devonlarini, shuningdek O'rta Osiyo tarixiga oid mikrofilm va fotonusxa-larni olib keldi. Respublikamiz kutubxonlarida ham hali qo'l urilmagan qo'lyozmalar ham navbat kutib turibdi. O'zbekiston FA qoshidagi sharqshunoslik instituti fondida xalqimizning boy o'tmish merosi bor. Ammo eski o'zbek tilida-arab alifbosida yozilgan bu noyob asarlarni hozirgi tilimizga ko'chirib, undan xalqni bahramand qilishdek xayrli ish masalasi muammoligicha qolayotir. Ana shu qo'lyozmalar orasida xon, amirlar saroiyda yashagan solnomachilarning yozib qoldirgan asarlari g'oyat qimmatlidir. Ular mazkur hukmdorlar yoki ularning keyingi vorislari hukmronlik qilgan keyingi yillarda mamlakatda yuz bergan voqealarni kunma-kun, oyma-oy va yilma-yil yozib borganlar. Shuning uchun ham solnomachilar yaratgan asarlar hukmdorlarning nomi bilan atalgan. «Zafarnoma», «Temurnoma», «Shayboniynoma», «Ubaydullanoma» va shu kabilar, ikkinchi va g'oyatda muhim manbaalardan yana biri shoirlar, yozuvchilar, olimu-ulomolarni qoldirgan asarlari ham O'zbekiston tarixi fani bo'yicha ajoyib ma'lumotlar beradi. Al-Xorazmiy, Ali Qushchi, A.Farg'oniy, Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Ulug'bek, Navoiy, Bobur, Furqat, Muqimiy va boshqa allomalarning ijodlarida ular yaratgan tarixiy va madaniy muhitga oid qimmatli fikr va xulosalari mavjud. O'zbekiston tarixini o'rganishda tarixiy obidalar, arxeologik qazilma yodgorliklari ham muhim ahamiyatga egadir. Bunday tarixiy yodgorliklar hozirda 7 000 ta qoldi xolos. O'zbekiston tarixini o'rganishda tarixshunoslik, sharqshu-nos-lik, adabiyotshunoslik, mada-niyat-shunos va boshqa kasbdagi fan olimlari va mutaxassislarining O'zbekiston tarixining u yoki bu davriga oida asarlari ham diqqatga sazovordir.

Tarixni o'rganishda tarixiylik prinsipi muhim ahamiyatga ega. Tarixiylik voqea, hodisalarni o'z davrining aniq tarixiy sharoitidan, o'sha davr muhitidan, tarixiy rivojlanish jarayonidan kelib chiqqan holda o'rganishni taqozo etadi. Har bir voqea, hodisani boshqa voqealar, hodisalar bilan

va ulardan amaliy hayotiy xulosalar chiqarish asosida dasturiy harakatlar yo'llanmasini belgilashga yordam beradi.

Vatan tarixi mustaqil davlatimiz ijtimoiy hayotida faol qatnasha oladigan idrokli va qobiliyatli, o'zining tarixiy ildizlarini anglashga qodir, yurtiga, Vataniga, ona xalqiga yuksak mehr muhabbat, his-tuyg'ulari bilan to'lib toshgan avlodni kamol toptirish, ularning ongida milliy istiqlol tafakkuri va harbiy vatanparvarlik g'oyalarini shakllantirish qurolidir. Vatan ostona-dan, inson yashab turgan insonning kindik qoni to'kilgan xonadon tuprog'idan boshlanadi. Shu bois inson ilk bor nafas olib, ulg'ayib voyaga yetgan mehr-muhabbat va sadoqatda bo'lishi uning uchun ham qarz ham farzdir. Miloddan avval yashagan yunon adibi Lukyanning «Vatan sha'niga» nomli asarida shunday so'zlar bor: «Mening bu gaplarim g'oyat eski gaplardir. Lekin haqiqat shundaki, o'z otasini sevmagan farzand o'zganing otasini ham hurmat qila olmaydi. O'z Vatanini sevmagan kishi o'zgalar Vatanini ham qadrlay olmaydi».

Ulug' mutafakkirlar va donolar hamisha Vatanni ulug'lab, ardoqlab kelganlar. Vatan va millat xoinlariga, sotqinlarga qarshi kurashganlar. Haqiqatdan ham Vatandan tashqarida baxt bo'lmagan va bo'lmaydi ham. «O'zga yurtda shoh bo'lgandan o'z yurtingda gado bo'lgan afzal», degan naql bejiz aytilmagan. Haqiqiy vatanparvar og'ir kunida ham yengil kunida ham Vatanni tark etmaydi. U bilan birga bo'ladi. Barcha jinoyatlar orasida eng tubani, eng og'iri Vatanga, millatga hiyonat va sotqinlikdir.

Sobiq ittifoq davrida Rossiya, Angliya, Fransiya, Amerika tarixini o'rgatishga asosiy diqqat e'tiborni qaratildi. Ammo o'z Ona tariximizni o'rganishdan mahrum etdilar. Shuning uchun ham mustabid tuzum davrida ko'pchilik yurtdoshlarimiz Yuliy Sezar, Chingizxon, Napoleon, Ivan Grozniy, Yekaterina, Pyotr I, Boris Godunov, Nikolay II ni yaxshi bilganlar. Ammo buyuk Amur Temurni, Shohruh va Boburni esa bilmas edilar. Hurlik va erk uchun xalq baxt-saodati yo'lida jabr-zulmga qarshi kurashgan Spartak, Janna d' Ark, Ivan Bolotnikov, Stepan Razin, Yemelyan Pugachyovlarni, lashkarboshilardan Suvorov, Kutuzovlarni yaxshi bilganlar. Ammo To'maris, Shiroq, Spitamen, Muqanna, Mahmud Tarobiy, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Qurbonjon Dodxoh singari milliy kahramonlarimiz bo'lganligini ham bilmas edilar.

Albatta, sho'rolar hokimiyati yillarida ham O'zbekiston tarixiga oid asarlar, darsliklar, ko'llanmalar chop etildi. Biroq, bu asar va darsliklarda tarixiy jarayonlar buzib talqin qilindi.

Vatan tarixi fanini yaratish va uni yosh avlodga o'qitish va o'rgatish bo'yicha birdan-bir to'g'ri nazariy, ilmiy-uslubiy asoslarni ishlab chiqish nafaqat tarixiy, balki amaliy, hayotiy ahamiyatga egadir. Sho'rolar hukmronligi davrida barcha fanlarda bo'lgani singari tarix fanining ham nazariy ilmiy uslubiy asosi qilib, marksizm-leninizm metodologiyasi olindi, natijada tarixiy jarayonga baho berishda xolislik, ilmiylik o'rnini shaxsiyatparastlik va bir tomonlama baho berishlik egalladi. Kommunistik mafkura qolipiga tushmagan har qanday voqea-hodisa va qarashlar tanqid qilindi. Bu hol tarix fanining fan sifatida ahamiyatini so'nishiga olib keldi va u siyosiy arboblar hamda kommunistik mafkura targ'ibotchilarining ko'g'irchog'iga aylanib qoldi.

Vatan tarixi fani yoshlarimizning g'oyaviy-siyosiy dunyoqarashini shakllan-tirishda quyidagi nazariy, ilmiy asoslarga suyanmog'i kerak:

Vatan tarixini o'qitish va o'rganish jarayonida tarixiy bilimlar ilmiy-nazariy tushunchalar va tasavvurlar shakllanmog'i lozim. Chunki voqea va hodi-sa-larni bilmasdan ular haqida tushuncha va tasavvurlarga ega bo'lmasdan turib, g'oyaviy-siyosiy dunyoqarash haqida gap yuritish mumkin emas.

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
”IJTIMOIIY FANLAR”
KAFEDRASI

“O’ZBEKISTON TARIXI”

fanidan I-kurs talabalari uchun

TESTLAR TO'PLAMI

I-VARIANT

1.Qachon Doro I ga qarshi Frada boshchiligida qo`zg`olin boshlanadi:
A.m.av.**521**yil B.m.av **522**yil C.m.av.**523**yil D.m.av.**519**yil
2.O`rta Osiyo m.av.IV asr oxirida qaysi davlat tarkibida bo`lgan:
A.Ahamoniylar B.Salavkiylar C.A.Makedonskiy D.Misr
3.Kushon davlatining asoschisini belgilang:
A.Kanishka B.Xuvishka C.Vasudeva D.Kudzula Kadfiz
4.Qaysi hukmdor davrida Kushon davlati rivojining yuqori cho`qqisiga erishdi:
A.Kanishka B.Vasudeva C.Kudzula Kadfiz D.Xuvishka
5.Buyuk Ipak Yo`li qaysi asrdan boshlanadi:
A.m.av.**3**mimg yiullik B.m.av.I ming yillik C.m.av II asr D.m.av.V asr
6.Islomni qabul qilmaganlar qanday soliq to`lagan:
A.xirojB.zakot C.ushr D.jizya
7.Muqannaning qarorghohini aniqlang:
A.Som qal`asi B.Soqiddin qishlog`iC.Maxuvon qal`asi D.Poykend
8.Tohiriylar sulolasining birinchi vakioli kim:
A.Xalifa Ma`mun B.Tohir ibn Husayn C.Xorun ar-Rashid D.Xalifa Mansur
9.Qachon Movarounnahr butunlay arablardan ozod bo`ldi:
A.IX asr boshi B.IXasr oxiri C.X asr D.VIIIasr
10.Barzikor bu…
A.boshqaruvchi B.huquqshunos C.ijarachi D.kichik mulk egasi
11.Qoraxoniylar davlati poytaxtini aniqlang:
A.Balx B.Termiz C.Buxoro D.Bolosog`un
12.Qachon va necha yoshda Bobur taxtga o`tirdi:
A.**12**yosh-**1494**yil B.**12**yosh-**1492**yil C.**12**yosh-**1491** D.**12**yosh-**1495**yil
13.Nima uchun Bobur 1512yilda Samarqandni egallaganda aholi uni qo`llab-quvvatlamadi:
A.Shayboniyxon yordamida taxtni egallagani uchun
B.Eron shohi yordamida taxtni egallagani uchun C.U I.Safaviyni oliy hukmdor deb e`lon qilgani uchun D.B va C
14.Nima uchun Buxoro xonligi 1740 yilda Eron ta`siriga tushib qoldi:
A.Eronning harbiy tayyorgarligi Buxoro qo`shinlariga nisbatan kuchli edi
B.Ichki nizolar sababli
C.Mang`itlar eron shohi bilan kelishib olgan
D.ashtarxoniylar muntazam qo`shinga ega bol`magan
15.Qaysi voqeadan so`ng Buxoro amirlik deb atala boshlangan:
A.Nodirshoh o`limidan so`ng
B.Abulfayzxon o`limidan so`ng
C.M.Rahimbiy hokimiyatni egallagandan so`ng
D.Hokimiyatning Buxoroda mang`itlar q`oliga o`tgach
16.Kim Samarqand shahrini qayta tiklagan:
A.Doniyolbiy B.Abulg`ozixon C.Shohmurod D.Nasrullo

davrlarga qaram bo'lib qolganligini, qaramlik azobining naqadar ayanchli, mashaqqatli bo'lganligini, ajdodlarimizning ajnabiy bosqinchilarga qarshi mustaqillik va ozodlik uchun kurashini va davlat arboblari faoliyatlarini o'rgatadi.

«O'zbekiston tarixi» fani xalqimizning mustaqil taraqqiyot yo'liga kirishi, mustaqillik yillarida milliy, huquqiy davlatchilik qurilishi, demokratik, fuqarolik jamiyat qurish, erkin bozor iqtisodiyotini yaratish jabhalaridagi faoliyatini o'rgatadi.

Darhaqiqat, O'zbekiston tarixi avvalo Markaziy Osiyo xalqlari tarixi bilan, qolaversa, butun jahon xalqlari tarixi bilan chambarchas bog'langan. Qadim zamonlardan buyon Vatanimiz Markaziy Osiy mintaqasidagi ko'pgina davlatlar bilan yagona iqtisodiy va madaniy makonda bo'lib kelgan. Bu katta hududda yashovchi urug', qabila, qavm, elatlar etnik jihatdan doimo o'zaro ta'sirda va aloqada bo'lganlar, qo'shilish jarayonini boshidan kechirganlar. Ularni ijtimoiy -siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy hayoti bir-birlari bilan uzviy bog'liq o'tgan. Shu sabadan O'zbekiston tarixini qo'shni mamlakatlar tarixi bilan bog'liq holda, bir xalqni ikkinchi bir xalqqa qarama-qarshi qo'ymagan holda o'rganish taqozo etiladi. Qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, turkman, tojik, fors, afg'on, hind, arab va boshqa xalqlar, mamlakatlar tarixini qanchalik yaxshi bilsak, O'zbekiston xalqlari tarixini ham shunchalik chuqur, har tomonlama o'rganishga imkon yaratadi, ko'maklashadi.

Tarixiy voqea, hodisalarni o'rganish, tahlil qilish va yoritishda ularga xolisona, haqqoniy, ilmiy yondoshuv muhim metodologik tamoyillardir.

Xolislik qoidasi tarixiy voqea, hodisalarni o'rganayotganda ular bilan bog'liq bo'lgan barcha faktlarning hech bir istisnosiz butun majmuini birga olib tekshirishni, aniq, haqqoniy dalillarga asoslanishni talab kiladi. Tarixiy hodisalarni bir butun holda, o'zaro aloqada va munosabatda deb o'rganish darkor.

Tarixiy voqealar, xalqlar hayoti nom-nishonsiz yo'q bo'lib ketmaydi, ulardan tarixiy manbalar guvoh bo'lib qoladi. Tarixiy manbalar ikkiga-moddiy va yozma manbalargabo'linadi.

Qadimgi odamlardan bizgacha yetib kelgan mehnat qurollari, idish-tovoqlar, tanga pullar, harbiy qurol-yaroqlar, uy-joylari, qal'alar, shaharlar, qabrlar, rasmlar va boshqa narsalar moddiy tarixiy manbalar deb ataladi. Vatanimiz hududida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida topilgan moddiy topilmalar, ularning tahliliy xulosalari odamlar hayotini bilishga imkoniyat yaratadi.

Qadimgi davrlardayoq odamlar o'z fikrlarini yozma bayon etish uchun yozuv belgilari ixtiro qilganlar. Savodxon kishilar o'zlari yashab turgan yoki borib ko'rgan mamlakatlari haqida, ko'rgan-kechirganlarini daraxtlarning po'stlog'iga, toshga, teriga, keyinchalik qog'ozga yozib qoldirganlar. Xalqlarning hayoti, yuz bergan voqea va hodisalar haqida yozilgan kitoblar mavjud. Yer va qimmatbaho narsalarni in'om qilish, meros qoldirish, sotib olish hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan. Podshoh va hokimlarning yozma shakldagi qonunlari va farmonlari saqlanib qolgan. Bular yozma manbaalar deyiladi.

Ajdodlarimizning miloddan avvalgi VII-VIII asrlardagi hayotini o'rganishda «Avesto» kitobi qimmatli yozma manba hisob-lanadi. Mazkur nodir kitobda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, dastlabki davlat tuzilmalarining shakllanish jarayonlari o'z ifo-da--sini topgan.

«G'aflatda yotgan xalqni uyg'otish uchun, avvalo uning tarixini uyg'otish zarur»-degan edi xristian ilohiyotchisi Avgustin.

Tarix odamlarni uylantiradi, bo'lib o'tgan tarixiy voqea va hodisalarni tahlil qilish, fikrlash

maktablarda, Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida O'zbekiston tarixini o'qitish masalasiga umuman e'tibor berilmadi. Asosiy diqqat e'tibor Rusiya tarixi va jahon va xalqlari tarixini o'rganishga sarflandi. Sho'rolar hokimiyati yillarida mamlakatimizning haqiqiy, tom ma'nodagi Vatan tarixi xolisona yaratilmadi. Maktablar va o'quv yurtlarida o'qitilgan darslik va adabiyotlarda esa ona tariximiz soxtalash-ti-rildi. Masalan: O'rta Osiyoning Rossiyaga qo'shib olinishi va uning «progressiv» ahamiyati, «bosmachilik» harakati va hokazolar. Xuddi shunday sobiq ittifoq tarixiy kitoblarning ko'pchiligida o'zbek xalqining milliy manfaatlari oyoq osti qilindi, ulug' rus millatchiligi katta va ulug' og'a manfaatlari yetakchi mavqeiga ega bo'lib hamma voqea va hodisalar unga bo'ysundirildi. Natijada o'zbek xalqining ma'naviy hayotiga putur yetdi. Xalqning siyosiy ongi o'tmaslashdi, ijtimoiy-siyosiy voqealarga befarqlik loqaydlik hissi kuchaydi. Albatta kommunistik partiya mafkuraviy kurash maydonida yurgizgan ustasi farang siyosatining aks sadosi edi. Chunki mustamlaka asoratiga solingan xalqlarni siyosiy qorong'ulik va zulmatda saqlash yo'li bilangina ular ustidan hukmronlik o'rnatish mumkin. G'oyaviy siyosiy dunyoqarashi uyg'oq imoni-e'tiqodi mustahkam xalqni milliy zulm asoratida saqlash mumkin emas. Shuning uchun ham rus mustamlakachilari qariyib 135 yillik hukmronligi davomida o'lkamiz xalqlari o'rtasida ruslashtirish siyosatini olib bordilar, xalqimizning tarixidan, o'z ona tilidan dinidan judo qilish yo'lini tutdilar. O'zbekistonni markazning xom-ashyo yetkazib beruvchi bazasiga aylantirildi. Bunday siyosat sobiq SSSR hududidagi barcha respublikalarda va sosialistik mamlakat-larda ham yurgizilgan.

Sovetlar hukmronligi davrida tarixiy tadqiqotlar, uni o'qitish va o'rganish ishlari markschalenincha metodologiyaga bo'ysundirili. Har qanday voqeani yoritishga sinfiylik, partiyaviylik nuqtai nazarlaridan yondoshildi. Mamlakat, butun bir xalq tarixi ikkiga-ekspluatator va ekspluatasiya qilinuvchilari quldorlar va qullar, feodallar va qaram dehqonlar, burjuaziya va yollanma ishchilar, boylar va kambag'allar, mulkdorlar va yo'qsillar tarixiga bo'linadi. Boylar va mulkdorlar, ular orasidan chiqqan beklar, amirlar, xonlar, davlat arboblari qoralanadi, nomlari badnom qilinadi. Tarixiy voqea va hodisalar kambag'allarni va yo'qsillarni «himoya» qilgani tarzda, ularning manfaatiga bo'ysundirilgan holda yoritildi.

Din, diniy qadriyatlar qoralandi, insonlarning e'tiqodlari oyoq osti qilindi, ruhoniylar quvg'in qilindi. Buyuk odamlar, allomalar, ma'rifatparvar shoiru-allomalar, yozuvchilar ikkiga-materialistlar va idealistlarga bo'lindi. Dinga e'tiqod qilganlar idealistlar deb ataldi, ularning ijodiy faoliyatini o'rganish chegaralanadi, asarlarni xalqdan yashirildi. Oqibatda ko'pgina tarixiy voqealar soxtalashtirildi, ma'naviy merosimiz, milliy qadriyatlarimiz kamsitildi. Yosh avlodga ularni xurofot, eskilik sarqitlari deb o'rgatildi. Tarix faqat jangu jadal urushlardan iboratdek qilib ko'rsatildi.

Xalqimiz tarixining bu qadar soxtalashtirilishiga faqat marksistik metodologiyaning yaroqsizligi aybdor deyish kifoya qilmaydi, albatta. Bu borada mamlakatda hukmron bo'lgan totalitar tuzumning salbiy roli katta bo'ldi. Tarix fani totalitar tuzum tashviqotchisiga, himoyachisiga, kommunistik mafkura xizmatkoriga aylantirilgan edi.

O'zbekiston tarixi fani ajdodlarimizning yashash uchun kurash, uzluksiz mehnat tufayli takomillashib borish va hozirgi odamlar darajasiga ko'tarilish jarayonini, dini, yozuvi, ilm-fani, adabiyot va san'atini yoritadi. Vatanimiz tarixi o'zbeklarning xalq, millat bo'lib shakllanish jarayonini, ajdodlarimiz qoldirgan boy ma'naviy merosni, davlatlarning tashkil topishi va ularning ichki va tashqi siyosatini o'rgatadi. Vatanimiz tarixi xalqimizning ma'lum bir davrlarda boshqa

17.Qaqysi lavozim ariza va shikoyatlkarni qabul qilib, amirga yetkazgan:
A.ko`kaldosh B.otaliq C.mirshab D.dodxoh
18.Buxoro amirligida tosh-tarozining to`g`riligini kim nazorat qilgan:
A.Shayx-ul-islomB.muxtasib C.qozikalon D.muftiy
19.XVIII-XIX asrlarda O`rta Osiyo xonlikalri qaysi davlat bilan ko`proq tashqi aloqalar olib borgan:
A.Hindiston B.Angliya C.Rossiya D.Xitoy
20.Xiva xonligining asoschisini aniqlang:
A.Shayboniyxon B.Berka sulonC.Elbarsxon D.Abulg`ozixon
21.XVI asr ikkinchi yarmida Xiva xonligida yuz bergan iqtisodiy inqirozning sababini aniqlang:
A.Shayboniyxon bosqini B.Shoh Ismoil bosqini
C.o`zaro urushlar D.Amudaryo o`zanining o`zgarishi
22.Pyotr I ning Xiva xonligiga yuborgan ekspeditsiyasini kim boshqargan:
A.Jenkinson B.Perovskiy C.Bekovich-Cherkasskiy D.Beneveni
23.So`nngi Turkiston general gubernatorini aniqlang:
A.Kuropatkin B.Kaufman C.Chernyayev D.Perfilyev
24.“O’zbekiston XXI asrga intilmoqda” nomli ma’ruza Oliy Majlisning birinchi chaqiriq XIX sessiyasida so’zlangan bo’lib u qachon bo’lgan?
A) **1998** y **26.12** V) **1999** y **14.04** S) **1998** y **14.04** D) **1999** y **26.12**
25.O’zbekiston nechanchi yilda muddati uzaytirilishi lozim bo’lgan yadro qurolini tarqatmaslik to’g`risidagi shartnomani yadro qurolini yo’q qilib tashlash to’g`risidagi shartnomaga aylantirish tarafdori bo’lib chiqdi?
A) **1992**y V) **1993**y S) **1994**y D) **1995**y
26.Prezident I.A.Karimov raisligida O’zbekiston Respublikasi Xavfsizlik Kengashi qachon tuzilgan?
A) **1995** y.may V) **1995** y.aprel S) **1996** y.may D) **1996** y.aprel
27.O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi bobi tashqi siyosat deb nomlangan?
A) **4** V) **3** S) **5** D) **6**
28.O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi moddasida tashqi siyosat haqida so’z boradi?
A) **15** V) **16** S) **17** D) **18**
29.Tashqi iqtisodiy siyosat qonunlarning qabul qilingan yillarini toping.
1.“O’zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy tamoyillari to’g`risida”
a.**2000**y A)**1**-a, **2**-v, **3**-s, **4**-d
2.“Chet el investitsiyalari to’g`risida” v.**1996**y V)**1**-v, **2**-s, **3**-a, **4**-d
3.“Xorijdan mablag` jalb qilish to’g`risida”s.**1998**y S)**1**-s, **2**-a, **3**-d, **4**-v
4.“Tashqi iqtisodiy faoliyat to’g`risida” d.**2000** y D)**1**-d, **2**-s, **3**-v, **4**-a
30.O’zbekiston mustaqilligini nechta davlat tan olgan?
A) **165** V) **170** S) **175** D) **180**

II-VARIANT

1.Buyuk Ipak Yo`li qaysi asrdan boshlanadi:
A.m.av.**3**mimg yiullik B.m.av.I ming yillik C.m.av II asr D.m.av.V asr
2.Islomni qabul qilmaganlar qanday soliq to`lagan:
A.xirojB.zakot C.ushr D.jizya
3.Muqannaning qarorghohini aniqlang:
A.Som qal`asi B.Soqiddin qishlog`iC.Maxuvon qal`asi D.Poykend
4.Tohiriylar sulolasining birinchi vakioli kim:
A.Xalifa Ma`mun B.Tohir ibn Husayn C.Xorun ar-Rashid D.Xalifa Mansur
5.Qachon Movarounnahr butunlay arablardan ozod bo`ldi:
A.IX asr boshi B.IXasr oxiri C.X asr D.VIIIasr
6.Dunyodagi nechtadan ortiq davlatda O'zbekiston elchixonalari ishlab turibdi?
A) **10** V) **20** S) **30** D) **50**
7.O'zbekistonga nechta malakat tomonidan texnikaviy yordam ko'rsatilmoqda?
A) **21** V) **22** S) **23** D) **24**
8.Ayni vaqtda O'zbekistonda nechta mamlakatga qarashli xorijiy firma, bank va kompaniya larning vakolatxonasi ishlamoqda?
A) **20** V) **25** S) **30** D) **35**
9.Ayni vaqtda O'zbekistonda xorijiy firma, bank va kompaniyalarning nechta vakolatxonasi ishlamoqda?
A) **166** V) **177** S) **188** D) **199**
10.O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalar Milliy banki dunyoning nechta yirik bankida vakillik hisobini ochgan?
A) **100** V) **90** S) **80** D) **70**
11.NATO/SEAP tashkilotining 2008 yil aprel oyida bo'lib o'tgan Buxarest sammitida O'zbekiston Prezidenti Afg`oniston masalasida qanday taklifni o'rtaga qo'ygan edi?
a) "**6+2**" guruhini shakllantirish.
b) "**6+2**" guruhini "**6+3**" guruhiga aylantirish.
c) Harbiy yordamni kuchaytirish.
d) Gumanitar yordamni kuchaytirish.
12.O'zbekistonning 1994 yilda tashqi savdo aylanmasi 5 mlrd dollarni tashkil etgan bo'lsa,1998yilda qariyb ...mlrd dollarga yetgan.
A) **7** V) **8** S) **9** D) **10**
13.Jahon banki prezidenti J.Vulfensonning O'zbekistonga tashrifi ...yil 11-13aprel?
A) **2000** V) **2001** S) **2002** D) **2003**
14.Yevropa Tiklanishi va Taraqqiyot banki rahbarligida qachon Toshkentda Xalqaro anjuman o'tkazildi?..yil 5-6 may
A) **2000** V) **2001** S) **2002** D) **2003**
15.Toshkentda BMT vakolatxonasi 1993 yil ...da ish boshladi?
A) fevral V) mart S) may D) avgust
16.BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasi qachon bo'lib o'tgan?
A)**1993** y oktabr V)**1993** y sentabr S)**1995** y oktabr D)**1995** y sentabr

1-MAVZU:
O'ZBEKISTON TARIXI FANINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA MAQSAD-VAZIFALARI

REJA:

1. O'zbekiston tarixining fan sifatidagi o'rni, fanni o'qitishning maqsad va vazifalari. Uning predmeti va o'rganish ob'ekti.
2. O'zbekiston tarixi fanining g`oyaviy-nazariy asoslari va metodologik tamoyillari.
3. O'zbekiston tarixini davrlashtirish masalasi va o'tmishni o'rganishda moddiy va yozma manbalarning o'rni va ahamiyati.
4. Vatan tarixining komil insonni tarbiyalashdagi ahamiyati.

TAYANCH TUSHUNCHA VA IBORALAR:

Fanning predmeti va dolzarb muammolari, xolislik, ilmiylik, tarixiylik, dialektik uslub, moddiy va yozma manbalar.

Milliy istiqlol o'zbek xalqining asriy orzusi, armoni edi. Bu yo'lda ming-minglab vatan yurt fidoiylari aziz jonlarini qurbon qildilar. Milliy mustaqillikni qo'lga kiritilishi katta yutuq, uning qadriga yetish, mustahkamlash, avaylab saqlab qolish, mushkul vazifa. Har qanday mamlakatning qudrati, uning milliy mustaqilligi, davlat chegarlarini daxlsizligi-o'sha mamlakat fuqarolarini o'z yurtiga, mehr-muhabbatli qilib tarbiyalanganlik-lari vatan mustaqilligi va milliy istiqlol uchun kurashda zarur bo'lsa, jon fido qilishga ham tayyor bo'lishdek oliyjanob fazilatga ega bo'lishlariga bog'liqdir. Bu fazilatlarni yurtimiz kelajagi bo'lgan yoshlar ongida qaror toptirish va shakllantirishda Vatan tarixining o'rni va imkoniyatlari cheksizdir.

Tariximiz ildizlari necha-necha ming yilllarga borib taqaladi. O'zbekiston xalqining boy va qadimiy davlatchilik tajribasi bor. Hozirgi O'zbekiston hududida dastlabki mustaqil davlat tuzilmalari miloddan avvalgi birinchi ming yillik boshlaridayoq paydo bo'lib, qariyb 3000 yil davomida takomillashib borgani va dunyo davlatchiligi rivojida eng yuksak darajaga ko'tarilgani jahonga ma'lum.

Vatanimiz tarixi O'zbekiston xalqining jahon tarixi va madaniyati xazinasiga ulkan hissa qo'shganligidan guvohlik beradi. Buyuk bobolarimiz-Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu nasr Farobiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Abu Iso at-Termiziy, Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa yuzlab avlodlarimiz bilan nafaqat o'zbeklar, butun turk dunyosi, qolaversa, butun yer yuzi xalqlari faxrlanmoqdalar.

Tarix-arabcha so'z bo'lib, «tadqiq etish», «tekshirish», «voqealar haqida aniq hikoya qilish» ma'nolarini anglatadi. Tarix insonlar haqidagi, ularning uzoq o'tmishdan bizgacha yetib kelgan hayotiy tajribasi haqidagi fandir.

«O'zbekiston tarixi» fanining predmeti xalqimizning eng qadimgi zamonlardan to hozirgi kunlargacha bosib o'tgan uzoq va murakkab tarixiy yo'lini, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy hayotini xolisona o'rganishdan, tushintirishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini qo'lga kiritilishi natijasida Vatan tarixini hech qanday bo'yoqlarsiz xolisona o'rganish imkoniyatlariga ega bo'ldik. Sovet hokimiyati yillarida kommunistik partiya yurgizgan «ulug' rus saltanati» mafkurasi siyosatini natijasi sifatida

17.1997 yil 15-16 sentabrda Toshkentda ...?
A)Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalariga bag`ishlangan seminar-kengash
V)BMT vakolatxonasi bilan hamkorlikda seminar-kengash
S)“Markaziy Osiyo-yadro qurolidan holi zona” mavzusida xalqaro konferensiya
D)“**6+2**” guruhining navbatdagi uchrashuvi bo’lib o’tdi
18.BMT Bosh kotibi K.Annon ...yil 18-20 oktabrda yurtimizda bo’ldi?
A) **2000** V) **2001** S) **2002** D) **2003**
19.O’zbekiston qachon YeXHTga a’zo bo’lgan?
A) **1992** yil fevral V) **1993** yil fevral
S) **1992** yil aprel D) **1993** yil aprel
20.Toshkentda qachon YeXHTning mintaqaviy byurosi ochilgan?
A)**1995** y iyun V) **1995** y iyul S) **1996** y iyun D) **1996** y iyul
21.YeXHTning 1996 yil dekabrda qayerda sammiti bo’lib o’tgan?
A) Amsterdam V) Jeneva S) Lissabon D) Istambul
22.O’zbekiston NATOning “Tinchlik yo’lida hamkorlik” dasturiga qachon qo’shilgan? 1995 yil
A) yanvar V) mart S) iyul D) avgust
23.Qo’shilmaslik harakatiga nechta davlat birlashgan?
A) **101** V) **105** S) **107** D) **103**
24.1999 yil 18-19 noyabrda YeXHTning oliy darajadagi uchrashuvi qayerda bo’lib o’tgan?
A) Anqara V) Berlin S) Antverpen D) Istambul
25.1999 yil 18-19 noyabrda YeXHTning oliy darajadagi uchrashuvida nechta davlat boshliqlari ishtirok etgan?
A) **51** V) **52** S) **53** D) **54**
26.2000 yil 2 iyunda I.Karimov Oqsaroyda YeXHTning raisi Benito Ferrero-Valdner boshchiligidagi delegatsiyani qabul qilgan.B.F.Valdner qaysi davlat Tashqi ishlar vaziri?
A) Avstriya V) Vengriya S) Germaniya D) Chexiya
27.YuNESKOga nechta davlat a’zo?
A) **193** V) **183** S) **173** D) **163**
28.O’zbekiston qachon YuNESKOga a’zo bo’lgan? 1993 yil 29...
A) dekabr V) noyabr S) oktabr D) sentabr
29.YuNESKOning jahon madaniy qadriyatlari ro’yxatida nechta ob’ekt bor?
A) **411** V) **311** S) **511** D) **211**
30.1994 yil...Toshkentda YuNESKO ishlari bo’yicha O’zbekiston Respublikasi milliy komissiyasi tashkil etildi?
A) dekabrV) noyabr S) oktabr D) sentabr

III-VARIANT

1.O`rta Osiyo m.av.IV asr oxirida qaysi davlat tarkibida bo`lgan:
A.Ahamoniylar B.Salavkiylar C.A.Makedonskiy D.Misr
2.Kushon davlatining asoschisini belgilang:

A.Kanishka B.Xuvishka C.Vasudeva D.Kudzula Kadfiz

3.Buyuk Ipak Yo`li qaysi asrdan boshlanadi:

A.m.av.**3**mimg yiullik B.m.av.I ming yillik C.m.av II asr D.m.av.V asr

4.Islomni qabul qilmaganlar qanday soliq to`lagan:

A.xirojB.zakot C.ushr D.jizya

5.Muqannaning qarorghohini aniqlang:

A.Som qal`asi B.Soqiddin qishlog`iC.Maxuvon qal`asi D.Poykend

6.Tohiriylar sulolasining birinchi vakioli kim:

A.Xalifa Ma`mun B.Tohir ibn Husayn C.Xorun ar-Rashid D.Xalifa Mansur

7.Qachon Movarounnahr butunlay arablardan ozod bo`ldi:

A.IX asr boshi B.IXasr oxiri C.X asr D.VIIIasr

8.Qoraxoniylar davlati poytaxtini aniqlang:

A.Balx B.Termiz C.Buxoro D.Bolosog`un

9.Qachon va necha yoshda Bobur taxtga o`tirdi:

A.**12**yosh-**1494**yil B.**12**yosh-**1492**yil C.**12**yosh-**1491** D.**12**yosh-**1495**yil

10.1994 yilda tashkil etilgan Toshkentdagi YuNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy komissiyasiga necha kishi a'zo bo'ldi? A)**50** V) **49** S)**40** D)**39**

12.YuNESKOning Markaziy Osiyo tarixini tadqiq qilish xalqaro instituti 1995 yil qaysi shaharda tashkil etildi?

A) Toshkent V) Xiva S) Buxoro D) Samarqand

13.1998 yil 6 noyabr kuni Parijda ochilgan Yunesko Ijroiya kengashining 155 sessiyasining yakunlovchi majlisi qaysi shaharda bo'lib o'tgan?

A) Toshkent V) Xiva S) Buxoro D) Samarqand

14.Markaziy Osiyo tarixini tadqiq qilish institutini kim tantali tarzda ochgan?

A) I.Karimov V) F.Mayor S) P.Patoki D) K.Matsuuru

15.2010 yilning11-14 iyun kunlari sodir bo'lgan qanday fojiali voqealar Markaziy Osiyo mintaqasidagi vaziyatning izdan chiqishi xavfini tug`dirdi?

a) Qirg`iziston janubida sodir bo'lgan qonli va shafqatsiz voqealar.

b) Afg`onistonda **30** yildan buyon davom etayotgan harbiy harakatlar.

c) Pokistonda yuz bergan qo'poruvchilik harakatlari.

d) Hamma javoblar to'g`ri.

16.Keyingi qirq yilda Orol dengizi bilan bog`liq qanday salbiy o'zgarishlar sodir bo'ldi?

a) Orol bo'yida murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va demografik muammolar paydo bo'ldi.

b) Orol dengizi akvatoriyasi **7** barabar qisqardi, suv hajmi **13** marta kamaydi.

c) Orol dengizi akvatoriyasi **5** barabar oshdi va suv hajmi **3** martaga ko'paydi.

d) Barcha javoblar to'g`ri.

17.AQSh da ...yilning fevralida Buxoro kunlari bo'lib o'tgan?

A) **2000** V) **2001** S) **2002** D) **2003**

18.1991 yil 21 dekabrda qayerda MDH tuzish to'g`risidgi bitimga 8 davlat ham imzo qo'ygan?

A) Ashgabod V) Minsk S) Almati D) Toshkent

19.1993 yil MDH ga qo'shilgan davlat?

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
"IJTIMOIIY FANLAR"
KAFEDRASI

"O'ZBEKISTON TARIXI"

fanidan I-kurs talabalari uchun

MA'RUZALAR MATNI

106. Tursunov I.I. O'zbekiston maorifchilarining istiqlol yo'lidagi ishlari tarixidan. (**1917-1939**y.).-T.: **1995**.
107. Usmon Turon. Turkiy xalqlar mafkurasi.-T.: «CHo'lpon», **1995**.
108. Usmonov Q, Faniyev D. O'zbekiston: mustaqillik odimlari.T.: **1995**.
109. Usmonov Q. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi. -T.: Moliya, **2003**.
110. Usmonov Q v.b. O`zbekiston tarixi. (notarix fakulteti talabalari uchun darslik) T.: "Iqtisod-moliya", **2006**.
111. Uvatov U. Donolardan saboqlar.-T.: «Abulla qodiriy», **1994**.
112. Valixujayev B. Xuja Axror tarixi. -T.: YOzuvchi, **1994**.
113. Vamberi X. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. T: «Fan», **1990**.
114. Vatan tuyg'usi. T., «O'zbekiston», **1996**.
115. Xasan Ato Abushiy. Turkiy qavmlar tarixi.-T.: «CHo'lpon», **1994**.
116. Xasaniy M. Turkiston boskini. -T.: Nur, **1992**.
117. Xasanov M. Fayzulla Xo'jayev.-T.: «O'zbekiston», **1990**.
118. Xaydarov M., Rajabov K. Turkiston tarixi. -T., Universitet, **2002**.
119. Xo'jayev Fayzulla. Tanlangan asarlar.-T.: «Fan», **1976**, **1**-jild, **82-101** betlar.
120. Xodjiyev T.K., Xodjiyeva G. O'zbek xalqining etnik tarixidan. T.: Universitet, **1995**.
121. YAzdiy SH. Zafarnoma. -T.: Sharq, **1997**.
122. Yuldoshov M. Xiva xonligida yer egaligi va davlat tuzilishi. T., **1959**.
123. YUnusova X.E. O'zbekistonda sovet davlatining milliy siyosati va uning okibatlari (XX asr **80**-yillari misolida). -T., Zar qalam, **2005**. **7**, **75**.
124. YUsuf Xos Xojib. Kutadgu bilig. -T.: YUlduzcha, **1990**.
125. YUsupov E. Istiqlol yo'lida.-T.: «Fan», **1996**.
126. Zaki Validi. O'zbek urug'lari.-T., **1992**.
127. Ziyesv X. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash.T., **1998**.
128. Ziyo Kukalp. Turkchilik asoslari.-T., **1994**.
129. Ziyoev H. Z. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. T.. «Sharq»,**1998**.
130. Ziyoev X. O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi - T., Sharq, **2001**.

O'ZBEKISTON TARIXI FANIGA OID SAYTLAR:

www.ziyonet.uz-O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi oily va o`rta maxsus ta`limi vazirligining barcha mavzudagi ma`lumotlar electron bazasi.
www.tdpu.uz-Toshkent davlat pedagogika universiteti sayti.
www.literature.uz-adabiyot sayti.
www.pedagog.uz-pedagogika mavzusidagi sayt.
www.o'zbekistan.uz-O'zbekiston buyuk kelajak sari.
www.mfa.uz-O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar Vazirligining maxsus sayti. Saytda davlatimizning xalqaro aloqalari to'g'risidagi ma'lumotlar jamlangan.
www.press-service.uz- Prezidentimizning asarlari jamlangan sayt.
www.gov.uz-portal pravitelstva Respubliki O'zbekistan.
www.natlib.uz **/turk/**-Turkestanskiy sbornik.
history.uzsci.net-Tarix institutining "O'zbekiston tarixi" nomli jurnali.
ula.uzsci.net-Jurnal: Nauka i obrazovaniye O'zbekistana.
www.ref.uz-referatlr to`plami sayti.
www.ilm.uz-O`zbekiston tarixining qadimgi davridan hozirgi davrgacha bo`lgan tarixi yoritilgan qisqacha ma`lumotlar bazasi.

A) Armaniston V) Gruziya S) Ozorboyjon D) Moldova

20. Qaysi javobda MDH davlat boshliqlarining Kishinyovda o'tkazgan kengashning sanasi to'g`ri berilgan?

A)**1996** y **17** may V)**1997** y **28** mart S)**1997** y **23** oktabr D)**1998** y **29** aprel

21. Qaysi javobda I.Karimov boshchiligidagi O'zbekiston Respublikasi delegatsiyasining Rossiyaga davlat tashrifi bo'lmagan sa'na berilgan?

A) **1991** y **26** oktabr V) **1992** y **30** may

S) **1994** y **2** mart D) **1995** y **27** iyun

22.Prezidentimiz tomonidan jafokash afg`on zaminida tezroq tinchlik qaror topishi uchun qanday taklif ilgari surildi?

Jahon hamjamiyati, avvalambor iqtisodiy-moliyaviy, ijtimoiy-gumanitar yordam ko'rsatishi va bu ishlarning barchasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti rahnamoligida amalga oshirilishi zarur.

Jahon hamjamiyati tomonidan iqtisodiy-moliyaviy o'rdam ko'rsatish va bu ishlarni Afg`onistonga qo'shni bo'lgan mamlakatlar yordamida amalga oshirish.

Jahon hamjamiyati tomonidan ijtimoiy-gumanitar yordam ko'rsatish va bu ishlarning barchasini rivojlangan mamlakatlar yordamida amalga oshirish.

Faqat Osiyo mamlakatlari orqali iqtisodiy-moliyaviy ko'makni amalga oshirish.

23.Ukrainaning Lvov shahri va O'zbekistonning qaysi shahri o'rtasida hamkorlik to'g`risida me'morandum imzolangan?

A) Toshkent V) Xiva S) Buxoro D) Samarqand

24.T.Shevchenko nomidagi Kiyev Milliy Universiteti O'zbekistonning qaysi oliy o'quv yurti bilan hamkorlik to'g`risida shartnoma imzolagan?

A) Milliy Universiteti V) Texnika Universiteti S) Pedagogika Universiteti D) Jahon tillari Universiteti

25.1995 yil 30-31 mart kunlari I.Karimov qaysi davlatga rasmiy safarda bo'ldi?

A) Moldova V) Belorus S) Ukraina D) Gruziya

26.1996 yil 12 mayda Ashgabadda 4 ta davlat rahbarlari uchrashuvida ishtirok etmagan davlatni toping?

A) Gruziya V) Ozarbayjon S) Armaniston D) Turkmaniston

27.O'zbekiston Prezidenti qaysi davlatning Poti bandorgohi imkoniyatlaridan foydalanish masalasi bo'yicha ahdlashib olgan?

A) Gruziya V) Ozarbayjon S)Armaniston D) Turkmaniston

28.1997 yil Toshkentda qaysi davlat elchixonasi ochilgan?

A) Gruziya V) Ozarbayjon S)Armaniston D) Turkmaniston

29.Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining birinchi uchrashuvi 1990 yil iyunda qayerda bo'lgan?

A) Almati V) Toshkent S) Ashgabot D) Qizil O'rda

30.BMTning amaldagi Bosh kotibi bu-

A)Janob Kofe Anand B)Angela Merkel
C)Nikola Sarkazi D)Janob Pan Gi Mun

69. O’rta Osiyo xalqlari hurfikrligi tarixidan.-T.: «Fan», **1990**
70. O’zbegim. «Vatan» seriyasi.-T., **1992**.
71. O’zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari -T.: Sharq, **2001**.
72. O’zbekiston Respublikasi: Mustaqil davlatning bunyod bo’lishi. -T.: O’zbekiston, **1992**.
73. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: «O’zbekiston», **2011**.
74. O’zbekiston tarixi va madaniyati. T., **1992**.
75. O’zbekistonning milliy istiqlol mafkurasi.T: O’zbekiston, **1993**.
76. O’zbekistonning yangi tarixi. **2**-jild. Sovet mustamlakachiligi davri. T.,**2000**.
77. Ogaxiy Muxammadrizo. SHoxid ul-iqbol. -T., **2009**.
78. Polvonov N., Kushjonov O. Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va xarakatlar. -T., Abu mat-buot consalt, **2007**. **24** b.t.
79. Polvonov N.T. Istoriya sotsialnыx dvijeniy i politicheskix partiy Xorezma (**1900-1924**). -T.: Akademnashr, **2011**. -S.**105**.
80. Polvonov N.T. O’zbekistonda ijtimoiy xarakatlar va siyosiy partiya tarixi (Xorazm misolida). -T., Universitet, **2007**, **5**,**75** b.t.
81. Polvonov N.T. Xorazmdagi ijtimoiy xarakatlar va siyosiy partiyalar tarixi (**1900-1924**). -T.: Akademnashr, **2011**. -B.**108**.
82. Qilichev T. Ko’hna qal’alar diyori. T., «Fan», **1993**.
83. Qosimov B. Ismoilbek Gasparali.-T., **1992**.
84. Rasulov A. Turkiston va Volgabuyi, Uraloldi xalqlari o’rtasidagi munosabatlar (**1917-1924** yy.). -Toshkent. Universitet, **2005**. - B. **199**.
85. Rtveladze E.V Velikiy shelkoviy put.-T., **1999**.
86. Sagdulayev AS. qadimgi O’zbekiston ilk yozma manbalarda.-T., **1996**.
87. Sagdullayev A.S. va boshq. O’zbekiston tarixi: davlat va jamiyat qurish taraqqiyoti. T., **2000**.
88. Shamsutdinov R, Karimov Sh. O’zbekiston tarixi materiallari. Andijon. **2004**.
89. Shamsutdinov R. Qishloq fojeasi: jamoalashtirish, quloqlashtirish, surgun. T., **2004**.
90. SHarafiddinov O. Istiklol fidoiylari. -T.: CHo’lpon, **1993**.
91. SHarifxujayev M., Raximov F. Davrni belgilar bergan inson. -T.: Sharq, **2004**.
92. Sharofiddin YAzdiy. Zafarnoma.-T.: «SHarq», **1997**.
93. SHixobiddin Muxammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsilotlari. -T.: YO-zuvchi, **1999**.
94. SHoniszov K. qang’ davlati va qangliklar. T, «Fan», **1990**.
95. SHoniyozov K. O’zbek xalqining etnogsneziga oid ba’zi nazariy masalalar O’zbekistonda ijti-moiy fanlar.-№**6**.-**1998**.
96. Shoniyozov K.O’zbek xalqining shakllanish jarayoni T., Fan, **2001**.
97. Sobirov K. Xorazm qishloq va shaharlari mudofaa inshootlari (mil.avv. VI asrdan miloddiy IX asrgacha). -T., Fan, **2009**.
98. Sodiqov M, Erksevar, hurriyatparvar al vorislarimiz.-T.: «Kamalak», **1992**.
99. Sodiqov X., SHamsutdinov R., Ravshanov P., Usmonov Q. O’zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. T.:SHarq, **2000**.
100. Sulaymonova F. Sharq va Garb. -T.: O’zbekiston, **1997**.
101. Temur tuzuklari. -T.: Gafur Gulom, **1991**.
102. Temur va Ulug’bek davri tarixi.-T., qomuslar bosh tahririyati, **1996**.
103. Temur va Ulugbek davri tarixi. -T.: Qomuslar bosh taxririyati, **1996**.
104. To’xliyev N. O’zbekiston iqtisodiyoti (savollar va javoblar).-T.: «O’zbekiston». **1991**
105. Tohir Qahhor. Xur Turkiston uchun.-T.: «CHo’lpon», **1994**.

26. Axmedov B. Sohibqiron Temur (hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati). -T.: Fan, **1996**.
27. Axmedov E. O'zbekiston shaharlari. T.: O'zbekiston. **1998**.
28. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi.T: Sharq, **2000**.
29. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: «Sharq», **1997**.
30. Bayoniy M.YU. Shajarai xorazmshohiy. T.,**1994**.
31. Bobobekov X. Qo'qon tarixi. T., **1996**.
32. Bobur Z.M. Boburnoma. -T.: Fan, **1960**.
33. Buniyotov **3**. Anushtegin Xorazmshoxlar davlati (**1097-1231**). -T.: Gafur Gulom, **1998**.
34. Buyuk siymolar, allomalar. (**1** kitob).-T.: "Meros", **1995**
35. Buyuk siymolar, allomalar. (**2** kitob).-T.: "Meros", **1996**
36. Ermetov A.A. Turkiston nazorat organlari faoliyati. Abu matbuot Koshak T., **2007**.
37. Eshov B. Qadimgi davlatchilik va urbanizatsiya (tarixiy lavxalar). -T.: Mumtoz so'z, **2010**.
38. Eshov B. So'g'diyona tarixidan lavhalar. T., **2002**.
39. Eshov B.J. sivilizatsiya tizimida ilk shaharlar. Toshkent, Zar qalam, **2004**.
40. Fozilbek Og'abek o'g'li. Dukchi Eshon fojiasi.-T.; «CHo'lpon», **1992**.
41. G'ofurov **3**., Toshev S. Mustaqillikning ma'naviy zaminlari. qarshi, **1994**.
42. G'ulomov S., Usmonov Q. Mustaqillik O'zbekistonga nima berdi. T., **2000**.
43. G'ulomov YA. K.adimgi madaniyatimiz izlaridan.-T., «Fan», **1960**.
44. Ibrat I. Farg'ona tarixi. T., **1991**.
45. Ibrohim Karim. Madaminbek.-T.: «Yozuvchi», **1993**.
46. Ibroximov A. Biz kim o'zbeklar -T.: Sharq, **2000**.
47. Jabborov I. O'zbek xalqining etnografiyasi.T:«O'zbekiston» **1994**.
48. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. T.: Universitet, **1999**.
49. Jo'rayev U., Saidjonov I. Dunyo dinlari tarixi.-T., «SHarq.», **1998**, Ipak yo'li afsonalari. T.: «Fan», **1993**.
50. Karimov SH., SHamsuddinov R. Turkiston Rusiya bosqini davrida.-Andijon: «Meros», **1995**.
51. Qoraqalpog'iston tarixi (**1917-1994** yy.). Nukus, **1995**.
52. Kurbonov I. Qatagon qurbonlari. -T.: O'zbekiston, **1992**.
53. Levitin L. O'zbekiston tarixiy burilish pallasida. -T.: O'zbekiston, **2001**.
54. Ma'naviyat yulduzlari. -T.: Meros, **2001**.
55. MahmudovM. Barhayotsiymolar (qatag'onqurbonlarihaqidalavhalar). T: «O'zbekiston», **1991**.
56. Maxkamova N. Sotsialnaya struktura obshestva na territorii O'zbekistana: traditsii i transformatsii (konets XIX v. - **30**-e годы XX v.). -T.: Aloqachi, **2009**. -S **236**.
57. Mirzo Ulugbek. To'rt ulus tarixi. -T.: CHo'lpon, **1994**.
58. Mo'minov I. Amir Temurning O'rta Osiyo xalqlari tarixida tutgan o'rni va roli. T.: Fan, **1993**.
59. Muhammadjanov A. Amir Temur va temuriylar davri. T.: Fan, **1991**.
60. Muhsin Umarzoda. Avesto sirlari jahon adabiyoti-№**4** –**1997**.
61. Muminov I. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan urni va roli. -T.: Fan, **1993**.
62. Murtazayeva R.X. Tolerantnost kak integriruyushiy faktor v mnogonatsionalnom O'zbekistane. T.: O'zbekistan, **2010**.
63. Mustaqillik izoxli ilmiy-ommabop lugati. -T.: Sharq, **2009**.
64. Muxammadjonov A. Temur va temuriylar davri. -T.: Fan, **1996**.
65. Narshahiy M. Buxoro tarixi. «Meros» turkumi. T., "Kamalak", **1991**.
66. Nasimxon R. Turk xoqonligi. -T.: Meros, **1993**.
67. Nizomul mulk. Siyosatnoma. -T.: Adolat,**1997**.
68. O'lmas obidalar.-T.: «Fan», **1989**.

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
"IJTIMOIIY FANLAR"
KAFEDRASI

"O'ZBEKISTON TARIXI"

fanidan I-kurs talabalari uchun

NAZORAT SAVOLLARI

I-ORALIQ NAZORAT SAVOLLARI

1. “O’zbekiston tarixi” fani predmeti va uni o’rganishning ahamiyati.
2. Markaziy Osiyo hududida ibtidoiy jamoa tuzumi, uning tarixiy bosqichlari.
3. O’zbek xalqining etnik shakllanishida ishtirok etgan urug’ va qabilalarning o’rni.
